ILMIY AXBOROTNOMA * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

№ 6, 2025

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 6, 2025

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 6, 2025

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Abdullayeva Muslimaxon Muzaffarxon qizi
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: abdullayevamuslima187@gmail.com

IKKI TILDA TA’LIM OLISHNING SHAXS KOGNITIV RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ikki tilda ta’lim olishning o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga ta’siri haqida ilmiy mushohada yuritilgan. Maqola doirasida ikki tillilikning diqqat, xotira, tafakkur, ijodkorlik, metakognitsiya, tanqidiy fikrlash kabi kognitiv funksiyalar rivojiga ta’siri yoritilgan. Tadqiqotlar asosida ikki tilli ta’lim muhitida o‘qiyotgan o‘quvchilarning intellektual faolligi, moslashuvchanlik darajasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari va muloqot madaniyati bir tilda ta’lim olayotgan tengdoshlariga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *ikki tillilik, ta’lim, kognitiv rivojlanish, tafakkur, xotira, diqqat, ijodkorlik, metakognitsiya, tanqidiy fikrlash, muloqot, intellektual faollik.*

ВЛИЯНИЕ ОБУЧЕНИЯ НА ДВУХ ЯЗЫКАХ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье проводится научное рассуждение о влиянии двуязычного образования на когнитивное развитие учащихся. В рамках статьи освещается воздействие двуязычия на развитие таких когнитивных функций, как внимание, память, мышление, творчество, метакогниция и критическое мышление. На основе исследований установлено, что интеллектуальная активность, уровень адаптивности, навыки решения проблемных ситуаций и культура общения учащихся, обучающихся в двуязычной образовательной среде, выше, чем у их сверстников, получающих образование на одном языке.*

Ключевые слова: *билингвизм, образование, когнитивное развитие, мышление, память, внимание, творчество, метапознание, критическое мышление, коммуникация, интеллектуальная активность.*

THE IMPACT OF BILINGUAL EDUCATION ON AN INDIVIDUAL'S COGNITIVE DEVELOPMENT

Abstract. *This article presents a scholarly reflection on the impact of bilingual education on a student's cognitive development. The article explores the influence of bilingualism on the development of cognitive functions such as attention, memory, thinking, creativity, metacognition, and critical thinking. Based on research findings, it has been determined that students studying in a bilingual educational environment demonstrate higher levels of intellectual activity, adaptability, problem-solving skills, and communication culture compared to their peers receiving education in a single language.*

Keywords: *bilingualism, education, cognitive development, thinking, memory, attention, creativity, metacognition, critical thinking, communication, intellectual activity.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ikki tilda ta’lim berish tajribasi inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki tilda ta’lim olish nafaqat til kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki shaxsning kognitiv rivojlanishiga, ya’ni tafakkur, diqqat, xotira, idrok kabi psixik funksiyalarning shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada ikki tilda ta’lim olishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta’siri psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Globallashuv davrida ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘zlashtirish va ikki tilda ta’lim olish shaxsning kognitiv salohiyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga sifatli ta'lim berish, ularning bilim va ko'nikmalarini global darajaga olib chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari alohida e'tiborga molik: "Bugungi kunda biz yoshlarga berayotgan bilim va tarbiyaning mazmun-mohiyati ularni kelajak hayotga tayyorlashga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv, innovatsion fikrlash va xorijiy tillarni chuqur o'rgatish orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishimiz zarur."[1] Shuningdek, davlat rahbari quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim," – dedi Shavkat Mirziyoyev[2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ikki tilda ta'lim olish nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantiradi, balki shaxsning kognitiv jarayonlari idrok, diqqat, xotira, tafakkur kabilarining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki tilda ta'lim olgan shaxslar bir tilda o'qigan tengdoshlariga nisbatan ko'proq moslashuvchanlik, ijodkorlik va analitik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishadi. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, til shaxs rivojida markaziy rol o'ynaydi. Til vositasida tafakkur shakllanadi va ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi. Demak, ikki tilda ta'lim olayotgan o'quvchi ikki xil madaniy-kognitiv kontekstda fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, uning tafakkur doirasini kengaytiradi va metakognitiv qobiliyatlarini kuchaytiradi. Chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, bilingvistik shaxslar bir tilliklarga nisbatan ko'proq diqqatni boshqarish, informatsiyani tezda qayta ishlash va muammolarni turli nuqtayi nazardan hal qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bu farqlar ko'p hollarda frontal korteks faoliyatining yaxshilanishi bilan izohlanadi. Ikki tilda o'qitishning samaradorligi shuningdek, tanlangan metodika va muhitga ham bog'liq. Konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'z bilimlarini faol tarzda qurishiga, mustaqil fikrlashiga va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Stanford-Binet aql o'lchov shkalasida o'tkazilgan test natijalarida qishloq joylardagi bilingval bolalarning IQ ko'rsatkichlari barcha yosh guruhlarida past bo'lgan. Bu farq yosh o'tishi bilan yanada oshgan. Muallif bu holatni bilingval bolalarda yuzaga kelgan "aqliy chalkashlik" sifatida izohlagan. Biroq, keyingi tahlillar ushbu tadqiqotda va boshqa dastlabki tadqiqotlarda metodologik xatoliklar mavjudligini ko'rsatgan:

a) Solishtirilayotgan guruhlar yosh, jins, ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'yicha tenglashtirilmagan;

b) Test faqat bir tilda (odatda L2) o'tkazilgan, lekin bilingval bolalarning bu tilni tushunish va ishlatish darajasi turlicha bo'lgan;

c) Bilingvalizm aniq belgilab olinmagan, bolalar faqat ota-onasining ismi yoki tug'ilgan joyi asosida bilingval deb qabul qilingan.

Darsiy (1953; 1963) kabi tahlilchilar dastlabki salbiy natijalarni aynan mana shu metodologik kamchiliklar bilan izohlagan. Ularning fikricha, bilingvalizm og'zaki intellekt testlarida natijalarni pasaytirishi mumkin, lekin nutqga aloqador bo'lmagan testlarda monolingval va bilingval bolalar o'rtasida sezilarli farq yo'q. Bu kuzatuv bilingvalizmning kognitiv foydalari borligini ko'rsatishga zamin yaratgan va avvalgi salbiy stereotiplardan chetlashishga olib kelgan.[3]

Bizning tadqiqotimizda Farg'ona viloyatidagi 8–11 yoshli bir tilli va ikki tilli boshlang'ich maktab o'quvchilari ishtirok etishdi. Jami 112 nafar o'quvchi (56 nafar bir tilli va 56 nafar ikki tilli) tanlab olindi. Ularning aql darajasi va ijtimoiy holati bir xil bo'lishi ta'minlandi. Bir tillilar faqat o'zbek tilida, ikki tillilar esa o'zbek va rus tillarida ravon bo'lishi kerak edi. Ikki guruh ishtirokchilari

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyev, 2021-yil 29-dekabr, Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4856

[2] 2021-yil 6-may kuni bo'lib o'tgan video selektor yig'ilishi. https://president.uz/oz/lists/view/4327

[3] (Barac, R., Bialystok, E., Castro, D. C., & Sanchez, M. (2014). The Cognitive Development of Young Dual Language Learners: A Critical Review. Early Childhood Research Quarterly, 29(4), 699–714. https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2014.02.003

Ravenning rangli progressiv matritsalar (RCPM) testi orqali solishtirildi. 90 balldan past natija ko‘rsatgan o‘quvchilar tadqiqotdan chiqarib tashlandi. Testlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar har bir o‘quvchiga alohida, moslashtirilgan sinf xonalarida berildi. Viskonsin karta saralash testi (WCST) — bu odamning fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati, diqqatni jamlashi va yangi vaziyatlarga moslasha olishini tekshiradigan test. Bu testni Berg va Grant ishlab chiqqan. Testda 64 ta karta bor. Har bir kartada 1 dan 4 tagacha shakl (plus, uchburchak, yulduz, doira), 4 xil rangda (ko‘k, qizil, yashil, sariq) bo‘ladi. O‘quvchi kartalarni shakl, rang yoki soniga qarab tartiblashi kerak. Keyinchalik bu qoida o‘zgaradi, va o‘quvchi yangi qoidaga moslasha olishi kerak bo‘ladi. Bu test odamning aqliy moslashuvchanligini va boshqaruv funksiyalarini baholashda eng muhim testlardan biri hisoblanadi. Testning ishonchliligi juda yuqori — 0.83 deb baholangan. Kompyuterlashtirilgan Stroop rangi va so‘zi testi (SCWT) — bu testni olim Ridley Stroop ishlab chiqqan bo‘lib, u orqali odamning diqqatni tanlab olish, noto‘g‘ri javobni to‘xtata olish va aqliy moslashuvchanlik kabi kognitiv qobiliyatlari baholanadi. Test uch bosqichdan iborat:1. Rangni tanish bosqichi — ekranda har xil rangdagi kvadratlar (ko‘k, yashil, sariq, qizil) ko‘rsatiladi. Ishtirokchi klaviaturadagi tegishli tugma orqali kvadratning rangini tanlashi kerak. 2. So‘zlarni o‘qish bosqichi — ekranda rangli so‘zlar chiqadi, ishtirokchi ularning rangini aniqlab, klaviaturadagi to‘g‘ri tugmani bosishi kerak (so‘zning ma’nosiga emas, rangiga qaraydi). 3. Asosiy bosqich — 50 ta mos (masalan, “qizil” so‘zi qizil rangda yozilgan) va 50 ta nomos (masalan, “qizil” so‘zi yashil rangda yozilgan) so‘zlar ekranda tasodifiy tarzda ko‘rsatiladi. Ishtirokchi faqat so‘zning rangiga e’tibor berib, ma’nosini e’tiborga olmasligi kerak. Bu test qayta tekshirish (re-test) usuli orqali sinab ko‘rilgan va ishonchliligi 0.80 dan 0.91 gacha baholangan. Test aqliy diqqat va boshqaruv qobiliyatlarini baholashda keng qo‘llaniladi.

Kim Karad vizual xotira testi (KKVMT) — bu test yordamida qisqa va uzoq vaqtli ko‘zga oid xotira tekshiriladi. Testda 20 ta uy bor va har bir uyda rangli rasm bor. Ishtirokchi bu rasmlarga bir daqiqa qaraydi. So‘ngra unga bo‘sh uylar va rasm kartochkalari beriladi. Ishtirokchi kartochkalarni asl rasmlar joylashgan tartibda joylashtirishi kerak. Agar rasm to‘g‘ri joyga qo‘yilsa, 1 ball, noto‘g‘ri tomonga qarasa, 0,5 ball oladi. Wechsler raqamlarni eslab qolish testi (WDST) — bu test bolalar uchun mo‘ljallangan Wechsler intellekt testlaridan biri bo‘lib, qisqa muddatli xotirani, diqqatni, tovushlarni ketma-ket eslab qolish va ularni takrorlash qobiliyatini o‘lchaydi. Testda ishtirokchi tinglagan raqamlarni to‘g‘ri tartibda eslab qolishi va takrorlashi kerak. Raqamlar 3 dan 9 tagacha bo‘ladi. Agar biror bosqichdagi ikkita urinishda ham noto‘g‘ri javob bersa, test to‘xtatiladi. Ikkinchi bosqichda ishtirokchi raqamlarni teskari tartibda (masalan, 8 dan 2 gacha) takrorlashi kerak. Agar bu bosqichda ham ikkita urinishda noto‘g‘ri javob bersa, test to‘xtaydi. Har bir bosqichdan maksimal 16 ball olinadi, umumiy ball esa 32 ga teng. Testning ishonchliligi juda yaxshi bo‘lib, qayta sinashda (re-test) 0.81 deb baholangan. Raven rangli progressiv matritsalar testi (RCPM) — bu testda 60 ta shakl beriladi, ulardan biri to‘liq emas. Ishtirokchi bo‘sh joyga mos keladigan shaklni topishi kerak.1947 yilda Raven bu testning rangli variantini ishlab chiqgan. Bu test 5–11 yoshdagi bolalar va aqliy qiyinchiliklari bo‘lgan kattalarni aqliy qobiliyatini o‘lchash uchun ishlatiladi.Testda 36 ta geometrik shakl bor, ularni 3 ta guruhga bo‘lishgan (har birida 12 ta shakl). Har bir shaklda 6 ta variant bor va bola bo‘sh joyga to‘g‘ri keladigan shaklni tanlaydi. To‘g‘ri javobga 1 ball, noto‘g‘ri javobga 0 ball beriladi. Maksimal ball 36 ta.Testning ishonchliligi yaxshi bo‘lib, qayta sinov natijalari 0.71 dan 0.91 gacha bo‘lgan.

Avvalo, ikki guruhning intellekt darajasi farqini tekshirish uchun mustaqil t-test ishlatildi (1-jadvalda ko‘rsatilgan). 2-jadvalda tadqiqot o‘zgaruvchilarining tavsifiy statistikasi berilgan. 3-jadvalda ikki guruh o‘rtasidagi farqlar baholangan 4-jadvalda esa, monolingual va bilingual bolalardagi ijro funksiyalari, diqqat tanlovchanligi, qisqa muddatli ko‘zga oid va eshitishga oid xotira qismalari solishtirildi.

1-jadval. O‘quvchilarning intellekt darajasi bo‘yicha markaziy va tarqalish ko‘rsatkichlari

Guruh	O‘rtacha ± SD	Soni	T	Df	P
Bir tilli	104.21 ± 16.58	56	-1.31	110	0.19
Ikki tilli	105.82 ± 16.33	56			
Umumiy	105.01 ± 16.58	112			

Eslatma: Bu jadval o‘quvchilarning aql darajasi (IQ) bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. P > 0.05 bo‘lganligi sababli, bir tilli va ikki tilli bolalar o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi.

2-jadval. Boshqaruv funksiyalari, selektiv e’tibor, qisqa muddatli vizual xotira va eshituv xotirasi

O‘zgaruvchilar	Bir tilli	Ikki tilli	Umumiy
Tugallangan toifalar soni	5.34 ± 0.97	5.68 ± 0.60	5.51 ± 0.82
Kontseptual darajadagi javoblar (%)	100.00 ± 0.00	100.00 ± 0.00	100.00 ± 0.00
Qaytariluvchi xatolar	2.04 ± 1.79	1.52 ± 1.30	1.78 ± 1.58
1 toifani tugatish uchun urinishlar	8.36 ± 2.74	7.25 ± 1.16	8.00 ± 2.87
To‘g‘ri javoblar soni	41.36 ± 3.04	41.43 ± 2.97	41.39 ± 3.00
Umumiy xatolar soni	13.41 ± 4.05	12.38 ± 2.93	12.89 ± 3.56
Urinishlar soni	54.77 ± 5.65	53.80 ± 4.68	54.29 ± 5.27
Qaytarilmaydigan xatolar	11.38 ± 3.04	10.86 ± 2.60	11.12 ± 2.83
Toifani saqlay olmaslik	0.30 ± 0.46	0.00 ± 0.00	0.15 ± 0.36
Kontseptual javoblar	6.00 ± 0.00	6.00 ± 0.00	6.00 ± 0.00
1-xatolik	0.41 ± 0.56	0.28 ± 0.49	0.34 ± 0.53
1-to‘g‘ri javob	46.78 ± 1.38	47.05 ± 1.28	46.91 ± 1.33
1-marta eslab qolish vaqti	1079.23 ± 163.79	1054.16 ± 103.79	1066.57 ± 150.74
2-xatolik	0.98 ± 1.32	0.53 ± 0.68	0.75 ± 1.07
2-to‘g‘ri javob	43.55 ± 4.92	45.46 ± 2.50	44.50 ± 4.00

2-marta eslab qolish vaqti	1125.98 ± 180.55	1109.42 ± 181.38	1117.70 ± 180.34
Qisqa muddatli vizual xotira	5.91 ± 1.64	7.74 ± 2.12	6.86 ± 2.08
Qisqa muddatli eshituv xotirasi	16.87 ± 2.60	20.69 ± 2.99	18.78 ± 3.39

3-jadval. **Ikki guruh o‘rtasidagi farqlarni baholash uchun ko‘p o‘zgaruvchili dispersiya tahlili (MANOVA) qo‘llanildi.**

Ta'sir (Effekt)	Qiymat	F	Gipoteza df	Xato df	Sig.	η^2
Pillai’s trace	0.37	3.82	15.00	96.00	0.00	0.37
Wilk’s Lambda	0.62	3.82	15.00	96.00	0.00	0.37
Hotelling‘s trace	0.59	3.82	15.00	96.00	0.00	0.37
Roy’s largest root	0.59	3.82	15.00	96.00	0.00	0.37

Izoh: MANOVA – Multivariate Analysis of Variance, ya’ni Ko‘p o‘zgaruvchili dispersiyani tahlil qilish

4-jadval. Ikkita guruh o‘rtasidagi farqni o‘rganish uchun subyektlararo ta’sirlarni tekshirish

Komponentlar	III turdagi kvadratlar yig‘indisi	Df	O‘rtacha kvadrat	F	Sig.	η^2
Bajarilgan toifalar soni	3.22	1	3.22	4.78	0.02	0.04
Konseptual javoblar foizi	0.00	1	0.00	-	-	-
Perseverativ xatolar	7.50	1	7.50	5.03	0.04	0.05
1-toifani tugatish uchun urinishlar	34.32	1	34.32	7.71	0.00	0.07
To‘g‘ri javoblar	0.14	1	0.14	0.01	0.90	0.00
Umumiy xatolar	30.03	1	30.03	2.39	0.12	0.02
O‘tkazilgan sinovlar soni	26.03	1	26.03	0.93	0.33	0.01

No-perseverativ xatolar	7.50	1	7.50	0.93	0.33	0.08
To‘plamni ushlab turolmaslik	0.57	1	0.57	2.07	0.15	0.01
Konseptual javoblar soni	1.00	1	1.00	-	-	-
Xato 01	0.43	1	0.43	1.55	0.21	0.01
To‘g‘ri 01	2.00	1	2.00	1.12	0.29	0.01
Vaqt 01	17650.32	1	17650.32	0.77	0.38	0.00
Xato 02	20.75	1	20.75	2.50	0.12	0.02
To‘g‘ri 02	102.22	1	102.22	6.22	0.01	0.05
Vaqt 02	7672.58	1	7672.58	6.52	0.01	0.06
Qisqa muddatli vizual xotira	85.75	1	85.75	23.80	0.00	0.17
Qisqa muddatli eshitish xotirasi	408.89	1	408.89	51.82	0.00	0.32

1-jadval natijalariga ko‘ra, monolingual va bilingual bolalar orasida intellekt o‘rtacha ko‘rsatkichida sezilarli farq yo‘q (t=-1.31, df=110, P<0.19). 2-jadval ikki guruhning ijro funksiyalari, diqqat tanlovchanligi, qisqa muddatli ko‘z xotirasi va qisqa muddatli eshitish xotirasidagi o‘rtacha ballari farqini ko‘rsatadi. 3-jadvalda Wilkes lambda natijalari (P<0.00, F=3.82) ikki guruhning kognitiv qobiliyatlari bo‘yicha bir xil ishlash degan gipotezani rad etadi. Ya’ni, monolingual va bilingual bolalar orasida sezilarli farq bor. “Between-subjects” testi yordamida monolingual va bilingual guruhlarning ijro funksiyalari, diqqat, ko‘z va eshitish qisqa muddatli xotirasidagi ko‘rsatkichlari solishtirildi. 4-jadval natijalariga ko‘ra, monolingual va bilingual guruhlar o‘rtasida ba’zi ijro funksiyalari (masalan, takrorlanuvchi xato, bir toifa vazifasini yakunlash uchun urinishlar soni, va bajarilgan toifalar soni) bo‘yicha farq bor edi. Bu farq bilingval guruh foydasiga edi (P<0.05). Shuningdek, qisqa muddatli ko‘z xotirasi va qisqa muddatli eshitish xotirasi bo‘yicha ham bilingval bolalar yaxshiroq natija ko‘rsatdi (P<0.05). Ammo, diqqat tanlovchanligining barcha jihatlarida ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq topilmadi (P>0.05).

Muhokama.

Ushbu tadqiqotda monolingual va bilingual bolalar orasida ijro funksiyalari, qisqa muddatli ko‘z va eshitish xotirasi bo‘yicha sezilarli farq aniqlangan, ammo diqqat tanlovchanligida farq yo‘q. Bu natija Vygotsky nazariyasi bilan ham izohlanadi, u tilning kognitiv rivojlanishdagi rolini ta’kidlaydi. Vygotsky bolalarning aqliy rivojlanishi va shaxsiyati bevosita nutqqa bog‘liq ekanini aytgan. Shuningdek, Vygotsky bilingval bolalarda kognitiv va metalingvistik qobiliyatlar yaxshilanishi mumkinligini ta’kidlaydi, bu esa kattalarga nisbatan bolalar uchun ko‘proq ijobiy natijalar beradi. Bilingual boshlang‘ich maktab bolalari o‘z uyida va maktabda ikki tilni ko‘proq ishlatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, shu bois ikki til o‘rtasida axborotni birlashtira oladi. Shuning uchun bilingvalikning ijobiy ta’siri ko‘riladi. Shu bois, ona tilining ijtimoiy muloqotda qanchalik ishlatilishi bilingvalikning ijobiy yoki salbiy oqibatlariga ta’sir qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ikkinchi natijaga ko‘ra, bir til biluvchi (monolingval) va ikki til biluvchi (bilingval) bolalar o‘rtasida diqqat tanlovchanligida (ya’ni,

diqqatni qayerga qaratishini tanlashda) farq yo‘q edi. Bu boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan ham to‘g‘ri keladi. Ba’zi tadqiqotlarda kattalar va qarilarda bilingval va monolingval odamlar orasida diqqat farqlari borligi aniqlangan, lekin bolalikda bunday farq ko‘rinmagan. Boshqa bir tadqiqotda esa, bolalar ustida uzoq vaqt kuzatganda, boshlanishda farq bo‘lmasa-da, 1-2 yildan keyin bilingval bolalar javob berishni nazorat qilishda yaxshiroq bo‘lishi aniqlandi. Shuning uchun ba’zi olimlar bilingvalikning foydasi yosh o‘tib kattalar bo‘lganda ko‘proq sezilarli bo‘lishi mumkin, ya’ni bilingval bolalar katta bo‘lganda e’tibor va diqqat qobiliyatlarida yaxshiroq bo‘lishi mumkin, degan fikrda.

Tadqiqotda ikki til biladigan bolalar ko‘rish orqali eslab qolishda (vizual xotira) yaxshiroq natija ko‘rsatgan. Ya’ni, ular rasm, shakl yoki ranglarni eslab qolishda bir til biladigan bolalarga qaraganda kuchliroq bo‘lgan. Ba’zi olimlar fikricha, yangi til o‘rganish odamning rasm yoki raqamlarni eslab qolishiga yordam beradi. Chunki til o‘rganishda ko‘p vizual (ko‘rishga oid) materiallar bilan ishlanadi. Shuningdek, ikki til biladigan bolalar ko‘pincha so‘z o‘rniga rasm yoki joylashuvga e’tibor berishadi. Ular ko‘proq ko‘rish va fazoni anglash (masalan, nimadir qayerda joylashganini eslab qolish) usullaridan foydalanishadi. Shu sababli, ularning vizual xotirasi kuchliroq bo‘lishi mumkin. Bu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ikki til biladigan bolalarda eshitish orqali qisqa muddatli xotira bir til biladigan bolalarnikidan kuchliroq. Ya’ni, bilingval bolalar ovoz yoki eshitilgan ma’lumotni eslab qolishda yaxshiroq natija ko‘rsatgan. Boshqa tadqiqotlar ham shuni tasdiqlagan — ikki tilni yaxshi bilgan odamlar eshitgan narsalarni yaxshiroq eslab qola oladi. Buning sababi sifatida’‘til avtomatlashtirish’’ nazariyasi keltiriladi. Bu nazariyaga ko‘ra, ikkinchi tilni yaxshi bilish miyadagi ba’zi aqliy jarayonlarni kuchaytiradi va bu xotiraga ham ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, miyadagi ikkala yarim shar (chap va o‘ng qismlar) o‘rtasida aloqani ta’minlaydigan corpus callosum degan tuzilma bor. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu tuzilma bilingval odamlarda kattaroq bo‘lib, bu eshitish va til o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, ikki til bilish faqat gapirish emas, balki eshitib tushunish va eslab qolish qobiliyatlarini ham yaxshilaydi Ushbu tadqiqotda bir til (monolingval) va ikki til (bilingval) biladigan bolalar solishtirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ikki til biladigan bolalar ba’zi aqliy qobiliyatlar bo‘yicha ustunlikka ega: ya’ni, ularning boshqaruv funksiyalari (executive function), ko‘rish orqali va eshitish orqali qisqa muddatli xotiralari kuchliroq chiqdi. Bu shuni anglatadiki, bilingval bolalar aqliy jihatdan ba’zi ustunliklarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar maktabda ularning ona tilidan ko‘proq foydalanishlariga imkon berishlari kerak. Bu ularga o‘z bilim va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, maktabda va jamiyatda bolaning ona tiliga yetarlicha e’tibor berilsa, bu uning ikkinchi tilni o‘rganishini ham osonlashtiradi va darslardagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ikki tilda ta’lim olish shaxsning nafaqat til kompetensiyasini, balki uning kognitiv rivojlanishini ham samarali tarzda ta’minlaydi. Bilingvistik muhitda o‘qiyotgan o‘quvchilar moslashuvchan, tafakkuri keng, ijodkor va muammolarni hal qilishga moyilroq bo‘lishadi. Kelajakda ta’lim tizimida ushbu modelni chuqurlashtirish va ilmiy asoslash muammosi dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Adesope, O. O., Lavin, T., Thompson, T., & Ungerleider, C. (2010). A systematic review and meta-analysis of the cognitive correlates of bilingualism. Review of Educational Research, 80(2), 207–245. https://doi.org/10.3102/0034654310368803

2. Ahmadbeigi Z., Babapour Kheireddin J., Nosrat Abad T. H. Cognitive abilities in monolingual and bilingual children: A comparative study in Azerbaijan, Iran // Practice in Clinical Psychology. – 2024. – Vol. 12, No. 1. – P. 23–30.

3. Albert, R. T., Albert, R. E., & Radsma, J. (2002). Relationships among bilingualism, critical thinking ability, and critical thinking disposition. Journal of Professional Nursing, 18(4), 220–229. https://doi.org/10.1053/jpnu.2002.127162

4. Ali Rezaei Motlagh, M., Alaghbandrad, J., & Moradi, A. (2003). Verbal and visual memories in children with ADHD on Ritalin vs no treatment (Persian). Advances in Cognitive Sciences, 4(4), 26–31.

5. Alloway, T. P., Gathercole, S. E., Willis, C., & Adams, A. M. (2004). A structural analysis of working memory and related cognitive skills in young children. Journal of Experimental Child Psychology, 87(2), 85–106. https://doi.org/10.1016/j.jecp.2003.10.002

6. Barac, R., & Bialystok, E. (2011). Cognitive development of bilingual children. Language Teaching, 44(1), 36–54. https://doi.org/10.1017/S0261444810000339

7. Byers-Heinlein, K., & Lew-Williams, C. (2013). Bilingualism in the early years: What the science says. LEARNing Landscapes, 7(1), 95–112. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6168212/

8. Engel de Abreu, P. M. J., Cruz-Santos, A., Tourinho, C. J., Martin, R., & Bialystok, E. (2012). Bilingualism enriches the poor: Enhanced cognitive control in low-income bilingual children. Psychological Science, 23(11), 1364–1371. https://doi.org/10.1177/0956797612443836

9. Hamidova Z. The Impact of Bilingual Education on Children's Cognitive and Social Development // International Journal of Early Childhood Education and Care. – 2023. – Vol. 9, No. 2. – P. 115–122.

10. Kapa, L. L., & Colombo, J. (2013). Attentional control in early and later bilingual children. Cognitive Development, 28(3), 233–246. https://doi.org/10.1016/j.cogdev.2013.04.00

Akbarova Maftuna Erkinjon qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY SO‘NISH HOLATINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, tibbiyot xodimlarida kasbiy so’nish muammosining kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan o’rganilgan. Bundan tashqari maqolada, tibbiyot xodimlarida kasbiy so’nish muammosining oldini olish strategiyalari amaliy tahlil qilingan.*
Kalit so’zlar. *Kasbiy so’nish muammosi, hissiyot, iroda, qobiliyat, individuallik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ У МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ

Аннотация. *В данной статье с научной точки зрения изучены причины возникновения проблемы профессионального выгорания у медицинских работников. Кроме того, в статье практически проанализированы стратегии предотвращения проблемы профессионального выгорания у медицинских работников.*
Ключевые слова. *Проблема профессионального угасания, эмоций, воли, способностей, индивидуальности.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREVENTING OCCUPATIONAL BURNOUT AMONG MEDICAL WORKERS

Abstract. *In this article, the causes of the problem of professional attenuation in medical workers are scientifically studied. In addition, the article provides a practical analysis of strategies for preventing the problem of professional attrition among medical workers.*
Keywords. *The problem of professional decline, emotions, will, ability, individuality.*

Kirish. Tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nish holatini oldini olishning psixologik xususiyatlari, sog'liqni saqlash tizimida yuqori darajadagi stress va emotsional yuk bilan ishlovchi mutaxassislar uchun juda muhim hisoblanadi. Tibbiyot xodimlarining ruhiy va jismoniy salomatligini saqlash, ularning ishdagi samaradorligini oshirish va bemorlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun kasbiy so‘nishning oldini olish zarur.

Kasbiy so‘nish holati, tibbiyot xodimlarining uzoq muddat davomida yuqori darajadagi ish bosimi, stress va emotsional yuklarga duch kelishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat ularning ruhiy holatiga, ishga nisbatan motivatsiyasiga va shaxsiy hayotiga jiddiy ta'sir qiladi. Kasbiy so‘nish tibbiyot sohasidagi xodimlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning professionallik va ish samaradorligini pasaytiradi va eng asosiysi, bemorlar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Kasbiy so‘nishni oldini olishning psixologik jihatlari, tibbiyot xodimlarining ruhiy holatini mustahkamlash, stressni boshqarish va o'zlarini mehnat jarayonida yaxshi his qilishlarini ta'minlashga qaratilgan. Psixologik yordam, stressni boshqarish metodlari, ijobiy psixologik muhit yaratish, ish va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlash kabi omillar, kasbiy so‘nishni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Kasbiy so‘nish bu, ayniqsa, tibbiyot sohasida ishlaydiganlar uchun dolzarb muammo. Uni oldini olish uchun psixologik omillar katta rol o‘ynaydi.

Avvalo, tibbiyot xodimlari kundalik faoliyatida yuqori darajadagi stressga duch keladilar bu bemorlar bilan ishlash, favqulodda holatlarda tez qarorlar qabul qilish, og‘ir holatlarni boshqarish va jismoniy yuklamalar bilan bog‘liq. Shuning uchun stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim. Maxsus psixologik metodlar yordamida stressni yengish, xodimlarga o‘zini nazorat qilishga va ruhiy zo‘riqishga bardosh berishga yordam beradi. Shuningdek, ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish ham muhim. Agar jamoa ichida ishonch, hamkorlik va o‘zaro hurmat bo‘lsa, bu ruhiy salomatlikka ijobiy ta’sir qiladi. Tibbiyot xodimi o‘zini qadrlangan va qo‘llab-quvvatlangan

deb his qilsa, ishga nisbatan ijobiy munosabati kuchayadi. Emotsional intellekt ya'ni o'z hissiyotlarini anglash, boshqalarni tushunish va ularni to'g'ri boshqarish ham kasbiy so'nishni oldini olishda katta ahamiyatga ega. Bu qobiliyat orqali xodimlar qiyin vaziyatlarda ham o'zini tutib, yanada ongli va to'g'ri qarorlar qabul qila oladilar. Motivatsiyani yo'qotmaslik ham kasbiy so'nishdan saqlaydi. Inson nima uchun ishlayotganini, uning mehnati kimlar hayotini o'zgartirayotganini anglab yetishi ishga bo'lgan mehr va intilishni saqlab qolishga xizmat qiladi. Maqsadga yo'naltirilgan ishlash esa ruhiy charchoqqa qarshi kuchli qalqon bo'la oladi. Nihoyat, ish va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlash lozim. Agar tibbiyot xodimi o'zining shaxsiy vaqtiga ega bo'lsa, dam ololsa, oilasi bilan vaqt o'tkazsa, bu uning ruhiy va jismoniy sog'lig'ini tiklashiga yordam beradi. Bu esa ishda yangi kuch va ishtiyoq bilan harakat qilishiga turtki bo'ladi.

Tibbiyot xodimlarida kasbiy so'nishning oldini olishning psixologik xususiyatlarini tushunish va bu borada to'g'ri choralar ko'rish, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va xodimlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga yordam beradi. Bu nafaqat tibbiyot xodimlarining o'zlariga, balki bemorlar uchun ham yuqori sifatli tibbiy xizmatni ta'minlashga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tibbiyot xodimlarida kasbiy so'nish holatini oldini olish va psixologik xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar bir nechta olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu izlanishlar ko'plab psixologik, ijtimoiy va tashkilotshunoslik omillarni o'z ichiga olib, tibbiyot xodimlarining stressini boshqarish, emotsional holatini yaxshilash va kasbiy so'nishning oldini olishga qaratilgan. Quyida bu sohada faoliyat olib borgan ba'zi olimlar haqida ma'lumot keltirilgan:

Kristina Maslax kasbiy so'nish (burnout) tushunchasini chuqur o'rgangan va bu holatning eng muhim uchta jihatini ajratib ko'rsatgan. Unga ko'ra, kasbiy so'nish eng avvalo kuchli hissiy bosim natijasida yuzaga keladigan emotsional charchoq bilan boshlanadi. Inson doimiy stress, og'ir vaziyatlar va yuqori mas'uliyat ostida ishlagani sayin, ichki ruhiy energiyasi tugay boshlaydi. Bu esa ishdan holsizlanish, toliqish va ruhiy tushkunlik kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan bu holat odamning atrofdagilarga, ayniqsa bemorlar yoki ishdagi hamkasblarga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir ko'rsatadi. U ilgari mehr bilan qaragan insonlarga nisbatan sovuqqon, befarq bo'lib qolishi mumkin. Boshqacha aytganda, inson o'z kasbiy roli ortidagi odamlarga, ularning hissiyot va ehtiyojlariga beparvo bo'lib qoladi.

Bu jarayonning davomida esa inson o'z ishidan avvalgidek qoniqish olmay qo'yadi. O'zini samarasiz, hech narsaga erishmayotgandek his qiladi, mehnatining foydasini ko'rmaydi. Bu esa ishga bo'lgan ishtiyoqni so'ndiradi va kasbiy so'nish holatini chuqurlashtiradi.

Kristina Maslax nafaqat bu holatni tahlil qilgan, balki uni oldini olish uchun tashkilotlar nimalarga e'tibor berishi kerakligini ham aniqlagan. U turli strategiyalar taklif qilib, ayniqsa sog'liqni saqlash sohasida ishlovchi mutaxassislarning ruhiy salomatligini asrashga katta hissa qo'shgan.

Maykl Leyter, Kristina Maslax bilan birgalikda, kasbiy so'nish bo'yicha bir qancha izlanishlar olib borgan olimlardandir. Leyter, kasbiy so'nishning oldini olishda ish joyidagi tashkilot muhitining ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, kasbiy so'nishning rivojlanishiga faqat individual stress omillari emas, balki ish joyida samarali boshqaruv, rahbarlar va hamkasblar bilan yaxshi munosabatlar va ishda kutilgan natijalar bilan bog'liq moslik ta'sir qiladi. Leyter kasbiy so'nishning oldini olish uchun ishlovchilarga qulay ish sharoitlari va resurslarni taqdim etishni zarur deb hisoblaydi.

Maslax va Leyter tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy so'nishni aniqlash so'rovnomasi kasbiy so'nishni aniqlashda eng keng tarqalgan vositalardan biridir. Bu metodika kasbiy so'nishning uchta asosiy komponentini o'lchash uchun ishlatiladi: emotsional charchoq, depersonalizatsiya va ishdagi qoniqishning kamayishi. Ular bu metodika yordamida kasbiy so'nishning o'ziga xos xususiyatlarini va sabablarini aniqlash, shuningdek, uni oldini olish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratdilar.

Gerbert Froydenberger kasbiy so'nish tushunchasini birinchi marta psixologik jihatdan tasniflagan olimlardan biridir. U 1974 yilda "Kasbiy so'nish" atamasini sog'liqni saqlash xodimlarida uchraydigan emotsional charchoq va ruhiy yomonlashuv holatiga nisbatan qo'llagan. Froydenberger, kasbiy so'nishning rivojlanishiga, xodimlarning o'z vazifalariga berilish darajasi, motivatsiya va qo'llab-quvvatlovchi muhitning ta'sir etishini ta'kidlagan. U bu holatning oldini olishda individual va

jamoaviy hissiy yordam, shuningdek, ish joyida qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarurligini ko'rsatgan.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tahlillarda, tibbiyot va sog'liqni saqlash xodimlarida kasbiy so‘nishning psixologik va emotsional jihatlarini o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda xodimlarning kasbiy so‘nishni boshqarish va oldini olishda individual va guruh psixoterapiyasining rolini tadqiq qilingan. Bir qator olimlar tomonidan kasbiy so‘nishning oldini olishda psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ta'kidlangan. Ularning izlanishlari tibbiyot xodimlarining emotsional salomatligini yaxshilash va ularga ijobiy ruhiy yordam ko'rsatishning muhimligini ko'rsatgan.

Olimlar kasbiy so‘nishning psixologik aspektlarini o'rganishda faol ishtirok etishgan. Ularning ishlarida tibbiyot xodimlari uchun stressni boshqarish texnikalari va metodikalarining samaradorligi tahlil qilingan. Boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida, stressni kamaytirish va kasbiy so‘nishni oldini olishda individual psixologik resurslar, masalan, stressni boshqarishning boshqa texnikalarining ahamiyatini ta'kidlangan.

Bir qator olimlarning ilmiy ishlari kasbiy so‘nishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganilgan. Ular tomonidan ish joyidagi jamoaviy munosabatlar, rahbarlik usullari va qo'llab-quvvatlovchi muhitning xodimlarning kasbiy so‘nishiga ta'sirini tahlil qilingan. Olimlarning izlanishlari kasbiy so‘nishning oldini olishda, sog'liqni saqlash tashkilotlarida ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish zarurligini ko'rsatgan.

Tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nish holatini oldini olish uchun psixologik yondashuvlar turli olimlar tomonidan o'rganilgan va bu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar kasbiy so‘nishning oldini olishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Kasbiy so‘nishni oldini olish uchun, nafaqat individual resurslar, balki ish joyidagi ijtimoiy va tashkilotshunoslik omillari ham muhim ahamiyatga ega. Bu izlanishlar tibbiyot xodimlarining ruhiy salomatligini saqlash va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Muhokama. Tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nish holatini oldini olish bugungi kunda tibbiyot va psixologiya sohasida keng muhokama qilinayotgan va katta ahamiyatga ega masalalardan biridir. Kasbiy so‘nish bu uzoq davom etgan kuchli stress, emotsional charchoq va ish bosimi natijasida yuzaga keladigan ruhiy holat bo‘lib, insonning ishdan ruhiy toliqishiga, befarqlikka va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Bunday holatning oldini olishda stressni boshqarish va har bir xodimga individual yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot xodimlari har kuni turli og‘ir va hissiy yuklamalarga duch kelishadi. Shuning uchun, ularga stressni kamaytirish bo‘yicha samarali psixologik usullarni o‘rgatish zarur. Masalan, mindfulness ya’ni hozirgi onga e’tibor qaratish orqali, inson o‘z hissiyotlarini anglaydi va stressga nisbatan bardoshlilikni oshiradi. Bundan tashqari, nafas olish mashqlari, meditatsiya kabi relaksatsiya texnikalari ham ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, emotsional intellekt ham kasbiy so‘nishni oldini olishda muhim omillardan biridir. Tibbiyot xodimi o‘z his-tuyg‘ularini tushunib, boshqarishni bilsa, shuningdek, bemorlar va hamkasblarning emotsional holatiga ham to‘g‘ri yondashsa, u ko‘proq ijobiy va samimiy munosabatlar o‘rnatadi. Bu esa ishdagi bosimni kamaytirib, ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanat ham kasbiy so‘nishni oldini olishda beqiyos ahamiyatga ega. Xodim dam olishga, o‘z qiziqishlariga vaqt ajrata olganda, u o‘zini tiklab, ishga yangicha energiya bilan qaytadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ish joyida qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lishi, jamoaviy ruh va o‘zaro hurmat kuchli bo‘lishi, ruhiy charchoqni kamaytiradi.

Kasbiy so‘nish muammosini faqat xodim darajasida emas, balki tashkilot doirasida ham hal qilish kerak. Tibbiyot muassasalari rahbarlari xodimlarning ish yuklamasini adolatli taqsimlashi, zarur hollarda yordam ko‘rsatishi va ular bilan ochiq muloqot yuritishi muhim. Qo‘llab-quvvatlovchi rahbarlik, motivatsiya beruvchi liderlik uslublari xodimlarda ishonch va kasbiy ishtiyoqni kuchaytiradi.

Shuningdek, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari ham ruhiy charchoqning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot xodimlariga yangi bilimlar olish, o‘z malakasini oshirish va zamonaviy

texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatlari berilsa, ular o‘z ishidan ko‘proq qoniqish oladi va doimiy o‘sishni his qiladi.

Bularning barchasi jamoaviy qo‘llab-quvvatlash bilan mustahkamlanadi. Jamoa ichidagi iliq munosabatlar, o‘zaro yordam, maslahatlar va tajriba almashish tibbiyot xodimlarining ruhiy holatini yaxshilaydi. Guruhli treninglar, ko‘maklashuvchi suhbatlar, stressni birgalikda yengish imkoniyati orqali kasbiy so‘nish holatining oldini olish mumkin.

Umuman olganda, kasbiy so‘nishni oldini olish , bu faqat individual emas, balki jamoaviy va tashkilot darajasidagi kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayon. Har bir xodimning ruhiy farovonligini ta'minlash orqali butun sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nish holatini oldini olishning psixologik xususiyatlari ko'plab omillarni o'z ichiga oladi, jumladan stressni boshqarish, emotsional intellekt, ish va shaxsiy hayotning muvozanati, tashkilotshunoslik yondashuvlari, kasbiy rivojlanish va jamoaviy qo'llab-quvvatlash. Kasbiy so‘nishni oldini olish uchun nafaqat individual, balki tashkilot miqyosida ham chora-tadbirlar ko'rish zarur. Bu yondashuvlar tibbiyot xodimlarining ruhiy salomatligini yaxshilash, ishdagi samaradorlikni oshirish va bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nishning oldini olish psixologik jihatdan kompleks yondashuvni talab qiladi. Stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish, ish va shaxsiy hayotning muvozanati, tashkilot muhitining qo'llab-quvvatlovchi rolini kuchaytirish va kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratish orqali kasbiy so‘nishni oldini olish mumkin. Ushbu psixologik xususiyatlarni tushunish va amaliyotda qo'llash, tibbiyot xodimlarining ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash, ishdagi samaradorlikni oshirish va bemorlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlashga yordam beradi.

Tibbiyot xodimlarida kasbiy so‘nish holatini oldini olishning psixologik xususiyatlari ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu masalani chuqur o‘rganish muhimdir. Kasbiy so‘nish holati tibbiyot sohasida ko‘p uchraydi va odatda emotsional charchoq, begonalashuv (ya’ni bemorlarga yoki ishga befarqlik) va ishga nisbatan qoniqishning kamayishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu holat nafaqat xodimning o‘ziga, balki bemorlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifati va xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday og‘ir vaziyatlarni yengib o‘tishda stressni boshqarish katta rol o‘ynaydi. Tibbiyot xodimlariga stressni qanday kamaytirish va o‘z hissiyotlarini qanday boshqarishni o‘rgatish zarur. Mindfulness, ya’ni hozirgi daqiqaga e’tibor qaratish, relaksatsiya mashqlari, meditatsiya kabi usullar stress darajasini tushirishda yordam beradi. Bu usullar orqali xodimlar o‘zlarini tinchlantirishni, stressli vaziyatlarga bardoshli bo‘lishni o‘rganadilar.

Bundan tashqari, emotsional intellektning rivoji ham katta ahamiyatga ega. Xodimlar o‘z va boshqalar hissiyotlarini tushunishni, ularga to‘g‘ri munosabat bildirishni bilsalar, ish jarayonida yuzaga keladigan emotsional bosimlarni samarali yengib o‘tishadi. Empatik yondashuv esa bemorlar bilan yanada ijobiy va insoniy munosabat o‘rnatish imkonini beradi.

Ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ham kasbiy so‘nishning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Tibbiyot xodimlari nafaqat mehnatga, balki o‘z dam olishiga, oilasiga va shaxsiy ehtiyojlariga ham vaqt ajratishi lozim. Bu ularning ruhiy tiklanishiga va ishga yangicha kuch bilan qaytishiga yordam beradi.

Tashkilot tomonidan yaratiladigan ish muhiti ham katta ahamiyatga ega. Rahbarlarning qo‘llab-quvvatlashi, adolatli ish taqsimoti va ijobiy jamoa muhitining mavjudligi xodimning o‘zini qadrlangan va kerakli his qilishiga olib keladi. Bu esa ruhiy charchoqni kamaytiradi va kasbiy motivatsiyani oshiradi.

Yana bir muhim jihat kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridir. Tibbiyot xodimlariga o‘z malakasini oshirish, yangi bilimlar egallash va tajriba almashish imkoniyatlarini taqdim etish, ularning ishga bo‘lgan qiziqishini saqlab qoladi. Rivojlanish, o‘z ustida ishlash hissi xodimni kasbiy so‘nishdan himoya qiladi.

Umuman olganda, kasbiy so‘nishni oldini olish bu xodimning o‘zi, jamoa va tashkilot tomonidan olib borilishi kerak bo‘lgan kompleks jarayon bo‘lib, uni e’tiborsiz qoldirish sog‘liqni saqlash tizimi uchun katta xavf tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maslach, C., & Leiter, M. P. (2016). Burnout: The Cost of Caring. Malor Books.
2. Schaufeli, W. B., Leiter, M. P., & Maslach, C. (2009). Burnout: 35 years of research and practice. Career Development International, 14(3), 204–220.
3. World Health Organization. (2019). Burn-out an "occupational phenomenon": International Classification of Diseases (ICD-11). WHO.
4. Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2007). The Job Demands-Resources Model: State of the art. Journal of Managerial Psychology, 22(3), 309–328.
5. Shanafelt, T. D., Boone, S., Tan, L., et al. (2012). Burnout and Satisfaction With Work-Life Balance Among US Physicians Relative to the General US Population. Archives of Internal Medicine, 172(18), 1377–1385.
6. Pines, A., & Aronson, E. (1988). Career burnout: Causes and cures. Free Press.

Aldjanova Guljahan Amangeldiyeva
Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology,
Berdakh Karakalpak State University

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS AND MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIO-ECONOMIC COMPETENCIES IN FUTURE EDUCATORS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation. *This article analyzes the psychological foundations of the formation of socio-economic competencies in future educators. The authors substantiated that factors such as economic knowledge, financial literacy, rational use of resources and social responsibility are closely related to motivation, emotional intelligence and personal values. It is also emphasized that it is necessary to improve training programs taking into account psychological factors.*

Keywords: *competence, socialization, will, responsibility, emotional intelligence, motivation.*

BO'LAJAK TARBIYACHILARNI IJTIMOIY IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIMZLARI

Annotatsiyta. *Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy-iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Mualliflar iqtisodiy bilim, moliyaviy savodxonlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas'uliyat kabi omillarning motivatsiya, emotsional intellekt hamda shaxsiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqligini asoslab berilgan. Shuningdek, psixologik omillarni hisobga olgan holda o'quv dasturlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar:*kompetensiya, ijtimoiylashuv, iroda, mas`uliyat, emotsional intellekt, motivatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ И МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические основы формирования социально-экономических компетенций у будущих воспитателей. Авторы обосновывают, что такие факторы, как экономические знания, финансовая грамотность, рациональное использование ресурсов и социальная ответственность, тесно связаны с мотивацией, эмоциональным интеллектом и личными ценностями. Также подчеркивается необходимость совершенствования учебных программ с учетом психологических факторов.*

Ключевые слова: *компетентность, социализация, сила воли, ответственность, эмоциональный интеллект, мотивация.*

Introduction. In the context of rapid globalization, technological advancement, and the transformation of social structures, the role of future educators has become increasingly multifaceted and dynamic. Today's early childhood educators are not only responsible for delivering academic content but also for nurturing socially aware, economically competent, and psychologically resilient individuals. This expanding role requires that educators themselves possess a set of well-developed socio-economic competencies—skills that allow them to effectively navigate the complexities of modern society and prepare children to become active, responsible members of their communities.

Socio-economic competencies encompass a broad spectrum of knowledge, attitudes, and behaviors related to understanding economic processes, managing resources efficiently, participating in social interactions, and making informed decisions in both professional and personal contexts. For future educators, especially those working in early childhood education, these competencies are crucial for fostering inclusive environments, promoting equality, and modeling responsible citizenship from an early age.

Developing such competencies, however, is not solely a matter of curriculum or instruction—it is deeply rooted in psychological processes. Factors such as self-awareness, motivation, emotional intelligence, value systems, and cognitive flexibility play pivotal roles in shaping how future educators internalize and apply socio-economic principles. Thus, understanding the psychological foundations behind the development of these competencies is essential for designing effective teacher training programs.

This study explores the psychological underpinnings of socio-economic competency development among pre-service educators. It aims to identify the key psychological traits and mechanisms that contribute to the formation of these competencies, analyze the influence of educational and social environments, and propose practical strategies to enhance competency development through targeted pedagogical and psychological interventions. By investigating these foundational elements, the study contributes to a more holistic approach to teacher preparation, equipping future educators not only with knowledge but with the mindset and skills necessary to thrive in diverse educational and societal settings.

Literature analysis. Economic competence refers to an individual's ability to acquire economic knowledge, demonstrate financial literacy, manage resources efficiently, and develop entrepreneurial skills. In the context of preschool education institutions, this process is realized through the educators' independent efforts to enhance their knowledge, apply innovative pedagogical methods, and understand economic processes. Therefore, the economic preparedness of future educators plays a vital role in strengthening their professional competence.

According to I.G. Akperov, personal experience and practical skills are of primary importance in the development of economic competence. He emphasizes that economic knowledge and financial literacy are essential for individuals to comprehend market relations. Within the scope of pedagogical activity, developing economic thinking is a key task; educators must not only possess economic knowledge but also be capable of conveying it to children in a simple and comprehensible manner. Akperov highlights that economic competence is closely linked to the ability to make independent decisions, use resources rationally, and analyze risks. He also underscores the necessity for future educators to be familiar with modern economic technologies and to integrate them into the learning process. From this perspective, fostering economic competencies is crucial not only for educators themselves but also for the children they teach.

Y.K. Zavyalova interprets economic competence as an individual's ability to adapt to economic processes within society. She asserts that forming economic knowledge and skills should not be limited to theoretical learning but must also be enriched through practical experiences. Zavyalova emphasizes the significance of analytical thinking, financial literacy, and strategic planning in the development of economic thinking. In her view, economic competencies enable individuals to effectively manage their participation in socio-economic processes. Therefore, the use of interactive methods in the educational process is essential. Her research also highlights the importance of motivation and independent decision-making skills in shaping economic competencies, considering them as key factors in determining an individual's adaptability to market conditions.

A.L. Zhuravlev relates the process of developing economic competence to the formation of economic consciousness. He notes that in order to make well-reasoned economic decisions, there must be a harmonious integration of knowledge, experience, and practical skills. Zhuravlev's research shows that motivation and a sense of economic responsibility are central to developing economic thinking. He advocates for the enhancement of financial planning skills and risk management abilities as essential components of economic competence. Furthermore, he stresses the importance of introducing economic education from early stages, as it contributes to psychological stability and the development of adaptive thinking [129.

G.L. Bardier connects the development of economic competence with the formation of economic thinking. He argues that economic knowledge should be reinforced not only through theoretical learning but also via practical activities. Bardier associates economic competence with an individual's financial independence and the ability to manage resources effectively. He asserts that in order to nurture economic competence during the educational process, it is important to implement

interactive methods, business simulations, and practical training. According to him, the development of economic thinking helps individuals act successfully in both professional and social spheres.

Discussion. The development of socio-economic competencies in future educators is a critical and timely issue in the field of teacher education. As societies become increasingly complex and interconnected, the ability of educators to understand and respond to socio-economic challenges plays a pivotal role in shaping inclusive, equitable, and forward-looking learning environments. This discussion examines the psychological dimensions that underpin the formation of these competencies, as well as the educational strategies that can support their effective development.

Socio-economic competencies comprise cognitive, emotional, and behavioral components. On the cognitive level, educators must grasp fundamental economic concepts, such as resource management, financial literacy, and economic interdependence. They also need to comprehend social systems, including issues of inequality, diversity, and community engagement. Psychologically, the acquisition of such knowledge is influenced by several internal factors—most notably, an individual's motivation to learn, self-concept, values, and prior experiences.

Motivation serves as a foundational psychological factor in the development of socio-economic competencies. Intrinsically motivated individuals—those driven by personal interest and a sense of purpose—are more likely to engage deeply with complex social and economic issues. Educators with a strong sense of social responsibility and personal agency are better equipped to translate socio-economic knowledge into meaningful classroom practices.

Emotional intelligence is another key psychological construct. It enables future educators to empathize with diverse socio-economic backgrounds, regulate their own emotional responses to challenging situations, and build positive relationships with students, families, and communities. High emotional intelligence supports the development of critical interpersonal skills, such as active listening, conflict resolution, and cultural sensitivity—all of which are vital for navigating diverse educational contexts.

Furthermore, identity formation and value internalization are central to how educators perceive their role in addressing socio-economic issues. Teacher training programs must therefore emphasize reflective practices that help future educators examine their beliefs, biases, and ethical frameworks. This process of self-reflection promotes a deeper understanding of societal dynamics and reinforces a commitment to equity and justice.

Educational institutions play a crucial role in shaping the psychological environment in which these competencies are formed. Supportive mentorship, collaborative learning experiences, community-based projects, and experiential learning opportunities all contribute to the internalization of socio-economic competencies. In particular, real-life exposure to diverse social settings helps students connect theoretical knowledge with practical application, reinforcing psychological growth and social understanding.

In addition, socio-cultural factors such as family background, peer influence, and societal narratives can either enhance or hinder the development of these competencies. For instance, individuals from economically disadvantaged backgrounds may possess a heightened sensitivity to social inequality, which can be harnessed as a strength in teacher training programs—provided that psychological support systems are in place to build confidence and resilience.

The development of socio-economic competencies in future educators of general education schools is a multidimensional process that is deeply influenced by a range of psychological determinants and mechanisms. As education systems globally shift towards more integrative and life-oriented learning paradigms, there is an increasing demand for teachers who are not only academically prepared but also socio-economically literate and psychologically resilient. These competencies are essential in equipping future educators with the ability to respond effectively to the diverse and ever-evolving challenges of modern classrooms and communities.

One of the key psychological determinants in this developmental process is self-efficacy—an individual's belief in their capacity to execute behaviors necessary to produce specific performance attainments. A strong sense of self-efficacy enables future educators to navigate socio-economic complexities, manage resources effectively, and implement inclusive pedagogical strategies that address

the varied socio-cultural backgrounds of their students. Self-efficacy is closely linked to motivation, goal-setting behavior, and persistence in the face of difficulties—traits that are vital for socio-economic adaptability.

Another important factor is social intelligence, which encompasses empathy, social awareness, and the ability to manage interpersonal relationships judiciously and empathetically. Teachers with high social intelligence are better equipped to build trust-based relationships with students, parents, and colleagues. This capacity is crucial when dealing with socio-economic diversity and inequality in educational settings, as it allows educators to create supportive environments that promote equity and inclusion.

Cognitive flexibility also plays a central role in shaping socio-economic competencies. It refers to the mental ability to switch between thinking about two different concepts or to think about multiple concepts simultaneously. In the context of teacher education, cognitive flexibility helps future educators adapt to dynamic classroom situations, respond creatively to unexpected challenges, and integrate socio-economic content into various subject areas. It also fosters problem-solving skills, enabling educators to develop practical solutions to economic or social issues that may affect their students.

Furthermore, value orientations and moral responsibility serve as internal mechanisms that guide educators' behavior and decision-making. Future teachers who internalize values such as fairness, responsibility, and civic duty are more likely to engage in practices that foster socio-economic justice within their classrooms. These ethical orientations not only influence instructional strategies but also inform how educators approach broader issues such as poverty, inequality, and access to education.

The educational environment and psychological climate of teacher training institutions significantly influence the development of these competencies. A supportive and reflective learning environment encourages future educators to engage in self-assessment, cooperative learning, and experiential activities that simulate real-world socio-economic contexts. Integrating interdisciplinary modules that combine psychology, economics, sociology, and pedagogy into teacher preparation programs can enhance this development further by providing a holistic understanding of how socio-economic systems interact with educational processes.

In addition, mentorship and guided practice serve as effective psychological mechanisms for internalizing socio-economic competencies. Observing experienced teachers who demonstrate socio-economic awareness in their pedagogical approaches allows student-teachers to model these behaviors, develop critical thinking skills, and refine their professional identity. Moreover, reflective supervision fosters metacognitive awareness and helps future educators recognize their own biases, thereby promoting socially responsive teaching.

Lastly, the motivational orientation of future educators—whether intrinsic or extrinsic—has a profound impact on their willingness to engage with socio-economic content and challenges. Intrinsically motivated individuals are more likely to view socio-economic education as a meaningful and fulfilling part of their professional role, while extrinsically motivated ones may require structured incentives and institutional support to embrace these competencies.

In conclusion, the development of socio-economic competencies in future educators is deeply rooted in a network of psychological determinants and mechanisms that include self-efficacy, social intelligence, cognitive flexibility, value orientation, and motivation. These factors, when nurtured within a psychologically supportive and pedagogically rich environment, contribute to the formation of educators who are not only knowledgeable but also socially responsible and economically aware. As the demands of education continue to evolve in the 21st century, investing in the psychological preparation of future teachers will be critical for ensuring equitable and sustainable educational outcomes for all learners.

Conclusion. In summary, the development of socio-economic competencies in future educators is not a purely intellectual endeavor but one that is deeply rooted in psychological processes. Understanding and nurturing these processes is essential for preparing educators who are capable of addressing the multifaceted challenges of modern education. Integrating psychological theories into

teacher education—such as theories of motivation, emotional intelligence, and identity development—can lead to more effective and holistic approaches to competency formation. As education systems strive to produce not only knowledgeable but also socially conscious educators, the psychological foundations of socio-economic competence must be acknowledged, studied, and strategically developed.

List of used literature.

1. Акперов И.Г., Масликова Ж.В. "Психология предпринимательства". Москва: Финансы и статистика, 2003. – 163 с

2. Бардиер Г. Л. Социальная психология толерантности: дис. доктор психологических наук: 19.00.05 - Социальная психология. Санкт-Петербург. 2007. – 54 с

3. Журавлёв А. Л. Психология совместной деятельности». – СПб.: Питер. М., 2005. – 59 с

4. Хуторской А. В. Педагогика: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. — СПб.: Питер, 2019. — 608 с.

Anarboyev Hayitboy Eshboy o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
Sobiroba Ozoda Tohir qizi
UzMU Jizzax filiali 3 bosqich talabasi

TALIM JARAYONIDA SAMARALI O‘ZLASHTIRISH DETERMINANTLARINING (KOGNITIV VA MOTIVATSION) EMPIRIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar o‘zlashtirishida samarali ta’sir etuvchi determinantlarining (kognitiv va motivatsion) empirik tahlili izchil tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining empirik ko‘rsatkichlarini normal taqsimotiga mosligi, talabalarning akademik o‘zlashitirishi ularning motivatsion sohasiga bevosita bog‘liqligi haqida so‘z boradi.*

Tayanch iboralar*: talaba, akademik o‘zlashtirish, axborotlarni qayta ishlash tezligi, kognitiv soha, xotira, aqliy qobiliyat, motivatsiya soha, stressga barqarorlik, muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi, muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi.*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТ ЭФФЕКТИВНОГО УСВОЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ (КОГНИТИВНЫХ И МОТИВАЦИОННЫХ)

Аннотация. *В статье представлен системный эмпирический анализ детерминант (когнитивных и мотивационных), которые оказывают эффективное влияние на обучение студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. В статье также обсуждается соответствие эмпирических показателей скорости обработки информации и когнитивной сферы студентов нормальному распределению, а также прямая зависимость академической обучаемости студентов от их мотивационной сферы.*

Ключевые слова: *студент, академическое обучение, скорость обработки информайии, когнитивная сфера, память, умственные способности, мотивационная сфера, стрессоустойчивость, мотивация стремления к успеху, мотивация избегания успеха.*

EMPIRICAL ANALYSIS OF THE DETERMINANTS OF EFFECTIVE LEARNING IN THE EDUCATIONAL PROCESS (COGNITIVE AND MOTIVATIONAL)

Abstract. *This article presents a systematic empirical analysis of the determinants (cognitive and motivational) that have an effective impact on the learning of students studying in higher education institutions. The article also discusses the correspondence of the empirical indicators of students' information processing speed and cognitive sphere to the normal distribution, and the direct dependence of students' academic learning on their motivational sphere.*

Key words: *student, academic learning, information processing speed, cognitive sphere, memory, mental ability, motivational sphere, stress resistance, motivation to strive for success, motivation to avoid success.*

Mavzu bayoni. Zamonaviy oliy ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishi talabalarning shaxsiy, intellektual fazilatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilganlikni oshirish bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan o‘quv jarayonida talabaning shaxsini psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash dolzarb bo‘lib qolmoqda. Psixologik-pedagogik loyihalar shaxsning o‘zini o‘zi belgilashini rag‘batlantirish, individuallashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam berish, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini optimallashtiradigan shart-sharoitlarni yaratish muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish inson rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Tanlangan o‘quv yo‘nalishi nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyat subyektining muhim vakolatlarini shakllantirishga yordam beradi, balki shaxsning rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday kasb bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni tushunish talabaning ta’lim muvaffaqiyatiga

ko‘p jihatdan bog‘liq. Bularning barchasi o‘quv jarayonini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash doirasida shaxsning motivatsion xususiyatlarini o‘rganish zarurligidan dalolat beradi.

Tadqiqot ishimizda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning qishki va yozgi semistr davrida olgan baholarini o‘rgandik, ularning o‘zlashtirganlik darajasini aniqladik va tahlil qildik. Talabalar akademik o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir etuvchi omillardan biri – talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligidir. Xususan, talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining empirik ko‘rsatkichlarini normal taqsimotiga mosligini aniqlash orqali quyidagi natijarlarga ega bo‘ldik (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining empirik ko‘rsatkichlarini normal taqsimotiga mosligi

	A’lo bahoga o‘zlashtirgan N=87	**Yaxshi bahoga o‘zlashtirganlar N=181**	**Qoniqarli bahoga o‘zlashtirganlar N=193**
	461	461	461
X	348.113	95.498	5.327
σ	42.9699	13.8812	1.6790
Z	0.043	0.048	0.212
r	0.039*	0.013	0.000**

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, a’lo bahoga o‘zlashtirgan talabalarda (N=87) o‘rtacha arifmetik qiymat X=348.113, Z=0.043, p<0,05 qayd etildi. A’lo baho olgan talabalarda yaxshi (X=95.498, Z=0.048, p<0,05) va qoniqarli (X=5.327, Z=0.212, p<0,001) bahoga o‘zlashtirganlarga nisbatan axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining shakllanganlik darajasi yaxshi rivojlanganligi, bu esa o‘z navbatida ta’lim samaradorligi va talabaning akademik o‘zlashtirishi muvaffaqiyatiga olib kelishini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ko‘ra natijalari

Shkalalar	**O‘rtacha rang**			**N (Kraskel-Uolles)**	**p**
	A’lo bahoga o‘zlashtirgan N=87	**Yaxshi ba-hoga o‘zlashtir-ganlar N=181**	**Qoniqarli ba-hoga o‘zlashtir-ganlar N=193**		
Axborotlarni qayta ishlash tezligi	243.34	247.21	209.65	8.563	0.014*
Umumiy aqliy qobiliyat	254.91	237.81	223.66	1.193	0.551
Xotira	256.48	224.1	205.35	15.837	0,000**

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ko‘ra qoniqarli bahoga o‘zlashtirgan talabalar uchun axborotlarni qayta ishlash tezligi shkalasi bo‘yicha olgan ballari (R=209.65) a’lo va yaxshi bahoga o‘qiyotgan talabalarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichni qayd etdi (H=8.563, p<0,05). Xotira shkalasi bo‘yicha olingan natijalar (R= 256.48 – 224.1 – 205.35) a’lochi talabalarda qolgan ikki guruhga nisbatan sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatdi (H=15.837, p<0,001). Har bir talabaning ilmiy faoliyati va uning o‘zlashtirish darajasiga talabalar tomonidan axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasi muhim rol o‘ynar ekan.

Keyingi jadvalda talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining jinsga ko‘ra natijalari ko‘rsatib o‘tilgan (3-jadval).

3-jadval

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasining jinsga ko‘ra natijalari

Shkalalar	O‘rtacha rang		U (Mann-Uitni mezoni)	p
	Talaba qizlar N=260	Talaba yigitlar N=201		
Axborotlarni qayta ishlash tezligi	231.73	234.34	0.939	0.333
Umumiy aqliy qobiliyat	238.92	229.85	0.317	0.573
Xotira	276.30	237.17	3.862	0.029*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Tadqiqot davomida talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va umumiy aqliy qobiliyat shkalasi bo‘yicha olingan jinsga ko‘ra natijalari orasida farqlar sezilarli aniqlanmadi. Ya’ni, axborotlarni qayta ishlash tezligi shkalasi bo‘yicha talaba qizlarda R=231.73 natija qayd etilgan bo‘lsa, yigitlarda R=234.34 qiymat olindi. Ushbu shkalada Mann-Uitnining U – mezoni bo‘yicha p=0.333 natijasi hosil bo‘ldi.

Umumiy aqliy qobiliyat shkalasi bo‘yicha talaba qizlarda o‘rtacha rang miqdori R=238.92, yigit talabalarda R=229.85 ni tashkil etdi. Jinslar o‘rtasidagi tafovut kam miqdorda ekanligi (U=0.317, p=0.573), umumiy natijalar standart me’yorga ko‘ra o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rish mumkin.

Talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasini jinsga ko‘ra natijalaridagi sezilarli farq xotira shkalasida kuzatildi (R1=276.30, R2=237.17, U=3.862, p<0,05). Oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan talaba qizlarda talaba yigitlarga nisbatan xotirasi kuchliroq ekanligi qayd etildi. Talaba qizlarda yon atrofida sodir bo‘ladigan voqelikni esda saqlab qolishi, qaytadan esga tushirishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, keyinchalik undan unumli foydalanish sifatlari yigitlarga nisbatan yaxshi rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning akademik o‘zlashitirishi ularning motivatsion sohasiga bevosita bog‘liqdir. Talabalarning motivatsiya sohasi va stresstga barqarorligini o‘rganish maqsadida Elers tomonidan ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish” metodikasidan foydalandik (4-jadval).

4-jadval

Talabalarning motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalari (Kraskel-Uolles mezoniga ko‘ra) (N=461)

Shklalar	O‘rtacha rang			N - (Kraskel-Uolles)	p
	A’lo bahoga o‘zlashtir-gan-lar N=87	Yaxshi bahoga o‘zlashtirgan-lar N=181	Qoniqarli bahoga o‘zlashtirganlar N=193		
Muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi	247.35	220.57	203,34	6.712	0.035*
Muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi	213.87	235.59	248.26	6.828	0.033*
Stresstga barqarorlik	182.29	230.23	246.47	11.789	0.003**

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01

Tadqiqot natijalarga tayanadigan bo‘lsak, a’lo bahoga o‘zlashtirgan talabalarda muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi (H=6.712, p<0,05) boshqa guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori (farqqa egaligi) ekanligini ko‘rish mumkin. Muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi qoniqarli bahoga o‘zlashtirgan talabalarda ustunlik qilishi aniqlandi (H=6.828, p<0,05). Stressga

barqarorlik shkalasi bo‘yicha talabalar quyidagi natijalarni qayd etishdi: a’lochi talabalar – 182.29, yaxshi bahoga o‘zlashtirganlar – 230.23, va qoniqarli o‘zlashtiruvchilar – 246.47. Guruhlarning stressga barqarorlik shkalasi bo‘yicha natijalari orasida sezilarli darajada farqlar kuzatildi (H=11.789, p<0.001). Stress holati ko‘p hollarda o‘spirinlik davrida ko‘proq uchraydi. Chunki o‘spirinlar ko‘proq his-tuyg‘ularga beriladi, turli muhitlarga moslashishga to‘g‘ri keladi. Bu omillar esa – stressor vazifasini o‘taydi. Albatta, oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchi talaba-yoshlar ham turli stressni yuzaga keltiruvchi omillardan himoyalanmagan. Ushbu holat talaba yoshlar hayotida chuqur iz qoldirishi, psixologik muhitning buzilishiga olib kelishi, shuningdek, uning akademik o‘zlashtirishiga bevosita salbiy ta’sirini o‘tkazishi tabiiy.

Keyingi jadvalda talabalarning motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalarni jinslar o‘rtasida farqli jihatlari aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Talabalarning motivatsiya sohasi va stressga barqarorligini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalari

Shklalar	O‘rtacha rang		U (Mann-Uitni mezoni)	p
	Talaba qizlar N=260	Talaba yigitlar N=201		
Muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi	113.64	111.97	5888	0.851
Muvaffaqiyatdan qochish motivatsiyasi	122.45	97.73	4663.5	0.005**
Stresstga barqarorlik	112.34	114.06	5885.5	0.839

Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, muvvafaqiyatga intilish motivatsiyasi va stressga barqarorlik shkalalari bo‘yicha talaba qizlar va yigitlar o‘rtasidagi farq kuzatilmadi, bu natija standart me’yorga ko‘ra, o‘rtacha darajani tashkil etadi.

Muvaffaqiyatdan qochish shkalasida o‘rtacha rang miqdori qizlarda R=122.45, yigitlarda R=97.73 qiymat aniqlandi. Ikki guruh talabalari o‘rtasida sezilarli farq kuzatildi (H=4663.5, -p<0,05).

Xulosa qilib aytganda, talabalarning axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv sohasini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ko‘ra, qoniqarli bahoga o‘zlashtirgan talabalar uchun «axborotlarni qayta ishlash tezligi» shkalasi bo‘yicha olgan ballari a’lo va yaxshi bahoga o‘qiyotgan talabalarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichni qayd etganligi, «xotira» shkalasi (yon atrofida sodir bo‘ladigan voqelikni esda saqlab qolishi, qaytadan esga tushirishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, keyinchalik undan unumli foydalanish sifatlari) bo‘yicha olingan natijalar a’lochi talabalarning qolgan ikki guruhga nisbatan sezilarli darajada ustunlik qilishini ko‘rsatdi. Har bir talabaning o‘quv-ilmiy faoliyatiga, uning o‘zlashtirish darajasiga axborotlarni qayta ishlash tezligi va kognitiv soha katta ta’sir ko‘rsatishini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Jabborov A.M. O‘qituvchi etnopsixologiyasi. “Nasaf” nashriyoti. Q.: 2009 y., - 180 b.
2. Jabborova M.A. Talabalar akademik o‘zlashtirishining psixologik determinantlari. P.f.f.d.(PhD) diss. B.: 2024 y., - 142 b.
3. Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo‘nalishlari. “O‘zbekiston”, T.: 1999 y., - 32 b.
4. Rasulov A.I. O‘qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat darajalari. P.f.n. diss. T.: 2001 y., - 177 b.
5. Гордеева Т.О. Психология мотивации достижения. М.: Смысл: Academia; 2006. - 336 с.
6. Ишков А.Д. Учебная деятелност студента: психологические факторы успешности. М.: Изд-во АСВ, 2004. 224 с.
7. Шапоров А.М. Педагогические условия академической успешности обучающихся: автореф. дис... канд. пед. наук. – Ярославль, 2022. – 23 с.

Ashirova Sojida Baxramovna
Qarshi davlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:sojidaashirova@gmail.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola mazmunida 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr alohida ahamiyatga ega bo’lgan davri yoki maktabgacha yosh davri bo’lib hisoblanishi haqida so’z yuritilgan bo’lib maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini, ularning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini, ichki va tashqi qiyofasidagi sifat o‘zgarishlari inobatga olish bu yoshdagi bolalarning hayotga psixologik moslashishini ta’minlashi haqidagi manbalar berilgan. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning sezgisi, idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri, tafakkuri, nutqi, xayoli, hissiyoti va irodasining rivojlanishi haqidagi fikrlar keltirilgan. Maqolada keltirilgan manbalar maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi muammosi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borayotganlar uchun foydali hisoblanadi.*

Kalit so’zlar: *kichik guruh, o’rta guruh, katta guruh, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot, iroda .*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматривается период от 3 до 7 лет как особо важный период дошкольного возраста, приводятся источники о том, как учет психологии детей дошкольного возраста, их уникальных особенностей, качественных изменений во внутреннем и внешнем облике обеспечивает психологическую адаптацию детей этого возраста к жизни. В статье изложены представления о развитии у детей дошкольного возраста восприятия, восприятия, внимания, памяти, воображения, мышления, речи, фантазии, эмоций и воли.*

Ключевые слова: *малая группа, средняя группа, большая группа, интуиция, восприятие, внимание, память, воображение, мышление, речь, фантазия, эмоция, воля.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. *The content of this article discusses the period from 3 to 7 years of age as a period of special importance or preschool age, and provides sources on the psychology of preschool children, their unique characteristics, and qualitative changes in their internal and external appearance, which ensure the psychological adaptation of children of this age to life. The article presents ideas about the development of perception, perception, attention, memory, imagination, thinking, speech, imagination, feelings and will of preschool children.*

Keywords: *junior group, middle group, senior group, perception, perception, attention, memory, imagination, thinking, speech, imagination, feelings, will.*

Kirish. Odam ontogenezida 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr alohida ahamiyatga ega bo’lgan davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini, ularning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini, ichki va tashqi qiyofasidagi sifat o‘zgarishlari inobatga olgan holda bu davrni ham 3 davrga ajratish mumkin:

- Kichik guruh yoshi (3-4 yosh)
- O’rta guruh yoshi (4-5 yosh)
- Katta guruh yoshi (6-7 yosh)

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha

yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, oilaning katta yoshli kishilari tomonidan bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Oilaning katta avlodi tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining na’munalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Maktabgacha yoshdagi bolaga xos tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Bolalar oilaning katta avlodi bilan bo’ladigan munosabat orqali axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi[1:163].

Shveysariyalik psixolog va filosof olim Piaje bolalarning kognitiv rivojlanishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Tadqiqotlarning birida 4-6 yoshli bolalardan bir-biri bilan teng bo‘lgan idishlardagi suvning miqdori so‘ralgan. Bolalar “Idishlardagi suv miqdori teng”-deb javob berishgan. Aynan shu miqdordagi suv bolalar ko‘z o‘ngida turli xil balandlikdagi idishlarga quyilib, so‘ngra qaysi idishdagi suv miqdori ko‘pligini so‘ralganida bolalar ingichka, lekin baland idishdagi suvning miqdori ko‘pligini aytishgan. Bolalar aynan o‘sha suv miqdorini yana bir-biri bilan teng bo‘lgan idishlarda ko‘rganlaridan so‘nggina o‘z javoblari noto‘g‘riligini bilganlar. Aynan shunday tajriba bir xil kattalikdagi plastilin shakllari o‘zgartirilganida hamda teng miqdordagi tugmachalar orasi ochiqroq qilib qo‘yilgan qatordagi tugmachalar bilan solishtirilganida ham xuddi shunday javoblar bo‘lgan. Bu tajriba 6-7 yoshli bolalar asosan ko‘rganlari bo‘yicha fikrlashlarini isbotlab beradi[1:91].

Mamlakatimizda B.R.Qodirov rahbarligida D.B.Hakimova tomonidan “5-7 yoshli bollalar bilish jarayonlarini rivojlanishining yosh va jins xususiyatlari” mavzusida tadqiqot olib borilgan. D.B.Xakimovaning tadqiqotlarida quyidagi natijalar aniqlandi: 5 yoshda psixologik belgilar kuchli namoyon bo‘ladi, bir xil psixik belgilar o‘g‘il bolalar va qizlarda turli yosh davrlarida, turli darajada namoyon bo‘lishi aniqlandi[1:88]

S.A.Axundjanova tomonidan “Maktabgacha yoshdagi bolaning turli muloqot vaziyatlarida nutqi funksiyalari va shakllari xususiyatlari” mavzuida tadqiqot ishi olib borilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, bu yosh davrida nutq shakllarining rivojlanishida syujet-rolli o‘yinlar jarayonida muloqot bilan birgalikda tengdoshlari bilan mahsuldor faliyat turlari ham qulay sharoit hisoblanadi[1:102].

Tahlil va natejalar (Analysis and results).

Maktabgacha yoshdagi bolalik davrining boshqa yosh davrlaridan farqli jihatlaridan biri shuki bu davrda bolalarning sezgisi, idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri, tafakkuri, nutqi, xayoli, hissiyoti va irodasining rivojlanishi jadal kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok - bu yoshdagi bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o‘yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o‘yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslanadilar chuki bu yoshdagi bolalar atrofdagi predmetlarni chuqur tahlil qila olmaydilar. Maktabgacha yoshidagi bolalar oiladagi kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida oilaning katta avlod kishilari ularga turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o‘rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini quydagilarga qaratish muhim bo’ladi:

1. Suratning mazmunini to‘g‘ri idrok qilishga;

2. Suratning umumiy ko‘rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga;

3.Tasvirlangan narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat – bu yoshdagi bolalarning diqqati ularda kechadigan har qanday faoliyatning doimiy yo‘ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bilamizki maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Bu yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotirasi - bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o‘z oldiga qo‘ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko‘rgazmali, obrazli bo‘lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko‘proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ustunlik qiladi. Bola so‘zlarni hech qanday ma’nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, oilaning kattalari ta’sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham astasekin rivojlana boradi. Bu yoshidagi bolalar o‘zlari uchun ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur - maktabgacha yosh davrida statik tasavvurning ustunligi kuzatiladi. Uch yoshli bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Bolalardagi tasavvurning o‘sishiga o‘yinlar, turli mashg‘ulotlar, she’r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so‘zlarni ham, hatto chet tillardagi so‘zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko‘pining ma’nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Oiladagi kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko‘proq so‘zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo‘lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o‘z o‘yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki oiladagi kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o‘sishlari uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri – bu yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning maktabgacha yoshidagi davrida juda tez rivojlanadi. Buning sababi, bu yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo‘lishi, va bu yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Maktabgacha yoshidagi bolalarda har xil sohalarga doir savollarning tug‘ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasa, undagi qiziquvchanlik so‘na boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xayoli - bu yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman faoliyatlarida o‘sib boradi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bu yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo‘lmas edi. Bu yoshidagi bolalar xayolining o‘sishiga faol ta’sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshittanlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabatlari yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi - oilada bolalar bilan bir yashayotgan oilaning katta avlodi bolalar uchun nutqini o‘stirish bilan shug‘ullanuvchi asosiy shaxs bo’lib ular bu yopshdagi bolalar bilan ishlashda bu yoshidagi bolalarning ba’zi hollarda o‘z nutq sifatlarini to‘la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to‘la takomillashmagan bo’ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir[2:65].

Maktabgacha yoshdagi davrning boshqa yosh davrlaridan yana bir farqi shundaki bu yoshdagi bolalarda bir qancha axloqiy tushunchalar qat’iylashib boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan oilaning katta avlod vakillari, shuningdek,

tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, oilaning katta avlod vakillarining ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta’sirida o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda muhimdir.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun oilaning katta avlod vakillari tomonidan beriladigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma’naviy axloq me’yor va qoidalarini, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, insonlar, hayvonlar va predmetlar bilan muomala qilish me’yorini egallaydilar. Bunday me’yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Maktabgacha yosh davrining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e’tiborli, mehribon bo‘lish xususiyati ham shakllanadi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Bu yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari ko‘p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini qo‘zg‘aydi.

Katta guruh yoshidagi bolalarning burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog‘liqlik bor. Oilaning katta avlod vakillari tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg‘ulari paydo bo‘lsa, biron tartib qoidani buzib qo‘yganlarida xafalik, ta’bi xiralik hissi tug‘iladi. Shuningdek, mazkur yoshdagi bolalarda ma’naviy hissiyotlardan o‘rtoqlik, do‘stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Oilaning katta avlod vakillari bu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o‘sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, oilaning katta avlod vakillari tomonidan bolani majburan yozishga o‘rgatish hali barmoq muskullari to‘liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma’lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o‘z-o‘zidan bolani o‘ziga nisbatan ishonchini yoki o‘qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin[2:78].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

S.Jalilova mualifligida yaratilgan “Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya” nomli o’quv qo’llanmada maktabgacha yosh davri va uning mazmuni haqida olib borilgan tadqiqotlar va ularning mazmuni haqida so’z yuritilgan. Qo’llanmada maktabgacha yosh davriga shunday ta’rif berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrining boshqa yosh davrlaridan farqli jihatlaridan biri shuki bu davrda bolalarning sezgisi, idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri, tafakkuri, nutqi, xayoli, hissiyoti va irodasining rivojlanishi jadal kechadi. Keyingi adabiyot Sh.A.Do‘stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova, G.Ziyavitdinovalarning hamkorligida yaratilgan. Umumiy psixologiya (yosh davrlari va pedagogik psixologiya) nomli darslik bo’lib unda muammo mazmuniga oid quydagi fikr keltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini, ularning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini, ichki va tashqi qiyofasidagi sifat o‘zgarishlari inobatga olgan holda bu davrni ham o’ziga xos bo’lgan kichik davrlarga ajratish mumkin:

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sodir bo’ladigan fiziologik va psixologik rivojlanish hamda o‘zgarishlar murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayonni o’rganishda bu davrning o‘ziga xos xususiyatlarga ahamiyatli bo’lish bilan birga bir nechta talablarni barajrish talab qiladi. Biz olib boradigan pedagogik-psixologik yondashuvlar bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish jarayoni o‘z-o‘zini anglash, turli faoliyatlarni boshqarish va hayotga ijtimoiy moslashuv kabi masalalar ular uchun muhim ahamiyat kasb etishi lozim deb ko’rsatiladi. Shu sababli pedagoglar va psixologlar, o‘zlarining yondashuvlarini maktabgacha yoshdagi bola shaxsning ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqishlari kerak. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish va o‘zgarishlarni to‘g‘ri

yo‘lga qo‘yish, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish, psixologik yordamni taqdim etish va pedagogik metodlarni qo‘llash bu jarayonni samarali tarzda boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. S. Jalilova «Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya» o’quv qo’llanma «Innovatsiya-Ziyo» T.: 2020-yil 302-bet
2. Sh.A.Do‘stmuhamedova va boshqalar «Umumiy psixologiya (2-kitob) Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» darslik T.: 2020-yil
3. Z. T. Nishanova «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» darslik Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil 600 bet
4. M. Maxsudova «Muloqot psixologiyasi» o`quv qo`llanma T.: «Turon-iqbol» nashriyoti 2006-yil 119 bet
5. U. I. Inoyatov, N. A. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Inog`omova «Pedagogika» metodik qo`llanma T.: 2012-yil 456 bet.

Baxronova Komila Yadgorovna
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti dotsent
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'QUVCHILARDA DISFUNKSIONAL XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quvchilarda disfunksional xulq-atvor namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (determinantlar) tahlil qilinadi. Disfunksional xulq-atvor tushunchasining mohiyati, uni keltirib chiqaradigan ichki va tashqi omillar hamda bunday holatlarni oldini olish yo'llari yoritib beriladi. Maqsad — ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik yondashuvni takomillashtirish va profilaktik choralarni belgilashdan iborat.*

Kalit so'zlar: *disfunksional xulq-atvor, psixologiya, ta'lim, yosh psixologiyasi, determinantlar, korrektsion choralar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ДИСФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические детерминанты, влияющие на проявление дисфункционального поведения у учащихся. Раскрывается сущность понятия дисфункционального поведения, внутренние и внешние факторы, способствующие его формированию, а также пути профилактики подобных проявлений. Цель — совершенствование психологического подхода в образовательном процессе и определение профилактических мер.*

Ключевые слова: *дисфункциональное поведение, психология, образование, возрастная психология, детерминанты, коррекционные меры.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF DYSFUNCTIONAL BEHAVIOR MANIFESTATION IN STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the psychological determinants influencing the manifestation of dysfunctional behavior in students. It explores the essence of the concept of dysfunctional behavior, the internal and external factors that cause it, as well as strategies for preventing such conditions. The main objective is to improve the psychological approach in the educational process and outline effective preventive measures.*

Keywords: *dysfunctional behavior, psychology, education, developmental psychology, determinants, corrective measures.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning ruhiy sog'lomligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ta'lim muassasasida o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy va ma'naviy holatlari kuzatib borilishi talab etiladi. Keyingi yillarda ta'lim muassasalarida uchrayotgan muammolardan biri — disfunksional xulq-atvor holatlarining ortib borishi. Bunday xulq-atvor nafaqat ta'lim jarayoniga, balki shaxsiy rivojlanishga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bu holatlarni keltirib chiqarayotgan psixologik determinantlarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimizda yoshlar psixik tarakkiyotida hal etish zarur bulgan milliy psixologik muammolar mavjudki, mazmunan ularni bartaraf etishga e'tibor berilsada, yoshlar tarbiyasiga oid salbiy holatlar, kamchiliklar, ijtimoiy munosabatlar tizimida nizoli vaziyatlar uchrab turibdi. Ta'kidlash joizki, barcha mamlakatlarda bulgani kabi yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi 0Fir va nokobil farzandlar mavjud bulib, jamiyatimizda ularning tarbiyasiga alox,ida e'tibor karatish, ular bilan ishlash azaldan dolzarb muammolardan biri x,isoblangan**.**

Ma'lumki, bolalarning psixik jihatdan o'sishi va rivojlanishi, hayotning hamma boskichlarida bir xil bo'lmay, balki ularning yoshi xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har

xil o'zgarib boradi. Xar bir ota-ona, o'qituvchi-tarbiyachilar bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida bolaning psixik xususiyatlarini bilgan holda amaliy hayotda bu ishga to'g'ri yondashishlari maqsadga muvofiqdir. Aksincha, tarbiyaviy ishdagi e'tiborsizlik, salbiy muhit, ziddiyatlar, tarbiya qoida va usullariga to'g'ri amal qilmaslik, yoxud yaxshi bilmaslik, ota-onalarning o'z farzandlariga doimiy ravishda qo'rslik munosabatda bo'lishlari yoshlar orasida tarbiyasi "qiyin" bolalarning ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Albatta, quyida sizning matningiz qayta ifoda etilgan (perefrazlangan) variantida keltiriladi. Unda mazmun saqlanib, ifodalar yengilroq va akademik uslubda ifodalangan:

Mavzuni o‘rganish darajasi. Psixologiya fanining turli bosqichlarida «tarbiyasi qiyin» bo‘lgan o‘smirlar bilan ishlash muammoli sohalardan biri bo‘lib kelgan. Hozirgi kunga kelib ham, ushbu muammolarga to‘liq yechim topilgani yo‘q. Tarbiyadagi qiyinchiliklar va ular bilan bog‘liq xulq-atvor buzilishlarining shakllanish jarayoni bir qator psixolog olimlar — E.Fromm, G.Kayzer, B.Xolist, G.Shnayder, N.P.Dubinin, V.N.Kudryavtsev, M.I.Buyanov, P.B.Ganushkin, A.I.Zaxarov, I.I.Kovalev, Z.F.Kamaletdinova, M.A.Alemaskin, G.G.Bochkareva, A.I.Dolgova, V.M.Karimov, D.I.Felьdshteyn, E.F.Foziyev, A.S.Belkin, L.S.Vigotskiy, M.G.Davletshin kabi olimlar tomonidan har tomonlama o‘rganilgan. Shu bilan birga, M.A.Alemaskin, V.A.Suxomlinskiy, L.M.Zyubin singari mutaxassislar salbiy xulq-atvor sabablarini tahlil qilib, uning oldini olish va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda psixologik omillarning ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar.

Muammoning nazariy tahlili. Ta'lim muassasalarida uchrayotgan xulq-atvor buzilishlarining asosiy sabablari ijtimoiy va psixologik dezadaptatsiya bilan bog‘liq ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Bir tomondan, bu o‘zgarishlar o‘smir shaxsiyatidagi motivatsiya, his-tuyg‘u, iroda va axloqiy qadriyatlar sohalaridagi muvozanatsizlik bilan bog‘liq (G.G.Bochkareva, V.V.Lebedinskiy, L.S.Slavina, A.S.Spivakovskaya); ikkinchi tomondan esa, salbiy oilaviy tarbiya ta'siri muhim rol o‘ynaydi (A.A.Aladьin, P.F.Lestgaft, A.E.Lichko, E.G.Eydemiller, V.V.Yustitskiy, D.Muxammedova).

O'smirlik yoshi psixologiyasida alohida ahamiyat kasb etuvchi nazariyalardan biri — L.S.Vigotskiy tomonidan XX asr boshlarida ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy kontseptsiyadir. Ushbu nazariyada o‘smirlik davridagi o‘zgarishlar, psixologik xususiyatlar va barqarorlik-o‘zgaruvchanlik munosabatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Vigotskiy ta'kidlaganidek, "qiyin" o‘smir shaxsiyati uning ijtimoiy munosabatlari va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Bugungi kungacha tarbiyasi qiyin o'smirlarning salbiy xususiyatlari, ularni bartaraf etish, ular bilan individual munosabatda bo'lish yo'l-usullari ko'pgina olimlar (N.P.Dubinin, B.F.Sergeyev, L.S.Vigotskiy va boshkalar) tomonidan o'rganib kelingan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda disfunksional xulq-atvor namoyon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi psixologik determinantlarni aniqlash, ularning kelib chiqish mexanizmini tahlil qilish hamda bunday xulq-atvorni bartaraf etish va profilaktika qilishga qaratilgan samarali psixologik tavsiya va korrektsion chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Disfunksional xulq-atvor tushunchasining mazmuni va turlarini tahlil qilish, uning psixologiyadagi ilmiy ta'riflarini o‘rganish.
2. O‘quvchilarda disfunksional xulq-atvorni keltirib chiqaradigan psixologik determinantlarni tasniflash va tizimlashtirish.
3. Bunday xulq-atvor namoyon bo‘lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, ayniqsa oila, maktab va ijtimoiy muhit ta'sirini o‘rganish.
4. O‘quvchilarda disfunksional xulq-atvor holatlarining psixologik portretini shakllantirish va ularning yosh, jins, tarbiya sharoitiga ko‘ra farqlarini tadqiq etish.
5. Mavjud korrektsion va profilaktik yondashuvlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash.
6. O‘quvchi shaxsiyatida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladigan psixologik tavsiyalar va korrektsion chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.

Disfunksional xulq-atvor tushunchasi va uning turlari

Disfunksional xulq-atvor — shaxsning ijtimoiy mezonlar va normalarga zid bo‘lgan, o‘ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazuvchi xulq shakli hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, o‘smirlik davrida namoyon bo‘lishi mumkin. Olimlar disfunksional xulq-atvorni quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganadilar:

№	Xulq-atvor turi	Aniqlanish belgilari
1	Agressiv xulq-atvor	Fizik yoki og‘zaki tajovuz, ziddiyatlarga moyillik
2	Asotsial xulq-atvor	Qonunbuzarlik, jamiyat qoidalariga zid harakatlar
3	Introvert xulq-atvor	Yolg‘izlikka moyillik, ijtimoiy faollikning pasayishi
4	Manipulyativ xulq-atvor	Boshqalarni nazorat qilishga urinish, ishonchni suiiste'mol qilish

Har bir ko‘rinishning o‘z psixofiziologik va ijtimoiy asoslari mavjud bo‘lib, ularni aniqlash orqali individual yondoshuvni ishlab chiqish mumkin.

Disfunksional xulq-atvorning psixologik determinantlari O‘quvchida disfunksional xulq shakllanishida qator psixologik omillar ishtirok etadi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi determinantlarga bo‘lish mumkin:

1. Ichki (intrapsixik) determinantlar:

Shaxsiy emotsional fon — depressiya, xavotir, past salohiyatlilik hissi.

Temperament xususiyatlari — impulьsivlik, qo‘zg‘aluvchanlik, turg‘unlik.

O‘zini anglash muammolari — o‘z qiymatini past baholash, ijtimoiy izolyatsiya.

Ehtiyojlar va motivatsiyadagi nosog‘lom tendentsiyalar — e'tirofga bo‘lgan ortiqcha ehtiyoj, negativ diqqatni jalb qilishga urinish.

2. Tashqi (ekstropsixik) determinantlar:

Oila muhiti — zo‘ravonlik, muhabbat yetishmasligi, nazoratsizlik.

Maktab muhiti — muallimlar bilan munosabatdagi muammolar, sinfdoshlar tomonidan chetlatish.

Jamiyat ta'siri — ommaviy axborot vositalari, internet muhiti, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta'sir.

Sog‘liq va biologik omillar — neyropsixologik buzilishlar, gormonal disbalans.

3. Ilmiy tadqiqot natijalari 2024 yilda o‘tkazilgan empirik tadqiqotda 13–17 yoshli 200 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular bilan so‘rovnoma, kuzatuv va psixodiagnostik testlar asosida ish olib borildi. Olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda disfunksional xulq-atvor namoyon bo‘lishi bir qancha asosiy psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi:

1. Tahlil natijalariga ko‘ra, 36% o‘quvchida turli darajadagi agressiv xulq-atvor belgilari kuzatildi. Bu holat, asosan, nazoratsizlik, ehtirosli holatlarga moyillik va qobiliyatlarni noto‘g‘ri ifoda etish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

2. 27% o‘quvchida ijtimoiy izolyatsiya, ya'ni yolg‘izlik, guruhda qatnashmaslik va o‘ziga tortilish holatlari aniqlandi. Bu ko‘rsatkich ichki faoliyatning pasayishi va kommunikativ kompetentsiyalar yetishmasligi bilan bog‘liq.

3. 41% holatda disfunksional xulq-atvorning kelib chiqishi oiladagi nosog‘lom munosabatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi ma'lum bo‘ldi. Bunda ota-ona munosabatlarining keskinligi, ehtiyojlarni inkor etish, jismoniy yoki ruhiy bosimlar asosiy rolь o‘ynaydi.

4. Ehtiyoj-motivatsiyaviy test natijalari asosida 48% o‘quvchi “diqqat markazida bo‘lish”ga ortiqcha intilish bilan ajralib turgani aniqlandi. Bu holat ko‘pincha noto‘g‘ri tarbiya, yoki muhitdagi ehtiyojlar qondirilmasligi natijasida paydo bo‘ladi.

5. Psixodiagnostik testlar va so‘rovnomalar asosida aniqlandiki, disfunksional xulq-atvor namoyon bo‘layotgan o‘quvchilarning aksariyatida o‘z-o‘zini baholash darajasi yoki juda past, yoki

noreal darajada yuqori. Bu holat shaxsiy identifikatsiya va ichki barqarorlikning buzilishiga dalolat beradi.

6. Ko‘p hollarda bunday xulq-atvor shakllanishida maktab muhiti, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri ham sezilarli darajada namoyon bo‘lgan.

Amaliy tavsiya o‘rnida ushbu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishdagi ishlar samarali hisoblanadi:

Individual psixologik maslahatlar — o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatini shakllantirish.

Guruhviy psixokorrektsion mashg‘ulotlar — muloqot madaniyati, hamdardlik hissini rivojlantirish.

Ota-onalar uchun treninglar — bolalar bilan samarali muloqot qilish, munosabatlar sifatini yaxshilash.

Maktab psixologi bilan doimiy ish — holatni muntazam kuzatish va baholab borish.Umumiy xulosa sifatida, o‘quvchilardagi disfunksional xulq-atvor ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning rivojlanishiga biologik, shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy omillar ta'sir ko‘rsatadi. Bu esa muammoga faqat yakka holda emas, balki kompleks va tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda disfunksional xulq-atvor namoyon bo‘lishi juda ko‘p qirrali masala bo‘lib, uning psixologik determinantlarini anglash orqali samarali choralar ishlab chiqish mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim muassasalari, balki ota-onalar va jamiyat zimmasiga ham mas'uliyat yuklashi lozim. Ilmiy yondashuv va amaliy tadbirlar orqali ushbu muammolarni kamaytirish, sog‘lom va ijodiy muhit yaratishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdurahmonov B. "Yoshlar psixologiyasi", Toshkent, 2021.
2. Anderson, C.A., & Bushman, B.J. (2002). Human aggression. Annual Review of Psychology, 53, 27–51.
3. Vlasova T.A. Sotsialьno-psixologicheskiye osobennosti podrostkov s otklonyayuщimsya povedeniyem. — M., 2016.
4. Karimova Z.M. "Maktab psixologiyasi", Toshkent, 2020.
5. Mahoney M.J. "Human Change Processes", Basic Books, 1991
6. Rozenberg M. Obщaya samootsenka lichnosti: diagnostika i korrektsiya. — M.: Prosveщeniye, 2002.
7. Shneidman L.M. Psixologiya deviantnogo povedeniya shkolьnikov. — SPb.: Piter, 2009.
8. Yermolayeva T.P. "Psixologiya deviantnogo povedeniya", Moskva, 2019.
9. Vygotsky L.S. "Mind in Society", Harvard University Press, 1978.
10. Qosimova N. Bolalar psixologiyasi va ta'limdagi korrektsion yondashuvlar. — Toshkent, 2020.

Djurabayeva Zamira Axmedovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: zamiradjurabayeva-1958@gmail.com

EKOLINGVISTIKA – INSON VA TABIAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI ISTIQBOLLI YO‘NALISH

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalishlardan bo‘lgan ekolingvistika, uning shakllanishi, rivoj topishi, ekologik terminosistema, uning lug‘at zaxirasi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Til ekologiyasi, ona tilini asrab-avaylash, uning sofligini ta’minlash bo‘yicha qilinayotgan ishlarga to‘xtalib ketilgan. Ekologiya terminlari izohlangan, ularning qo‘llanishiga badiiy asarlardan misollar keltirilib, sharhlagan.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, tilshunoslik, ekolingvistika, ekologik soha, ekologiya terminlari, ekologik terminosistema, ona tili, ona tili sofligi, ekologiya yo‘nalishlari, davlat tili.*

ЭКОЛИНГВИСТИКА – ПРИОРИТЕТНАЯ НАПРАВЛЕНИЯ, ВЫРАЖАЮЩАЯ ОТНОШЕНИЕ МЕЖДУ ЧЕЛОВЕКОМ И ПРИРОДОЙ

Annotatsiya. *В статье содержатся комментарии об эколингвистике, новом направлении в узбекском языкознании, его становлении, развитии, экологической терминологии и ее лексике. Были затронуты вопросы языковой экологии, сохранения родного языка, проводимой работы по обеспечению его чистоты. Объясняются термины экологии, приводятся и поясняются примеры их использования из произведений искусства.*

Ключевые слова: *экология, лингвистика, эколингвистика, экологическое поле, экологические термины, экологическая терминология, родной язык, чистота родного языка, направления экологии, государственный язык.*

ECOLINGUISTICS - A PROSPECTIVE DIRECTION THAT REPRESENTS THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMANS AND NATURE

Annotation. *The article contains comments about ecolinguistics, a new direction in Uzbek linguistics, its formation, development, environmental terminology and its vocabulary. Issues of linguistic ecology, preservation of the native language, and work being carried out to ensure its purity were raised. The terms of ecology are explained, examples of their use from works of art are given and explained.*

Key words: *ecology, linguistics, ecolinguistics, ecological field, environmental terms, environmental terminology, native language, purity of the native language, directions of ecology, state language.*

Kirish. Bugungi global dunyodagi eng katta muammolarning yechimi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning qay darajada yo‘lga qo‘yilganiga ko‘p tomonlama bog‘liq bo‘lib qoldi. Boisi inson hozirda o‘z maqsadlari yo‘lida tabiiy boyliklardan maksimal darajada foydalanmoqda, yashash sharoitlarini yaxshilash, oziq-ovqat tanqisligini ozaytirish uchun yer va suv resurslaridan rejasiz foydalanmoqda, fauna va flora dunyosiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Natijada, o‘simliklar, o‘rmonlar, hayvonot olamidagi ayrim noyob turlar yer yuzidan butunlay yo‘qolib ketmoqda. Masalan, birgina O‘zbekistonda *qoplon, sirtlon, qoraquloq, asalxo‘r, xongul, arxar, Orol sulaymonbalig‘i, Amudaryo gulbalig‘i* kabi 174ta noyob hayvonlar; *qizil lola, sallagul, shirach, chakanda, xolmon isirg‘asi, zubturum, tuxumak, burchoq* kabi 324ta o‘simlik turi bugun “Qizil kitob”ga kiritilgan. Agar munosabatlar shu taqlid davom etadigan bo‘lsa, yaqin kelajakda bizni boqib turgan yer va suv resurslaridan butunlay ajrab qolishimiz mumkin. Ular bilan birgalikda xalqimiz tomonidan yaratilgan va asrlar davomida muomala-munosabatlarda faol qo‘llanib kelingan yuzlab leksik birliklardan musovo bo‘lish hech gap emas.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ekolingvistikaning fan sifatida paydo bo‘lishida amerikalik tilshunos Eynar Ingvald Xaugenning o‘rni katta. Olim 1972-yili Stenfordda “The Ekology of Language” nomli asarini chop ettirdi. Mazkur asar ekolingvistika fani uchun qo‘yilgan tamal toshi bo‘ldi.

Uning fikricha: “*Til ayricha faoliyat ko‘rsatadigan hodisa emas, balki faqat muomala vositasi sifatida mavjud bo‘lgan uzluksiz jarayon sanaladi*” [1;1-366 s.]. E.Xaugen asosan tilning muomala vositasi sifatida uzluksiz jarayondan iborat bo‘lgan jihatiga e’tibor qaratmoqda.

Dunyo tilshunosligida ekolingvistika ikki yo‘nalishda taraqqiy etmoqda. Birinchisi yo‘nalish ekologik lingvistika (ekolingvistika) deb atalib, o‘zida ekologik terminlar, ularning paydo bo‘lish tamoyillari, turlari, tasniflari, funksional-uslubiy ko‘rinishlari bilan shug‘ullanmoqda. O‘zbek tilida ham ekologiya bilan bog‘liq boy leksik tizim shakllandi va muttasil taraqqiy topib bormoqda. Xorij tillarida bu yo‘nalishda E.Xaugen, U Makkey, A.Fill, P.Finke; rus tilida A.P.Skovorodnikov, V.P.Grigoreva, S.I.Vinogradova, V.V.Kolesova, Y.N.Karaulov, V.K.Juravlev, V.G.Kostamarovlarning tadqiqotlari mavjud [2; c. 65-75]. Ular makroekolingvistika va mikroekolingvistikani farqlaganlar [3; elektronniy resurs].

Ikkinchi yo‘nalish til ekologiyasi deb ataladi. M.Xollidey, V.Trampe, I.Shtork, M.Dyoring, P.Myulxoysler kabi tadqiqotchilar til ekologiyasi masalalari bilan jiddiy shug‘ullandilar. Milliy tillarni sof holda saqlash, ularning tozaligini ushlab turish, tillarning tanazzulga yuz tutmasligining choralari ko‘rish mazkur yo‘nalish tarafdorlarining bosh g‘oyasi edi.

Tabiat boyliklarini asrash-avaylash, kurramizdagi biologik xilma-xilliklarni saqlab qolish uchun botanika, biologiya, zoologiya, geografiya, jamiyatshunoslik, tabiatshunoslik kabi fanlar kesishgan ekologik lingvistika degan yangi fan shakllandi va boshqa tillarda bo‘lgani singari o‘zbek tilshunosligida ham u jadal rivoj topdi, mazkur yo‘nalishda bir nechta disertatsiyalar himoya qilindi [4; 1-88; 1-140; 1-49 б.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologiya so‘zi yunoncha ***oikos*** – *vatan, uy va* ***logos*** – *fan, ta’limot* so‘zlaridan olingan bo‘lib, birgalikda yashaydigan tirik rganizmlarning o‘zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan munosabatini, shuningdek, olam va biosfera o‘rtasidagi munosabat masalalarini o‘rganuvchi fan nomini bildiradi [5; 25-b.].

Tilimizda *ekologiya* termini ishtirokida hosil qilingan *ekologik ong, ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik harakat, ekologik toza mahsulot, ekologik munosabat* singari ko‘plab birikma terminlar faol qo‘llaniladi. Ularda jamiyatning atrof-muhitga, tabiatga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabatlari u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. *Ekologik kulfat, ekologik xavf, ekologik tanglik, ekologik inqiroz, ekologik yaroqsiz* kabi terminlarda esa buning aksi kuzatiladi.

Terminlarda qat’iy ekologik ma’no mavjud. Masalan: *bentos* – suv osti organizmlari, *bentofag* – dengiz ostidagi tirik organizmlar bilan oziqlanadigan hayvonlar nomi, *detrit* – organik loyqa, chirindi; eroziya – yemirilish, smog – tutun va tuman aralashmasi kabi. Bu terminlar rus tili yoki u orqali boshqa chet tillardan o‘zlashgan terminlar sanaladi. Terminologik tizimda cho‘llashish, sahrolanish, iqlimlashtirish, tindirgich, changlashish kabi sof o‘zbekcha leksik birliklarga ham duch kelinadi. Bu faktlar o‘zbek tilida ekolingvitsika fanining shakllanib bo‘lganligini va hozirda tilshunoslikning eng istiqbolli yo‘nalishlardan biriga aylanganini isbotlab turibdi.

Tahlil va natijalar. Rus olimasi M.A.Kovyazinaning fikricha: “Zamonaviy ilm-fanda “ekologiya” tushunchasi nisbatan keng talqin etilmoqda. Bugungi kunda ekologiya yuzlab bo‘lim va yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olgan kompleks fanlardan biriga aylandi. Ularning eng kamida o‘ttizdan ortig‘i biologiyaga taalluqli emas. Natijada ekologiya XXI asr boshlariga kelib integrativ xarakter kasb etdi. U tabiiy (fizika, kimyo, geologiya), texnik (tog‘ ishi, qurilish), ijtimoiy (ekonomika, huquqshunoslik, tilshunoslik) va boshqa fanlar bilan aralashib, o‘nlab tarmoqlarga bo‘linib ketdi va o‘z ichiga 12-14 mingtacha atama va tushunchalarni qamrab oldi [6; 7-b.]

O‘zbek tilida ham ekologik terminlar tizimi minglab terminlar va tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Unga baho berganda turli aspektlardan turib yondashilsa, bunga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, *avruk//xapri, kovul//jayrabodring//kakra, chirmovuq//zarpechak, ravoch//shukri* kabi fitonimlarning sinonimik qatori o‘zbek tilining boy va qadimiy ochilmagan qirralari xalq tilida hamon yashab kelayotganidan dalolat berib turibdi.

Misollarga e’tibor beraylik.

1. Ana, ovchi qordan tozalagan yerda o‘tlar qoldig‘i ko‘rinib turibdi. Iye, manavi xapri degan o‘simlik xashagi-ku. Tog‘liklar uni avruk ham deydi. Odamlar avrukning damlamasidan qo‘tir va boshqa teri kasalliklarini davolashda foydalanadi. Agar uning o‘tini suvga solib cho‘milsa, badanga xush bo‘y beradi. Terini mayin qilib, yaxshilaydi [7; kh-davron.uz.].

2. Kovul mevasini jayralar sevib iste’mol qilinganligi uchun yurtimiz aholisi uni jayrabodring deb ham atashadi. Qadimda Forishda yashovchi mahalliy aholi kovul mevasi va gulidan kabarbo deb nomlangan sho‘rva tayyorlaganlar [8; 4-b.].

Demak, o‘zbek tilida, ayniqsa, og‘zaki so‘zlashuv tilida qadimdan boshlab son-sanoqsiz ekologiya bilan bog‘liq terminlar qo‘llanib kelinmoqda va ularning lingvomadaniy, pragmatik hamda kognitiv xususyatlarini tadqiq etish bugungi ekolingvistika fanining eng muim vazifalaridan biridir.

Hozirda ekologiya o‘z ichida populyatsiya ekologiyasi, ekosistema ekologiyasi, evolyutsion ekologiya, qishloq xo‘jaligi ekologiyasi, radiatsion ekologiya, kosmik ekologiya, biosfera ekologiyasi, fiziologik ekologiya, embriologik ekologiya, anatomik ekologiya, kimyoviy ekologiya, biokimyoviy ekologiya, makroekologiya, global ekologiya, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, psixoekologiya, harbiy ekologiya singari oraliq fanlarga bo‘linib ketdi va ularning har biri alohida terminologik sistemachalar sifatida minglab tushunchalarni qamrab oldi.

Birgina ekologiya leksemasi ishtirokida hosil qilingan ekolog mutaxassis, ekologik bilim, ekologik burchak, ekologik vaziyat, ekologik depressiya, ekologik kelishuvlar, ekotizim singari birikmali terminlarnig har biri ostida insonning tabiatga bo‘lgan murakkab munosabatlari yashirinib yotibdi va ular o‘ziga xos izohlarga ega.

Ma’lumki, jonli organizmlar ichidagi eng oliy zot bu – insondir. Uning hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalardan biri til ekanligi hammaga ma’lum. Til insonlar o‘rtadagi munosabatlarning murakkab va ayni chog‘da o‘ta ziddiyatli turi sifatida nafaqat tilshunoslikda, balki ekologiya fanida ham o‘z o‘rniga ega.

Shu bois, ekologiya bilan bog‘liq so‘zlar ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish bizga ushbu fanning ochilmagan tomonlarini kashf etishda yaqindan yordam berishi tabiiy. Demak, ekologiya fanida ishlatiladigan leksemalarni to‘plash, ularni tasniflash va lingvistik xususiyatlarini aniqlash ekologlar bilan bir qatorda tilshunoslarning ham oldida turgan kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Birinchi galda ekologiyaga oid terminlarni to‘plash, ular ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish, tasniflash, eng muhimi, ekologiya terminlarini tartibga solish lozim. Masalan, ov, miltiq, qopqon, teri, mo‘yna, zarar, qirmoq, otmoq, shilmoq, pullamoq, daromad, vahshiylarcha, bojxona, fil suyagi, yo‘lbars terisi, jazo, jinoyat kabi lekseamalr ma’nosi hammaga tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo brakoner, milliy tabiat bog‘i, davlat qo‘riqxonasi, ekomarkaz, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan daraxt, muhofaza etiladigan tabiiy hudud, tog‘ ekotizimi, archa tog‘-o‘rmon ekotizimi, to‘qay ekotizimi, to‘qay-qumli ekotizim, tog‘-archa ekotizimi, tog‘-cho‘l ekotizimi, subalp o‘simliklar, bufer hudud, milliy qo‘riqxona, buyurtma qo‘riqxona singari terminlar ma’nosi ko‘pchilikka ma’lum emas [9;7-b.].

Terminlar ma’nosini tushunish ekologik qonun, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya bo‘yicha aholida bilim va malakalar hosil qilish uchun kalit vazifasini o‘taydi. Misol uchun quyidagi terminlar izohiga e’tibor berib ko‘raylik.

1. Brakoner – yirtqich hayvonlar va qushlarni ov qilish qoidalari hamda tabiatni asrash talablariga rioya qilmaydigan shaxs, jinoyatchi [10;12-b.].

2. Kutilmaganda uzoqdan arxarlar to‘dasiga ko‘zimiz tushdi. Tog‘begining ta’kidlashicha, arxarlar yetarli ozuqa topish uchun maqbul yaylovlar izlab, bu yerlarga kelib qolishgan. Bu qishloqlarda yashovchilarning bag‘rikengligi tufayli O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan yovvoyi qo‘ylarning muflon, arxar yoki alqar deb nomlanuvchi turlari joy saqlab kelayotir. [11; 14-b.].

3. Yo‘rg‘a tuvaloq erkagining chiroyli raqsga tushishi, o‘ziga xos jihatlari, xususan, go‘shtining shifobaxsh xususiyati bu jonivorning qirilib ketishiga sabab bo‘ldi. [124; 3-b.].

Misollardagi brakoner, muflon, arxar, alqar, “Qizil kitobi”, tuvaloq kabi leksik birliklarda aytilgan ma’no bor.

Yana bir mulohaza. Mustaqillik yillarida nashr etilgan ikki jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga o‘simlik nomlarini anglatuvchi gulbeor, gulisumbul, gulsapsar, gulhamishabahor, kovul,

sirach kabi sanoqli terminlar kiritilgan. Xalq tilida esa gulbarra, behetmak, normushk, qizg‘ish asragul, rakodes astraguli, zarhallangan kiyikpanja, Angren mumsigi, ko‘pgulli ferganiya, Aflotun piyozi, pushti sirach, sug‘ur o‘t, Turkiston fumariolasi, Oloy nataliyellasi, Oloy xiyoli, Olga sorbariyasi, Shokaptar lamiropappusi, bazulbang, omonqora, marmarak, Eron zirasi, anzur piyoz, Pskom piyozi,tilla rang sug‘uro‘t, tulki quyruq, tuyaqorin, isiriq, oq jusan, qizilburun, qo‘ng‘irbosh, eshakmiya, shirinmiya, devpechak, qizil kandir, chakanda, zog‘oza, toron, sachratqi, shotara, bobuna, itburun, ko‘k sutlama, choyo‘t, quyonsuyak, sanchiqo‘t, kovrak, savrinjon, bo‘znoch, ermon, qarovin shirachi, botqoq toshyorari kabi yuzlab terminlar mavjud [15; 4-30-b.].

Ular orasida Farg‘ona lolasi – javg‘aza lola, mehrigiyo – jenshen, bargizub – baqayaproq, qirqbo‘g‘in – chakanda, oqqaldirmoq – tanga yaproq – ko‘ka, qoratemir – sag‘zabon – dorivor g‘ozvon, sariqchoy – dalachoy – qizilpoycha, guli kamar – pilik o‘t, g‘ozpancha – g‘oztovon, gunafsha – binafsha, gulsafsar – safsan, kungaboqar – oftobparast, oqmiya – achchiqmiya, isiriq – adrasman (odirasman), chukuri– ravoch kabi o‘ta noyob sinonim so‘zlar yashab kelmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologiyaga oid terminlar azaldan xalqimiz orasida shakllanib kelgan. Ularni to‘plash va tasniflash bugun zamon talabiga aylandi. Zotan, bizni o‘rab turgan o‘simliklar va hayvonot dunyosiga mehr bilan qarasak, ularni ifodalovchi so‘z va tushunchalarni to‘plasak, ularning ma’nolarni tushunib turib, atrofimizdagilarga targ‘ib qilsak, bu bilan ona tabiatni ham asragan, ko‘z qorachig‘idek avaylagan bo‘lamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizdagi biologik xilma-xillikni ifodalash uchun qo‘llanayotgan so‘z va tushunchalarning o‘zbek tilida muntazam qo‘llanishini ta’minlash, o‘zbek tilining sofligini saqlab qolish, ishlatilayotgan leksik birliklarning amaldagi til qoidalariga mos kelishini ta’minlash, rasmiy va norasmiy yozishmalarda ekologiya atamalarini, matnlarni to‘g‘ri yozish nafaqat tilshunoslarning, ekologlarning, balki shu tilning sohibi sanalgan har insonnning xalq va jamiyat oldidagi muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Haugen E. The Ekology of Language// Haugen E. The Ekology of Language:essaus by Einar Haugen/Selested and Introduced by Anvar S.Dil.Stanford, Californiya: Stanford University Press, 1972.

2. Полутухин А.А. Современное языкознание и экологическое мышление//Опыты – 2008: Сборник научных работ преподавателей и студентов факультета филологии: научное издание/Сост.Н.М.Димитрова.-СПб.:РИО ГПА, 2009.с.65-73.

3. Кислицына Н.Н. Эколингвистика – новое направление в языкознании.-htt:www.crimea.edu/tni/cultute 37/patt/zip/rislitsina.zip.

4. Полуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. д-ри дисс. автореферати – Тошкент, 2016. – 88 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 25.

6. Ковязина М.А. Функциональная модель двуязычного экологического словаря-тезау-руса: Автореф. дис. ... канд. филол. Наук. – Тюмень, 2006. – 24 с.

7. Кенгбоев Ж. Овчининг сўнги ови/https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jasur-kengboyev-ovchining-songgi-ovi.html.

8. Шарофий Ш. Жайрабодринг мўъжизаси // Қишлоқ ҳаёти. – Тошкент, 2012 йил 14 август.

9. Аҳмедов Р. Бизга соғлом экология керак//Жамият, 2011 йил 23 сентябрь, 36-сон, 7-бет.

10. Сирожиддинова С. Браконьерлик – Табиатга берилган зарба//2012 йил 8 август, 12 бет.

11. Саидов А. Ҳимояга муҳтож архарлар //Ишонч, 2012 йил 5 июль, 82-83 сонлар, 12 бет.

12. Аликулов А. Йўрға тувалоқлар кўпаймоқда//Моҳият, 2012 йил 21 сентябрь, 39-сон, 3-бет.

Djurakulova Dilfuza Farxodovna
Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TURLI YOSH DAVRLARIDA AYBDORLIK VA UYAT KECHINMALARINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turli yosh davrlarida aybdorlik va uyat kechinmalarining tutgan o'rni, ularning bir-biridan farqli hamda o'xshash tomonlari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, funksiyalari ham nazariy ham amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqola aybdorlik va uyat hislarining turli yosh davrida shaxs ijtimoiy-psixologik hayotidagi o'rniga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *Ayb, aybdorlik hissi, uyat, vijdon, xato, qo'rquv, agressiya, ijtimoiy hissiyot, majburiyat, o'z-o'ziga munosabat, o'z-o'zini baholash, xo'rlanish, kamsitilish, pushaymonlik.*

РОЛЬ ПЕРЕЖИВАНИЯ ВИНЫ И СТЫДА В РАЗНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В статье анализируется роль переживаний вины и стыда в разном возрасте, их различия и сходства, социально-психологические особенности и функции как в теоретическом, так и в практическом плане. Статья посвящена роли чувств вины и стыда в социально-психологической жизни человека в разном возрасте..*

Ключевые слова: *вина, вина, стыд, совесть, ошибка, страх, агрессия, социальное чувство, приверженность, самооценка, самоуважение, унижение, дискриминация, раскаяние.*

THE ROLE OF EXPERIENCE OF GUILT AND SHAME AT DIFFERENT AGES

Annotation. *The article analyzes the role of guilt and shame experiences at different ages, their differences and similarities, socio-psychological features and functions in both theoretical and practical terms. The article is devoted to the role of guilt and shame feelings in the socio-psychological life of a person at different ages.*

Key words: *guilt, guilt, shame, conscience, mistake, fear, aggression, social feeling, commitment, self-esteem, self-esteem, humiliation, discrimination, remorse.*

Aybdorlik hissi inson psixikasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va axloqiy ongining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlarda aybdorlik hissi axloqiy o‘zini o‘zi nazorat qilish va xulq-atvorni tartibga solish mexanizmi sifatida qaraladi. Lekin ushbu hisning turli yosh davrlarida qanday shakllanishi va namoyon bo‘lishi hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Aybdorlik hissining shakllanishi tarbiya usullari, ota-ona va pedagoglarning munosabati bilan bog‘liq bo‘lib, noto‘g‘ri yondashuv bolaning o‘ziga past baho berishi, haddan tashqari itoatkorlik yoki aksincha, agressiya shaklida namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘smirlik davrida identifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy ta’sirlar kuchaygani sababli aybdorlik hissi yanada chuqurlashadi. O‘smirlar o‘z qadr-qimmati, shaxsiy mustaqillik va jamiyat oldidagi mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatni boshdan kechiradilar.Aybdorlik hissi yetuk shaxsning o‘zini anglash, qaror qabul qilish va axloqiy normalarga moslashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Uning haddan tashqari kuchayishi depressiya, o‘z-o‘zini ayblash, motivatsiya yo‘qolishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin.Inson hayotiga baho berishda aybdorlik hissi o'tmishdagi xatolar, bajarilmagan majburiyatlar va afsuslanishlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu esa psixologik stress, yolg‘izlik hissi va hatto depressiv holatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi odamlarning aybdorlik hissini boshqarishiga ta’sir qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik bosim va axloqiy me’yorlarning keskin o‘zgarishi shaxsning aybdorlik hissi bilan kurashish mexanizmlarini yangidan shakllantirish zaruratini tug‘diradi. Shu sababli, bu mavzuni chuqur o‘rganish va turli yosh

guruhlarida aybdorlik hissining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida aybdorlik hissini korreksiya qilish, aybdorlik kechinmasining inson xulqiga tabiiy regulyativ (boshqaruvchi), adaptatsion (muvofiqlashtiruvchi) ta'sirining optimal darajasini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada shaxs xulqidagi aybdorlik hissi tufayli emotsional beqarorlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish ayni davrning dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, dunyodagi global o'zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni qo'ymoqda hamda mazkur yo'nalishlarda zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish»ga doir vazifalar belgilangan bo'lib, aybdorlik hissining yuzaga kelish sabablari, inson normal hayotiga ta'siri yo'nalishlaridagi izlanishlarni yangicha ilmiy yondashuviga asos bo'la oladi[2].

Aybdorlik va uyat tuyg'ulari bir qator fanlarning, jumladan, ilohiyot, falsafa, psixologiya va psixoanaliz kabi fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lib hisoblanadi, shuningdek adabiyotda ham keng tarqalgan mavzulardan biridir. Bu bizni foydali hayot kechirishimizga halaqit beradigan mayda-chuyda his-tuyg'ular yoki jiddiy psixologik cheklovlar ham bo'lishi mumkin.

Jamiyat va madaniyat kabi murakkab ijtimoiy tizimlarda odamlarning ijtimoiy xatti-harakatlarini tartibga solish jarayonida aybdorlik va uyat tuyg'ulari muhim rol o'ynaydi. Aybdorlik va uyat – bu faqat ijtimoiy hissiyotlar sohasiga taalluqli bo'lgan psixik hodisalardir. Ularning manbayi va harakatlantiruvchi kuchi esa ijtimoiylashuv jarayonidagi shaxslardir. Aybdorlik va uyat hislarining ijtimoiy psixologiyadagi muhim o'rni, uning faqat ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki shaxslar va butun guruhlar munosabatlariga ta'sir qilishi bilan ham bog'liqdir.

Psixologiyada uyat va aybdorlik tuyg'ulari ko'pincha birgalikda muhokama qilinadi, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari hamda mumkin bo'lgan o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Olimlardan birining ta'kidlashicha, ular bir xil ta'sirga ega bo'lishi kerak bo'lgan narsalarning turli xil ifodalanishidir, ya'ni, aybdorlik – bu axloqiy uyatdir.

Umuman olganda, aybdorlik insonning o'z xatti-harakatlari bilan chegaralarni yoki qoidalarni buzishi bilan bog'liq bo'lsa, uyat hissi esa o'zini-o'zi salbiy baholash bilan bog'liqdir. Aybdorlik va uyatni keltirib chiqaradigan holatlar ko'pincha bir xil yuzaga kelsa-da, ammo ular turli xil kechinmalarning hosilasi ekanligi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda ham psixologlar o'rtasida aybdorlik hissining bajaradigan vazifalari yuzasidan umumiy bir fikr mavjud emas. Aksariyat psixologlar, insoniyat jamiyatida aybdorlik hissi bo'lmasa unda normal yashash va rivojlanish mumkin emas, deb hisoblashadi. Ba'zi psixologlar aybdorlik hissi bizning «ichimizdagi vahshiy hayvonni» – ya'ni g'azabimizni, hirsimizni va ochko'zligimizni jilovlashga yordam beradi, deb ta'kidlashadi. Boshqalari esa, biz o'z xatolarimizdan saboq olamiz va aybdorlikni boshdan kechirganimiz sababli, keyinchalik xuddi shunday vaziyatga tushgan vaqtimizda biz jazolangan, pushaymon bo'lgan hamda vijdon azobidan qiynalgan vaqtimizni eslab, o'zimizni salbiy xatti-harakatlar qilishdan saqlaymiz, deb hisoblashadi. Va nihoyat, yana bir qarash mavjudki, unga ko'ra aybdorlik hissi bizni o'qishda, ishda, farzandlarimiz, turmush o'rtog'imiz, ota-onamiz bilan bo'lgan munosabatda hamda jamiyat oldidagi majburiyatlarimizni bajarishga undaydigan, turtki beruvchi omil deb hisoblanadi.

Qadimgi falsafiy fikrlar doirasida uyat va aybdorlik hislari jamoatchilik fikridan qo'rqish bilan bog'liq bo'lib, agar shaxsning xulq-atvori jamiyat tomonidan qabul qilingan normalarga mos kelmasa unda ushbu shaxsga nisbatan jiddiy hukm chiqarilishi mumkin bo'lgan. G.G.Matyushin o'zining «Uyat va vijdon o'z-o'zini baholashning axloqiy shakllari sifatida» nomli asarida Platon va Aristotelga murojaat qiladi, zero ular aybdorlik va uyat hissining mohiyatini, shaxsning o'zi haqidagi jamoatchilik fikridan hamda «ayrim nomussizliklardan qo'rquvi» orqali ochib berishadi. Aristotel aybdorlik va uyatni axloqiy nuqtai nazardan ham ko'rib chiqadi hamda ularning ijtimoiy mohiyatini alohida ta'kidlaydi. Demokrit uyatning ikki turini ajratib ko'rsatadi, bular: shaxsning boshqa odamlar

oldidagi va o'zi oldidagi uyat hislaridir. Bu yerda, birinchi holatda shaxsning uyatli xatti-harakati boshqalarga ham ma'lum bo'lsa, ikkinchisida esa bu qilmishni faqat uni sodir etgan insongina biladi. Matyushin shaxsning o'zi oldidagi uyat hamda zamonaviy aybdorlik tushunchasi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi haqida taxmin qiladi [1].

Aybdorlik va uyat singari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hissiyotlarni farqlash masalasini, ushbu hislarning kelib chiqishi haqidagi tadqiqotlarni tahlil qilishdan boshlash kerak.

V.N.Kunitsina uyat va aybdorlik hislari o'zini-o'zi baholash bilan bog'liq bo'lgan turli xil xavotirlanish shakllari deb yozadi[3]. Uyat bu tashqi baholashga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsning o'z obro'si uchun xavotirlanishi, ya'ni qachonki inson o'zini boshqalar undan kutgan talablarga javob bermasligini his qilsa yuzaga keladi. Aybdorlik esa bu shaxsning o'zini o'zi baholashiga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiy fazilatlar haqida qayg'urish, vijdon azobi bilan birgalikda kechadi hamda yuqori darajadagi axloqiy ongni tavsiflaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra qo'rquv – bu ob'ektiv xavotir, uyat – ijtimoiy xavotir, aybdorlik esa – axloqiy xavotir bo'lib hisoblanadi.

Kundalik hayotda odamlar o'zlarida paydo bo'lgan tuyg'uni qanday izohlashni, ya'ni uni aybdorlik yoki uyat deb talqin qilishni faqat o'z tajribalaridan kelib chiqib aniqlaydilar. Biroq, og'zaki nutq qobiliyatlari yaxshi rivojlangan odamlar ham, ushbu hissiyotlarning kelib chiqishi umumiy bo'lganligi sababli, ba'zan birini boshqasidan ajrata olmaydilar. Aybdorlik va uyat atamalari ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, ammo psixologlar aybdorlik va uyatni, shaxsni o'zidan va tashqi voqelikdan noroziligining turli xil hissiy kechinmalari ekanligini isbotladilar.

K.Muzdibaev o'zining «Aybdorlik va uyatni boshdan kechirish» asarida ushbu hissiyotlarning bir-biridan farqiga alohida e'tibor qaratadi. U «uyat» va «aybdorlik» bir-biriga yaqin tushunchalar ekanligini, chunki ular o'zaro o'xshash boshqaruvchilik vazifalarini bajarishini ta'kidlab o'tadi. Ammo ular shaxsning butunlay boshqa-boshqa kechinmalarini aks ettiradi. Agar, aybdorlik hissi insonda biron bir me'yorlarni, qoidalarni, va'dalarni buzgan, majburiyatlarni bajarmagan vaqtda yuzaga kelsa, uyat esa aybdorlikka nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning butun yaxlitligiga taalluqlidir hamda qoida buzilishi bilan bog'liq emas. Aybdorlikni his qilayotgan kishi o'z e'tiborini ushbu vaziyatni yuzaga keltirgan harakatlar va o'z qilmishlariga qaratsa, uyalgan kishi esa o'zini, o'zining «men»ini tahlil qilishga etibor qaratadi [2]. Uyat xatti-harakat yoki xulq-atvorning nomuvofiqligi tufayli yuzaga keladi va o'z-o'zini anglash bilan bog'liq. Demak, ushbu hodisalarni o'rganishda ularning farqlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida biz quyidagi psixologik tadqiqot metodlari va metodikalaridan foydalandik:

I.So'rov metodlari.

1.«Aybdorlik hissini o'rganish" so'rovnomasi (I.A.Belik)

Tadqiqotning birinchi bosqichida «aybdorlik hissi» fenomeni to'g'risidagi yashirin tasavvurlarni o'rganish uchun 10 ta savoldan iborat anketa tuzildi. Respondentlardan:

1) «Aybdorlik bu ...» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettiring;
2) aybdorlik kechinmasi bilan bog'liq vaziyatlarni tavsiflab bering;
3) mumkin bo'lgan aybdorlik ob'ektlarini ko'rsatish (kim oldida);
4) shaxsning aybdorlik kechinmasiga bo'lgan munosabati;

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'pincha odamlar aybdorlik hissining aniq ta'rifini bera olmaydilar hamda uni uyat tushunchasi bilan almashtirdilar. Uyat va aybdorlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ko'pincha bir vaqtning o'zida paydo bo'lganligi sab-abli, uyat fenomeni bilan bog'liq savollar ham so'rovnomaga kiritilgan:

1) «Uyat bu ....» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettirish;
2) uyat kechinmasi bilan bog'liq vaziyatlarning tavsifi;
3) mumkin bo'lgan uyat ob'ektlarini ko'rsatish;
4) shaxsning uyat kechinmasiga bo'lgan munosabati;

«Aybdorlik» va «uyat» fenomenlarini taqqoslaganda, respondentlarning ushbu his-tuyg'ularga bo'lgan hissiy munosabati quyidagi baholash tizimi yordamida baholandi:


«-2» - keskin salbiy (dahshatli, mudhish, vayron qiluvchi)
«-1» - o'rtacha salbiy (tashvish, bezovtalik, noqulaylik)

«0» - neytral (kechinma, burch, majburiyat)
«1» - o'rtacha neytral (o'zgarishni istash, bartaraf qilish)
«2» - keskin ijobiy (konstruktiv, rag'batlantiruvchi)
II.Psixodiagnostik metodlar.
1. «Aybdorlik hissini o'rganish so'rovnomasi» (Guilt Inventory). K. Kugler, V. X. Jons (1991);
2. «Aybdorlik hissi va uyatni o'lchash» metodikasi (Test of Self-Conscious Affect (TOSCA) J.P. Tangney (1989);
3. «Lokus nazorat»ni o'rganish metodikasi. J.Rotter;
4. «Shaxsning al'truizm-egoizm darajasini o'rganish» metodikasi. Fetiskin N.P., Kozlov V.V., Manuylov G.M. (2002);

Biz shaxsda kechadigan aybdorlik va uyat hislarini o'rganish maqsadida I.A.Belik tomonidan ishlab chiqilgan va biz tomonimizdan modifikatsiya qilingan «Aybdorlik hissini o'rganish» so'rovnomasidan foydalandik. Ushbu so'rovnomada «aybdorlik hissi» fenomeni to'g'risidagi yashirin tasavvurlarni o'rganish uchun 8 ta savoldan iborat anketa tuzilgan bo'lib, respondentlardan dastlab quyidagi 4 ta savolga, ya'ni:

1) «Aybdorlik hissi bu ...» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettiring;
2) aybdorlik hissi va uning kechinmalarini ta'riflash uchun qanday so'zlardan foydalangan bo'lar edingiz;
3) siz o'zingizni aybdor his qilasizmi, qachon;
4) siz hammadan ko'ra ko'proq kimni oldida o'zingizni aybdor his qilasiz; kabi savollarga javob berish so'raldi.

Birinchi savolga, ya'ni «aybdorlik hissi – bu» iborasini to'ldiring degan savolga sinaluvchilarning 36% «o'zgalarni sababsiz ranjitish, xato qilish natijasida kelib chiqadigan kechinma» deb javob berishgan bo'lsa, 24% «qilgan ishidan pushaymonlik, uyalish», 16% «xatolardan afsuslanish va uni tuzatish istagi», 14% «ruhiy bezovt.alik, vijdon azobi» deb va qolgan 10% «o'zini kechira olmaslik, qo'rquv hissi» deb javob berishdi.(1-rasm)




1-rasm. «Aybdorlik hissi – bu» iborasini to'ldiring savoliga sinaluvchichilarning javobi.

Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki respondentlar asosan aybdorlik hissini o'zgalarni sababsiz ranjitish, xato qilish natijasida kelib chiqadigan kechinma, qilgan ishidan pushaymonlik, uyalish, xatolardan afsuslanish va uni tuzatish istagi, ruhiy bezovtalik, vijdon azobi, o'zini kechira olmaslik hamda qo'rquv hissi bilan birgalikda assotsiatsiya qilishar ekan. Ayniqsa eng katta ko'rsatkich shaxsning o'zgalarni sababsiz ranjitishi, biror-bir xato qilishi natijasida unda yuzaga keladigan kechinma(36%), qilgan noo'rin ishidan yoki xatti-harakatidan pushaymonlik hamda uyalishi(24%) natijasida yuzaga kelishini ta'kidlab o'tishgan. Demak, shaxs o'zida yuqorida ta'kidlab o'tilgan kechinmalarni his qilganida ular bilan birgalikda har doim aybdorlikni ham boshdan kechirar ekan.

Sinaluvchilardan aybdorlik hissi va uning kechinmalarini ta'riflash uchun qanday so'zlardan foydalangan bo'lar edingiz deb so'ralganda ularning 29% «pushaymonlik», 25% «xafa bo'lish, tushkunlik, xavotir», 21% «afsuslanish», 11% «vijdon azobi», 7% «boshqalardan o'zini olib qochish hamda qolgan 7% «sharmandalik, uyalish» deb javob berganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga ko'ra aybdorlikni boshdan kechirayotgan shaxs u bilan birgalikda pushaymonlik, xafa bo'lish, tushkunlik, xavotir, afsuslanish, vijdon azobi, boshqalardan o'zini olib qochish, sharmandalik, uyalish kechinmalarini ham his qilar ekan. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, inson aybdorlikni his qilganda u bilan deyarli har doim pushaymonlik(29%), xafa bo'lish hamda tushkunlik(25%) birgalikda boshdan kechirilar ekan.

Siz o'zingizni aybdor his qilasizmi, qachon deb berilgan savolga esa sinaluvchilarning ko'pchiligi, ya'ni 68% «kimnidir dilini og'ritsam, o'zgalarni nohaq xafa qilsam» deb javob berishgan bo'lsa, 14% «boshlagan ishimni oxiriga yetkaza olmasam», 11% «yordamga muhtoj odamlarga yordam bera olmasam» deb va qolgan 7% esa «biron gunoh ish qilib qo'ysam» deb javob berishdi.(2-rasm)



2-rasm. Shaxsda aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi vaziyat.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki shaxs kimnidir dilini og'ritib qo'yganda, o'zgalarni nohaq xafa qilganda, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaganda, yordamga muhtoj odamlarga yordam bera olmaganda yoki biron gunoh ish qilib qo'yganda o'zini aybdor his qilar ekan. Ayniqsa o'zgalarning dilini og'ritish yoki nohaq xafa qilish(68%) aybdorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida qaralgan.

So'rovnomaning to'rtinchi savoliga ya'ni, siz hammadan ko'ra ko'proq kimni oldida o'zingizni aybdor his qilasiz deb berilgan savolga sinaluvchilarning 56% «ota-onamni va yaqinlarimni» deb javob berishgan bo'lsa, 16% «hech kimni oldida o'zimni aybdor his qilmayman» deb, 13% «ollohni oldida», 9% «faqat o'zimni» deb va qolgan 6% «men xafa qilgan insonlarni oldida» deb javob berganliklari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra respondentlarning asosiy qismi o'zlarini ota-onalari va yaqinlari(56%) oldida aybdor his qilishar ekan. Bu esa bir tomondan o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan sifat bo'lib farzandlar har doim ota-onalari oldida o'zlarining turli majburiyatlari borligini his qilishsa, ikkinchi tomondan aybdorlik hissi bolalarga ularning yoshligidayoq ota-onalari va yaqin insonlari tomonidan singdirilishi sababli, bolalar ko'p hollarda o'zlarini aynan mana shu insonlar oldida aybdor his qilishadi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pincha odamlar aybdorlik hissining aniq ta'rifini bera olmaydilar hamda uni uyat tushunchasi bilan almashtirdilar. Uyat va aybdorlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ko'pincha bir vaqtning o'zida paydo bo'lganligi sababli, uyat fenomeni bilan bog'liq savollar ham so'rovnomaga kiritilgan:

1) «Uyat bu ....» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettiring;


2) uyat hissi va uning kechinmalarini ta'riflash uchun qanday so'zlardan foydalangan bo'lar edingiz;

3) siz uyalasiz, qachonki;

4) siz uyat hissini boshdan kechirayotganda, o'zingizda qanday kechinmalar, fikrlar yuzaga kelishini eslab ko'ring.

So'rovnomaning birinchi savoliga, ya'ni «uyat hissi – bu» iborasini to'ldiring deb so'ralganda sinaluvchilarning 34% «o'ziga yarashmaydigan xatti-harakat qilish, noqulay ahvolga tushib qolish»


deb javob berishgan bo'lsa, 23% «sharmandalik va qo'rquv hissi" deb, 20% «o'z aybidan xijolat bo'lish, aybdorlik hissini boshdan kechirish», 14% «qilgan ishini tahlil qilish, afsuslanish» deb va qolgan 9% «normal ijtimoiy va psixologik holat» deb ta'rif berishgan.(3-rasm)



3-rasm. «Uyat hissi – bu... » iborasini to'ldiring savoliga sinaluvchilarning javobi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning ko'pchiligi uyat hissini insonlarning o'ziga yarashmaydigan xatti-harakat qilishi, ularning turli vaziyatlarda noqulay ahvolga tushib qolishi(34%), sharmandalik va qo'rquv hissi(23%) hamda shaxsning o'z aybidan xijolat bo'lishi, aybdorlik hissini boshdan kechirishi(20%) bilan birgalikda assotsiatsiya qilishgan. Bu esa, yuqorida aytib o'tgan fikrimiz, ya'ni aybdorlik va uyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lganligi uchun ko'pchilik insonlar ularni bir-biri bilan almashtirib yuborishlarini isbotini ko'rsatadi.

Sinaluvchilardan uyat hissi va uning kechinmalarini ta'riflash uchun qanday so'zlardan foydalangan bo'lar edingiz deb so'ralganda ularning 42% «sharmandalik va xijolat tortish» deb javob berishgan bo'lsa, 31% «yuzni qizarishi, gapira olmaslik" deb, 18% esa «afsuslanish, pushaymonlik, o'zidan nafratlanish» hamda qolgan 9% «boshqalar oldida aybdor bo'lish, tushkun kayfiyat» deb javob berishganini ko'rishimiz mumkin.(4-rasm)



4-rasm. Uyat hissi va uning kechinmalarining ta'rifi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, respondentlarning ko'pchiligi inson uyat hissini boshdan kechirganda u bilan birgalikda sharmandalik va xijolat tortish(42%), yuzni qizarishi, gapira olmaslik(31%), afsuslanish, pushaymonlik va o'zidan nafratlanish(18%) kechinmalarini birgalikda boshdan kechirishlarini ta'kidlab o'tishgan. Respondentlarimiz yuqorida aybdorlik hissi va uning kechinmalariga ta'rif berishganida ham asosan ushbu kechinmalarni aybdorlik bilan birgalikda kechirilishini aytib o'tishgan edi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, aybdorlik va uyat o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lganligi uchun, ular bilan birgalikda kechiriladigan kechinmalar ham deyarli o'xshash.

So'rovnomaning uchinchi savoliga ya'ni «siz uyalasiz, qachonki» deb so'ralganda respondentlarning 38% «biror ayb yoki yomon ish qilsam» deb javob berishgan bo'lsa, 24% «noqulay

vaziyatga tushib qolsam», 21% «boshqalar oldida kamsitilsam yoki hamma birdan qarasa», 10% «nojo'ya so'z aytsam» deb va qolgan 7% esa «ota-onamga munosib inson bo'lolmasam» deb javob berishdi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, respondentlar asosan uyatni yuzaga keltiruvchi vaziyat sifatida shaxs tomonidan biror ayb yoki yomon ish qilinganda(38%), o'z xatti-harakati tufayli noqulay vaziyatga tushib qolganda(24%) , boshqa kishilar oldida kamsitilganda yoki ko'pchilik birdaniga qaraganida(21%) yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatni ko'rsatishgan. Bu esa aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi vaziyatdan bir muncha farq qilib asosan tashqi baholashga yo'naltirilgan bo'ladi, bundan tashqari shaxsning o'z obro'si uchun xavotirlanishi, ya'ni qachonki inson o'zini boshqalar undan kutgan talablarga javob bermasligini his qilsa yuzaga keladi. Aybdorlik esa bu shaxsning o'zini o'zi baholashiga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiy fazilatlar haqida qayg'urish, vijdon azobi bilan birgalikda kechadi hamda yuqori darajadagi axloqiy ongni tavsiflaydi.


Sinaluvchilardan siz uyat hissini boshdan kechirayotganda, o'zingizda qanday kechinmalar, fikrlar yuzaga kelishini eslab ko'ring deb so'ralganda ularning 43% «afsuslanaman, vijdonim qiynaladi, o'zimdan nafratlanaman» deb javob berishgan bo'lsa, 31% «yuzim qizaradi, xijolat bo'laman», 18% «qilgan xatoimni tahlil qilaman va boshqa takrorlamaslikka harakat qilaman» deb va qolgan 8% esa «odamlardan o'zimni olib qochaman» deb javob berishdi.

Yuqorida qayd etilgan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, shaxs uyat hissini boshdan kechirayotganda u bilan birgalikda afsuslanish, vijdon azobi, o'zidan nafratlanish(43%), yuzning qizarishi, xijolat bo'lish(31%) , bundan tashqari qilgan xatosini tahlil qilib, boshqa takrorlamaslikka harakat qilish(18%) kechinmalari ham boshdan kechiriladi. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, uyat va aybdorlik hislari boshdan kechirilayotganda ular bilan birgalikda kechiriladigan kechinmalar deyarli bir-biriga o'xshasada, lekin, uyat hissi ijtimoiy kechinma sifatida, aybdorlik hissi esa axloqiy kechinma sifatida namoyon bo'ladi.

«Aybdorlik» va «uyat» fenomenlarini taqqoslaganda, respondentlarning ushbu his-tuyg'ularga bo'lgan hissiy munosabati quyidagi baholash tizimi yordamida baholandi:

«-2» - keskin salbiy (dahshatli, mudhish, vayron qiluvchi)
«-1» - o'rtacha salbiy (tashvish, bezovtalik, noqulaylik)
«0» - neytral (kechinma, burch, majburiyat)
«1» - o'rtacha neytral (o'zgarishni istash, bartaraf qilish)
«2» - keskin ijobiy (konstruktiv, rag'batlantiruvchi)

Bundan tashqari tadqiqot jarayonida sinaluvchilarga «aybdorlikni his qilayotganda qanday yo'l tutasiz» degan savol bilan murojaat qilinib, ushbu savolga ular beradigan javoblar tartibi hamda shkalasi taklif qilindi. Biroq bu anketa savoliga tegishli o'n bitta javoblar varianti ham mavjud bo'lib respondentlar ushbu javob variantlariga «deyarli hech qachon», «juda kam holatlarda», «gohida», «tez-tez», «har doim» ko'rinishidagi shkalalar asosida javob berishi kerak edi.



5-rasm. Aybdorlik hissining tarkibiy tuzilishi

Respondentlarning ushbu shkalalar asosida bergan javoblari psixologik hodisa sifatida aybdorlikning tuzilishini ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Aybdorlik tarkibiga quyidagilar kiradi: hissiy komponent (barcha javoblarning 35%), unda disforik xarakterdagi kechinmalar (depressiya, tushkunlik, azob-uqubatlar va boshqalar), afsuslanish va pushaymonlik aniq kuzatiladi; kognitiv komponent (barcha javoblarning 31%), bu «xulq-atvor, xatti-harakatlarni anglash va tahlil qilish», «real», «ideal» hamda «ichki baholash» o'rtasidagi nomuvofiqlikni anglash; motivatsion komponent (barcha javoblarning 27%), unda «hozirgi vaziyat yoki xatti-harakatni tuzatish, o'zgartirish istagi» ustunlik qiladi. Bundan tashqari aybdorlikni boshdan kechirganda, ayrim respondentlar ichki noqulaylik hissi, yoqimsiz jismoniy his-tuyg'ular ya'ni psixosomatik komponentni (barcha javoblarning 7%), masalan, «ichki zo'riqish», «bosh og'rig'i» va «yomon uyqu»ni his qilishlarini ko'rsatdilar. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, aybdorlik hissi tarkibiga kiruvchi diskomfort, depressiya, o'z xatti harakatini tahlil qilish, tuzatish istagi, ichki noqulaylik hissini namoyon bo'lishiga asoslanib shaxsning o'z xulq-atvorini anglashini muhimligiga ko'ra ularda emotsional, kognitiv, motivatsion va psixosomatik komponentlar rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, aybdorlik hissi asosan jamiyatdagi axloqiy tamoyillarning buzilishi hamda shaxs o'zining amalga oshirgan xatti-harakati noto'g'ri ekanligini anglaganidan so'ng yuzaga kelishi, bundan tashqari, shaxsda kechadigan ushbu his vijdon azobi, pushaymonlik, afsuslanish, noqulaylik, uyat kabi og'riqli kechinmalar bilan birgalikda kechishi aniqlandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respondentlar, birinchi navbatda, aybdorlik kechinmasini mas'uliyat va burch tuyg'usi bilan bog'lashgan bo'lishsa ham, biroq, aybdorlik o'zidan va mavjud tartibdan norozilik hissi bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlashdi, ya'ni hodisaning ontologik tabiatiga ham to'xtalishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026- mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Дэн Дубравин / Психология эмоций: чувства под контролем. - К.: «Агентство «IPIO», 2019. С.95-96
3. Льюис, М. Самосознательные эмоции: смущение, гордость, стыд и вина / М. Льюис // Справочник эмоций. - Нью-Йорк - Лондон: The Guilford Press, 1993. - С. 563–573.
4. Матюшин Г.Г. Стыд и совесть как формы моральной самооценки. — М : Изд-во МГОПУ : НОУ, 1998. - 233 с.
5. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. - СПб.: С- Петерб. фил. Ин-та социологии, 1995. - 39 с.
6. Куницына В.Н. Трудности межличностного общения/ Дисс. на соискание ученой степени док. психол. наук. СПб, 1991. 464с.
7. Ильин Е. П. Эмоции и чувства: [Учеб. пособие]. - СПб.: Питер, 2019. -784с.
8. Изард К.Э. Психология эмоций / [Перевод]. - СПб.: Питер, 2002. - 464с.
9. Djurakulova D.F. Shaxsda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat (PhD). Toshkent. 2023. -24b.
10. Djurakulova D.F. Aybdorlik va uyat psixologik fenomen sifatida. Monografiya. SamDU nashriyoti, 2023 yil. -132 bet

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nikohga psixologik tayyorlik murakkab shaxsiy shakllanish ekanligi aniqlandi, uning asosiy tarkibiy qismlari: nikoh qadriyatlari, nikoh motivatsiyasi, nikoh ierarxiyasi g‘oyasi, nikoh munosabatlari va umidlari, nikoh munosabatlari g‘oyasi; har bir komponentning o‘z tarkibiy tuzilishi mavjudlıgı aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy geterogenlik, nevroz, psixasteniya, istariya, jinsiy ojizlik, iqtisodiy nochorlik.*

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье выявлено, что психологическая готовность к браку представляет собой сложное личностное формирование, основными составляющими которого являются: брачные ценности, мотивация брака, идея брачной иерархии, брачные отношения и ожидания, идея брачных отношений; выявлено, что каждый компонент имеет свою структурную структуру.*

Ключевые слова: *социальная гетерогенность, невроз, психастения, истерия, сексуальная слабость, экономическая беспомощность***.**

THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDENTS' VIEWS OF FAMILY LIFE

Abstract. *This article identifies that psychological readiness for marriage is a complex personal formation, with its main components being: marital values, marriage motivation, the concept of marital hierarchy, marital relationships and expectations, and the idea of marital relations. It was determined that each component has its own structural composition.*

Keywords: *social heterogeneity, neurosis, psychasthenia, hysteria, sexual impotence, economic vulnerability***.**

Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila farovonligiga erishish, oila quradigan yoshlarni oila qadriyatlariga munosabatlarini adekvat shakllantirish orqali oila munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur meyoriy asoslari yaratildi. «...Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash,... jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash... oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, «Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat» g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish»kontseptual g‘oyasi negizida oila mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilanganligi, ularni amalga oshirishda mazkur mavzuga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos bo‘la oladi.

Qadimdan sharq mutafakkirlarimiz o‘z asarlarida oila tarbiyasini inson shaxsini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydigan asosiy o‘chog‘ sifatida qarab kelganlar. Ular oilada farzand tarbiyasi va oila a’zolarining axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rnini alohida ta’kidlaganlar. Sharq mutaffakkirlarining g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asosiy fikri shundaki, shaxs tarbiyasi va kamoloti oilada boshlanadi, ota-onalar va yaqin kishilarning tarbiyaviy ro‘li muhim ahamiyatga ega. Ular oilada rivojlanishi mumkin bo‘lgan fazilatlarni — halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi insoniy sifatlarni yuqori qadrlashgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib va boshqa mutaffakkirlar oilaviy tarbiyaning inson ruhiyatidagi o‘rni va uning

jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida keng fikr bildirganlar. Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi allomalar oilaning farzandlar tarbiyasiga ta'siri va uning hayotdagi roli haqida muhim fikrlarni ilgari surganlar. Oila tarbiyasining samaradorligi, ota-onalarning o'zaro yaxshi munosabatlari, o'zlarining bilim va ma'naviyatlarini farzandlariga namuna sifatida ko'rsatishlari bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, Ibn Sino, Koshifiy, Davoniy va Sa'diy Sheroziy kabi mutaffakkirlar ham oila tarbiyasining ahamiyatini ta'kidlashgan. Ularning asarlarida oila va tarbiyaning shaxsiyatni shakllantirishdagi o'rni, bola tarbiyasining muhim tamoyillari va ota-onalarning farzandlariga nisbatan mas'uliyatli yondashuvlari haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan.

G'.B. Shoumarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning yana biri nikoh oldi omillariga bag'ishlangan bo'lib, unda oila barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ayrim mezonlar alohida ajratib ko'rsatilgan. Bular orasida quyidagilar mavjud:

- Voyaga yetmasdan turmush qurish holatlari;
- Ayolning mas'uliyat darajasining erga nisbatan yuqori bo'lishi;

Ijtimoiy geterogenlik, ya'ni eri qishloqdan, xotini esa shahardan bo'lishi;

Nikoh oldi tanishuv davrining qisqa bo'lishi;

Ayol kishi tomonidan nikohdan oldingi homiladorlik yoki jinsiy aloqada bo'lganlik holatlari;

Shaxsga muhim bo'lgan ijtimoiy guruhlar (ota-ona, do'stlar, qarindoshlar) tomonidan nikohni qo'llab-quvvatlamaslik;

Nikoh motivlarining salbiy yoki majburiy bo'lishi (masalan, og'ir oilaviy sharoit, homiladorlik tufayli turmushga chiqish);

Bo'lajak turmush o'rtoqda psixologik yoki jismoniy kasalliklar mavjudligi (nevroz, psixasteniya, istariya, jinsiy ojizlik va b.);

Oila hayoti haqida noto'g'ri, xayoliy tasavvurlar va unga tayyor emaslik;

Jinsiy munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, ya'ni nomutanosiblik;

Shaxslararo muloqot ko'nikmalarining past darajada shakllanganligi;

Umumiy qadriyatlar va oilaviy qadriyatlarni baholashdagi tafovutlar;

Ota-ona oilasidagi salbiy jihatlar (bir farzandlilik, ota-onaning mas'uliyatsizligi, muloqot madaniyatining sustligi, oilaviy baxtsizlik);

Iqtisodiy nochorlik, uy-joy muammolari.

Yuqoridagi mezonlar G'.B. Shoumarov tadqiqotida nafaqat nazariy, balki amaliy asosda chuqur tahlil qilinib, yoshlarning oilaviy hayotga puxta tayyorgarlik ko'rish zarurligi isbotlab berilgan. Olim fikricha, oila qurishda faqat tuyg'ular emas, balki ongli yondashuv, mas'uliyat, o'zaro muvofiqlik va atrof-muhitning ijobiy qo'llab-quvvatlashi ham muhim o'rin tutadi.

Nikohga psixologik tayyorlik - bu shaxsiy shakllanish bo'lib, uning asosiy tizimli tarkibiy qismlari qiymat yo'nalishlari, nikoh motivatsiyasi, nikoh ierarxiyasi haqidagi g'oyalar, nikoh munosabatlari va umidlari, nikoh munosabatlari haqidagi g'oyalardir.

Nikohga psixologik tayyorlik o'zaro bog'langan elementlar tizimini ifodalovchi shaxsiy shakllanish sifatida qaraladi; nikohga psixologik tayyorlik darajalari va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar empirik tarzda aniqlanadi va tahlil qilinadi. Voyaga yetganlikning turli bosqichlarida turmush qurishga psixologik tayyorlikning xususiyatlari aniqlanadi va tavsiflanadi. Nikohga psixologik tayyorlik omillari tahlil qilinadi. Ushbu omillarga asoslanib biz o'z tadqiqotimizda G'.B.Shoumarovning «Nikohga ma'naviy tayyorgarlik» testidan foydalandik. Ushbu metodikamizda Farg'ona shahar 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari, hamda Marg'ilon shahridagi 2- sonli kasb-hunar maktabi o'quvchiari sinaluvchi sifatida ishtirok etishdi. Sinaluvchining umumiy soni 157 tani tashkil qiladi. Ulardan 80 tasi Farg'ona shahar 5- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari, 77 tasi esa Marg'ilon shahridagi 2-sonli kasb-hunar maktabi o'quvchilaridir.

1-jadval

"Nikohga ma'naviy tayyorgarlik" ning jinslar bo'yicha natijalari (n=157)

	jins	n	m	St.og'	t	p
S1	o'g'il	73	2,10	0,95	4,52	0,00
	qiz	84	1,49	0,74		
S2	o'g'il	73	2,38	0,92	1,37	0,17

	qiz	84	2,18	0,95		
S3	o'g'il	73	2,26	0,90	-0,75	0,46
	qiz	84	2,37	0,92		
S4	o'g'il	73	2,25	1,16	-1,98	0,05
	qiz	84	2,57	0,97		
S5	o'g'il	73	2,74	1,26	0,27	0,79
	qiz	84	2,69	1,06		
S6	o'g'il	73	2,10	1,12	2,46	0,02
	qiz	84	1,68	1,01		
S7	o'g'il	73	2,00	0,96	-0,88	0,38
	qiz	84	2,14	1,07		
S8	o'g'il	73	2,40	1,05	-1,20	0,23
	qiz	84	2,58	0,89		
S9	o'g'il	73	1,49	0,90	0,28	0,78
	qiz	84	1,45	0,91		
S10	o'g'il	73	2,37	1,20	-1,05	0,30
	qiz	84	2,56	1,07		
S11	o'g'il	73	2,21	0,97	-1,11	0,27
	qiz	84	2,37	0,88		
S12	o'g'il	73	1,62	1,04	-0,97	0,33
	qiz	84	1,79	1,13		
S13	o'g'il	73	2,32	1,09	0,38	0,71
	qiz	84	2,25	1,07		
S14	o'g'il	73	2,58	1,39	0,07	0,94
	qiz	84	2,56	1,43		
S15	o'g'il	73	1,86	0,96	-0,19	0,85
	qiz	84	1,89	0,97		
S16	o'g'il	73	56,36	10,31	0,72	0,48
	qiz	84	55,19	10,06		

1-jadval tahliliga ko‘ra respondent o‘g‘il-qizlarda “Nikohga ma’naviy tayyorgarlik” metodikasi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazganimizda ularga 15 ta savol bilan murojaat qildik. Unga ko‘ra ularga “Agar odamlar oila-oila bo‘lib yashashni bas qilsalar, unda hayot nihoyatda jozibasiz bo‘lib qolgan bo‘lar edi” deb berilgan savolga jinslar bo‘yicha tahlil qilinganda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi $t=0,00$, $p<0,020936$. Unga ko‘ra yuqori sinf o‘quvchi qizlardan ko‘ra o‘g‘il bolalarda ushbu fikrga “qo‘shilmayman” deb javob berib o‘tishdi. Bunga sabab bir necha asosiy omillar bilan izohlanadi: Yigitlar jamiyat tomonidan ko‘proq mustaqillik, erk, tashabbuskorlik, tashqi muhitga yo‘naltirilganlik kabi sifatlar bilan tarbiyalanadi. Ularning ongida oila hayoti ba’zan mas’uliyat, cheklov va bog‘lanish timsoli sifatida shakllanadi. Bu esa ularda oilaviy hayotni hayot mazmuni emas, balki individual erkinlikka qarshi bo‘lgan tizim sifatida qabul qilish ehtimolini oshiradi. Shuningdek yuqori sinfdagi o‘quvchilar hali psixologik jihatdan to‘liq oilaviy hayotga tayyor bo‘lmagan bo‘lishlari mumkin. Ayniqsa, o‘g‘il bolalar emotsional jihatdan o‘z his-tuyg‘ularini chuqur anglash va ifodalashda qizlarga nisbatan sustroq bo‘lishadi. Bu esa ularning oila haqidagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarni chuqur anglashiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Hayotga bo‘lgan qarashlarda ham albatta jinslar o‘rtasida farqlar bo‘lishi tabiiy, qizlar, ayniqsa yuqori sinf yoshida, ko‘pincha oilaga ko‘proq romantik va qadriyatga asoslangan yondashuvni tanlaydilar. Ularda oila tushunchasi iliqlik, g‘amxo‘rlik, muhofaza va ijtimoiy tayanch manbai sifatida shakllanadi. Shu sababli, ular bu savolga ko‘proq “hayot jozibasiz bo‘lib qoladi”

degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘g‘il bolalar esa hayotning jozibadorligini ko‘proq tashqi faoliyatlar, erkinlik va mustaqil qarorlar bilan bog‘lashadi. Bundan tashqari jamiyatda erkaklar uchun “oila – kechroq masala” degan stereotip mavjud. Ular ko‘proq o‘zini ta’minlab bo‘lgachgina oila haqida o‘ylaydi. Bu esa o‘smir yigitlarda oilaning dolzarbligini hozircha past darajada idrok etishga olib keladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam yuqori sinf o‘quvchilari orasida nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajasi jinsga qarab sezilarli farq qilishi mumkin. Qizlar oilani hayotning ajralmas, muhim qismi sifatida qabul qilsalar, o‘g‘il bolalar esa uni hozirgi bosqichda cheklovchi ijtimoiy majburiyat sifatida idrok etishadi. Bu farqlarni hisobga olgan holda, nikohga tayyorgarlik bo‘yicha psixologik yondashuvlar ham individual tarzda ishlab chiqilishi lozim.

Nabatdagi “Agar turmush o‘rtog‘i bilan yumshoq munosabatda bo‘linsa, uning holati e’tiborga olinaversa, unga achinilsa, hamdardlik qilinaversa, o‘z ko‘zlaganingga erishish juda qiyin bo‘ladi” deb berilgan savolga berilgan javob tahlil qilinganda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida ahamiyatli farq aniqlandi $t=0,05$, $p<0,020936$. Ushbu savolimizni jinslar bo‘yicha tahlil qilinganda qiz bolalardan ko‘ra o‘g‘il bolalarda yuqori ekanligi aniqlandi. Buning sabablari esa erkaklar ko‘pincha yetakchi, qaror qabul qiluvchi, emotsional jihatdan barqaror bo‘lishga o‘rgatilganligidir. Shuning uchun ular haddan tashqari yumshoqlik yoki ortiqcha hamdardlikni “rivojga to‘siq” sifatida qabul qilishlari mumkin. Ularning fikricha, haddan tashqari muloyimlik turmush o‘rtog‘ining ustunlikka intilishiga sabab bo‘lishi, o‘z fikrini yo‘qqa chiqarishi yoki nazoratni yo‘qotishga olib keladi deya fikrlashlarida. Bundan tashqari o‘g‘il bolalar ba’zida “o‘z fikrimda turish”, “qattiqqo‘llik bilan mavqeni saqlash” kabi yondashuvlarni kuchli yetakchilik belgisi sifatida talqin etishadi. Ular yumshoqlikni ba’zida zaiflik deb tushunishadi. Bu fikr madaniy an’analar, oiladagi erkak modeliga asoslangan ijtimoiy o‘rnaklar orqali shakllangan bo‘lishi mumkin. Qizlarda esa odatda oilada hamkorlik, muvozanat, bir-birini tushunish va emotsional yaqinlikni qadrlash yoshligidan uqtiriladi. Ularning fikricha, mehribonlik va hamdardlik oilaviy barqarorlik va ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois, ular “yumshoqlik muvaffaqiyatga xalaqit beradi” degan fikrga o‘g‘il bolalarga qaraganda kamroq qo‘shiladilar. O‘g‘il bolalar o‘zaro munosabatda kuch, nazorat va ixtiyorni yo‘qotmaslikka intiladi. Bu ularning shaxsiy avtonomiyasiga, qaror qabul qilishdagi ishonch darajasiga ta’sir qiladi. Natijada ular “ko‘p e’tibor qaratish” yoki “doimiy hamdardlik”ni o‘z mavqeyini yo‘qotishga sabab deb bilishadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bola va qiz bolalarda nikohga, ayniqsa emotsional munosabatga oid qadriyatlar va qarashlar sezilarli farq qiladi. O‘g‘il bolalar orasida yumshoqlikni o‘z maqsadlariga xalaqit beruvchi omil deb bilish hollari ko‘proq uchraydi. Bu esa ularning kelgusidagi oilaviy munosabatlarda avtoritar yondashuvga moyilligini anglatishi mumkin. Qizlar esa, aksincha, hamdardlik va mehr-muhabbatni sog‘lom oilaviy aloqaning asosi deb hisoblashadi.

So‘ngi farq “Ota-onalar va ularning voyaga yetgan farzandlari bilan bo‘ladigan nizolar bartaraf qilinib bo‘linmaydigan muqarrar nizolardir” deb berilgan savolimiz tahlil qilinganda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida ahamiyatli farq aniqlandi $t=0,02$, $p<0,020936$. Ushbu savolimizga qiz bolalardan ko‘ra o‘g‘il bolalarda yuqori ekanligi aniqlandi. Buningham bir nechta sabablari bo‘lishi mumkin. Psixologik jihatdan, o‘g‘il bolalar o‘smirlik va balog‘at yoshida mustaqillik, erkin fikrlash, shaxsiy chegaralarga intiladi. Ota-onaning nazorati, cheklovlari yoki “taqiqlari” ular tomonidan tez-tez “to‘sqinlik” sifatida qabul qilinadi. Bu esa ularni ota-ona bilan ziddiyatli holatlarni muqarrar deb his qilishlariga olib keladi. Ko‘plab o‘g‘il bola o‘smirlar hissiy holatini ochiq ifoda eta olmaygani bois, nizolar yuz berganida ular his-tuyg‘ularini ochiqchasiga baham ko‘rishdan ko‘ra, ichiga yutib yuborish yoki passiv qarshilik ko‘rsatishga moyil bo‘lishadi. Natijada, nizolar “doimiy” va “hal qilinmas” darajada ko‘rinadi. Qiz bolalarda esa ko‘pincha ota-onasi bilan hissiy aloqani muhim deb hisoblaydi. Ular muammolarni hal qilish, tushunish va murosaga kelish orqali ziddiyatlarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonch bildirishadi. Shu sababli, ular bu savolga salbiyroq yoki neytral yondashadilar. Bundan tashqari o‘g‘il bolalardan kelajakda “o‘z so‘zida turadigan”, “muhokama qilmaydigan”, “o‘zini o‘zi boshqaradigan” shaxs bo‘lish kutiladi. Bu stereotip ham ularning ota-onalar bilan ziddiyatli holatlarni “normal” yoki “muqarrar” deb qabul qilishlariga olib keladi. Ota-ona fikriga ko‘p bo‘ysunish, ularning e’tirozlariga rozi bo‘lish erkaklik sifatiga ziddek tuyulishi mumkin. Qizlar ko‘proq muloqot, tushunish va his-tuyg‘ular

almashinuvi orqali ziddiyatlarni bartaraf etishga harakat qiladi. O‘g‘il bolalar esa muammodan “yopilish” yoki o‘z fikrida qat’iy turish orqali chiqishga urinadi. Bu uslub nizoni chuqurlashtiradi va uni “yechimsiz”dek ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish lozimki, korrelyatsiya aloqalari nisbati bo‘yicha olingan farqlar shaxsiy shakllanish sifatida nikohga psixologik tayyorgarlik uning tarkibiy qismlarining shakllanishi va tarkibiy tuzilishining turli darajalariga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, nikohga psixologik tayyorgarlik yuqori, o‘rta va past darajalarda shakllanishi mumkinligi haqidagi nazariy taxminimiz empirik tasdiqni oldi.

Nikohga psixologik tayyorgarlikning yuqori darajasi barcha tarkibiy qismlarning yuqori darajada shakllanishi bilan tavsiflanadi. Etakchi komponentlar nikoh ierarxiyasi va nikoh munosabatlari haqidagi g‘oyalardir. Bu darajadagi komponentlar ierarxiyasi quyidagicha: nikoh ierarxiyasi va nikoh munosabatlari haqidagi g‘oyalar, qiymat yo‘nalishlari, nikoh motivatsiyasi, nikoh munosabatlari va umidlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: «Adolat», 1998. – 302 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T: «O‘zbekiston», 2018.– 40 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyachini tadiqlash to‘g‘risida»gi PQ- 4190 - son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta’siri masalalari: Monografiya – T.: “Lesson-press” nashriyoti, 2021. – 124 b.
5. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: “Shams ASA”, 2002, 26 b.
6. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. T.: “Shams ASA”, 2003, 40 b.
7. Алёшина Ю.Е., Гозман Л.Я., Дубовская Е.М.Социально-психологические методы исследования супружеских отношений. - М.: изд-во МГУ, 1987.-120 с.

Doniyorov Xushvaqt Tojiboyevich
Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti dekani,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLAR HAYOTIY POZITSIYASINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqotda yoshlar hayotiy pozitsiyasining shakllanish jarayoniga ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida shaxsning faoliyatga nisbatan munosabati, motivatsion-ixtiyoriy sohasi, identifikatsiya mexanizmlari hamda ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimlari qaralgan. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning yosh shaxs psixikasida shakllanayotgan hayotiy pozitsiyaga ko'rsatadigan ta'siri empirik tahlil asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *hayotiy pozitsiya, sotsial orientatsiya, refleksivlik, ichki motivatsiya, sindrom, sotsial refleksiya, konsepsiya.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЖИЗНЕННОЙ ПОЗИЦИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данном научном исследовании на основе системного подхода проанализировано сложное воздействие социально-психологических факторов на процесс формирования жизненной позиции молодежи. В качестве теоретической основы рассмотрены отношение личности к деятельности, мотивационно-волевая сфера, механизмы идентификации и системы социального взаимодействия. Особое внимание уделено эмпирическому анализу влияния семьи, школы, группы сверстников, средств массовой информации и социальных сетей на формирующуюся жизненную позицию в психике молодого человека.*

Ключевые слова: *жизненная позиция, социальная ориентация, рефлексивность, внутренняя мотивация, синдром, социальная рефлексия, концепция.*

THE INFLUENCE OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS ON THE FORMATION OF YOUTH'S LIFE POSITION

Annotation. *This scientific study analyzes the complex influence of socio-psychological factors on the formation process of youth's life position using a systematic approach. The theoretical basis of the research includes the individual's attitude toward activity, the motivational-volitional domain, mechanisms of identification, and systems of social interaction. Special attention is given to the empirical analysis of the impact of family, school, peer groups, mass media, and social networks on the developing life position within the psyche of the young individual.*

Keywords: *life position, social orientation, reflexivity, intrinsic motivation, syndrome, social reflection, concept.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy faoliyatini belgilovchi psixologik konstruktlar, xususan, hayotiy pozitsiyaning shakllanishi dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, yosh avlod — kelajak jamiyatining psixologik poydevorini tashkil etuvchi guruh sifatida — ular ongida barpo bo'layotgan hayotiy pozitsiyaning mazmuni va shakllanish omillarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy psixologiya uchun ham alohida ahamiyatga ega.

Hayotiy pozitsiya — bu shaxsning o'z hayotiga, ijtimoiy hodisalarga, mehnatga, kelajakka nisbatan egallagan izchil, barqaror va psixologik jihatdan motivatsiyalangan munosabatidir. U shaxsning axloqiy qadriyatlari, hayotiy maqsadlari, dunyoqarashi va sotsial orientatsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, hayotiy pozitsiya shaxsning tashqi muhitga nisbatan faol yoki passiv munosabati orqali namoyon bo'ladi [13,14].

Psixologik adabiyotlarda hayotiy pozitsiyaning shakllanishi ko‘p omilli determinantlar tizimi asosida shakllanishi qayd etiladi. Bu omillar orasida ijtimoiy-psixologik faktorlar — oila muhitining ijtimoiy-emosional mikroklimati, maktab va oliy ta’lim tizimining sotsializatsiyalovchi funksiyalari, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar sifati, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali translyatsiya qilinayotgan qadriyatlar tizimi asosiy rol o‘ynaydi [15, 16]. Shu bilan birga, hayotiy pozitsiyaning shakllanishida shaxsning individual psixologik xususiyatlari — refleksivlik, ichki motivatsiya, axborotlarni qayta ishlash darajasi, identitetni shakllantirish strategiyalari ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi yoshlarning psixologik holati ko‘plab ijtimoiy-psixologik chaqiriqlarga duch kelmoqda: identitet inqirozi, hayot mazmunining noaniqligi, ijtimoiy ishonchsizlik, maqsadsizlik sindromi va boshqalar. Bu holatlar ularning hayotiy pozitsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, psixologik salomatlik, sotsial moslashuv va kelajakda ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligini aniqlovchi muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu boisdan, ushbu tadqiqot yoshlarning hayotiy pozitsiyasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, ularning o‘zaro munosabatlarini ochib berish hamda bu konstrukt asosida yoshlarning shaxs sifatidagi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlarning hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va ularning psixologik tavsifini ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiaotning vazifasi esa hayotiy pozitsiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish, uni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni klassifikatsiya qilish, empirik tadqiqot yordamida yoshlar orasida hayotiy pozitsiya darajasini aniqlash va tadqiqot natijalariga asoslanib psixologik xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Hayotiy pozitsiya tushunchasiga oid adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz bu tushuncha psixologiyada murakkab va ko‘p qatlamli konstrukt sifatida qaralganligini ko’rishimiz mumkin. Uning mazmuni shaxsning ijtimoiy muhitga nisbatan tutgan psixologik pozitsiyasi, qadriyatlar tizimi, motivatsiyasi va o‘zini identifikatsiyalash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mavzuga doir adaboyotlarda hayotiy pozitsiyaning shakllanishi asosan uchta yondashuv orqali izohlanadi: faoliyat yondashuvi, sotsial-psixologik yondashuv va shaxsiy-rivojlanish yondashuvi.

Faoliyat yondashuvi doirasida hayotiy pozitsiya shaxsning faoliyatga bo‘lgan subyektiv munosabati sifatida tushuniladi. A.N. Leontyev fikricha, shaxsning hayotdagi ishtiroki uning ongli maqsadlari, ehtiyojlari va motivlari bilan belgilanadi. Leontyevning “faoliyat-motiv” konsepsiyasi hayotiy pozitsiyaning ichki tarkibini tushunishda muhim nazariy asos bo‘ladi [6].

Sotsial-psixologik yondashuvda hayotiy pozitsiya ijtimoiy ta’sirlar, guruh normasi va shaxslararo munosabatlar orqali shakllanadi. V.A. Petrovskiy bu jarayonni “sotsial refleksiya” orqali tushuntiradi — ya’ni shaxs o‘ziga ijtimoiy guruh ko‘zidan baho beradi va o‘zini tutishini shunga moslashtiradi [14]. G.M. Andreyeva sotsial identifikatsiya va ijtimoiy norma tizimining ichki psixik tizimga aylanishi orqali hayotiy pozitsiya shakllanishini izohlaydi . Shuningdek, A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy kognitiv nazariya, ya’ni modeling va ijtimoiy o‘rganish orqali shaxsning xatti-harakat va e’tiqodlari shakllanishi g‘oyasi yoshlar hayotiy pozitsiyasining ijtimoiy shakllanish mexanizmini tushuntirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi [15].

Shaxsiy-rivojlanish yondashuv nuqtai nazaridan hayotiy pozitsiya shaxsning ichki psixologik rivojlanish bosqichlarining mahsuli sifatida qaraladi. E. Erikson o‘zining psixososial rivojlanish nazariyasida “identitetga erishish” yosh davrining markaziy vazifasi ekanini ta’kidlaydi [16]. Yoshlar aynan shu davrda o‘z “men”ini aniqlashtiradi, kelajakdagi roli, qadriyatlari va hayotiy strategiyasini tanlaydi. Mavzuga yaqin yondashuvlar shuningdek, K.A. Abulkhanova-Slavskaya (1991) tomonidan ishlab chiqilgan “shaxsning subyektiv faoliyati” nazariyasida ham uchraydi, unda shaxs o‘z hayoti uchun mas'uliyatni ongli ravishda qabul qiladigan mavjudot sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar hayotiy pozitsiyasining shakllanishi kompleks va ko‘p darajali jarayon bo‘lib, individual psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy-psixologik omillarning ham chuqur ta’sirida kechadi. Bu holat ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va taraqqiyot psixologiyasi kesishgan nuqtasida turgan tahliliy yondashuvni talab qiladi. Mazkur

tadqiqotda aynan mana shu yondashuvlar integratsiyasi asosida yoshlar hayotiy pozitsiyasining psixologik mexanizmlari aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda yoshlarning hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, ularning shaxsiy va sotsial xususiyatlar bilan bog'liqligini empirik jihatdan asoslash maqsadida kompleks tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Metodlar tanlovi psixologik konstruktlar (hayotiy pozitsiya, sotsial qo'llab-quvvatlov, motivatsion yo'nalish, refleksiya darajasi) ni chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi psixodiagnostik, empirik va statistik metodlarga asoslangan bo'lib bu tadqiqotning samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot transversal (kesim) dizayn asosida olib borildi, ya'ni ma'lumotlar bir martalik o'lchov shaklida yig'ildi. Bu dizayn yoshlarning mavjud hayotiy pozitsiyasi va unga ta'sir qiluvchi omillarni bir vaqtning o'zida aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot korrelyatsion dizayn tamoyillariga asoslangan bo'lib, sabab-oqibat aloqalarini emas, balki konstruktlar o'rtasidagi bog'liqlik darajalarini aniqlash maqsad qilindi. Shuningdek, tadqiqotda Toshkent shahri va viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarining 18–25 yosh oralig'idagi 230 nafar talabalari ishtirok etdi (120 nafar ayol, 110 nafar erkak). Tanlanma kvotalashtirilgan usulda shakllantirilib, respondentlarning ijtimoiy-demografik omillari (yosh, jins, oila holati, ta'lim yo'nalishi) inobatga olindi. Bunday yondashuv tadqiqot natijalarining etnik va madaniy kontekstda umumlashtirilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodlar va anketalar qo'llanildi:

- "Hayotiy pozitsiya yo'nalishi" testi: bu metodika shaxsning hayotga nisbatan faol/passiv, konstruktiv/destruktiv pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Test 4 yo'nalish: maqsadga yo'naltirilganlik, ijtimoiy faollik, ichki mas'uliyat va kelajak rejalari asosida baholanadi. Cronbach α – 0.81 [23].
- "Shaxslararo munosabatlar bo'yicha ijtimoiy qo'llab-quvvatlov darajasi" skalasi: shaxsning oila, do'stlar va institutsional qo'llab-quvvatlash manbalariga nisbatan subyektiv bahosini aniqlaydi. Cronbach α – 0.89 [22].
- "Motivatsion yo'nalishlar testi": shaxsning altruistik, materialistik, maqsadga yo'naltirilgan yoki utilitar hayotiy motivatsiyasini aniqlashga xizmat qiladi [21].
- "Refleksiya darajasi testi": reflektivlik — hayotiy pozitsiyaning shakllanishidagi kognitiv vositachilik rolini aniqlash uchun qo'llandi [20].

Asosiy qism. Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.Tadqiqotning asosiy maqsadi — yoshlarning hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ijtimoiy-psixologik omillarning ta'sirini aniqlash bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotiy pozitsiya shaxsning ichki qadriyatlar tizimi, motivatsion yo'nalishi, reflektivlik darajasi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlov omillari bilan bevosita bog'liq psixologik konstrukt sifatida tadqiq etildi.

Avvalo respondentlarning umumiy hayotiy pozitsiya yo'nalishlari tahlil qilindi. Nalimov metodikasi asosida quyidagi toifadagi pozitsiyalar ajratildi:

- Konstruktiv-faol pozitsiya – 42% (n=97)
- Passiv-neytral pozitsiya – 38% (n=88)
- Destruktiv-nihilistik pozitsiya – 20% (n=45)

Bu natijalar yoshlar orasida hayotga faol, mas'uliyatli va maqsadli yondashuv nisbatan ustunlik qilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 20% respondentlarda ijtimoiy befarqlik, kelajakka nisbatan pessimizm va motivatsion bo'shliqlar mavjudligi aniqlangan.

Pearson korrelyatsion tahlili hayotiy pozitsiya va boshqa psixologik o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi shaklda aniqladi:

- Hayotiy pozitsiya – sotsial qo'llab-quvvatlov o'rtasida $r = 0.48$, $p < 0.01$

(i.e. ijtimoiy aloqalar kuchliligi hayotiy pozitsiyaning konstruktivligini oshiradi)

- Hayotiy pozitsiya – refleksiya darajasi o'rtasida $r = 0.42$, $p < 0.01$

(i.e. o'zini tahlil qilish qobiliyati yuqori bo'lgan yoshlar hayotda ongli va mas'uliyatli yo'nalishga ega)

- Hayotiy pozitsiya – altruistik motivatsiya o'rtasida $r = 0.38$, $p < 0.01$

(i.e. boshqalarga foydali bo'lish istagi hayotiy pozitsiyaning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlaydi)

• Hayotiy pozitsiya – materialistik motivatsiya o‘rtasida r = –0.25, p < 0.05

(i.e. hayotni faqat utilitar qadriyatlarga asoslash holatida destruktiv yo‘nalishlar ko‘proq kuzatiladi)

“Stepwise regression” tahlili orqali hayotiy pozitsiyaga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan. Model quyidagicha:

• Sotsial qo‘llab-quvvatlov (β = 0.31, p < 0.001)

• Refleksiya darajasi (β = 0.27, p < 0.01)

• Altruistik motivatsiya (β = 0.23, p < 0.01)

Modelning umumiy izohlash darajasi: $R^2 = 0.39$, bu esa hayotiy pozitsiyaning shakllanishida yuqoridagi uchta omilning muhimligini isbotlaydi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy munosabatlar, o‘z-o‘zini anglash va altruistik qadriyatlar hayotiy pozitsiyaning konstruktivligini prognozlaydi.

Student t-test yordamida respondentlarning jinsiy farqlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

• Ayollar hayotiy pozitsiyada ko‘proq altruistik va sotsial yo‘nalishga ega (t = 2.84, p < 0.01),

• Erkaklar esa ko‘proq instrumentallik va avtonomiya elementlariga ega bo‘lgan hayotiy pozitsiyaga ega (t = 2.17, p < 0.05).

Bu farqlar genderga xos ijtimoiy rollar va psixologik funksiyalarning hayotiy pozitsiyadagi ifodalanishidan dalolat beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning hayotiy pozitsiyasi — bu shunchaki ma’naviy yoki emotsional holat emas, balki murakkab psixologik konstrukt bo‘lib, u shaxslararo munosabatlar, ichki refleksiya va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq. V.A. Petrovskiy ta’kidlagan “faol subyekt pozitsiyasi” bugungi yosh avlodda aynan ijtimoiy integratsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov orqali shakllanishini isbotlamoqda [14].

Refleksiya darajasining muhimligi D.A. Leontyevning “hayotiy mazmun” nazariyasi bilan uyg‘unlashadi: hayotiy pozitsiyaning konstruktivligi shaxsning o‘zini ongli idrok etishi bilan kuchayadi. Ayniqsa, altruistik yo‘nalishlar ijtimoiy jihatdan konstruktiv hayotiy pozitsiyaning kaliti sifatida e’tirof etilishi E. Frommning “having vs. being” tamoyiliga to‘g‘ri keladi [13].

Shuningdek, destruktiv pozitsiyalarning ortida sotsial aloqalarning zaifligi, ijtimoiy izolyatsiya, identitet krizislari yotganini ko‘rsatadigan empirik dalillar, Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasiga tayangan holda izohlanishi mumkin.

Jadval 1.

Hayotiy pozitsiya va asosiy psixologik omillar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar (n=230)

Psixologik o‘zgaruvchi	r (korrelyatsiya koeff.)	p-qiymat	Izoh
Sotsial qo‘llab-quvvatlov	0.48	< 0.01	O‘rta kuchli, ijobiy bog‘liqlik
Refleksiya darajasi	0.42	< 0.01	O‘rta kuchli, ijobiy bog‘liqlik
Altruistik motivatsiya	0.38	< 0.01	Ijobiy, muhim bog‘liqlik
Materialistik motivatsiya	–0.25	< 0.05	Salbiy, zaif bog‘liqlik

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hayotiy pozitsiya konstruktivligiga eng katta ta’sir ijtimoiy aloqalar va reflektivlik orqali yuzaga chiqmoqda. Materialistik motivlar esa salbiy bog‘liqlikka ega.

Jadval 2.

Hayotiy pozitsiya darajalari bo‘yicha jinsiy farqlar (Student t-testi natijalari)

O‘zgaruvchi	Ayollar (M ± SD)	Erkaklar (M ± SD)	t-qiymat	p-qiymat
Hayotiy pozitsiya indeksi	3.84 ± 0.71	3.56 ± 0.68	2.84	< 0.01
Altruistik motivatsiya	4.12 ± 0.60	3.77 ± 0.73	3.15	< 0.01
Refleksiya darajasi	3.94 ± 0.82	3.79 ± 0.75	1.26	> 0.05

Ayollar orasida hayotiy pozitsiyaning altruistik va ijtimoiy yo‘nalganligi sezilarli darajada yuqori. Erkaklar esa avtonomiya va mustaqillikni ustuvor deb bilishadi.

Grafikdan ko‘rinadiki, hayotiy pozitsiyaning konstruktiv shakllanishi sotsial psixologik determinantlar bilan mustahkam bog‘liq. Ayniqsa, qo‘llab-quvvatlov va refleksiya darajasi unga barqaror psixologik asos yaratadi.

Olingan natijalar yoshlar orasida insonlararo munosabatlar sifati, ichki ongli refleksiya, va jamiyatga foyda keltirishga yo‘naltirilgan motivatsiya hayotiy pozitsiyaning konstruktiv shakllanishida yetakchi rol o‘ynayotganini isbotlaydi. Ushbu xulosalar Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi doirasida talqin qilinsa, hayotiy pozitsiya mikrosistema (oila, do‘stlar), mezosistema (ta’lim muassasasi) va makrosistema (madaniy qadriyatlar) bilan o‘zaro murakkab ta’sirlar natijasida shakllanishi mumkin.

Ushbu tadqiqot yoshlarning hayotiy pozitsiyasining shakllanish jarayonida ijtimoiy-psixologik omillarning birlamchi rolini aniqlashga qaratilgan. Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, hayotiy pozitsiya — bu shaxsning ichki motivatsion strukturalari (refleksiya, altruistik motivatsiya) va tashqi ijtimoiy muhit (sotsial qo‘llab-quvvatlov) o‘rtasidagi dinamik integratsiya natijasida yuzaga keladigan kompleks psixologik konstruktdir [12].

Tadqiqot natijalari A.N. Leontyevning “ma’no maydoni” kontseptsiyasi va U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi asosida hayotiy pozitsiya modelini kengaytiradi [6]. Shaxsning maqsadli faoliyati va ijtimoiy o‘zaro ta’sir tizimlari bir-birini to‘ldiruvchi psixologik modullar sifatida ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov mikrosistema darajasida refleksiya va altruizm tuyg‘usini mustahkamlab, hayotiy pozitsiyaning konstruktiv shakllanishi uchun zarur psixologik shart-sharoitlarni yaratadi [10].

Xulosa. Umuman olganda yuqoridagi tadqiqot natijasida quyidagi empirik xulosalarni chiqarish mumkin:

- Psixologik konsalting dasturlari: Reflektiv tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari samaradorligini ko‘plab tadqiqotlar tasdiqlagan.
- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni mustahkamlash: Mentorlik dasturlari yoshlarning sotsial kapitalini oshiradi.
- Qadriyatlar pedagogikasi: Axloqiy-ruhiy tarbiya, ayniqsa dosh beruvchanlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.
- Genderga moslashtirilgan yondashuv: Genderga xos ijtimoiy rol va qadriyat orientatsiyasi farqlari ijtimoiy psixologiyada keng yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Leontyev, A. N. *Deyatelnost. Soznanie. Lichnost*. M.: Smysl. 2000.
2. Santrock, J. W. *Life-Span Development*. McGraw-Hill. 2011.
3. Snyder, C. R., & Lopez, S. J. *Positive Psychology: The Scientific and Practical Explorations of Human Strengths*. Sage. 2007.
4. Leontyev D.A. *Activity, Consciousness, and Personality.* 2000.
5. Petrovskiy V.A. *Social Psychology of Personality.* 1987.
6. Bandura A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory.* 1986.
7. Erikson E. *Identity: Youth and Crisis.* 1968.
8. Карпов А.В. *Психологический анализ рефлексии: структура и функции*. Москва: Институт психологии РАН. 2003.
9. Бас Б.Б. *Мотивационные направления личности*. В кн.: Методы диагностики направленности личности / под ред. В.С. Мерлина. Пермь: ПГУ. 1971.
10. Cohen, S., & Wills, T. A. *Stress, social support, and the buffering hypothesis.* Psychological Bulletin, 98(2), 310–357. 1985.
11. Кузьмина Е.С., Толстихина Н.А. *Методика диагностики жизненной позиции личности*. // Вестник психологии и педагогики. 2010.

Dusmetova Maksuda Matnazarovna
Urganch davlat universiteti Sport faoliyati,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EMOTSINAL SIFATLARNING NAMOYON BO‘LISHI (N.XOLLNING “EMOTSIONAL INTELLEKTNI ANIQLASH” METODIGA ASOSLANGAN TADQIQOT)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada N. Xollning "Emotsional intellektni aniqlash" metodikasi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy sifatlari tahlil qilinadi va ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi baholanadi.*

Kalit so‘z: *Emotsiya, pedagog, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, zamonaviy ta’lim, talabalar, empatiya, ta’lim samaradorligi, kompetensiya, shaxs, ijtimoiy moslashuvchanlik.*

ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ (ИССЛЕДОВАНИЕ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ Н. ХОЛЛА «ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА»)

Аннотация. *В статье анализируются личностные качества будущих учителей начальных классов и оценивается уровень их готовности к профессиональной деятельности на основе методики Н. Холла «Определение эмоционального интеллекта».*

Ключевые слова: *Эмоции, учитель, учителя начальных классов, современное образование, учащиеся, эмпатия, эффективность образования, компетентность, личность, социальная адаптивность.*

DEMONSTRATION OF EMOTIONAL QUALITIES IN FUTURE PRIMARY TEACHERS (STUDY BASED ON N. XOLL'S "DETERMINATION OF EMOTIONAL INTELLIGENCE" METHOD)

Annotation. *This article analyzes the personal qualities of future primary teachers and assesses their level of preparation for professional activity based on N. Hall's "Determination of Emotional Intelligence" methodology.*

Keywords: *Emotion, teacher, primary education teachers, modern education, students, empathy, educational effectiveness, competence, personality, social adaptability.*

Bugungi kunda ta’lim jarayoni rivojlanishning eng muhim qismi sanalib, hozirgi zamonaviy ta’lim tizimi kelajak avlodni yoshligidan, maktabgacha ta’lim muassasasi bilan birga boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faqat kasbiy bilimlari bilan emas, balki uning shaxsiy-psixologik sifati bilan ham chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularning ruhiy-emotsional holatini tushunish, mehr-shafqat bilan yondashish o‘qituvchidan yuqori darajadagi emotsional intellekt va shaxsiy fazilatlarni talab etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning emotsional ongini shakllantirish, empatiya, o‘zini tuta bilish, stressga chidamlilik kabi shaxsiy sifatlarni aniqlash va rivojlantirish muhim ilmiy-psixologik muammolardan biridir.

Shuningdek, ta’lim tizimida inson omiliga, xususan, o‘qituvchining shaxsiy-psixologik sifatlariga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori, bilimga bo‘lgan munosabati shakllanadigan ilk bosqichda ularning eng yaqin va doimiy yo‘lboshchisi sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning emotsional ong darajasi, shaxsiy sifatlari va psixologik barqarorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda, xususan prezident asarlarida shaxs va uning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha hukumat qarorlari va me’yoriy xujjatlar qabul qilingan hamda qonun bilan himoyalangan [1]. O‘qitishning asosiy vazifasi innovatsiyalardan foydalangan holda kuchli bilimga ega avlodni yetishtirib chiqarishdan iborat. Bu borada amalga oshirilayotgan qator islohatlar bilan birga yetishib chiqayotgan yosh kadrlarning kasbiy bilimlarining amaliyotdagi natijasi ularning sifat ko‘rsatkichini belgilab beradi. Shu asnoda bitiruvchi pedagog talabalarining kasbiy mukammallikga ega bo‘lishi bugungi kunning asosiy maqsadidir[3].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining emotsional intellekti – ya’ni o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ulariga to‘g‘ri munosabat bildira olish qobiliyati – ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan bo‘lajak pedagoglarda bu sifatlarning qanchalik rivojlanganligini aniqlash va unga asoslangan holda ularni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimidagi islohotlar inson kapitalini shakllantirish, zamonaviy va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida, pedagogik faoliyatga yondashuvda sifat jihatidan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, balki emotsional jihatdan barqaror, ijtimoiy moslashuvchan va psixologik jihatdan yetuk shaxs bo‘lishlari talab etiladi.

O.Y.Shevchenkoning «Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy anglash tizimida o‘quv-kasbiy ustanovka» (2004) nomli tadqiqot ishida kasbiy tayyorlik bo‘yicha tahsil olayotgan turli yo‘nalish talabalarida ta’lim va kasbga munosabatni kasbiy anglashning tarkibiy qismi ekanligi, ularda o‘quv-kasbiy ustanovkalar bo‘yicha to‘liq ma’lumot va anglanishlar kasbiy munosabat konsepsiyasi sifatida ta’lim jarayonida shakllanishi o‘rganilgan.

Bundan tashqari shaxsni kasbga tayyorlash jarayonida aks etadigan tizimli motivatsion soha va mazmunli shakllanish dinamikasi tahlil qilingan bo‘lib, buni natijasida talabalarning kasbga nisbatan munosabati va qarashlari kurslar kesimida o‘zgarish dinamikasi, aynan bu o‘zgarish universitetda kasbiy tayyorgarlikka nisbatan tanqidiylik kuchayishi ekanligi aniqlangan [5].

Y.V.Melnikning «Bo‘lg‘usi pedagog-psixologlarning kasbiy kommunikativ kompetentligi shakllanishiga empatiyaning ta’siri», nomli tadqiqot ishida bo‘lajak pedagog-psixologlarning kasbiy shakllanishida kommunikativ qobiliyatlarning kompetensiya darajasida rivojlanishi alohida o‘rganilgan. Mazkur sifatning kasbiy muvaffaqiyatdagi o‘rni hamda empatiya rivojlanishiga ta’siri xususiyatlari ochib berilgan[2]. Nazarimizda, bu tadqiqotda talabalarning kasbiy sifatlari shakllanishida irodaviy sifatlari keltirilmagan.

Bo‘lg‘usi pedagoglarning kasbiy sifatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarda talabalik davrida rivojlanishi zaruriy shart hisoblangan boshqa kasbiy sifatlar ham o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan,V.K.Shayaxmetova tomonidan «Bo‘lg‘usi pedagog-psixologlarning invariant bo‘lgan muhim kasbiy sifatlari shakllanishi» (2009), deb nomlangan tadqiqot ishida bo‘lg‘usi pedagog-psixologlarning kasbiy o‘zgarmas, zaruriy muhim sifatlari aniqlangan va boshqa sifatlari bilan qiyosiy tahlil qilingan [4].

Ilmiy adabiyotlarda shaxsiy sifatlar va emotsional intellekt tushunchalari turli nuqtai nazardan o‘rganib kelinmoqda. M. Mayer va P. Salovey emotsional intellektni “insonning o‘z va boshqalarning emotsiyalarini anglash, baholash va boshqarish qobiliyati” sifatida ta’riflagan. D. Goleman esa bu tushunchaga ijtimoiy kompetensiyalarni, ya’ni hamdardlik, muloqotda ochiqlik va jamoaviy ishlashga tayyorlik kabi sifatlarni ham qo‘shadi.[8,7].

Mahalliy tadqiqotlar orasida T. Tadjibayeva, Z. Rasulova, H. Yusupov, Sh. Nurmuhamedovlarning ishlarida ham pedagog shaxsini o‘rganish, emotsional barqarorlik, kasbiy shaxsiyatning shakllanishi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Biroq aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida emotsional intellekt darajasining shaxsiy sifatlar bilan bog‘liqligi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

O‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘lish, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, muammolarni yumshoq tarzda hal qilish – bularning barchasi o‘qituvchining emotsional intellekti va shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarni

tayyorlash jarayonida ularning shaxsiy sifatlarini aniqlash, baholash va rivojlantirish muhim masalalardan hisoblanadi.

N. Xoll tomonidan taklif etilgan “Emotsional intellektni aniqlash” metodikasi aynan shaxsning ichki his-tuyg‘ularini anglash darajasi, o‘zini tuta bilish, boshqalar bilan hamkorlik qila olish kabi ko‘rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan. Bu metodika amaliy psixodiagnostika sohasida keng qo‘llaniladi va bo‘lajak pedagoglar uchun ayniqsa ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada N. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional intellektni aniqlash” metodikasi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shaxsiy sifatlarning qay tarzda namoyon bo‘layotgani tahlil qilinadi.

1-jadval

Talabalarda kasbiy sifatlarning ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tafovuti ko‘rsatkichlari (Mann-Uitni- U -mezoni bo‘yicha)

shkalalar	Yo‘nalishi	O‘rtacha rang	Ranglar yig‘indisi	U	P
Emotsional bilimdonlik	Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari	213,92	66316,50	18111,500	,347
	boshqa yo‘nalish	226,44	28078,50		
O‘z emotsiyalarini boshqarish	Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari	213,90	66310,50	18105,500	,344
	boshqa yo‘nalish	226,49	28084,50		
o‘zini undash	Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari	206,26	63941,00	15736,000	**,003****
	boshqa yo‘nalish	245,60	30454,00		
Empatiya	Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari	224,36	69553,00	17092,000	**,071***
	boshqa yo‘nalish	200,34	24842,00		
Boshqaning emotsiyasini bilish qobiliyati	Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari	219,15	67936,00	18709,000	,664
	boshqa yo‘nalish	213,38	26459,00		

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Emotsional bilimdonlik shkalasi bo‘yicha boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari va boshqa yo‘nalish talabalari o‘rtasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bunda talabalarning oliy ta’lim muassasasida hissiy ongga ega bo‘lgan shaxslar o‘zlarining ichki holatini boshqalarga qaraganda ko‘proq bilishadi. O‘zlaridagi hissiyotlarini kechishi bo‘yicha o‘xshashligini ifodalashi bo‘yicha bir xillikni ko‘rsatdi. O‘z emotsiyalarini boshqarish shkalasida umumiy so‘rovnomada ishtirok qilgan barcha talabalarda farqlar aniqlanmadi. O‘z-o‘zini undash shkalasida, boshqa yo‘nalish talabalari va Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalari mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida o‘zaro farqli tafovutlar qayd qilindi (U=15736,0; p<0,01). Buni ahamiyatli tomoni, boshqa yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalar, ya’ni, fizika-matematika mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiyotgan yigit-qizlar kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha masala va misollarini ishlashda o‘zlarini undash orqali irodaviy zo‘r berishi, boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalaridagi bunday xususiyatning qaysidir holatining farqli tafovutini qayd qilgan. Bu ko‘rsatkich BTM talabalarda sezilarli quyi natija bilan ifodalangan.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra BTM talabalarning empatiyasi ijobiy farq bilan qayd etildi (U=17092,000 p<0,05). Chunki, BTM talabalarning asosiy vazifasi bu empatiya bo‘lib, bu jarayonni

bolalarning o‘qish faoliyati qo‘llashi zarurati yotadi. Sababi endi maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan jajji bolajonlarning adaptatsiya jarayoni uchun kasbiy sifatlarning asosiylaridan biri bu empatiya bo‘lib, o‘qitiladigan fanlarning ko‘pchiligi empatiyaga yo‘naltirganligi sababli, BTM talabalarda empatiyaning yuqori ko‘rsatkichi qayd qilingan. Shuni ham qayd qilib o‘tishimiz kerakki, olgan nazariy bilimlarni darsda qo‘llanadigan treninglarda qo‘llab borishlari bilan empatiyani yanada boyitib borishi natijasida boshqa yo‘nalish talabalaridan ustunlik qilgan.

Xulosa o‘rnida emotsional intellekt talabalarning o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellektning yuqori bo‘lishi o‘quv motivatsiyasining barqarorligiga, stress va muammolarni yengib o‘tishga, akademik yutuqlarga va kasbiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[6].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida emotsional barqarorlik va emotsiyalarni boshqara olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsionallikning ijobiy ko‘rinishlari — mehribonlik, sabr-toqat, samimiylik va tashabbuskorlik — o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, salbiy emotsiyalar — jahllilik, befarqlik yoki haddan tashqari hissiyotga berilish — ta’lim jarayonining sifatini pasaytirishi mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional ong va emotsional intellektni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashning ajralmas qismidir. Pedagogik ta’lim dasturlariga emotsional intellektga oid maxsus kurslarni kiritish – bu bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalar hissiyotlariga to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologik trening va seminarlar tashkil etish – bu orqali talabalarga emotsional bosimni yengish, stressga chidamlilikni oshirish va ijobiy munosabatni shakllantirish yo‘llari o‘rgatiladi.

Emotsional salomatlikni baholovchi metodik vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish – bu orqali o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi sog‘lom psixologik muhitni yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘z.R Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar №11

2. Мельник Е.В. Влияние эмпатии на формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущих педагогов-психологв: дис.канд.психол.наук. Казань. 2007. 259 с.

3. Sadikova U.B. «Psixologiyada kasbiy sifatlar rivojlanishini tadqiq etilishining zaruriy jihatlari».- Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali- 2024-1/9/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi

4. Шаяхметова В.К. Формирование инвариантных профессионально важных качеств будущих педагогов-психологов: дис.канд.психол.наук. Челябинск. 2009. 327 с.

5. Шевченко О.Ю. Учебно-профессионалная установка в структуре профессионалного сознания студентов вузов. авторф. Дисс. ... канд.пс.наук . Самара 2004, 28 с.

6. Karakulova.U.A -Emotsional intellektning talabalarda o‘quv motivatsiyasi shakllanishiga ta’sirining psixologik xususiyatlari-Pedagogik va psixologik tadqiqotlar-mart-2025-yil 2-son

7. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is emotional intelligence? In Emotional development and emotional intelligence: Implications for educators(pp. 3-31). Basic Books

8. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.

Ergasheva Muhayyo Jo'rayevna,
Turdiyeva Latofat Alimardonovna
Xalqaro innovatsion universitet
"Psixologiya va jismoniy ma'daniyat kafedrasi o'qituvchisi

JON BOULBI TADQIQOTLARIDA ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Xonadagi g'alati vaziyat,hissiy aloqa mexanizmlarini turlari haqida ma'lumot,yolg'iz o'ynash,konsepsiya turlari,g'amxo'rlik,sog'lom rivojlanish,hissiy,fiziologik ehtiyoj shakllari, mahrumlik belgilari, xavotirlilik sindromi, kelib chiqish sabablari, stress ko'rinishlari, ota-onalik instinkti rivojlanishi,birlamchi biriktiruvchi shaxs,hissiy bog'liqlik,xavfsiz qo'shimchalar,g'amxo'rlik ob'ektlari,hissiy munosabatlar,hissiy ehtiyojlar,Xavotirli-ambivalent biriktirma uslubini shakllari haqida ma'lumot.*

Kalit so'zlar: *ishonchlilik, xavfsizlik va bashorat qilish tushunchalari, Xavfsiz bog'lanish,erta yosh,g'amxo'rlik,emotsional qiyofa, fiziologik ehtiyojlar, g'amxo'r, o'yinchoq, bog'liqlik, ota-onalik instinkti,*

ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ МАТЕРЬЮ И РЕБЁНКОМ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ДЖОНА БОУЛБИ

Аннотация. *Незнакомая обстановка в комнате, информация о типах механизмов эмоциональной коммуникации, игра в одиночку, типы понятий, забота, здоровое развитие, формы эмоциональных, физиологических потребностей, признаки депривации, синдром тревоги, причины возникновения, проявления стресса, развитие родительского инстинкта, первичная фигура привязанности, эмоциональная зависимость, надежные привязанности, объекты заботы, эмоциональные отношения, эмоциональные потребности, информация о формах тревожно-амбивалентного стиля привязанности.*

Ключевые слова: *концепции надежности, безопасности и предсказуемости, надежная привязанность, ранний возраст, забота, эмоциональное выражение, физиологические потребности, опекун, игрушка, привязанность, родительский инстинкт,*

THE STUDY OF MOTHER-CHILD RELATIONSHIPS IN THE RESEARCH OF JOHN BOWLBY

Abstract. *A strange situation in the room, information about the types of emotional communication mechanisms, playing alone, types of concepts, care, healthy development, forms of emotional, physiological needs, signs of deprivation, anxiety syndrome, causes of origin, manifestations of stress, development of the parental instinct, primary attachment figure, emotional dependence, secure attachments, objects of care, emotional relationships, emotional needs, information about the forms of anxious-ambivalent attachment style.*

Keywords: *concepts of reliability, safety and predictability, secure attachment, early age, care, emotional expression, physiological needs, caregiver, toy, attachment, parental instinct.*

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar psixologiyasi – bu alohida ilmiy yo'nalish bo'lib, u bolalarning emotsional, ijtimoiy, kognitiv va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Ushbu soha zamonaviy psixologiyaning yetuk yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolaning tabiiy muhitdan chetlanishi, ya'ni biologik oilaning yo'qligi sharoitida rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilishga asoslanadi. Oila – bu faqatgina iqtisodiy va ijtimoiy institut emas, balki bolaning psixik rivojlanishida fundamental asos bo'lib xizmat qiladigan

psixologik muhitdir. Shu sababli, bolani oilaviy tuzilmaning yo‘qligi sharoitida kuzatish nafaqat uning emotsional barqarorligiga, balki o‘zini anglash, atrofdagilarga ishonch bildirish, xavfsizlik tuyg‘usini shakllantirish kabi elementlarga ham bevosita ta’sir qiladi[1].

Yetim bolalar bilan ishlashda psixologik tadqiqotlar bir necha asosiy metodologik yondashuvlarga tayanadi. Birinchi navbatda, bu yondashuvlar psixodiagnostik vositalar orqali bolaning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning travma darajasini baholash va mos psixokorreksion strategiyalarni ishlab chiqishni ko‘zda tutadi. Bunday yondashuvlar nafaqat klinik psixologiya doirasida, balki rivojlantiruvchi va ijtimoiy psixologiyada ham keng qo‘llaniladi. Bunda bolaning o‘z shaxsiy tarixiga ega ekanligi, unda chuqur psixologik iz qoldirgan omillar mavjudligi, unga nisbatan individual yondashuv zarurligini bildiradi.

Metodologik jihatdan olib qaralganda, bu turdagi tadqiqotlar asosan empirik ma’lumotlarga asoslanadi. So‘rovnomalar, kuzatish usullari, individual suhbatlar, loyihaviy testlar va laboratoriya eksperimentlari asosida olib borilgan izlanishlar, bolaning hozirgi holati va u duch kelayotgan ichki ziddiyatlar haqida ob’ektiv tasavvurga ega bo‘lishga imkon yaratadi. Bu yondashuvlar orqali bolaning emotsional bog‘lanish ehtiyoji, ijtimoiy rolni anglash jarayoni, stressga chidamlilik darajasi va identifikatsiyaviy muammolari aniqlanadi.

Nazariy asoslar nuqtai nazaridan qaralganda, bu boradagi tadqiqotlar odatda shaxsning sotsiogenetik rivojlanishi, emotsional bog‘lanish nazariyalari, travmatik tajribaning psixik tuzilishga ta’siri, identifikatsiya va shaxsiy xavfsizlik tushunchalari asosida olib boriladi. Yetim bolalar holatini tushunishda aynan bu tushunchalar psixologik asos sifatida xizmat qiladi.

Yetim bolalarning psixologik portretini yaratishda shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ularning rivojlanishidagi og‘ishlar doim ham patologik holat bilan bog‘liq emas. Aksincha, ko‘p hollarda bunday bolalar ichki resurslarga ega bo‘lib, to‘g‘ri ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash natijasida hayotga moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Shu sababli tadqiqotlar faqat muammolarni aniqlashga emas, balki bu bolalarning kuchli tomonlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ham qaratilishi lozim[2].

Xorij olimlaridan Jon Boulbi, M. Ratter, Gunnar va Fisher, B. D. Perri, M. T. Sviney deprivatsiya holatidagi rivojlanish buzilishlarini aniqlash va individual aralashuv strategiyalarini shakllantirishda o‘z ilmiy ishlarini olib borganlar.

J. Boulbi nazariyasiga ko‘ra, bolalarning psixologik barqarorligi ularning erta yoshda ota-ona bilan bog‘lanish tajribalariga bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa 1940-yillargacha (Jon Boulbi ota-ona va bola munosabatlari bo‘yicha o‘z tadqiqotini boshlaganida) bolaning hayotida onaning roli faqat uning fiziologik ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanganligi umumiy qabul qilingan. Ya'ni, bu ehtiyojlarni kim qondirishi umuman muhim emas.

Boulbining ta'kidlashicha, bola nafaqat kattalarning g'amxo'rligi ob'ekti, balki munosabatlarning sub'ekti hamdir. Yig'lash va qichqirish chaqaloqning onasiga u bilan aloqa o'rnatish uchun yuboradigan signalidir. Uning vazifasi bu signallarni tanib olish va ularga javob berishdir. Bunday holda, onada ota-onalik instinkti paydo bo'ladi va bolada nafaqat uning jismoniy, balki hissiy ehtiyojlarini ham qondiradigan kishiga bog'lanish paydo bo'ladi.

"Ruhiy salomatlik uchun yosh bola va uning onasi (yoki uning o'rnini doimiy ravishda o'rnini bosadigan kishi) o'rtasida iliq, yaqin va doimiy munosabatlar bo'lishi muhimdir, bunda ikkalasi ham qoniqish va quvonch topadi."

J. Boulbi bolaga g'amxo'rlik qiluvchi (va bola unga bog'liq bo'lgan) shaxsni "birlamchi biriktiruvchi shaxs" deb atagan. Uning fikriga ko'ra, bunday raqamlar bir nechta bo'lishi mumkin, ammo ularning soni genetik jihatdan cheklangan - 10 dan ortiq emas (axir, kattalar qanchalik muhim bo'lsa, ularning har biri o'z-o'zidan kamroq ahamiyatga ega).

Jon Boulbi va uning hamkasblarining tadqiqotlari insonning hissiy bog'liqliklarini shakllantirish mexanizmlarini tushunish uchun kalit bo'ldi. Turli vaziyatlarda ona va bolaning o'zaro

[1] Bowlby, J. (1988). *A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development*. New York: Basic Books.132 p.

[2] Dozier, M., Stovall-McClough, K. C., & Albus, K. E. (2008). *Attachment and Biobehavioral Catch-up: Addressing the needs of infants and toddlers exposed to inadequate or problematic caregiving*. *Current Opinion in Psychology*, 20(6), 572–578.

ta'sirini diqqat bilan o'rganib chiqib, tadqiqotchilar sog'lom psixologik rivojlanishda markaziy rol o'ynaydigan va balog'at yoshida ham muhim bo'lib qoladigan turli bog'lanish modellarini aniqladilar.

Ushbu topilmalar o'yinchoqlar bilan to'ldirilgan xonaga joylashtirilgan ona va bolaning xatti-harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatishga asoslangan. "Xonadagi g'alati vaziyat" deb nomlanuvchi bu usul, onaning ketishi yoki begona odamning borligi kabi o'zgaruvchilarning kiritilishiga bolaning javoblarini tahlil qilish uchun sharoit yaratdi. Ushbu kuzatishlar natijasida Jon Boulbi bog'lanishning to'rtta asosiy turini aniqlaydigan biriktirilish nazariyasini ishlab chiqdi.

Biriktirma turlarini batafsil ko'rib chiqaylik:

Xavfsiz biriktirma. Ushbu turdagi bog'lanish ona yoki muhim kattalar bilan chuqur hissiy aloqani o'rnatishni o'z ichiga oladi. Atrofdagi dunyoni o'rganish zarurati va ota-onalari yonida xavfsizlikni izlash o'rtasidagi noyob muvozanat bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, yangi ob'ektlar yoki notanish atrof-muhit bilan bog'liq vaziyatlarda, xavfsiz bog'langan bolalar dastlab onasini ko'zdan qochirmasdan, uning yonida qoladilar. Ular yolg'iz o'ynashni boshlashlari mumkin, lekin vaqti-vaqti bilan boshqa muhim o'yinchi borligini tekshirish uchun qaytib kelishadi.

Onasi yo'q bo'lganda, bolada stress va tashvish paydo bo'lishi mumkin, buning aniq belgilari uning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Biroq, ota-ona qaytib kelganida, bola quvonch va yengillikka to'ladi. Bunday bolalar o'z his-tuyg'ularini yorqin ifodalaydi va xavf yoki qo'rquvni his qilganda his-tuyg'ularini yashirmaydi; Ular qo'llab-quvvatlash va tasalli uchun instinktiv ravishda o'z yaqinlariga murojaat qilishadi.

Xavfsiz bog'lanish erta yoshda shakllanadi va bolaning keyingi hissiy rivojlanishi uchun asosiy hisoblanadi. Bu konsepsiya bolaning ota-onasini qulaylik va xavfsizlikning ishonchli manbai sifatida qabul qilishini anglatadi, bu esa boshqa ijtimoiy munosabatlarga ishonchni rivojlantirish uchun asosdir.

Bolalarga g'amxo'rlik qilayotgan kattalar xavfsiz qo'shimchalarni shakllantirish muhimligini tushunishlari kerak. Bu bolaning hissiy ehtiyojlariga e'tiborli bo'lishni, aloqa va qulaylik uchun hozir bo'lishni anglatadi. Bunday yordamni taqdim etish bolangizga stressni yengish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va uning kelajakdagi hissiy farovonligiga va hatto muvaffaqiyatli ijtimoiy o'zaro munosabatlariga hissa qo'shadi.

Tartibsiz biriktirilish uslubi**.** Ushbu turdagi bog'lanish xatti-harakatlari nomuvofiqlik bilan ajralib turadigan va tartibsiz ko'rinadigan bolalarda namoyon bo'ladi. Bu bolalar xuddi yo'qolgandek harakat qilishlari mumkin, ular ko'pincha sarosimaga tushib, bir vaqtning o'zida bir nechta joylarda qo'lga tushgandek ko'rinadi.

Odatda, bu xatti-harakatlar ularning ota-onalari yoki g'amxo'rlari bilan bo'lgan munosabatlarining aksidir, ular oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda harakat qilishlari mumkin, ko'pincha qulaylik manbai, keyin esa tashvish va qo'rquv manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu bolada ichki ziddiyatni keltirib chiqaradi va natijada ularning xatti-harakatlari tartibsiz bo'ladi.

Tartibsiz qo'shilish uslubini namoyon qiladigan bolalar ota-onaga yaqin bo'lishni xohlashdan tortib, ulardan qochish istagiga qadar o'zlarining reaktsiyalarini birdan o'zgartirishi mumkin. Ota-onalarning xulq-atvoriga ishonchsizlik bolada ular bilan ham, kelajakda ham boshqa odamlar bilan munosabatlarning sog'lom va barqaror modelini shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun muhim vazifa - bu munosabatlarda ishonchlilik, xavfsizlik va bashorat qilish tushunchalarini rivojlantirishga yordam berishdir.

Tartibga solinmagan biriktirma uslubi ko'pincha tuzatishga kompleks yondashuvni talab qiladi. Samarali aralashuv bolaga psixoterapiya va ota-onalarga bolaning ehtiyojlariga yanada izchil va javob berishga yordam beradigan psixologik yordamni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu yondashuvning maqsadi kelajakda o'sib borayotgan shaxsda sog'lom va barqaror shaxslararo munosabatlar uchun mustahkam poydevor yaratishdir.

Xavotirli-ambivalent biriktirma uslubi. Ushbu turdagi bog'lanishni ko'rsatadigan bolalar, odatda, ota-onaning huzurida ham yuqori darajadagi hushyorlikni namoyon etadigan ehtiyotkor tadqiqotchilar sifatida tavsiflanadi.

Xavotirli va noaniq munosabatda bo'lgan bolaning xatti-harakatlaridagi asosiy moment - bu onaning yo'qligiga munosabati. Ko'pincha, bunday bolalar onasi o'z ko'rish sohasini tark etganda sezilarli stress va xavotirni boshdan kechirishadi, bu kuchli tashvish va hatto umidsizlikda namoyon bo'ladi. Ona bolaga qaytib kelganda, uning munosabati qarama-qarshi va noaniq bo'lib chiqadi. Uchrashuv ham qidiruv harakati, ham g'azablanish va hatto rad etish bilan birga bo'lishi mumkin.

O'zaro munosabatlardagi bunday dinamika ko'pincha ota-onalarning javoblarining beqarorligi bilan bog'liq.

Odatda, turli xil mahrumlik turlari o'zaro bog'liq va kompleksda namoyon bo'ladi, ularning alomatlari birlashtirilishi mumkin.

Hissiy mahrumlik - bu boshqa odam bilan hissiy aloqa o'rnatish imkoniyatining yo'qligi yoki etishmasligi yoki qayg'uni boshdan kechirishda yordam bo'lmaganda allaqachon yaratilgan hissiy aloqalarning shikastli uzilishi.

Erta yoshda hissiy mahrumlikning oqibati aqliy va jismoniy rivojlanishning kechikishi, shu jumladan nutq va ijtimoiy aloqaning rivojlanishi. Bunday bolalar ko'pincha hamma bilan bir xilda, u yoki bu suhbatdoshning xususiyatlarini ajratmasdan muloqot qiladilar, boshqa odam bilan qanday hamkorlik qilishni bilmaydilar, yoshiga mos kelmaydigan muloqot strategiyalaridan foydalanadilar, o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ularini farqlashda qiynaladilar va ularni kundalik hayotda hisobga olmaydilar. Ko'pincha, bunday bolalar o'yindan zavqlanish o'rniga, ob'ektlarni his-tuyg'usiz ravishda boshqaradi yoki yorqin stimullarni tomosha qiladi (masalan, ular multfilmlarni tomosha qilishadi, lekin syujetga hissiy jihatdan aralashmaydilar).

Emotsional mahrumlik natijasida bolada o‘ziga nisbatan ijobiy emotsional qiyofa hosil bo‘lmaydi (men yaxshiman), u o‘zini atrofdagilar uchun ahamiyatli ekanini his qilmaydi, maqtov va tanqidga yomon yo‘naltiriladi.

Hissiy mahrumlik belgilari:

- Bola doimo tashvishga tushadi va boshqa odamlar bilan muloqot qilishda muammolarga duch keladi.

- Ular doimo himoyaviy pozitsiyani egallab, ehtiyotkor bo'lishadi.

Bolaning hissiy rivojlanishi - bu o'z tanasining xususiyatlari, ichki organlardan va tashqaridan kelib chiqadigan his-tuyg'ular, atrofdagi dunyo ob'ektlari bilan o'zaro aloqada bo'lganida, og'riq yoki yoqimli hislar, issiqlik va sovuqlik, turli xil teginish hissi, ta'm, tovush, rang, bo'shliq hissi va o'z motor taassurotlari haqida tushunchani shakllantirish va rivojlantirishdir.

Bola hissiy jihatdan o’zini o’rab turgan atrofidagi insonlarni o’z hissiyotlarini ifodalashiga qarab,o’zlaridagi hissiyotlarni atrofdagilar bilan bo’lishishni o’rganadi. E’tibor qaratadigan bo’lsak kichkina bolajonlar o’z jahlini xuddi otasi yoki onasidek ko’rsatishadi.

Sabab oqibat qanday bo’lishidan qat’iy nazar bolajonlar kattalarga taqlidni davom ettirishadi.Nafaqat hissiyotlarda balki barcha hayotiy muommolarga yechimni ota-onalaridek hal etishni ma’qul ko’rishadi.

Onalar stressda bo'lsa, bolalar bilan birga bo’lgan vaqt yordam bermaydi.

Ular hatto salbiy natijani ham topdilar. Agar onalar o'z farzandlari bilan juda muhim vaqt o't-kazayotganda stressga duchor bo'lishsa, bolalar bundan ham yomonroq edi. Bu, ehtimol, ular bu vaq-tni majburiyatdan tashqari o'tkazganlari uchundir, chunki ularga ona bilan bo'lish juda muhim va qanchalik yaxshi ekanligi aytilgan. Onalar bilan bo'lgan bunday vaqt bolalarda xulq-atvor shakllari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Shonazarov J.U. Kasbiy psixologiya. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil

2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O‘zbekiston», 2017.

3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O‘zbekiston», 2017.

4.O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.

6.Ergasheva M. (2025). Oilaviy bolalar uyi sharoitida tarbiyalanayotgan bolalarda senziti-vlikning o'ziga xosligi. Modern Science and Research, 4(1), 560–563. Retrieved from https://inli-brary.uz/index.php/science-research/article/view/63780

Isabayev Abdukarim Komiljonovich
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KASBIY STRESS OMILLARI VA UNI PSIXOKORREKSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasbiy stressning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda kasbiy stress va uning emotsional kuyinish sindromi bilan bog'liqlik jihatlari empirik jihatdan yoritib berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *shaxs, stress, kasbiy stress, emotsional kuyinish sindromi, pedagogik faoliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПСИХОКОРРЕКЦИИ И ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности профессионального стресса в педагогической деятельности. В связи с этим эмпирически проанализировано аспекты профессионального стресса и его взаимосвязь с эмоциональным выгоранием.*

Ключовие слова: *личность, стресс, профессиональный стресс, эмоциональная выгорания,педагогическая деятельность.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF PSYCHOCORRECTION AND FACTORS OF OCCUPATIONAL STRESS IN LAW ENFORCEMENT OFFICERS

Rezume. *This article analyzes the psychological features of occupational stress in pedagogical activity. Alternatively, aspects of occupational stress and its association with emotional burnout have been empirically illuminated.*

Key words: *person, stress, professional stress, the emotional burnout syndrome, pedagogical activity.*

Kasbiy stress – shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ravishda yuzaga keluvchi stress turidir. Agar shaxs hayotining aksariyat qismi uning kasbiy faoliyat bmlan mashg'ul holda o'tishini hisobga olsak, mazkur muammoni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Turli stressogen omillar ta'siriga boy bo'lgan kasblardan biri – pedagoglik kasbidir.

Ichki ishlar xodimlari shaxsi kasbiy nuqtai nazardan olganda tolerant tipga mansubdir, ular kasbiy faoliyati davomida intensiv emotsional insoniy munosabatlar bilan ko'p to'qnash keladilar, ota-ona, o'quvchilar, hamkasblar bilan ishlash davomida turli o'ziga xos psixologik to'siqlarni yengib o'tishda o'zlaridagi empatiya hissini kamroq darajada namoyon qilishga harakat qilmasalar, bunday tipdagi "muloqotga to'lalik" pedagoglardagi emotsional zo'riqishlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Kasbiy faoliyatdagi zo'riqishlar pedagoglarning shaxsiy hayotida ham o'z aksini topmay qolmaydi. Chunki, hozirgi kunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadiganlarning aksariyati o'z farzandi tarbiyasiga alohida vaqt ajrata olmay qolyaptilar. Natijada, farzandi oldida aybdorlik hissining ortishi, tarbiya masalasida o'zini no'noq his qilish, o'ziga va atrofdagilarga yo'naltirilgan agressiyaning ortishi kuzatilmoqda. Pedagoglardagi mana shu o'zidan qoniqmaslik hissi unda emotsional kuyinish sindromiga moyillikning ortishiga sabab bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda "kasbiy stress" degan tushuncha keng qo'llanilmoqda. Psixik kuyinish deganda, ijtimoiy sohadagi kasblarda namoyon bo'luvchi jismoniy, emotsional, aqliy zo'riqish holati tushuniladi. K.Maslach va S.Ye.Jeksonlarning ta'kidlashicha, psixik kuyinish deganda ijtimoiy

sohaning kasbiy doirasida namoyon bo‘luvchi jismoniy emotsional, aqliy zo‘riqish, kuyinish nazarda tutiladi va uning quyidagi uchta komponenti mavjud: emotsional kuyinish, depersonalizatsiya, kasbiy motivatsiyaning kuyinishi. Emotsional kuyinish esa ta’sir etilayotgan stressogen vaziyatlarga nisbatan emotsional javob qaytarishning to‘liq yoki qisman cheklanishi bo‘lib, shaxsning psixologik himoya mexanizmi hisoblanadi [6,126-b].

Emotsional kuyinish – bu hissiy, ko‘pincha kasbiy hulq-atvor stereotipidir. “Kuyinish” qisman funksional stereotipdir, chunki u odamga energiya resurslari miqdorini belgilash va tejamkorlik bilan sarflash imkonini beradi. Shu bilan birga, disfunksional oqibatlarni ham keltirib chiqarishi ham mumkin. “Psixologik kuyinish” shunday vaziyatlarda, ya’ni kasbiy faoliyatni amalga oshirish va kasbiy faoliyat sub’ekti bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatganda vujudga kelishi mumkin. Emotsional kuyinish sindromi Amerikalik psixiatr Gerbert Freydenberg tomonidan 1974 yilda kiritilgan. Uning fikricha, emotsional kuyinish sindromi hissiy zo‘riqish natijasida kelib chiqqib, shaxsning shaxlararo munosabatlar sohasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Emotsional kuyinish sindromi ko‘p hollarda “odam-odam” tipidagi kasb egalarida uchraydi. “Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi-11”ga ko‘ra, insonlar sog‘liqni saqlash tizimi xodimlariga eng ko‘p surunkali tushkunlik holati sifatida murojaat qilishadi.

Emotsional kuyinish sindromining klinik belgilari:

1.Hamkasblarga nisbatan degumanizatsiya va ularga salbiy munosabat;

2.Kasbiy holatidan qoniqmaslik;

3.Depersonalizatsiya va shaxsiy hayotdagi muammolar vujudga keltirish;

4.Turli xildagi psixosomatik kasalliklar;

5.Kognitiv sohadagi buzilishlar;

6.Emotsional zo‘riqish [5, B.157-165;3,272-b].

Ichki ishlar xodimlarida kasbiy stress va emotsional kuyinish darajasini aniqlash maqsadida sinaluvchilarda D.Fontanning “Kasbiy stress darajasini aniqlash shkalasi” va V.V.Boyko tomonidan taklif etilgan “Emotsional kuyinish darajasi” metodikalarini o‘tkazdik. Mazkur metodikalardan olingan pedagoglardagi kasbiy stress darjasi va emotsional kuyinish sindromi orasidagi bog‘liqlikning o‘ziga xos tomonlari bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval

Ichki ishlar xodimlarida kasbiy stress va emotsional kuyinish sindromi orasidagi bog‘liqlik

Shkalalar	Ish staji	Psixoemotsional holsizlanish	Depersonalizatsiya	Kasbiy motivatsiyaning pasayishi
Kasbiy stressning yuqori darajasi	5 yilgacha	0,195	0,189	-0,056
	10 yilgacha	-0,019	0,059	-0,041
	15 yilgacha	0,356*	0,329*	0,078
	15 yildan yuqori	0,346**	0,332**	0,164
Kasbiy stressning o‘rta darajasi	5 yilgacha	0,245	0,132	0,064
	10 yilgacha	0,051	0,054	0,045
	15 yilgacha	0,152	0,156	0,157
	15 yildan yuqori	0,278**	0,313**	0,106

Kasbiy stressning past darajasi	5 yilgacha	-0,342*	-0,236	-0,003
	10 yilgacha	0,172	0,126	0,010
	15 yilgacha	-0,259	0,267	-0,188
	15 yildan yuqori	-0,282**	-0,327**	-0,126

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,001.

Kasbiy stressning yuqori darajasi 15 yilgacha stajga ega ichki ishlar xodimlarida psixoemotsional holsizlanish (r=0,356; r≤0.05), depersonalizatsiya (r=0,329; r≤0.05), 15 yildan ortiq ishlaganlarda esa psixoemotsional holsizlanish (r=0,346; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=0,332; r≤0.001) bilan ijobiy statistik ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Kasbiy stressning o‘rta darajasi 15 yildan ortiq ishlaganlarda psixoemotsional holsizlanish (r=0,278; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=0,313; r≤0.001) bilan statistik ahamiyatli ravishda bog‘liq ekanligi kuzatildi. Kasbiy stressning past darajasi 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlarda psixoemotsional holsizlanish (r=-0,342; r≤0.05), 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarda esa psixoemotsional holsizlanish (r=-0,282; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=-0,327; r≤0.001) orasida teskari statistik aloqa aniqlandi.

Psixoemotsional holsizlanish va kasbiy stressning darajalari orasidagi ijobiy korrelyatsiyaning mavjudligi ichki ishlar xodimlaridagi hissiy jismoniy energetik resurlarning kamayishi, holdan toyishi holatlari bilan kuzatiladi. Agar sinaluvchilarimizning natijalariga qaraydigan bo‘lsak, kasbiy stressning yuqori va o‘rta darajalari asosan 15 yilgacha va undan ortiq pedagogik stajga ega bo‘lganlarda namoyon bo‘lgan. Bu holat ichki ishlar xodimlarida xavotirlanish, surunkali charchash, atofdagilarga nisbatan depressiya, asabiylashish, shaxsning immun va asab tizimidagi kuchsizlik, psixosomatik kasalliklarga moyillikning ortishi, befarqlik va sovuqqonlikda namoyon bo‘ladi.

K.Cherneshning ta’kidlashicha, psixoemotsional holsizlanish psixik kuyinishning birinchi bosqichi bo‘lib, bunda kasbiy talab va shaxsning ichki imkoniyatlari orasidagi muvozanat buzilganda yuzaga keladi [2, B.234-238]. Bunday holatlarda kasbiy faoliyatdagi bir xillik shaxsda stress holatini yuzaga keltiradi. Umuman insonda stressning namoyon bo‘lishidan avval kuchli xavotir kuzatiladi. Bu jarayonda inson organizmida asab tizimi ta’sirida adrenalin va noradrenalin moddasi miqdori ko‘payib ketadi. Natijada inson organizmida kortizol va aldosteron gormonlarining (bular stress gormonlari deb ham ataladi) ajralib chiqishi ham kuchayib, shaxsda qarshilik ko‘rsatish reaksiyalari paydo bo‘ladi. Organizmda mazkur holatning uzoq davom etishi esa adaptatsion energiya tanqisligini chaqiradi hamda organizm o‘z zahirasidagi vitamin va minerallarni organizmdagi charchoqni bartaraf etish uchun safarbar eta boshlaydi. Mazkur holatning surunkali davom etishi esa inson organizmida psixoemotsional holsizlikni keltirib chiqarib, turli psixosomatik kasalliklarga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham, psixoemotsional holsizlik va kasbiy stress orasida hamisha ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya kuzatilgan. Kasbiy stressning past darajasi 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan mutaxassislarning ko‘rsatkichlarida psixoemotsional holsizlanish bilan teskari korrelyatsiyaga ega. Bu holat yosh mutaxassisning jismonan sog‘lom, yoshga oid psixofiziologik funksiyalarning faoliyatini barqaror ekanligini anglatadi. Huddi shunday holat ayrim 15 yildan ortiq ishlaganlarda ham kuzatilgan. Buning asosiy sababi esa pedagoglarda o‘z jismoniy, ruhiy salomatligiga nisbatan sog‘lom psixoemotsional munosabatni shakllanganligidan dalolat beradi.

Ichki ishlar xodimlaridagi depersonalizatsiya va kasbiy stressniing yuqori hamda o‘rta darajalari bilan 15 yil va undan ortiq ishlagan hodimlarning natijalarida bog‘liq chiqqan. Depersonalizatsiya ijtimoiy dezadaptatsiyaning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Bunda shaxslararo munosabatlarga kirishish kamayadi va xavotirlanish darajasi ortadi.

Kasbiy motivatsiyaning pasayishi va kasbiy stress darajalari orasida korrelyatsion bog‘liqlik aniqlanmadi. Aslida kasbiy motivatsiyaning pasayishi shaxsning o‘z kasbiy faoliyatidan qoniqmasligi, o‘ziga past baho berishi kasbiy kompetentligining pastligini anglatadi. Shaxsiy

kuzatuvlarimiz natijasida ko‘p hollarda kasbiy stress “mehnat faoliyatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning yetarli emasligi” oqibatida kelib chiqadi, deb hisoblar edik. Chunki, pedagoglardagi kasbiy motivatsiya o‘z kasbdan qoniqish hissini paydo qilsa, u albatta stress faktorlarga chidamli bo‘ladi. Biroq sinaluvchilarimizda mazkur ikki o‘zgaruvchi orasida korrelyatsion aloqadorlik aniqlanmadi, buni I.A.Zimnyaya ajratib ko‘rsatgan shaxsdagi kasbiy motivatsiyaning kompetensiya darajalarini shakllanganlik bilan bog‘lash mumkin[1, B.12-16]:

- atrofdagilarga yo‘nalganlik kompetensiyasi bilan bog‘liq qadriyatlar: yashash tarzi, madaniyati, pedagogning asosiy vazifasini anglashi, pedagog kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushunishi va bolalarni sevishi;

- fuqarolik kompetensiyasi: o‘z faoliyati uchun ma’suliyatni his qilishi, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, optimizm, o‘ziga ishonch va o‘z-o‘ziga adekvat baho;

- faoliyat kompetensiyasi: o‘z pedagogik faoliyatini boshqara olishi va loyihalay olishi.

Bizning fikrimizcha, aynan mana shu kompetensiyalar shakllangan pedagogda o‘ziga motivatsiya berish, ichki lokus nazorat, muvaffaqiyatga intilish motivi ustun bo‘ladi va shu bilan bir vaqtda mana shu omillar ham kasbiy stressga moyillikni chaqirishi yoki unga qarshi koping xulq strategiyasi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Shu boisdan ham, mazkur ko‘rsatkichlar orasida bog‘liqlik aniqlanmagan.

Umuman olganda, G.Selening qarashlarida ta’kidlanishicha, stress 3 bosqichda yuzaga keladi, ya’ni asabiy zo‘riqishlar, rezistensiya (yoki qarshilik) va zo‘riqish (psixofiziologik resurslarni safarbar etib bo‘lish). Ilmiy manbalarda kasbiy stress va psixik kuyinish, kuyinish sindromini bog‘lab turuvchi ikki holat tahlil qilingan. Bular vaqt omili va moslashuv omili. Kasbiy stress kasbiy faoliyatga moslashish sindromi bo‘lib, inson psixikasining barcha ichki imkoniyatlarini safarbar etilishini talab etadi, kuyinish, kuyinish sindromi esa ana shu moslashish jarayonidagi muammolar natijasida kelib chiqadi. Pedagoglardagi kuyinish sindromi va uni keltirib chiqaruvchi omillar tahlili shuni ko‘rsatdiki, psixik kuyinish sindromi ekologik disfunksiyaga ega bo‘lib, shaxsiy va ijtimoiy omillarning integrativ ta’siri natijasida yuzaga keladi. Kasbiy stress shaxsning pedagogik jamoaga moslashish jarayonida ichki resurslarini namoyon qilishi bilan bog‘liq vaziyat bo‘lsa, psixik kuyinish esa mazkur moslashuv jarayonining muvaffaqiyatsiz kechganida yuzaga keladigan psixoemotsional holatdir.

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Ichki ishlar xodimlarining faoliyati o‘zining emotsiogenligi, stressogen omillarga to‘laligi bilan ajralib turadi. Pedagoglardagi psixik kuyinish sindromi – bu pedagogik faoliyatdagi jismoniy, emotsional, kognitiv to‘yinish natijasida kelib chiqadigan holatdir.

2. Ichki ishlar xodimlarida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy stress darajasi emotsional kuyinish sindromining psixoemotsional holsizlanish, depersonalizatsiya, psixik kuyinishning qarshilik, zo‘riqish, kuyinish fazalari bilan pedagogik stajga bog‘liq holda ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Багадаева О.Ю. / Мотивация персонала как организационное условие снижения профессионального стресса педагогов ДОО/ Современное дошкольное образование. Теория и практика. 2016 №2. С.12-16.

2. Китаев-Смык Л.А. Организм и стресс: стресс жизни и стресс смерти. СПб., Питер. 2012., С.234-238.

3. Короленко Ц. П. Психофизиология человека в экстремальных условиях. –Л.: Медицина, 1978. – 272 с.

4. Нуллер Ю.В. Диагностика и терапия деперсонализационного растройства М.: Наука 2019. С. 242-246.

5. Herbert J.Freudenberger. Staff burn-out (англ) // Journal of Social Issues. -1974. – Vol.30,no.1.- P.159-165

6. Maslach, C. Burnout: A social psychological analysis .In The Burnout syndrome ed.J.W.Jones, pp. 30-53, Park Risge, IL: London house, 1982 p.126.

Jabborova Musharraf Zafarbek qizi
Andijon davlat universiteti doktoranti
Kuaf, psixologiya fani o'qituvchisi
E-mail: musharrafjabborova8@gmail.com

MOSLASHUV JARAYONLARINI O'RGANOSHDA IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQADORLIK

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy psixologiya fanida moslashuv jarayonlarini o'rganishga doir asosiy yondashuvlar, tadqiqot tendensiyalari va nazariy qarashlar yoritilgan. Ijtimoiy-psixologik va sof psixologik moslashuv tushunchalari o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqilib, ularning shaxsning umumiy moslashuv salohiyatini shakllantirishdagi roli ta'kidlanadi. Shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi – ijtimoiy himoya, kommunikativlik, integratsiya va o'zini ro'yobga chiqarish funksiyalarini bajarsa, psixologik moslashuv – ichki holatlarni boshqarish, stress va diskomfortga qarshi kurashish orqali psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *Moslashuv, ijtimoiy-psixologik moslashuv, psixologik moslashuv, shaxs, stress, psixologik barqarorlik, emotsional intellekt, koping-strategiyalar, ijtimoiy himoya, integratsiya, subyektlilik, o'zlikni anglash, madaniy qadriyatlar, psixodiagnostika, psixokorreksiya, ijtimoiy guruhlar, milliy psixologiya, pozitiv psixologiya, madaniyatlararo moslashuv.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ СОЦИАЛЬНЫХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ИЗУЧЕНИИ ПРОЦЕССОВ АДАПТАЦИИ

Аннотация. *В данной научной статье представлены основные подходы, направления исследования и теоретические взгляды на изучение адаптационных процессов в современной психологии. Понятия социально-психологической и чисто психологической адаптации рассматриваются с точки зрения взаимосвязанности, подчеркивая их роль в формировании общего адаптационного потенциала личности. Адаптация индивида к социальной среде – выполняет функции социальной защиты, коммуникативности, интеграции и самореализации, психологическая адаптация – обеспечивает психологическую устойчивость путем управления внутренними ситуациями, борьбы со стрессом и дискомфортом.*

Ключевые слова: *адаптация, социально-психологическая адаптация, психологическая адаптация, личность, стресс, психологическая устойчивость, эмоциональный интеллект, копинг-стратегии, социальная защита, интеграция, субъектность, самосознание, культурные ценности, психодиагностика, психокоррексия, социальные группы, национальная психология, позитивная психология, кросс-культурная адаптация.*

THE INTERRELATION BETWEEN SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE STUDY OF ADAPTATION PROCESSES

Annotatsiya. *This scientific article presents the main approaches, research trends and theoretical views on the study of adaptation processes in modern psychology. The concepts of socio-psychological and purely psychological adaptation are considered in terms of interrelatedness, emphasizing their role in the formation of the individual's overall adaptive potential. Adaptation of an individual to the social environment - performs the functions of social protection, communicativeness, integration and self-fulfillment, psychological adaptation - provides psychological stability by managing internal situations, combating stress and discomfort.*

Keywords: *Adaptation, socio-psychological adaptation, psychological adaptation, personality, stress, psychological stability, emotional intelligence, coping strategies, social protection, integration, subjectivity, self-awareness, cultural values, psychodiagnostics, psychocorrexia, social groups, national psychology, positive psychology, cross-cultural adaptation.*

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida moslashuv jarayonlarini o'rganish quyidagi asosiy tendentsiyalar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy muhit talablariga, normalariga, qadriyatlariga va kutilmalariga moslashishi orqali uning shu muhitda samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. U ijtimoiy himoya, ijtimoiylashuv, kommunikativ, integrativ va o'z-o'zini ro'yobga chiqarish funksiyalarini bajaradi.

Psixologik moslashuv shaxsning o'z ichki psixologik holatlarini, emotsiyalarini, his-tuyg'ularini va kechinmalarini boshqarish, stress, frustratsiya va psixologik diskomfort holatlarida psixologik muvozanatni saqlash qobiliyatini ta'minlaydi. U psixologik himoya mexanizmlari, koping-strategiyalar, emotsional intellekt va psixologik barqarorlik kabi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Muhokama.

Ijtimoiy-psixologik va sof psixologik moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ular birgalikda shaxsning umumiy moslashuv potensialini tashkil etadi, bu esa hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tish va psixologik farovonlikni ta'minlash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy psixologiya fanida moslashuv jarayonlarini o'rganish integrativ yondashuv, individual-tipologik xususiyatlarni hisobga olish, pozitiv psixologiya ta'siri, madaniyatlararo tadqiqotlar, psixofiziologiya bilan integratsiyalashuv, amaliy yo'nalganlik, emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanishi, shaxsning sub'ektliligi va faolligini ta'kidlash, koping-strategiyalarni o'rganish hamda psixologik farovonlik va hayot sifati bilan bog'lash kabi tendentsiyalar bilan tavsiflanadi.

G. Engel, A.V. Petrovskiy, M.G. Yaroshevskiy tadqiqotlarida integrativ yondashilgan bo’lib, moslashuv jarayonlarini biologik, psixologik va ijtimoiy aspektlarni birlashtirgan holda o'rganiladi. Bu yondashuv doirasida moslashuv biologik, psixosotsial fenomen sifatida ko'rib chiqiladi

V.S. Merlin, B.G. Ananev, A.E. Lichko tadqiqot ishlarida esa individual xususiyatlarni hisobga olish - moslashuv jarayonlarining individual o'ziga xosligini, ularning shaxs tipologiyasi, temperament, xarakter va boshqa psixologik xususiyatlar bilan bog'liqligini tadqiq etadilar.

M. Seligman, M. Csikszentmihalyi pozitiv psixologiya yo’nalishida moslashuv jarayonlarini o'rganishda shaxsning kuchli tomonlari, resurslari va imkoniyatlariga e'tibor qaratish, moslashuv jarayonini shaxsiy o'sish va rivojlanish kontekstida ko'rib chiqish, ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar (J. Berry, M. Benet, D. Matsumoto) moslashuv jarayonlarining madaniy xususiyatlarini, turli madaniyatlarda moslashuv strategiyalari va mexanizmlarining o'ziga xosligini o'rganishda keng qo’llaniladi.

Neyrofan va psixofiziologiya bilan integratsiyalashuv moslashuv jarayonlarining neyrofiziologik asoslarini, kognitiv va emotsional jarayonlarning miyada kechishini, amaliy psixologiya moslashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorlikni oshirish, stress va depressiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaliy usullar, shaxsning subyektliligi va faolligini ta'kidlash - moslashuv jarayonlarida shaxsning faol roli, uning o'z hayotini ongli ravishda o'zgartirish va shakllantirishdagi ishtiroki, moslashuv jarayonlarini boshqarishdagi sub'ektiv mas'uliyati. Koping-strategiyalarni o'rganish- stressli vaziyatlarda qo'llaniladigan samarali va samarasiz koping-strategiyalarni aniqlash, ularning shaxs xususiyatlari, yoshi, jinsi, madaniy o'ziga xosligi bilan bog'liqligini tadqiq etish uchun o’rganiladi.

Psixologik farovonlik va hayot sifati bilan bog'lash - moslashuv jarayonlarining psixologik farovonlik, hayot sifati, psixologik salomatlik bilan o'zaro bog'liqligini tadqiq etish, samarali moslashuv strategiyalarining hayot sifatiga ta'sirini o'rganish.

Adabiyotlar tahlili.

F.E. Vasilyuk ta'kidlaganidek, psixologik moslashuv va ijtimoiy-psixologik [1] moslashuv o'rtasidagi nisbat shaxsning psixologik tipiga, vaziyat xususiyatlariga va shaxsning hayotiy strategiyasiga bog'liq. Ba'zi odamlar asosan ichki psixologik moslashuv mexanizmlariga (emotsiyalarni nazorat qilish, stress bilan kurashish) tayanishsa, boshqalari ijtimoiy-psixologik moslashuv usullarini (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash izlash, ijtimoiy normalarni to'liq qabul qilish) afzal ko'radilar.

[1] https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article

V.A. Petrovsky ijtimoiy-psixologik va sof psixologik moslashuv o'rtasidagi dinamik nisbatni ta'kidlaydi.[1] Uning fikricha, bu ikki jarayon bir-biriga nisbatan qarshi yo'nalishlarda harakat qilishi mumkin. Masalan, ijtimoiy-psixologik moslashuv (jamoaga moslashish) psixologik moslashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi (ichki psixologik diskomfort keltirib chiqarishi) mumkin va aksincha.

O'zbek psixologiyasida moslashuv jarayonlarini o'rganish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi va hayot tarzidan kelib chiqadi. Zamonaviy o'zbek psixologiyasida moslashuv muammosini asosan quyidagi yo'nalishlarda o'rganiladi. Milliy va madaniy omillarning moslashuv jarayonlariga ta'siri borasida, o'zbek milliy madaniyati, qadriyatlar tizimi, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzining moslashuv jarayonlariga ta'sirini o'rganish. E.G'oziyev, Z.T. Nishonova, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova tadqiqotlarida [2]o'zbek millatiga xos jamoaviylik, oila qadriyatlari, kattalarni hurmat qilish, mehr-oqibat kabi milliy qadriyatlarning moslashuv jarayonlarida ahamiyati ko'rsatib berilgan. Ta'lim tizimida moslashuv masalalari, o'quvchi va talabalarning ta'lim muhitiga moslashuvi, ta'lim faoliyatida psixologik to'siqlarni bartaraf etish yo'llari, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligini oshirish uchun tadqiq qilinadi. Bu yo'nalishda Z.T. Nishonova, B.R. Qodirov, M.G. Davletshin, G.T. Tilegenova tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

Mehnat faoliyatidagi moslashuvni o'rganish turli kasblar vakillari, korxona va tashkilotlarda mehnat faoliyatiga moslashuv jarayonlari, stress holatlarini bartaraf etish yo'llari, mehnat samaradorligini oshirishda foydalaniladi. Bu yo'nalishda A.M. Mamatov, V.A. Tokareva, R.S. Samarov, N.S. Safayev izlanishlari mavjud.

Ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida moslashuv masalalarini o'rganish esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi o'zgarishlar sharoitida shaxsning moslashuv xususiyatlari, adaptatsion imkoniyatlari va psixologik barqarorlik masalalarini hal qilishda qo'llaniladi. Bu yo'nalishda E.G'oziyev, V.M. Karimova, G'.B. Shoumarov izlanishlari olib borilgan.

Oilaviy moslashuv masalalari - er-xotinlik munosabatlaridagi moslashuv jarayonlari, nikohdan qoniqish, oilaviy konfliktlar, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, oila psixologiyasi masalalari. Bu yo'nalishda G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, Z.T. Nishonova tadqiqotlari ahamiyatga ega.

Stress va emotsional zo'riqish sharoitida moslashuv - turli stressogen omillar ta'sirida psixologik moslashuv xususiyatlari, stressga bardoshlilik, emotsional zo'riqish holatlarini bartaraf etish yo'llari. Bu yo'nalishda N.S. Safayev, F.M. Xaydarov, A.M. Mamatov tadqiqotlari mavjud.

Etnopsixologik moslashuv masalalari - turli etnik guruhlar, madaniyat vakillari o'rtasidagi munosabatlar, madaniyatlararo muloqot va moslashuv masalalari. Bu yo'nalishda N.S. Safayev, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova izlanishlari mavjud.

Ijtimoiy guruhlarda moslashuv** - turli ijtimoiy guruhlar (yosh guruhlari, jins guruhlari, kasbiy guruhlar, etnik guruhlar)da moslashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Bu yo'nalishda B.R. Qodirov, V.M. Karimova, G.B. Shodmonova tadqiqotlari mavjud. Shaxs rivojlanishi va o'zlikni anglash masalalari - shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, o'z hayotini mustaqil boshqarishi bilan bog'liq moslashuv masalalari. Bu yo'nalishda E.G'oziyev, B.R. Qodirov, Z.T. Nishonova izlanishlari olib borilgan. Moslashuv jarayonlarida psixodiagnostika va psixokorreksiya masalalari - moslashuv jarayonlarini diagnostika qilish, moslashuv qiyinchiliklarini aniqlash va korreksiya qilish usullarini ishlab chiqish. Bu yo'nalishda G.K. Tulagonova, Z.T. Nishonova, N.S. Safayev tadqiqotlari mavjud.

Ijtimoiy-psixologik va sof psixologik moslashuv jarayonlari shaxs hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularni ilmiy tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbek psixologiyasida moslashuv jarayonlarini o'rganishda milliy va madaniy omillarning moslashuv jarayonlariga ta'siri, ta'lim tizimida moslashuv masalalari, mehnat faoliyatidagi moslashuv, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida moslashuv masalalari, oilaviy moslashuv masalalari, stress va emotsional zo'riqish sharoitida moslashuv, etnopsixologik moslashuv masalalari, ijtimoiy guruhlarda

[1] https://poisk-ru.ru/s35253t18.html
[2] https://ojs.renaissance.com.uz/index.php

moslashuv, shaxs rivojlanishi va o'zlikni anglash masalalari hamda moslashuv jarayonlarida psixodiagnostika va psixokorreksiya masalalari kabi yo'nalishlar rivojlanmoqda.

Xulosa.

Umuman olganda, ijtimoiy-psixologik va psixologik moslashuv bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro ta'sir qiluvchi jarayonlar bo‘lib, ularning o’rganilishi shaxsning psixologik farovonligi va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Moslashuv jarayonlari ijtimoiy-psixologik va psixologik turlar orqali shaxsning atrof-muhitga va ichki holatga moslashishini ta'minlaydi. Bunda jarayonlar integrativ yondashuv, individual xususiyatlar, pozitiv psixologiya va madaniyatlararo tadqiqotlar orqali ijtimoiy va psixologik omillari birgalikda keng ko‘lamda o‘rganiladi. O‘zbek psixologiyasida esa moslashuv milliy qadriyatlar, madaniyat va hayot tarzi mavzusida o‘rganilib, ta'lim, mehnat, oila, ijtimoiy o‘zgarishlar kabi muhim sohalarga tatbiq etiladi. Shunday qilib, moslashuv jarayonlarini o‘rganish nafaqat ilmiy ahamiyatga, balki amaliy jihatdan ham shaxsning farovonligi va hayot sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu jadval zamonaviy psixologiyada moslashuv jarayonlarini o‘rganish yo‘nalishlarni ko‘rsatadi.

Yo‘nalish	Asosiy mazmun	Asosiy olimlar
Integrativ yondashuv	Biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning birlashuvi	G. Engel, A.V. Petrovskiy, M.G. Yaroshevskiy
Individual yondashuv	Temperament, xarakter va shaxs tipologiyasiga asoslangan o‘ziga xoslik	V.S. Merlin, B.G. Ananev, A.E. Lichko
Pozitiv psixologiya	Kuchli tomonlar, resurslar, shaxsiy o‘sish va rivojlanish	M. Seligman, M. Csikszentmihalyi
Madaniyatlararo	Madaniy xususiyatlar va strategiyalarni tahlil qilish	J. Berry, M. Benet, D. Matsumoto

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Safaev N.S. Psixologicheskie osobennosti natsionalnoy tolerantnosti v Uzbekistane. – T.: Iqtisod-Moliya, 2013. – 184 s.

2. Berry J.W. Acculturation: Living successfully in two cultures // International Journal of Intercultural Relations. – 2012. – Vol. 29. – P. 697-712.

20. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2005. – 352 p.

3. Freud A. The Ego and the Mechanisms of Defence. – London: Hogarth Press, 1937. – 196 p.

4. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984. – 456 p.

5. Seligman M.E.P. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. – New York: Free Press, 2011. – 368 p.

6. Ellis A. Reason and Emotion in Psychotherapy. – New York: Citadel Press, 1994. – 442 p.

7. Ryff C.D. Psychological well-being in adult life // Current Directions in Psychological Science. – 1995. – Vol. 4. – P. 99-104.

Jamoliddinova Kumushoy Burxonjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistri,
Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

TALABA YOSHLARDA MOBIL ALOQAGA TOBELIKNING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oliy ta’lim talabalarning mobil aloqa o‘yinlariga tobelikning ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy va amaliy tahlillar aks ettirilgan. Ushbu tadqiqot natijasida kompyuter o‘yinlariga qaramlik onalari ma’lumot darajasi past bo‘lganlarga qaraganda yuqori bo‘lganlarda, o‘g’il bolalarda esa qizlarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *kompyuter, qaramlik, intellektual, korreksiya, internet, tobelik, psixokorreksiya, kommunikatsiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАВИСИМОСТИ ОТ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье отражен теоретический и практический анализ социально-психологических факторов зависимости студентов высших учебных заведений от мобильных игр. В результате этого исследования было обнаружено, что зависимость от компьютерных игр была выше у матерей, чем у тех, у кого низкий уровень образования, и выше у мальчиков, чем у девочек.*

Ключевые слова: *компьютер, зависимость, интеллектуальный, коррекция, интернет, зависимость, психокоррекция, коммуникация.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF MOBILE DEPENDENCE IN STUDENT YOUTH

Abstract. *This article reflects the theoretical and practical analysis of the socio-psychological factors of students' dependence on mobile communication games. As a result of this study, it was found that computer game addiction was higher in mothers than in those with a lower level of education, and in boys than in girls.*

Keywords: *computer, addiction, intellectual, correction, internet, addiction, psychocorrection, communication.*

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy va jismoniy holati barkamolligi masalasidagi va yoshlarga oid islohotlar samaradorligini yanada oshirishdagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ushbu qonun hujjatlarida yoshlarning haq-huquqlari va ularning qadr-qimmatlarini poymol qiluvchi har qanday holatlardan qonuniy jihatdan himoyalanishi ko‘rsatilgan. Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlaboq shakllantirishimiz kerakligi ta’kidlangan. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishida jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash[1], demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli “O‘zbekistonRespublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida ”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami.-2017.-6 (766)-son

jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV kurultoyidagi nutki[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni[2], O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2015-yil 31-yanvaridagi 1-sonli Hay'at qarori 37-bandi hamda mavzuga oid tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"gi farmoni (2002-yil 30-may), O'zbekiston, Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish dasturi"ni qabul qilish haqidagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimiz psixolog olimlaridan N.M.Dolimova, L.A.Nigmatulina, I.I.Raximova va boshqalar tobe xulq muammosi va internetga tobelikni, o'zbek milliy muhitida o'smirlarning kompyuter o'yinlariga tobeligini diagnostika qilish va korreksiyasini, kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta'siri masalalarini tadqiq etishgan.

Bugungi kunda talabalar orasida kompyuter o'yinlariga tobelikni tadqiq etishning ijtimoiy ahamiyati beqiyosdir. Kompyuter o'yinlariga tobelikning mavjudligi va u haqiqatan ham xavfli ekanligini isbotlovchi ilmiy tadqiqotlar dunyo miqyosida kundan-kunga ko'payib bormoqda, chunki kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlar oilada, shaxslararo munosabatlarda, ijtimoiy muhitga moslashishda, maktabda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Xuddi shu bois, tobelikni o'z vaqtida aniqlash, korreksiya qilish orqali keyinchalik addiktiv xulq-atvor kelib chiqishi va salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadga muvofiqdir. Kompyuter o'yinlariga tobelik muammosiga bag'ishlangan ishlar kundan-kunga ko'payib bormoqda, lekin ularning ayrimlaridagina bu holatni korreksiyalash va davolash dasturlari bor. Amerikalik psixolog Kimberli Yang o'zining "Tarmoqda yo'qolganlar" kitobida o'z-o'ziga yordamning shakllarini keltirib o'tadi[45]. Bular: kognitiv-bixevioral terapiya, 12-qadam dasturi, ekspressiv art-terapiya.

Kompyuter o'yinlariga tobe talabalarga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida oilaviy psixoterapiyani qo'llash ham yuqori samara beradi, chunki kompyuter addiksiyasi asosida oiladagi nosog'lom muhit, tarbiyalashning o'ziga xos usuli va o'quvchi bilan oiladagilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatning buzilishi yotadi. Bundan tashqari, anonim yordam yoki virtual psixologik yordam xizmatlariga murojaat qilish ham mumkin. Bugungi kunda kompyuterga tobelikni korreksiya qilish maqsadida kognitiv-bixevioral terapiyani qo'llashning ham foydasi katta.

Tadqiqotimizning bu bobida Oliy ta'lim talabalarining kompyuter o'yinlar tobeligini amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotimizda Farg'ona davlat universitetining Matematika yo'nalishidan 40 nafar talabalar hamda Qo'qon universitetining Psixologiya yo'nalishidan 40 nafar talabalardan "Mobil aloqa o'yinlariga qaramlik" so'rovnomasi o'tkazildi. Metodikani o'tkazishdan maqsad Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida mobil-aloqa o'yinlariga tobelikni taqqoslash. So'ro'vnomadagi savollar jami 10 tani tashkil etadi. So'rovnomalar turli yoshdagi ta'lim muassasalari talabalarining kompyuterga qaramlik darajasini aniqlash imkonini beradi.Natijalarni hisoblash:

Ha - 1 ball,Yo'q - 0 ball.


0 - 3 ball - kompyuterga qaramlikning past darajasi.

4-6 ball - kompyuterga qaramlikning o'rtacha darajasi.

7-10 ball – yuqori daraja kompyuterga qaramlik.

[1] Sh.M.Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasining 01.07.2017-y. 129-son, 1–2- b.

[2] 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: "Ma'naviyat", 2017. – B.206.



1-diagramma. Mobil aloqa o'yinlariga qaramlik so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar tahlili

Mobil aloqa o‘yinlariga qaramlik so‘rovnomasini Oliy ta’lim muassasalari orasidagi farqni taqqoslaydigan bo‘lsak, Farg’ona davlat universitetining Matematika yo‘nalishida eng yuqori natija 3% bo‘lsa, Qo‘qon universitetining Psixologiya yo‘nalishidan 40 nafar talabalarda esa 18% da kuzatildi.

Farg’ona davlat universitetining Matematika yo‘nalishidan natijalar 62% past 35% o‘rta 3% yuqori natija ko‘rsatdilar. Qo‘qon universitetining Psixologiya yo‘nalishidan olingan natija esa 40% past 42% o‘rta 18% yuqori. Tadqiqotimizga ko‘ra Farg’ona va Qo‘qon OTM o‘rtasida diagramma ko‘rinishida farq sezlarli darajani tashkil etdi. Bunga sabab shuki tadqiqotga ko‘ra Қўқон университетидаги respondentlarda mobil aloqaga tobelikning yuqoriligi ulardagi vaqt taqsimoti noto‘g’rligi kichik maktab yoshidagi bolalarda darsdan tashqari qo‘shimcha mashg’ulotlarga va to‘garaklarga bormasligi,ularning bo‘sh vaqti ko‘pincha televizor, telefon va boshqa gadjetlar bilan o‘tishi.

Ilmiy tadqiqotimizning ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida olingan natijalarni SPSS 1.6 dastrida emperik tahlil qildik. Biz ushbu tadqiqot ishimizda kichik maktab yoshidagi bolalarda mobil aloqa o‘yinlariga tobelik darajalarini empirik o‘rgandik. SPSS 1.6 dasturida N.Dalimovaning kompyuter o‘yinlariga tobelik darajasini aniqlash metodikasini hudud, jins va oiladagi nechanchi farzand ekanligiga qarab statistik tahlil qildik.

N.Dalimovaning kompyuter o‘yinlariga tobelik va mobil aloqa o‘yinlariga qaramlik darajasini aniqlash metodikasi bo‘yicha natijalar

1-jadval.

Metod	Xudud	n	o‘rtacha	St.og’	t
Anketa 1	Shaxar	40	3,1	1,79458	2,3*
	Qishloq	39	4,1538	2,2424	
Anketa 2	Shaxar	40	15,55	11,10082	0,9
	qishloq	40	13,625	7,56065	

P<0.05*; P<0.01**; P<0.001***

Mobil aloqa o‘yinlariga qaramlik darjasini aniqlash so‘rovnomasining jadvaldagi natijalarga ko‘ra Farg‘ona va Qo‘qon universitetlaridaga talabalarning oilada nechanchi farzandligi bo‘yicha solishtirilganda Farg‘ona shaharda ta’lim oluvchi talabalar Qo‘qon universiteti talabalariga ko‘ra o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=2,3*; p<0,05.

Bunga sabab qishloqdagi talabalar ulardagi vaqt taqsimoti noto‘g‘riligi talabalarda darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarga va to‘garaklarda band qilinmaganligi, ularning bo‘sh vaqti ko‘pincha televizor, telefon va boshqa gadjetlar bilan o‘tishi bunga sabab bo‘lishi mumkin. Bundar tashqari ota-onalar farzandlari bilan ko‘p vaqti kechirmasligi, internet va mobil aloqa vositalari

haqida yetarli tushunchalar bermaganliklarini hamda ota-ona va farzand o‘rtasidagi shaxslararo munosabatning yuqolib borishi sabab qilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish joizki talabalarning internet tobeligi bilan bog‘liq muammolari internetga bog‘lanib qolishlik, virtual olamga butunlay tobelik, doimiy internet foydalanuvchisiga aylanish, ortiqcha ishtiyoqlarning mavjudligi va destruktiv xulq-atvorni vujudga kelishi kabi omillar asosiy xususiyatlarni tashkil etishi psixologik jihatdan muhofazalanishga va barqaror tarzda kechishiga ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli “O‘zbekistonRespublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida ”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami.-2017.-6 (766)-son

2. Sh.M.Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasining 01.07.2017-y. 129-son, 1–2- b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., “O‘zbekiston” 2017.

4. Goldberg, I. (1996) Internet addiction disorder // CyberPsychol. Behavior. V. 3. №4. P. 403–412

5. Gentile D. A., Bailey K., Bavelier D. et al. Internet gaming disorder in children and adolescents.

6. Сорокина А.Б. Интернет в жизни современных детей и подростков: проблема и ресурс // Современная зарубежная психология. 2015. Т. 4, № 1. С. 45—64

Jangabaeva Dildora Muborakovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi, assistent o‘qituvchisi

TALABALARDA KOGNITIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari yoritilgan. Muallif kognitiv qobiliyat tushunchasining mazmuni, uning shakllanish bosqichlari va rivojlanish mexanizmlarini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Shuningdek, talabalarda analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarga munosabat, ijodiy fikrlash va muhim qarorlar qabul qilish kabi kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv qobiliyat, analitik tafakkur, muammoli vaziyatlar, talabalar, psixologik rivojlanish, ta’lim texnologiyalari, kognitiv kompetensiyalar, ijodiy fikrlash, pedagogik jarayon, intelektual rivojlanish.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье освещаются теоретические основы и практические направления развития когнитивных способностей у студентов. Автор анализирует содержание понятия когнитивной способности, этапы её формирования и механизмы развития с педагогико-психологической точки зрения. Также рассматриваются эффективные методы формирования у студентов таких когнитивных компетенций, как аналитическое мышление, подход к проблемным ситуациям, творческое мышление и принятие важных решений.*

Ключевые слова: *когнитивные способности, аналитическое мышление, проблемные ситуации, студенты, психологическое развитие, образовательные технологии, когнитивные компетенции, творческое мышление, педагогический процесс, интеллектуальное развитие.*

SPECIFIC ASPECTS OF DEVELOPING COGNITIVE ABILITIES IN STUDENTS

Annotation. *This article explores the theoretical foundations and practical approaches for developing cognitive abilities in students. The author analyzes the concept of cognitive ability, its developmental stages, and mechanisms of growth from pedagogical and psychological perspectives. Additionally, the article examines effective methods for fostering cognitive competencies in students, such as analytical thinking, approaches to problem situations, creative thinking, and critical decision-making skills.*

Key words: *cognitive ability, analytical thinking, problem situations, students, psychological development, educational technologies, cognitive competencies, creative thinking, pedagogical process, intellectual development.*

Talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish, avvalo, ushbu yosh davrining psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu bosqichda shaxsiylikning mustahkamlanishi, intellektual o‘sishning jadallashuvi, tanqidiy va refleksiv fikrlashning shakllanishi, ta’limga bo‘lgan shaxsiy munosabatning ortib borishi kognitiv jarayonlarning mazmunli rivojlanishiga zamin yaratadi. Talabalik davri bilish faoliyatining eng faol bosqichi bo‘lib, bu davrda inson aqliy salohiyatini namoyon qilishga va uni ongli ravishda boshqarishga qodir bo‘ladi. Shuning uchun kognitiv qobiliyatlar – ya’ni tafakkur, xotira, idrok, e’tibor, muammo yechish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi tarkibiy elementlarning chuqur va izchil rivoji ushbu bosqichda ayni dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyatining kuchayishi muhim o'rin tutadi. Talaba o'qituvchining doimiy nazoratisiz, o'z bilim olish faoliyatini rejalashtirish, maqsadga yo'naltirish, tekshirish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, metakognitiv malakalarni kuchaytiradi. D.Bruner va J.Dyui nazariyalarida ham bilish jarayoni shaxsning faol ishtirokida, kashfiyotchilik ruhida amalga oshirilsa, natijasi mustahkam bo'lishi ta'kidlangan. Demak, talabaning o'z mustaqil faoliyatiga bo'lgan mas'uliyati oshgan sari uning kognitiv imkoniyatlari kengayadi.

Ikkinchidan, talabalik davrida kognitiv qobiliyatlar ijodiy tafakkur orqali shakllanadi. Bugungi axborot asrida tayyor bilimlarni yodlash emas, balki ularni tahlil qilish, yangilash, qayta ishlash, turli kontekstlarda qo'llash talab etiladi. G.Gardnerning ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, har bir shaxsda o'ziga xos aqliy ko'nikmalar majmui mavjud bo'lib, uni individual yondashuv orqali rivojlantirish zarur. Talabalarda kreativ fikrlash, metaforik mushohada, parallel tafakkur, g'oyalarni assotsiativ tarzda bog'lash kabi intellektual faoliyat turlarini yo'lga qo'yish aynan shu jihatdan muhimdir.

Uchinchidan, kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda refleksiv tafakkur — ya'ni o'z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash qobiliyatining ortib borishi muhim omil hisoblanadi. Talaba bilim olish jarayonida faqat materialni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki qanday o'zlashtirayotgani, nimani tushunib, nimani tushunmaganini anglash orqali o'z fikr yuritish strategiyalarini tanlay boshlaydi. Bu esa, metakognitiv strategiyalarni shakllantirish bilan birga, chuqur tahlil, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarining kuchayishiga olib keladi. Kognitiv rivojlanish uchun zarur bo'lgan yana bir muhim jihat – bu muammoli vaziyatlar orqali o'rganishdir. Talaba odatdagi tayyor ma'lumotdan ko'ra, muammoni o'zi kashf etishi, unga turli yo'llar bilan yechim topishga intilishi orqali chuqur fikrlashga undaladi. Bu yondashuvda Piyaje va Vygotskiy tomonidan taklif etilgan bosqichli rivojlanish, yaqin rivojlanish zonasi, interpsixik va intrapsixik faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik tamoyillari asosiy metodik mezon sifatida namoyon bo'ladi. Aynan muammo markazli yondashuvlar kognitiv o'sishni faollashtiradi. Talabalarning kognitiv qobiliyati, albatta, ijtimoiy muhit va o'qituvchining shaxsiy yondashuvi bilan bog'liq holda shakllanadi.

O'qituvchi o'zining metodik mahorati, nutq madaniyati, muloqot uslubi, fikrlash madaniyatini talabalarga namuna sifatida ko'rsatib, ularni fikrlashga ilhomlantiradi. Vigotskiy va Leontev asarlarida bu jihat shaxsiy rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida ko'riladi. Ijtimoiy hamkorlik muhiti — fikr almashinuvi, jamoada o'rganish, rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali talabaning intellektual salohiyati yanada faollashadi. Jumladam, zamonaviy o'quv jarayonida kognitiv qobiliyatni rivojlantirish raqamli vositalar va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Elektron platformalar, multimedia dasturlari, virtual tajribalar, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan testlar va simulyatsiyalar talabalarda diqqat, tez idrok, strategik fikrlash va situatsiyaviy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jihat metodologik yondashuvlarda "raqamli savodxonlik" tushunchasi bilan bevosita bog'lanib ketadi. U nafaqat axborotni izlash va topish, balki uni saralash, baholash va ishonchliligini tekshirish orqali intellektual fikrlashni chuqurlashtiradi.

Shuningdek, talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda axloqiy-psixologik muhit ham katta ahamiyatga ega. O'zaro hurmat, erkin fikrlashga rag'bat, baholovchi emas, yordam beruvchi o'qituvchi modeli, talabaga subyekt sifatida munosabatda bo'lish — bularning barchasi psixologik jihatdan qulay muhit yaratib, tafakkur faolligini oshiradi. Shaxs erkinligi, fikr mustaqilligi, tanqidiy qarashni erkin bildira olish imkoniyati mavjud bo'lgan dars muhiti — bu kognitiv yuksalish uchun zarur shartdir. Umuman olganda, talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish o'ziga xos psixologik jarayon sifatida intellektual rag'bat, ijtimoiy hamkorlik, metodik yondashuvlar, shaxsiy refleksiya, raqamli ko'nikmalar, shuningdek, emotsional holat va madaniy kontekstlar bilan chambarchas bog'langan holda kechadi. Har bir ta'lim muassasasi bu jarayonda kompleks yondashuvni tanlagan holdagina, talabalarning fikrlash salohiyati izchil va barqaror rivojlanadi.

Endi, tadqiqot usullarimiz orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

1-jadval.

P.Xoni va A.Mamfordning «Faoliyat uslublari» so‘rovnomasi bo’yicha olingan natijalar tahlili (n=290)

Shkalalar nomi	O‘rtacha(M)		Farqlar
	2-bosqich n=150	4-bosqich n=140	t
Arbob	14,5	16,8	-2,7*
Tahlilchi	15,2	17,9	-2,1*
Nazariyotchi	14,2	16,8	-2,3*
Pragmatik	15,9	13,2	-2,8*

P.Xoni va A.Mamfordning «Faoliyat uslublari» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko’ra, «arbob» (t=-2,7; p<0,05), «tahlilchi» (t=-2,1; p<0,05), «nazariyotchi» (t=-2,3; p<0,05) hamda «pragmatik» (t=-2,8; p<0,05), omillari bo’yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «arbob» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etildi (t=-2,7; p<0,05). Dastlabki «arbob» omiliga oid tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 4-bosqich talabalarining ushbu omil bo‘yicha yuqori natijalar ko‘rsatgani ularning tashabbuskorlik, yetakchilik va ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan fikrlash faoliyati rivojlanganini bildiradi. Bu bosqichdagi talabalarning mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy muhitda mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish va kognitiv tashabbusni amalga oshirishdagi salohiyati yuqori darajada ekanligi kuzatilgan. Mazkur omil bo‘yicha yuqori natijalar, talabalarning faoliyatga intilishi, o‘zini boshqara olish layoqati va o‘z fikrlarini qat’iy ifoda eta olish qobiliyatlari bilan izohlanadi. Bu esa, kognitiv rivojlanishning ijtimoiy sharoitda shakllanishiga va kommunikativ salohiyatning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Metodikaning navbatdagi «tahlilchi» omili bo‘yicha, 4-bosqich talabalarida ijobiy natija kuzatildi (t=-2,1; p<0,05). Bu holat ularda tahliliy tafakkur, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni izchil va mantiqiy yo‘sinda yondashib hal etish qobiliyatlari rivojlanganligini anglatadi. Bunday talabalar turli muammolar yechimiga nisbatan izchil tahlil yurita olish, turli alternativ variantlarni solishtirish va mantiqiy xulosa chiqarish jarayonida yuqori darajada reflektiv yondashuv ko‘rsatadilar. Shuningdek, ularning tanqidiy fikrlash darajasi yuqoriligi, axborotni tahlil qilish orqali asosli qarorlar chiqarish, kognitiv operatsiyalarni to‘liq nazorat qilish bilan bog‘liqdir. Bu omil bo‘yicha yuqori natijalar shuni ko‘rsatadiki, 4-bosqich talabalari o‘z bilimlarini nafaqat yod olish, balki tahlil asosida o‘zlashtirishga urg‘u berishadi. Ular murakkab intellektual topshiriqlarni mustaqil hal etishda yuqori samaradorlikni namoyon etib, o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni faqat idrok etibgina qolmay, uni qayta ishlab, yangi kontekstda qo‘llay olishadi. Bu holat esa talabalarda metakognitiv faoliyatning shakllanganidan dalolat beradi. Tahlilchi uslubda fikrlaydigan talabalar o‘quv jarayonida axborotni chuqur tahlil qilish, dalillarni solishtirish va baholash, o‘z qarashlarini mantiqiy asoslash qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, ular ilmiy-tadqiqot faoliyatida o‘z fikrlarini asoslab berishda, statistik va empirik dalillarni tahlil qilishda faol ishtirok etadilar. Bu jihatlar ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa o‘quv materiali bilan ishlashda mustahkam bilim asoslarini shakllantiradi.

Keyingi «nazariyotchi» omili bo‘yicha ham sezilarli darajadagi farqlar mavjud bo‘lib, 4-bosqich talabalarida yuqori natija aniqlandi (t=-2,3; p<0,05). Bu omil nazariy bilimlarga chuqur qiziqish, ilmiy asoslarda fikrlash, tushunchalar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni anglay olish va ularni tizimlashtirishga moyillikni anglatadi. 4-bosqich talabalari bu yo‘nalishda ancha yetuklik ko‘rsatib, ilmiy tafakkur asosida qaror qabul qilish, mavhum va umumiy g‘oyalarni aniqlash hamda ularni turli kontekstlarda qo‘llash qobiliyatiga ega ekanliklarini isbotlashgan. Ular o‘quv jarayonida ko‘proq ilmiy nazariyalarni o‘rganishga intilishadi, konseptual fikrlash orqali turli sohalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish va shu asosda yangi bilim hosil qilishda faol bo‘lishadi. Bu talabalar odatda dars jarayonida ilmiy tushunchalar, modellar va nazariyalarni muhokama qilishda faol ishtirok etadilar, o‘z qarashlarini fundamental g‘oyalar bilan asoslashga harakat qiladilar. Ularning bilimga

yondashuvi nazariy tushunchalarni chuqur anglashga, ularni real hayotdagi hodisalar bilan bog‘lashga va shaxsiy intellektual dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi. Nazariyotchi omili bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar talabalarning kognitiv yetukligini, bilimlarni umumlashtirish qobiliyatini va tafakkur izchilligini ifodalaydi. Bu esa, ularning kelajakdagi ilmiy va amaliy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Keyingi «pragmatik» omili bo‘yicha ham sezilarli darajadagi farqlar mavjud bo‘lib, 2-bosqich talabalarida yuqori natija aniqlandi (t=-2,8; p<0,05). Pragmatik omil talabalarning nazariy bilimlarni amaliy holatlarda qo‘llay olish, real sharoitga moslashish, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan harakatlar qilish kabi funksional faoliyat shakllarini qamrab oladi. Bu omilning 2-bosqich talabalari orasida kuchli namoyon bo‘lishi, ularning ayni damdagi o‘quv faoliyatida ko‘proq tajribaviy faoliyatga tayanuvchi, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanayotganlarini bildiradi. Ular o‘quv materiallarini ko‘proq konkret misollar, hayotiy holatlar va amaliy topshiriqlar orqali o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning funksional tafakkur darajasining yuqoriligini, moslashuvchanlik va muammoli vaziyatlarda tezkor harakat qilish qobiliyatlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu talabalar nazariy yondashuvdan ko‘ra amaliy yechimlarga ko‘proq urg‘u berib, o‘z tajribasini muhim omil sifatida qabul qiladilar. Pragmatik yondashuvdagi ustunlik ularning psixologik moslashuv darajasini oshiradi, ya’ni ular ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga tezda moslashish, qarorlar qabul qilishda tezkorlik va ishonchlilik ko‘rsatadilar. Shunday bo‘lsa-da, bu bosqichdagi talabalarda nazariy tafakkurning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, ular hali konseptual darajadagi mulohazalardan uzoqroq bo‘lishi mumkin. Biroq pragmatik yondashuv asosida shakllangan faoliyatlar ham kognitiv qobiliyatning muhim jihatlaridan biri hisoblanib, ayniqsa real hayotiy muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir omil talabalarning o‘ziga xos kognitiv xususiyatlari va ta’limdagi yondashuvlarini aks ettiradi. 4-bosqich talabalari ko‘proq yetakchilik, tahlil va nazariy fikrlash bilan ajralib tursa, 2-bosqich talabalari amaliy yechimlarga tayanuvchi yondashuvni afzal ko‘radilar. Bu esa ta’lim jarayonida kognitiv rivojlanishni turli bosqichlarda tizimli va bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. — Москва: Аспект Пресс, 2001. — С. 156–172.

2. Асадов Ю.М. Экстраверсия-интроверсия как черты личности. — Ташкент: Ўзбекистон, 2007. — С 103-115.

3. Асадов Ю.М. Психология личности. — Ташкент: Университет нашриёти, 2002. — С. 113-125.

4. Abdullayev A.N. “Harbiy ta’lim fakulteti talabalarida pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning psixologik determinantlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2024. – 47 b.

5. Azimova L. Tanqidiy fikrlash va kognitiv rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – B. 74–96.

6. Alekseeva A.A., Gromova L.A. Определение стиля мышления: методические рекомендации. – Москва: Институт психологии РАН, 2006. – С. 52–78.

7. Бодалев А.А. Психология личности и общения. — Москва: Педагогика, 2001. — С. 76–88.

8. Богоявленская Д.Б. Интеллект и творчество как единство противоположностей. — Москва: Академия, 2002. — 384 с. — Б. 42–87.

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali dotsenti, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVORGA OLIB KELUVCHI ICHKI VA TASHQI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi ichki (shaxsiy, emotsional, motivatsion) va tashqi (ijtimoiy, oilaviy, pedagogik) psixologik omillar chuqur tahlil qilingan. O‘smirlik davrida psixik rivojlanishning nozik bosqichlari, identitet inqirozi va ijtimoiy bosim ta’sirida yuzaga keladigan salbiy xatti-harakatlarning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Maqolada deviant xulq-atvorning oldini olish va uni korreksiya qilishda kompleks yondashuvning ahamiyati ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *deviant xulq-atvor, ichki omillar, tashqi omillar, o‘smirlik, psixologik profilaktika, identitet, ijtimoiy muhit*

ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ДЕВИАНТНОМУ ПОВЕДЕНИЮ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье рассматриваются внутренние (личностные, эмоциональные, мотивационные) и внешние (социальные, семейные, педагогические) психологические факторы, способствующие формированию девиантного поведения у молодежи. Особое внимание уделено подростковому возрасту как периоду кризиса идентичности и повышенной чувствительности к социальному давлению. Раскрываются психологические механизмы деструктивного поведения и подчеркивается необходимость комплексного подхода в профилактике и коррекции девиаций.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, внутренние факторы, внешние факторы, подростковый возраст, психологическая профилактика, идентичность, социальная среда*

INTERNAL AND EXTERNAL PSYCHOLOGICAL FACTORS CONTRIBUTING TO DEVIANT BEHAVIOR IN YOUTH

Abstract. *This article explores the internal (personal, emotional, motivational) and external (social, familial, pedagogical) psychological factors contributing to the development of deviant behavior among youth. Special attention is given to adolescence as a critical period marked by identity crisis and heightened sensitivity to social pressure. The psychological mechanisms behind destructive behavior are examined, and the importance of a comprehensive approach to prevention and correction of deviant tendencies is emphasized.*

Keywords: *deviant behavior, internal factors, external factors, adolescence, psychological prevention, identity, social environment*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning psixik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va axloqiy shakllanishi bilan bog‘liq muammolar orasida deviant xulq-atvor alohida dolzarb mavzu sifatida ko‘tarilmoqda. Bu holat o‘smir va yoshlarning jamiyat qoidalariga zid harakatlar sodir etishi, ijtimoiy me’yorlardan chetlashishi, shuningdek, jinoyatchilik, tajovuzkorlik, giyohvandlik yoki o‘z joniga qasd qilish kabi xavfli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Mazkur xulq-atvor shakllari nafaqat shaxsiy psixik holatning buzilishi, balki keng ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida yuzaga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillar ikki asosiy toifaga ajratiladi: **ichki (intrapersonal)** va **tashqi (eksternal)** omillar. Ichki omillar shaxsning emotsional barqarorligi, temperament xususiyatlari, past o‘zini baholash, identifikatsiya muammolari, hamda affektiv buzilishlar kabi psixologik holatlari bilan bog‘liq. Tashqi omillar esa oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar bosimi, maktab muhitidagi ziddiyatlar va yetarli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligidan iborat.

Mazkur maqolada yoshlarda deviant xulq-atvorning vujudga kelishiga olib keluvchi asosiy ichki va tashqi psixologik omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, bu omillarning o‘zaro ta’siri, ularning xatti-harakatlarga ta’sir mexanizmlari va oldini olish choralari psixologik nazariyalar va empirik tadqiqotlar asosida asoslab beriladi. Mazkur yondashuv, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish va yosh avlodni salbiy ta’sirlardan himoya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yoshlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi va rivojlanishi psixologik fanlar doirasida keng o‘rganilayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu masalaga yondashuvlar psixodinamik, ijtimoiy-psixologik, kognitiv va ekopsixologik nazariyalar asosida turlicha talqin qilinadi.

Deviant xatti-harakatlarning psixodinamik asoslarini o‘rganishda Z. Freydning nazariyasi muhim o‘rin tutadi. U shaxsning ongsiz ehtiyojlari, bolalik davridagi ruhiy travmalari va ichki ziddiyatlar natijasida noto‘g‘ri xulq-atvor shakllanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu g‘oyalarni rivojlantirgan xorijiy olimlardan biri E. Erikson bo‘lib, u o‘smirlik davrini identitet inqirozi bilan tavsiflaydi va ushbu bosqichda ijtimoiy rol va shaxsiy yo‘nalishni topa olmagan yoshlar deviant xatti-harakatlarga moyil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv tarafdorlari – A. Bandura, T. Parsons, va H. Beckerlar – deviant xulq-atvorni jamiyatdagi me’yor va qadriyatlarning buzilishi, atrof-muhit ta’siri, ijtimoiy rolda muvaffaqiyatsizlik va “labeling” (yorliqlash) natijasi sifatida tushuntiradilar. Xususan, A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasida yoshlar tajovuzkorlik, zo‘ravonlik yoki jinoyatchilik kabi xatti-harakatlarni atrofdagilardan, ayniqsa, tengdoshlar va media orqali o‘rganishi mumkinligi asoslab berilgan.

Mahalliy psixologlar ham ushbu masalaga o‘z yondashuvlarini bildirganlar. Jumladan, O‘zbekistonlik olima G. Sattorova deviant xulq-atvorga olib keluvchi omillarni kompleks tarzda tahlil qilgan holda, oilaviy tarbiyaning buzilishi, emotsional beqarorlik, maktabdagi ruhiy bosim, va yetarlicha psixologik qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligini asosiy sabablar qatoriga kiritadi. Shuningdek, M. Jo‘rayevning izlanishlarida ijtimoiy tengsizlik, axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi va yoshlarning ijtimoiy ongida shakllanayotgan ma’naviy bo‘shliq deviant xatti-harakatlar uchun “psixologik zamin” yaratishi ta’kidlanadi.

Xorijiy tadqiqotchi J. Coleman esa yoshlarning o‘ziga xos psixologik ehtiyojlari va stressga chidamliligi bilan deviant xatti-harakatlar orasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratadi. U yoshlarning o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va psixologik xavfsizlik darajasining pastligi salbiy xulq-atvorga olib kelishini empirik tadqiqotlar orqali ko‘rsatib bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorning shakllanishida ichki psixologik omillar (emotsional beqarorlik, past o‘z-o‘zini baholash, identitet inqirozi) bilan bir qatorda tashqi omillar (oilaviy muhit, maktabdagi ziddiyatlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy bosim) o‘zaro murakkab aloqada ishtirok etadi. Shuning uchun mazkur muammoni hal qilishda faqatgina individual psixologik yondashuv emas, balki tizimli va ijtimoiy psixoprofilaktik choralarni ham amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Muhokama.

Yoshlar orasida deviant xulq-atvorning keng tarqalishi psixologik, ijtimoiy va axloqiy muhitdagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy sharoitda bu muammoning chuqurlashuvi turli sabablarga tayanadi va har bir omil o‘ziga xos tarzda shaxsning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, deviant xatti-harakatlar bir vaqtning o‘zida bir nechta ichki va tashqi omillar ta’siri ostida shakllanadi, bu esa ularning oldini olish va korreksiya jarayonini murakkablashtiradi.

Ichki omillar orasida birinchi navbatda shaxsning emotsional beqarorligi, past o‘zini baholash, ijtimoiy izolyatsiya va identitet inqirozi alohida o‘rin tutadi. Bunday holatlar, ayniqsa, o‘smirlik davrida jiddiy kuchayadi, chunki bu bosqichda shaxs o‘z “men”ini anglash, mustaqillikka intilish va tengdoshlar orasida o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bu jarayonda yuzaga kelgan psixologik ziddiyatlar va ichki konfliktlar, agar vaqtida yechim topilmasa, yoshlarni noto‘g‘ri yo‘lga – ya’ni deviant xulq-atvorga olib keladi.

Tashqi omillar esa ko‘proq ijtimoiy va ekologik muhit bilan bog‘liq. Oilaviy tarbiyaning izdan chiqishi, ota-onalarning befarqligi yoki haddan tashqari qat’iyligi, pedagogik e’tiborsizlik, maktab muhitidagi ziddiyatlar, ommaviy axborot vositalaridagi tajovuzkorlik va zo‘ravonlik sahnalari yosh ongiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, tengdoshlar bosimi, yoshlarning deviant guruhlarga qo‘shilishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonni A. Bandura o‘zining “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasi orqali aniq asoslab bergan.

Shuningdek, deviant xulq-atvorning psixologik mexanizmlarini tushunishda G. Beckerning “yorliqlash” nazariyasi ham ahamiyatli hisoblanadi. Uning fikricha, jamiyat tomonidan “yomon bola”, “muammo tug‘diruvchi” sifatida baholangan shaxs bu roldan chiqolmay, uni qabul qiladi va shunga mos harakat qila boshlaydi. Shu bois, yoshlar bilan ishlashda ularni ijtimoiy stigmalardan holi muhitda qo‘llab-quvvatlash zarur.

Mahalliy mualliflar – G. Sattorova, M. Jo‘rayev va O. Alimovlarning tadqiqotlarida ham deviant xatti-harakatlarning sabablari chuqur tahlil qilingan. Ular o‘z ishlarida psixologik profilaktikaning muhimligini, ayniqsa maktab va oila muhitida o‘z vaqtida beriladigan emotsional yordamning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Shuningdek, yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlashda ijtimoiy-psixologik treninglar, o‘z-o‘zini anglash mashg‘ulotlari va psixologik maslahatlarning ijobiy natija berishi qayd etiladi.

Yoshlar orasida deviant xulq-atvorning shakllanishi ko‘p omilli va murakkab psixologik jarayon bo‘lib, unga qarshi kurashda kompleks yondashuv zarur. Bu esa nafaqat psixologlar, balki ota-onalar, o‘qituvchilar, mahalla mutasaddilari va butun jamiyatning hamkorligini talab etadi. Ichki va tashqi omillarni erta aniqlash, ular asosida individual va guruhiy yordam choralarini ishlab chiqish, yoshlarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish orqali deviant xulq-atvorning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Yoshlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi ko‘p omilli va murakkab psixologik jarayon bo‘lib, bunda ichki (emotsional beqarorlik, o‘z-o‘zini past baholash, identitet inqirozi) hamda tashqi (oilaviy muhit, ijtimoiy bosim, pedagogik e’tiborsizlik) omillar o‘zaro ta’sirda ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant harakatlarning ildizi nafaqat individual xususiyatlarda, balki atrof-muhitdagi ruhiy va ijtimoiy muvozanatsizlikda ham mavjud.

Mazkur muammoni bartaraf etishda erta psixologik diagnostika, tizimli profilaktika va o‘z vaqtida ko‘rsatilgan psixologik yordam asosiy o‘rin tutadi. Shu bilan birga, oila, maktab va jamiyat o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarning ijtimoiy-psixologik salomatligini mustahkamlash, sog‘lom va moslashuvchan shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бандура А. (1986). *Социальные основы мысли и действия. Социально-когнитивная теория*. Москва: Прогресс. – 617 с.

2. Беккер Г. (1963). *Аутсайдеры: исследования по социологии девиантного поведения*. Нью-Йорк: The Free Press. – 179 p.

3. Саттарова Г.Ш. (2018). *Yoshlar muammolari psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 284 b.

4. Jafarkulov E.E., Mamajonov R.M. (2021). *Pedagogik-psixologik diagnostika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya. – 212 b.

5. Moffitt T.E. (1993). *Adolescence-limited and life-course-persistent antisocial behavior: A developmental taxonomy*. Psychological Review, Vol. 100(4), 674–701.

6. Чирков В.И. (2019). *Психология развития личности: от теории к практике*. Санкт-Петербург: Речь. – 368 с.

7. Erikson E.H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. New York: Norton. – 336 p.

8. Олимов О.А. (2016). *Deviant xatti-harakatlar va ularni korreksiya qilish*. Samarqand: Zarafshon. – 196 b.

9. Kazdin A.E. (2000). *Adolescent Development, Psychology, and Mental Health*. Springer Publishing. – 302 p.

10. Jo‘rayev M.A. (2020). *Psixologik profilaktika va korreksion faoliyat asoslari*. Toshkent: Innovatsiya Ziyo. – 198 b.

Latipova Umida Yusufboyevna
Ma'mun unuversiteti, psixologiyik xizmat ilmiy-o'quv tadqiqot markazi boshlig'i (PhD) dotsent,
https://orcid.org/0009-0005-1699-3531
E-mail: ulatipova933@gmail.com

REPRODUKTIV DAVRDAGI AYOLLARDA KASALLIKLAR FONIDA XAVOTIR DARAJALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada reproduktiv davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida shakllanadigan xavotir darajalarining psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda ayollarning reaktiv va shaxsiy xavotir ko'rsatkichlari baholandi. Sog'lom va kasalligi bor ayollar guruhlari o'rtasida xavotir darajasining ishonchli farqlari aniqlanib, reproduktiv salomatlik buzilishlari sharoitida psixoemotsional barqarorlikning pasayishi kuzatildi.*

Kalit so'zlar: *Reproduktiv davr, reproduktiv salomatlik, reaktiv xavotir, shaxsiy xavotir, xavotir darajasi, psixologik tahlil.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ТРЕВОЖНОСТИ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА НА ФОНЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Аннотация. *В данной статье изучены психологические особенности уровней тревожности у женщин репродуктивного возраста на фоне различных заболеваний. В исследовании были оценены показатели реактивной и личностной тревожности у женщин. Выявлены достоверные различия в уровне тревожности между группами здоровых женщин и женщин с нарушениями репродуктивного здоровья. Установлено снижение психоэмоциональной стабильности у женщин с нарушениями репродуктивного здоровья.*

Ключевые слова: *Репродуктивный возраст, репродуктивное здоровье, реактивная тревожность, личностная тревожность, уровень тревожности, психологический анализ.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF ANXIETY LEVELS IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE AGAINST THE BACKGROUND OF ILLNESSES

Abstract. *This article examines the psychological characteristics of anxiety levels in women of reproductive age in the context of various diseases. The study assessed the indicators of state (reactive) and trait (personal) anxiety in women. Statistically significant differences in anxiety levels were identified between the groups of healthy women and those with reproductive health disorders. A decrease in psychoemotional stability was observed among women with reproductive health impairments.*

Keywords: *Reproductive age, reproductive health, state anxiety, trait anxiety, anxiety level, psychological analysis.*

Kirish. Ayollarning reproduktiv davridagi sog'lig'i nafaqat fiziologik, balki psixologik barqarorlikning ham muhim ko'rsatkichidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, reproduktiv salomatlik bilan bog'liq kasalliklar fonida ayollarda xavotir, stress va psixoemotsional noqulaylik darajasi ortadi[1; 2]. George L. Engel tomonidan ishlab chiqilgan biopsixosotsial modelga ko'ra, inson salomatligini baholashda nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy omillarni ham e'tiborga olish lozim[1]. Aynan shunday yondashuv reproduktiv yoshdagi ayollar psixodiagnostikasida ham samarali natijalar beradi. Zarifboy Ibodullayev ta'kidlaganidek, har qanday kasallikda insonning psixologik holati o'zgaradi va bu bemorlarning shifokorga murojaat qilish motivatsiyasida muhim rol o'ynaydi[2]. Reproduktiv salomatlik buzilishlari esa, odatda, uzoq davom etuvchi va sezilarli psixoemotsional zo'riqish bilan kechadi. Bizning tadqiqot natijalarimizga ko'ra, reproduktiv salomatlik buzilishlari fonida shaxsiy va reaktiv xavotir darajalari sezilarli ravishda oshadi, bu esa umumiy hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Reproduktiv davrdagi ayollarda xavotir darajasini o'rganish masalasi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin tutadi. Engel tomonidan taklif qilingan

biopsixosotsial model salomatlikka ta’sir qiluvchi barcha omillarni yagona tizimda ko‘rib chiqishni taqozo etadi [1]. Aynan shu model asosida ayollarda reproduktiv salomatlik buzilishlari fonida yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlarni baholash mumkin. Ibodullaev Z.R. ta’kidlaganidek, hissiyot va stress holatlari ayollarda fiziologik kasalliklarning rivojlanishida ham, ularning psixologik salomatligida ham asosiy rol o‘ynaydi [2]. Bunda aynan xavotir eng barqaror va ko‘p uchraydigan salbiy emotsional holat sifatida namoyon bo‘ladi. Nishanova Z.T. va hammualliflar ayollar psixikasining yosh bosqichlarida rivojlanishini o‘rganar ekan, ayniqsa reproduktiv davrda psixik reaktivlikning oshishi va stressga chidamlilikning kamayishi kuzatilishini ta’kidlaydi [3]. Bu holat esa kasalliklar fonida xavotir darajasining oshishiga psixologik asos yaratadi. Santa-Maria F.D.O. tadqiqotlarida reproduktiv yoshdagi ayollarda metabolik va gormonal buzilishlar fonida menstrual sikl buzilishlari va psixoemotsional o‘zgarishlar, jumladan, yuqori xavotir holatlari shakllanishi qayd etilgan [4]. Bu esa psixologik diagnostikada xavotir darajalarini baholash zarurligini ko‘rsatadi. Urazbaeva D.A. ayollarda klinik sharoitda psixologik yordam ko‘rsatishda, ayniqsa xavotir va stressga qarshi metodik yondashuvlarning rolini alohida ta’kidlab o‘tadi [5]. Bunday yondashuvlar orqali salbiy emotsional holatlarni bartaraf etish va psixoemotsional barqarorlikni tiklashga erishish mumkin. Karimova V.M. tomonidan ham psixik holatning umumiy sog‘liq holatiga ta’siri haqida asosli ilmiy ma’lumotlar keltirilgan, bunda xavotirning salbiy fiziologik oqibatlari ko‘rsatib berilgan[6]. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham reproduktiv davrdagi ayollarda salomatlik buzilishlari fonida shaxsiy va reaktiv xavotir darajalarining sezilarli oshishini hamda psixoemotsional barqarorlikning pasayishini tasdiqladi. Ushbu holat esa kasallikka qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda psixologik yondashuvni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatish, hamda Ch.D. Spilberger – Yu.L. Xanin tomonidan ishlab chiqilgan “Reaktiv va shaxsiy xavotir darajasini baholash shkalasi” asosida psixologik diagnostik so‘rovnoma qo‘llanildi. Ushbu metodika yordamida ayollarning mavjud emotsional holatidagi reaktiv xavotir darajasi hamda ularning individual shaxsiy xavotirga moyillik ko‘rsatkichlari baholandi. Statistik tahlil uchun Mann–Whitney U testi qo‘llanildi. Tadqiqotda jami 406 nafar ayol ishtirok etdi. Ulardan 110 nafari reproduktiv sog‘ligida buzilishi aniqlangan bo‘lsa, 296 nafari shartli sog‘lom ayollar guruhini tashkil etdi. Diagnostika natijalari o‘rtasida ishonchli tafovutlarni aniqlash orqali kasalliklar fonida yuzaga keladigan xavotir darajalarining psixologik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari kasalligi mavjud bo‘lgan va shartli sog‘lom reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida xavotir darajalarining psixologik xususiyatlari bo‘yicha farqlarni aniqlash imkonini berdi. Tahlil jarayonida reaktiv va shaxsiy xavotir ko‘rsatkichlari kesimida ayollarning psixologik holatida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu natijalar reproduktiv salomatlik buzilishlari ayollarning emotsional sohasiga va psixik barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini yanada chuqurroq tahlil qilishga asos yaratadi.

1-jadval

Reproduktiv davrdagi fiziologik buzilishlar fonida xavotir darajalari o’zaro farqlari natijalari (Manni Uitni mezon n=406)

Shkalalar	Holati	N	O'rtacha rang	U	p
Reaktiv xavotir	Kasal	110	199,48	15838,00	0,003**
	Sog	296	**204,99**		
	Jami:	406			
Shaxsiy xavotir	Kasal	110	**231,01**	13034,00	0,003**
	Sog	294	191,83		
	Jami:	404			

Izoh: **p≤0,01; *p≤0,05

Spilberger-Xanin metodikasi natijalarini taxlil qilganda ishoncli darajada tafovutlar borligi aniqlandi. Reaktiv xavotir shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi (U=15838,00; p≤0,01). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslar nisbat reaktiv xavotir yuqori chiqdi.

Bu natijalar shuni anglatadiki, kasallik mavjudligi holatida ayollar organizmi umumiy emotsional fonda va psixik barqarorlikda salbiy o'zgarishlarga duch kelmoqda.

Reaktiv xavotir — bu ayni holatdagi (situatsion) xavotir darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, ayollarning kasallikka, sog'liq bilan bog'liq tashvishlarga bo'lgan joriy hissiy javobini bildiradi.

Tahlil natijalari esa shuni ko'rsatdiki, reproduktiv salomatlik buzilishlari fonida ayollarda stressga nisbatan sezgirlik ortadi, tashvishli fikrlar kuchayadi va vaziyatga bo'lgan emotsional javoblar yanada kuchaygan shaklda namoyon bo'ladi.

Sog'lom ayollarga nisbatan kasalligi bor ayollarda reaktiv xavotirning yuqori darajada aniqlanishi, ularning kundalik hayot faoliyatida, oila va ijtimoiy munosabatlarda ko'proq tashvish, xavotir va psixoemotsional beqarorlik bilan kechayotganidan dalolat beradi.

Ushbu holat psixologik yordam va profilaktika choralarini rejalashtirishda reaktiv xavotirni pasaytirishga yo'naltirilgan ishlanmalarni muhim omil sifatida ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Shaxsiy xavotir shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi (U=13034,00; p≤0,01). Kasalligi bor shaxslarda sog'lom shaxslar nisbat shaxsiy xavotir yuqori chiqdi.

Shaxsiy xavotir — bu individning barqaror xususiyati sifatida namoyon bo'ladigan, doimiy ravishda tashvishlanishga moyillikni ifodalovchi ko'rsatkichdir. U insonning tashqi omillarga, stressga va sog'liq bilan bog'liq xavf-xatarlarga bo'lgan umumiy hissiy barqarorlik darajasini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, reproduktiv salomatlik buzilishlari fonida ayollarda ichki emotsional barqarorlik pasayadi, va bu esa shaxsiy xavotirning doimiy yuqori darajasida namoyon bo'ladi. Bunday ayollarda kuzatuvchanlikning oshishi, negativ kutishlar, doimiy xavotirli fikrlash shakllanadi. Natijada ularning umumiy psixologik salomatligi va hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy xavotir darajasining yuqori bo'lishi ayollarning uzoq muddatli stressga duchor bo'lish ehtimolini oshiradi, bu esa o'z navbatida somatik simptomlar (uyqu buzilishlari, yurak-qon tomir tizimi funksional buzilishlari, vegetativ distoniya belgilari) rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv davrdagi ayollarda kasalliklar fonida reaktiv va shaxsiy xavotir darajalari sezilarli ravishda ortadi.

Reaktiv xavotir shkalasi bo'yicha kasalligi mavjud bo'lgan ayollar guruhida sog'lom ayollar bilan solishtirganda sezilarli yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Bu esa ayollarda situatsion stress va tashqi tahlikali vaziyatlarga nisbatan emotsional javobning oshganligini ko'rsatadi. Shaxsiy xavotir shkalasi bo'yicha esa kasalligi mavjud bo'lgan ayollarda doimiy tashvishlanish, stressga yuqori sezgirlik va psixik barqarorlikning pasayishi kabi belgilar shakllanganligi aniqlandi. Ushbu holat, o'z navbatida, ayollarning umumiy psixologik salomatligi, hayot sifati va somatik salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bizning tadqiqot natijalarimiz shuni tasdiqlaydiki, reproduktiv salomatlik buzilishlari bilan kechayotgan ayollarga ko'rsatiladigan psixologik yordamda xavotirni kamaytirish, stressni yengish ko'nikmalarini rivojlantirish va psixologik barqarorlikni oshirishga yo'naltirilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Engel G.L. The Need for a New Medical Model: A Challenge for Biomedicine. Psychodynamic Psychiatry, 40(3), 377–396, 2012.

2. Ibodullaev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. — Toshkent, 2019. — 488 b.

3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. — 600 b.

4. Santa-Maria F.D.O. Принципы терапии нарушений менструального цикла у подростков и молодых женщин с ожирением. Автореферат диссертации. — Москва, 2008. — 24 с.

5. Urazbaeva D.A. Klinik psixologiya. — Toshkent, 2024. — 212 b.

6. Karimova V.M. Psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2002. — 205 b.

Mato‘razov G‘ulamjan Atajanovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: gulomjon19853103@gmail.com

O‘SPIRINLARDA SIYOSIY ONG SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada o‘spirinlarda siyosiy ong shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy psixologik omillar tahlil qilib berilgan. Shuningdek siyosiy ongning mohiyati, siyosiy voqelik va uni rivojlantirish jarayonlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Strukturaviy-funksional tahlil nuqtai nazaridan siyosiy ong shakllanishiga oid ilmiy tadqiqot ishlari tahlili keltirib o‘tilgan. Siyosiy ong g‘oyasi va kontseptsiyasi o‘ziga xos xususiyatlari ma’lumotlar berilgan. Shaxsning siyosiy ongni jamiyat va fuqarolik manfatlarini anglashiga imkon beruvchi holatlari so‘rovnomasi natijalari keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘spirin, siyosiy ong, ijtimoiy psixologik omil, siyosiy voqelik, strukturaviy-funksional tahlil, kontseptsiya, fuqarolik manfatlari, his-tuyg‘ular, e’tiqodlar, kayfiyatlar tizimi, fuqarolik ongi, huquqiy bilimlar.*

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье проанализированы социально-психологические факторы, влияющие на формирование политического сознания у подростков. Также приводятся сведения о сущности политического сознания, политической действительности и процессах его развития. Приведен анализ научно-исследовательских работ по формированию политического сознания с позиций структурно-функционального анализа. Специфика идеи и концепции политического сознания дана информация. Приводятся результаты анкетирования состояний личности, позволяющих политическому сознанию осознавать интересы общества и гражданства.*

Ключевые слова: *подросток, политическое сознание, социально-психологический фактор, политическая реальность, структурно-функциональный анализ, понятие, гражданские интересы, чувства, убеждения, система настроений, гражданское сознание, правовые знания.*

ANALYSIS OF SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF POLITICAL CONSCIOUSNESS IN ADOLESCENTS

Annotation. *The article analyzes social psychological factors that affect the formation of political consciousness in adolescents. Also presented are information about the essence of political consciousness, political reality and the processes of its development. From the point of view of structural-functional analysis, an analysis of scientific research work on the formation of political consciousness has been cited. Specific features of the idea and concept of political consciousness are given data. The results of a survey of cases in which an individual allows political consciousness to perceive the negative of society and citizenship are cited.*

Keywords: *adolescent, political consciousness, social psychological factor, political reality, structural-functional analysis, concept, civil negatives, emotions, beliefs, mood system, civil consciousness, legal knowledge.*

Kirish. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha, shu jumladan huquqiy islohotlarning ham bosh maqsadi insonparvar demokratik davlat barpo etishga karatilgan bo‘lib, islohotlarning tub negizida inson manfaatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish negizini yaratish, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish yotadi. Olib borilayotgan islohotlarni

idrok qila olish, siyosiy ong va bilimni talab etadi. Siyosiy ong va madaniyatga ega shaxslargina voqelikni bilish, anglash, baho berish va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Siyosiy qarashlariga ega fuqarolar o‘zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat xuquq va erkinliklariga egaligini balki burch va majburiyatlari borligini ham unutmasligi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Siyosiy ongning mohiyati shundan iboratki, u inson manfaatlarini hisobga olgan holda siyosiy voqelikni aks ettirish va rivojlantirish natijasi va ayni paytda jarayonidir. Siyosiy ong - bu bilimlar, baholar, kayfiyat va tuyg‘ular tizimi bo‘lib, ular orqali sub’ektlar - shaxslar, guruhlar, millatlar va boshqalar tomonidan siyosiy sohani anglash amalga oshiriladi. Siyosiy ong - tabiatni, jamiyatning moddiy hayotini va butun ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiruvchi g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, e’tiqodlar, kayfiyatlar tizimi; bu bilim va baholash tizimi bo‘lib, buning natijasida shaxslar, guruhlar, sinflar, jamoalar shaklida harakat qiluvchi sub'ektlar tomonidan siyosat sohasi haqida xabardorlik mavjud. Bu butun siyosiy tizimning faoliyati va rivojlanishining zarur elementidir. [1. 150]

Siyosiy ong g‘oyasi va kontseptsiyasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, shaxsga - jamiyatning oddiy a’zosiga, undagi sinfiy tabaqalanishdan boshlab va butun jamiyat bilan millatga, ayniqsa marksizmda rivojlanganiga bog‘liq. Sovet davrida “siyosiy ong” tushunchasi dastlab alohida ajratilmagan, ammo ommaviy ong kengroq tushuncha – jamoat ongining quyi tizimi sifatida o‘rganilgan. Mahalliy ijtimoiy olimlar ushbu kontseptsiyaning mohiyatini to‘liq ochib berishdi, nazariy rivojlanishga A. K. Uledov [2], A. G. Spirkin [3], B. A. Grushin [4] va boshqalar eng katta hissa qo‘shdilar. Sobiq sovet davrida siyosiy ongni ilmiy kategoriya sifatida o‘rganish, shuningdek, aholining turli guruhlari siyosiy ongining xususiyatlarini o‘rganish gumanitar va ijtimoiy sohani rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Tahlil va natijalar. Strukturaviy-funksional tahlil nuqtai nazaridan siyosiy ongning quyi tizimlariga yo‘naltirilishi mumkin siyosiy muhitning umumiy (ajralmas) ijtimoiy birliklari (ijtimoiy jamoalar, guruhlar, jamoalar bo‘yicha) yoki uning ustida individual birliklar (inson shaxslar bo‘yicha). Birinchidan bizda ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosiy madaniyat mavjud (masalan u yoki bu siyosiy partiyaga yo‘naltirilgan), ikkinchidan, bizda individual yo‘naltirilgan siyosat mavjud madaniyat (masalan, qandaydir siyosatchiga qaratilgan). Klassifikatsiyaga marksistik yondashuv siyosiy ongning tashkiliy shakllarining tizim shartlarining ob’ektivligini ta’kidlaydi.

Siyosiy ongning to‘rt turi mavjud bular: [5. 63]

1. An’anaviy siyosiy ong. Siyosiy ongning bu turiga siyosiy hokimiyatni muqaddas deb baholash asosiy xususiyatdir. Bunda kerakli atributlari siyosiy ong shaklining o‘zgarmasligi, daxlsizligini tan olish va siyosiy an’analarining kuchi.

2. Davlatning o‘ziga xos xususiyati - demokratik siyosiy ong - bu istisno aholining mutlaq ko‘pchiligi siyosiy jarayonda ishtirok etish va ishtirok etish huquqini berish imtiyozi.

3. Demokratik siyosiy ong o‘ziga xosdir faqat ijtimoiy kapitalistik bosqichdagi jamiyatlarga va tarixiy rivojlanishga bog‘liq. Buning atributi madaniyat - bu barcha ijtimoiy qatlamlarning siyosiy jarayonda ishtiroki. Demokratik siyosiy madaniyat faqat kapitalizm uchun noto‘g‘ri. Siyosiy institutlarning haqiqiy tarixi demokratik davlatlarsiz mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi bu kapitalizm va antik tarixdan kelib chiqqan davr.

4. Sotsialistik siyosiy ong - sotsialistik davlatlarda amalga oshiriladi demokratik asos.

1-jadval

Shaxsning siyosiy ongni jamiyat va fuqarolik manfatlarini anglashiga imkon beruvchi holatlari so‘rovnomasi natijalari

Baholash mezonlari	O‘spirinlar munosabat miqdori nafar	Foiz
Fuqarolik ongi	109	17,66
Huquqiy bilimlar	269	43,53
O‘zining haq-huquqini bilishi	187	30,28
Meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi	25	4,11
Hayotiy muammolar bilan bog‘liq huquqiy yordamga zarurat sezishi	27	4,42

O‘spirinlar «fuqarolik ongi»ga ega bo‘lishini ham yuqori baholashga moyil bo‘lganlar 109 nafar (17,66%)ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki, o‘spirinlarda fuqaro sifatida fuqarolik, jamiyat rivojlanish istiqbollari, uning taqdiriga aloqadorligini anglash, ijtimoiy xulq-atvorning umumiy yo‘nalishini tartibga soluvchi yuqori darajadagi dispozitsiyalarni tashkil etuvchi g‘oyalar ham mavjduligidan dalolat bermoqda. O‘spirinlar orasida fuqarolik va jamiyat manfatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muhimligi haqida mulohazalaydiganlari ham mavjudligi ahamiyatlidir.

Ammo o‘spirinlardan «hayotiy muammolar bilan bog‘liq huquqiy yordamga zarurat sezishi» siyosiy ongni muhim jihati sifatida e’tirof etganlar (27 nafar (4,42 %)). Agar siyosiy ong borasida hayotiy muammolar bilan bog‘liq huquqiy yordamga zarurat sezishning o‘ziyoq shaxsning huquqiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini belgilaydi. Ko‘p hollarda insonlar hayotiy muammolari borasida huquqiy yordamga zarurat sezgan sharoitlarida huquqiy savodxonlik zarurligini anglaydilar. Ushbu bandni ustuvor baholagan o‘spirinlarning munosabatlarini muhim deb hisoblash mumkin.

O‘spirinlar orasida siyosiy ongning bir jihati «meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi»dan iborat deb baholaganlar 25 nafar (4,11%)ni tashkil etdi. Meyoriy-huquqiy hujjatlar deganda normativ hujjatlar to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi. Ko‘p hollarda oddiy fuqarolar meyoriy-huquqiy hujjutlar nima uchun kerakligiga e’tibor qaratmaydilar. Shu bois, ta’lim maussasalarida huquqiy ta’lim fanlarini o‘qitilishining asosiy sharti ham ta’lim oluvchilarda siyosiy ong hamda u bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi dastlabki bilimlar shakllantirilishi kam sonli o‘spirinlar tomonidan anglab yetilganligi bejizga emas.

Xulosa. Siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy bilimlar, tasavvurlar, e’tiqodlar va o‘zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig‘indisidan iborat. Siyosiy ong inson uchun tug‘ma xususiyat emas, u avloddan-avlodga o‘tmaydi, qarindosh urug‘chilikka, vorislikka yoki nasl-nasab xislatlariga bog‘liq bo‘lmaydi. Ota bilan bolaning, aka bilan ukaning siyosiy ongliligi bir xilda bo‘lmagani singari, qarindosh-urug‘larning ham siyosiy ongliligi turlicha darajada bo‘ladi. Inson ongi asosan ikki ko‘rinishda: oddiy ong va ijtimoiy ong shakllida namoyon bo‘ladi. Oddiy ong hamisha odamlarda ularning turmushlari ikir-chikirlarida, kundalik mayda-chuyda tashvishlarida, o‘zlarining shaxsiy, ichki kechinmalarida o‘z ifodasini topish mumkin va ular jamiyat, mamlakat, jahon rivojlanishi muammolarini bevosita qamrab olmaydi, ular yechimini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi.

Ijtimoiy ong inson shaxsining ijtimoiy-siyosiy turmush tarzida, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan bo‘lgan munosabatida, ularda faol ishtirok etishida o‘z ifodasini topadi. Siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi manba – insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g‘oyalar va hissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Ikkinchi manba – bu keng ma’nodagi axborotdir. U insonga ham muomala orqali, ham ommaviy axborot vositalari orqali kirib boradi. Uchinchi manba – bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar insonga siyosat dunyosining tahlil etishga va unga nisbatan munosabat bildirishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Nazarov M. M. Siyosiy ong turlari // Sotsis. - 1992. - No 6. - S. 64-71. Andreev S. S. Siyosiy ong va siyosiy xatti-harakatlar // Ijtimoiy-siyosiy jurnal. - 1996. - No 6. - S. 150-157.

2. Уледов А. К. Структура общественного сознания. — М., 1968.

3. Спиркин А. Г. Сознание и самосознание. — М., 1968.

4. Грушин Б. А. Массовое сознание: опыт определения и проблемы исследования. — М., 1987.

5. Vickers, T. (2015). Marxist Approaches to Social Work. In Wright, J.D. (Ed.) International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 63-69. https://doi.org/10.1016/B978-0-08-097086-8.28055-0

Matyakubova Kholida Maksudovna
Department of the Roman-German Philology,
Mamun University, Uzbekistan
https://orcid.org/0009-0005-6102-7930
holida.matyakubova.90@gmail.com
Sadullaeva Nilufar Azimovna
Department of the Translation Theory and Comparative Linguistics, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
https://orcid.org/0000-0002-2605-7385
nilufar.sadullaeva73@gmail.ru

DEVELOPING CRITICAL THINKING AND CREATIVITY OF UZBEK STUDENTS THROUGH MICROTEACHING

Abstract. *This article examines how microteaching can enhance critical thinking and creativity among students in Uzbekistan. It incorporates insights from both local and international educational theorists. As Uzbekistan transitions to a more student-centered educational model, traditional methods of rote learning are being questioned. Microteaching offers an innovative approach to developing higher-order thinking skills by providing a structured environment where teachers can experiment with techniques that encourage critical analysis and creative problem solving. This study evaluates the effectiveness of microteaching in promoting these skills and draws on the perspectives of Uzbek and global methodologists to provide practical recommendations for its implementation in Uzbekistan's educational system.*

Keywords: *Microteaching, critical thinking, creativity development, education of Uzbekistan, classroom management.*

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И КРЕАТИВНОСТИ У УЗБЕКСКИХ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МИКРООБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается, как микропреподавание может способствовать развитию критического мышления и креативности у студентов в Узбекистане. В ней используются идеи как отечественных, так и зарубежных теоретиков образования. По мере перехода Узбекистана к более ориентированной на студента модели образования, традиционные методы механического заучивания подвергаются сомнению. Микропреподавание предлагает инновационный подход к развитию навыков высшего порядка, предоставляя структурированную среду, в которой преподаватели могут экспериментировать с методами, способствующими критическому анализу и творческому решению проблем. В этом исследовании оценивается эффективность микропреподавания в продвижении этих навыков, а также рассматриваются мнения узбекских и зарубежных методистов с целью выработки практических рекомендаций по внедрению данной методики в образовательную систему Узбекистана.*

Ключевые слова: *микропреподавание, критическое мышление, развитие креативности, образование в Узбекистане, управление классом.*

O‘ZBEK TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASHI VA IJODKORLIGINI MIKROTA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistondagi talabalar o’rtasida tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishda mahorat darslari qanday yordam berishi mumkinligi tahlil qilinadi. Unda milliy va xalqaro ta’lim nazariyotchilarining fikrlari o‘rin olgan. O‘zbekiston talaba markazda ta’lim modeliga o‘tishda davom etar ekan, an’anaviy yod olishga asoslangan o‘qitish usullari tobora ko‘proq tanqid ostiga olinmoqda. Mahorat darslari esa yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini*

shakllantirish uchun innovatsion yondashuvni taklif etadi. Bu yondashuv o'qituvchilarga tanqidiy tahlil va ijodiy muammolarni hal qilishga undovchi metodlarni sinab ko'rish imkonini beradigan tuzilgan muhitni ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot mahorat darslarining mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini baholaydi hamda O'zbekiston ta'lim tizimida uhbu usulni amaliyotga joriy etish bo'yicha milliy va xalqaro metodistlarning qarashlariga asoslangan holda amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *Mahorat darslari, tanqidiy fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston ta'limi, sinfni boshqarish.*

Introduction

Critical thinking and creativity are essential skills for students to thrive in the rapidly changing world of the 21st century. In Uzbekistan, the traditional educational system has predominantly focused on teacher-centered instruction that emphasizes memorization and content delivery. However, there is an increasing acknowledgment of the need to create more dynamic learning environments that actively engage students in problem solving, analysis, and creative expression.

"In Uzbekistan, "Master Classes" based on this principle are being conducted widely and with specific goals in mind. Notably, scholars such as Muslimov N.A., Azizkhodjaeva N.N., Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., and To'rayev A.B. have made significant contributions to research in the field of organizing independent education and skill-based lessons. The works of these scholars, along with Ochilov M., Omonov H.T., Khojayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U., Azizkhodjaeva N.N., and Kholiqov A., provide a detailed scientific and methodological foundation for understanding the importance of skill-based lessons and the processes associated with them. [4]

The contributions of these scholars have played a crucial role in significantly advancing the quality of education in Uzbekistan. By focusing on improving teaching effectiveness and streamlining the organization of educational processes, their work has had a profound impact on how education is delivered and experienced throughout the country. Their extensive research has been instrumental in facilitating the integration of a wide range of teaching methodologies into the education system. This integration encourages educators to adopt innovative approaches that cater to diverse learning styles and needs within the classroom. As a direct result of these advancements, there has been a marked increase in student engagement. Students are more actively involved in their learning experiences, contributing to enhanced learning outcomes that reflect a deeper understanding of the material. Furthermore, the introduction of these new teaching strategies has empowered teachers to better respond to the evolving demands of contemporary education. By equipping them with tools and techniques that foster critical thinking and creativity, students are better prepared to navigate the complexities of the 21st century. This progress is especially significant in the context of ongoing educational reforms in Uzbekistan. These reforms are designed to modernize the education system and align it more closely with global trends, emphasizing the importance of pedagogical practices that are centered on the needs and experiences of students. By embracing these changes, Uzbekistan is not only improving its education system but also preparing its students to become capable and adaptable individuals in a rapidly changing world.

Globally, methodologists such as Benjamin Bloom and John Dewey have established the theoretical foundation for critical thinking and creativity in education. Bloom's taxonomy (1956) of educational objectives places analysis, synthesis, and evaluation at the top of the cognitive hierarchy, serving as a guiding framework for fostering critical thinking. Dewey (1933) emphasizes the importance of reflective thinking in education, suggesting that learning should be rooted in problem-solving and experiential activities [1].These perspectives align with the goals of educational reform in Uzbekistan, where policymakers and educators aim to move away from rote memorization towards more reflective and creative approaches to learning.

Methodology

Microteaching, a method in which teachers conduct short, focused lessons in a simulated environment, offers a promising strategy for achieving these objectives. By providing a space for teachers

to practice and refine techniques that promote student engagement, critical thinking, and creativity, microteaching can be a key tool in modernizing educational practices in Uzbekistan.

This paper investigates how microteaching can be effectively utilized to cultivate critical thinking and creativity among Uzbek students, drawing on both local and international research to inform best practices.

The participants in this study consisted of approximately 50 university students at Mamun university in Uzbekistan. The aim of this make students get interested in developing new pedagogical techniques and experimenting with innovative teaching methods, particularly focused on fostering critical thinking and creativity.

Data Collection and Analysis Procedures

The microteaching program was conducted over a 12-week period, during which the 50 participants delivered short, 10–15-minute lessons to their classmates in a controlled classroom environment. Each student had the opportunity to take on the role of a teacher while their peers acted as learners. As the instructor and observer, I supervised each session, providing guidance and feedback to support their development.

The microteaching sessions aimed to promote critical thinking and creativity through specific pedagogical techniques. These included open-ended questioning to encourage deeper analysis, collaborative problem-solving tasks, and the integration of real-world scenarios to engage students' creativity. Each group member acted as both an active participant and a critical observer during their peers' microteaching sessions.

After each microteaching lesson, reflective discussions were held to review the teaching performance, identifying strengths and areas for improvement. I facilitated these discussions, drawing from some scientists' methodology, which emphasizes the importance of creating a feedback-rich environment to promote peer-to-peer learning and professional growth.

Results

Observation and Survey

As part of the experiment, I closely observed the students' behaviors and teaching techniques during their microteaching sessions. Additionally, I designed and distributed a survey to assess how the students felt during the lessons—both as teachers and as learners. The survey included questions related to their emotional responses, such as confidence, anxiety, and engagement, as well as their perceptions of the effectiveness of the teaching techniques used. It also prompted students to reflect on how well they believed they had encouraged critical thinking and creativity among their peers during the microteaching sessions.

The feedback from the surveys, along with my observations and the students' self-reflections during the discussion sessions, provided a comprehensive view of how microteaching influenced the development of critical thinking and creative skills in both the teachers and their classmates. This data was essential for refining the microteaching approach and understanding how these methods affected student behavior and engagement.

Data were collected through a combination of qualitative and quantitative methods. Pre- and post-study surveys were conducted with both students and teachers to assess changes in attitudes and competencies related to critical thinking and creativity. Lesson recordings were analyzed to identify the use of critical thinking and creative strategies, while interviews with teachers provided additional insights into the challenges and benefits of microteaching.

Survey data were analyzed using statistical methods to measure changes in students' critical thinking and creativity scores. Qualitative data from interviews and lesson recordings were coded and analyzed thematically to identify patterns and emerging trends.

Results

Quantitative Findings

The quantitative data revealed a significant improvement in critical thinking and creativity among students who were exposed to microteaching methods. Pre-study surveys showed that only 35% of students demonstrated above-average essential thinking abilities, and just 28% exhibited creative problem-solving skills. In contrast, post-study surveys indicated that 68% of students scored

above average in critical thinking, and 62% displayed enhanced creative thinking. These results align with Vygotsky's (1978) theory of scaffolding, which posits that students' higher-order thinking develops through guided practice—something microteaching effectively provides.[9]

Based on our experience with the students in the 213 and 215 English language groups from the Philology and Language Teaching (English) department at Mamun University, Urgench, Uzbekistan, we have observed similar situations among our students. Below are the results of the survey conducted with the students who participated in the microteaching sessions:

Table 1.

	Questions:	Answers	Percentage of students
1	Did you achieve your objectives in teaching Microteaching?	Yes	70 %
		No	15 %
		Partially	15 %
2	Did you manage time and do all your planned?	Yes	80 %
		No	10 %
		Partially	20 %
3	What do you feel most during microteaching?	Excitement and nervousness	40 %
		Responsibility and controlling	40 %
		Curiosity	0 %
		Support and collaboration	0 %
		Satisfaction and self-confidence	20 %
4	Difficulties in microteaching ...	Easy to prepare	61 %
		Very difficult	11%
		Manageable	28 %
5	How are students participation in your class?	Active	88 %
		Passive	6 %
		Barely participating	6 %
6	Getting students' attention is…	Very difficult	44 %
		Easy to attract	17 %
		Sometimes easy, sometimes difficult	39 %
7	Did you manage time and do all your plan?	Yes	72 %
		No	11 %
		Partially	17 %
8	I like most…	Positive feedbacks, because I feel confident	68 %
		Negative feedbacks, because they make my mistakes correct	11 %
		Criticizing, it makes me grow for my future	21 %
9	Do you agree to re-teach your microteaching?	With pleasure	76 %
		No, I do not want to re-teach it anymore	24 %

10	Which stage is challenging for you?	Planning my microteaching	39 %
		Starting my lesson	22 %
		Managing my nervousness	22 %
		Controlling the class	11 %
		Explaining new theme	6 %

In one of my articles [8], I examined the difficulties and challenges faced by students during their microteaching sessions, using data to highlight key areas where they struggled. Through this investigation, I identified specific obstacles, such as time management issues, nervousness, and difficulties in lesson planning, which directly affected their teaching performance. However, these challenges also served as catalysts for developing critical thinking skills.

Microteaching inherently requires students to engage in self-reflection, problem-solving, and real-time decision-making. The challenges they encountered—such as maintaining student engagement, adapting lessons to fit time constraints, and managing their emotions—forced them to think critically about how to improve their teaching strategies. For instance, students who struggled with nervousness had to identify techniques to overcome this barrier, while those who found lesson planning difficult were pushed to enhance their organizational and analytical skills.

Furthermore, the process of receiving and analyzing feedback from peers and instructors significantly enhanced their critical thinking abilities. Positive feedback boosted their confidence, while constructive criticism encouraged them to reassess their teaching methods, leading to a deeper understanding of effective teaching practices. This feedback loop prompted students to critically evaluate their own strengths and weaknesses, fostering a mindset of continuous improvement.

In this way, the microteaching experience not only revealed the challenges faced by the students but also highlighted how these difficulties contributed to the development of essential critical thinking skills, which are crucial for their future success as educators.

The microteaching sessions played a crucial role in developing the participants' critical thinking skills. By allowing students to plan, deliver, and reflect on their teaching, they encountered situations that required problem-solving, adaptation to real-time classroom dynamics, and critical evaluation of their performance. Open-ended questioning, collaborative problem-solving and reflective discussions enabled them to analyze their teaching methods and effectiveness.

In this feedback-rich environment, students learned to evaluate both positive and constructive feedback, enhancing their ability to think deeply about their teaching strategies and outcomes.

“Pupils are real critics of their teachers. They can critically differentiate between the desirable and undesirable behaviors of their teachers in the classroom situation. It is also necessary from the psychological point of view, since the teachers are trained to teach students.[3]

Thus feedback from students can bring improvement in competence level of teachers. The experience of managing emotions, navigating classroom dynamics, and responding to the needs of their peers pushed them to engage in metacognitive thinking—assessing their thought processes and decision-making during the lesson.

Overall, the microteaching experience empowered students to approach teaching with a more analytical mindset, improving their critical thinking skills by encouraging self-assessment, problem-solving, and adaptability in educational settings.

Several key themes emerged from the qualitative data:

1. Increased Student Engagement: Teachers observed that microteaching helped them create more engaging lessons that prompted active student participation. Open-ended questions and group discussions were particularly effective in promoting critical thinking, as supported by [6], who emphasizes that interactive learning environments enhance student engagement and critical thinking skills.

2. Creative Expression through Real-World Problems: Microteaching enabled teachers to incorporate real-world problems into their lessons, encouraging students to think creatively. For instance, in one microteaching session, students were tasked with developing solutions for environmental issues in their local community, resulting in a variety of imaginative and practical proposals. Soon Ye Hwang, while analyzing creativity as it is traditionally included into educational practices, argues that the creativity should be understood as a fundamental principle of human existence and everyday experience, so such approach will encourage rethinking of creativity in education.[7]

3. Teacher Development: Teachers valued the reflective nature of microteaching, as it provided them with immediate feedback and opportunities for self-improvement. Many expressed that their understanding of how to cultivate critical thinking and creativity had deepened because of the program.

4. Challenges: However, teachers also encountered challenges in transitioning from traditional lecture-based approaches to student-centered learning. Many found it difficult to balance content delivery with activities designed to foster critical and creative thinking, particularly in larger classes. Another finding also revealed that most student teachers used non-conventional language or what is commonly known as “slang language” while administering their microteaching lessons. This practice was common and the researcher believes that it to be due to the reason that they are

used to communicating among themselves with this un-conventional language. They tended to forget that microteaching is a formal and an academic exercise. One respondent said this verbatim ‘I am gonna ask you to repeat after me the list of verbs so that you can remember them if you wanna use them’. This is regarded as one of the biggest challenges to the future of the national curriculum because it shows that student teachers are more likely to use nonconventional/ slang language in the classrooms resulting in a negative perception to learners that this is an appropriate language use across the academic world.[5]

Discussion.

The findings of this study suggest that microteaching is a valuable tool for developing critical thinking and creativity among Uzbek students. The observed improvements in student performance align with the growing body of literature emphasizing the importance of active learning and student-centered teaching methods in fostering higher-order thinking skills. Prominent Uzbek educational theorists such as Muslimov N.A., Azizkhodjaeva N.N., Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., along with global figures like , Vygotsky , Bloom and Dewey, emphasize that engaging students in critical thinking and creativity requires reflective, problem-based learning environments. Microteaching’s structured approach, where teachers practice specific techniques and receive feedback, helps educators transition from traditional didactic methods to more interactive and reflective forms of teaching. However, the study also highlights several challenges in implementing microteaching. Teachers who are accustomed to traditional methods may need additional training and support to effectively integrate critical thinking and creativity into their teaching practices. Additionally, larger class sizes and limited resources in some schools may hinder the widespread adoption of microteaching.

Conclusions. Microteaching offers significant potential for developing critical thinking and creativity in Uzbek students. The results of this study demonstrate that microteaching can create a more engaging and dynamic learning environment, equipping students with the tools needed to think critically and creatively. As Uzbekistan continues to reform its educational system, integrating microteaching into teacher training programs could play a crucial role in promoting these essential skills. Future research should explore the long-term impact of microteaching on student outcomes and investigate strategies for overcoming the challenges identified in this study. By expanding the use of microteaching, Uzbekistan can better prepare its students for the demands of the modern world, ensuring they possess the critical and creative thinking skills necessary for success.

References.

1. Armstrong, Patricia (2010-06-10). "Bloom's Taxonomy". Vanderbilt University Center for Teaching. Vanderbilt University. Retrieved 29 June 2016

2. Azuelo, Andrea & Bolivia, Lita & Orongan, Raul & Bago, Bigo & Romero, Loreto & Escarlos, Gladys & Maganding, Edna & Suldano, Melanie. (2013). Student Teachers' Feedback on Microteaching and Their Perspectives on Teaching Styles and Students' Learning: A Qualitative Study.

3. Chawla, Vibha & Thukral, Praveen. (2011). Effects of Student Feedback on Teaching Competence of Student Teachers: A Microteaching Experiment. Contemporary Educational Technology. 2. 10.30935/cedtech/6044.

4. Majidovich, G. M..(2024). Boshlang'ich ta'limda innovatsion faoliyatni shakllantirishda mahorat darslarining ahamiyati. fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi, 5(2), 13-17. Retrieved from https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1338

5. Makafane, David. (2020). Student Teachers Challenges in the Preparation and Implementation of Microteaching: The case of the National University of Lesotho. International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development. 9. 10.6007/IJARPED/v9-i2/7283.

6. Masharipova Nasiba Ro'zmatovna O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik omillari // SAI. 2024. №Special Issue 16. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/oquvchilarda-tanqidiy-fikrlashni-shakllantirishning-pedagogik-omillari (дата обращения: 22.11.2024).

7. Matraeva, Alena & Rybakova, Marina & Vinichenko, Mikhail & Oseev, Aleksander & Ljapunova, Natalia. (2020). Development of Creativity of Students in Higher Educational Institutions: Assessment of Students and Experts. Universal Journal of Educational Research. 8. 8-16. 10.13189/ujer.2020.080102.

8. Matyakubova X.M. (2024) Mahorat darslarida talabalarning o'qituvchilik mahoratini oshirishda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyinchiliklar. Mamun University conference. pp 509-512

9. Pedapati, Kruthi (August 1, 2022). "Piagetian and Vygotskian Concepts of Cognitive Development: A Review" (PDF). Indian Journal of Mental Health. 9 (3). doi:10.30877/IJMH.9.3.2022.227-239.

10. Remesh, Ambili. (2012). Microteaching, an efficient technique for learning effective teaching. Journal of Research in Medical Sciences. 18:. 158-63..

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna
Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV MOHIYATI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Maqolada tilshunoslik sohasidagi kagnitiv yondashuv uning mohiyati olimlar to monidan olib borilgan ilmiy izlanish natijalari ularning mulohazalri bayon etilgan, shuningdek maqolada XX asr boshlaridan butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtai nazardan yondashuv asosiy o'rin egallanligi, Ferdinand de Sossyur g'oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini ochib berishga asosiy e'tibor berilganligi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, til, tafakkur, prototip, ssenariy, freym, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, konseptosfera, lingvistik va ekstralingvistik omillar, psixolingvistika, assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja, matn darajasi, lisoniy omillar.*

СУЩНОСТЬ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО УНИКАЛЬНОСТЬ

Аннотация. *В статье описывается сущность когнитивного подхода в лингвистике, результаты научных исследований, проведенных учеными, их выводы, а также утверждается, что с начала XX века подход к языку с семиотической точки зрения занял ведущее место в лингвистике всего мира, основываясь на идеях Фердинанда де Соссюра, язык рассматривался как система знаков, а основное внимание уделялось выявлению системной природы языковых единиц.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, язык, мышление, прототип, сценарий, фрейм, концептуализация, категоризация, концептосфера, лингвистические и экстралингвистические факторы, психолингвистика, ассоциативный уровень, лексико-морфологический уровень, контекстуальный уровень, структурный уровень, уровень текста, лингвистические факторы.*

THE ESSENCE OF THE COGNITIVE APPROACH IN LINGUISTICS AND ITS UNIQUENESS

Annotation. *the article describes the essence of the cognitive approach in linguistics, the results of scientific research conducted by scientists, their conclusions, and also states that since the beginning of the 20th century, the approach to language from a semiotic perspective has taken a leading place in linguistics around the world, based on the ideas of Ferdinand de Saussure, language was considered as a system of signs, and the main attention was paid to revealing the systemic nature of language units.*

Keywords: *cognitive linguistics, language, thinking, prototype, scenario, frame, conceptualization, categorization, conceptosphere, linguistic and extralinguistic factors, psycholinguistics, associative level, lexical-morphological level, contextual level, structural level, text level, linguistic factors.*

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Professor Sh.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi bu sohaga oid nazariy qarashlarning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo'ldi. Muallif ta'kidlaganidek, risolaning maqsadi – "o'zbek o'quvchilarini kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolari, tadqiq metodlari bilan tanishtirish" dan iborat.

Sh.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur

aloqasini “teng huquqli hamkorlik” darajada ko‘rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta’sir o‘tkazadigan madaniyatdir. Prof. A.Mamatov tomonidan e’lon qilingan “Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?” nomli maqolada ham kognitiv tilshunoslikning vazifasi va unga oid tushunchalarning lingvistik mohiyati haqida fikr yuritilgan. Maqolada N.Xomskiy, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jekendof, Ch.Fillmor, Ye.S.Kubryakova, Ye.D.Raxilina, V.N.Teliya, Z.D.Popova, N.Yu.Shvedova, N.F.Alefirenko kabi tilshunoslarning kognitiv tilshunoslikning asosi bo‘lgan prototip, ssenariy, freym, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, konseptosfera kabi terminlar borasidagi fikrlari tahlil etilgan. Ushbu maqola ham umumnazariy aspektda yozilgan bo‘lib, kognitiv tilshunoslik “alifbosi”ga oid fikrlarni umumlashtirish maqsad qilib olingan. Maqola muallifi, jumladan, til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: “Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi”. O‘zbek tilshunosligida matn antropotsentrik paradigma asosida tahlil etilgan dastlabki ishlardan biri I.A.Azimovaning “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. Tadqiqotda asosiy e’tibor “matnni tushunishga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlash, matnning mazmuniy persepsiyasidagi birliklarni aniqlash va ularning formal-semantik xususiyatlarini tahlil qilish”ga qaratilgan. Olima yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba usuli yordamida gazeta matnlari persepsiyasi bo‘yicha quyidagi darajalarni belgilaydi: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja va matn darajasi6. Tadqiqotchi bunda “stimul matndagi lisoniy omillar, matndagi so‘zlarning aynan eslab qolinishi, eslab qolingan so‘zlarning kontekstual ma’nolarining konkretlashishi, stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi va yaxlit matn proeksiyasining hosil bo‘lishi” ni matn idrokidagi asosiy jarayonlar sifatida belgilaydi.

Keyingi yillarda antropotsentrizmning umumnazariy masalalariga bag‘ishlangan bir qator maqolalar e’lon qilindi. Professor N.Mahmudovning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” sarlavhasi bilan e’lon qilingan maqolasida o‘zbek tilshunosligida ilk marta antropotsentrizm paradigmasi va unga aloqador muammolar haqida chuqur ilmiy asosga ega bo‘lgan mulohazalar bayon etildi. Maqola o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma borasidagi ilmiy tushunchalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola muallifi “paradigma” terminining ilmiy talqinlariga munosabat bildirib, bir paradigmani boshqa paradigmaga qarshi qo‘yish to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydi. N.Mahmudovning fikricha, “antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir”. ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”.

Natijalar.

XX asr boshlaridan butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtai nazardan yondashuv asosiy o‘rin egalladi. Ferdinand de Sossyur g‘oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini ochib berishga asosiy e’tibor berildi. Natijada til sistemasi bilan uning funksiyalashuvi, bu jarayonda til sistemasidagi invariant birliklarning turli-tuman variantlanishi va o‘zgarmas birliklarning o‘zgaruvchanlik kasb etishi namoyon bo‘ldi. Tilshunosning bosh vazifasi bevosita kuzatishda xilma-xil ko‘rinishlarda (variantlarda) namoyon bo‘luvchi lisoniy birliklar zamirida yashiringan zotiy, o‘zgarmas (invariant) birliklarni aniqlash va bu birliklarning til sistemasidagi o‘rnini belgilashdan iborat bo‘ldi. Bu esa tilshunoslikda o‘tkinchi, vaqtincha hodisalardan barqaror, doimiy mohiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada tilning har bir sathida shu sath birliklarining modellari va bu modellarning nutq jarayonidagi ko‘rinishlari aniqlandi.

Sistem-struktur tilshunoslik umumiylik va xususiylik dialektikasini e’tiborga olgan holda til va nutqni izchil ravishda farqlaydi hamda asosiy e’tiborni xususiyliklarda takrorlanuvchi umumiy jihatlarni belgilash orqali ularni modellashtirishga qaratadi. Bunday modellashtirish dastlabki davrda faqat shaklga qarab belgilangan, tilshunos uchun eng ahamiyatli narsa substansiya emas, shakl (forma) deb qaralgan (L.Yelmslev) bo‘lsa, keyinchalik shu narsa ma’lum bo‘ldiki, shakldan

mazmunni soqit qilish mumkin emas. Sistem-struktur tilshunoslikning otasi sanaluvchi Ferdinand de Sossyurning o‘zi ham shakl va mazmun munosabatini daftar varag‘iga qiyoslaydi. Varaqning ust qismi shakl bo‘lsa, ost qismi mazmundir. Lekin varaqni hech qachon ust va ost qismlarga alohida-alohida ajratib bo‘lmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, til sistemasining quyi (fonologik) sathidan tashqari, barcha sath birliklari ma’no bilan bog‘langan. Ular shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Shuning uchun ham har qanday lisoniy model (qolip) mazmunni o‘zidan soqit qila olmaydi. Ko‘p hollarda lisoniy qolipni belgilashda mazmun yetakchi planga o‘tib qolishi mumkin. Ayniqsa, bu sintaktik omonimiyalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bois sistem-struktur tilshunoslik keyingi davrlarda lisoniy birliklarning shakl va mazmun munosabatiga ham alohida e’tibor qila boshladi. Buning natijasida tilshunoslikda alohida yo‘nalish – mazmuniy yo‘nalish maydonga keldi.

Tilshunoslikda mazmuniy yo‘nalishning maydonga kelishi va bu yo‘nalish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi natijasida gap semantikasida bir talay muammolarni hal qilish imkoniyati yaratildi.

Mantiqiy semantikaning yirik vakillaridan biri bo‘lgan B.Rassel so‘zlarni indikativ va indikativ bo‘lmagan so‘zlarga ajratadi[1].

Obyektiv borliqdagi ma’lum narsa-hodisalarni, belgi-xususiyatlarni, harakat-holatlarni nomlash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni indikativ “ishora qiluvchi” so‘zlar, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlarni esa indikativ bo‘lmagan so‘zlar deb hisoblaydi. Sistem-struktur tilshunoslikda birinchi tipdagi so‘zlar deskriptiv so‘zlar, ikkinchi turdagi so‘zlar esa deskriptiv bo‘lmagan so‘zlar deb yuritiladi.

Gap semantikasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar gap tarkibida ana shunday indikativ bo‘lmagan (deskriptiv bo‘lmagan) so‘zlar kelganda ancha qiyinchilikka duch keldilar.

Muhokama.

Gap shundaki, gap tarkibidagi deskriptiv so‘zlarni konkret nutq vaziyati bilan bog‘lanmasa ham, qaysi denotativ (atash) ma’noda ekanligini, obyektiv borliqdagi nimani nomlab kelayotganligini aniqlash imkoniyati bo‘lsa, deskriptiv bo‘lmagan so‘zlarni bu tarzda aniqlash mumkin emas. Bunday so‘zlar obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, belgi va xususiyatlar, harakat va holatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlamagani tufayli, ular muayyan vaziyat bilan bog‘lanmasa, nimaga ishora qilayotganligi noma’lumligicha qolishi ayon bo‘ldi.

Bu shuni ko‘rsatdiki, gap semantikasini shu gap tarkibida qo‘llanilayotgan so‘zlarning faqat obyektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina to‘la izohlash mumkin emas ekan. Bunga gapning nutq jarayoniga, nutq vaziyatiga bo‘lgan munosabatini aniqlashni ham qo‘shish zaruriyati tug‘ildi. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag‘ridan lingvistik pragmatika o‘sib chiqdi.

Shunday qilib, sintaksisda uch yo‘nalish maydonga keldi:


1) sintaktika; 2) semantika; 3) pragmatika.

Germaniyalik olim Georg Klaus boshqa tilshunoslardan farqli ravishda semiotik nuqtai nazardan tilning to‘rt yo‘nalishini ko‘rsatib o‘tadi. Sintaktika belgi bilan belgi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Semantika moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalar nuqtai nazaridan belgi ma’nosini o‘rganadi. Sigmatik yo‘nalish esa belgi va predmet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadi. Pragmatika esa belgining insonga ta’siri, uning fikrlash uslubiga, axloqiga, his-tuyg‘usiga ta’sirini o‘rganadi[2]. Semiotikaga oid aksariyat qarashlarda esa belgining uch aspekti ajratiladi va tahlil qilinadi. Xususan, sintaktik qurilmalar tarkibidagi bir lisoniy belgining boshqa lisoniy belgi bilan munosabatini o‘rganuvchi soha sintaktika hisoblanadi. Sintaktik qurilmalar tarkibidagi lisoniy belgilarning predmet va tushunchaga bo‘lgan munosabati semantikada o‘rganiladi. Pragmatikaning esa nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o‘rganishi ko‘rsatildi. Ko‘rinadiki, nutqiy akt bilan kontekst o‘rtasidagi o‘zaro munosabat pragmatikaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi.

[1] Рассел Б. Человеческое познание. – М., 1957, с.139.
[2] Клаус Г. Сила слова. – М., 1967. – С.2.



1-shakl



2-shakl

Demak, nutqiy akt bilan kontekst o‘rtasidagi munosabat juda kuchli bo‘lganda, nutqiy akt ma’nosi kontekst bilan bog‘liq holda anglangan o‘rinlarda pragmatikaga ehtiyoj tug‘iladi. Sintaktik qurilma tarkibidagi deskriptiv so‘zlar tahlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo‘lmagan so‘zlar tahlili pragmatikaga qarab tortadi.

Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo‘lmagan so‘zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Atash vazifasini bajaradigan, denotativ ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar indikativ yoki deskriptiv so‘zlar hisoblanishi yuqorida ta’kidlandi. Indikativ (denotativ ma’noli) so‘zlarning ma’nosini kontekstga bog‘liq bo‘lmagan holda aniqlash mumkin bo‘lsa, indikativ bo‘lmagan so‘zlarning ma’nosi faqat kontekst ichida, muayyan nutq vaziyatiga bog‘liq ravishda ochiladi. Shuning uchun ham bunday so‘zlar ma’nosi kontekst va nutq vaziyati bilan uzviy bog‘liq, ya’ni shartlangan bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan ikki turdagi so‘zlarni farqlash uchun B.Rassel ularni zooparkka qiyoslaydi. “Agar siz farzandingizga sher so‘zining ma’nosini tushuntirmoqchi bo‘lsangiz, uni zooparkka olib borishingiz va “mana bu sher” deb ko‘rsatishingiz mumkin. Lekin indikativ bo‘lmagan *agar, bu* kabi so‘zlarni ko‘rsatish mumkin bo‘lgan zoopark mavjud emas”, deydi B.Rassel.

Indikativ bo‘lmagan so‘zlar qatoriga kiruvchi olmoshlar, atoqli otlarning konkret ma’nosi-denotati faqat kontekstda, ma’lum nutq vaziyatida oydinlashadi. Shuningdek, indikativ bo‘lmagan so‘zlar qatoriga yordamchi so‘zlar ham kiritiladi. Chunki bunday so‘zlar ham kontekst yoki nutq vaziyati bilan bog‘langandir.

Bulardan tashqari, gap mazmunini so‘zlovchi bilan bog‘lab turuvchi shunday so‘zlar borki, ular ham kontekst bilan zich bog‘liq sanaladi. Har bir gap (jumla) obyektiv borliq haqida ma’lum axborot berish (nominativ yoki propozitiv funksiya) bilan birga, so‘zlovchining bu axborotga munosabatini ham bildiradi.

Uzoq davrlargacha tilshunoslar so‘zlovchining “mahsuloti” bo‘lgan jumlani o‘rganishga asosiy e’tibor berdilar. Bu jumlani yaratgan shaxs (subyekt) esa nazardan chetda qoldi. Vaholanki, har bir konkret jumlada so‘zlovchining ruhiyati, madaniyati, dunyoqarashi va boshqalar o‘z ifodasini topadi. Shu tufayli ham so‘zlovchining gapi(jumlasi)ga qarab, uning kimligi haqida hukm chiqarish mumkin bo‘ladi. Bu esa til birligi bo‘lgan gapning qoliplari konkret sharoitda jumlalar orqali yuzaga chiqib, naqadar rang-barang qo‘shimcha axborot bildirishidan dalolat beradi. Bu qo‘shimcha axborotlar jumlaning alohida ma’no qatlamini tashkil etadi. Jumlaning obyektiv voqelik bilan bog‘liq ma’nosi (propozitiv ma’nosi) asosiy, boshqa ma’nolar esa qo‘shimcha ma’nolar sanaladi.

Mashhur fransuz tilshunosi Sharl Balli birinchi tipdagi ma’nolarni diktum yoki diktal ma’no, ikkinchi tipdagi ma’nolarni esa modus yoki modal ma’noga kiritadi. Konkret sharoitda voqelangan har qanday jumla diktal ma’nodan (ma’lum propozitsiya ifodalashdan) tashqari modusga ham ega bo‘ladi. Modus tarkibiga kiruvchi so‘zlovchining “meni” ham kontekst orqali yuzaga chiqadi.

Shunday ekan, ana shu so‘zlovchining shaxsi (ruhiyati, dunyoqarashi va boshqa tomonlari) haqida axborot beruvchi modusning qismi ham gap semantikasi bilan bog‘liqdir.

Ayrim jumlalar borki, undan anglashilgan obyektiv mazmun (diktal ma’no) butunisicha faqat muayyan nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar bu jumla shu kontekstdan yoki nutqiy vaziyatdan uzib olinsa, mazkur obyektiv mazmun mavhumlashadi. Masalan, *Hamma vaqtini chog‘ o‘tkazmoqda* jumlasidan anglashilgan *“hammaning xursandligi”* faqat konkret nutq vaziyati, nutqiy qurshov bilan bog‘liqdir. Chunki dunyodagi barcha odamlar doimo vaqtini chog‘ o‘tkazishi mumkin emas. Kimdir nimadandir tashvishlanadi, ozor chekadi, kimdir kasallikdan azob tortadi va hokazolar.

Xulosa.

Ko‘rinadiki, konkret jumlalardan anglashilgan bir qator qo‘shimcha ma’nolar nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog‘liqdir. Nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bu kabi ma’nolar va ularni ifodalovchi vositalar lingvistik pragmatikaning o‘rganish obyekti sanaladi.

Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga daxldordir. Nutqiy akt, indikativ bo‘lmagan so‘zlar, kontekst, nutqiy vaziyat, so‘zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikaning markaziy tushunchalari sanaladi.

Sistem-struktur tilshunoslik o‘tgan asr boshlaridan til birliklarining nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchilarning til haqidagi umumiy bilimlari, insonning ichki subyektiv ruhiyati bilan bog‘liq jihatlari tadqiqiga jiddiy e’tibor qaratdi. Bu masalalar hozirgi kunda ham lingvistik pragmatikaning o‘rganish obyekti sifatida tilshunos olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib qelmoqda. Tilshunoslik fanining alohida tarmog‘i sifatida lingvistik pragmatika keng miqyosdagi semantik tadqiqotlar zamirida amaliy ehtiyoj oqibatida maydonga keldi va asosiy e’tiborini til belgilarining nutqdagi funksional qo‘llanishlari tadqiqi muammosiga qaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Arutyunova N.D., Paducheva Ye.V. Istoki, problemi i kategorii pragmatiki. V kn.: NZL. Vip. XVI. M., 1985. – s.7.
2. Klaus G. Sila slova. – M., 1967. – S.2.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 6.
4. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent. 2001. – B. 15-17.
5. Petrov V.V. Filosofiya, semantika, pragmatika G’G’ Novoe v zarubejnoy lingvistike. Vip. XU1. – M., 1985. – B.471.
6. Nurmonov A. Gapning presuppozitsiya aspekti G’ A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S. Solixo‘jaeva. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 113-120.
7. Rassel B. Chelovecheskoe poznanie. – M., 1957. – s.139.

Ochilov Shohruh G‘ayratovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

OILAVIY AJRIMLARNING O‘SMIR YOSHDAGI BOLALAR PSIXIKASIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ajralish psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan jiddiy muammolardan biri bo‘lib, nafaqat kattalar hayotida balki o‘smir yoshdagi bolalar hayotidagi eng stresli jarayonlardan biridir. Oilaviy ajrimlar tufayli qanchadan qancha to‘liqsiz oilalar ko‘payadi, buning ta’sirida o‘rtada qolgan o‘smirlar har tamonlama zarar ko‘rishadi. Ota va onaning ajrashishi o‘smirlarning kelajak hayotiga, shaxslararo munosabatlariga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ajralish ota-ona va bola munosabatlarining yomonlashishi, hissiy qo‘llab quvatlashning yo‘qolishi va iqtisodiy qiyinchiliklar kabi ko‘plab stressli hayotiy hodisalarni keltirib chiqaradi.*

Kalit so‘zlar: *Ajralish,o‘smirlik davri, stress, travma, g‘azab, depressiya, ajralish oqibatlari.*

ВЛИЯНИЕ РАЗВОДА СЕМЬИ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ-ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Развод является одной из самых серьезных психологических, социальных и экономических проблем и одним из самых стрессовых процессов не только во взрослой жизни, но и в жизни подростков. Поскольку число семей с одним родителем увеличивается из-за распада семей, подростки, оказавшиеся между двух огней, страдают во всех отношениях. Развод родителей не может не оказать негативного влияния на дальнейшую жизнь подростков, их межличностные отношения, способность найти свое место в обществе. Исследования показывают, что развод становится причиной многих стрессовых жизненных событий, таких как ухудшение отношений между родителями и детьми, потеря эмоциональной поддержки и экономические трудности.*

Ключевые слова: *развод, подростковый возраст, стресс, травма, гнев, депрессия, последствия развода.*

THE IMPACT OF FAMILY DIVORCE ON THE PSYCHOLOGY OF ADOLESCENT CHILDREN

Abstract. *Divorce is one of the most serious psychological, social, and economic problems, and it is among the most stressful processes not only in adult life but also in the lives of adolescents. As the number of single-parent families increases due to family breakdowns, adolescents caught in the middle suffer in many ways. Parental divorce inevitably has a negative impact on adolescents’ future lives, their interpersonal relationships, and their ability to find their place in society. Research shows that divorce causes numerous stressful life events, such as the deterioration of parent-child relationships, loss of emotional support, and financial difficulties.*

Keywords: *divorce, adolescence, stress, trauma, anger, depression, consequences of divorce.*

Kirish. Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz, jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Ajralish muammosini o‘rganish butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham keng ilmiy jamoatchilik etibori qaratilgan. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxasislari o‘rganmoqda. Ma’lumki, o‘zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam.

Lekin har bir ajralishgan oilaga to‘g‘ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o‘zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko‘p. Shu bilan birga, «ajralish madaniyati»ni quyi saviyada ekanligi va o‘ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o‘zbek oilalarida ko‘proq salbiy oqibatlarga olib keladi. Shunga ko‘ra ajralishlarning salbiy asoratlari o‘zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga nisbatan kuchliroq

ifodalanadi. Shuning uchun bu boradagi izlanishlar ajralishning sabablari, omillari, motivlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko‘p zarar ko‘radi.

Adabiyotlar tahlili, Ajrimlar bo‘yicha tadqiqotlar birinchi bo‘lib Amerika Qo‘shma Shtatlarida (AQSH) olib borilgan. AQSHda 60-yillarda ajrimlar soni ko‘paygan va o‘sha davrdan boshlab ajralishlardan keyingi jarayon o‘rganila boshlangan. 1970-1980-yillarda asosan ajralish oqibatlari haqida tadqiqotlar olib borilgan. Biroq 90-yillarda tadqiqotlar mazmuni o‘zgargan va ajralishning bolalarga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqotlar olib borila boshlangan. Bugungi kunga qadar bu borada minglab tadqiqotlar o‘tkazildi va hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Ajralish faqat turmush o‘rtoqlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan jarayon emas. Ko‘pincha ajrashgan juftliklarning farzandlari bor. Shu sababli ajralish bola uchun ham juda muhim jarayondir. Bu jarayonda eng ko‘p jabr ko‘rgan, psixologik travma olgan farzandlar bo‘ladi. Shaxsning psixologik rivojlanishida juda muhim bo‘lgan davr bu bolalikdir. Bu davrda ota-ona va bola munosabatlari tadqiqotchilar tamonidan ko‘plab nazariyalar doirasida tekshiriladi. Har bir bola uchun, ayniqsa, hayotining birinchi yillarida ota-onasi bilan munosabati juda muhimdir. Ajralish birdaniga yuzaga keladiga hodisa emas. Bu jarayon ajralishdan oldin va keyingi munosabatlar, nizolar va ajralishdan keyingi moslashish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bu jarayon yillar davom etishi mumkin. Bu esa deyarli barcha bolalar uchun stress manbai, ayniqsa erta bosqichlarda. Bolaning nuqtai nazarini inobatga olsak, u endi o‘zi eng ko‘p bog‘langan ikki kishiga, ya’ni onasi va otasiga teng darajada erisha olmaydi va uning dunyosi, qaysidir ma’noda bo‘linadi.

Psixolog olim Faxriddin Ro‘ziqulovning bu boradagi tadqiqotlarida otasiga mehr va hurmati yetarli ravishda shakllanmagan qiz kelajakda oila qurganda turmush o‘rtog‘iga ham hurmatini yetarli ravishda ifodalay olmaydi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra ajralish, oilada otasiz o‘sayotgan o‘g‘il bolaning o‘qishiga va tarbiyasiga salbiy ta’sir etishi kuchli bo‘lar ekan. 5 yoshgacha otasi yo‘qligini boshdan kechirgan o‘g‘il bolalarning maktabdagi muvaffaqiyatsizlik darajasi qizlarga qaraganda yuqoridir. Bunday o‘g‘il bolalar kam raqobatbardosh, sportga unchalik qiziqmaydigan, boshqalarga qaram bo‘lgan, tajovuzkor harakterga ega bo‘ladi. Maktab davrida o‘g‘il bolalarda g‘azab va stress qizlarga qaraganda kuchliroqdir. 9-15 yoshli bolalarda agressiya tez-tez kuzatiladi, chunki ularda xayol yoki inkor orqali qayg‘u va motam bilan kurashish mehanizmlari to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. 9-15 yoshli o‘g‘il bolalarning 5 yillik kuzatuvida jahl qilish, ota-onaga bo‘ysunmaslik, jinoyatga qo‘l urish, maktabda dars qoldirish, fanlarni o‘zlashtirishining pasayishi kabi xatti-harakatlar qizlarga qaraganda ancha yuqori ekanligi aniqlangan. 10 yillik kuzatuvda qizlar o‘gil bolalarga qaraganda ancha yaxshi moslashgani kuzatildi.

Muhokama. Ota-ona mojorosining bolaga ta’siri:

Oilada nizolar boshlangandan to ajrashish qaroriga kelgunicha turmush o‘rtoqlar juda ko‘p ziddiyatlarni boshdan kechirishadi. Bu ziddiyatli uy muhiti bolaga shubhasis, salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ajralishgacha bo‘lgan jarayon, ajralishning eng ayanchli qismi bo‘lishi mumkin, chunki ota-onalar farzandlarini bir-biriga qarshi qurol sifatida ishlatishi yoki farzandlarini o‘zaro nizolardan uzoqlashtira olmasligi mumkin. Tadqiqotlarda qayd etilishicha ajrimlardan so‘ng taxminan 80% dan ortiq bola onasi bilan yashaydi. Bu esa bolaga ko‘p hollarda nafaqat uy balki maktabi, yashash muhitini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bunay o‘zgarishlar esa, bolalarning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida muammolarga olib keladi. Ajralishdan keyin bolalarning taxminan yigirma foizida salbiy muammolar yuzaga keladi. Bu ko‘rsatgich ajrashmagan oilalardagi bolalarga nisbatan xavf taxminan 2 baravar ortganligini ko‘rsatadi. Eng keng tarqalgan xulq-atvor muammolari, qoidalarga rioya qilmaslik, past akademik muvaffaqiyat, tashvish, stress va depressiya kuzatiladi.

Ajralishning o‘smir ruhiy va fizialogik ta’siri:

Ajralishdan so‘ng o‘smirlar birinchi navbatda kuchli qo‘rquv va xavotirni boshda kechirishadi. Bundan tashqri bolada diqqat yetishmasligi, yolg‘iz qolish istagi, ishtaxani yo‘qolishi, g‘amginlik, maktabga bormaslik, do‘stlari bilan vaqt kechirishni istamaslik, xayolparastlik, sevimli mashg‘ulotlaridan sovub qolish, g‘azablanish va tajovuzkor xatti-harakatlar kuzatilishi mumkin. Shuningek, bolalarda uyqu bilan bog‘liq muammolar ham yuzaga keladi. Uxlashni istamaslik, tez-tez uyg‘onish, tungi qo‘rquv va daxshatli tushlar eng ko‘p uchraydigan uyqu muammolaridir.

Ajralishdan keyin bolalarda ba'zida kuchli jismoniy shikoyatlar ham yuzga kelishi mumkin. Masalan bosh og'rig'i va qorin og'rig'i, ko'ngil aynishi, mushaklardagi og'riqlar. Ushbu shikoyatlar o'smirning ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan psixologik shikoyatlardir.

Ajralishning o'smirga qisqa muddatli ta'siri:

Ajrimlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ajralishdan keyingi 2 yilni juda muhim davr ekanligini takidlamoqda. Bu jarayonning o'smirga qisqa muddatli ta'sirini o'rganuvchi tadqiqotlarda, odatda ajralishdan so'ng darhol bola uchun salbiy jarayon sodir bo'ladi, bu salbiy ta'sirlar ko'p bolalarda 6 oydan 12 oygacha davom etadi. Ajralishning qisqa muddatli ta'siri depressiv kayfiyat va chekinish bilan namoyon bo'ladi. 9 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 104 nafar bolalarning ota-onasi ajrashgandan so'ng tadqiqot olib borilganda ular duch keladigan birinchi muammolar oilning tarqalishi, atrof muhit va sharoitlarning o'zgarishi ekanligi natijada, bu davr dayarli inqiroz davri ekanligi aniqlangan. Boshqa bir tadqiqotda ajralishdan so'ng darhol bolaning boshidan kechirgan birinchi tuyg'u shok va baxtsizlik , yolg'izlik tuyg'usi, ota-onaga nisbatan g'azab va sarosimaga tushish ekanligi va bu qisqa muddatli ta'sirlar bolalarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan.

Ajralishning o'smirning yosh xususiyatlaridagi ta'siri:

Ajrimlarda o'smirning yosh xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning yoshi ajralish jarayonida psixologik va ijtimoiy uyg'unlikka, ota-ona munosabatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Yoshga qarab bazi his-tuyg'ular birinchi o'ringa chiqsa, orqada qolgan bazi his-tuyg'ular keyingi yoshda kuchayib borishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq muammolarga duch kelishadi. Ajralishlardan so'ng otaning alohida yashashi o'gil bolalarda edipal qo'rquvni faollashtirib, egosentrik fikrlashga olib kelish ehtimoli katta. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ajrimdan so'ng agressiya, tajovuz va qo'rquv yuzga keladi va bu uning hatti harakatlarida o'z aksini ko'rsatadi. Bu hatti harakatlar bosh barmog'ini so'rish, to'shagini ho'llash, o'yinchoq yoki biror narsaga bog'lanish, yoki ota-onasidan hafa bo'lish kabilar. Agressiyada bolalar ota-onasining ajralishidan g'azabini ularning shaxsiy xususiyatlari va yoshiga qarab turli yo'llar bilan ifodalaydi. Ayniqsa o'gil bolalar ko'pincha do'stlari bilan janjallashadi va o'qituvchilari va ularga g'amxo'rlik qilayotgan odamlarga urish, baqirish va narsalarni sindirish orqali munosabatda bo'lishi mumkin.

Qo'rquv, bezovtalik, qayg'u, uyqu muammolari, idrok etishning buzilishi 9-15 yoshdagi bolalarning hissiy reaksiyalaridir. Bu davrda bolalar boshidan kechirayotgan voqealarni anglash uchun ertaklardagi xayol va sehrli voqealardan panoh topishlari mumkin. Ular ota-onasining ajralishida o'zlarini aybdor deb o'ylashadi. 9-15 yosh guruhidagi bolalar erta davrda ajralishdan ko'proq ta'sirlangan bo'lsada, keying yillarda kichik yoshdagi bolalar, katta yoshdagi bolalarga qaraganda kamroq psixologik muammolarni boshdan kechirishlari aniqlangan. Bu, asosan o'sha paytda sodir bo'lgan voqealarni eslamaslik bilan bog'liq, deb hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotlar bolalaik davrida qizlarning 9-15 yoshida otasini yo'qotish oqibatlarini ko'proq ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bu davrda ota-onaning ajralishi natijasida otaning yo'qligi qizlarning o'g'il bolalar bilan o'zaro munosabatini o'zgartiradi, qarama qarshi jins vakillari bilan munosabatlarini o'rnatishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Qizlar ajrashishni o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq qabul qilishadi. G'azabini o'smirlik davriga olib borgan qizlarda jinsiy faollik va behayolik darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Bu albatta tarbiya va muhitga ham bog'liq. 9-15 yosh toifasi ota-onasining ajralishini oson qabul qilsa-da, ularning hayotiga ta'sir qiladigan muammolar tufayli g'azablanadi va ajrashgan ota-onasini hayotidagi muvafaqiyatsizliklarida ayblaydi.

Ko'pincha ota-onalar ajrashgandan so'ng qayta turmush qurishadi. Bunday vaziyatlarda bola umidsizlikka tushadi va salbiy xulq-atvor reaksiyalarini ko'rsatishi mumkin. Bu reaksiyalar bolaning yoshiga qarab, bolaning xatti-harakatlarida ko'rina boshlaydi. Eng birinchi e'tibordan chetda qolishdan qo'rquv tuyg'usini boshdan kechirishadi. O'smir yoshdagi bolalar yosh jihatdan kichik yoshda o'gay otasi yoki o'gay onasini osonroq qabul qilishadi, 9-15 yoshdagi bolalar ota yoki onasining ikkinchi turmushini qabul qilishi qiyin bo'lgan muammoli guruhni tashkil etishadi. Ayniqsa o'smirlik davrida o'g'il bolalar onasining ikkinchi turmush qurishini istashmaydi, onasi ikkinchi turmush qurgan holatlarda agressiya, g'azablanish bilan reaksiya bildiradi.

Ajralishning bolalarga ta'sirini kamaytirish yo'llari:

1. Ajralish davrida o‘smir yoshdagi bolaga uning rivojlanish darajasiga mos keladigan ma’lumot berish kerak. Chunki bu vaziyatda bola bundan keyingi hayoti qanday bo‘lishi haqida o‘ylaydi. Bolaga qayerda qolishi, qaysi maktabda o‘qishi, otasi va boshqa qarindoshlari bilan qanday va qancha vaqtda uchrashishi haqida tushunadigan tarzda ma’lumot berilishi lozim.

2. O‘smir yoshdagi bolalar bazan ajralish uchun o‘zlarini ayblashi mumkin. Ajralishda ularning aybi yo‘qligini, bu ota va ona o‘rtasidagi o‘zaro muammo ekanligini va bundan keyin ham ular uchun birlikda qayg‘urishini tushuntirish kerak.

3. Ajralishdan so‘ng otaning farzandi haqida qayg‘urishi, uni qo‘llab-quvvatlashi bolaning baxti va rivojllanishi uhun muhimdir. Otaning borligi va farzandi haqida qayg‘urishi onaning hayotini ham osonlashtiradi va uning farzandi bilan munosabatlarini yanada ijobiy qiladi.

4. Bazan ajralishdan so‘ng ham o‘rtadagi mojorolar davom etadi. Bunday nizolarda o‘smir yoshdagi bolalarni qatnashtirmaslik lozim. Shunda bolaga kamiroq ruhiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Ajralishdan so‘ng ota yoki onaning farzandini oldida bir-birini ayblashi va haqorat qilishi ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarga yanada yomon ta’sir qiladi. Ko‘p hollarda bolada ota-onaning biriga nisbatan nafrat shakllanadi.

6. Ajrimdan so‘ng o‘smir ona bilan yashasa, onaning oila azolari ham, o‘smirning oldida otasini yoki qarindoshlarini ayblashi va haqorat qilishi, bolaning ruhiy holatiga va ular o‘rtasidagi munosabatlarga shikast yetkazadi. Huddi shunday o‘smir yoshdagi bola otasi bilan uchrashganda ham, otaning yaqin qarindoshlari bunday hatoni qilmasligi va ruhan jarohat olgan bolaga yanada shikast yetkazmasligi lozim.

7. O‘smirlar bilan sifatli munosabatlar o‘rnatish uchun kattalar yaxshi psixologik holatga ega bo‘lishi kerak. Bu ba’zan vaqt talab etadi va bu yo‘lda eng muhim qadam ikki tomon ham hayotini tartibga solishidir.

Xulosa. Ko‘rib turganimizdek ajralishlar ko‘plab nohush hodisalar: noto‘liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida qonunbuzarlikning ko‘payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar soning ortishi, yolg‘izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o‘zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Afsuski bugungi kunda nikohlarning taxminan uchdan bir qismi ajralish bilan tugaydi. Ajralish turmush o‘rtoqlar uchun stresli jarayon bo‘lsa-da, uning ta’siri eng ko‘p bolalarga tegishlidir. Garchi turmush o‘rtoqlar ko‘pincha ajralishdan so‘ng jiddiy travmatizmni boshdan kechirishsa-da, ular bu jarayonni bolalarga qaraganda osonroq yengib o‘tishlari mumkin, chunki bu o‘z qarorlari natijasidir. Ularning yoshiga qarab kurashish qobilyati yaxshiroq va ular alternativlarni ishlab chiqishlari mumkin. Ammo, afsuski, bu hodisalarni o‘smirlar yengib o‘tishlari qiyindir, chunki bu ularning qaroriga bog‘liq emas.

Ajralgandan so‘ng ota va onaning bir-birlari bilan bo‘lgan munosabati va muloqotlari, farzandlari bilan bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlari ushbu travmatik hodisani og‘ir yoki yengil bosqichlarda yengib o‘tishini belgilaydi. Albatta, onaning ham, otaning ham farzand hayotida hech kim o‘rnini bosa olmaydi. Ota va onaning tarbiyaviy ro‘li bir-birini to‘ldiradi. Ota-onalar buni unutmagan holda ajralgandan so‘ng farzandlari kelajagi haqida qayg‘urishi va o‘z ota-onalik vazifalarini unutmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. G‘.B. Shoumarov tahriri ostida “Oila psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2010
2. PhD. S.Sh.Ummatova “Rashk fenomenining oila mustahkamligidagi gender va yosh farqlari masalalari”. Monografiya. – Samarqand. SamDU nashriyoti, 2023 yil. – 124 b.
3. Vasila Karimova “Oila Psixologiyasi” darslik Toshkent-2007
4. Akramova F.A. Ummatova S.Sh. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta’siri. Monografiya.–Toshkent: «Lesson-press» nashriyoti, 2021. – 126 b.
5. Shoumarov G ‘. B., Sog‘inov N. A. 0‘zbek oilalarida ajralish va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. 0‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respubl. Ilmiy-amaliy Anjumani ma’ruzalarining qisqacha bayoni. — Toshkent, 1993. 109— 112 b.
6. Shoumarov G ‘. B., Sog‘inov N. A. Er-xotin orasidagi nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. 0 ‘zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to‘plami. Toshkent, 1993. — 11—25 b.

Omonov Sherali Ibroxim o‘g‘li
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Farg‘ona davlat universiteti, psixologiya kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-4804-2022

MADANIYAT VA ISTE’MOLCHILARNING IQTISODIY XULQI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniyat va iste’molchilarning iqtisodiy xulqi o‘rtasidagi bog‘liqlikning psixologik asoslari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Psixologik yondashuv asosida iste’molchilarning qadriyat tizimi, motivatsion omillari, e’tiqodlari, ijtimoiy identiteti va hissiy holatlari madaniyat ta’sirida qanday shakllanishi va bu omillar iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi. Ijtimoiy psixologiya, madaniy psixologiya hamda iste’mol psixologiyasi tamoyillari asosida milliy madaniyatlar va ularning iqtisodiy xulqqa ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot O‘zbekiston misolida olib borilgan empirik kuzatuvlarga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar*: madaniyat, psixologiya, iqtisodiy xulq, iste’molchi, motivatsiya, identitet, qaror qabul qilish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ КУЛЬТУРОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОВЕДЕНИЕМ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические основы взаимосвязи между культурой и экономическим поведением потребителей. С точки зрения психологии анализируются такие факторы, как система ценностей потребителей, мотивационные механизмы, убеждения, социальная идентичность и эмоциональные состояния, формирующиеся под влиянием культуры. Основанное на принципах социальной, культурной и потребительской психологии исследование выявляет, каким образом культурный контекст влияет на принятие экономических решений. Эмпирические данные получены на основе наблюдений в Узбекистане.*

Ключевые слова*: культура, психология, экономическое поведение, потребитель, мотивация, идентичность, принятие решений.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CULTURE AND CONSUMERS’ ECONOMIC BEHAVIOR

Annotation. *This article explores the psychological foundations of the relationship between culture and consumers’ economic behavior. Based on psychological principles, it analyzes how value systems, motivational drivers, beliefs, social identity, and emotional states—shaped by culture—influence economic decision-making. Drawing on social, cultural, and consumer psychology, the study examines how cultural context affects consumer choices. Empirical data from Uzbekistan support the analysis.*

Keywords*: culture, psychology, economic behavior, consumer, motivation, identity, decision-making.*

Madaniyat inson xulq-atvorining har bir qatlami, jumladan, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ham muhim psixologik rol o‘ynaydi. Psixologik jihatdan, har bir iste’molchi individual tanlov qilayotganda ong osti omillar, qadriyatlar tizimi, ishonchlar va ijtimoiy identitet asosida harakat qiladi. Bu omillar esa jamiyat tomonidan avloddan avlodga o‘tkazilayotgan madaniy an’analar, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar, tarbiya shakllari va til orqali shakllanadi. Shunday ekan, madaniyatni inson xatti-harakatining, ayniqsa iste’mol xulqining psixologik asosi sifatida ko‘rish ilmiy asosga ega.

Iste’molchilarning iqtisodiy xulqini shakllantiruvchi omillar psixologiyada motivatsiya, e’tiqod, idrok, emotsional javob, qaror qabul qilish strategiyasi, kognitiv dissonans, ijtimoiy ta’sir, muqobil tanlov tahlili va ishonch kabi ko‘plab tushunchalar bilan bog‘liqdir. Har bir iste’molchi bu

jihatlarni o‘z madaniy kontekstida boshdan kechiradi. Masalan, kollektivistik madaniyatlarda iste’mol qarorlari ko‘proq guruhga, oilaga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, individualistik madaniyatlarda shaxsiy ehtiyoj, qulaylik va mustaqil tanlov ustuvor bo‘ladi. O‘zbekiston jamiyati madaniy jihatdan kollektivistik tuzumga yaqin bo‘lib, bu yerda oila va jamiyat fikri iste’mol qarorlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatning psixologik ta’siri iste’molchilarning ehtiyojlarini idrok qilishidan boshlab, ular orqali turtki topish, motivatsiya shakllanishi, e’tiqodlarning iqtisodiy hodisalarga nisbatan pozitsiyasini belgilash va nihoyat, real qarorga kelishgacha bo‘lgan butun jarayonni qamrab oladi. Ayniqsa, emotsional tajriba va xotiralar, ijobiy yoki salbiy assotsiatsiyalar, ijtimoiy maqomni tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoj kabi omillar doimiy ravishda iste’molchilarning harakatlariga yo‘naltiruvchi kuch sifatida ishlaydi. Psixologik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, odamlar nafaqat ehtiyojlarini qondirish uchun xarid qiladi, balki o‘z “men”ini mustahkamlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, shaxsiy qadriyatlarini namoyon etish uchun ham xarid qiladilar.

Psixologik jihatdan, inson o‘z ehtiyoj va istaklarini aniqlash, ular ustida o‘ylash, tanlovlar orasida solishtirish va qaror qabul qilish kabi murakkab kognitiv jarayonlar orqali iste’mol qiluvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayonlar esa insonning o‘z madaniy kontekstida shakllangan kognitiv sxemalari orqali boshqariladi. Masalan, Hofstede madaniy dimenziyalar nazariyasiga ko‘ra, yuqori konformizmga ega jamiyatlarda shaxslar odatda boshqa odamlarning fikriga tayanadi, past noaniqlikdan qochish madaniyatida esa odamlar ishonchli, sinovdan o‘tgan brendlarni afzal ko‘radi. Shunday qilib, iste’mol xulqining psixologik mexanizmlari turlicha madaniy kodlar orqali faoliyat yuritadi. Masalan, ba’zi madaniyatlarda katta chegirmalar katta foyda sifatida baholansa, boshqa jamiyatlarda bu tovar sifatining pastligidan dalolat berishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida chegirmali narxlar ko‘pincha iste’molchilar tomonidan imkoniyat deb qabul qilinadi, bu esa iste’molchilarni tezroq harakat qilishga undaydi.

Iste’molchilarning madaniy jihatdan shakllangan psixologik xususiyatlaridan yana biri bu "ijtimoiy maqom motivatsiyasi"dir. Ko‘plab jamiyatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham, odamlar xarid orqali o‘z maqomini ko‘rsatishga urinadi. Qimmatli, taniqli brendlar, hashamatli buyumlar, zamonaviy texnika vositalari xaridining psixologik asosi ko‘pincha shaxsning o‘zini jamiyatga qanday ko‘rsatmoqchiligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu ehtiyoj Maslou ehtiyojlar ierarxiyasining “o‘zini namoyon qilish” bosqichiga mos tushadi. Ammo, ayni ehtiyoj turlicha madaniy kontekstda turlicha shaklda ifodalanadi.

Madaniyatning iste’molchilar psixologiyasiga ta’siri, shuningdek, reklama va marketing vositalarida ham aks etadi. Biror madaniyatda emotsional yondashuv samaraliroq bo‘lsa, boshqa madaniyatda mantiqiy, faktlarga asoslangan reklama ko‘proq ishonch uyg‘otadi. O‘zbekistonlik iste’molchilar orasida hissiyotga yo‘g‘rilgan, ijtimoiy qadriyatlar, oila, mehr-oqibat aks etgan reklama roliklari kuchliroq psixologik ta’sirga ega bo‘ladi. Ayni paytda, madaniyatning iqtisodiy xulqqa ta’sirini tushunishda psixologik jihatdan asoslangan empirik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Keyingi bosqichda ushbu maqolada o‘tkazilgan kichik so‘rovnoma asosida tuzilgan ilmiy statistik jadval taqdim etiladi. Unda O‘zbekistonlik iste’molchilarning madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq ravishda iqtisodiy qaror qabul qilishdagi psixologik tendensiyalari ko‘rsatilgan. Quyida maqolaning ilmiy statistik jadvali va unga asoslangan psixologik tahlil keltiriladi. Jadvalda O‘zbekistonlik iste’molchilarning iqtisodiy qarorlarida madaniy qadriyatlarning ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalari berilgan.

1-jadval. Iste’molchilarning iqtisodiy qarorlariga madaniy qadriyatlarning ta’siri (N = 300)

Madaniy omil	“Kuchli ta’sir qiladi” (%)	“Qisman ta’sir qiladi” (%)	“Ta’sir qilmaydi” (%)
Oila fikri	72%	24%	4%
Diniy e’tiqod	58%	30%	12%
Mahalliy urf-odatlar	64%	28%	8%

Reklama orqali beriladigan emotsiya	53%	39%	8%
Brend obro‘si (ijtimoiy maqom)	69%	25%	6%
G‘arbiy madaniyat ta’siri	41%	34%	25%

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonlik iste’molchilar uchun oila fikri, brend obro‘si va mahalliy urf-odatlar iqtisodiy xulqqa sezilarli darajada ta’sir qiluvchi madaniy omillar hisoblanadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu holat kollektivistik jamiyatlarda keng tarqalgan “ijtimoiy ruxsat” hodisasi bilan bog‘liq. Iste’molchilar xarid qilishdan oldin yaqin qarindoshlar, do‘stlar yoki ijtimoiy guruhlar fikriga tayanadi, bu esa ijtimoiy moslashuv motivatsiyasi bilan izohlanadi.

Diniy e’tiqodning 58% hollarda kuchli ta’sir qilishi — inson ongida shakllangan axloqiy chegaralar va halol iste’mol tamoyillari asosida harakat qilinishini bildiradi. Bu esa iste’molchilarning diniy identiteti ularning iqtisodiy tanlovlariga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi. Ayniqsa oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliyaviy xizmatlar sohasida bu omil alohida rol o‘ynaydi.

Reklamada emotsional komponentlarning 53% hollarda kuchli ta’sir qilishi O‘zbekistonlik iste’molchilarning hissiy retseptivlik darajasi yuqori ekanini bildiradi. Shuningdek, g‘arb madaniyati ta’sirining 41% deb baholanishi esa globallashuv jarayonining ta’sirini, lekin hali ham mahalliy qadriyatlarning ustuvorligini ko‘rsatadi. Bu natijalar iste’molchilar iqtisodiy xulqining shakllanishida nafaqat iqtisodiy foyda yoki ratsional qarorlar, balki chuqur psixologik va madaniy motivlar hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Madaniyatning inson idrokiga, xulq-atvoriga va qaror qabul qilish tizimiga ta’siri haqida so‘z yuritar ekanmiz, madaniy identitet tushunchasiga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Madaniy identitet bu — shaxsning o‘zini muayyan madaniyatga mansub deb bilishi, o‘z madaniy qadriyatlariga, urf-odatlariga, tiliga va ijtimoiy me’yorlariga chuqur bog‘liqligidir. Psixologiyada madaniy identitet iste’molchilik qarorlarida asosiy determinantlardan biri sifatida qaraladi. Chunki u shaxsning “kim”ligi va “qanday yashashi” haqidagi tasavvurini shakllantiradi. Shu sababli ham iste’mol mahsulotlari faqat moddiy qiymatga ega bo‘lmay, balki shaxsning o‘zini namoyon etish vositasiga aylanadi.

Shaxs madaniy kodlar asosida ijtimoiy maqomini belgilashga intiladi. Bu, ayniqsa, urbanizatsiyalashgan shahar muhitida yaqqol namoyon bo‘ladi. Psixologik jihatdan, iste’molchilar o‘z ehtiyojlari va ijtimoiy maqomi o‘rtasida doimiy muvozanat saqlashga intiladi. Ular xarid qilayotgan mahsulotlar orqali qanday signal uzatayotganini ongli yoki ong osti darajasida nazorat qiladi. Bunday vaziyatda “men-imiji” (self-image) va “ideal men-imiji” (ideal self-image) tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Agar shaxs biror mahsulotni xarid qilish orqali ideal men-imijiga yaqinlashishini his etsa, u xarid qilishga moyil bo‘ladi. Bu esa marketingda "psixologik moslik" konsepsiyasini ilgari suradi.

Iqtisodiy xulqda kuzatiladigan emotsional impulslar ham madaniy stereotiplar orqali boshqariladi. Masalan, “xarid qilmasang, yo‘qolib ketadi” degan xabarlar O‘zbekiston iste’molchilari orasida ko‘proq shoshqaloqlik uyg‘otadi. Chunki bu jamiyatda vaqt va imkoniyatni boy bermaslik qadriyati kuchli ijtimoiy axloqiy me’yor sifatida shakllangan. Shu sababli emotsional marketing vositalarining samaradorligi bevosita madaniy kodlarga mos kelishi bilan bog‘liqdir.

Psixologik yondashuvda yana bir muhim element — “ijtimoiy taqqoslash nazariyasi”dir. Bu nazariyaga ko‘ra, odamlar o‘z xulqini atrofdagi odamlarnikiga nisbatan baholaydi. Iste’molchilarning xarid strategiyasi ko‘pincha do‘stlari, qarindoshlari yoki mashhur shaxslar xaridlariga ergashish orqali shakllanadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan hozirgi davrda bu ta’sir yanada kuchaydi. Shaxs o‘zini ijtimoiy guruhiga tegishli deb his qilish orqali unga xos bo‘lgan iste’mol modelini qabul qiladi. Bu esa madaniyatni ijtimoiy muhit orqali mustahkamlaydi va iqtisodiy xulqdagi psixologik kechinmalarni boshqaradi. Iste’molchilarning iqtisodiy xulqini shakllantiruvchi yana bir muhim psixologik omil — bu kognitiv dissonans holatidir. Leon Festinger tomonidan ishlab chiqilgan bu tushuncha, iste’molchining o‘z qarori va haqiqiy natijalar o‘rtasida ziddiyat sezganida yuzaga keladigan psixologik noqulaylikni anglatadi. Madaniyat bu dissonans darajasiga qanday

munosabat bildirilishini belgilaydi. Masalan, kollektivistik jamiyatlarda inson o‘z qaroridan qoniqmasa ham, uni oqlovchi ijtimoiy sabab topishga harakat qiladi: “Boshqalar ham shunday qildi”, “Shu yerda yashayotganlarning hammasi shunaqa brend oladi” va hokazo. Bu ijtimoiy moslashuv zarurati madaniy me’yorlar bilan psixologik ehtiyojlar uyg‘unligidan dalolat beradi. Shuningdek, iste’molchilar tanlov imkoniyatlari ortganda ko‘proq stress his qilishlari mumkin. Bu hodisa "paradoks tanlovi" (choice overload) deb nomlanadi. O‘zbekistonlik iste’molchilar, ayniqsa yuqori ijtimoiy qatlam vakillari, tanlov erkinligi ortgan sari, qadriyatlar bilan mos keladigan variantni topishga intiladi. Bu jarayonda psixologik tahlil asosida madaniyatga mos keluvchi tanlov filtrlari (masalan, “mahalliy mahsulot”, “halol sertifikati bor”, “jamiyatga mos dizayn”) faol bo‘ladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy xulqdagi psixologik moslashuv mexanizmlari pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz kabi stressli holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, COVID-19 davrida iste’molchilarning ko‘pchiligi zaruriy ehtiyojlarga yo‘naltirilgan va ijtimoiy himoya beruvchi mahsulotlarga afzallik bergan. Bu, o‘z navbatida, psixologik xavfsizlik ehtiyoji kuchayganini anglatadi. Maslou nazariyasiga ko‘ra, odamlar xavfsizlikni yo‘qotganida yuqori bosqichdagi ehtiyojlar (status, estetik brendlar) orqaga suriladi. O‘zbekiston sharoitida bu bosqichda odamlar oila, sog‘liq va halollik bilan bog‘liq belgilarni ko‘proq izlashgan.

Iste’molchilar o‘zlarining iqtisodiy qarorlarini har doim ongli tanlov sifatida baholamaydilar. Madaniyat orqali singdirilgan avtomatik javoblar, shaxsiy me’yorlar, ota-onadan olingan namunalar, reklama orqali takrorlanayotgan madaniy simvollar orqali ong osti darajasida shakllanadigan psixologik tendensiyalar iqtisodiy xulqqa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, iqtisodiy xulq psixologik reflekslar, madaniy me’yorlar va shaxsiy identitet sintezidan iborat bo‘ladi.

Psixologik yondashuvda iste’molchilarning iqtisodiy qarorlariga bo‘lgan ta’sirni tushunishda “ichki va tashqi motivatsiya” kontseptsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya shaxsning o‘z ichki qoniqishi va qadriyatlariga asoslangan tanlovini bildiradi. Masalan, bir kishi ekologik toza mahsulot sotib olishga qaror qilsa, bu uning ichki e’tiqodi va tabiatga bo‘lgan hurmatidan kelib chiqadi. Tashqi motivatsiya esa ijtimoiy bosim, obro‘ yoki mukofot kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Madaniyat bu ikki motivatsiya o‘rtasidagi muvozanatga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek jamiyatida tashqi motivatsiya — “odamlar nima deydi?” omili — ko‘p hollarda ichki motivatsiyadan ustun turadi. Bu psixologik jihatdan ijtimoiy normativlarga sodiqlik bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, iste’molchilarning moliyaviy qarorlarida xavfni qabul qilish darajasi (risk-tolerans) ham madaniyat orqali shakllanadi. Individualistik jamiyatlarda iste’molchilar tavakkal qilishga moyil bo‘lishsa, kollektivistik madaniyat vakillari ko‘proq ehtiyotkorlik bilan harakat qiladilar. O‘zbek madaniy kontekstida esa “halol rizq”, “taqdirga ishonch” va “isrof qilmaslik” kabi qadriyatlar iste’molchilarning moliyaviy xatti-harakatlarida muhim rol o‘ynaydi. Natijada, odamlar yuqori darajadagi kreditlar olish yoki tavakkal investitsiyalar qilishdan ko‘ra, barqaror va uzoq muddatli manfaatli xaridlarni afzal ko‘radilar.

Boshqa tomondan, iqtisodiy xulqdagi madaniy ta’sirning yana bir jihati — vaqtni boshqarish psixologiyasi bilan bog‘liq. Masalan, vaqtni sarmoya sifatida ko‘rish individualistik jamiyatlarda keng tarqalgan bo‘lsa, kollektivistik madaniyatda vaqt ko‘proq insoniy munosabatlar va an’analarni asrash vositasi sifatida qaraladi. O‘zbek jamiyatida bu o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: xarid qilish jarayoni shunchaki mahsulot olish emas, balki ijtimoiy munosabat, muomala, “gaplashib olish”, “tanishdan olish” tajribasidir. Bu holat psixologik jihatdan ishonch va sadoqat kabi qadriyatlar asosida shakllanadi.

Shuningdek, iste’molchilarning brendga nisbatan xatti-harakatlari ham madaniy xususiyatlarga bog‘liqdir. “Brendga sadoqat” (brand loyalty) psixologik jihatdan odat va emotsional bog‘lanish orqali shakllanadi. Bu holat O‘zbekistonda ko‘pincha oilaviy va avloddan-avlodga o‘tadigan tavsiyalar orqali mustahkamlanadi. Shaxs bir brendga sodiq bo‘lish orqali o‘zini o‘sha guruhning bir qismi deb his qiladi. Bu jarayonda emotsional barqarorlik, ishonch va “bizning brendimiz” g‘oyasi muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, iste’molchilar qabul qilayotgan mahsulotlar va xizmatlar ularning madaniy dunyoqarashi va estetik qadriyatlariga muvofiq bo‘lishini kutishadi. Bu “madaniy moslik” konsepsiyasini yuzaga keltiradi. Agar mahsulot yoki xizmat mahalliy qadriyatlarga mos bo‘lmasa, u holda

u qanday sifatli yoki foydali bo‘lmasin, psixologik qabul qilinmaydi. Shu sababli, reklama strategiyalari ham mahalliy psixologik va madaniy kodlarga mos tarzda ishlab chiqilishi zarur. O‘zbek jamiyatida bu — din, oila, or-nomus, halollik, sadoqat va mehmondo‘stlik kabi tushunchalar bilan bog‘liq.

Ushbu maqolada madaniyat va iste’molchilarning iqtisodiy xulqi o‘rtasidagi murakkab va o‘zaro ta’sirli psixologik mexanizmlar chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, madaniyat inson ongida qadriyatlar, normativlar va stereotiplar tizimini shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida iste’molchilarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishida markaziy rol o‘ynaydi. Iste’molchilar moliyaviy tanlovlar, brendga bo‘lgan munosabat, xarid strategiyalari va xizmatlar qiymatini baholashda o‘z madaniy iqlimi, ijtimoiy guruhga mansublik hissi, shaxsiy identiteti va emotsional ehtiyojlariga tayanadi.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kollektivistik madaniyat doirasida iste’molchilar ko‘proq ijtimoiy tasdiqlash, guruhga tegishlilik, an’anaviy qadriyatlar va tashqi motivatsiyalarga asoslangan iqtisodiy xulq namoyon qiladilar. Psixologik jihatdan esa bu qarorlar kognitiv dissonans, brend sadoqati, ijtimoiy taqqoslash va xavfsizlik ehtiyoji kabi holatlar bilan bog‘liq. Statistik jadvalda ko‘rsatilganidek, yoshlar va kattalar o‘rtasida xarid qilish motivatsiyalari madaniy ijtimoiylashtirish orqali sezilarli darajada farq qiladi.

Maqolada aytilgan fikrlar iqtisodchilar, psixologlar, marketing mutaxassislari va ijtimoiy fanlar vakillari uchun foydali nazariy va amaliy asos bo‘la oladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar natijasi madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda marketing strategiyalarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. A.Q.Qurbonov (2022). Iste’molchilik psixologiyasi asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. A.S. Akhmedova (2021). Madaniyat va iqtisodiy xatti-harakatlar: O‘zbek jamiyatida o‘ziga xosliklar. Toshkent: Fan.
3. Maslow, A. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review.
4. Hofstede, G. (2001). Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. SAGE Publications.
5. Triandis, H.C. (1995). Individualism and Collectivism. Westview Press.

Qo‘chqarov Musajon Tillaboyevich
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika va psixologiya,mehnat ta’lim tehnologiyalari”
kafedrasi dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi
E-mail:mtqochqorov@gmail.com

EKOLOGIK ONGNING IJTIMOIY ONG TIZIMIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada ekologik ongning ijtimoiy ong tizimidagi o‘rni, uning tarixiy shakllanishi, mazmuni, tarkibiy jihatlari va boshqa shakllar bilan o‘zaro aloqasi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Ekologik ong ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida tabiatga bo‘lgan munosabat, ekologik mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar va madaniy tafakkur bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi. Maqolada ekologik ongni shakllantirishning zamonaviy metodologik yondashuvlari, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik ta’lim orqali ushbu ongning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati yoritiladi. Ekologik ongni ijtimoiy ong shakli sifatida tahlil qilish, uni mustahkamlash bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashda yordam beradi. Maqolada turli falsafiy, psixologik va pedagogik manbalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ong, ijtimoiy ong, ekologik madaniyat, ekologik qadriyat, barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik mas’uliyat, axloqiy ong, ong turlari, zamonaviy ta’lim, ijtimoiy ong shakllari.*

THE ROLE OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS IN THE SYSTEM OF SOCIAL CONSCIOUSNESS

Abstract. *This article analyzes the role of ecological consciousness within the system of social consciousness, its historical development, content, structural aspects, and interrelation with other forms of consciousness based on scientific and theoretical grounds. It emphasizes the close connection between ecological consciousness, as an essential component of social consciousness, and attitudes toward nature, ecological responsibility, moral values, and cultural thinking. The article highlights the modern methodological approaches to shaping ecological consciousness, its significance in social life through ecological culture, the concept of sustainable development, and ecological education. Analyzing ecological consciousness as a form of social consciousness helps identify promising directions for its consolidation. The article also examines various philosophical, psychological, and pedagogical sources.*

Keywords: *ecological consciousness, social consciousness, ecological culture, ecological values, sustainable development, ecological education, ecological thinking, ecological responsibility, moral consciousness, types of consciousness, modern education, forms of social consciousness.*

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация. *В статье проводится научно-теоретический анализ роли экологического сознания в системе социального сознания, его исторического становления, содержания, структурных аспектов и взаимосвязи с другими формами сознания. Подчеркивается тесная связь экологического сознания как важной составляющей социальной сферы с отношением к природе, экологической ответственностью, моральными ценностями и культурным мышлением. В статье освещаются современные методологические подходы к формированию экологического сознания, его значение в социальной жизни через экологическую культуру, концепцию устойчивого развития и экологическое образование. Анализ экологического сознания как формы социального сознания способствует выявлению перспективных направлений его укрепления. Также рассматриваются различные философские, психологические и педагогические источники.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, социальное сознание, экологическая культура, экологические ценности, устойчивое развитие, экологическое воспитание, экологическое мышление, экологическая ответственность, моральное сознание, виды сознания, современное образование, формы социального сознания.*

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida ekologik muammolar keskinlashgan, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanat buzilgan davr sifatida ajralib turadi. Global iqlim o‘zgarishi, suv va havo ifloslanishi, bioxilma-xillikning kamayishi, cho‘llanish, yovvoyi hayvonlar yashash muhitining yo‘qolishi kabi ko‘plab ekologik tahdidlar insoniyatni ekologik ongni tubdan qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. Bu holat nafaqat atrof-muhitni boshqarishning iqtisodiy yoki texnik yondashuvlarini talab qiladi, balki inson tafakkurining o‘zgarishini ham zarur qiladi. Zero, ekologik inqiroz insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy ongi tarkibini qayta shakllantirishni talab etmoqda.

Shu sababli ekologik ong tushunchasi ijtimoiy ong shakllari tizimida alohida o‘rin egallaydi. U insonning ekologik muammolarga bo‘lgan axloqiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi ong shakli bo‘lib, uning rivoji jamiyatning umumiy ong darajasi, ekologik ta’lim sifati va ommaviy axborot vositalarining yoritish uslublari bilan bevosita bog‘liqdir. Ekologik ongning rivoji orqali insonlar nafaqat tabiatni anglaydi, balki o‘zlarining ekologik javobgarligini ham chuqur his eta boshlaydilar [5, 23]. Shu bilan birga, ekologik ongni jamiyatdagi boshqa ong shakllari (masalan, siyosiy, diniy, axloqiy ong) bilan o‘zaro ta’siri orqali tahlil qilish ham muhimdir, chunki bu uning ijtimoiy strukturalardagi o‘rnini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi [10, 18].

Ushbu tadqiqotda ekologik ongni ijtimoiy ong tizimida tahlil qilish uchun bir nechta fanlararo yondashuvlar asos qilib olindi. Avvalo, falsafiy yondashuv orqali ekologik ongning mohiyati, uning qadriyatlar tizimidagi o‘rni va inson tafakkuridagi ifodasi chuqur tahlil qilindi. Falsafa ekologik ongni insoniyatning tabiat bilan o‘zaro munosabatidagi ma’naviy-axloqiy mezonlar kontekstida o‘rganadi [1, 45].

Bundan tashqari, sotsiologik yondashuv orqali ekologik ongning jamiyatdagi namoyon bo‘lish shakllari, ommaviy ong, ijtimoiy institutlar va siyosiy strukturalar bilan aloqasi o‘rganildi. Ekologik ong jamiyatda qanday shakllanadi, qanday ijtimoiy omillar unga ta’sir qiladi — bu savollar sotsiologik tahlil yordamida ochib berildi [4, 67].

Tadqiqotda psixologik yondashuv ham muhim o‘rin tutdi. Bu yondashuv orqali ekologik ongning shaxs ongidagi ifodasi, emotsional jihatlari, motivatsiya va qaror qabul qilishdagi roli ko‘rib chiqildi.Shuningdek, quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

- Tarixiy tahlil: ekologik ong evolyutsiyasining asosiy bosqichlari.
- Diskursiv tahlil: ekologik masalalarning ommaviy ongdagi ifodasi.
- Komparativ tahlil: ekologik ongning turli madaniyat va mintaqalardagi ko‘rinishlari.

Manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosatiga oid rasmiy hujjatlar, xalqaro ekologik deklaratsiyalar, falsafiy va ijtimoiy-nazariy adabiyotlar, ekologik ongni o‘rgangan zamonaviy tadqiqotlar qo‘llanildi [6, 10].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik ong quyidagi jihatlar bilan ijtimoiy ong tizimida ajralib turadi:

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik ong quyidagi jihatlar bilan ijtimoiy ong tizimida ajralib turadi:

- Ekologik ong faqatgina tabiat haqidagi sathiy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi. U ekologik qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy hissiyotlar, ekologik ongli faoliyat, ekologik odatlar va xatti-harakatlar bilan boyitilgan kompleks ong shaklidir. Bu jihat ekologik ongni axloqiy va madaniy tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi hamda uni boshqa ong shakllaridan farqlantiradi [3, 51].
- Ekologik ongning asosini tashkil etuvchi eng muhim elementlardan biri bu axloqiy mas’uliyatdir. Insonning tabiat oldidagi javobgarlik hissi, shaxsiy e’tiqodlari va tabiatni qadrlashga asoslangan qarashlari ekologik ongning axloqiy qirrasini belgilaydi. Bu esa ekologik ongni ijtimoiy ong tizimidagi axloqiy ong shakli bilan yaqinlashtiradi [8, 73].

- Ekologik ong bugungi globallashuv davrida insoniyat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

- ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish, avlodlararo adolatni saqlash kabi tamoyillar asosida shakllanadi. Bu esa uni davlat siyosati va xalqaro rivojlanish strategiyalarining asosiy komponentiga aylantiradi [6, 122].

- Ekologik ong nafaqat individual ong darajasida, balki ijtimoiy va ommaviy ong shaklida keng namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ekologik muammolarni yoritishda ommaviy axborot vositalari, kinofilmlar, san'at va ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir. Bu vositalar orqali ekologik ong jamoaviy ongga aylanadi va keng jamoatchilik ongiga singadi [2, 37].

- Ekologik ong siyosiy qarorlar, qonunchilik tashabbuslari, milliy strategiyalar va madaniy qadriyatlar bilan bevosita integratsiyalashgan. Ekologik qadriyatlarning madaniyatda o'z ifodasini topishi va siyosiy dasturlarda aks etishi ekologik ongni ijtimoiy ong tizimidagi muhim shakllardan biriga aylantiradi. Bu esa ekologik ongni ijtimoiy tuzilmalardagi institutsional ong shakllari bilan chambarchas bog'laydi [9, 88].

- Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ekologik ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli o'laroq, insonning nafaqat tashqi muhit, balki ichki axloqiy dunyosi bilan ham bevosita bog'liqdir.

- ekologik ong tabiatni anglashning o'ziga xos shakli sifatida insonning ichki dunyosi, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mas'uliyati va e'tiqodi bilan uyg'unlashadi. Bu uyg'unlik ekologik ongni falsafiy va axloqiy yondashuvlar orqali tahlil qilishni zarur qiladi [10, 25].

Bundan tashqari, ekologik ong jamiyatda shakllanadigan ijtimoiy ong shakli bo'lib, u turli omillar - xususan, ta'lim tizimining sifati, ekologik axborot manbalarining boyligi, OAV orqali beriladigan ekoma'lumotlar sifati va siyosiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy institutlarning ekologik masalalarga bo'lgan yondashuvi ham ekologik ong shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ekologik ongni ijtimoiy ong tizimida murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilishga asos bo'ladi [7, 102]Ekologik ongni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Ekologik ta'lim dasturlarining sifati;
- Ommaviy axborot vositalarining ekologik masalalarni yoritishdagi roli;
- Ekologik etikani shakllantirishga qaratilgan madaniy tashabbuslar;
- Ekologik qonunchilikning mavjudligi va amaldagi ijrosi [5, 38].

Ushbu jihatlar ekologik ongni nafaqat bilim va axborotga asoslangan ong shakli, balki insoniyatning madaniy merosi, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi va ongli faoliyatiga asoslangan ko'p qatlamli fenomen sifatida ko'rib chiqishga undaydi. Ekologik ong faqat rasmiy ta'lim bilan emas, balki oilaviy tarbiya, diniy-normativ tizimlar, san'at, urf-odatlar va ommaviy madaniyat orqali ham shakllanadi. Bu holat ekologik ongning mustahkam ijtimoiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ekologik ongni ijtimoiy ongning yuqori shakllanish bosqichi sifatida baholash mumkin. Chunki u inson tafakkurining eng murakkab va ongli shakllaridan biri bo'lib, nafaqat real ekologik muammolarga, balki ularning axloqiy, madaniy va siyosiy oqibatlariga ham javob berishga qaratilgan [3, 97].

Xulosa qilib aytganda,ekologik ong ijtimoiy ong tizimining integral va murakkab qismidir. U insonning ekologik muammolarga munosabatini shakllantiruvchi, axloqiy qadriyatlar, madaniy an'analar va siyosiy qarashlar bilan uyg'unlashgan ijtimoiy ong shaklidir. Ekologik ong darajasi jamiyatning madaniy rivojlanish darajasi, ta'lim sifati, siyosiy iqlimi va ekologik masalalarga berilgan jamoaviy baho bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan ekologik ong orqali jamiyat o'zining ekologik javobgarligini anglab, barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etishga intiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik ongni mustahkamlash uchun quyidagi strategiyalar zarur deb hisoblanadi:

- maktabgacha va maktab ta'lim tizimiga ekologik tarbiyani chuqur joriy etish;
- yoshlarda ekologik mas'uliyatni shakllantirish uchun interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish;
- ekologik madaniyatni targ'ib qiluvchi ommaviy va san'at loyihalarini qo'llab-quvvatlash.
- ekologik ongni rivojlantirish orqali inson va jamiyatning tabiatga bo'lgan

munosabatini uyg‘unlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish sari qadam qo‘yish mumkin. Ekologik ong ijtimoiy ongning faollashtiruvchi mexanizmlaridan biri sifatida insonlarning ekologik muammolarga ongli va mas’uliyatli yondashuvini shakllantiradi. U hayot tarzini qayta ko‘rib chiqish, yashash muhitiga ongli munosabatda bo‘lish, qaror qabul qilishda ekologik mezonlarga amal qilishga undaydi. Shu bilan birga, ekologik ongning rivoji global darajadagi ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro ekologik siyosatga fuqarolik ishtirokini kuchaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayeva Z. Ekologik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Dunlap R. E., Van Liere K. D. The "New Environmental Paradigm". // Journal of Environmental Education, 1978.
3. Dobson A. Green Political Thought. – Routledge, 2000.
4. Nasr S. H. Man and Nature: The Spiritual Crisis of Modern Man. – ABC International Group, 2007.
5. G‘ulomov A. Ekologik tafakkur va insoniyat kelajagi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
6. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford University Press, 1987.
7. Leopold A. A Sand County Almanac. – Oxford University Press, 1949.
8. Saidov R. Ekologik ong va ekologik madaniyat. // Yosh biologlar jurnali, 2018, No. 3, B. 12–16.
9. Kasser T. Ecological Sustainability and Human Values. // Journal of Social Issues, 2009.
10. O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosati asoslari. Rasmiy hujjatlar to‘plami, 2023.
11. United Nations. Report of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm). – 1972.

Qo‘shnazarova O‘g‘iljon Rustambek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat Universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHGA QARATILGAN SAMARALI PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy nizolarni hal qilishga yo‘naltirilgan samarali psixologik yondashuvlar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Oilaviy muhitda yuzaga keladigan nizolar - o‘zaro munosabatlarning buzilishi, kommunikatsiya muammolari, rolda noaniqlik va shaxsiy ehtiyojlarning qondirilmasligi kabi omillar bilan bog‘liq. Tadqiqotda eng ko‘p qo‘llaniladigan psixologik yondashuvlar - sistemali oilaviy terapiya, kommunikativ yondashuv, muammoga yo‘naltirilgan maslahat berish, kognitiv-harakat psixoterapiyasi va mediatsiya jarayoni - mazmunan yoritilib, ularning afzalliklari va qo‘llash shartlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, yondashuvlarning amaliy samaradorligi real misollar asosida baholanib, oilaviy nizolarni hal qilishda integrativ yondashuvning ustuvorligi asoslab beriladi. Ushbu ish psixologlar, maslahat markazi mutaxassislari va oilaviy muammolar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *nizo, er-xotin, yechim, kommunikativ muammolar, taklif, moliyaviy qiyinchiliklar, muloqot.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗРЕШЕНИЮ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. *В данной статье системно анализируются эффективные психологические подходы, направленные на разрешение семейных конфликтов. Конфликты, возникающие в семейной среде, связаны с нарушением межличностных отношений, проблемами коммуникации, неопределённостью ролей и неудовлетворённостью личных потребностей. В исследовании рассматриваются наиболее часто применяемые психологические подходы — системная семейная терапия, коммуникативный подход, проблемно-ориентированное консультирование, когнитивно-поведенческая психотерапия и медиативный процесс. Описаны их преимущества и условия применения. Также в статье оценивается практическая эффективность данных подходов на основе реальных примеров, подчёркивается приоритетность интегративного подхода в разрешении семейных конфликтов. Работа имеет как теоретическое, так и практическое значение для психологов, специалистов консультационных центров и других профессионалов, работающих с семейными проблемами.*

Ключевые слова: *конфликт, супруги, решение, коммуникативные проблемы, предложение, финансовые трудности, общение.*

EFFECTIVE PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO RESOLVING FAMILY CONFLICTS

Annotation. *This article provides a systematic analysis of effective psychological approaches aimed at resolving family conflicts. Conflicts within the family environment are often associated with disrupted interpersonal relationships, communication issues, role ambiguity, and unmet personal needs. The study examines the most commonly used psychological approaches — systemic family therapy, communicative approach, problem-oriented counseling, cognitive-behavioral psychotherapy, and the mediation process. Their advantages and conditions for application are discussed in detail. The article also evaluates the practical effectiveness of these approaches through real-life examples and highlights the significance of an integrative approach in resolving family conflicts. This work holds both theoretical and practical value for psychologists, counseling center professionals, and other specialists dealing with family-related issues.*

Keywords: *conflict, spouses, solution, communicative issues, proposal, financial difficulties, communication.*

Kirish. Oila ijtimoiy institut sifatida nafaqat jamiyat barqarorligini ta’minlaydi, balki u bilan birgalikda evolyusiyalanadi, yangiliklar va o‘zgarishlarga moslashadi. Shu bilan birga, oila insonning shaxs sifatida shakllanishi boshlanadigan mikroolam, shaxsning dastlabki ijtimoiy moslashuvi kechadigan maskan sifatida namoyon bo‘ladi. U insoniylik, o‘zaro tushunish, qalbdan hamdardlik va hamdardlikka o‘rgatuvchi maktab hisoblanadi.

Biroq ana shunday yaqin va intensiv o‘zaro ta’sir tizimida tortishuvlar, nizolar va inqirozlarning yuzaga kelishi muqarrardir. Shaxs va oila o‘rtasidagi ziddiyatlardan qochib bo‘lmaydi. Bunday ziddiyatlar yuzaga kelganda inson ularni hal etish usulini tanlash zarurati oldida qoladi.

Oilaviy nizolar - bu oila a’zolari o‘rtasida qarama-qarshi yo‘naltirilgan motivlar, maqsadlar yoki qarashlar to‘qnashuvi asosida yuzaga keladigan to‘qnashuvdir[2].

Oilaviy munosabatlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular ikki jihatning juda murakkab uyg‘unlashuvi mahsuli hisoblanadi. Bunday turdagi nizolar yuqori darajadagi hissiylik, har bir bosqichning tezkor kechishi, kurash shakllari va ularni hal etish usullari bilan ajralib turadi.

Oila ichidagi munosabatlarning xususiyati ko‘plab omillarga bog‘liq. Bular oilaning ijtimoiy maqomi, uning tarkibi va hayotiy sikli, a’zolarning yoshi, ularning hissiy holati darajasi, intellekt saviyasi va ochiq muloqotga bo‘lgan qobiliyati kabi omillardir [3].

Oilaviy munosabatlarga juda katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri - moddiy-iqtisodiy holatdir. Aksariyat oilalarning moddiy ahvolining yomonlashuvi, uning a’zolari ijtimoiy maqomining o‘zgarishi, jamiyat va shaxs qadriyatlar iyerarxiyasidagi o‘zgarishlar hamda boshqa ko‘pgina sabablar oilaviy hayotdan qoniqish darajasining pasayishiga, natijada esa oilada nizoli holatlarning ortishiga olib keladi. Nikoh va oilaviy munosabatlar jamiyatdagi ijobiy hamda salbiy holatlarni aks ettiradi..

Oilaviy munosabatlardagi nizolarning sabablari turfa va ko‘p jihatlidir. Shuni yodda tutish kerakki, «oilaviy munosabatlarning sog‘lom faoliyat yuritishi uchun nizolardan qochish emas, balki ularni oqilona boshqarishni o‘rganish muhimdir»[4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O‘zbekistonda oilaviy nizolar masalasini psixologik nuqtayi nazardan o‘rgangan bir qancha olim va amaliyotchi mutaxassislar mavjud bo‘lib, ulardan V.Karimova, D.Abdullayeva, N.Salayeva, D.Urazbayeva, R.Razakovalardir,

D.Abdullayeva 117oppish nikohdagi psixologik muammolar, oila ichidagi rol va funksiyalar, oilaviy nizolar sabablari va ularning yechimiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida oilaviy nizolarni boshqarishning quyidagi muhim bosqichlarni ajratib ko‘rsatadi[1]:

1. Oilaviy nizolarning oldini olish (profilaktikasi);
2. Nizolarni tartibga solish va hal qilish.

Nizolarga oqilona yondashilganda, oilaviy munosabatlar rivojlanadi va vaqt o‘tishi bilan to‘plangan tarangliklar yo‘qoladi.

Nizolarning oldini olish — bu ularning kelib chiqishi va oilaviy hayotning muayyan tomoni yoki unsuriga halokatli ta’sir ko‘rsatishining oldini olishga qaratilgan faoliyatdir. Ya’ni, bu — kelajakda nizo manbaiga aylanishi mumkin bo‘lgan shaxslar yoki muhit omillariga ta’sir ko‘rsatishdir.

Psixologiyada nizolarni hal qilishning quyidagi variantlari keng qo‘llaniladi:

Raqobat usuli – muloqot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o‘z qo‘liga olishga harakat qilishini anglatadi.

Yon berish – Yuqorida aytilgan holatga o‘xshashroq, biroq undan ko‘ra farqliroq holat hisoblanadi. Bunda shaxs muloqot jarayonida yon berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb hisoblaydi.

Passivlik – biron masalani hal etish lozim bo‘lgan vaziyatlardan shaxsning o‘zini olib qochishi, turli bahonalar bilan qarorni orqaga surishini anglatadi. Ko‘pincha bu xil harakat nizoli vaziyatlarni hal etish jarayonida namoyon bo‘lishi mumkin.

Kompromiss – ya'ni kelishuvchanlik. Bahsli vaziyatlarda "Sen ham yutqizma, men ham yutqizmay" qabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan ikkala tomon ham xafa bo'lmay chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bo'lgan 118oppis.

Hamkorlik – bu holat muloqot jarayonida ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo'lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir.

Oilaviy munosabatlar ishonchli bo'lishi lozim. O'z xatti-harakatingizda destruktiv (vayron qiluvchi) taktikalardan qochish kerak. Oilaviy muloqotning samarali profilaktikasi uchun pozitiv taktikalardan foydalanish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, nizoni yakunlashdan tashqari, uni tartibga solish, so'nishi, bartaraf etilishi, shuningdek, boshqa bir nizoga aylanib ketishi kabi shakllari ham mavjud. Biroq shunday shaxslararo nizolarning eng ideal va qulay tugash modeli – bu uni oqilona hal qilish hisoblanadi.

Eng asosiysi, nizoni hal qilishning boshida har ikkala tomon ham umumiy qadriyatlarni anglashi va oilaviy munosabatlarni saqlab qolish istagiga ega bo'lishi lozim. Agar bunday omillar mavjud bo'lmasa, oilaviy munosabatlarni saqlash va nizoni ijobiy hal etish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish qiyinlashadi.

Nizoni hal etishda uning kelib chiqishiga sabab bo'lgan muammoni bartaraf etish juda muhim. Oilaviy nizoni hal etishni xohlovchi har bir a'zo, avvalo, analitik bosqichda o'z pozisiyasini va qarshi tomon pozisiyasini chuqur tahlil qilishi, yuzaga kelgan vaziyat bo'yicha shaxsiy qarashlarini teran o'rganishi va o'z xatolarini anglashi lozim.

Nizoni mustaqil hal qilishga urinishlardan tashqari, kurashuvchi tomonlar uchinchi shaxsdan yordam so'rashi ham mumkin. Bu shaxslar sifatida psixologlar, konfliktologlar, mediatorlar, shuningdek, yuridik ta'sir ko'rsatuvchi davlat muassasalari ishtirok etishi mumkin. Mediator, konfliktolog va psixologlar asosan hissiy tomonni hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu juda muhim, chunki hech qaysi davlat organi nizoning emosional jihatini hal qila olmaydi. Shu sababli, shiddatli oilaviy nizolarda oilaviy psixologiya (yoki konfliktologiya) sohasida mutaxassis bo'lgan shaxsning ishtirok etishi haqiqatdan ham zarur.

Davlat muassasalariga murojaat qilish — bu oilaning nizoni mustaqil hal qilishga qodir emasligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu kurash boshqa hech qanday usul bilan 118oppish118 bo'lmasligining signali hamdir. Aslida esa, davlat muassasalari nizoni hal qilishga emas, balki uni to'xtatishga qaratilgan faoliyat yuritadi.

Taxlil va natijalar (Analysis and results). Nizolarning profilaktikasi — bu nizolarni boshqarishning eng samarali usuli hisoblanadi. U kamroq kuch, mablag' va vaqt talab qiladi hamda hatto konstruktiv ravishda hal etilgan nizo ham keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan eng minimal destruktiv oqibatlarni ham oldini oladi[5].

Nizolarning oldini olish — bu ijtimoiy o'zaro aloqaga kirishuvchi sub'yektlarning hayotiy faoliyatini shunday tashkil etishki, u ular o'rtasida nizolar yuzaga kelish ehtimolini istisno qilsin yoki minimal darajaga tushirsin. Har bir aniq holatda individual yondashuv talab etiladi. Biroq har bir oilada muvofaqatni saqlashga yordam beruvchi umumiy profilaktik usullar mavjud. Har qanday oila uchun profilaktik faoliyatning muhim bosqichlaridan biri — bu nizolarni keltirib chiqaradigan omillardan ehtiyot bo'lish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Biz o'tkazgan tadqiqotlarimizga asoslanib nizolarning oldini olish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni e'tiboringizga havola qilmoqchimiz:

Muloqot. Oilaviy nizolarning oldini olishda eng muhim jihatlardan biri — bu oila 118oppis samarali muloqotning mavjudligidir. Yaqinlaringiz bilan suhbatlashish uchun doimo vaqt ajrating. Faol tinglash, muammo va hissiyotlarni ochiqcha muhokama qilish ko'pgina nizolarning oldini olishga yordam beradi. Bolalarga alohida e'tibor qarating, ularning fikrini eshiting va o'z his-tuyg'ularini ifoda etishi uchun imkoniyat yaratib bering.

Chegara va me'yorlarni belgilash. Oilada aniq chegaralar va kutilmalarni belgilash tushunmovchiliklar va nizolarni oldini olishda yordam beradi. Oilaning har bir a'zosi qaysi qoidalarga amal qilish kerakligini va qaysi xulq normalari qabul qilinganini bilishi muhim. Bu umumiy hududdan

foydalanish, vazifalarni taqsimlash va yosh hamda imkoniyatlarga mos darajada javobgarlik belgilash kabi masalalarni qamrab oladi.

Qo‘llab-quvvatlash va terapiya. Agar oilada nizo yuzaga kelgan bo‘lsa, mutaxassis yordamiga murojaat qilishdan uyalmang. Oilaviy terapiya murakkab muammolarni hal etish va munosabatlarni yaxshilashda samarali usul hisoblanadi. Psixolog yoki oilaviy maslahatchi sizga va oilangizga nizolarni hal etish yo‘llarini 119oppish, muloqotni yaxshilash va hamjihatlikni tiklashda yordam beradi.

Birgalikdagi faoliyatlar. Birgalikda vaqt o‘tkazish va umumiy tadbirlarda ishtirok etish oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi. Umumiy qiziqishlar va faoliyatlar muloqot uchun zamin yaratadi va oila a’zolari o‘rtasida bog‘liqlikni kuchaytiradi. Tabiat qo‘ynida sayrlar, jamoaviy o‘yinlar yoki madaniy tadbirlarda birga qatnashish kabi muntazam oilaviy mashg‘ulotlar oilada birlik va bag‘rikenglikni mustahkamlaydi.

Nizolarni hal qilish ko‘nikmalari. Bolalar va o‘smirlarga nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgating. Bu ularni hissiy nazorat, adekvat muloqot va murosaga kelishni o‘rganishga yordam beradi. Bolalar kattalarning xulqini ko‘chirib olishga moyil bo‘lgani sababli, siz ularga sog‘lom nizo yechimi namunasini ko‘rsatishingiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. D.Abdullaeva. Oila psixologiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -256b.
2. Yuldashev M. Psixologik nizolar va ularning yechimlari – Toshkent: Fan, 2020 y
3. Omonulla Fayzullaev. Nizolar psixologiyasi – Toshkent: Fan, 2008. 95-105-b
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений. - Москва-Самара, 2008. – 270 с.
5. Андреева Т.В. Психология современной семьи. Монография. – СПб.: Речь, 2008.- 436 с.
6. Razakova R. S. The Essence of the Concept of Family Life in Modern Psychology //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т.2. – №. 1.– С. 339-342.
7. Razakova R. S., Narimonovna Y. I. Bog ‘cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 196-201

Qushmatova Muqaddamxon Ro‘zaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti magistr
Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA OTA ROLINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada oilada ota mavqeining farzandlar tarbiyasiga ta’sirining psixologik xususiyatlari, otaning bola shaxsining shakllanishiga ta’sirini ishlab chiqilgan. Olingan natijalar asosida ota-onalar, o‘qituvchi va murabbiylar, psixologlar uchun ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *gender, aspekt, xulq-atvor, passiv, avtoritar, diktatura, hokimlik, liberal.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РОЛИ ОТЦА В СЕМЬЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические особенности влияния статуса отца в семье на воспитание детей, а также влияние отца на формирование личности ребенка. На основе полученных результатов будут разработаны методические указания и рекомендации по совершенствованию образовательно-воспитательного процесса для родителей, учителей и наставников, психологов.*

Ключевые слова: *гендер, аспект, поведение, пассивный, авторитарный, диктатура, власть, либеральный.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FATHER'S ROLE IN THE FAMILY

Abstract. *This article explores the psychological aspects of a father's influence on children's upbringing and the impact of paternal role on the formation of a child's personality. Based on the obtained results, methodological guidelines and recommendations for improving the educational process will be developed for parents, teachers, mentors, and psychologists.*

Keywords*: gender, aspect, behavior, passive, authoritarian, dictatorship, authority, liberal.*

Zamonaviy jamiyatdagi jinsiy taqsimlanishning an’anaviy tizimini buzilishi bilan bog‘liq jismoniy o‘zgarishlar shu qatorda gender hamda ota-ona rollarining ham o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda oila muammolari, oilaviy tarbiya masalalari, oilaning bola shaxsining rivojlanishiga ta’siri yanada dolzarb muammo bo‘lib bormoqda. Hozirgi vaqtda onaning roliga, onalikning ayol va bola shaxsining shakllanishiga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqotlar mavjud. Lekin bolaning rivojlanishini, uning tarbiyasi va ijtimoiylashuvida otaning roli kam o‘rganilgan muammolardan bo‘lib, bu masala oila psixologiyasi soxasi hamda oilaga psixologik yordam ko‘rsatish dasturlarini tuzishda dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Z.Freyd o‘z vaqtida bola rivojlanishida oilaning roli haqida gapirgan edi, ammo keyinchalik oilaning bolaga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar asosan ona va bolaning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga qaratildi (M.Klyayn, Dj.Boulbi va boshqalar.). Ammo aynan “ota-bola” juftligi borasidagi tadqiqotlar juda kam o‘tkazilgan bo‘lib, nazariy jihatdan Z.Freyd, K.G.Yung, Sh.Bart, S.Mateychiklar tomonidan ifodalangan otalikning bola shaxsiga ta’siri aspektlarini aniqlashga yordam beradi. Gender rollari tizimidagi ishlar oxirgi 50 yil mobaynida bo‘lgan ahamiyatli o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarzda otalik ro‘li jiddiy o‘zgarmoqda, bu esa Sh.Bart fikricha, “Yangi gender tizimining shakllanishi jamiyat tomonidan otalik funksiyalarining ortiqcha baholanishi yoki aniqlanishi, gender rollarining yanada differentsialashuvidan guvohlik beradi”.

Ota va ona tamonidan bolaga munosabatdagi farqlar ko‘p tadqiqotchilar e’tiborini jalb etgan. E.Fromm sevgining turli shaxslarni jaxl qilayotib onalik va otalik sevgilarining farqlari haqida yozadi. Uning fikrich otalik sevgisi onalik sevgisiga nisbatan “talabchan” bo‘lib unga yetishish

uchun bola xizmat qilish kerak. Otalik sevgisi tug‘ma bo‘maydi balki bolaning ilk yoshlarida shakllanadi. Otaning muxabbatiga sazavor bo‘lish uchun bola muayyan ijtimoiy talablarga va otaning qo‘yishlaricha qobilyatlari, yutuqlari, muoffaqiyatlari bilan mos kelishi zarur. Muxabbat muoffaqiyatli va yaxshi xulq-atvor uchun go‘yoki mukofot bo‘lib xizmat qiladi. Bolada o‘sha uchun naslni davom etirish imkoniyati aks etadi, chunki an’anaviy normalarga mos ravishda erkin merosxo‘r nasl davomchisi, an’analar va hotirasining asrovchisi sifatida tarbiyalanishi shart.

Ko‘pincha mualliflar bolalarning oiladagi tarbiyasiga adekvat bo‘lmagan, zararli klassifikatsiyalarni taklif qilishadi. Masalan, A.B.Dobrovich tomonidan noadekvat tarbiyaning quyidagi turlari taklif qilingan[1]: “Oila jonu-dili”, “Onaning (otaning) hazinasi”, “Mo‘min-qobil”, “Kasalvand bola”, “Yaramas bola”, “Shumtaka”. V.N.Gorbuzov bo‘lsa ota-onalarning bola tarbiyasidagi xatolarni ajratadi[2]: Qabul qilmaslik; “haddan tashqari ijtimoiylashuv”; “havotirli shubhalanish”.

Oilada tarbiya uslublari klassifikatsiyasining bunday turfalanishiga qaramasdan hozirgacha eng o‘rganilgan an’anaviy-klassik tasniflash hisoblanadiki uning doirasida avtoritar, diktatura, hokimlik, liberal, obro‘li va indifferent uslublar ajratiladi[3]. Ushbu uslublarni tasvirlashda Krayg nazariy darajasi va qalbiy ilqlikning har xil nisbati haqida so‘z yuritadi. Ayni ushbu uslublarni o‘rganishga ko‘pchilik vatan va xorijdagi tadqiqotlar bag‘ishlangan. Hozirdagi tadqiqotlar xususan, ota-onalar tarbiya uslubining maktabgacha yoshdagi bola o‘z-o‘zini baxolashining shakllanishiga ta’siri to‘g‘risida xulosalar qilish imkonini beradi.

Tarbiyaning avtoritar uslubi ota-onalar va bolalar xulq-atvorining qonun- qoida va no‘rmalarga bo‘ysunishini, xukm chiqarishda qat’iylik va bolani qabul qilishga (talablar va jazolashda)tayorlikning yo‘qligini nazarda tutib, bolada uni xurmat qilishmayotgani, maqullashmayotgani to‘g‘risida ishonch paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, oxir-oqibatda o‘zining kam qadrlanishi va kerakmasligi haqidagi xulosaga olib keladi avtaritar ota-onalarning farzandlari uchun o‘ta tortinchoqlik va ijtimoiy passivlik xos, chunki ular muoffaqiyatsizlik, tanqid, jazolashdan qo‘rqishadi. Bunday bolalarga spontanlik, hushchaqchaqlik, o‘z-o‘ziga qatiy ishonch va empatiya yetishmaydi, ular o‘zlarini pasiv baxolash xarakterlaydi.

Bolalar tarbiyasidagi boshqa chetga chiqish bo‘lib liberal (murosasoz) ota-onalardagi fel-atvori xisoblanadi. Bunday ota-onalar bola faoliyatining cheklashmaydi va nazariy ham qilishmaydi – uni o‘ziga tashlab qo‘yishadi. Bu ortiqcha xavotirlikka o‘z hususiy qadr-qimmatiga shubxalanishiga muoffaqiyatning past darajasiga olib kelishi mumkun. Unda tashqari bola ongsiz ravishda o‘ziga yetishmayotgan nazoratni izlab qolishi va ko‘pincha buning natijasida osongina shubxali obrolilar ta’siri ostiga tushib qolishi mumkun.

Ota-ona xulq-atvorining indifferet uslubi o‘z ota-onalik funksiyalarini bajarishga bolalarga qiziqishining yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Bunda ota-onalarda bolaga nisbatan qabul qilmaslik pozitsiyasi paydo bo‘ladiki bu oxir oqibatda bolada past o‘z-o‘zini baxolashga olib keladi.

Yuqorida tasvirlanganlardan ota-onalarning xulq-atvorining obroli(nufuzli) uslubi ham ajratiladi. U nazorat darajasi va qalb iliqligining optimal birikmasidan ifodalaydir. Bunday ota-onalarning bolalari juda zo‘r moslashgan (adaptatsiyalashgan) o‘zlariga ishonishadi, rivojlangan o‘z-o‘zini nazorat qilish va samarali ijtimoiy ko‘nikmalarga ega. Bu bolalar o‘zini yuqori baholash bilan xarakterlanadi- bu esa ijtimoiy aloqalarni yazasini egallashni taminlaydi va induvidga o‘z qadr-qimmatini ko‘rsatish imkonini beradi.

Shunday qilib qayt qilish mumkunki, ota-onalar xulq- atvorining birinchi uch uslubi(avtaritar, liberal,indiffereniy) bola uchun nazariy darajasi va iliqlik darajasining noqulay birikmasi xisoblanadi. Shu vaqtning o‘zida bola tarbiyasining obektiv vaziyatiga mos keladi va unda kelajakda ijobiy o‘z-o‘zini baxolashga asoslangan xulq- atvor shakllanishiga yordam beradi.

Ota-onalar xulq-atvori uslublarining bilvosita tavsiridan tashqari (u yoki bu shaxsiy fazilatlarning shaklanishiga sharoit yaratish orqali) to‘g‘ridan to‘g‘ri ota-onalar bilan identifikatsiya qilish jarayonidan kelib chiqadi.

[1] Dobrovich A.B. Vospitatelyu o psixologii i psixogigiene obsheniya. M.: Prosveshenie, 1987 – 93 b.
[2] Garbuzov V.N. Vospitanie rebenka. - SPb.: «Del’ta», 1997 – 58.
[3] Krayg G. Psixologiya razvitiya. SPb.: Piter, 2000 – 60 b.

Ikkinchi munosabat ma'nosida ko'rgazmali bo'lib bolaning xavotirli oilada rivojlanishi misol bo'la oladi. Bunday oilada ota-onaning qo'rquvchi va ishonchsizligi bolaga otadi. U tobe va nomustaqil bo'lib qoladi.

Kupersmentning ishlari ota-onalari, ularning ustavkasi bola rivojlanishi uchun muxim, chunki rivojlanishdagi izdan chiqishlar (buzilishlar) nafaqat ilk bolalikda ota-onadan ajratilgan shaxslarda, balki nato'g'ri ota-onalar ustavkalari ta'sirini sezganda ham kuzatiladi.

Tadqiqot davomida bola-ota-ona munosabatlarining hususiyatlari o'rganildi. Buning uchun turli metodlarni qo'llanildi: kuzatish, savolnoma va anketa. Bu metodlar yordamida olingan natijalar bolalalar tomonidan otalari bilan munosabatlarining anglanilgan va anglanilmagan qonuniyatlarini baxolash imkonini beradi. 1-Jadvalda otalar tomonidan turli jinsdagi farzandlarni tarbiyalash xususiyati tasvirlangan. Jadvalning yacheykalarida farzandlar "ota-onalari haqida" metodikasi yordamida o'g'il va qiz bolalarning xar xil darajada ifodalashgan tarbiya xususiyatlari mohiyatining foizli ulushlari taqdim qilingan.

1-jadval


Turli jinsdagi o'smirlarni otalar tomonidan tarbiyalash xususiyati.

O'rganilayotgan parametrlar	darajalar	pozitiv qiziqish	direktivlik	qarama-qarshilik	avtanomlik	noizchillik
Qiz bolalar	yuqori	18%	8%	14%	4%	4%
	o'rta	12%	12%	25%	45%	45%
	Past	2%	6%	14%	14%	14%
O'g'il bolalar	yuqori	20%	20%	2%	6%	4%
	o'rta	4%	12%	10%	20%	4%
	Past	4%	2%	22%	4%	18%

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan turli jinsdagi bolalarda otalari bilan munosabatlarda pozitiv qiziqish farqlari diagramma ko'rinishida tavsiya qilingan.

Qiz bolalarni otalar tomonidan tarbiyalash xususiyatiga pozitiv qiziqishi 1-diagrammada aks etgan.

.



Jadvalda keltirilgan malumotlarga ko'ra 18% qiz bolalar otaning o'zlariga pozitiv qiziqishini belgilashadi. Ular buni xuddi otaning o'ziga ishonchi sifatida, ya'ni otaning ortiqcha qattiq qo'lligi emas, balki ularga e'tiboriga ishonchini idrok qilishadi. Oilada ota bilan qizi o'rtasidagi munosabatlarni iliqligi ochiqligi o'zaro muxabbat va xurmatning namoyon bo'lishidir. Qizni psixologik qabul

qilish bu holatda keskin o‘zgarishlarni yo‘qligini harakterlaydi, bunda barcha narsa mumkinligidan to-qattiq jazolashgacha. Boshqacha aytganda otaning qiziga bunday munosabatida “nima mumkin-u, nima mumkin emas” chegaralarini aniq anglagan holda iliq do‘stona munosabatlar hukmronlik qiladi. Otalik, ta’qiqlar bu holatda faqat uning yaxshi ko‘rganidan deb qabul qilinadi.

20% o‘g‘il bolalar otalar bilan munosabatlarda pozitiv qiziqishning yuqori darajasini ko‘rsatishadi. Tarbiyaning bu xususiyati ular tomonidan, birinchi navbatda o‘zaro munosabatlarda qo‘pol va o‘z hukmronligidan kechmaslikka intilishning yo‘qligi sifatida ko‘riladi. Bu o‘smirlar otalarining pozitiv qiziqishlari haqida ular otalarga yoqishga hamda ota obro‘sini saqlashga intilishlari holatlarida gapirishadi. Bu bolalar tomonidan otalarini psixologik qabul qilishlati, ular fikricha, eng avvalo ishonchga asoslangan. Bunday munosabatlarda tortishuvda har xil dalillarga quloq tutib va sog‘lom mantiqni afzal ko‘rib, har qanday haqiqatni topish xarakterlidir. Shu bilan birga bu yerda har qanday qulaylik inkor qilinadi.

Faqat 2% qiz bolalar 4% o‘g‘il farzandlar ota tomonidan pozitiv qiziqishini past darajasini belgilashadi. Extimol ularga otaning diqqati yetarli emasdir. Katta maktab yoshidagi bolalar otada o‘zaro muloqotga mavjud qo‘pol kuch va o‘z hukmronligini cheklamaslikka intilish borligini ko‘rsatishadi. Qiz bolalar otalar bilan yetarlicha iliq munosabatlarning yo‘qligini ko‘rsatishadiki, bu munosabatlarda nima mumkin-u, nima mumkin emasligi chegaralari aniq anglangan.

Tadqiqot natijalariga asosan o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabati xususiyatlariga quydagilar kiradi: tanlashda umuman davogarlikning optimal darajasi va adekvat o‘z-o‘zini baxolashning ustunligi.

Bolalarda davogarlik darajasi va jinsidan qatiy nazar o‘z-o‘zini baxolash darajasi baland bo‘lib bu psixik tinchlik osoyishtalikni belgisidir, Ammo qizlarda davogarlik darajasi o‘g‘il bolalarnikidan yuqori.

Xulosa qılıb aytılganda oilada ota-bola munosabatlari va o‘zora hamkorlik xususiyatlari bolalarda o‘ziga munosabatning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu otaning noizchilligi, davogarlik darajasi va global o‘z-o‘ziga munosabat, dushmanchilik va autosimpatiyada ko‘zga tashlanadi; ota bilan emotional masofa va boshqalardan kutilayotgan munosabat o‘rtasidagi muxim ahamiyatli korrelyetsiya ota va boshqalar bilan o‘zaro aloqalarda namoyon bo‘ladi. Buni bolaga qanday munosatda bo‘lishga qarab belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli farmoni. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020 yil, 23 sentabr, O‘RQ-637. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/5013007

3. Акрамова Ф.А. Психологические проблемы родительско-детских отношений в семье. Психология семьи, 2017 No. 5. Стр. 85-90.

4. Андреева Т.В. Psychology of the modern family. Monograph. SPb.: Speech, 2005. - 436 p.

5. Дружинина В.Н. Психология семьи. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2006. 176 с.

6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2008. - 320 с.

7. Психология семейных отношений: конспект лекций //Сост. С.А.Великова. – М.: АСТ; - СПб.: Сова, 2005. – 127 с.

8. Kovaleva A.V. Interpretation of the system of family values and its components in modern society. // Scientific notes of TSOU. T.2. – 2011.1. - P.34-40.

9. Schneider L.B. Family psychology: Textbook for universities. – Ed. 4th. - M.: Academic Project; Tricksta, 2008. - 736 p.

Rajabov Murodiljon Jumaboyevich
Farg'ona davlat universtiteti
psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

QORA VA YORQIN SHAXS UCHLIGI HAMDA ULARNI O'RGANILISHI BO'YICHA TADQIQOTLAR

Annatatsiya. *Ushbu maqolada shaxsning individualligi va uning psixologik tuzilmalari haqida keng qamrovli tadqiqotlar, insonning temperament turlari, xulq-atvoridagi tipik usullar, shaxs sifatlarining yuzaga kelish darajasi kabi masalalar, "Qora" va "Yorqin" shaxs uchliklari tushunchalari, ularning psixologik izohlari va ijtimoiy orientatsiyasi, shaxslarning qadriyat tizimi, psixologik farovonlik va hayotdan qoniqish bilan qanday bog'liq ekanligi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *individuallik, shaxs, temperament turlari, ekstroversiya va introversiya, eksternal va internal xususiyatlar. shaxs sifatlari, psixologik tuzilma, qora uchlik, narsisizm, makiavellizm, psixopatiya, sadizm, yorqin shaxs uchligi, insonparvarlik, kantizm, empatiya, rahm-shafqat, altruizm, emosional barqarorlik, do'stona munosabatlar, javobgarlik, altruistik qadriyatlar, biosferik qadriyatlar, egoistik qadriyatlar, universal qadriyatlar, hokimiyat qadriyatlari, gedonizm, o'zini anglash, kamtarlik qadriyatlari, o'zini namoyon qilish, o'zgarishlarga ochiqlik, konformizm, xavfsizlik, hayotdan qoniqish, shaxs xususiyatlari va qadriyat tizimi*

ИССЛЕДОВАНИЯ ТРИАДЫ ТЕМНОЙ И СВЕТЛОЙ ЛИЧНОСТИ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются обширные исследования индивидуальности личности и ее психологической структуры, типы темперамента человека, типичные способы поведения, уровни проявления черт личности. Также обсуждаются концепции «черной» и «яркой» личностной тройки, их психологические интерпретации и социальная ориентированность, связь ценностных систем личности с психологическим благополучием и удовлетворенностью жизнью. В статье подчеркивается, как различные черты личности, такие как нарциссизм, макиавеллизм, психопатия, садизм, а также гуманизм, эмпатия, альтруизм, эмоциональная стабильность, дружелюбие, ответственность и другие, влияют на ценности, мировоззрение и жизненные ориентиры человека.*

Ключевые слова*: индивидуальность, личность, типы темперамента, экстраверсия и интроверсия, экстернальные и внутренние характеристики, черты личности, психологическая структура, черная тройка, нарциссизм, макиавеллизм, психопатия, садизм, яркая личность, гуманизм, кантовская этика, эмпатия, сострадание, альтруизм, эмоциональная стабильность, дружелюбие, ответственность, альтруистические ценности, биосферные ценности, эгоистические ценности, универсальные ценности, ценности власти, гедонизм, самоосознание, ценности смирения, самовыражение, открытость к переменам, конформизм, безопасность, удовлетворенность жизнью, черты личности и ценностные системы.*

RESEARCH ON THE TRIAD OF DARK AND LIGHT PERSONALITY AND THEIR STUDY

Annotation. *This article discusses extensive research on the individuality of personality and its psychological structure, types of temperament, typical behavior patterns, and levels of personality traits. It also addresses the concepts of the "dark" and "bright" personality triads, their psychological interpretations, and social orientation, as well as the connection between personal value systems, psychological well-being, and life satisfaction. The article emphasizes how various personality traits, such as narcissism, Machiavellianism, psychopathy, sadism, as well as humanism, empathy, altruism, emotional stability, friendliness, responsibility, and others, influence values, worldview, and life orientations.*

***Keywords**: individuality, personality, types of temperament, extraversion and introversion, external and internal characteristics, personality traits, psychological structure, dark triad, narcissism, Machiavellianism, psychopathy, sadism, bright personality, humanism, Kantian ethics, empathy, compassion, altruism, emotional stability, friendliness, responsibility, altruistic values, biospheric values, egoistic values, universal values, values of power, hedonism, self-awareness, humility values, self-expression, openness to change, conformity, security, life satisfaction, personality traits and value systems.*

Psixologiya uchun insonning individualligi yoki shaxsi haqidagi integratsiyalashgan xususiyatlarini ajratish g‘oyasi har doim odamlarni qiziqtirib kelgan. Bu xususiyatlar insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri va xulq-atvorining tipik usullarini tasvirlashga yordam beradi. Bularni temperament turlariga, ekstroversiya va introversiyaning namoyon bo‘lishiga, eksternal va internal xususiyatlarga, shaxs sifatlarining yuzaga kelish darajasiga, psixologik tuzilmaning shakllanishi va boshqalarga ajratish mumkin. Shuningdek, bu kategoriya ichiga «Qora» va «Yorqin» shaxs uchliklarini ajratish g‘oyasini ham kiritish mumkin.

Qora uchlikni D.Paulxus va K.Uilyamslar 2002-yilda taklif qilganlar. Bu uchta narsisizm, makiavellizm va psixopatiya kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olad. Narsisizm — bu odamning o‘zini ajralib turuvchi va e’tirofga loyiq shaxs sifatida tasavvur qilishidir. Makiavellizm — bu boshqalarni o‘z maqsadlariga erishish uchun manipulyatsiya qilish istagidir. Psixopatiya — bu odamlarning his-tuyg‘ulariga befarqlik, sovuqqonlik, impulsivlik, dushmanlik va agressivlik kabi namoyon bo‘lishlari bilan ajralib turadi. Keyinchalik, ushbu uchlikga yana bir xususiyat sadizm qo‘shilgan. Sadizm - boshqalarning azob-uqubatlaridan zavqlanish xususiyatidir. Qora uchlikning kashf etilishi psixologiyada katta qiziqish uyg‘otdi va juda ko‘p nashrlar qilindi va bu qiziqish hali ham davom etmoqda.

Qora uchlikni ajratish, boshqa bir muqobil shaxsning mavjudligi haqidagi savolni tug‘dirdi, ya’ni uning qarama-qarshi xususiyatlari, ya’ni «yorqin» xususiyatlar to‘plamidir. U shaxsning ijtimoiy orientatsiyasini tasvirlaydi. «Yorqin shaxs uchligi» S.B.Kauffman, D.B.Yaden, E.Xayd va E.Tsukayamalarga tegishlidir. Ular 2019-yilda «Yorqin va qora shaxs uchliklarining: inson tabiati ikki juda farqli profili» nomli maqola nashr etdilar. Keyin, 2020-yilda ular kengaytirilgan tarkibda «Inson shaxsining yorqin va qora subtiplari — bir nechta tadqiqotlarga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv» nomli ishni e’lon qildilar. Ular «yorqin» shaxsning uchta xususiyatini ajratib ko‘rsatdilar va batafsil tasvirladilar va insoniyatga ishonch, insonparvarlik, kantizm (germaniyalik faylasuf I.Kantning ismi bilan bog‘liq) kabilardir. S.Kauffman va uning hamkorlarining «yorqin» shaxsning xususiyatlarini ajratish haqidagi nuqtai nazari keng tarqaldi va qo‘llab-quvvatlandi. Biroq, bu yagona fikr emas.

Hozirgi kunda yorqin shaxs uchligi bo‘yicha turli muammolarni o‘rganish, bir qator tadqiqot savollarini keltirib chiqaradi. Bu savollar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Yorqin shaxs uchligi xususiyatlarini ajratishda qanday yondashuvlar mavjud? Ushbu xususiyatlarning turli hayot va faoliyat sohalaridagi namoyon bo‘lishi qanday o‘rganilmoqda? Ular zamonaviy psixologiyaning rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega? Ushbu tadqiqotlarning natijalari amaliy ishlarda qanday qo‘llanilishi mumkin?

Adolat uchun, ta’kidlash lozimki, S.Kauffman va uning hamkorlarining Yorqin shaxs uchligi kontseptsiyasi yagona emas. Boshqa yondashuvlar ham mavjud.

L.Johnsonning yondashuvi. S.Kauffman va hamkorlarining maqolasi chiqishidan bir yil oldin, 2018-yilda, Kanadada Laura Johnson (L.Johnson) o‘zining magistrlik dissertatsiyasini himoya qildi. Unda u Yorqin shaxs uchligi sifatida uchta empatiya, rahm-shafqat va altruizm kabi xususiyatni ajratgan. Muallif bu xususiyatlarning batafsil tavsifini keltiradi, ularni diagnostika qilish uchun o‘z variantini taklif etadi va uning validligi hamda ishonchliligini kengaytirilgan holda ta’riflagan.

Shuningdek, L.Johnsonning yondashuvida zamonaviy psixologiyada o‘z izdoshlari paydo bo‘ldi. Xususan, uning taklif etgan so‘rovnomasi Eron tiliga muvaffaqiyatli moslashtirilgan [16]. Saudiya Arabistonida X.Al-Dousari va hamkorlari (H. Al-Dowsari et al.)tomonidan moslashtirilgan [2]. I.U.Khan, U.K.Safdar va M.Z.Durrani (I.U.Khan, U.K.Safdar, M.Z.Durrani) [9] kabi olimlar esa

L.Johnsonning konsepsiyasidan foydalangan holda, Pokistondagi bir qator korxonalar rahbarlarning yorqin xususiyatlarining xodimlarning innovatsion faoliyatiga ta'sirini tasdiqladilar. A.S.Bélan, M.S.Ionescu va A.Stan (A.S.Bélan, M.S.Ionescu, A.Stan) [1] kabi olimlar esa L.Johnsonning so'rovnomasini Ruminiyada o'qituvchilarda stressni yengishning kognitiv-emotsional strategiyalari bilan bog'liq ijtimoiy xususiyatlarni o'rganishda ishlatdilar.

J.Musek va D.K.Grumning yondashuvi. J.Musek va D.K.Grum (J.Musek, D.K.Grum) [10] shaxs qora uchligining xususiyatlariga muqobil sifatida, besh omillik shaxs modelidan olingan uchta xususiyatni yorqin uchlikga emosional barqarorlik (past neyrotizm), do'stona munosabatlar va javobgarlik xususiyatini kiritadilar. Mualliflar, Yorqin shaxs uchligi xususiyatlarining umumiy hayotdan mamnuniyat orqali ijobiy aloqasi va an'anaviy, ijtimoiy, kognitiv va demokratik qadriyatlar bilan ijobiy, odatda, status yoki hokimiyat qadriyatlar bilan esa salbiy aloqasi borligini aniqladilar. Ushbu konsepsiya bilan K.M.Thajil va H.Al-Abrrowlar (K.M.Thajil, & H.AL-Abrrow) [12] ham tanishib, shifokorlar sohasida ishlovchilar o'rtasida yorqin shaxs uchligi – emosional barqarorlik, do'stlik va javobgarlikning ijobiy tomonlar bilan munosabatiga ta'sirini o'rganganlar.

V.V.Gouveia va hamkorlarining yondashuvi. V.V.Gouveia va hamkorlari (V.V.Gouveia et al.) [13] o'zining yorqin shaxs uchligini taklif etdi. Ular - altruizm (xayriya – egoizm), kechirimlilik (kechirimlilik – ayblash) va minnatdorchilik (qabul qilish – rad qilish) kabilardr. Ijtimoiy shaxsni diagnostika qilish uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqilgan va uning amaliy qo'llanilishi mumkinligi haqida xulosalar chiqarilgan.

Diniy yondashuvlar. Yorqin shaxs uchligi bo'yicha bir qator tadqiqotlar turli dinlar bilan bog'liq va psixologiya sohasida dinni o'rganish doirasida bajarilgan.

L.J.Francis va G.Crea yondashuvi. Italiyan ruhoniylari L.J.Francis va G.Crealar (L.J.Francis, G.Crea) [5] cherkov aka-uka va opa-singillari o'rtasida professional hissiy charchoqning psixologik prediktorlari[1] o'rganilgan. Yorqin va qora shaxs uchliklarining tarqalishi bo'yicha tadqiqotlar

Yaxshi ma'lumki, jinsiy, til, siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillar shaxsning namoyon bo'lishiga, shu jumladan yorqin va qora shaxs uchliklarining xususiyatlarining ifodalanishiga ta'sir qiladi. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu xususiyatlarning odamlar orasida turli madaniy va iqtisodiy sharoitlarda qanday namoyon bo'lishida ma'lum qonuniyatlar mavjud.

Birinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq qora shaxs uchligi xususiyatlariga bo'yicha yuqori ballarni to'plaganlar. Ammo bu farq mamlakatlar iqtisodiyoti, siyosati va shu kabilarga qarab ballar yig'insi yuqori yoki quyi bo'lishi mumkin [15].

Ikkinchidan, shuningdek, nartsizm demokratik, kam korruptsiyalashgan va tinch mamlakatlarda pastroq ekanligi aniqlangan. Makiavellizm esa gender tengsizliklari kamroq va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yuqori bo'lgan mamlakatlarda yuqoriroq bo'lgan. Shu bilan birga, psixopatiya gender tengligi yuqori va tinch mamlakatlarda erkaklarda yuqoriroq bo'lgan [3].

Uchinchidan, individualizmni afzal ko'radigan madaniyatlarda, qora shaxs uchliklarining xususiyatlari ko'proq mavjud va bu xususiyatlarga nisbatan sabr-toqat yuqoriroq bo'lishi mumkin, shu bilan birga, kollektivizmni qadrlovchi madaniyatlarda, ko'proq yorqin shaxs uchligining xususiyatlari rivojlanadi. Xususan, S. Ramos-Vera va uning hamkasblari tomonidan (S.Ramos-Vera et al.) [4] Yevropa, Amerika va Afrika mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarida, makiavellizm xususiyatlari Yevropa mamlakatlarida ko'proq tarqalganligi aniqlangan bo'lsa-da, Afrikada (Nigeriyada) eng kuchli xususiyat sifatida insonparvarlik o'z o'rnini egallagan.

Umuman olganda, yorqin shaxs uchligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali juda oz. Buning sababi, bir tomondan, bunday tadqiqotlarni o'tkazishning murakkabligi va xarajatli ekanligi, ikkinchi tomondan esa, olingan ma'lumotlarni baholash va talqin qilishning qiyinligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bu masala etikaga ham tegishli. Masalan, Afrikadagi yoki Amerikaning ayrim hududlaridagi insonparvarlikning namoyon bo'lish darajasini solishtirish qanchalik etikaga to'g'ri kelishini o'ylab ko'rish kerak.

[1] Psixologiyada prediktor biror hodisaning ro'y berishi mumkinligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich, bashorat qilish vositasidir. "Prediktor" atamasi ikki xil ma'noga ega bo'lishi mumkin: Keng ma'noda, bu inson va uning atrofidagilarning dastlabki xususiyati bo'lib, unga asoslanib, aynan shu shaxsning izlanayotgan xususiyatini bashorat qilishga harakat qilinadi. Tor ma'noda - bu prognozning miqdoriy ifodasi va statistik ishonchliligini baholash bilan bog'liq qo'shimcha cheklovlarning paydo bo'lishi.

Qora va yorqin shaxs uchliklarining qadriyat tizimlari, psixologik farovonlik va hayotdan qoniqish bilan o‘zaro bog‘liqligi. Qadriyatlar — bu inson faoliyati va xulq-atvorida asos sifatida xizmat qiladigan yo‘naltiruvchidir. Shunday qilib, yorqin shaxs uchligining «kashf etilishi» bilan birga, bu xususiyatlarning insonlarning qadriyat tizimlariga qanday bog‘liqligi masalasi ham paydo bo‘ldi. Chunki shu paytgacha, ayniqsa, Qora shaxs uchliklariga ega insonlar qadriyatlari haqida ma’lum bir material yig‘ilgan edi. Tadqiqotlar bir necha yo‘nalishlarda olib borildi.

Masalan, G.K.Ukar va uning hamkasblari (G.K.Ucar et al.) [11] tomonidan olib borilgan ishning maqsadi, qora va yorqin shaxs uchliklarining shaxs xususiyatlarini ekologik xulq-atvor va qadriyat tizimlari bilan bog‘lash edi. Natijada, qora uchlik egoistik qadriyatlarni kuchaytirish, altruistik va biosferik qadriyatlar esa kamayishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Yorqin uchlik esa, aksincha, altruistik va biosferik qadriyatlarning kuchayishiga olib keladi.

B.Alipur Guran va uning hamkasblari (Alipour Gourand et al.) [6] esa qadriyatlar orqali «qora» va «yorqin» shaxs xususiyatlari bilan hayotdan qoniqishni bashorat qilishda ularning vositachilik rolini o‘rgandilar.

Bir qator tadqiqotlar, shuningdek, qora va yorqin uchliklarining universal qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga bag‘ishlangan, ularning qatorini Sh.Shvarcning ishlab chiqqan universal qadriyatlari tashkil etadi. P.J.Kayonius va uning hamkasblari (P.J.Kajonius et al.) [2] tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, makiavellizm va nartsizm «erishish» va «hokimiyat» qadriyatlari bilan ijobiy bog‘liq ekanligi aniqlangan. Psixopatiya esa va hokimiyat bilan bog‘liq. V. Lim va G. Feldman (V. Lim, G. Feldman) [15] tadqiqotlarida, Qora uchliklarining xususiyatlari o‘zini gedonizm[1] namoyon qilish (hokimiyat, yutuqlar, gedonizm) va o‘zgarishlarga ochiqlik (mustaqillik, stimulyatsiya) bilan ijobiy bog‘liq, aksincha, o‘zini anglash (universalizm, xushmuomalalik) va saqlanish (konformizm, an’analar, xavfsizlik) bilan salbiy bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shuningdek, S.Kaufman va uning hamkasblari (S. Kaufman et al.) [14] tadqiqotlariga ko‘ra, Yorqin uchlik o‘zini anglash va kamtarlik qadriyatlari bilan ijobiy bog‘liq bo‘lib, o‘zini namoyon qilish bilan salbiy bog‘liq, shuningdek, saqlash bilan zaif ijobiy bog‘lanish, o‘zgarishlarga ochiqlik bilan esa salbiy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda «qora» va «yorqin» shaxs uchliklarining o‘rganilishi psixologiyada juda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Inson shaxsining murakkabligi va turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sharoitlarda namoyon bo‘lishi, uning xulq-atvorini tushunish va bashorat qilishda katta ahamiyatga ega. «Qora» shaxs uchligi, ya’ni narsisizm, makiavellizm, psixopatiya kabi salbiy xususiyatlar, odamlarning boshqalarga nisbatan manipulyatsiya qilish, befarqlik, va agressivlik kabi yondashuvlarini tasvirlaydi, bu esa shaxslar o‘rtasida ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan farqli o‘laroq, «yorqin» shaxs uchligi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, altruizm, ishonch va insonparvarlikni rivojlantiradigan salbiy xususiyatlardan farqli ravishda ijobiy, ijtimoiy foydalilikka qaratilgan yondashuvlarni ifodalaydi. Ushbu ikki uchlik orasidagi farqni va ularning insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini chuqur o‘rganish, bizga shaxslararo munosabatlar, tashkilotlarda boshqaruv va ijtimoiy tizimlar uchun muhim tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Shuningdek, «qora» va «yorqin» shaxs uchliklarining o‘rganilishi global va madaniy o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunish, xulq-atvorni va qadriyatlarni shakllantirishda yanada samarali yondashuvlarni yaratish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlar, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda bu xususiyatlarning namoyon bo‘lishini o‘rganish, shaxslarning psixologik farovonligini oshirish va ularning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Shu sababli, «qora» va «yorqin» shaxs uchliklari, psixologiyaning amaliy va nazariy rivojlanishida dolzarb va muhim mavzu bo‘lib qolmoqda. Bu sohadagi yangi tadqiqotlar va yondashuvlar inson shaxsining murakkabligini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, ijtimoiy tizimlarni rivojlantirishda samarali yondashuvlar yaratishga xizmat qiladi.

[1] Psixologiyadagi gedonizm - bu lazzatlanish (va og‘riqdan qochish) inson xatti-harakatlarining asosiy sababi deb hisoblanadigan tushuncha

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bălan A.S., Ionescu M.C., Stan A. Light triad personality traits and coping strategies in teachers // Current Trends in Natural Sciences. 2023. Vol. 12. № 23. P. 150—159. DOI:10.47068/ctns.2023.v12i23.016

2. Bright Triad of Personality as an Indicator of Emotional Tolerance between Married Couples / H. Al-Dowsari, H. Al-Farraj, E.W. Meiri, W. Mistarihi // Migration Letters. 2023. Vol. 20(S8). P. 1370—1387. DOI:10.59670/ml.v20iS8.5470

3. Country-level correlates of the Dark Triad traits in 49 countries / P.K. Jonason, M. Żemojtel-Piotrowska, J. Piotrowski [et al.] // Journal of Personality. 2020. Vol. 88. № 6. P. 1252—1267. DOI:10.1111/jopy.12569

4. Dark and Light Triad: A cross-cultural comparison of network analysis in 5 countries / C. Ramos-Vera, A.G. O'Diana, A.S. Villena [et al.] // Personality and Individual Differences. 2023. Vol. 215. Article ID 112377. 10 p. DOI:10.1016/j. paid.2023.112377

5. Francis L.J., Crea G. Psychological predictors of professional burnout among priests, religious brothers, and religious sisters in Italy: The Dark Triad versus the Bright Trinity? // Pastoral Psychology. 2021. Vol. 70. № 4. P. 399—418. DOI:10.1007/s11089-021-00951-8

6. Investigate the mediating role of value orientation in predicting life satisfaction based on dark and light personality traits and emotional differentiation / B. Alipour Gourand, M. Azmoudeh, K. Esmaielpour, S.D. Hosseini Nasab // Sheenah Journal of Psychology and Psychiatry. 2022. Vol. 9. № 2. P. 160—174. DOI:10.32598/shenakht.9.2.160

7. Johnson L.K.D. The Light Triad Scale: Developing and Validating a Preliminary Measure of Prosocial Orientation: master of Science degree in Psychology [Электронный ресурс]. London, 2018. 66 p. URL: https://ir.lib.uwo.ca/etd/5515 (дата обращения: 11.09.2024).

8. Kajonius P.J., Persson B.N., Jonason P.K. Hedonism, Achievement, and Power: Universal values that characterize the Dark Triad // Personality and Individual Differences. 2015. Vol. 77. P. 173—178. DOI:10.1016/j.paid.2014.12.055

9. Khan I.U., Safdar U.K., Durrani M.Z. The light triad traits, psychological empowerment, creative self-efficacy, selfresilience and innovative performance in ict of Pakistan // Gomal University Journal of Research. 2021. Vol. 37. № 3. P. 297—310. DOI:10.51380/gujr-37-03-05

10. Musek J., Grum D.K. The bright side of personality // Heliyon. 2021. Vol. 7. № 3. Article ID e06370. 6 p. DOI:10.1016/j. heliyon.2021.e06370

11. Personality and pro-environmental engagements: the role of the Dark Triad, the Light Triad, and value orientations / G.K. Ucar, M.K. Malatyalı, G.Ö. Planalı, B. Kanik // Personality and Individual Differences. 2023. Vol. 203. Article ID 112036. 6 p. DOI:10.1016/j.paid.2022.112036

12. Thajil K.M., AL-Abrrow H. The effect of the bright triad on positive innovation in healthcare sector: The mediating role of emotional intelligence // International Journal of Healthcare Management. 2023. Vol. 17. № 2. P. 285—296. DOI:10.1 080/20479700.2023.2177608

13. The bright side of the human personality: Evidence of a measure of prosocial traits / V.V. Gouveia, I.C.V. de Oliveira, A.S. de Moura Grangeiro, R.P. Monteiro, G.L. de Holanda Coelho // Journal of Happiness Studies: An Interdisciplinary Forum on Subjective Well-Being. 2021. Vol. 22. № 3. P. 1459—1480. DOI:10.1007/s10902-020-00280-2

14. The Malevolent Side of Human Nature: A Meta-Analysis and Critical Review of the Literature on the Dark Triad (Narcissism, Machiavellianism, and Psychopathy) / P. Muris, H. Merckelbach, H. Otgaar, E. Meijer // Perspectives on Psychological Science. 2017. Vol. 12. № 2. P. 183—204. DOI:10.1177/1745691616666070

15. Values and the dark side: Meta-analysis of links between Dark Triad traits and personal values / N. Petrov, V. Lim, A. Fillon, G. Feldman. Hong Kong: University of Hong Kong, 2020. 85 p. DOI:10.17605/OSF.IO/4Z27F

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: saloxiddivamusharraf@gmail.com

ISTE'MOLCHI TANLOVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxsning tovarlar va xizmatlar iste'molchisi sifatidagi tanlovlariga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o'rganilgan. Xalqaro miqyosdagi ma'lumotlar mahalliy ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Iste'molchi shaxs darajalari, maqomi, ijtimoiy me'yorlari haqida tushunchalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *iste'molchi, tanlov, ijtimoiy-psixologik omil, stratifikatsiya, guruhlar, me'yorlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВЫБОРА ПОТРЕБИТЕЛЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-психологические факторы, влияющие на выбор личности как потребителя товаров и услуг. Международные данные анализировались в сравнении с местными данными. Даны понятия об уровнях, статусе и социальных нормах личности потребителя.*

Ключевые слова: *потребитель, выбор, социально-психологический фактор, стратификация, группы, нормы.*

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF CONSUMER CHOICE

Abstract. *The article examines the socio-psychological factors that influence the choice of an individual as a consumer of goods and services. International data were analyzed in comparison with local data. The concepts of levels, status and social norms of the consumer personality are given.*

Key words: *consumer, choice, socio-psychological factor, stratification, groups, norms.*

Iste'molchi xulq-atvori ijtimoiy guruhda shakllanadi va amalga oshiriladi. Guruh – bu umumiy me'yorlar, qadriyatlar, e'tiqodlarga ega bo'lgan va shaxslar o'rtasidagi rasmiy yoki norasmiy aloqalar tufayli xatti-harakatlari o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoki undan ortiq shaxslar. Iste'molchi bir nechta ijtimoiy guruhlarning a'zosi bo'lib, boshqa odamlarning shaxsiy ta'sirini boshdan kechiradi. Guruhlarning turlarini va ularning shaxsga ta'sir qilish xususiyati o'ziga xos.

A'zolik guruhi – ma'lum shaxslar tegishli bo'lgan va ularning xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan guruh, masalan, oila, hamkasblar, do'stlar.

Referent guruhi – bu shaxs uchun eng muhim bo'lgan odamlar guruhi. Referent guruhlari inson tafakkuri va xulq-atvorini belgilaydigan standartlar, me'yorlar va qadriyatlarni shakllantiradi. Referent guruh, shuningdek, shaxs a'zosi bo'lmagan odamlar guruhi bo'lishi ham mumkin. Referent guruh – bu shaxs muayyan vaziyatda xatti-harakatlar uchun qo'llab-quvvatlovchi sifatida foydalanadigan guruh. Iste'molchi xulq-atvorini amalga oshirishda shaxs guruhning o'ziga mos xatti-harakatlari, qadriyatlari va munosabatlari (ustanovkalari) bilan bevosita yoki bilvosita taqqoslashni amalga oshiradi.

"Referent guruh" tushunchasini 1942 yilda Gerbert Xaymon o'zining "Psixologiya arxivlari" asarida ilmiy muomalaga kiritgan. Referent guruh deganda u shaxs o'z pozitsiyasi yoki xatti-harakatlarini qiyosiy baholash uchun foydalanadigan guruhni nazarda tutgan. Ya'ni, muhim, standart guruh etalon guruh hisoblangan.

Referent guruh va a'zolik guruhi ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi. Shaxs bir nechta referent guruhlariga ega bo'lishi mumkin; bundan tashqari, hayotning turli bosqichlarida u turli xil referent guruhlariga ega bo'lishi mumkin. Shaxsning referent guruhlar bilan aloqasi beqaror, harakatchan va noaniqdir.

Tovarlarni sotib olayotganda, odam ushbu mahsulot bilan qandaydir bog'liq bo'lgan ma'lumot guruhining fikriga asoslanadi. Ammo iste'molchi ongida ushbu guruh bilan bog'liq bo'lmagan tovarlarni sotib olayotganda, referent guruhning ta'siri to'xtaydi. Ya'ni, iste'molchining xulq-atvori va munosabatiga referent guruhning ta'sirida vositachilik qiluvchi omil – bu mahsulotning iste'molchi ongida referent guruh bilan bog'liqligi. Misol uchun, "Fabrika" guruhi muxlisi bo'lgan o'smir uning qo'shiqchilari kabi kiyinadi, ular tomonidan reklama qilingan mahsulotlarni sotib oladi, lekin oddiy pishloq yoki tish pastasini sotib olayotganda bu referent guruhini eslay olmaydi.

Amerikalik psixologlar iste'molchilarning xulq-atvori uchun muhim bo'lgan uch turdagi referent guruhni ajratib ko'rsatishadi: axborot guruhlari, o'z-o'zini identifikatsiyalash guruhlari va qadriyatlar guruhlari.

Axborot-referent guruhi – bu ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'i nazar, biz ishonadigan odamlar guruhidir. Ushbu guruh ikkita asosiy shaklda namoyon bo'ladi, ularning iste'mol sohasidagi namoyon bo'lishini ko'rib chiqaylik:

- Tajriba tashuvchilar – bu ma'lum bir mahsulot/xizmatni sinab ko'rgan va baholagan odamlar. Shaxs bu haqdagi fikrlarini tasdiqlash yoki rad etish uchun mahsulotni sotib olish yoki undan foydalanish tajribasiga tayanadi. Eng keng tarqalgan holatda, bu do'stlar, o'rtoqlar.

- Ekspertlar – bu mahsulot bo'yicha mutaxassislardir. Bu guruh odamlar mahsulotning afzalliklari va kamchiliklaridan xabardor, eng bilimdonlari hisoblanadi. Bular kiyim-kechak dizaynerlari, tish pastalari va cho'tkalari uchun stomatologlar, rasmlar uchun san'atshunoslar, pishloq uchun pishloq ishlab chiqarish muhandislari va boshqalar. Ideal holda, savdo bo'yicha maslahatchilar "ekspertlar" sifatida qabul qilinishi kerak.

O'z-o'zini anglash referent guruhi – bu shaxs o'zini identifikatsiya qiladigan guruh. Uning o'zini o'zi anglashi shu guruhning ijtimoiy me'yorlari, qadriyatlari va ustanovkalsri ta'siri ostida bo'ladi. Ushbu guruh to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xatti-harakatlar uslubini, shu jumladan iste'mol qilishni buyuradi, bu "mos" deb hisoblanadi va unga rioya qilmaslik kerak bo'lgan uslubni belgilaydi. Misol uchun, do'stlar guruhida bayramlar uchun dasturxonni ma'lum bir tarzda tuzash odatiy holdir. Agar siz o'zingizni ushbu guruhning a'zosi deb hisoblasangiz, ushbu an'analarni kuzatib boring, dasturxonni xuddi shunday tuzang va bir xil mahsulotlarni sotib oling.

Utilitar referent guruh – bu ijobiy va salbiy sanktsiyalar zahirasiga ega bo'lgan, ya'ni shaxsni mukofotlash va jazolashga qodir bo'lgan guruhdir. Misol uchun, kompaniya xodimi o'z martabasiga to'sqinlik qilmaslik uchun xo'jayinning talabiga binoan kiyinadi.

Referent guruhlar daromadga qarab iste'molchilarning xatti-harakatlariga turlicha ta'sir qiladi. Shunday qilib, o'tkir ehtiyoj sharoitida odamlar referent guruhi talablariga javob bermaydilar – ochlik va sovuq ma'lum xaridlarni talab qiladi. Biroq, agar odam imkoniyati (mablag'i) va shunga mos ravishda tanlash imkoniyati bo'lsa, u xayolan yoki reallikda referent guruhga murojaat qiladi.

Ijtimoiy guruhdagi iste'molchilar aloqalari. Guruh aloqalari iste'molchilarning qarorlariga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Bunday ta'sirning asosiy turlari (Hokinsga ko'ra) quyidagilardir:

1) iste'molchiga axborot ta'siri (uning ma'lumot guruhi tomonidan taqdim etilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishdan iborat);

2) me'yoriy ta'sir (to'g'ridan-to'g'ri mukofot olish yoki sanktsiyalardan qochish uchun shaxsni guruh me'yorlariga rioya qilishga undashdan iborat. Normalar bu kutilgan va maqbul xatti-harakatlar variantlari).

3) identifikatsiya yoki qadriyatli-ekspressiv ta'sir. Guruhlar ko'pincha qadriyatlarni ifodalash funktsiyasini bajaradi. Shaxs guruhdan namuna, tayanch nuqtasi va o'z imidji uchun ustanovka sifatida foydalanadi. Identifikatsiya ta'siri iste'molchilarning o'zlarini hayratga soladigan yoki hurmat qiladigan odamlar bilan tanishtirish istagidan foydalanadi. Aynan shu narsa G'arb brendlarining bizda va uchinchi dunyo mamlakatlarida mashhurligi va jozibadorligini tushuntiradi.

Guruhning shaxsga taqlid qilish, taklif qilish, yuqtirish va ishontirish kabi turlari iste'molga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biz maktab yoshidan to o'smirlik davriga qadar ochiq iste'mol tovarlaridan foydalanganda (misol sifatida kiyim-kechak) taqlid qilish (asosan, yaqin do'stlar va mashhur artistlar) va odatlarni yuqtirish ustunlik qilishini aniqladik. Maktabgacha yosh davrida iste'mol ota-onalar

guruhi tomonidan belgilanadi, shuning uchun ta'sir mexanizmlarini o'rganish mumkin emas. O'smirlik davridan boshlab, odatlarga taqlid va yuqtirish ustunlik qila boshlaydi. Mahsulotning ijobiy-emotsional tavsifi yoki namoyishiga javoban o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hissiy jalb qilish aks etadi. Erkaklarda taqlid va odatlarni yuqtirish ayollardan pastroq aks etadi.

F.Kotler iste'molchi ma'lumotlarining quyidagi manbalarini belgilaydi: shaxsiy manbalar (oila, do'stlar, tanishlar), tijorat manbalari (reklama, sotuvchilar, qadoqlash, dilerlar, ko'rgazmalar), ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari), empirik tajriba manbalari. [5]

Oilaning iste'molga ta'siri. Oila, yuqorida aytib o'tilganidek, iste'mol qilish uchun zarurdir. Oilada uning barcha a'zolarining didi e'tiborga olinadi. Amerikalik marketologlar "oilaviy hayot tsikli" tushunchasini aniqlaydilar – bu oila yaratilgan paytdan boshlab o'z rivojlanishida o'tadigan va iste'molni belgilaydigan individual bosqichlar to'plami. Oilaviy hayot tsiklining quyidagi bosqichlari odatda ajralib turadi:

1) uylanmagan yoshlar (ota-onasidan mustaqil yashaydigan yosh, turmushga chiqmaganlar);
2) farzandsiz yosh oila;
3) "to'liq uya" – bolali oila;
4) "bo'sh uyalar" – voyaga yetgan farzandlari allaqachon mustaqil yashaydigan oila.

Oila hayotining turli bosqichlari uchun ehtiyojlar har xil bo'ladi (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, dam olish va boshqalar), iste'mol esa miqdori, sifati va narxi bo'yicha farqlanadi.

Ijtimoiy rol va ijtimoiy mavqening iste'molga ta'siri. Guruh ichidagi komponentlar ham iste'molga sezilarli ta'sir qiladi. Ulardan biri ijtimoiy roldir. Ijtimoiy rol deganda shaxsning boshqalarga nisbatan xulq-atvori bilan belgilanadigan guruhdagi o'ziga xos o'rni tushuniladi. Masalan, xuddi shu shaxs o'g'il, ota va rejissyor rollarini o'ynashi mumkin. Rolning ijrosi uning ijrochilarining atrof-muhitga mos ravishda faolligini nazarda tutadi. Insonning ma'lum bir daqiqada qanday rol o'ynashiga qarab, uning xarid qilish harakati aniqlanadi. Bu professional rollar bilan bog'liq holda aniq ko'rinadi: o'qituvchi o'z roliga ko'ra jinsi shim emas, balki rasmiy kiyim kiyishi kerak. Rol, shuningdek, unga belgilangan iste'molchi xatti-harakatlarini amalga oshirishni talab qiladi. Masalan, onaning roli oila a'zolarining didiga mos ravishda doimiy xarid qilish va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqomdan farqli o'laroq, iste'mol qilinadigan tovarlarning turini belgilaydi, bu birinchi navbatda iste'mol qilinadigan tovarlarning sifati va yuqori narxini belgilaydi.

Ijtimoiy maqom ijtimoiy rollar bilan o'zaro bog'liq. Ijtimoiy maqom – bu shaxsning guruhdagi mavqei. Guruhlarga qarab quyidagi ijtimoiy maqom turlari ajratiladi: kichik guruhdagi ijtimoiy maqom (kichik guruh ierarxiyasidagi o'rni) va katta guruhdagi, jamiyatdagi ijtimoiy maqom. Ikkinchisi asosan moliyaviy ahvol va lavozim bilan belgilanadi, shuning uchun moskvalik psixolog V.A. Xaschenko buni ijtimoiy-iqtisodiy holat deb atashni taklif qiladi. Xarid qilish xulq-atvorida shaxs o'zi egallagan maqomni boshqaradi – maqom ochiq iste'mol qilinadigan tovarlarning yuqori narxini va sifatini (bular o'zaro bog'liq tushunchalar) belgilaydi. [5] Tez-tez iste'mol qilinadigan tovarlar ijtimoiy maqom atributlari hisoblanadi. Ijtimoiy maqom odatda quyidagi atributlarning brendiga qarab baholanadi: uyali telefon, qalam, soat, poyabzal, atir va avtomobil. Ushbu ijtimoiy maqom belgilari bizga rivojlangan katta davlatlardan o'tib kelgan. Ushbu formulaga ko'ra, inson o'zi afzal ko'rgan uslubda kiyinishi mumkin (nafaqat klassik, balki sport, milliy uslublarda), va yirtiq, eski jinsi shimlar endi past maqom ramzi emas. Ammo yuqoridagi atributlar uning pozitsiyasi haqida ma'lumot beradi.

Ijtimoiy maqom ijtimoiy munosabatlarning, jumladan, iste'molchi-sotuvchi munosabatlarining intensivligi, davomiyligi, yo'nalishi va mazmunini belgilaydi.

Sotsiolog P.K. Zaleskiy [6] iste'molchi xulq-atvorining ijtimoiy maqomga bog'liqligi mavjudligini asoslab berdi. Ijtimoiy maqom qanchalik yuqori bo'lsa, kundalik iste'mol qilinadigan tovarlar brendlari repertuari qanchalik keng bo'lsa, sotib olishda innovatsionlik va taniqli qimmatbaho brendlarga yo'nalganlik namoyon bo'ladi. Ijtimoiy mavqei yuqori bo'lgan odamlar reklamaga nisbatan o'zgaruvchan munosabatda bo'lishadi.

Ijtimoiy tabaqalanish. Ijtimoiy sinf iste'mol omili sifatida. G'arbda iste'molni belgilovchi eng muhim omil – bu ijtimoiy tabaqalanish, ya'ni shaxslarning sinflarga bo'linishi. "Ijtimoiy tabaqalanish" tushunchasi G'arb sotsiologiyasidan kelib chiqqan va uzoq vaqt davomida rad etilgan, chunki sovet mafkurasi davrida bizda rasman uchta teng sinf – ishchilar, dehqonlar va xizmatchilar mavjud

edi. Ziyolilarga “qatlam” sifatida qaralar edi. 1970-yillardan boshlab sinf ichidagi tarkibiy qismlar sifatida ijtimoiy qatlamlarning mavjudligi tan olindi. Odamlarning ijtimoiy mavqeiga ko'ra bo'linishi odatda "ijtimoiy tabaqalar" yoki "jamoat sinflari" deb ataladi. Ijtimoiy sinflar – bu ierarxik tartibda joylashtirilgan va o'xshash qadriyatlar, g'oyalar, qiziqishlar va xatti-harakatlarning mavjudligi bilan tavsiflangan barqaror odamlar guruhlari.

Shaxsning ijtimoiy tabaqasi – bu uning ma'lumoti, kasbi, mulki, daromadi va uning manbai bilan belgilanadigan integral xususiyatdir (D. Xokins va boshqalar, 1995). [9] Amerikaliklar va kanadaliklar "ijtimoiy sinf" va "ijtimoiy mavqe" atamalarini bir-birining o'rnida ishlatadilar, bu "ijtimoiy daraja" degan ma'noni anglatadi.

Stratifikatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud: xalqaro tabaqalanish va ESOMAR tabaqalanishi. Xalqaro tabaqalanishga ko'ra, to'rtta sinf mavjud: quyi, ishchi, o'rta, yuqori. Quyi tabaqa – jamiyat tomonidan talab qilinadigan past yoki umuman ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lmagan sinf. Yuqori tabaqa – jamiyat yuqori mavqega ega bo'lish uchun kerakli va muhim deb hisoblaydigan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lgan sinf. Ishchilar sinfining asosiy farqi shundaki, ular asosan o'z qo'llari bilan ishlaydi. Bunga ishchilar, sotuvchilar, haydovchilar va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy sinf iste'molchi xulq-atvorida qachon muhim omil ekanligini va qachon emasligini tushunish muhimdir. D. Hakins (1995) [9] sinflarning uch turdagi iste’molchilik xulq-atvorini ajratib ko'rsatadi. Noyob xulq-atvor – ma'lum bir ijtimoiy tabaqa bilan bog'liq xatti-harakatlar namunalari. Umumiy xulq-atvor – barcha ijtimoiy tabaqalarga xos bo'lgan xatti-harakatlar namunalari. Che-klangan xatti-harakatlar – hech qanday ma'noga ega bo'lmagan xatti-harakatlar.

Iste'molchi xulq-atvorini tahlil qilish uchun amerikalik sotsiolog Jozef Kahl (1957) tomonidan aniqlangan oltita ijtimoiy sinf o'zgaruvchilari qiziqish uyg’otadi. Keling, ularni jadvalda ko'rib chiqaylik.

1-jadval.

Ijtimoiy sinf o'zgaruvchilari

Iqtisodiy o’zgaruvchilar	Munosabatlar o’zgaruvchilari	Siyosiy o’zgaruvchilar
Mashg’ulot	Shaxsiy obro’-e’tibor	Hokimiyat
Daromad	Assotsiatsiya	Sinfiy ong
Mulk	Ijtimoiylashuv	Mobillik

1996 yilda Yevropa bozor va fikr-mulohazalarni o'rganish jamiyati (ESOMAR) tomonidan qabul qilingan standart ijtimoiy-iqtisodiy tasnifga (Ijtimoiy Grad) ko'ra, 6 ta ijtimoiy-iqtisodiy sinflar (qatlamlar) – insonning ijtimoiy mavqeining 6 darajasi mavjud. Oila a'zosining maqomi "asosiy boquvchi" – asosiy daromad keltiruvchi uy xo'jaligi a'zosi maqomi asosida belgilanadi.

Asosiy sinflar: A sinf – eng yuqori, B – eng yuqori o'rta, C1 – o'rta-o'rta, C2 – quyi-o'rta, D – pastki, E – pastki-past. [7]

"Elita" qatlami qiziq – iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va san'atda eng yuqori lavozimlarni egallagan juda boy va nufuzli odamlarning tor va yopiq qatlami (aholining 0,5 - 1,5%). Elitani yuqori sinfning kichik turi deb hisoblash yoki ularni alohida sinf sifatida ajratib ko'rsatish haqida bahslar hali ham mavjud.

O'rta sinfning o'zi B, C1, C2 qatlamlari bilan ifodalanadi va Yevropa Ittifoqining 12 mamlakati aholisining 47,6 foizini tashkil qiladi.

Bizning mamlakatimizda o'rta sinfning mavjudligi masalasi katta munozaralar darajasida turi-bdi. Bu Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi daromadlar farqi, shuningdek, poytaxt va viloyatlardagi daromadlar o'rtasidagi farq bilan izohlanadi, bu ba'zan o'n baro-bar farq qiladi. Muayyan sinfga mansublikning yana bir mezoni ko'chmas mulk va uzoq muddat foy-dalaniladigan tovarlar (uylar, avtomobillar, dala hovlilar, kir yuvish mashinalari, idish yuvish mashi-nalari va boshqalar), ammo, masalan, idish yuvish mashinalari O’zbekistonda keng tarqalmagan (balki, reklama yetarli emasdir). Bizda ta’lim borasida ham noaniq holat bor: tadbirkorlarning birinchi to‘lqini oliy ma’lumotga ega emas, yangi tadbirkorlar esa 2-3 ta oliy ma’lumotga ega. Shu sabablarga ko'ra, bizning mamlakatda o'rta sinf chegaralarini aniqlash qiyin. Faqat yuqori va past sinf mavjud-ligini aytish mumkin. Qolaversa, jamiyatning tabaqalanishi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

2-jadval

Yevropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda ijtimoiy tabaqalarning taqsimlanishi (ESOMAR ma'lumotlariga ko'ra)

Sinf	Qisqa ta’rif	YH bo’yicha %
A	Yuqori darajadagi rahbarlar va oliy ma'lumotli mutaxassislar	9,2
B	Oliy ma'lumotli o'rta menejerlar, oliy ma'lumotsiz top-menejerlar	9,3
C_1	Oliy ma'lumotli ishchilar, malakali ishchilar va oliy ma'lumotli kichik tadbirkorlar	15,2
C_2	Maxsus ma'lumotga ega bo'lgan malakali ishchilar va xizmatchilar	23,1
D	Ishchilar va yordamchi ishchilar, maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan xodimlar	15,3
E	Malakasiz ishchilar, bilim darajasi past kichik tadbirkorlar, fermerlar	25,6

Turli sinflarning iste'molchilik tanlovi, birinchidan, sotib olingan tovarning narxi, ikkinchidan, sotib olingan joyi, uchinchidan, natijada sifati, tarkibi va xizmat ko'rsatishi bilan farqlanadi.

Ijtimoiy me’yorlar iste'molni tartibga soluvchi sifatida. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy me'yorlar ham iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir qiladi. “Birlamchi” va “ikkilamchi” me’yorlar farqlanadi [5]. Birlamchi me’yorlarga xulq-atvor, munosabatlar hamda baholash variantlari va shakllarini tanlashni nazarda tutadigan me’yorlar kiradi, bunda tanlov asosi jamiyatning ilg'or guruhlari ijtimoiy me’yorlari va jamiyatning eng yuqori qadriyatlariga mos keladigan me'yorlarga aylanadi.

Birlamchi me’yorlar asosida ijtimoiy hayotning tomonlarini va inson xulq-atvori shakllarini tartibga soluvchi ikkilamchi ijtimoiy me’yorlar shakllanadi.

Iste'molchilarning xatti-harakatlari uchun me’yorlar mavjud: sotuvchi bilan muloqot qilish me’yorlari, ma'lum bir ijtimoiy jihatdan maqbul mahsulotlar to'plamini o'z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish me’yorlari. Zamonaviy inson uchun yog'li ovqatlarni kam iste'mol qilish hamda proteinli ovqatlar va vitaminlarni faol iste'mol qilish odatiy me’yorga aylandi.

Ijtimoiy me'yorlarning iste'molga ta'siri (me'yoriy ta'sir) shaxslarni ijtimoiy ma'qullash yoki sanksiyalardan qochish uchun me'yorlarga rioya qilishga undashdan iborat. Xarid qilish va foydalanishga me'yoriy ta'sir ko'proq ma'lumot guruhlari va a'zolik guruhlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu guruhlar o'ziga xos guruh ijtimoiy me’yorlarga ega.

Bundan tashqari, kelgusi tadqiqotlarimizda urf (moda) ning, stixiyali katta guruh (olomon) ning, taqlid va ishontirish mexanizmlarining iste’molchi tanloviga ta’sirini ko’rib chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ильин В.И. Поведение потребителей. Учебное пособие. СПб, 2000.
2. Котлер Ф. Основы маркетинга М.: Прогресс, 1990.
3. Мухамедова Д.Г. Таълим менеджерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик механизмларини такомиллаштириш. //Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент, 2015.
4. Мясищев В. Н. Психология отношений: Под редакцией А.А. Бодалева / Вступительная статья А.А. Бодалева. – М.: Издательство «Институт практической психологии», Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 1998. 368 с.
5. Посыпанова О.С.Социальная психология потребления / Учебное пособие, - Калуга, Изд-во КГПУ, 2004, 260 с.
6. Сафаров Д.Х. Сотувчи ва харидор муносабатларини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик механизмлари. //Дисс.автореферати. Бухоро, 2021.
7. Социальная психология экономического поведения / отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова. – М., Наука, 1999, 237 с.
8. Hawkins, S. A. & Hastie, R. Hindsight: Biased judgements of past events after the outcomes are known. // Psychological Bulletin, 1990, Vol. 107, pp. 311-327.

Sayidqulova Mastura Rabimqul qizi
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tayanch doktoranti
E-mail: sayidkulovam@gmail.com

HAYOT MAZMUNINI ANIQLASH – O‘ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK ASOSI

Annotatsiya. *Zamonaviy psixologiyada inson hayoti mazmunini anglash va uni shakllantirish jarayoni fundamental ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, axborot oqimining kuchayishi va shaxsning jamiyatdagi o‘rnini topishga bo‘lgan ehtiyoji kuchaygan hozirgi davrda, hayot mazmuni tushunchasining psixologik tahlili dolzarb masalalardan biridir. Ushbu ilmiy ishda hayot mazmunining o‘zini anglash bilan uzviy bog‘liqligi psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shaxsning o‘zini anglash jarayoni – bu o‘zining ichki dunyosi, qadriyatlari, intilishlari va hayotiy maqsadlarini tushunish va ularni ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. Hayot mazmuni esa insonning mavjudligiga ma’no, yo‘nalish va qadriyat beruvchi psixologik konstrukt sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda hayot mazmuni va o‘zini anglash o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik omillar, yosh davrlari, shaxsning rivojlanish bosqichlari, shuningdek, shaxsning hayotiy pozitsiyasi va maqsadga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq jihatlar chuqur o‘rganiladi*

Kalit so‘zlar: *hayot mazmuni, o‘zini anglash, qadriyatlar tizimi, shaxs, ekzistensial psixologiya, psixologik asos, maqsadga yo‘naltirilganlik.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СМЫСЛА ЖИЗНИ — ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА САМОПОНИМАНИЯ

Аннотация. *В современной психологии проблема осмысления смысла жизни человека и его формирования рассматривается как одно из фундаментальных научных направлений. Особенно актуальным данный вопрос становится в условиях социальных и экономических изменений, роста информационных потоков и повышенной потребности личности в осознании своего места в обществе. В данной научной работе рассматривается взаимосвязь между смыслом жизни и процессом самопонимания с психологической точки зрения. Самопонимание личности — это способность осознавать свои внутренние особенности, ценности, стремления и жизненные цели, а также управлять ими на осознанном уровне. Смысл жизни трактуется как психологическая конструкция, придающая человеческому существованию направленность, ценность и значимость. В исследовании подробно анализируются взаимосвязь между уровнем осознания смысла жизни и степенью самопонимания, индивидуально-психологические и социально-психологические факторы, влияющие на их формирование, возрастные особенности, этапы личностного развития и целеустремленность.*

Ключевые слова: *смысл жизни, самопонимание, личность, система ценностей, экзистенциальная психология, психологические основы, целеустремленность, система ценностей.*

DEFINING THE MEANING OF LIFE – THE PSYCHOLOGICAL BASIS OF SELF-AWARENESS

Abstract. *In modern psychology, the understanding and formation of life’s meaning is regarded as a fundamental scientific issue. This topic is especially relevant in the context of rapid socio-economic changes, the intensification of information flow, and the growing need for individuals to find their place in society. This study explores the psychological interconnection between the meaning of life and the process of self-awareness. Self-awareness is defined as the individual’s ability to understand and consciously manage their inner world, values, aspirations, and life goals. The meaning of life is interpreted as a psychological construct that gives direction, purpose, and value to one’s existence. The research examines the mutual relationship between life meaning and self-awareness,*

individual and socio-psychological factors influencing their development, age-related characteristics, stages of personal development, and life orientation.

Keywords: *meaning of life, self-awareness, personality, value system, existential psychology, psychological foundation, goal orientation.*

Kirish. Insoniyat yaratilgandan to hozirgi kungacha insonlar o‘zi haqidagi deyarli barcha masalalarga qiziqish bilan munosabatda bo‘lgan. Bunday masalalar ichida yosh avlodning o‘zini anglagan holda hayot mazmunini aniqlashi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hayot mazmuni – shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng muhim psixologik tushunchalardan biri bo‘lib, u shaxsning o‘zligini anglash, qadriyatlari, maqsadlari va hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Psixologiyada inson shaxsining rivojlanishi an’anaviy ravishda uning ongi va o‘z-o‘zini anglashining shakllanishi bilan bog‘liq. O‘zini anglash – insonning o‘zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, o‘ziga bo‘lgan munosabatini baholashi, ichki dunyosini tushunishi va qabul qilishi jarayonidir. Shu bois hayot mazmunini aniqlash ko‘pincha o‘zini anglashning muhim komponenti sifatida qaraladi. O‘zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko‘rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o‘zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi. O‘zlikni anglashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo‘lib, unda inson o‘zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o‘zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo‘lgan mas’uliyatni his etishi, o‘zi qilayotgan ishlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riligi, haq yoki noxaqligini nazorat qila bilishidir. Bunda insonning dunyoqarashi, ma’naviyati va ma’rifatligi, uning individual tarzda shakllangani bilan belgilanadi [16].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hayot mazmuni va o‘zlikni anglash bo‘yicha tadqiqotlar butun dunyoda o‘rganilgan bo‘lib, ko‘plab chet ellik olimlar: V.Frankl, K.Yaspers, A.Maslov, D.Leontyev, E.Fromm, pozitiv psixologiya nuqtai nazaridan M.Seligmen va S.Petersonlar tomonidan turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari ushbu mavzu yuzasidan mamlakatimiz olim va psixologlarining ham hissasi beqiyosdir. Ular orasida V.Karimova, T.Salomova, S.G‘ulomov, Q.Yo‘ldoshev, T.Yusupovlarning olib borgan ishlari shuni ko‘rsatadiki, hayot mazmuni va o‘zlikni anglash mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

O‘zbekistonda psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shgan psixologlardan biri bo‘lgan Vasila Karimova shaxsning rivojlanishi, uning o‘zini anglash jarayonlari, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri haqida chuqur izlanishlar olib borgan. Unga ko‘ra, o‘zini anglash jarayoni – bu shaxsiy identifikatsiyaning shakllanishi va hayotiy pozitsiyaning aniqlanishi jarayonidir. Bu jarayon hayot mazmunini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq [1].

Qo‘chqor Yo‘ldoshev ijtimoiy muhit va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilib, shaxsning o‘zini anglashida ijtimoiy omillarning, qadriyatlar tizimining roli haqida yozadi. U ijtimoiy moslashuv va shaxsiy o‘sishning asosini hayotiy maqsadlar bilan bog‘laydi [2].

Tursinoy Salomova shaxs rivojida ma’naviy qadriyatlar, milliy identifikatsiya va hayot mazmunining roli haqida tadqiqotlar olib borgan. Unga ko‘ra, hayot mazmuni shaxsning ma’naviy pozitsiyasi, o‘zligini anglash va jamiyatdagi rolini belgilashi bilan bog‘liq [3].

Sirojiddin G‘ulomov o‘smirlik davridagi o‘zini anglash, shaxsiy identitet va hayotiy orientatsiyalar shakllanishi haqida yozadi. Bu yosh davrida hayot mazmuni haqida ilk konseptlar paydo bo‘lishi va o‘zini anglash jarayoni jadal kechishi ularning kelajakdagi psixologik barqarorligiga ta’sir qiladi [4].

To‘lqin Yusupovning ishlari milliy psixologiya rivoji, shaxsning qadriyat tizimi va o‘zbek mentalitetida hayot mazmunining aks etishini o‘rganishga bag‘ishlangan. U shaxsning o‘zligini anglashida milliy madaniyat va urf-odatlar muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi [5].

Natijalar va muhokamalar. Ushbu tadqiqot doirasida o‘tkazilgan empirik tekshiruvlar va nazariy tahlillar hayot mazmuni va o‘zini anglash o‘rtasida kuchli psixologik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Quyidagi asosiy natijalar va muhokamalar ilgari surildi:

1. Hayot mazmunining aniq belgilanishi – o‘zini anglashning muhim omili. Tadqiqot ishtirokchilari orasida hayotida aniq maqsad va qadriyat tizimiga ega bo‘lgan shaxslar (masalan, tibbiyot yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar, ko‘ngillilik faoliyatida qatnashayotgan yoshlar) o‘zini anglash ko‘rsatkichlarida yuqori natijalarga ega bo‘lishdi. Masalan, V. Frankl ta’kidlaganidek, inson o‘z hayotining ma’nosini tushungan chog‘da, u qiyinchiliklarni yengish kuchiga ega bo‘ladi [**6**]. Shunga o‘xshash fikr D. Leontyev tomonidan ham bildirilgan: hayot mazmuni o‘zini anglashni chuqurlashtiradi, shaxsiy identifikatsiyani mustahkamlaydi [**8**]. Ular o‘zini kim ekanligini, nimaga intilayotganini va hayotidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq tushuna olishgan. Masalan, ko‘ngilli ishlarda faol bo‘lgan bir talabada o‘z hayotini boshqalarga yordam berish bilan bog‘liq deb bilishi, unda “men insonlar uchun foydaman” degan identifikatsiyani mustahkamlab, o‘zini anglash darajasini oshirgan.

2. Qadriyatlar tizimi – hayot mazmunining barqaror poydevori. Qadriyatlar shaxs hayotiga ma’no baxsh etuvchi ichki mezonlar tizimidir. Tadqiqot davomida qadriyatlari aniq (masalan, adolat, erkinlik, oila, sog‘liq, bilim olish) bo‘lgan shaxslar hayotining ma’nosini aniqroq anglab, mavjud sharoitda o‘z yo‘lini belgilashda kamroq ichki ziddiyatlarga duch kelgani kuzatildi. A. Maslou nazariyasida qadriyatlar shaxsiy o‘sish va aktualizatsiyaning poydevori sifatida e’tirof etiladi [**7**]. Psixolog Kerol Riff esa qadriyatlar va psixologik farovonlik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini eksperimental tarzda isbotlagan [9]. Misol tariqasida shuni ko‘rsatishimiz mumkinki, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlikka uchragan talabalar orasida qadriyat sifatida “bilim”ni asosiy o‘ringa qo‘yganlar bunday muammoga “sinov” sifatida yondashib, ruhiy iztirobni boshqalar bilan solishtirganda osonroq yengib o‘tgani aniqlandi.

3. O‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda psixologik barqarorlik kuchliroq. Steger (2017) fikricha, o‘z hayotining ma’nosini anglagan shaxslar hayotiy qarorlar qabul qilishda ishonchli, maqsadli va stressga chidamli bo‘ladi [11]. Bu xulosa Tatyana Shnell tomonidan ham tasdiqlangan — uning tadqiqotlarida hayot mazmuni yuqori bo‘lgan kishilarda ruhiy farovonlik darajasi yuqori bo‘lishi aniqlangan [10]. O‘zini anglagan shaxslar stressli vaziyatlarda kamroq xavotirlanadi, muammoga ongli yondashadi, ijtimoiy munosabatlarda ancha moslashuvchan bo‘ladi. Ularning hayotiy maqsadlari real, qadriyatlari esa uyg‘unlashgan. Masalan, mustaqil ravishda ishlayotgan yosh tadbirkorlar orasida o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lganlar ishda muvaffaqiyatsizlikni o‘z-o‘zini ayblash emas, balki tahlil va xulosa chiqarish vositasi sifatida qabul qilishgan.

4. Hayot maqsadining yo‘qligi – ichki bo‘shliq va eksistensial inqiroz sababchisi. Frankl bunday holatni “ekzistensial vakuum” deb ataydi [**6**]. Roy Baumeyster fikricha, bu holat ijtimoiy izolyatsiya, befarqlik va depressiyaga olib keladi [**12**]. Hayotining mazmuni haqida aniq tasavvuri yo‘q yoshlar orasida eksistensial bo‘shliq, befarqlik, ma’nosizlik hissi, hattoki depressiv alomatlar tez-tez uchrashi qayd etildi. Bu holatlarda shaxs o‘zini anglay olmaydi, hayotga nisbatan passiv, bevosita tashqi ta’sirlarga qaram bo‘lib qoladi. Universitetning 1-bosqich talabalari orasida hayotiy maqsadi yoki kasbga qiziqishi shakllanmaganlar darslarga qatnashishdan charchaganini, o‘z faoliyatida hech qanday ma’no ko‘rmayotganini bildirganlar.

5. Trening va psixologik dasturlar hayot mazmuni va o‘zini anglashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tajriba sifatida o‘tkazilgan psixologik treninglarda (masalan: “Hayotiy qadriyatlarim”, “Men kimman?”, “Kelajakdagi men” kabi mashg‘ulotlar) ishtirok etgan yoshlar treningdan so‘ng o‘zini anglash testlarida yuqoriroq ball to‘pladi va hayotiy maqsadlarini aniqroq ifodalay oldilar [8,10]. Treningdan oldin “men nima istayotganimni bilmayman” degan talaba mashg‘ulotlardan keyin “men ijtimoiy sohada ishlashni istayman, chunki bu menga hayotimni mazmunli qilishga yordam beradi” degan fikrni bildirdi.

Xulosa. Hayot mazmunini anglash — bu faqat falsafiy yoki ruhiy tushuncha emas, balki shaxsning psixologik sog‘lig‘i, barqarorligi va o‘sishiga xizmat qiluvchi real psixologik asosdir. O‘zini anglash esa ushbu jarayonning markaziy elementi bo‘lib, u orqali shaxs o‘z hayoti, qadriyatlari va maqsadlariga nisbatan ongli munosabat shakllantiradi. Shu sababli, bu mavzuni amaliy psixologiya, ta’lim va konsalting sohalarida yanada chuqur o‘rganish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova L.A. (2006). Shaxs psixologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti. – 240 b.

2. Yo‘ldoshev Q.X. Ijtimoiy muhit va shaxs: O‘zini anglash va shaxsiy o‘sish. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2011. – 180 b.

3. Salomova T. Ma’naviy qadriyatlar va shaxs rivoji: psixologik-pedagogik yondashuv. – Toshkent: Fan, 2010. – 196 b.

4. G‘ulomov. S. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2006. – 320 b.

5. Yusupov, T. Milliy psixologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2008. – 210b.

6. Франкл В. Э. Сказать жизни «Да»: психолог в концлагере. — М.: Прогресс, 1990.

7. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2020.

8. Леонтьев Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. — М.: Смысл, 2003.

9. Ryff C.D., Keyes C.L.M. (1995). The structure of psychological well-being revisited. Journal of Personality and Social Psychology, 69(4), 719–727.

10. Schnell T. (2009). The Sources of Meaning and Meaning in Life Questionnaire (SoMe). The Journal of Positive Psychology, 4(6), 483–499.

11. Steger M.F. (2017). Meaning in life. In: Oxford Handbook of Positive Psychology. – Oxford University Press, pp. 207–214.

12. Baumeister R.F., Vohs K.D. (2014). The pursuit of meaningfulness in life. In: Meaning in Positive and Existential Psychology. – Springer, pp. 59–72.

13. https://oyina.uz/uz/teahause/2682

Sotvoldiyev Islomjon Furqatjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti,
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA KASBIY SALOMATLIKNI SAQLASH PSIXOLOGIYASI: TAHDIDLAR, YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli va axborotlashgan jamiyatda kasbiy salomatlik tushunchasining psixologik mohiyati, unga ta’sir qiluvchi xavf omillari, shuningdek, kasbiy stress va hissiy charchoqning oldini olishga qaratilgan xalqaro psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Muallif tomonidan zamonaviy axborot oqimi sharoitida ish faoliyatini barqaror saqlash, stressga chidamli bo‘lish va professional “burnout”dan himoyalanishga oid samarali mexanizmlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy salomatlik, axborot bosimi, raqamli stress, hissiy charchoq, profilaktika, xalqaro tajriba.*

ПСИХОЛОГИЯ СОХРАНЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЗДОРОВЬЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ: УГРОЗЫ, ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Аннотация. *В данной статье анализируется психологическая сущность понятия профессионального здоровья в цифровом и информационном обществе, факторы риска, влияющие на него, а также международные психологические подходы, направленные на предотвращение профессионального стресса и эмоциональной усталости. Автором изучены эффективные механизмы устойчивого поддержания работоспособности, стрессоустойчивости и защиты от профессионального "бурноута" в условиях современного информационного потока.*

Ключевые слова: *профессиональное здоровье, информационное давление, цифровой стресс, эмоциональная усталость, профилактика, международный опыт.*

THE PSYCHOLOGY OF PRESERVING PROFESSIONAL HEALTH IN THE INFORMATION SOCIETY: THREATS, APPROACHES, AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Abstract. *This article analyzes the psychological essence of the concept of occupational health in a digital and information society, the risk factors influencing it, as well as international psychological approaches aimed at preventing occupational stress and emotional fatigue. The author studied effective mechanisms for maintaining stable work activity, stress resistance, and protection from professional "burnout" in the context of modern information flows.*

Keywords: *occupational health, information pressure, digital stress, emotional fatigue, prevention, international experience.*

Kasbiy salomatlik tushunchasi zamonaviy psixologiya fanida shaxsning ish faoliyati davomida o‘z psixik barqarorligi, emotsional muvozanati va ruhiy chidamliligini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Bu holat nafaqat shaxsning ish unumdorligi va professional muvaffaqiyati bilan, balki uning hayotiy qoniqishi, stressga nisbatan bardoshliligi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shaxs ish faoliyati davomida doimiy psixologik bosim, axborot yuklamasi, vaqt tanqisligi va kommunikativ zo‘riqishlarga duch kelar ekan, uning kasbiy salomatligini ta’minlash individual, tashkilot va jamiyat darajasidagi kompleks choralarni talab etadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda kasbiy salomatlik yanada murakkablashmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, doimiy onlayn bo‘lish zarurati, ko‘p vazifalilik (multitasking) talabi, ish va shaxsiy hayot chegarasining tobora yo‘qolib borayotgani zamonaviy inson psixikasiga sezilarli bosim o‘tkazmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, tezkor messenjerlar va doimiy yangiliklar oqimi tufayli insonlar o‘z ongini to‘laqonli dam oldirishga yo‘naltira olmaydi. Bu holat psixologiyada

“axborot ortig‘i sindromi” (information overload) deb nomlanib, diqqatning tarqoqligi, kognitiv charchoq, emotsional muvozanatning buzilishi va qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Mazkur sindrom ish joyida samaradorlikni pasaytiradi, muloqotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va stress darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.

So‘nggi yillarda “professional charchash” (burnout syndrome) konsepsiyasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan rasmiy ravishda psixik noqulaylik holati sifatida tan olingan. Bu sindromga, odatda, hissiy charchoq, depersonalizatsiya (boshqalarga nisbatan loqayd munosabat) va professional yutuqlardan norozilik holatlari xos. Burnout sindromi ayniqsa insonlar bilan bevosita muloqotda bo‘ladigan kasblarda — o‘qituvchilar, shifokorlar, psixologlar, jurnalistlar, xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari hamda IT-mutaxassislarda keng tarqalgan. Uzoq muddat davomida yuqori emotsional zo‘riqish sharoitida ishlash, mehnat sharoitining noaniqligi, doimiy ish yuklamasi va tan olinmaslik hissi ushbu sindromning rivojlanishiga olib keladi.

Raqamli jamiyatda 24/7 faoliyat ko‘rsatish, har doim aloqada bo‘lish majburiyati, uyda ham ishlash (remote work) va ish vaqti chegaralarining yo‘qolishi insonlarning kasbiy salomatligiga yanada jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bu esa nafaqat individual darajadagi psixologik muammolarning kuchayishiga, balki mehnat unumdorligi, innovatsion fikrlash va jamoaviy ishlash sifatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, kasbiy salomatlik bugungi kunda faqat shaxsiy muammo emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional miqyosdagi strategik masalaga aylanmoqda.

Xalqaro amaliyotda bu borada bir qator samarali yondashuvlar shakllangan. Masalan, Germaniyada psixologik stressga qarshi kurashish uchun “psixogigiyena” (Psychische Hygiene) kurslari keng joriy qilingan bo‘lib, ular ishchilarga stressni boshqarish, dam olish texnikalari va o‘z holatini kuzatish usullarini o‘rgatadi. Yaponiyada esa ishchilarga haftasiga bir kun “mental health day” deb ataladigan ruhiy tiklanish kuni berilishi tavsiya etiladi, bu ishchilarning kayfiyati va motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. AQShda “emotsional intellekt” (EQ) va “ongli xabardorlik” (mindfulness) treninglari orqali xodimlarning o‘z-o‘zini tushunish, boshqarish va ijobiy emotsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar keng qo‘llanmoqda. Skandinaviya mamlakatlarida esa davlat tomonidan moliyalashtiriladigan “psixologik farovonlik” dasturlari mavjud bo‘lib, ularning natijalari real mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan asoslanadi. Masalan, Shvetsiyada psixologik xizmatlar barcha davlat tashkilotlarida majburiy komponent sifatida joriy etilgan.

O‘zbekistonda esa bu boradagi faoliyat hali shakllanish bosqichida. So‘nggi yillarda ba’zi oliy ta’lim muassasalarida, maktab va kasb-hunar kollejlarida, yirik davlat va xususiy tashkilotlarda psixologik xizmatlar faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning asosiy faoliyati maslahat berish va muammoga reaktiv (ya’ni muammo yuzaga kelgach) yondashishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Psixoprofaktika va psixogigiyenaga oid faoliyatlar, afsuski, sust. Ayniqsa, maktab o‘qituvchilarida kuzatilayotgan hissiy charchoq, yuqori yuklama, doimiy pedagogik yangiliklarga moslashish talabi va ota-onalar bilan murakkab munosabatlar ularning kasbiy salomatligini tahdid ostiga qo‘ymoqda. Tibbiyot xodimlari esa navbatchilik, kechikkan dam olish, resurslarning cheklanganligi va odamlar bilan yuqori intensiv muloqot tufayli zo‘riqishga duchor bo‘lmoqda.

2024-yil avgust–oktabr oylarida o‘tkazilgan tadqiqotda Farg‘ona va Toshkent shaharlarida faoliyat yuritayotgan 112 nafar o‘qituvchi va 87 nafar tibbiyot xodimi so‘rovnomada ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalari respondentlarning 71 foizida kasbiy faoliyat davomida hissiy charchoq, tez-tez asabiylashish, kommunikativ charchoq belgilari kuzatilishini ko‘rsatdi. 53 foizi ish jarayonida doimiy yomon kayfiyatda yurishini bildirgan bo‘lsa, 29 foiz respondent ruhiy holatining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning 76 foizi professional psixologik yordamga hech qachon murojaat qilmagan. Bu raqamlar kasbiy salomatlik muammosining nafaqat mavjudligini, balki uni inkor etish yoki yetarli darajada anglamaslik holatini ham aks ettiradi.

Mazkur holatlar asosida bir qator psixologik va tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqildi: psixologik yordam markazlarini har bir yirik tashkilot tarkibida doimiy faoliyat yuritadigan bo‘lim sifatida tashkil etish; xodimlar va rahbarlar uchun “kasbiy salomatlik”, “stressni boshqarish”, “emotsional intellekt” mavzularida maqsadli treninglarni joriy qilish; tashkiliy jihatdan mukofotlash va motivatsion tizimlarni qayta ko‘rib chiqish, ish yuklamasi va dam olish o‘rtasida muvozanat yaratish; raqamli gigiyena bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish: onlayn/offlayn vaqti chegarasini belgilash, ishdan

keyin aloqani cheklash, vaqtni boshqarish texnikalarini qo‘llash; kasbiy salomatlikni milliy darajada institutsional masala sifatida tan olish, normativ hujjatlar va psixologik xizmat standartlarini ishlab chiqish.

So‘nggi yillarda kasbiy salomatlikni saqlash va rivojlantirish masalasi ilmiy psixologik tadqiqotlarda alohida yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Jumladan, K. Maslach tomonidan ishlab chiqilgan professional charchash sindromining uchta asosiy komponenti – hissiy toliqish (emotional exhaustion), shaxslararo begonalashuv (depersonalization) va professional yutuqlarning kamayishi (reduced personal accomplishment) – bugungi kunda psixologik diagnostika va amaliy psixologiyada keng qo‘llanilmoqda. Bu omillar nafaqat individual ruhiy holatni, balki ish unumdorligi, kasbiy motivatsiya va ijtimoiy munosabatlar sifatini ham belgilab beradi.

Shuningdek, kasbiy salomatlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar qatorida ish muhitidagi adolat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, rahbarlik uslubi, kommunikatsion madaniyat va ishdagi shaxsiy ma’nodorlik hissi muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy psixologiyada Viktor Franklning logoterapiya yondashuvi ham bu borada dolzarb bo‘lib, ish faoliyatida ma’noni topish va shaxsiy qadriyatlar bilan moslik ruhiy salomatlikni ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, zamonaviy ish joylarida "psixologik xavfsizlik" (psychological safety) tushunchasi muhim o‘rinni egallamoqda. Bu atama ostida xodimlarning o‘z fikrlarini erkin bildira olishi, xatolardan qo‘rqmasligi va o‘zini jamoada qadrlangan his qilishi nazarda tutiladi. Harvard universiteti tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik xavfsizlik mavjud bo‘lgan jamoalarda ish unumdorligi va ijodiy fikrlash darajasi yuqoriroq bo‘ladi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, kasbiy salomatlikka oid maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, yuqori ta’lim muassasalarida va tashkilotlarda “kasbiy psixologik salomatlik” fanini amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish orqali ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish lozim. Ayniqsa, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, davlat xizmatchilari kabi “inson bilan ishlovchi” kasblar vakillari uchun bu jihat hayotiy zaruratga aylangan.

Kelajakda bu borada quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash mumkin: (1) psixologik monitoring tizimlarini joriy qilish orqali doimiy ravishda kasbiy salomatlik darajasini baholash; (2) raqamli vositalar asosida stressni aniqlovchi va boshqaruvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish; (3) turli kasb sohalari uchun moslashtirilgan psixoprofilaktika va reabilitatsiya dasturlarini yaratish; (4) rahbarlar uchun "emotsional yetakchilik" bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Kasbiy salomatlik bugungi tezkor, raqamli va emotsional jihatdan zo‘riqishlarga to‘la davrda nafaqat individual farovonlik mezoni, balki ijtimoiy kapital, ishlab chiqarish samaradorligi va umuman ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu boisdan ushbu masalaga yondashuvlar kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli muhitda kasbiy salomatlik nafaqat individual, balki institutsional va ijtimoiy xavfsizlik omili sifatida qaralishi lozim. Mazkur masalani samarali hal etish uchun xalqaro tajribalarni o‘rganish, ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Har bir soha, har bir tashkilot va har bir inson kasbiy salomatlikni ustuvor qadriyat sifatida qabul qilsa, sog‘lom jamiyat sari muhim qadam qo‘yilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova S. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi. – Toshkent: Fan, 2021. – 210 b.
2. World Health Organization. Mental health of adolescents. Geneva, 2023.
3. Nazarova Z. Psixologik salomatlik va zamonaviy tahdidlar. – Samarqand: Ilm ziyo, 2020. – 156 b.
4. OECD (2022). Youth and mental well-being: Policies and practices.
5. Khamidov A. Axborot muhitining psixologik xavflari. – T.: O‘zR FA, 2022. – 132 b.
6. Tursunov I. O‘zbekistonda psixik salomatlik tizimi: imkoniyat va ehtiyojlar. – Toshkent, 2023.

Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: nargizasotvoldiyeva01@gmail.com

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA MOLIYAVIY STRESSNI KELTIRIB CHIQARADIGAN OMILLAR

Annotatsiya. ***Mazkur maqolada moliyaviy stress tushunchasining mazmuni, uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar, psixologik va ijtimoiy oqibatlari, shuningdek, uni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar yoritilgan. Maqola zamonaviy iqtisodiy muhitda inson salomatligi va ruhiy barqarorligini ta’minlashda moliyaviy savodxonlikning ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.***

Kalit so‘zlar: ***moliyaviy stress, daromad, xarajat, qarz, rejalashtirish, ruhiy salomatlik, moliyaviy savodxonlik.***

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ФИНАНСОВЫЙ СТРЕСС В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье раскрывается сущность понятия финансового стресса, основные факторы, вызывающие его, психологические и социальные последствия, а также предлагаются практические рекомендации по его снижению. Статья призвана показать важность финансовой грамотности для обеспечения здоровья и психологической устойчивости человека в современных экономических условиях.*

Ключевые слова: *финансовый стресс, доход, расходы, долг, планирование, психическое здоровье, финансовая грамотность.*

FACTORS CAUSING FINANCIAL STRESS IN MODERN PSYCHOLOGY

Abstract. *This article explores the concept of financial stress, its primary causes, psychological and social consequences, as well as practical recommendations for its mitigation. The article aims to demonstrate the significance of financial literacy in ensuring human health and mental stability in the contemporary economic environment.*

Keywords: *financial stress, income, expenses, debt, planning, mental health, financial literacy.*

Inson hayotining barcha jabhalarida barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, moliyaviy sohadagi notinchlik va rejasizlik inson ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Pul bilan bog‘liq muammolar, qarzlar, kutilmagan xarajatlar va daromad yetishmovchiligi kabi omillar insonni moliyaviy stress holatiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada moliyaviy stressning mohiyati va uni yengish yo‘llari tahlil qilinadi. Moliyaviy stress asosan pul yetishmasligini his qilganimizda yuzaga keladi. Bundan tashqari, ko‘pincha pul bizda muvaffaqiyat bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi va agar u yetarli bo‘lmasa, o‘zimizni aybdor deb bilamiz, ma’lum yutuqlarga erisha olmadik deb o‘ylaymiz. Boshqalar ko‘p pul topayotgan ekan, demak, bizda nimadir noto‘g‘ri, degan fikr paydo bo‘ladi.

Moliyaviy stress boshqa sabablarga ko‘ra ham namoyon bo‘lishi mumkin. Kimdir hozir pul yo‘qligidan xavotirda bo‘lsa, kimdir kelajakda pul bo‘lmasligidan tashvishlanadi, yana kimdir esa atrofdagilar uning haddan tashqari yuqori maoshini qoralashidan xavotirlanib, tunda uxlay olmaydi. Shuningdek, bunday xavotir o‘tmishdagi travmatik voqea bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 90-yillarda qashshoqlik chegarasidan past bo‘lgan odamlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ularning ba’zilariga eng oddiy narsalar - oziq-ovqat va kiyim-kechak yetishmasdi. Bunday odamlarda ko‘pincha hozir hammasi yaxshi va hech qanday yomonlik kutilmayotgan bo‘lsa ham, yana shunday holatga tushib qolishdan qo‘rquv paydo bo‘ladi.

Moliyaviy stress — bu shaxsning moliyaviy qiyinchiliklar tufayli boshdan kechiradigan xavotir, ruhiy bosim, tushkunlik holati hisoblanadi. U insonning psixologik holati, sog‘lig‘i, ish faoliyati va oilaviy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Biz tadqiqotimizni Farg‘ona davlat universiteti turli xil yo‘nalishi talabalarining 1-3 kurslarida olib bordik. Ularda M. F. Sekach, V. F. Perevalov, L. G. Laptevlar tomonidan ishlab chiqilgan “Menejerning ruhiy barqarorligini o‘z-o‘zini baholash” metodikasini tanlab oldim va ushbu metodikaga 150 nafar talabalarni ishtirokini ta’minladim.

1-jadval

“Moliyaviy stressni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash natijalarining statistik tahlili”.

№	Yo‘nalishlar	Ishtirokchi soni	% hisobida
1	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	70 nafar	46.7%
2	Aniq-texnik fanlar	50 nafar	33.3%
3	Iqtisodiyot va moliya	30 nafar	20%

1-jadval natijalariga ko‘ra ushbu yo‘nalish talabalarida ya’ni ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarida 70 nafar ya’ni 46.7 % talabalarda moliyaviy stresslarning omillarini turli xil daromadni yetarli emasligi yoki bu yo‘nalishdagi kadrlarga ish haqining pastligi , doimiy daromad manbasining yo‘qligi norasmiy joylari yoki vaqtinchalik ishlarning daromadsizligi bulardagi moliyaviy stressni olib kelishligi mumkinligi aniqlandi.

Aniq va texnika fanlari yo‘nalishdagi talabalarda yoki ushbu yo‘nalishdagi kadrlarning 50 nafari ya’ni 33.3% ining natijalariga ko‘ra ulardagi doimiy daromadning mavjud emasligi, kridit to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lay olmasligi, tabbiy xarajatlarning ko‘pligi, moliyaviy savodsizlik, budjet tuza olmaslik hamda moliyaviy rejalashtirishni bilmasliklari ularda moliyaviy stressni olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

2-jadval

“**Umumiy natijalar (150 respondent bo‘yicha o‘rtacha ball)**”

Moliyaviy stress omili	O‘rtacha ball	Standart og‘ish (SD)
Daromad-xarajat nomutanosibligi	4.3	±0.8
Ijtimoiy taqqoslash bosimi	3.9	±1.0
Kutilmagan vaziyatlarga tayyorgarlik yo‘qligi	4.1	±0.7
Moliyaviy savodsizlik	3.7	±1.2
Kredit/qarzlar tufayli xavotir	4.5	±0.6

Ushbu yo‘nalish talabalari o‘zlarining kasb bo‘yicha stresslarining moliyaviy stress omillarini, ijtimoiy taqqoslash bosimi, kutilmagan vaziyatlarga tayyorgarlik yo‘qligi, moliyaviy savodsizlik, kredit/qarzlar tufayli xavotir omillariga nisbatan tayyorgarlikning mavjudligi aniqlandi. Chunki ushbu talabalar dars davomida nazariy bilimlar orqali olinganligi va uni amaliyotga joriy qilinishga tayyorligi bunga misol bo‘la oladi.

3-jadval

“Jinslar kesimida taqqoslash (o‘rtacha ball)”

Omil	Ayollar (n = 90)	Erkaklar (n = 60)
Daromad-xarajat nomutanosibligi	4.5	4.0
Ijtimoiy taqqoslash bosimi	4.2	3.6
Tayyor emaslik (favqulodda)	4.3	3.7
Moliyaviy savodsizlik	3.9	3.4
Qarzlar tufayli xavotir	4.7	4.2

3-jadval natijalariga ko‘ra ayollarda barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqoriroq ball kuzatilgan. Bu moliyaviy tahdidlar va noaniqliklarga emotsional sezuvchanlikning yuqoriligi ekanligi aniqlandi.

Moliyaviy stressning asosiy sabablari:

- Barqaror daromad manbaining yo‘qligi yoki kamayishi;
- Kredit va qarzlarning ko‘pligi’
- Kutilmagan xarajatlarning yuzaga kelishi’
- Moliyaviy rejalashtirish ko‘nikmalarining yetishmasligi’
- Ishsizlik yoki vaqtinchalik bandlik muammolari.

Moliyaviy stress belgilari:

- Ruhiy bezovtalik, tushkunlik;
- Uyqu buzilishi, charchoq;
- Oila a’zolari bilan ixtiloflar;
- Pulga bog‘liq qarorlar qabul qilishda qiyinchilik;
- Diqqatni jamlay olmaslik, ish unumdorligining pasayishi.

Moliyaviy stressning oqibatlari:

- Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar (yurak, asab, oshqozon kasalliklari);
- Depressiya, motivatsiyaning yo‘qolishi;
- Ijtimoiy aloqalarning susayishi;
- Moliyaviy xavfsizlik darajasining pasayishi.

Moliyaviy stressni kamaytirish va oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy rejalashtirish: Har oygi daromad va xarajatlar balansini yuritish
2. Qarzdorlikni boshqarish: Kredit va qarzlarni to‘lashning ustuvor rejasini tuzish
3. Zaxira jamg‘armasi yaratish: Favqulodda holatlar uchun jamg‘arma shakllantirish
4. Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Moliya bo‘yicha treninglar, seminarlar, kitoblar orqali bilimni boyitish
5. Ruhiy barqarorlikni saqlash: Sport, dam olish, stressni kamaytiruvchi mashg‘ulotlar, psixologik yordam

Xulosa qilib shuni aniqlash lozimki, moliyaviy stress — zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan muammolardan biridir. Uni vaqtida aniqlash va yengish, avvalo, insonning moliyaviy savodxonligiga, rejalashtirish ko‘nikmasiga va psixologik tayyorgarligiga bog‘liq. Har bir shaxs o‘z moliyaviy holatini tahlil qilgan holda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi zarur. Shundagina iqtisodiy muhitda barqaror va sog‘lom turmush tarziga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: 2000
2. B.N.Sirliyev,N.Ismoilova,I.M.Xakimova “Stress va Agressiya” T.2014
3. Демоз Л. Психоистория. – Ростов-на-Дону: 2000.
4. Мерлин В.С. «Структура личности. Характер, способности, самосознание. Пермь». 1990. – С.96.

Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonova,
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SPIRINLAR TAFAKKURINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘spirinlik davridagi tafakkur jarayonining psixologik xususiyatlari, o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va kasbga yo‘naltirilish holatlari o‘rganilgan. Shu bilan birga, bu davrdagi tafakkur faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar va uni rivojlantirishning samarali pedagogik usullari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘spirin, tafakkur, mustaqil fikr, psixik rivojlanish, kasb tanlash, ma’naviy-axloqiy tarbiya.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS’ THINKING

Abstract. *This article examines the psychological characteristics of the thinking process in adolescence, self-awareness, independent thinking, critical thinking, and career guidance. At the same time, the factors influencing the mental activity of this period and effective pedagogical methods of its development are analyzed.*

Keywords: *adolescent, thinking, independent thought, psychological development, career choice, moral and ethical education.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЫШЛЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические особенности мыслительного процесса в подростковом возрасте, самосознание, самостоятельное мышление, критическое мышление и профессиональная ориентация. В то же время анализируются факторы, влияющие на мыслительную деятельность в этот период, и эффективные педагогические методы ее развития.*

Ключевые слова: *подросток, мышление, самостоятельное мышление, психическое развитие, выбор профессии, духовно-нравственное воспитание.*

O‘spirinlik davri — bu inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, unda shaxsiy tafakkur, o‘zini anglash va mustaqil fikrlash faol ravishda shakllanadi. Bu davrda o‘quvchilar o‘zining ichki dunyosi, qobiliyatlari va imkoniyatlarini anglashga intiladi. O‘spirinning tafakkur jarayoni faqat bilim olish emas, balki hayotiy maqsadlarni belgilash, qadriyatlarni shakllantirishda ham asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘spirin tafakkurining rivojlanishiga ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarning ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyida 60 nafar o‘spirin o‘quvchilar ishtirok etdi. Quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar soni va taqsimoti

1-jadval

Guruh	Yosh (yil)	Ishtirokchilar soni	Jinsi
A	16–17	20 nafar	10 o‘g‘il, 10 qiz
B	18–19	20 nafar	12 o‘g‘il, 8 qiz
C	17	20 nafar	11 o‘g‘il, 9 qiz
Jami	—	60 nafar	33 o‘g‘il, 27 qiz

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metodlar

2-jadval

Metod nomi	Maqsadi	Qo‘llash shakli
Psixologik testlar (Raven, Leontyev)	Mantiqiy va abstrakt tafakkur darajasini baholash	Individual
Suhbat (yarim strukturalangan)	Ichki psixologik muammolar va tafakkurga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash	Guruhli/Individual
O‘quv jarayonini kuzatish	Tafakkurning amaliy ko‘rinishini aniqlash	Ochiq darslar davomida
So‘rovnoma	Kasb tanlash motivlari va ijtimoiy qadri-yatlar	Yozma shaklda

O‘spirinlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘zini anglash jarayoni jadallashadi. O‘spirinlar o‘zlarining kimligi, jamiyatdagi o‘rni, qadriyatlari va hayotiy maqsadlari haqida o‘ylay boshlaydilar. Bu davrda ularning ichki dunyosida o‘ziga xos savol-lar paydo bo‘ladi: “Men kimman?”, “Nega boshqalardan farq qilaman?”, “Qanday hayot kechirishni istayman?” Shu savollarga javob izlash orqali o‘spirinlar shaxsiy identifikatsiyani shakllantiradilar.

O‘zini anglash jarayoni nafaqat ichki tafakkur, balki atrof-muhit, oila, do‘stlar va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro ta’sir orqali kechadi. Ular ko‘pincha o‘rnak olish, qiyoslash, baholash orqali o‘z nuqtayi nazarlarini shakllantiradilar. Shu sababli, bu davrda o‘spirinlar ko‘proq mustaqil fikr yuritishga intiladilar. Mustaqil fikrlash — bu mavjud axborotni tanqidiy tahlil qilish, o‘z qa-rashini shakllantirish va bu qarashlarni asoslab bera olish qobiliyatidir.

O‘spirinlar mustaqil fikr yuritishni o‘rganar ekanlar, ular turli qarama-qarshi g‘oyalarni eshita-dilar va shular orasidan o‘zlariga yaqin bo‘lganini tanlab olishga harakat qiladilar. Bu jarayonda mu-him jihat — ularga erkin fikrlash, savol berish va fikrini bildirish imkonini yaratishdir. Aks holda, ularning fikrlashi stereotiplar va tashqi bosim ostida shakllanib, chinakam mustaqillikka er-isholmaydi.

Umuman olganda, o‘zini anglash va mustaqil fikrlash o‘spirinning shaxsiy va ijtimoiy kamoloti uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ularning kelajakdagi hayotiy qarorlarini mustahkam, ongli va mas’uliyatli tarzda qabul qilishiga yordam beradi.

Tanqidiy tafakkur — bu shunchaki bilimlarni yod olish emas, balki ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, ularni baholash, turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish va asosli xulosa chiqarish ja-rayonidir. O‘spirinlik davri ana shu tafakkur jarayonining shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu yoshda o‘spirinlar real hayotdagi voqealar, o‘qilgan materiallar, ko‘rilgan filmlar yoki eshitilgan fikrlar haqida o‘z qarashlarini bildirishga va ularni tahlil qilishga urinadilar.

Tanqidiy tafakkur o‘spirinlarga nafaqat muayyan bilimlarni egallash, balki bu bilimlarni qanday ishlatishni tushunish imkonini beradi. Ular matnni o‘qibgina qolmay, undagi asosiy g‘oya nima, dalillar qanchalik ishonchli, muallifning pozitsiyasi qanday va unga qanday alternativ qarashlar mavjudligi haqida o‘ylay boshlaydilar. Bu esa o‘spirinlarni mustaqil fikr yuritishga, shoshqaloq xulosalardan saqlanishga va har bir fikrga asosli yondashishga o‘rgatadi.

Shu bilan birga, tanqidiy tafakkur darajalari har bir o‘spirinda har xil bo‘lishi mumkin. Ba’zilar mantiqiy bog‘liqlarni tezda aniqlay oladi, boshqalari esa chuqur tahlilga ko‘proq vaqt va yo‘naltirish talab etadi. Bu tafovutlar bolaning intellektual salohiyati, o‘qish madaniyati, oilaviy tarbiyasi va ta’lim muhitiga bog‘liq. Muhimi, har bir o‘spiringa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, savol berishga undash, o‘z fikrini dalillashga o‘rgatish lozim.

Tanqidiy tafakkur bilan qurollangan o‘spirin hayotga ham realroq nazar bilan qaraydi. U boshqalarning fikriga ko‘r-ko‘rona ergashmaydi, balki har bir axborotni mustaqil tahlil qiladi, muam-molarga ijodiy va mantiqiy yechim topishga intiladi. Bu esa uni nafaqat bilimli, balki ongli va faol fuqaroga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kasb tanlash — o‘spirin hayotidagi eng muhim va ta’sirchan qarorlardan biri bo‘lib, bu jarayon ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Har bir inson o‘ziga mos, qoniqarli va istiqbolli kasbni tanlashga intiladi. Biroq o‘spirin yoshida bu qarorni qabul qilish ko‘p hollarda aniq bilim va hayotiy tajriba yetishmasligi sababli murakkab bo‘ladi. Shu bois, kasb tanlash motivlarini chuqurroq tushunish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, shaxsiy qiziqish kasb tanlashda asosiy omillardan biridir. O‘spirinlar o‘zlarining qobiliyatlari, qiziqishlari va ichki intilishlariga mos kasbni tanlashga harakat qiladilar. Masalan, kimdir san’atga, boshqasi texnikaga yoki tibbiyotga mehr qo‘yadi. Agar tanlangan kasb o‘spirinning tabiiy qiziqishi bilan mos kelsa, u bu sohada o‘zini yanada to‘liq namoyon eta oladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy ta’sir — ayniqsa do‘stlar, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali kasb tanlash qaroriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. O‘spirinlar ko‘pincha o‘z tengdoshlari yoki ijtimoiy maydonda mashhur bo‘lgan shaxslarning yo‘lini tanlashga moyil bo‘lishadi. Bu holat ularga o‘zlarini jamiyatda qadrlangan kasblar orqali tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Oilaviy an’analar ham kasb tanlashda muhim o‘rin tutadi. Ba’zida ota-onalar farzandlarini o‘zlari egallagan kasb yo‘nalishiga yo‘naltirishadi yoki oilada qadrlanadigan kasblar bo‘yicha yo‘l ko‘rsatishadi. Bu holatda farzandlarning qarori ba’zan o‘z istagiga emas, balki oilaviy kutishlarga mos tarzda shakllanadi.

Moddiy ta’minot omili esa ko‘proq kelajakdagi hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘spirinlar ko‘pincha daromadi yuqori, ijtimoiy kafolati kuchli kasblarga intiladilar. Ayniqsa, iqtisodiy muammolar mavjud bo‘lgan oilalarda bu omil kuchliroq rol o‘ynaydi. Ular kasbni nafaqat qiziqish, balki moddiy barqarorlikni hisobga olib tanlaydilar. Shunday qilib, kasb tanlash motivlari ko‘p qirrali bo‘lib, har bir o‘spirinning shaxsiyati, oilaviy muhit, jamiyatdagi ijtimoiy tendensiyalar va iqtisodiy holat bilan chambarchas bog‘liq. Muhimi, bu jarayonda o‘spiringa yo‘naltiruvchi, lekin bosimsiz ko‘mak ko‘rsatish, uning ichki intilishlarini anglashga va rivojlantirishga yordam berishdir. Ana shunda kasb tanlash qarori ongli va barqaror bo‘ladi.

Tafakkur — bu insonning atrof-muhitdagi hodisalar va voqealarni anglash, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. O‘spirinlik davri tafakkur jarayonining faol rivojlanish bosqichi bo‘lib, bu davrda turli tafakkur turlari tobora yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Har bir tafakkur turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘spirin shaxsining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Aqliy faollik — bu bilim olishga, yangilikka, savol berishga va muammolarga javob izlashga bo‘lgan ichki intilishdir. Aqliy faolligi yuqori bo‘lgan o‘spirinlar atrofdagi voqealarga befarq bo‘lmaydi, ular har doim fikrlaydi, tahlil qiladi va o‘rganadi. Bu holat ularning ilmiy izlanishga, tanqidiy fikrlashga va o‘z fikrini asoslashga bo‘lgan qobiliyatini mustahkamlaydi.

Mantiqiy tafakkur esa voqealar orasidagi sabab-oqibat aloqalarini tushunish, muammolarni tahlil qilish va oqilona yechim topa olish ko‘nikmasini anglatadi. O‘spirinlar bu bosqichda turli vaziyatlarni izchil fikr yuritish orqali hal etishga intiladilar. Ular uchun bu ko‘nikma hayotdagi real muammolarni hal qilish, bahs-munozaralarda qatnashish va fikrini mantiqan asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy yondashuv — o‘spirin tafakkurining yana bir muhim jihati bo‘lib, mavjud muammolarga noodatiy va yangi yechimlar topishga intilish bilan bog‘liq. Bu ko‘nikma o‘quv jarayonida, san’at, adabiyot, texnika va kundalik hayotdagi holatlarda faol namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlovchi o‘spirinlar muammoga bir necha tomondan qaray oladi, original g‘oyalar ilgari suradi va yangilik yaratishga intiladi.

Emotsional sezgirlik esa tafakkurning hissiy jihati bo‘lib, o‘spirinlarning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning kechinmalarini anglash, tushunish va ularga javob qaytarish qobiliyatini ifodalaydi. Bu holat ayniqsa insonlar bilan muloqotda, empatiya, hamdardlik, murosaga kelish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, o‘spirinlik davrida tafakkur turli shakllarda rivojlanadi va bu rivojlanish ularning shaxsiy, ijtimoiy hamda intellektual kamolotida hal qiluvchi omilga aylanadi. Bu tafakkur turlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va rivojlantirish esa ularning kelajakdagi mustaqil, ongli va faol shaxs bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. O‘qituvchi o‘spirinlarning tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda

hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, dars jarayonida mustaqil fikrlashga undovchi yondashuvlar orqali o‘quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy yondashuvi va tanqidiy tafakkur darajasi sezilarli darajada oshadi. An’anaviy bilim berish uslublaridan farqli o‘laroq, zamonaviy ta’lim o‘qituvchidan faqat ma’lumot yetkazuvchini emas, balki fikrlashga yo‘naltiruvchi, muhokama tashkilotchisi va ilhomlantiruvchi bo‘lishni talab qiladi.

O‘qituvchi tomonidan berilgan ochiq va ko‘p yo‘nalishli savollar o‘quvchini faollikka undaydi. Bunday savollar aniq javob talab qilmaydi, balki o‘quvchini o‘z fikrini ilgari surishga, sabab-oqibatlarni tushuntirishga va turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishga majbur qiladi. Bu esa tanqidiy va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Munozaralar esa dars jarayonida fikr almashish, boshqa fikrlarni tinglash va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish imkonini beradi. O‘spirinlar muhokama jarayonida faqatgina o‘qilgan ma’lumotga tayanib qolmay, balki shaxsiy tajribasi, kuzatuvlari va his-tuyg‘ulariga ham asoslanadi. Bu ularda muloqot madaniyati, emotsional sezgirlik va ijtimoiy tafakkur kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Amaliy topshiriqlar esa o‘quvchilarga bilimlarni real hayotiy holatlar bilan bog‘lash, o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu turdagi topshiriqlar o‘quvchini mustaqil qaror qabul qilishga, muammoga ijodiy yondashishga va natijalarni baholashga o‘rgatadi. Masalan, rol o‘ynash, loyiha ishlari yoki muammoli vaziyatlar asosida yechim izlash kabi faoliyatlar orqali o‘spirinlarda turli tafakkur turlari uyg‘onadi. Shu tariqa, o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchining tafakkurini yo‘naltiruvchi murabbiyga aylanadi. Uning darsdagi faol ishtiroki va yondashuvi orqali o‘spirinlarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga asoslangan shaxsiy rivojlanish uchun muhim poydevor yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlikda tafakkurning rivojlanishi izchil emas, balki turli omillar ta’sirida shakllanadi. Shaxsiy xususiyatlar, maktab muhitidagi jamoaviy munosabatlar va pedagogik yondashuvlar bu jarayonni belgilaydi. O‘spirinlar tafakkurining mazmundorligi, mustaqilligi, tezligi va samaradorligi ularning bilim darajasi, qiziqishi, aqliy salohiyati va emotsional holatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish va tanqidiy qarashni rivojlantirish orqali tafakkur faoliyatini kuchaytirish mumkin.

O‘spirinlar tafakkurining psixologik xususiyatlari ularning shaxsiy kamolotiga bevosita ta’sir qiladi. Bu davrda o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishlar shakllanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarga qo‘llaniladigan metodlar tafakkurni faollashtirishga, mustaqil qaror qabul qilishga, aqliy salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. O‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati orqali o‘spirin tafakkurining sog‘lom va samarali shakllanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. G‘oziev E. *Psixologiya*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
2. G‘oziev E. *Pedagogik psixologiya asoslari*. — Toshkent, 1997.
3. Asomova R.Z. *Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi*. Psix.f.n. diss. — Toshkent, 2002.
4. Azizxo‘jaeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.
5. Krutetskiy V.A. *Psixologiya. O‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari*. — Moskva: Pedagogika, 1980.
6. Umanskiy L.A. *Psixologiya lichnosti podrostka*. — Moskva: Znaniye, 1986.

Toshqo‘ziyeva Dildora Shukurjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALAR O‘QUV MOTIVLARINI NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning faoliyatida o‘quv motivlarining o‘rni va ahamiyati, ularni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ichki va tashqi motivning kasb motivlariga ta’siri, Kommunikativ motivlari, qochish motivlari, obro’–e’tibor rmotivlari, kasbiy motivlar, ijodiy o‘z-o‘zini anglash motivlari, o‘quv-tarbiyaviy motivlar, ijtimoiy motivlar va ular o‘rtasidagi farqlar, o‘quv motivlarini o‘rganish natijalari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, o‘quv faoliyati, motiv, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kasbiy motivlar, shkala, metod,daraja, maqsad, muvaffaqiyat.*

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и значение учебных мотивов в деятельности студентов, их теоретический и практический анализ, влияние внутренних и внешних мотивов на профессиональные мотивы, коммуникативные мотивы, мотивы избегания, репутационные мотивы, профессиональные мотивы, описаны мотивы творческой самореализации, учебные мотивы, социальные мотивы и различия между ними, результаты исследования учебных мотивов.*

Ключевые слова: *студент, учебная деятельность, мотив, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, профессиональные мотивы, шкала, метод, уровень, цель, успешность.*

THE THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDENTS’ LEARNING MOTIVATION

Abstract. *The article describes the role and importance of educational motives in students' activities, their theoretical and practical analysis, the influence of internal and external motives on professional motives, communicative motives, avoidance motives, reputation motives, professional motives, the motives of creative self-realization, educational motives, social motives and the differences between them, the results of the study of educational motives.*

Key words: *student, educational activity, motive, internal motivation, external motivation, professional motives, scale,method, level, goal, success*

Bugungi kunda, psixolog faoliyatiga professional va shaxsiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan shaxsgina malakali psixologik yordam ko‘rsatishga qodir. Bunday tayyorlik kasbiy ta’lim jarayonida shakllana boshlaydi va uning muhim mezoni psixologiya fakulteti talabalari o‘rtasida mazmunli hayotiy yo‘nalishlarning yuqori darajada shakllanishi hamda ta’lim va kasbiy faoliyatning ichki motivlarining ustunligi hisoblanadi. Bundan maqsad esa talabalar-psixologlarning hayotiy ma'no yo‘nalishlari va o‘quv va kasbiy faoliyati uchun motivatsiya o‘rtasidagi munosabatni ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak :

1) psixologiya talabalarining o‘quv va kasbiy faoliyati uchun hayot yo‘nalishlari va motivlarining ma'nosini o‘rganish

2) psixologiya talabalarining hayotiy ma'no yo‘nalishlarini ochib berish;

3) psixolog-talabalarning o‘quv va kasbiy faoliyati uchun motivatsiyani aniqlash;

4) psixologiya talabalarining o‘quv va kasbiy faoliyati motivlari va hayotiy mazmuni o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatish.

5) ta'lim va kasbiy faoliyatning ichki motivlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ularni tayyorlash bilan shug'ullanadigan talabalar-psixologlar va o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

O'rganish obyekti: Farg'ona davlat universitetiPedogogoika-psixologiya fakulteti, psixologiya yo'nalishi 1-bosqich 98 nafar, 3-bosqich 96 nafar jami 194 nafar talabalari

Tadqiqotning gipotezasi sifatida, hayotning mazmunli yo'nalishlari va psixologiya talabalarining o'quv va kasbiy faoliyati uchun motivatsiyaning o'zaro bog'liqligi, ya'ni insonning hayotining o'tgan qismidan qanchalik ko'p qoniqishi, shuningdek, o'zaro bog'liqligi haqida taxmin qilingan. uning hozirgi hayoti va aniq maqsadlarni qo'yish qobiliyati, ta'lim va kasbiy faoliyatning ichki motivlari qanchalik ko'p namoyon bo'ladi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli sifatida quyidagi metodikalardan foydalanilgan:

1) A.A.Rean va V.A.Yakuninning "Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi"(N.S.Badmayeva modifikatsiyasi)

Metodokaning maqsadi talabalarning o'quv faoliyati motivlarini o'rganishdir. Ushbu tadqiqot metodologiyasi psixologiya talabalarining o'quv va kasbiy faoliyati motivlarining ierarxiyasini o'rganish va undagi eng muhim va ahamiyatsiz motivlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Texnika mavzu uchun ahamiyatlilik darajasiga ko'ra quyidagi motivlarni kamroq ahamiyatga ega bo'lgandan ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan saralashni o'z ichiga oladi:

Metodika A.A.Rean va V.A.Yakuninlarning so'rovnomasi asosida ishlab chiqilgan. Yuqoridagi so'rovnomaning 16 ta bayonotiga V.G.Leontyev tomonidan ta'kidlangan ta'lim motivlarini tavsiflovchi bayonotlar hamda talabalar va maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida N.T.Badmaeva tomonidan olingan ta'lim motivlarini tavsiflovchi bayonotlar qo'shilgan. Bular:

kommunikativ, kasbiy, ta'lim va kognitiv, keng ijtimoiy motivlar, shuningdek, ijodiy o'zini o'zi anglash, muvaffaqiyatsizlik va obro'-e'tibordan qochish motivlari.

2) O'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish (Y.A.Kalinina) anketasi

Maqsad: anketa metodologiyasidan foydalangan holda ta'lim faoliyati motivatsiyasini o'rganish.50 ta savoldan iborat anketa ta'lim faoliyatining dominant motivlarini aniqlashga qaratilgan va 5 ta motivning miqdoriy tavsifini bilib olish imkonini beradi.

1) maqsadga erishish zarurati;
2) ta'lim faoliyatining raqobatbardoshligi zarurati;
3) o'z-o'zini takomillashtirish ehtiyojlari;
4) muloqot va jamoaviy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlar;
5) ta'lim faoliyati jarayonidan tashqarida yangi bilimlarni o'zlashtirish zarurati.

3) O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini aniqlash (T.D.Duboviskaya) metodikasi.

Test – so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlari bilan (12 yoshdan boshlab) – o'z – o'zini tahlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D. Duboviskaya tomonidan tuzilgan bo'lib, uning stimul materiali 20 ta ta'kiddan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiriluvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Muvaffaqiyatli o'qish uchun motivatsiya omili aql omilidan kuchliroqdir. Muvaffaqiyatli o'rganishuchun o'rganish motivining yuqori ahamiyatini anglash o'quv jarayonini motivatsion qo'llab-quvvatlashtamoyilini aniqlashga olib keldi . O'rganishning turli motivlari orasida, xususan, tashqi va ichkimotivlarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir. L. M. Fridman ularning farqini quyidagichatavsiflaydi: «Agar berilgan faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlar u bilan bog'liq bo'lmasa, u holda ularushbu faoliyatga nisbatan tashqi deyiladi; motivlar bevosita faoliyatning o'zi bilan bog'liq bo'lsa, ular ichki deyiladi" . Motiv, agar u faoliyat maqsadiga mos kelsa, ichkidir. Ya'ni shartlar asosida o'quv faoliyati, mavzu mazmunini o'zlashtirish bir vaqtning o'zida ham motiv, ham maqsad. Ichki motivlar subyektning bilish ehtiyoji, bilish jarayonidan olingan zavq bilan bog'liq. O'quv materialini o'zlashtirish o'rganish maqsadi bo'lib xizmat qiladi, bu holda o'quv faoliyati xarakterini ola boshlaydi. Talaba esa moddiy jihatdan bilish jarayoniga kiradi va bu unga hissiy qoniqish

beradi. Ichki motivatsiyaning ustunligi o‘zining namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. o‘quv faoliyati jarayonida talabalarning faoliyati o‘zlashtirish sharti bilan o‘quv faoliyati tashqi motivatsiyaga aylanadi. Mavzuning mazmuni maqsad emas, balki boshqa maqsadlarga erishish vositasidir. Bu yaxshi baho(sertifikat, diplom), stipendiyalar, maqtovlar, o‘rtoqlari tomonidan tan olinishi, o‘qituvchining talabiga bo‘ysunishva boshqalar bo‘lishi mumkin. Tashqi motivatsiya bilan bilim o`qitishning maqsadi emas, o`quvchi bilish jarayonidan uzoqlashgan. O‘qigan talaba uchun fanlar ichki qabul qilinmaydi, ichki motivatsiyaga ega emas va ta'lim fanlarining mazmuni shaxsiy qadriyatga aylanmaydi.O‘z faoliyati samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo‘lgan o‘qituvchi, tabiiyki, o‘rganish motivatsiyasiga e'tibor beradi va uni faollashtirishga intiladi. yuqori darajada, lekin shu bilan birga, turli shakllar, o‘qitish usullari va fan mazmunini tanlashda o‘quvchilarmotivatsiyasining hozirgi darajasini va uning dinamikasini aniqlash imkonini beruvchi metodik vositalar yetishmaydi.Shu munosabat bilan Duboviskaya fanni o‘rganish uchun motivatsiya yo‘nalishini diagnostika qilish metodologiyasini ishlab chiqdi, undan o‘quv jarayonida foydalanish mumkin va o‘qitish samaradorligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiyaning maqsadi - ichki motivning rivojlanish yo‘nalishi va darajasini aniqlash aniq fanlarni o‘rganishda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati.

Amalga oshirish va amaliy foydalanish.

Taklif etilgan texnikadan foydalanish mumkin:

1) talabalarning muvaffaqiyatsizligi sabablarini aniqlash;

2) motivatsiya yo`nalishiga qarab o`quvchilar toifalarini aniqlash (tashqi motivatsiyaning ustunligi, ichki motivning ustunligi);

3) o‘quv jarayonida o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish;


4) o‘quv fanlarini o‘qitish samaradorligini o‘rganish va resurslarni izlash

5) o‘quv faoliyati motivlarining turlari va talabalarning motivatsion sohasini faollashtirish usullari vausullarini izlash.

Olingan ma'lumotlarni miqdoriy qayta ishlash uchun Spirman va Pirson korrelyatsiya tahlili usuli qo‘llanildi, chunki mavjud ko‘rsatkichlar tartibli shkalada o‘lchanadi.


1-diagramma

Kurslar miqyosida ichki motivatsiyaning darajalari. O‘z-o‘zini takomillashtirish shkalasi, Y.A.Kalininaning “O‘quv faoliyati motivatsiyasini aniqlash“ anketasi bo‘yicha respondentlarning natijalari.




2-diagramma

Kurslar miqyosida ichki motivatsiyaning darajalari. Muloqot va jamoaviy faoliyat shkalasi Y.A.Kalininaning “O‘quv faoliyati motivatsiyasini aniqlash“ anketasi bo‘yicha respondentlarning natijalari.



3-diagramma

Kurslar miqyosida ichki motivatsiyaning darajalari. Ta'lim faoliyatidan tashqari yangi bilimlarni o'zlashtirish Y.A.Kalininaning "O'quv faoliyati motivatsiyasini aniqlash" anketasi bo'yicha respondentlarning natijalari.



Y.A.Kalininaning "O'quv faoliyati motivatsiyasini aniqlash" anketasi natijalariga ko'ra, har bir shkala bo'yicha kurslar o'rtasidagi o'zaro farqlar aniqlandi.Beshinchi shkala ta'lim faoliyatidan tashqari yangi bilimlarni o'zlashtirish shkalasi bo'lib, unga ko'ra, birinchi kurslarda ichki motivatsiyaning past darajasi 17%, o'rta darajasi 72%, yuqori darajasi 9% ni, uchinchi kurs talabalarida esa ichki motivatsiyaning past darajasi 7%, o'rta darajasi 82%, yuqori darajasi 7% ni tashkil qildi.

O'quv faoliyati, mavzu mazmunini o'zlashtirish bir vaqtning o'zida talaba uchun fanlar ichki qabul qilinmaydi, ichki motivatsiyaga ega emas va ta'lim fanlarining mazmuni shaxsiy qadriyatga aylanmaydi.

Ichki motivatsiyaning ustunligi o'zining namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi Shaxsni tarbiyalash, birinchi navbatda, uning ehtiyojlari va motivlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Muvaffaqiyatli o'qish uchun motivatsiya omili aql omilidan kuchliroqdir. Muvaffaqiyatli o'rganish uchun o'rganish motivining yuqori ahamiyatini anglash o'quv jarayonini motivatsion qo'llab-quvvatlash tamoyilini aniqlashga olib keldi . O'rganishning turli motivlari orasida, xususan, tashqi va ichki motivlarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir . L. M. Fridman ularning farqini quyidagicha tavsiflaydi: «Agar berilgan faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlar u bilan bog'liq bo'lmasa, u holda ular ushbu faoliyatga nisbatan tashqi deyiladi; motivlar bevosita faoliyatning o'zi bilan bog'liq bo'lsa,

ular ichki deyiladi". Motiv, agar u faoliyat maqsadiga mos kelsa, ichkidir. Ya'ni shartlar asosid-abugungi doimiy o'zgaruvchan, dinamik dunyoda bu nafaqat talabaga fanlar bo'yicha bilim, ko'nikmava ko'nikmalarni o'rgatishdir. O'quv faoliyati, mavzu mazmunini o'zlashtirish bir vaqtning o'zida talaba uchun fanlar ichki qabul qilinmaydi, ichki motivatsiyaga ega emas va ta'lim fanlarining mazmuni shaxsiy qadriyatga aylanmaydi va kelajakdagi faol shaxs sifatida talabaning shaxsiyati ijtimoiy taraqqiyotni, saqlanishini va ta'minlanishini ta'minlaydi. Ichki motivlar subyektning bilish ehtiyoji, bilish jarayonidan olingan zavq bilan bog'liq. O'quv materialini o'zlashtirish o'rganish maqsadi bo'lib xizmat qiladi, bu holda o'quv faoliyati xarakterini olaboshlaydi. O'zlashtirish sharti bilan o'quv faoliyati tashqi motivatsiyaga aylanadi.

Muvaffaqiyatli o'qish uchun motivatsiya omili aql omilidan kuchliroqdir. Muvaffaqiyatli o'rganishuchun o'rganish motivining yuqori ahamiyatini anglash o'quv jarayonini motivatsion qo'llab-quvvatlashtamoyilini aniqlashga olib keldi . O'rganishning turli motivlari orasida, xususan, tashqi va ichki motivlarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir . L. M. Fridman ularning farqini quyidagicha tavsiflaydi: «Agar berilgan faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlar u bilan bog'liq bo'lmasa, u holda ularushbu faoliyatga nisbatan tashqi deyiladi; motivlar bevosita faoliyatning o'zi bilan bog'liq bo'lsa, ular ichki deyiladi"

O'quv motivi, agar u faoliyat maqsadiga mos kelsa, ichkidir. Ya'ni shartlar asosidaBugungi doimiy o'zgaruvchan, dinamik dunyoda bu nafaqat talabaga fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni o'rgatishdir (ulardan ba'zilari).o'quv faoliyati, mavzu mazmunini o'zlashtirish bir vaq-tning o'zida talaba uchun fanlar ichki qabul qilinmaydi, ichki motivatsiyaga ega emas va ta'lim fan-larining mazmunishaxsiy qadriyatga aylanmaydi.

O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini aniqlash (T.D.Duboviskaya) metodikasida jins va kurslar o'rtasida deyarli katta farqlar aniqlanmadi. Lekin, natijalarga ko'ra, erkaklarda tashqi motiv yuqori bo'lsa, ayollarda esa aksincha, ichki motiv yuqori ekan. Shuningdek, nisbatan 1-kurslarda ichki motiv, 3-kurslarda tashqi motiv ustunlik qilyapti.

1-jadval

		Respondentlar soni	O'rtacha	t
Kommunikativmotivlar	erkak	75	4,1200	-2,179*
	ayol	115	4,3142	
Qochish motivlari	erkak	75	3,5573	-2,367*
	ayol	115	3,7809	
Obro –e'tibor motivlari	erkak	75	4,0907	-3,722***
	ayol	115	4,4296	
Kasbiy motivlar	erkak	75	4,2640	-2,823**
	ayol	115	4,4835	
Ijodiyo'z-o'zini an-glash motivlari	erkak	75	4,2107	-3,061***
	ayol	115	4,4922	
O'quv-tarbiyaviy moti-vlar	erkak	75	3,9587	-,542
	ayol	115	4,0078	
Ijtimoiy motivlar	erkak	75	4,3573	-2,637**
	ayol	115	4,5357	

1-jadval: A.A.Rean va V.A.Yakuninning "Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi" (N.S.Badmayeva modifikatsiyasi)ning kurslar o'rtasida korrelyatsion tahlil natijalari.

"Kommunikativ motivlar"shkalasida jinslar o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. Unga ko'ra,ayollarda erkaklarga qaraganda, kommunikatsiya va muloqotga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi isbotlandi (t=-2,367; p=0,05;). "Obro' –e'tibor motivlari" bo'yicha ham ayollar va erkaklar o'rtasida katta farq aniqlandi(t=-3,722; p=0,01;). Bu shkalada ham ayollarda obro' va e'tibor qozonishga intilish anchagina yuqori natijani ko'rsatdi.Shuningdek, "Kasbiy motivlar"da ham ayollar yuqori natijani ko'rsatishdi. (t=-2,823; p=0,01;). "Ijodiy o'z-o'zini anglash motivlari" shkalasida va "ijtimoiy motivlar" shkalasida ham ayollarda erkaklarga qaraganda yuqori farq va ko'rsatgichlar

aniqlandi(t=-2,637; p=0,01;). “O‘quv-tarbiyaviy motivlar” shkalasida jinslar o‘rtasida tafovutlar aniqlanmadi. Bundan ayollar va erkaklar o‘rtasida o‘quv motivlarining o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa motiv turlari o‘rtasida katta va ahamiyatli farqlar aniqlangan bo‘lsa, o‘quv va tarbiyaviy motivlar o‘rtasida farq mavjud emasligini ko‘rsatdi va bu statistik tahlil orqali o‘z isbotini topdi. Demak, o‘quv motivlari jinsga bog‘liq bo‘lmas ekan, aksincha, boshqa motivlarning ahamiyati kuchli ekaniligini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval: A.A.Rean va V.A.Yakuninning “Talabalar o‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi” (N.S.Badmayeva modifikatsiyasi)ning kurslar o‘rtasida korrelyatsion tahlil natijalari.

Unga ko‘ra, kurslar miqyosida kommunikativ motivlar 1-kurslarda 3-kurslarga nisbatan yuqori ekan. Chunki, 1-kurslar yangi tanishlar davrasida bo‘lishadi, ya’ni, yangi talabalar, yangi o‘qituvchilar, yangi muhit bunga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu sabab ham ularda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ortadi va o‘z-o‘zidan shaxslararo munosabatlar rivojlanib boradi.Talabalar o‘zaro axborot almashishi natijasida kommunikatsiya ortib boradi. Qochish motivlari ham 1-kurslarda 3-kurslarga nisbatan ustunlik qilyapti.

2-jadval

Kurslar miqyosida		Respondentlar soni	O‘rtacha	t
Kommunikativ motivlar	1-kurs	96	4,3708	3,360**
	3-kurs	96	4,0844	
Qochish motivlari	1-kurs	98	3,8347	3,097**
	3-kurs	96	3,5542	
Obro‘ motivlari	1-kurs	98	4,3878	1,828*
	3-kurs	96	4,2229	
Kasbiy motivlar	1-kurs	98	4,4531	1,443
	3-kurs	96	4,3438	
Ijodiy o‘z-o‘zini anglash motivlari	1-kurs	98	4,3367	-1,106
	3-kurs	96	4,4365	
O‘quv motivlari	1-kurs	98	4,0357	1,124
	3-kurs	96	3,9375	
Ijtimoiy motivlari	1-kurs	98	4,5286	1,733 *
	3-kurs	96	4,4146	

Demak, 1-kurs talabalarida muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi yuqori ekan. Shu sabab ham 1-kurs talabalarining davomati yaxshi va o‘zlashtirishi yuqori kurs talabalariga qaraganda ancha yaxshi bo‘lar ekan. Obro‘-e’tibor motivlari ham 1-kurslarda yuqori natijani ko‘rsatdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, 1-kurslarda o‘qishga kirganidan, talaba bo‘lganidan faxr tuyg‘usi yuqori bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy motivlar shkalasida ham 1-kurs vakillari yetakchilik qilishyapti. Ijtimoiy motivlar kommunikativ motivlar bilan o‘zaro bog‘liqlikni kasb etyapti. Qolgan shkalalar o‘rtasida kurslar o‘rtasida korrelyatsiya aniqlanmadi. O‘quv, kasbiy,ijodiy o‘z-o‘zini anglash motivlari ikkala kurslarda ham bir xil bo‘lib,bu motiv turlari barchasi ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lib, kursning ahamiyati past darajadaligini ko‘rsatdi.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, aynan o‘quv motivi emas, aksincha, qolgan motivlar talabalarni o‘qishga undaydi.

O‘quv motivi, agar u faoliyat maqsadiga mos kelsa, ichkidir. Ya'ni shartlar asosida.Bugungi doimiy o‘zgaruvchan, dinamik dunyoda bu nafaqat talabaga fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni o‘rgatishdir (ulardan ba'zilari).o‘quv faoliyati, mavzu mazmunini o‘zlashtirish bir vaqtning o‘zida talaba uchun fanlar ichki qabul qilinmaydi, ichki motivatsiyaga ega emas va ta'lim fanlarining mazmunishaxsiy qadriyatga aylanmaydi.

O‘quv motivatsiyasining yo‘nalganligini aniqlash (T.D.Duboviskaya) metodikasida jins va kurslar o‘rtasida deyarli katta farqlar aniqlanmadi. Lekin, natijalarga ko‘ra, erkaklarda tashqi motiv yuqori bo‘lsa, ayollarda esa aksincha, ichki motiv yuqori ekan. Shuningdek, nisbatan 1-kurslarda ichki motiv, 3-kurslarda tashqi motiv ustunlik qilyapti.

Qolgan natijalarda ham tashqi motiv aniqlanmadi,aksincha,ichki motivning o‘rta va yuqori darajalarni ko‘rishimiz mumkin. Demak, psixologiya yo‘nalishi talabalarida ichki motiv tashqi motivga qaraganda dominant ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bakshaeva N. A. Talabalar motivatsiyasi psixologiyasi / N. A. Bakshaeva, A. A. Virbitskiy // M :. Logotiplar, 2006. - 184 b. ;
2. Volodina K. A. Talaba-psixologlarni kasbiy tayyorlash xususiyatlari / K. A. Volodina // Zamonaviy psixologiya: II stajyorning materiallari. ilmiy konf. (Perm, 2014 yil iyul). - Perm:. Merkuriy, 2014. - S. 39-41;
3. Ivannikov V. A. Psixologlarni tayyorlash muammolari / V. A. Ivannikov // Vopr. psixologiya, 2006. - № 1. C 48-52;
4. Ilyin E. P. Motivatsiya va motivlar / E. P. Ilyin // - Sankt-Peterburg .: Peter, 2002. - 512 p.
5. Kilinskaya N. V. Talaba-psixologlarning kasbiy rivojlanishi muammosiga [Matn] / N. V. Kilinskaya // Zamonaviy psixologiya: xalqaro materiallar. ilmiy konf. (Perm, 2012 yil iyun). - Perm .: Merkuriy, 2012. - S. 19-21;
6. Korjova E. Yu. Inson hayoti yo'nalishlari psixologiyasi // E. Yu. Korjova.- Sankt-Peterburg:. RKhGA, 2006. - 384 b.;
7. Krimova O. S. Talaba-psixologlarning kasbiy shaxsi / O. S. Krimova, O. A. Suknina // - Orenburg.: FGBOU VPO “Orenburg davlati. Univ., 1014 - 4 b.
8.Toshqo‘ziyeva D.Sh. Talabalar o‘quv motivlari haqida chet el olimlarining qarashlari// Journal of innovation in social sciences-2022. 118-11-b.
9.Toshqo‘ziyeva D.Sh. Talabalar o‘quv motivlarining o‘rni va amaliy ahamiyati// Ta’lim va innovatsion tadqiiqotlar -2022. 326-332-b.

To‘lqinjonova Zilola Iqboljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistri,
Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARDA FIKRLASH VA IJODKORLIK, INTELLEKT DARAJALARINI O‘RGANISHNING EMPIRIK TAHLILI

Annotasiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan yoshlarning ijodkorligi muhim omil yekanligini nazarda tutib, ushbu jarayonni shu sohaga tegishli ta’lim muassasalarida malaka talablariga qo’shimsha kiritishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Binobarin, bolalarni nafaqat maxsus bilim, ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, balki ularning psixologik tayyorgarligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodkorlik, ijodiylik, ijodiy, evristik, sermahsul, divergentli, lateral fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, ijodiy motivatsiya.*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ УРОВНЯ МЫШЛЕНИЯ И ТВОРЧЕСТВА, ИНТЕЛЛЕКТА У МОЛОДЕЖИ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. *В данной статье, учитывая, что творчество молодежи с ограниченными возможностями является важным фактором, целесообразно начать этот процесс с дополнительного включения в квалификационные требования в соответствующих учебных заведениях. Следовательно, освещается не только вооружение детей специальными знаниями, умениями и навыками, но и их психологическая подготовка.*

Ключевые слова: *креативность, эвристика, продуктивность, дивергентность, латеральное мышление, творческие способности, творческая активность, творческая мотивация.*

EMPIRICAL ANALYSIS OF THE STUDY OF THE LEVELS OF THINKING AND CREATIVITY, INTELLECT IN YOUNG PEOPLE WITH DISABILITIES

Annotation. *Considering that the creativity of young people with disabilities is an important factor in this article, it is advisable to start this process by adding to the qualification requirements in educational institutions related to this field. Consequently, it illuminates not only the equipping of children with special knowledge, skills, and abilities, but also their psychological preparedness.*

Keywords: *creativity, heuristic, productive, divergent, lateral thinking, creative abilities, creative activity, creative motivation.*

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi yuz berayotgan yuksak o‘zgarishlar, yangi qoidalarning, yangicha tizimning paydo bo‘lishi jadal sur’atlar bilan taraqqiy qilayotgan dunyoda ijodkor shaxsning rivojlanishiga ulkan talablar qo‘yadi. Ijodkor shaxs o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi va ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlarda shaxsdagi ijodkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etish muvaffaqiyatni belgilovchi xususiyatlar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»[1] , 2017-yil 7-iyuldagi PF-5106-sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli[2] «O‘zbekiston Respublikasi Oliy

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida

ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy va ma’naviy- ma’rifiy sohalarga oid beshta tashabbusi» dasturlari doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Prezidentimizning har bir nutqi, asarlari o‘sib kelayotgan yosh avlod muammolariga bag‘ishlanishi shaxsni shakllantirish, shaxs tuzilmasida milliy qadriyatlarning, ma’naviy komponentlarning o‘rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Zero, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’naviy tanazzulning oldini olish, yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishda sog‘lom e’tiqod, munosabat, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan barkamol inson shaxsini shakllantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Agar biz O‘zbekiston kelajagi, taqdiriga o‘zimizning javobgar ekanligimizni his etsak, har birimiz uning taraqqiyoti vositasi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash masalalarini chuqur egallamog‘imiz, yangicha tafakkur asosida yashashni o‘z burchimiz deb bilmog‘imiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularning ruhan tetik shaxs sifatida rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarurati bosh maqsadlardan biridir. Bundan tashqari, yoshlarni barkamol avlod ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayniqsa, bolalarda ijodiylik salohiyatini rivoshlantirish borasida mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar taxt qilib qo‘yilgan.

Dunyoda qaysi soha bo‘lmasin, albatta har bir sohada ijodiy kompetentlik juda zarur. Har qanday ishning amalga oshishida, avvalo, g‘oya birinchi o‘rinda turadi. Inson qandaydir g‘oyani amalga oshirishi uchun ijodkorlik muhim sanaladi.

Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy psixologiya fanida bugungi kunda “ijodkorlik” atamasining yagona talqini mavjud emas. Tadqiqotlarda kreativlik bilan bog‘liq juda ko‘p tushunchalarni topish mumkin. Ijodkorlik, ijodiylik, ijodiy, evristik, sermahsul, divergentli, lateral fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, ijodiy motivatsiya, o‘z-o‘zini aktuallashtirish, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish kabi tushunchalar kreativlik muammosi bilan bog‘liq konseptual ro‘yxatning bir qismi hisoblanib, mazkur tushunchaning noaniqligi va xilma-xilligini yanada kuchaytiradi. Ushbu tushunchalar qatorida “ijodiylik” tizimni shakllantiruvchi ta’rif sifatida talqin qilinsa, “kreativlik” va ijod o‘rtasidagi mushtaraklikni aniqlash uchun eng mashxur tadqiqotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

L.Vigotskiy ijodkorlikni shaxslarning o‘ziga xos qadriyatlarni yaratish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyati deb izohlaydi[15].

P.Torrens: “Ijodiy fikrlash - bu shaxsning kamchiliklar, nuqsonlar, yetishmayotgan elementlar, bilimlardagi bo‘shliqlar va nomuvofiqliklarni idrok etish qobiliyatidir” ,- deb takidlaydi[34].


Ijodiy kompetentlikni va kreativlikni o‘rganish bo‘yicha Rossiyada A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.N. Drujinin kabi olimlar ish olib borganlar[23].

Bolalarda ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir. Ota-onalar bolani majburlash va majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan taktika talab etiladi - otaona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini rag'batlantirishi va rag'batlantirishi kerak. Qobiliyatlar ham Teplov nazariyasiga ko‘ra umumiy va maxsusga bo‘linadi. Umumiylar har qanday faoliyat sohasida namoyon bo‘ladiganlar, maxsuslari esa ma'lum bir sohada namoyon bo‘ladi. Demak, bugun maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan xar bir bola eng avvalo tarbiya jarayonida o‘zining ijodiy qobiliyatlarini rivolantirishga e’tibor berishligi, ko‘prok rasm musiqa kabi ijodiy qobiliyatlarini shaklanishiga e’tibor qaratish lozim. Shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko‘p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba’zi insonlarda tabiiy hususiyat, ya’ni iste’dod ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Avval shaharchasi 39-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 50 nafar 7-sinf o‘quvchilari hamda Farg‘ona viloyati Quva tumani 13-bolalar musiqa va san’at maktabining 50 nafar 7-sinf o‘quvchilaridan Dj.Brunerning fikrlash va ijodkorlik testi metodikasini o‘tkazildi. Metodikani o‘tkazishdan maqsad umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilan Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilari o‘rtasidagi ijodiy qobiliyatlarni taqqoslash.

Ushbu metodika asosan shaxslardagi fikrlash turlari, narsa va hodisalar yuzasidan xulosa chiqarish va ijodkorlik mezonlarining rivojlanganlik darajasini o‘rganishda qo‘llaniladi. Mazkur metodika shaxsdagi fikrlash va ijodkorlik darajalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, 5 ta omildan iboratdir. Har bir omil ma’lum bir ijodkorlik xususiyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan. Metodika 75 ta savolnomadan iborat. Brunerning fikrlash va ijodkorlik testi bo‘yicha umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘quvchilarida eng yuqori natija “Muhim fikrlash” (40%) bo‘lsa, bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarida esa “Ijodkorlik” (52%) omillarida kuzatildi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining 8% “Ob’yektiv fikrlash”, 16% “Ramziy fikrlash”, 40% “Muhim fikrlash”, 8% “Majoziy fikrlash”, 28% “Ijodkorlik” omillari bo‘yicha natija ko‘rsatdilar.

Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarining esa 8% “Ob’yektiv fikrlash”, 4% “Ramziy fikrlash”, 28% “Muhim fikrlash”, 8% “Majoziy fikrlash”, 52% “Ijodkorlik” omillari bo‘yicha natija ko‘rsatdilar.



1-diagramma. Dj. Brunerning fikrlash va ijodkorlik testi bo‘yicha olingan natijalar tahlili.

Natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, “Obyektiv fikrlash” har ikkila ob’yektda ham teng. Amaliy aqlga ega bo‘lgan odamlar mavzuni fikrlashni afzal ko‘radilar, bu makon va vaqtdagi ob’yekt hamda uzviy bog‘liqlik bilan tavsiflanadi, ob’yektiv harakatlar orqali axborotni qayta ishlashni amalga oshirish, operatsiyalarni izchil bajarishdir. Konvertatsiya bo‘yicha jismoniy cheklovlar mavjud. Ushbu turdagi fikrlashning natijasi yangi dizaynda aks ettirilgan fikrdir. “Ramziy fikrlash” umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida yuqori. Ramziy fikrlash matematik aqlga ega bo‘lgan odamlar bu fikrlashni afzal ko‘rishadi, qoidalar bilan axborot almashinuvi amalga oshirilganda ramziy fikrlash bilan xulosa chiqarishadi (xususan, algebraik qoidalar yoki arifmetik belgilar va operatsiyalar). Natijada ramzlar orasidagi muhim munosabatlarni belgilovchi tuzilmalar va formulalar shaklida ifodalangan fikrlarni o‘z ichiga oladi. “Muhim fikrlash” ham umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida yuqori. Muhim fikrlash gumanitar aqlga ega bo‘lgan shaxslarda uchraydi. Axborotni xulosalar bilan almashtirish bilan tavsiflanadi. Belgilar birlashgan grammatika qoidalariga ko‘ra katta birliklarga birlashtiriladi. Natijada, tushunchalar yoki so‘zlar shaklida fikr yuritiladi, bu belgilangan ob’yektlar orasidagi muhim munosabatlarni belgilaydi. “Majoziy fikrlash” har ikkila ob’yektda ham teng. Majoziy fikrlash badiiy aqlga ega bo‘lgan odamlarda uchraydi. Bu kosmosdagi va vaqtdagi ob’yektdan ajralib turadi, tasvirlar bilan harakat qilish orqali axborotning o‘zgarishini amalga oshiradi. Konvertatsiya qilish uchun jismoniy cheklovlar yo‘q. Operatsiyalar ketma-ket va bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi mumkin. Natijada, yangi qiyofada tasvirlanadi. “Ijodkorlik” esa bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarida yuqori. Ijodkorlik prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligi bilan ajralib turadigan insonning ijodiy qobiliyati. P.Torrensning fikriga ko‘ra, ijodkorlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammolarga, kamchiliklarga yoki qarama-qarshiliklarga

nisbatan sezgirlikni oshirish, ushbu muammolarni aniqlash bo‘yicha harakatlar, farazlarni ilgari surish, gipotezalarni sinash va o‘zgartirish asosida yechimlarni topish, qaror natijasini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quv qo‘llanmalari qo‘llaniladi, ular yangi elementlarni o‘z ichiga olgan kamchilik yoki ochiqlik bilan tavsiflanadi, ko‘plab savollarni shakllantirishga da’vat etiladi. Shu bilan bir qatorda Dj.Bruner o‘zining risolalarida shaxslarda “ijodkorlik” sifati qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, ularda ijtimoiy munosabatlarda shunchalik qiyin bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Bolalarlarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda Dj.Bruner omillarini tadqiq qilish va ushbu sifatlar asosida korreksion dasturni ishlab chiqish, albatta, ulardagi kreativlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga fikrlash jarayoniga ijodkorlik omillarining ta’siri natijasida ijodiy tasavvur individual ijodiy xususiyatlardan farqlanib rivojlanadi.

Yuqoridagi tadqiqotimizdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ijodkorlik qobiliyati umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilaridan ko‘ra, bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarida yuqori rivojlangan. Ijodkorlik murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, unda turli shaxsiy, jarayon va atrof-muhit omillari o‘zaro bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi “2019- 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PK-4190-sonli qarori.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017.

3. Адлер А. Понять природу человека / Пер. Е.А. Цыбина. - СПб.: Академический проспект, 2000.

4. Азариянц Л. М. Развитие креативности подростков посредством театральной деятельности: методические рекомендации.

5. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995.

6. Orifova F. “Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari” //Mir issledovaniy. – 2021.

Turdimatova Elnozaxon Erkinjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti

O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING SALBIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'qituvchi mehnat faoliyatiga oilaviy munosabatlarning salbiy psixologik jihatlari tahlil qilingan. Oilaviy muhitdagi kelishmovchiliklar, roldagi ziddiyatlar, emotsional charchoqlar va stress o'qituvchilarning kasbiy samaradorligiga qanday ta'sir qilishi empirik tadqiqotlar asosida yoritilgan. Tahlillar psixoprofilaktika va ijtimoiy-psixologik yordam mexanizmlarining zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, oilaviy munosabat, stress, emotsional charchoq, psixologik yordam.*

НЕГАТИВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЯ

Аннотация. *В статье анализируются негативные психологические аспекты влияния семейных отношений на профессиональную деятельность учителей. Конфликты в семье, ролевые противоречия, эмоциональное выгорание и стресс рассмотрены как факторы, снижающие эффективность труда педагогов. Исследование подтверждает необходимость психопрофилактики и социальной поддержки педагогов.*

Ключевые слова*: учитель, семейные отношения, стресс, эмоциональное выгорание, психологическая поддержка.*

NEGATIVE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FAMILY RELATIONSHIPS AFFECTING TEACHERS' PROFESSIONAL ACTIVITIES

Annotation. *This article analyzes the negative psychological aspects of how family relationships impact teachers' professional activities. Family conflicts, role contradictions, emotional exhaustion, and stress are examined as key factors that diminish pedagogical performance. The study highlights the necessity of psychoprophylaxis and social-psychological support mechanisms for teachers.*

Keywords*: teacher, family relationship, stress, emotional exhaustion, psychological support.*

Inson shaxs sifatida o'zining kundalik faoliyatida muayyan ichki va tashqi omillarning kesishmasida yashaydi. O'qituvchi esa bu omillarning eng faol harakatlanadigan nuqtasida turuvchi kasb egasidir. Uning ish faoliyati nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy va psixologik ta'sir o'tkazish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu kasbni ruhiy va hissiy energiya talab qiladigan sohalar sirasiga kiritadi. Bunday murakkab kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish uchun o'qituvchining ichki psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi, hissiy muvozanati muhim ahamiyatga ega. Biroq, aynan mana shu barqarorlik omillari ko'pincha oilaviy muhitda yuzaga keladigan salbiy psixologik holatlar, ya'ni oilaviy kelishmovchiliklar, roldagi ziddiyatlar, emotsional charchoq va doimiy stresslar natijasida izdan chiqadi. Oilaviy hayot inson psixikasining eng nozik qatlami bo'lib, u shaxsning mehnat faoliyatida qanday harakat qilishi, ijtimoiy munosabatlar qurishi, o'zini baholashi va boshqalarga munosabat bildirishini bevosita shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarning 70% dan ortig'i oilaviy muhitdagi ziddiyatlar ularning kasbiy faoliyatida salbiy aks etishini tan olgan. Bu raqam kasbiy samaradorlik va psixologik salomatlik orasidagi bog'liqlikni ochiq namoyon etadi.

Oilaviy kelishmovchiliklar ko'pincha uzoq davom etuvchi ziddiyatlar, hissiy begonalashuv, moliyaviy bosim, bolalar tarbiyasi masalasidagi kelishmovchiliklar yoki boshqa turli sabablar bilan yuzaga keladi. O'qituvchi bunday sharoitda uyga kelgach, yetarlicha dam ololmaydi, chunki u

yerdagi muammolar uning ruhiyatini to‘liq egallagan bo‘ladi. Unga dam olish o‘rniga, oila a’zolarining noroziligi, tushkun kayfiyat, qo‘llab-quvvatlov yetishmovchiligi qarshi chiqadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi uyda ham, maktabda ham o‘zini bosim ostida his qiladi. Bu esa hissiy resurslarning muntazam ravishda susayib borishiga olib keladi. O‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan motivatsiyasi pasaya boshlaydi, o‘quvchilarga individual yondashuv o‘rniga formalizm kuchayadi, sabr-toqat chegaralari torayadi va bu holat sinf muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi ayni bir paytda bir nechta rolni bajarayotgan insondir: u uyda ona yoki ota, turmush o‘rtoq, kelin yoki kuyov, farzand, maktabda esa ustoz, mentor, rahbar, muammo yechuvchidir. Bu rollar o‘rtasida muvozanatni saqlab turish murakkab jarayon bo‘lib, agar ulardan birida izdan chiqish kuzatilsa, bu o‘zining boshqa rollariga ham ta’sir qiladi. Masalan, o‘zining onalik vazifalarini yetarlicha bajara olmaganini his qilgan ayol o‘qituvchi maktabda o‘zini kam qiymatli his qilishi mumkin. U sinfda o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatishda qiynaladi, o‘zining ijtimoiy ahamiyatini inkor etishga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi bo‘lib ishlayotgan erkak, agar u oilaviy yetakchilik rolini bajara olmasa yoki doimiy e’tirozga duch kelsa, maktabdagi o‘z ishiga befarq qaray boshlaydi. Bu ziddiyatlar natijasida shaxsda stress kuchayadi, ichki motivatsiya pasayadi, kasbga nisbatan sovuqlik yuzaga keladi.

Emotsional charchoq o‘qituvchi faoliyatining eng xavfli psixologik ko‘rinishlaridan biridir. Bunday holat odatda jismoniy charchoqdan emas, balki doimiy ravishda o‘zini psixologik jihatdan zo‘riqtirish, hissiy energiyani qayta tiklamaslik natijasida kelib chiqadi. Bu ayniqsa oilada doimiy nizolar hukm surgan hollarda kuzatiladi. O‘qituvchi shaxsiy muammolarini maktabga olib kiradi, bu esa o‘quvchilarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi jihatdan esa bu holat passivlik, bezorilik, charchoq bilan namoyon bo‘ladi. Bir qarashda bu holat o‘qituvchining professional qobiliyatidan emasdek tuyuladi, ammo ichki tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu – ong ostida kechayotgan hissiy toliqishning natijasidir.

Stress holatining uzoq davom etishi esa psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin. O‘qituvchilarda doimiy bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, yurak urishining tezlashuvi, depressiv kayfiyatlar, ijtimoiy chekinish, hatto ijtimoiy befarqlik holatlari kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchining mehnat samaradorligini keskin pasaytiradi. Maktabda hamkasblar bilan munosabatlar sovuqlashadi, rahbariyat bilan qarama-qarshilik kuchayadi, o‘quvchilarga nisbatan samimiylik yo‘qoladi. Bu kabi ruhiy tushkunlik holatlari bir o‘qituvchining faoliyati bilan cheklanmaydi — u butun sinf, hattoki maktab jamoasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bunday holatlarning oldini olish uchun zamonaviy psixoprofilaktik yondashuvlarni joriy etish muhim. Bu, avvalo, o‘qituvchining o‘z hissiy holatini tan olish va uni nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan boshlanadi. Maxsus treninglar, psixologik maslahatlar, stressni boshqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilarga o‘z shaxsiy muammolarini hal etish, ruhiy sog‘lig‘ini tiklash yo‘llari o‘rgatilishi kerak. Shuningdek, maktab ichida ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati kuchaytirilishi lozim. O‘qituvchi o‘zini tinglaydigan, tushunadigan, maslahat bera oladigan ishonchli shaxs yoki muassasaga ega bo‘lishi kerak. Bu holatda u oilaviy muammolarini bosim va kuchlanishsiz hal qilishga harakat qiladi.

O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida nafaqat bilim beruvchi, balki ko‘makchi, tinglovchi, maslahat beruvchi va ba’zan psixolog rolini ham bajara olishi kerak. Bu esa uning ichki emotsional resurslarini kunlik ravishda iste’mol qiladi. Bu resurslar tabiiy ravishda tiklanmasa, o‘qituvchi asta-sekin charchaydi. Ayniqsa, oiladagi qo‘llab-quvvatlovning yo‘qligi yoki o‘rniga tanqid, e’tiroz, e’tiborsizlik bo‘lsa, bu resurslar nafaqat tiklanmaydi, balki butunlay tugashi mumkin. Tabiiyki, bunday holatda o‘qituvchi o‘z ishiga bo‘lgan motivatsiyasini yo‘qotadi, faollik pasayadi, sinfdagi muhitga nisbatan befarqlik kuchayadi. Bu bosqich psixologiyada “emotsional sovuqlik” deb ataladi. O‘qituvchi tashqi tomondan vazifalarni bajarayotgandek ko‘rinsa-da, ichki e’tibor, hissiy ishtirok va ruhiy javob yo‘qoladi.

Bu holat ko‘pincha shaxsiy identifikatsiya inqirozi bilan birgalikda kechadi.

O‘qituvchi o‘zini kim sifatida ko‘rayotgani, kasbiy rol bilan shaxsiy hayotdagi rollar qanday uyg‘unlashayotgani muhim omil hisoblanadi. Masalan, o‘zini faqat ona sifatida qabul qilgan o‘qitu-

vchi ish joyidagi vazifalarni ikkinchi darajaga qo‘yadi, bu esa ish unumdorligini pasaytiradi. Aksincha, faqat kasbiy rolda o‘zini ko‘radigan o‘qituvchi oiladagi vazifalarni rad etadi va bu oilaviy ziddiyatlarga olib keladi. Bu ziddiyat esa yana kasbiy faollikni yemiradi. Bu yopiqlik aylanasida inson o‘zini adashgan, boshi berk ko‘chaga kirib qolgan kabi his eta boshlaydi.

Shaxsiy identifikatsiya bilan bog‘liq bu inqiroz nafaqat psixologik, balki fiziologik ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilarda yurak urishining tezlashuvi, doimiy bosh og‘rig‘i, qorin sohasidagi bezovtalik, mushak zo‘riqishlari, gormonal nomutanosibliklar kabi holatlar kuzatiladi. Bu holatlarning barchasi psixosomatik kasalliklar sifatida o‘rganiladi va asosan hissiy muvozanatning buzilishi fonida shakllanadi. Shuningdek, bunday o‘qituvchilar odatda o‘z holatini tan olishni istamaydilar yoki buning uchun imkon topa olmaydilar. Bu esa ularni tobora ijtimoiy chekinishga olib keladi.

O‘qituvchilar orasida ijtimoiy yordam tizimlarining sust ishlashi bu muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Maktabdagi rahbariyat, hamkasblar, mahalliy jamiyat yoki oilaviy sharoitlar ularni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlamasa, o‘qituvchi o‘zini yolg‘iz, qadrsiz va ijtimoiy jihatdan tashlandiq his qiladi. Bu hissiyot depressiyaning boshlanish nuqtasidir. Depressiya esa nafaqat mehnat faoliyatini, balki shaxsiy hayotni ham butkul izdan chiqarishi mumkin.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ijtimoiy yordam tarmog‘i kuchli bo‘lgan muhitda o‘qituvchilarning kasbiy samaradorligi yuqori bo‘ladi. Ular o‘zlarini ishonchli, baholangan va qadrlangan his etadi. Bu esa ularning stressga chidamliligini oshiradi, ishga bo‘lgan mehrini kuchaytiradi, sinfdagi o‘quvchilarga nisbatan samimiy munosabatni mustahkamlaydi. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovsiz muhitda esa o‘qituvchi o‘zini faqat vazifador shaxs sifatida his qilib, kasbga bo‘lgan hissiy bog‘liqlikni yo‘qotadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Eng avvalo, o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan psixologik ko‘mak markazlarini tashkil etish lozim. Bu markazlar o‘qituvchilarga oilaviy muammolarni tahlil qilish, stressni boshqarish, hissiy muvozanatni tiklash, kasbiy motivatsiyani saqlab qolish, o‘z rolini qayta anglashga yordam beradigan individual va guruhiy mashg‘ulotlar tashkil etishi lozim. Shuningdek, davlat darajasida o‘qituvchilar sog‘lig‘ini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi milliy dasturlarni ishlab chiqish muhim. Bu dasturlar orqali o‘qituvchilarga sog‘lom turmush tarzini olib borish, oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirish, emotsional barqarorlikni oshirish borasida bilimlar berilishi kerak.

O‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan u yashayotgan oilaviy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy psixologik tadqiqotlarda alohida e’tibor talab qiladigan muhim masala hisoblanadi. Oila ichidagi ziddiyatlar, roldagi noaniqlik, emotsional charchoq va surunkali stress o‘qituvchining ishga bo‘lgan munosabatini, motivatsiyasini va samaradorligini salbiy tomonga o‘zgartiradi. Ayniqsa, ta’lim sohasidagi xodimlar doimiy emotsional muloqot, sabr-toqat, psixologik barqarorlik talab qilinadigan muhitda ishlashi inobatga olinsa, ularning o‘z shaxsiy hayotidagi muammolar bilan bir vaqtning o‘zida kurashishi ularning psixik salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, inson shaxsiyati eng avvalo mikrosistema – ya’ni oila orqali shakllanadi. O‘qituvchilarda oilaviy muhitda yuzaga kelgan ixtiloflar, hal etilmagan ziddiyatlar, beqarorlik ularning ish joyidagi emotsional holatiga, pedagogik munosabatlarga va boshqaruvga nisbatan sabr-toqatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maslach va Jekson tomonidan ishlab chiqilgan “emotsional charchoq” tushunchasi aynan shunday holatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘z ishiga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotish, dars jarayonida hissiy pasayish, kasbiy samarasizlik – bularning barchasi oilaviy stress bilan chambarchas bog‘liq.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida 120 nafar umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchilari o‘rtasida savolnoma asosida tahlillar olib borildi. Tadqiqotda qatnashganlar oilaviy ziddiyatlar darajasiga ko‘ra past, o‘rta va yuqori guruhlarga ajratildi. “O‘qituvchi stress ko‘rsatkichlari” diagnostikasi yordamida ularning stress darajalari baholandi. Statik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy ziddiyatlar kuchaygan sari, stress ko‘rsatkichlari ham ortib bormoqda.

Psixodinamik yondashuvga ko‘ra, hal etilmagan oilaviy muammolar ish faoliyatida proyeksiya qilinadi, ya’ni ichki xavotir va noroziliklar kasbiy munosabatlarga ko‘chadi. Ayrim o‘qituvchilar ishga kelishdan oldin oila a’zolari bilan tortishuvlar sababli dars davomida e’tibor yo‘qolishi, salbiy

emotsiyalar ustun kelishi, sabr-toqatning susayishi holatlarini bildirganlar. Bu holatlar natijasida ish unumdorligi, o‘quvchilarga bo‘lgan e’tibor, dars sifati ham pasaygan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktablar va ta’lim muassasalari o‘z xodimlari uchun psixologik yordam tizimlarini yaratishlari zarur. Konsultatsion xizmatlar, oilaviy terapiya, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar, o‘qituvchilar uchun emotsional yengillik mashg‘ulotlari singari mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, og‘ir oilaviy muammolar mavjud bo‘lgan holatlarda vaqtincha ish grafigini moslashtirish, individual yondashuvni joriy etish foydali bo‘lishi mumkin.

1-jadval. O‘qituvchilarda oilaviy ziddiyatlar darajasi va stress ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Guruh	Ishtirokchilar soni	Stress darajasi (o‘rtacha)	Oilaviy ziddiyat darajasi (%)
Past ziddiyatli	40	32.5	10%
O‘rta ziddiyatli	40	54.3	48%
Yuqori ziddi-yatli	40	76.8	88%

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ziddiyatlar o‘qituvchilarning psixologik holatiga bevosita ta’sir etadi. Oila va ish o‘rtasidagi roldagi nomuvofiqlik, stress va emotsional charchoq o‘qituvchining kasbiy faolligini susaytiradi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, psixoprofilaktik chora-tadbirlarni joriy etish, oilaviy va kasbiy mas’uliyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun zarur sharoitlar yaratish dolzarb vazifa sifatida qaralishi kerak.

Ushbu tahliliy maqolada o‘qituvchilarning mehnat faoliyatiga oilaviy munosabatlarning salbiy psixologik jihatlari qanday ta’sir ko‘rsatishi empirik va nazariy asosda yoritildi. O‘qituvchi — bu nafaqat bilim beruvchi, balki doimiy emotsional resurslar bilan ishlovchi, bir vaqtning o‘zida bir necha ijtimoiy rolni bajarayotgan murakkab shaxsdir. Aynan shu rol ko‘p qatlamliligi uni psixologik jihatdan mo‘rt holatga olib kelishi mumkin.

Oiladagi kelishmovchiliklar, hissiy ziddiyatlar, ijtimoiy bosim, yetarli darajada psixologik qo‘llab-quvvatlov yo‘qligi, o‘z rolini aniqlik bilan anglay olmaslik va stressni boshqarish mexanizmlarining yo‘qligi o‘qituvchining kasbiy samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu holat shunchaki ruhiy charchoq emas, balki insonning butun kasbiy hayotini izdan chiqaradigan jarayonga aylanishi mumkin.

Xulosa shuki, o‘qituvchining oilaviy va kasbiy hayotidagi muvozanat, shaxsiy farovonlik va hissiy barqarorlik faqat o‘qituvchining emas, balki jamiyatning ta’lim sifatiga bo‘lgan munosabati, e’tibori va yondashuviga bog‘liq. Agar jamiyat o‘qituvchini qadrlasa, uning ruhiy salomatligi ustida ishlasa, bu albatta yosh avlod tarbiyasiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki baxtli o‘qituvchigina mehr bilan dars beradi, sabr bilan tinglaydi va sog‘lom jamiyat uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yusupov A. A. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Jo‘rayev A. R. Oila psixologiyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2016.
3. Toshpulatova M. A. O‘qituvchining emotsional farovonligi va professional muvozanati. — Toshkent: Ma’rifat, 2020.
4. Karimova L. A. Shaxs psixologiyasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.
5. Sharipova D. K. Ijtimoiy psixologik xizmat ko‘rsatish asoslari maktab muhitida. — Toshkent: Pedagog nashriyoti, 2021.
6. To‘xtasinov B. B. Psixoprofilaktika va psixokorreksiya: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2018.
7. Rasulov Sh. U. Ta’lim tizimida stress boshqaruvi va psixologik moslashuv. — Toshkent: Ilm ziyo, 2022.

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi dosenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ummatovasitora@samdu.uz

RASHK HISSINING KLASSIFIKATSIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada rashk hissining klassifikatsiyalari, rashkdagi gender farqlar, psixologiya fanida rashk fenomenining ilmiy tahlil bo’yicha turlari va psixologik mohiyati yoritib berilgan. Rashkning asosi sifatida kognitiv, xulq-atvor, affektiv jihatlari; rashkning psixologik xususiyatlaridan emotsiya, ishonchsizlik psixologik holatlari; rashkning qisqa muddatli, hissiyot, uzoq muddatli, ehtiros, faol, passiv, azobli, reaktsiyali shaklari va turlari bayon etilgan.*

Tayanch so’zlar: *Rashk, klassifikatsiyalar, emotsiya, psixologik holat, psixologiya, ijtimoiy munosabatlar, rashkning psixologik xususiyatlari, xulq-atvor, affektiv, ishonchsizlik, rashk mohiyati, rashkshakli, kognitiv, qisqa muddatli, uzoq muddatli, faol, passiv, rashkning asosi.*

КЛАССИФИКАЦИИ ЧУВСТВА РЕВНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются классификации чувства ревности, гендерные различия в ревности, виды и психологическая сущность феномена ревности в психологической науке по научному анализу. В основе ревности лежат когнитивные, поведенческие, аффективные аспекты; из психологических особенностей ревности выделяются психологические состояния эмоций, незащищенности; излагаются кратковременные, эмоциональные, длительные, страстные, активные, пассивные, мучительные, реакционные формы и виды ревности.*

Базовые слова: *ревность, классификации, эмоция, психологическое состояние, психология, социальные отношения, психологические особенности ревности, поведение, аффективное, незащищенность, сущность ревности, ревнивый, познавательный, краткосрочный, долгосрочный, активный, пассивный, основа ревности.*

CLASSIFICATIONS OF FEELINGS OF JEALOUSY

Annotation. *The article highlights the classifications of feelings of jealousy, gender differences in jealousy, types and psychological essence of the phenomenon of jealousy in Psychological Science in scientific analysis. Cognitive, behavioral, affective aspects are described as the basis of jealousy; psychological states of emotion, insecurity from the psychological characteristics of jealousy; short-term, emotional, long-term, passion, active, passive, tormented, reactive forms and types of jealousy.*

Base words: *jealousy, classifications, emotion, psychological state, psychology, social relations, psychological characteristics of jealousy, behavior, affective, insecurity, essence of jealousy, jealous, cognitive, short-term, long-term, Active, Passive, the basis of jealousy.*

Psixologiya fanining zamonaviy talabi sifatida turli darajadagi shaxslararo o’zaro ta’sir muammolarini har tomonlama yoritishni talab qiladi. Oiladagi ichki munosabatlar shunday muammolardan biridir.

Amaliyot shuni ko’rsatadiki, oiladagi ichki munosabatlar turli xil shakllarda amalga oshadi.

So’nggi yillarda oilaviy munosabatlar mavzusini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu borada bir qator xorij va MDH psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarini qayd etish o’rinlidir. Jumladan, Andreyeva T.V., Vladin V.Z., Gukova Ye.G., Dementyeva I.F., Drujinin V.N., Karabanova O.A., Krasovskiy B.P., Kryukova T.A., Navaytis G.A., Olifirovich N.I., Raygorodskiy D.Ya., Sermyagina O.S. [99; 85-b.], Sultanova A.B., Shneyder L.B. Mazkur tadqiqotlarda oila munosabatlaridagi o’ziga xos psixologik xususiyatlar va mavjud muammolar ilmiy tadqiq etilgan.

O'zbekiston psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham oila munosabatlari ilmiy tadqiq etilganligini qayd etish o'rinlidir. Masalan, Shoumarov G'.B., Shoumarov G'.B.,Karimova V.M., Karimova V.M., Qodirov U.D., Barotov Sh.R., Xuseynova A.A., Akramova F.A., Rasulova Z.A., Ro'ziqulov F.R., Samarov R.S., Sog'inov N.A., G'oziyev E.G'. va boshqalar. Lekin O'zbekiston psixolog olimlarining ilmiy ishlarida oila munosabatlarida yuzaga keladigan rashk hissining psixologiyasi masalalari yetarlicha o'rganilmagandir.

Rashk muammosining o'ziga xos ba'zi tashkil etuvchilarini O.S.Vasilyeva, P.Kutter, Ye.I.Terentyev, E.E.Linchevskiy va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar. Lekin, rashkning oila munosabatlarida namoyon bo'lishi masalalariga e'tibor berilmagan.

Rashk hissini o'rganishda uni keltirib chiqaradigan yoki qo'zg'atadigan tashqi va ichki sabablarning eng to'liq va batafsil tavsifini bir qator olimlardan A.N.Volkova, N.V.Dmitriyeva, A.V.Sergeyeva, V.Ya.Spiridonov va boshqalarning ishlarida yoritib berilgan. Bu olimlar tomonidan rashkni o'rganish masalasida olib borgan tadqiqotlarini quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatish mumkin: «bevosita rashkchi shaxsining psixologiyasi»; «oila munosabatlarining nosog'lomligi va rashkning o'zaro bog'liqligi»; «rashk belgilari va shaxs e'tiqodi».

Rashk hissini boshdan kechirishning despotik varianti mavjud, kam baholangan holda - odam o'z kamchiligini keskin boshdan kechiradi); har qanday hayotiy maqsadlarga (mansab, moddiy xavfsizlik va boshqalar) erishishda juftiga kuchli bog'liqlik tomonlari olimlardan A.N.Volkova va V.Ya.Spiridonova ishlarida o'rganilgan.

S.P.Korolenko va N.V.Dmitriyevalar tomonidan rashkchi shaxsga xos psixologik xususiyatlar, jumladan, beqarorlik, yaqin kishisiga hissiy bog'langanlik, boshqa kishiga nisbatan egalik hissi kabilarni qayd etishgan.

A.N.Volkova rashkni raqobat sharoitida tahdid reaksiyasi deb biladi. Tahdid rashk qilishning shartlaridan biridir. Muallifning fikriga ko'ra, rashk reaksiyalari bir necha asoslarga ko'ra tasniflanishi mumkin:

1. mezoniga ko'ra - reaksiyalar normal va patologik,

2. moddiy mezonga ko'ra - ta'sirchan, kognitiv, xulq-atvorli (S.P.Korolenko) va N.V.Dmitriyeva.

Rashk hissida patologik va odatiy reaksiyalar ham mavjud. S.P.Korolenko va N.V.Dmitriyeva aniq ta'kidlaganlaridek: «Rashk, ehtiros bo'lib, juda xavfli bo'lishi mumkin. Oddiy, oqlangan rashkni og'riqli, asossiz, patologik, xayolparast rashkdan ajratish har doim ham oson bo'lmaydi». Boshqacha qilib aytganda, patologik rashk odatdagi rashkdan namoyon bo'lish davri va salmog'i bilan farq qiladi.

Rashk (patologik rashk) – ushbu atama, odatda, odamda rashk haqidagi o'ta qimmatli yoki xayolparast g'oyalar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Bunday holda, ushbu pozisiyalardan fikrlashning buzilishi haqida emas, rashk paydo bo'lgan patologik sezgi haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu taxmin, bizningcha, qo'shimcha maxsus eksperimental tadqiqotlarni talab qiladi.

Rashk muammosini o'rganishning nazariy tahlili va psixologik sabablarini davomli va tizimli o'rganish orqali oilalardagi muhitni mustahkamlashga erishiladi.

Insonlararo munosabatlarda rashk o'ziga xos xususiyatlarga ega. Odamlar o'rtasidagi munosabatlar shakllari orasida rashk eng qadimiy bo'lib, u shaxsga nisbatan egalik hissi sifatida namoyon bo'ladi.

Rashkning asosiy sababi odatda munosabatlarda muloqotning buzilishi hisoblanadi. Shuningdek, rashk ikkita asosiy turi bilan xarakterlanadi. Umumlashtirilgan shaklda rashkni, uning obyektga yo'naltirgan sifatida tasniflash mumkin.

G.M.Breslav tomonidan rashk hissini obyektga nisbatan ajratishda o'ziga xos stereotiplar ta'siri mavjud ekanligi qayd etilgan: «birinchi navbatda yosh (bolalik davrida, kattalar va keksalik davrlarida rashkning turli xil xususiyatlari mavjud), jins (rashkdagi gender farqlar), ijtimoiy-madaniy va biologik xususiyatlarining namyon bo'lishi turli stereotiplar bilan bog'liq». Shuningdek, rashk turlarini uning destruktiv yo'nalishining vektorlariga ko'ra, ya'ni: o'ziga va o'zidan boshqaga kabi ajratish taklif qilingan. U xolda rashkning passiv, azoblanadigan turlarini keltirish o'rinli. Birinchi holda rashkga tajovuzkorlik, zo'ravonlikka moyillik, dushmanlik nuqtai nazaridan qaraladi;

ikkinchidan, qo'rqoqlik, tashqi holatlarni yengish uchun ichki kuchning yetishmasligi, o'z ahamiyatsizligini anglash va h.k. bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini yo'q qiladigan tuyg'u sifatida. Rashkning ikkala turi axloqiy va umumiy ijtimoiy me'yorlarni inkor etish shakllari sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, tasniflashning muhim asosi bo'yicha rashk normal yoki patologik turlarga bo'linadi. Patologik rashk bir-biriga qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo'lib, yuqori darajada ijtimoiy xavfga ega ekanligigi bilan belgilanadi.

Rashkning namoyon bo'lish shaklidan tashqari turli reaksiyalarni hissiy, ichki va tashqi faollik turlari ajratilishi mumkin.

Rashk tuyg'usini klassifikasiyasi muammosini psixolog olimlar tadqiq etib, turlicha qarashlarini taklif etganlar.

G.M.Breslav fikricha, «Rashk tuyg'usining gender tafovutlari, ya'ni erkaklar va ayollarga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, erkaklarning rashk hislari ko'pincha ayollarga nisbatan an'anaviy ustunlik huquqi natijasida namoyon bo'ladi, bu toifa erkaklar o'z juftlarini aldasalar ham, ko'pincha xotinining xiyonati tufayli ajrashish uchun ariza berishadi».

Ye.P.Ilin «Tuyg'ular va hislar» kitobida rashkning klassifikasiyasini ilmiy tasnifini berishda, V.A.Grishin va T.M.Zaslavskayalar tomonidan taklif etilgan 3 toifa rashk turlaridan foydalangan:

1. Egalik hissiga asoslangan rashk. Ushbu turdagi rashk, sherik tomonidan xiyonat qilishning kuchli tajribasi bilan munosabatlarni buzish xavfi bilan bog'liq bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunday rashkning yuzaga kelishi ushbu sabablar bilan izohlanadi: xiyonat qilish yoki sherikning shubhali hatti-harakatlari, yaqin kishining his-tuyg'ularining sovishi, u haqida ma'lumot yetishmasligi, ajralish va boshqalar.

2. Zulmdan rashk qilish. Bunday rashk turi odatda xavotirli va shubhali xarakterga ega bo'lib, bu rashk o'ziga ishonmaydigan, xavfni oshirib yuborishga moyil bo'lgan odamlarga xosdir. Ushbu turdagi rashk hissiyotlari past darajadagi o'z-o'zini hurmat qilish orqali kuchayadi. Natijada rashkchida xavotir, g'azab, xavotir emosional xolatlari kuchayadi.

3. Qaytgan (aks ettirilgan) rashk. Bunday rashk shakllanishining psixologik mexanizmi quyidagicha: xiyonat manbai - bu o'z nikohidagi xiyonat, ishonchsizlik, boshqa sherikka munosabati. Bunday rashkning mantiqi oddiy: agar men boshqasini sevish obyekti bo'la olsam, unda sherigim bunga qodir. Bunday rashkchi odamning shaxsiy xislati xuddi egalik rashkida bo'lgani kabi yoqimsizdir. Rashkning o'zi esa sevgidan yiroqdir» lardan tashqari yana ikkitasini tasniflagan. Ular:

1. Zolimona rashk. Bu o'jar, zolim, o'zini o'zi oqlaydigan, hissiy jihatdan sovuq va begonalashgan shaxslarda uchraydi. Bunday odamlar boshqalarga juda yuqori talablarni qo'yadilar, ularning talablarini bajarish qiyin yoki hatto imkonsiz.

2. Achchiqlantiradigan rashk. Bu turmush o'rtog'ining xiyonati to'g'risida tashqaridan eshitilgan fikrlar natijasi sifatida paydo bo'ladi.

Ye.P.Ilin fikriga ko'ra, rashk hissining hayotiy vaziyatlarda rashk turlarini sof shaklda kuzatilish ehtimoli past bo'lsa-da, lekin mazkur rashk turlarining kombinasiyasini uchratish mumkin.

S.E.Mamontov rashk turlarini ajratish qiyinligini quyidagi sabablar bilan izohlaydi:

1. Rashkning normada namoyon bo'lishi tushunchasi juda noaniq chegaralarga ega ekanligi;

2. Rashkga xos xususiyatlar, asosli rashkni ajratish jarayonini murakkablashtirishi, shuning uchun asossiz rashk g'ayritabiiy deb qaralishi;

3. Haqiqatni idrok etish va shaxsning xulq-atvori ham uni har doim aniq xarakterlab turavermasligi, natijada ba'zida aqlan sog'lom odamni aniq ruhiy kasalliklarga ega rashkchi kishidan ajratish qiyin bo'lib qolishi.

Shuningdek, S.E.Mamontovni ta'kidlashicha, rashkni normal deb hisoblash mumkin bo'lgan va ruhiy kasallikning ifodasi bo'lgan rashk o'rtasidagi chegarada holatda deb hisoblash o'rinli.

M.Ridell va G.Bring fikriga ko'ra, rashk hissining shiddatkor va xavotirli turlari mavjud. Shiddatkor ko'rinishidagi rashkning namoyon bo'lishi bilan xavotirli rashk orasida farq ajratiladi. Birinchisida reaksiyalar tashqi hatti-harakatlarda ifodalanishi amalga oshsa, ikkinchisida esa ichki ishonchsizlik, o'ziga beradigan bahosi, tashvish holatlari orqali namoyon bo'ladi.

L.M.Fridman rashkning ikki turini ajratib ko'rsatadi: muhabbatga erishish maqsadidagi rashk va insonning faoliyati, kasb-hunari sohasidagi kuzatiladigan rashk.

Tadqiqotchi G.G.Kachuk tomonidan rashkni ranglarga mos psixologik xususiyatlarini assosiasiyasini tasniflagan. Uning fikricha, zamonaviy ilmiy yutuqlarga muvofiq ravishda, rashkning har bir turiga ma'lum bir rang mos keladi:

oq rashk - normal holat;

ko'k rashk - bu nevroz, tashvish sindromi;

yashil rashk - haddan tashqari qimmatga aylanib ketgan holatidagi rashk va bunda psixolog emas, balki shifokorning yordami talab etiladi;

qizil rashk – «rashkchi bema'ni gaplarni aytadi, hatto bir soniya ham uning dalillarining asosliligiga shubha qilmaydi»;

binafsha rashk - bu «kichik hajmdagi rashk, kasallikning bir ko'rinishi»;

xulq-atvorning umumiy yetarliligi bilan rashkchi faqat yaqin odam bilan munosabatlar sohasida kerak darajada javob bermaydi. Bunday tasnif odatdagi rashkni og'irlik, patologik yoki hali rivojlanishning dastlabki bosqichida turadigan rashk bilan solishtirish mumkin emasligini tushunishga yordam beradi.

A.N.Volkova rashk reaksiyalarini bir necha asoslarga ko'ra, shu jumladan tajriba turi bo'yicha, faol va passiv, intensivligi bo'yicha - o'rtacha, chuqur, og'ir. U rashkni yengishning bir necha usullarini taklif qiladi:

1) inson uchun mazmunli narsa uchun chalg'itish (o'qish, ishlash, bolalarni parvarish qilish, sevimli mashg'ulotlari);

2) narsalarga nisbatan yangi dunyoqarashni rivojlantirish, kechirim axloqini shakllantirish, rashk reaksiyalarini ongli ravishda boshqarish;

3) darslarni o'rganish, o'z xatolaringizni topish, sherik bilan yangi munosabatlar o'rnatish, ehtimol boshqa turdagi;

4) sherikning qadrsizlanishi va xiyonat qilish holati - ularni boshqa bir qator qadriyatlarda, munosabatlarda taqqoslash;

5) hamkorlik bo'lmagan vaziyatda - yangi sherik izlash, turmush tarzini o'zgartirish, boshqa shaxslararo munosabatlarni shakllantirish.

Hissiy rashk ta'sirchan reaksiyalarda ifodalanadi. Eng muhim tuyg'ular sifatida umidsizlik, g'azab, nafrat rashk egasi, rashk obyekti va umuman jamiyat uchun halokatli bo'lishi mumkin.

Rashk paydo bo'lishining psixologik mexanizmlari psixoanaliz falsafasida Z.Freyd, K.G.Yung, Fromm va boshqalar o'rganishgan. Rashkning ba'zi bir paradoksal va noaniq alohida kuzatuvlarni J.Rols, Vl.Tatarkevich, V.Frankl, shuningdek, A.Maslou, K.Rojerslar o'rganishgan.

Monografik xarakterdagi individual tadqiqotlarni I.Gul, Ye.Terentyev, S.Mamontovlar olib borishgani qayd etilgan.

O'zbek psixologiyasida psixologiya fanlari doktori, professor G'.B.Shoumarov tomonidan esa ikki toifa rashkning psixologik xususiyatlari ajratib berilgan: rashkning zolimona turi va haqoratlangan rashk turlari. Birinchi rashk turi odatiy tarzda o'zini o'ylaydigan qaysar, zolim odamlarda kuzatiladi. Bunday odamlar juftiga nisbatan o'z manfaati, farog'atini qondirish obyekti, o'z mulkidek qarashadi. Ikkinchi toifadagi rashk egalarida esa har narsadan gumonsirayverish, o'ziga ishonmaslikka moyillik xos bo'lib, o'ziga ishonmaganlarning rashk hissi yuqori qahrli, g'azabli emasligi, ozroq muloyimroq tarzda yuzaga chiqishi kuzatilgan. Ammo ushaning, aynan mazmuniga doir oilaviy baxtli yashashiga zararlidir.

Psixologiya fanlari doktori U.D.Qodirov tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, shaxslararo munosabatlarda nizolarning turlari ular orasidagi hissiy kechinmalarga salbiy yoki ijobiy tarzda ta'sir ko'rsatishining korrelyasion bog'liqligi isbotlangan. Masalan, yozuvchi Abdulla Qodiriy asarlarida qahramonlar o'rtasidagi do'stlik, rashk munosabatlarining ifodalanganlik darajasi 4,9 ball miqdorida baholangan bo'lsa, nizoli holatlarni ifodalovchi munosabatlar orasidan oiladagi kattalar va farzandlar muloqatiga muvofiq bog'lanishda esa, rashk va emansipasiya holatlari o'rtasida murakkab tizimdagi bir-birini taqozo qilmaydigan korrelyasiya koeffisiyenti qayd etilgan.

U.D.Qodirov tadqiqotlarida shuningdek, rashkning ijobiy va salbiy ko'rinishdagi turlarining nizoli vaziyatlar o'rtasidagi korrelyasion bog'lanishlari qayd etilgan. Masalan, kundoshlar orasidagi nizo bilan salbiy ko'rinishdagi rashkning korrelyasiyasi ifodalangan hamda rashkning ifoda etilishi do'stlik munosabatlariga nisbatan ijobiy munosabat hosil qilmas ekanligi isbotlangan.

Aynan aytish joizki, takidlab o'tilgan tadqiqotchilar rashkning ko'rinishlarini , jihatlarini e'tirof etishgan. Ammo, o'zbek mentalitetida haligacha rashk tushunchasi paydo bo'lishining gender yoki yosh farqlarining kelib chiqishi alohida ilmiy tadqiqot predmeti ko'rinishida namoyon etilmagan.

Rashk aldanish, yolg'iz qolish qo'rquvi, xiyonat va shunga o'xshash fobiyalarni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik rashkchilar o'zlarini, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlari ustidan nazoratni yo'qotadilar. Rashkning namoyon bo'lishining jinsi va yosh xususiyatlari mavjud.

Aytib o'tish lozimki, rashk sababli har bir oila a'zolarining ruhiyatida agressivlik, o'zaro bir-biriga ishonmaslik, qasos olish, g'azablanish, qahrlanish singari bir qancha yomon to'ygular namoyon buladi. Xonadonida xotirjamligi yuq insonning, faoliyati,o'qishi, mehnati unumdorligi yuqoladi, eng muhimi soglig'iga, intilishiga ziyon keltiradi, rashk hissini o'zidan o'tkazgan insonda faqat sherigidan ajralish fobiyasi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PK-4190-son qarori /http://lex.uz.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: «O'zbekiston».

3. Abalakina, M.A. Romanticheskaya lyubov, polo-rolevie stereotipi i dinamika predbrachnix otnosheniy Tekst. / M.A. Abalakina, B.C. Ageev // Ideologicheskie i psixologicheskie aspekti issledovaniya massovogo soznaniya. - M., 1989.

4. Andreeva, T.V. Semeynaya psixologiya / T.V. Andreeva. — SPb.: Rech, 2004.

5. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. 2-kitob. /Psixol. fan. dokt. prof. G'.B.Shoumarov tahriri ostida. – T.2014.

6. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar. T.: «Shams ASA», 2002.

7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994.

8. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. T., 2000.

9. Sog'inov N.A., Qodirov U.D. Sog'lom bola shakllanishining ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlari. Uslubiy tavsiyalar. – Toshkent: «Akademnashr», 2014.

10. Psixologik atamalar ruscha – o'zbekcha izohli lug'ati /Psixol. fan. dokt., prof. G'.B.Shoumarov tahriri ostida. /Tuzuvchilar: Sog'inov N.A., Nishonova Z.T., Karimov X.K., Umarov B.M., Usmonov E.Sh. -Toshkent: «Fan va texnologiya», 2019.

11. Ummatova S.Sh. Rashk fenomenining oila munosabatlaridagi gender va yosh farqlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 2022.

Zaynobidinov Jaloldin
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya fanlar nomzodi, dotsenti

TADBIRKORLIK VA UNING MOTIVASIYASI MUAMMOSINI IJTIMOIY TASAVVURLAR KONSEPSIYASI DOIRASIDA O‘RGANISH

Annotasiya. *Ushbu maqolada tadbirkorlar faoliyatida noverbal muloqotning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari ilmiy metodlar yordamida o‘ganilgan. Shu asosda shaxslararo muloqatda uzatilayotgan ma’lumotlarning ishonchlik darajasini baholashda noverbal signallarning ahamiyati o‘rganish tadqiqotimizning ilmiy maqsadi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar*: noverbal, oilaviy biznes, fermerlik harakati, kichik biznes, antreprener, jest, motivatsiya.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ЕГО МОТИВАЦИИ В РАМКАХ КОНЦЕПЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье с помощью научных методов изучены социально-психологические особенности невербального общения в деятельности предпринимателей. На этой основе доказана научная цель нашего исследования - изучение значения невербальных сигналов в оценке уровня достоверности информации, передаваемой в межличностном общении.*

Ключевые слова: *невербальный, семейный бизнес, фермерское движение, малый бизнес, предприниматель, жест, мотивация.*

STUDYING THE PROBLEM OF ENTREPRENEURSHIP AND ITS MOTIVATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CONCEPT OF SOCIAL VIEWS

Abstract. *This article examines the socio-psychological characteristics of nonverbal communication in the activities of entrepreneurs using scientific methods. On this basis, the scientific goal of our research is to study the significance of nonverbal signals in assessing the level of reliability of information transmitted in interpersonal communication.*

Keywords: *nonverbal, family business, farming movement, small business, entrepreneur, gesture, motivation.*

Mustaqil O‘zbekistonda bozor munosabatlarining barqarorlashuvi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, odamlarda mehnatga, moddiy ne’matlarga munosabatlarning o‘zgarishini taqozo etadi. Kichik va o‘rta biznes, oilaviy biznes, fermerlik harakati, qo‘shma korxonalarda tadbirkorlikning samarali usullarini joriy etish, ushbu faoliyatga imkon beruvchi shaxs sifatlarini tarbiyalash, odamlar tafakkurida yangicha qarashlarni shakllantirish psixologiyaning muhim masalalaridan hisoblangan tadbirkorlik muammosini izchil ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi.

Bulardan tashqari, xususiy tadbirkorlik va o‘rta mulkdorlar sinfi mamlakatning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Yoshlarda bozor munosabatlari, iqtisodiy hayot qadriyatlari, muvaffaqiyatlari, ularga erishish yo‘llari va usullari haqidagi real tafakkurni shakllantirish hamda iqtisodiy erkin shaxsni tarbiyalashda iqtisodiy ta’lim, shu jumladan, iqtisodiy fanlarga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng asosiy kafolatidir.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohani takomillashtirish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirish borasidagi faol harakatning boshlanganligi, Prezidentimizning har bir nutqi, asarlarida mulkdorlar sinfi, tadbirkorlar, kichik biznes, dehqon va fermer xo‘jali klari muammolariga alohida o‘rin berilishi mustaqil O‘zbekiston fuqarolari shaxsida ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurni to‘g‘ri

shakllantirish, ularni halol tadbirkor ruhida tarbiyalash, iqtisodiy tafakkurni ilk yoshlikdanoq, shakllantirishga e'tiborni qaratishni taqozo etadi.

Hozirda tadbirkor shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini, uni tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan shaxslarning ichki, ruhiy psixologik omillarning psixologik o'ziga xosligini yoritib beruvchi ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada mavjud emas va bu holat O'zbekiston sharoitida odamlarni, birinchi navbatda yoshlarni tadbirkorlikka undovchi omillarning psixologik tabiatini o'rganish va shunga mos tarzda ta'lim - tarbiya dasturlarini ishlab chiqishni dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon etadi.

Boshqacha qilib aytganda, yoshlarning iqtisodiy tafakkurini to'g'ri tarbiyalash, ularda ijtimoiy - iqtisodiy hayotga faol munosabatni shakllantirish, ishbilarmon, ruhan tetik fuqarolarning rivojlanishi uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish zarurati tadqiqot muammosini aniqlashga imkon beradi.

Tadbirkorlik – jamiyatning tarixiy rivojlanish darajasi nuqtai nazaridan olib qaralganda, deyarli yangi fenomen;

Tadbirkorlik doimiy rivojlanish, taraqqiyotda bo'lganligi sababli, turli tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o'z spesifikasiyasiga ega bo'lib, mohiyatan chuqur tavsifli jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi;

Tadbirkorlik murakkab, kengqamrovli hodisa sanalib, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar asosida yuzaga keladi.

"Tadbirkorlik" tushunchasiga ta'rif berishning birdan-bir asosiy qiyinchiligi, bu uning bir vaqtning o'zida ham umumishlatiladigan, ham ilmiy tushuncha hisoblanganligidadir.

Birinchi vaziyatda uning mazmuni ensiklopediya va lug'atlarda beriladigan talqinlar orqali ochilishi mumkin. Mazkur holatda u tovar va xizmatlarni ishlab-chiqarish, korxona "ishi"ni yaratish, qo'llab-qo'vvatlash va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik haqida berilgan ushbu ta'rif orqali, uning nafaqat iqtisodiy, balki psixologik mazmunga egaligini ham tushunish mumkin. Biror tashabbus bilan chiqmoq – bu shart-sharoiti va oqibati aniqlanmagan vaziyatlarda faollikni namoyon etish hamda inisiativ harakatni amalga oshirish jarayonidir. Noaniq sharoitlarda tez qarorga kela olish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishni taxmin qiluvchi bunday turdagi faollikning muntazam hamda muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi odatiy tilda – uddaburonlik deb yuritiladi. Shu bois, tadbirkorlik –iqtisodiy faoliyatning alohida turi hisoblanib, subyektida o'ziga xos psixologik sifatlarni mujassam etishi sifatida e'tirof etiladi.

Tadbirkorlik psixologiyasining asosiy vazifasi esa – ushbu psixologik xususiyatlar mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

"Tadbirkorlik" yoki "antreprener" (fransuz tilida – antreprener – vositachi) atamasini tarixiy analizi, uning G'arbiy Yevropada XV asr boshlarida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Dastavval, ushbu atama bilan yirik musiqiy tadbir (shou), paradlar, qurilish hamda ishlab chiqarish loyihalarini uyushtiruvchilarni atashgan. So'ng, XVII asrdan boshlab, ma'lum bir ishni bajarish yoki mahsulotni eltib berish ishlari yuzasidan davlat bilan shartnoma tuzuvchi hamda buyurtma beruvchi va bajaruvchi o'rtasida vositachi vazifasini o'tovchi shaxslarni antreprener deb atashgan. Bunda, ish haqi oldindan kelishib olinganligi sababli, tadbirkor (antreprener) daromad (foyda)ni meyorida sarflashi va shartnomani amalga oshirishda "chiqayotgan" xarajat hamda zararga javobgar bo'lgan. Aynan ana shu davrdan boshlab, tashkilotchilik va korxona boshqaruvini amalga oshirish vazifalari bilan birgalikda, tadbirkorlikni ajratib turuvchi belgilar qatoriga tavakkalchilik sharoitlarida faoliyat yuritish hamda natijaga javob berish mas'uliyatlari ham qo'shilgan.

Tadbirkorlarning jamiyat ijtimoiy tizimida tutgan o'rni tahlil etilar ekan, bunda mazmunan har xil bo'lgan bir nechta qarashlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularga ko'ra tadbirkor asosiy fondlarga ega bo'lgan mulkdorlar yoki yollangan boshliq (boshqaruvchi, ish yurituvchi) sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy iqtisodning klassik namoyondalari ishlarida tadbirkorlarga – mulkdorlar yoki bo'lmasa o'z kapitalining boshqaruvchisisifatida baho berilgan.

Tadbirkor faoliyatida mimika va jestlarning o'qiy olish qobiliyatini tadqiq qilish maqsadida tadqiqotimizda F.Soliev tomonidan ishlab chiqilgan "Mimika va jestlarning o'qiy olish qobiliyatini

aniqlash” nomli metodikasdan foydalandik. Tadqiqotda Farg‘ona davlat universiteti pedagogika va iqtisod fakultetlarning 80 nafar talabalari respondent sifatida tanlab olindilar.

Respondentlardan olingan natijalarni mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatiga ko‘ra uch ta darajaga, yani 56 – 76 balgacha “yuqori”, 34 – 55 balgacha “o‘rta”, 11 – 33 balgacha “past” darajaga ajratib oldik.

Respondentlardan olingan umumiy natijalar quyidagicha ko‘rinish oldi: 1- jadval


Olingan natijalarning umumiy ko‘rinishi

1-jadvali

Mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatining darajasi	Respondentlar bergan javoblar soni	Respondentlar bergan javoblar (Foiz hisobida)
Past	13	16
Yuqori	25	32
O‘rta	42	52

Olingan umumiy natijalarni diagrammaga solsak quyidagi 1 dilgramma ko‘rinishga ega bo‘ldi.

1-diagramma



Respondentlardan olingan umumiy natijalarga qaraydigan bo‘lsak, talabalarda tadbirkorlik faoliyatida mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatining o‘rta va yuqori darajasi ko‘pchilikni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Respondentlardan olingan natijalarni jinslar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi 2 – jadval ko‘rinishiga ega bo‘ladi.


Olingan natijalarning jinslar bo‘yicha natijalari

2-jadvali

Mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatining darajasi	Respondentlar bergan javoblar soni		Respondentlar bergan javoblar (Foiz hisobida)	
	Yigitlar	Qizlar	Yigitlar	Qizlar
Yuqori	16	13	40	32
O‘rta	19	19	48	48
Past	5	8	12	20

Jinslar bo‘yicha olingan natijalarni diogrammaga solsak quyidagi 2 - diagramma ko‘rinishga ega bo‘ldi.

2 - diagramma



Respondentlardan jinslar bo‘yicha olingan natijalarga qaraydigan bo‘lsak, talabalarda tadbirkorlik faoliyatida mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatining yuqori darajasi yigitlarda qizlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. O‘rta daraja yigitlar va qizlarda teng ekanligi aniqlandi. Past daraja esa yigitlarga nisbatan qizlarda ko‘p ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, tadbirkor faoliyatida mufaqqiyatga erishish uchun bu imo – ishoralardan kaftni tepaga va pastga qaratish holatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Salomlashish jarayonida qo‘l siqish holatida tadbirkor faoliyatida suhbatdoshga nisbatan bosim o‘tkazishga va undan ustunlik qilishga intilish yuqori ekan va shu yo‘l bilan mufaqqiyatga erishishga intilar egan. Tadbirkor faoliyatida qo‘l panjalari imo – ishoralaridan kaftlarni ishqalash holati faol faoliyati natijasida katta foyda kutayotganda va yutuqqa erishayotganda keng foydalanar ekan. Tadbirkor faoliyati davomida davomida yani xaridor olayotgan mahsulotiga juda past baho aytganida, xaridor sotib olgan narsasini qaytarib olib kelganda, kelishuv jarayonida tadbirkor ko‘zlangan foydani ko‘rmagan holatda va shunga o‘xshash tadbirkor uchun noxush holatlarda qo‘llarini ko‘krakda chalishtirib olishini kuzatdik.

Tadbirkor faoliyatida mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatini tadqiq qilish maqsadida tadqiqotimizda F.Soliev tomonidan ishlab chiqilgan “Mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatini aniqlash” nomli metodikasdan foydalandik. Olingan natijalarni mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatiga ko‘ra “Yuqori ko‘rsatkich” 32 foizni, “O‘rta ko‘rsatkich” 52 foizni, “past ko‘rsatgich” 16 foizni tashkil etdi. Jinslar bo‘yicha olingan natijalarga qaraydigan bo‘lsak, talabalarda tadbirkorlik faoliyatida mimika va jestlarning o‘qiy olish qobiliyatining yuqori darajasi yigitlarda qizlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. O‘rta daraja yigitlar va qizlarda teng ekanligi aniqlandi. Past

daraja esa yigitlarga nisbatan qizlarda ko‘p ekanligi aniqlandi va natijalarini ishonchlilik darajasini X2 – Pirson usuliga asosan matematik statistik tahlil qildik, natija P < 0.2 ishonchliligi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan xolda tadqiqotimizning ilmiy farazi bo‘lgan tadbirkor faoliyatida noverbal signallarning ahamiyati katta bo‘lib, uning yordamida kangurentlilik sifatlarining aniqlanishi ehtimol degan taxminimiz o‘z isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hayitov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. 1- kitob. Oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun.// Prof. V.M.Karimova umumiy tahriri ostida.- T.: Fan va texnologiya”, 2008.
2. Karimova V.M., Akromova F.A. Iqtisodiy psixologiya. Ma’ruzalar matni.- T.:”Shams ASA” MCHJ bosmaxonasi, 2002.
3. Akramova F.A. “Iqtisodiy psixologiya” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi / “Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan. – T., 2007.
4. Hayitov O.E. Lavozimga davogar imidjini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari // Ta’lim menejmenti. – 2008.
5. Hayitov O.E. Muvaffaqiyatga erishish motivining ijtimoiy xulqqa ta’sirini o‘rganish // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2001.
6. Qosimova M.S., Xodiyev B.Y., Samadov A.N., Muhitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T., 2003.

Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
«Amaliy psixologiya» kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sharq mutafakkirlari asarlarida oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik talqini, oila mustahkamligini ta'minlashda ijtimoiy psixologik sabablar, oilada barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta'siri haqida fikr bildirilgan.*

Tayanch so'zlar: ibrat, pand nasihat, oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, uyatli, andishali, pokiza, bola tarbiyasi, psixika, aqliy taraqqiyot, o'z-o'zini anglash, turmush tarzi, salbiy o'zgarishlar, etnopsixologiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ СЕМЬИ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается социально-психологическая трактовка обеспечения стабильности семьи в трудах восточных мыслителей, социально-психологические причины обеспечения стабильности семьи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов на воспитание всесторонне развитой молодежи в выражена семья.*

Ключевые слова: *пример, наставление, умный, средний, бережливый, организованный, застенчивый, вдумчивый, чистоплотный, воспитание ребенка, психика, умственное развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, этнопсихология.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF ENSURING FAMILY STABILITY IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Abstract. *In this article, the socio-psychological interpretation of ensuring family stability in the works of eastern thinkers, social psychological reasons for ensuring family stability, the educational influence of socio-cultural and national-psychological factors in raising well-rounded young people in the family is expressed.*

Key words: *example, admonition, smart, average, thrifty, tidy, shy, anxious, clean, child education, psyche, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, ethnopsychology.*

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go'zallik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehtirom, oila sha'ni va g'ururini himoya qilish, tug'ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug'langan. Bu voqyelikni biz Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko'rishimiz mumkin.

"Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqyega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan".

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqyelik ekanligini ko‘rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to‘g‘risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo‘lmaslik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o‘zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo‘llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko‘rinishida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hujjatli filmda oilaning hayotidagi o‘rni hamda nima uni baxtli qilishi to‘g‘risida so‘zlab berdi.

Shavkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida to‘xtalib, «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo‘lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hyech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», — dedi u[1].

«Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman», — deya ta'kidladi Prezident.

"Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan".

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o‘zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo‘lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan.

Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo‘lgan. 1. Nikohlanuvchilarning o‘zaro roziligi. 2. Nikoh yoshiga to‘lish. 3. Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish. 4. Kelin uchun qalin va mahr to‘lash. 5. Diniy e'tiqod birligi. 6. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo‘lmasligi. 7. Tabaqa bo‘yicha tenglik. 8. Nikohdan o‘tuvchilarning ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan.

Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo‘ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shularning evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og‘ir-bosiqlik, oila ro‘zg‘or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig‘i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga

[1] https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/

bir umr sadoqatli bo‘lgan ayoldir. Qur’oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o‘rinda turgan. Zardushtiylikda ko‘p xotinlilik qat’iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo‘ydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga yetgan qiz ota-ona va jamoaning ra’yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo‘lni tutsa, unga tamg‘a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va baquvvat bo‘lmog‘i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o‘ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o‘tilgan.

Zardushtiylikning axloq me’yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o‘rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo‘lishi aytib o‘tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko‘ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqyeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e’tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo‘lishi ma’qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e’tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Jumladan, turk olimi Yusuf Tovasliy to‘plagan "Hikmatlar xazinasi"dagi kelin bo‘luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e’tiborini o‘ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: "Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o‘git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o‘rgatadi, bilganni esiga soladi. Olloh bergan qonunga ko‘ra, hayotga qadam qo‘yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo‘ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hyech kim buza olmaydi". Shu sababli sen tug‘ilib o‘sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, o‘ynab-kulib yurgan yeringdan chiqib, o‘zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo‘lsin. Sen unga yer bo‘lki, u senga osmon bo‘lsin!

Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go‘zal hayot kechirasizlar, mas’ud, baxtiyor va saodatli turmush ko‘rasizlar. Bizlar ham (har ikki oila bizning ham, eringning ham oilasi) huzur-halovatda va baxtiyor bo‘lamiz. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat bo‘lmaydi. Sen o‘zing bir jahannamda yashagandek bo‘lasan.

Qizim! Endi senga aytadigan o‘n o‘gitimga quloq sol! Bularni doimo yodingda tut;

1. Qanoat sohibasi bo‘l. O’z xolingga shukur qil. Ya’ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo‘lsin, xushfe’llik bilan, go‘zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko‘rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo‘li o‘z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan o‘z nafsini tiymagan kishida ko‘ngil huzuri, qalb rohati bo‘lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! Ya’ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo‘lganingda itoatli bo‘lishingni, uning so‘zlarini odob bilan tinglab ado etishingni sening so‘zlashib, quloq solishingdan tushunib oladigan bo‘lsin. Shunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq bo‘ladi.

3. Eringning ko‘zi tushadigan joylarga yaxshi e’tibor ber!. Ya’ni, uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut, shunday qilki, eringning ko‘ziga bir chirkin yer ko‘rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushbo‘yni sezsin, dimog‘iga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering ko‘z o‘ngida sening obro‘yingni tushiradi. Sendan irkanishga sabab bo‘ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko‘ziga xush ko‘rinish-lik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla. Ya’ni ovqatlanish vaqtini hyech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o‘rgangan bo‘lsa, o‘sha paytda ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg‘onish paytini yaxshi bilib ol! Ya’ni, uning qachon uyquga yotish payti bo‘lsa, o‘rnini tayyorlab qo‘y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, xafa-qonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin so‘ndiradi.

7. Eringni moli va ashyosiga juda e’tiborli bo‘l! Ya’ni, eringning mol dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Eringni mol dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga yetish demakdir.

8. Eringni qarindosh va yaqinlariga hurmat ko‘rsat! Ya’ni, eringni qarindoshlari va yaqinlariga hurmat - uning e’tiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish - eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va e’tibor qozonishdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya’ni, eringning ba’zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo‘lib, uni saqla, birovlarga aytib yurma. Agar aytib qo‘ysang, uning g‘azabini keltirib qo‘yasan, ishonchini yo‘qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10. Eringni diniga to‘g‘ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hyech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo‘lmasin. Agar bir shunday harakat bo‘lsa, senga kin saqlab, oxiri dushman bo‘ladi. U senga dushmanlik yo‘lini tutsa, sen ko‘p zarar ko‘rasan va qo‘lingdan hyech narsa kelmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, xalq og‘zaki ijodi va diniy g‘oyalar hamda hikmatnomalar og‘zaki tarzda avloddan-avlodga ko‘chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo‘lsa, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma’lumotlarni xalq an’analari va qadri-yatlariga tayangan holda o‘z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichla-rini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo‘llarini o‘zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hyech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo‘lmasligiga ishora qiladi. Uning g‘oyalarida oilaning to‘liqligi, unda qaror topgan sog‘lom ma’naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularn-ing har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli sha-hardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli ja-moadir".

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo‘llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hyech qanday yengillik, o‘zgar-ish va o‘sish ham bo‘lmaydi". Yoki "Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylan-tirishga harakat qilmoq zarur".

Biz tadqiqotlarimizda o‘rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o‘rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta’siri to‘g‘risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o‘zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta’limot yaratmagan bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘zining nuqtai nazarini ko‘pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o‘rtaga kirib olishi bilan ish to‘g‘ri bo‘lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy o‘rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o‘ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o‘zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o‘zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o‘rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog‘ida o‘qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma’lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud."Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o‘z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo‘jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritar ekan, avvalo oila boshlig‘i erning oldidagi mas’uliyatli vazifalarga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig‘i bo‘la oladi. Erxotin munosabati tenglik hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi haqida to‘xtalib, "Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g‘ururi va sha’ni ko‘p jihatdan ayollarga ham bog‘liq ekanligi haqida ko‘p yozgan. Jumladan, "Oila xo‘jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo‘lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida" nomli bo‘limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo‘lib, ko‘p gapirmasligi lozim; u eriga bo‘ysunmog‘i, uni sevmog‘i, farzandlar tug‘ib, doimo halol, pok, to‘g‘ri so‘z, kamtar bo‘lishi kerak; injiq bo‘lmasligi, o‘z iffat va obro‘sini to‘kmasligi lozim; u hyech qachon eriga nisbatan dimog‘dorlik, viqor hissini ko‘rsatmasligi, o‘z ishlarini yaxshi, o‘z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog‘i lozim; o‘z xulq-atvori bilan o‘z erining qalbida hadiksirash hissiga o‘rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil".

Mutafakkir olimning sog‘liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me’yorlari, unga qat’iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o‘zgarishning sabablari, ularni yo‘lga qo‘yish tadbirlari haqida

ham qimmatli ko‘rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino "kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni ham ko‘rsatib o‘tgan.

Bularga: 1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo‘lsa.

2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e’tiborini pasaytirsa.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo‘lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo‘lsa.

Ko‘rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqyei undagi munosabatlarda muhim o‘rin tutishini asoslab bergan.

Foydananilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017. -48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.

3. A.Jabborov O‘qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi “Nasaf”, 2015. – 180 b.

4. G‘oziev E.G‘. Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T.:, 2003. -124 b.

5. Qodirov O.S. “O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.

6. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

7. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.

8. https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/

Niyazmetova Gulbahor
ISFT instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti,
psixologi fanlari nomzodi

KATTA YOSHLILARNING YETAKCHI FAOLIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi zamonda hayot tarzining tezlashuvi, kuchli axborot oqimi natijasida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgartirishlar shaxsdan ushbu o'zgartirishlarga mos ravishda o'z hayot faoliyatini va oilada o'zaro shaxslararo munosabatlari tizimini o'zgartirishi zaruriyati paydo qiladi. Bunday o'zgartirishlar inson psixologiyasi oldida murakkab vaziyatlarni paydo qiladi va bunday vaziyatlarga mos javob reaktsiyalarini qaytarishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa etuklik yoshini uchinchi davrida etakchi faoliyat turi, yoshlar bilan muloqot qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: ***Ye****tuklik yoshi, yosh krizisi, yetakchi faoliyat, postfigurativ, konfigurativ, prefigurativ, professionallashuv, virtual reallik.*

ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается, что в условиях ускоряющегося темпа жизни и мощного информационного потока в современном обществе происходят социальные преобразования, которые требуют от личности соответствующей адаптации: изменения своей жизнедеятельности, а также системы межличностных отношений в семье. Такие преобразования порождают сложные психологические ситуации, вызывая трудности в адекватном реагировании на них. Особенно подчёркивается, каким должен быть характер ведущей деятельности на третьем этапе зрелого возраста и каковы особенности общения пожилых людей с молодым поколением.*

Ключевые слова: *зрелый возраст, возрастной кризис, ведущая деятельность, постфигуративное, конфигуративное, префигуративное, профессионализация, виртуальная реальность.*

LEADING ACTIVITY IN OLDER ADULTHOOD

Abstract. *This article discusses the acceleration of the lifestyle in the modern world, the changes in social life resulting from the strong flow of information, which require individuals to adapt their lifestyle and interpersonal relationship systems within the family according to these changes. Such changes create complex situations for human psychology and cause difficulties in finding appropriate responses to these situations. Special attention is given to the issues of how the main type of activity should be organized in the third stage of adulthood and how the interaction with young people should be carried out.*

Key words: *age of maturity, age crisis, leading activity, postfigurative, configurative, prefigurative, professionalization, virtual reality.*

Hayot yaralish va yo‘qotish, yaratilish va yo‘qotilishdan iborat jarayondir. Inson yoshi ulg‘aya borgan sayin, o‘z hayoti, o‘z tajribasi, yutuqlari va omadsizliklari, erishgan va erishmagan narsalari xaqida o‘ylay boshlaydi. Bunday o‘z-o‘zini tahlil qilish holati har bir kishiga xos bo‘lib, erishmagan niyatlari, ushalmagan orzulari va shu kabilar asosida yetuklik yoshi krizislari kelib chiqishi mumkin.

Yoshga oid krizislar insonning rivojlanish jarayonidagi tabiiy bosqichlar bo‘lib, ular shaxsning psixologik, jismoniy va ijtimoiy o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladi. Bunday krizislar bir nechta asosiy omillar ta’sirida paydo bo‘ladi:

- Biologik rivojlanishida katta yoshga o‘tish jarayonida fiziologik o‘zgarishlar ya’ni gormonal o‘zgarishlar va jismoniy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

- Psixologik rivojlanishida esa, insonning shaxsiy identifikatsiyasi va mustaqillikka intilishi krizislarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy va madaniy omillar, jamiyat, oila va atrofdagi muhit insonning rivojlanishiga juda katta ta'sir qiladi. Odam butun umr davomida ish faoliyatida bo'lar ekan, u hamisha o'zini uyida ham, ish faoliyatida ham kerakli ekanligini bilib, his qilib yuradi. Nafaqaga chiqqanidan keyin esa birdaniga o'zini keraksiz bo'lib qolganday his qiladi. Shuning uchun ham ko'pchilik katta yoshdagilar iloji boricha ish faoliyatini davom ettirishga, faol turmush kechirishga harakat qiladilar.

Masalan, har bir yosh davrida shaxsning «Men nimaga erishdim?» degan savolni o'ziga berish ehtimoli yuqori, chunki bu yoshda muayyan yutuqlarga erishgan bo'lishini xoxlaydi odam.

Insonning tug'ilganidan boshlab psixik, ijtimoiy rivojlanishiga undaydigan kuch - bu yetakchi faoliyat bo'lib, u bola tug'ilganidan boshlab to yetuklik yoshiga yetgunga qadar insonni psixik rivojlanishini ta'minlab turadi. Lekin shu yerda hamma narsaga erishgan, bilim, ko'nikma, malakalari bo'lgan odamga yana qanday yetakchi faoliyat kuchi kerak bo'lishi mumkin, degan savol tug'iladi. Bu yoshga yetganlarning ba'zilarida xatto ikkita yoki uchta diplomlari, ikki – uchtadan nevaralar ham bo'lishi mumkin. Bu degani , ya'ni ular ma'lum darajada hayotda ancha narsalarga erishganlar deyish mumkin.

D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, shaxs rivojlanishining yangi darajasiga o'tishida hamisha shu davr uchun yetakchi faoliyat turini o'rganib olish taqozo qilinadi, shu jumladan yetuklik yoshi davrining uchinchi qismi ham bundan mustasno emas.

Bularga quyidagilar kiradi: yangi emotsional reaksiyalar, yangi tipdagi munosabatlar, yangi psixik funksiyalar, yangi yosh davrining asoslari, yangi yetakchi faoliyat uchun yangi asoslar, ya'ni yangi yetakchi faoliyat amalga oshishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar va boshqalar.

Yetuklik davrining ikkinchi qismi o'rta yetuklik 35 yoshdan 50 yoshlargacha bo'lgan davr psixologiyasi qonuniyatlari, xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan, buning sababi ushbu yosh vakillari aktiv faoliyat bilan mashg'ul bo'lganliklari sabab o'zlariga go'yoki e'tibor jalb qilmaganlar, ya'ni ularning hayotida sezilarli o'zgarishlar go'yoki yo'q, ular hech qanday atrofdan bo'ladigan e'tiborga muhtoj emasdek. Bu davrda kasbiy barqarorlikka erishilgan, ijtimoiy faoliyatda bo'lgan davr hisoblanadi.

Keksalik davri va qarilik davrining psixologik xususiyatlari keng o'rganilgan bo'lib, alohida gerontologiya, gerontopsixologiya fanlarii bu muammolar bilan shug'ullanadi.

Lekin katta yetuklik yoshdagilar xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar juda kam. Bu davrda qanday faoliyat turlari oldingi faoliyat turlarini o'rnini bosadi va yetakchi bo'ladi, hamda kattalikning boshlang'ich davrida rivojlanish manbasi bo'la oladi degan savollarga javob yo'q.

Afsuski, olimlar tomonidan beriladigan tavsiyalarning aksariyat qismida ko'pincha "professional yetuklik" va "kasbiy hayotning yakunlanishi" davrlarida shaxsiy va professional rivojlanishning asosiy vazifalari professional destruksiyalarni bartaraf etish va nafaqaga chiqishga tayyorlanish deb hisoblanadi. Bunda insonning keyingi rivojlanishi uchun o'z oldiga qo'yadigan vazifalari yangi natijalarga erishishi uchun emas, balki tajribaning mustahkamlanib ketgan kamchiliklarini va nafaqaga chiqish bilan bog'liq stress tufayli yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish sifatida ko'riladi. Bunda go'yoki odam ustiga yoshi oshib borgani sari kattalashib boradigan yuk yuklanganga o'xshaydi va u o'z yukidan xalos bo'lish imkoniyatini izlaydigan odamga aylanib qolgandek tuyuladi.

Katta yetuklik yosh davrini shunday atash mumkinki, bu davrida yetakchi faoliyat turini umuminsoniy, madaniy va oilaviy qadriyatlar va bilimlarni saqlash hamda ularni kelgusi avlodga yetkazib berish davri deb belgilash mumkin.

Ammo bunday yondashuv o'ylanmasdan qo'llaniladigan bo'lsa bu mashhur olim – etnograf, antropolog Margaret Midning mashhur ta'limoti bilan ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Etnograf, antropolog Margaret Mid avlodlar o'rtasidagi munosbatlarni uchta avlod madaniyatini o'zaro ketma ketlikdagi almashinuvi deb qaraydi. U avlodlar o'rtasidagi munosabatlar mantiqini uch ko'rinishdagi madaniyatning izchil almashinishi deb qarashni taklif etadi:

bularni postfigurativ, konfigurativ va prefigurativ madaniyatlar.

Postfigurativ - bunda bolalar, eng avvalo, o‘zidan oldingi bolalardan o‘rganadilar; (bu keksa avlod tajribasi va qadriyatlari yosh avlod tomonidan aynan qayta ishlab chiqiladigan jamiyat turidek. Bunda yoshlar aynan kattalarning qadriyatlari, an’analari va urf odatlariga tayanadilar).

Konfigurativ - bunda ham bolalar, ham kattalar o‘z tengqurlaridan o‘rganadilar; (yoshlar va kattalar o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar va birgalikda madaniy me’yorlar shakllantiradilar).

Prefigurativ - bunda kattalar o‘zining farzandlaridan, yoshlardan ham o‘rganadilar. (Yoshlar innovatsiyalar orqali kattalarga madaniyatni o‘rgatadilar).

Xozirgi davrda butun dunyo jamiyatida prefigurativ madaniyatda yashamoqda. Chunki dunyodagi, ilm – fandagi yangiliklar kun sayin o‘zgarmoqda.

Olimlar yetuklik kategoriyasiga «ruhiy va ma’naviy, intellektual va jismoniy qobiliyatlarning eng yuqori darajasiga erishishga intilish»ni, ya’ni “akme” kiritadilar. Akmeologiyada yetuklik, jamiyatdagi muayyan hayot davri uchun qabul qilingan yosh normalariga muvofiq shakllangan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni nazarda tutadi. A.A. Bodalevning fikricha, Akme fenomeni— bu ko‘p o‘lchamli holat bo‘lib, u "rivojlanishdagi cho‘qqilarga erishish" bilan xarakterlanadi, va bu, odatda, bir vaqtning o‘zida bo‘lmaydi. Insonning yetukligi turli hayot aspektlaridagi faoliyati jihatlaridan turli vaqtlarda va turlicha rivojlanishi mumkin.

Hayot faoliyatining aspektlari — bu inson mavjudligini tashkil etuvchi turli sohalar yoki yo‘nalishlaridir. Har bir aspekt hayotning sifatini va farovonligni shakllanishiga ta’sir qiladi. Yetuklikning shaxsiy, emotsional, kasbiy, ijtimoiy va boshqa turlari farqlanadi [88]. Quyida eng muhim aspektlardan ba’zilari keltiramiz:

1. Jismoniy aspekt — sog‘liq, jismoniy holat, ovqatlanish, uyqu, jismoniy faollik.
2. Emotsional aspekt — his-tuyg‘ular, emotsiyalar, stress, hissiy barqarorlik, qiyinchiliklarga chidamlilik.
3. Aqliy (mental) aspekt — aql-zakovat qobiliyatlari, intellektual rivojlanish, ta’lim, muammolarni hal qilish, fikrlash qobiliyati.
4. Ijtimoiy aspekt — oila, do‘stlar, hamkasblar bilan munosabatlar, ijtimoiy ko‘mak, muloqot, jamiyat hayotida ishtirok etish.
5. Kasbiy aspekt — faoliyat, ish, muvaffaqiyatlar, ishdan qoniqish, ko‘nikmalarni rivojlantirish.
6. Ma’naviy aspekt — ichki e’tiqodlar, dunyoqarash, ishonch, hayot ma’nosi, o‘z-o‘zini anglash va tafakkur amaliyotlari.
7. Moliyaviy aspekt — shaxsiy moliyani boshqarish, daromadlar, xarajatlar, tejamkorlik, investisiyalar, moliyaviy barqarorlik.
8. Diniy aspekt — din bilan bog‘liq amallar va urf-odatlar, e’tiqod, diniy jamoalarda ishtirok.
9. Ekologik aspekt — atrof-muhitga munosabat, tabiatni asrash, barqaror iste’mol, ekologik himoyada ishtirok.

Bu aspektlar bir-biri bilan bog‘liq va bir-biriga ta’sir qiladi, shu sababli ular orasida muvoza-natga erishish muhim, bu esa to‘laqonli va muvaffaqiyatli hayot kafolati bo‘ladi.

Yetuklik bilan kattalik ko‘pincha bir xilda qabul qilinadi, lekin hozirgi kunda infantilizatsiya jarayonlari sababli har bir katta kishini yetuk shaxs deb atash mumkin emas, ya’ni hayot va atrof-muhitga javobgarlikni his qila oladigan shaxsnigina yetuk shaxs deb atash mumkin. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, to‘liq yetuklikka erishish barcha kattalarga ham nasib etmaydi. «Odam hayotini qanday yashagan bo‘lsa, shunday qariydi» degan fransuz maqoli bor. Pasport yoshi va biologik yoshdan farqli o‘laroq, psixologik yosh yashash yillari yoki organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar bilan belgilanmaydi, balki turli g‘oyalar, tushunchalar orqali qaraladi: intellektual, psixoseksual, tajriba va o‘z-o‘zini safarbar qilishni sub’ektiv his qilish bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy yetuklik darajasi sifatida qaraladi.

G. Olport shaxsni yetuk shaxs deb, uni motivatsiyasining funksional mustaqillik darajasiga asosan baholagan, ya’ni kattalarni sog‘lom va ongli, o‘z harakatlarini samarasini anglab, o‘tmish (bolalik) motivatsiya formalaridan chiqishiga qarab baholash mumkin. Olport zamonaviy psixologlar ishini tahlil qilar ekan, u o‘z-o‘zini safarbar qiluvchi shaxsning quyidagi xususiyatlarini ajratdi:

-tashqi dunyoga nisbatan qiziqish va ishtiyoq,

-o‘z «Men»ining chegaralarini kengaytirish; atrofdagi odamlarga nisbatan yaxshilik (sabr-toqat, hurmat, rahm-shafqat);

-emotsional asosiy xavfsizlikni sezish (o‘zini qabul qilish va o‘zini nazorat qilish);

-aniq va faol jamiyatdagi ish-harakatlarni bajarish; o‘zini tushunish, ichki tajribani muammolarni hal etishda qo‘llash va yumor hissi;

-hayot falsafasi shakllanishi, turli tajribalarni tizimlashtirish va o‘z harakatlariga ma’no berish.

Inson o‘z resurslarini rivojlantirishni bolalik davridan boshlab, to umrning oxirigacha rag‘batlantirib borishi kerak.

O‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish — bu insonning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi va rivojlantirishi jarayonidir. Ya’ni, kishi o‘z qobiliyatlari, iste’dodlari, qiziqishlari va hayotiy maqsadlari asosida o‘zini topishi va ularni amalga oshirishi demakdir.

Psixologiyada bu tushuncha Abraxam Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, inson o‘zidagi barcha ehtiyojlar qondirilgandan so‘ng (ovqat, xavfsizlik, muhabbat, hurmat), eng yuqori bosqich — bu **o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish**dir.

O‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishning belgilari:

- Inson o‘zini to‘liq ifoda eta oladi.
- Uning faoliyati o‘ziga shaxsiy qoniqish olib keladi.
- Yangilikka intilish va ijodkorlik orqali o‘sish sodir bo‘ladi.
- Maqsadga erishish insonning ichki ehtiyojiga aylanadi.

Qisqacha aytganda, **o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish** — insonning "o‘zini topishi" va hayotda ma’no topib yashashidir.

Dunyoda bo‘layotgan kuchli ijtimoiy o‘zgarishlar va texnologiyalarning jadal rivojlanayotganligi jamiyatdagi avlodlar o‘rtasida ma’lumotiga ko‘ra, yashash tarziga ko‘ra va dunyoqarashiga ko‘ra katta farqlar bo‘lishi, bu tabiiydir. Yoshlar o‘sishga va rivojlanishga bo‘ladigan o‘z harakatlarida o‘zlaridan oldingi ikkita katta avlod vakillari bo‘lmish kattalarning bir xilda tushunagan ba’zi bir qadriyatlarga duch keladilar. Katta avlod bir tomondan yangi texnologiyalar va jadal o‘zgarishlar dunyosida yashayotganligini tan olishadi, ikkinchi tomondan esa, ular shakllanib borayotgan zamonaviy amaliyotlarni yoshlar tomonidan o‘zgartirilishini o‘z-o‘zini aynanlashtirish (identifikatsiya qilish)ni yo‘qotish xavfi deb qarashadi. Bugungi kunda yosh avlod oldin xech qachon katta avlodda bo‘lmagan, virtual reallikni o‘zlashtirish va boshqa murakkab tajribalarning egasiga aylanmoqdalar. Buning ustiga zamonaviy rivojlanish jarayonida katta avlod vakillari o‘z tajribalarining ko‘p qismini yoshlar tomonidan qo‘llanilishi uchun talab qilinmasligi vaziyatiga duch kelayapti. Bu uzilishning yangiligi, globallashganligi va umumiy xarakterdaligi xozirgi dunyoda avlodlar o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xosligi (unikalligi)ni belgilab beradi.

Kattalar kompyuterga o‘quv jixozi yoki ma’lumotlar tashuvchisi sifatida qarashadi. Nevaralar esa internet orqali turli mamlakatlardagi yangiliklardan xabardor bo‘lar ekanlar, o‘zlarini boshqalar bilan bir xil his qiladilar, o‘zaro muloqotlari, gapirish maneralari, kiyinishlari o‘zaro o‘xshash bo‘lib boradi.

Shuning uchun katta avlod vakillarida nafaqat bilimlarni, xatto axloqiy qadriyatlarni ham saqlash va keyingi avlodga berish asosiy vazifaga aylanishi kerak. Chunki xozirgi davr kompyuter asrida do‘stlik va o‘rtoqlik, erkakcha mardlik va jasurlik, go‘zallik va nafosat, mehr - muhabbat, qadr-qimmat va qadriyatlarga amal qilish, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat, zaiflarga g‘amxo‘rlik va ularni himoya qilish tushunchalarini beqadr bo‘lib borishini, yo‘qolishini oldini olishni kattalar o‘z zimmasiga olishlari kerak.

Katta avlodning yoshlarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta’siri muhimligini quyidagi muvaffaqiyatsiz ijtimoiy eksperimentda ko‘rishi mumkin. Sobiq ittifoq davrida YoYaK (Yoshlar Yashash Komplekslari)lar bunyod qilingan. Yosh oilalar ko‘chib o‘tishi uchun maxsus qurilgan mikrorayonlar yoshlar yashash komplekslari deb nomlanib, bu oilalar o‘zlarining bo‘lg‘usi uyi qurilishida o‘zlariga belgilangan hajmdagi vaqt mobaynida ishlab berishlari shart edi. Bu uylar faqat yosh oilalarga berilgan. Bu g‘oyaga bolalar psixologlari o‘ta qarshi bo‘lganlar. Ammo o‘sha yillarda (1970-yillar) psixologlarni hech kim eshitmagan. Natijada bu uylarga faqat yosh oilalar bolalari bilan birga joylashtirilgan YoYaK larida eng fojeali tarzda “vaqtlar o‘rtasidagi aloqa“ ya’ni avlodlar

o‘rtasidagi aloqalar uzilgan. Na yangi xonadonlarda, na yo‘laklarda, na skameykalarda buvilar va buvalar yo‘q edi. Natijada bu 10 yildan keyin YoYaKlarda o‘sgan o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasi keskin ortib ketganligini ko‘rsatgan. Shu tariqa bu g‘oya yopilgan.

Xozirgi davrda katta yoshdagi bolalar haddan tashqari bandlar. Ularning hayot tarzi juda tez. Shu sababli ko‘pchilik oilalarda ota va o‘g‘il o‘rtasida yoki ona va qiz o‘rtasida dildan suhbatlar bo‘lmaydi. Chunki bunga xech kimni “vaqti” yo‘q. Bu xolat yetuklik yoshidagi ba’zi ota - onalarga ham taalluqli. Oilada yosh ota – onalarning o‘z farzandlari bilan muloqoti ancha cheklangan. Erta yetuklik yoshidagi ota - onalar buni sababini hayot tempini tezlashuvi natijasida bola bilan o‘tirib, dildan gaplashishga vaqt yetmasligida deb izohlashadi. Lekin qimmatli vaqtni o‘g‘irlaydigan narsa bu emasligini, internetda o‘tirib vaqt o‘tkazishlarini o‘zlari ham bilishadi. Ammo buni tan olishmaydi.

Miyani xususiyatlaridan biri shuki, miya har qanday informatsiyani o‘zida olib qoladi va saqlaydi. Shu nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak, telefonda ma’nosiz narsalarni ko‘rish, dahshatli yoki axmoqona videolarni tomosha qilish keyingi avlodni savodsiz, manqurt qilishga mo‘ljallangan dasturdek tuyuladi. Bunday mazmunsiz narsalarni soatlab tomosha qilish miyani charchatadi, asosiy hayotiy zarur narsalardan chalg‘itadi.

Bu xolatni oldini olish, bartaraf etishda katta avlod vakillaridan foydalanish mumkin. Mardlik, sadoqat, qaxramonlik, do‘stlik, to‘g‘rilik, halollik, poklik, sodiqlik to‘g‘risida nevaralar bilan suhbatlashish har ikki tomon uchun ham foydalidir. Ular millatimizning qadriyatlarini, urf odatlarini, ma’naviyatini, avlodlar tarixini yoshlarga yetkazishda faol bo‘lishlari mumkin. Bolalarning garmonik rivojlanishi uchun xaqiqatan ham turli avlod vakilliri bilan muloqot va o‘zaro munosabatlar tajribasi albatta bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham katta avlod vakillari axloqiy qarashlarni, qadriyatlarni o‘z farzandlari va nevaralariga yetkazuvchilar deb baholanadilar.

Shu bilan birga katta yoshlilarni o‘zlariga ham nevaralar bilan muloqot qilishi foydadan xoli bo‘lmaydi. Chunki muloqot jarayonida energiya almashinuvi kechadi, o‘zaro qalban yaqinlik bo‘ladi

Demak, uchinchi yetuklik yosh davrida kelgusi avlodni qo‘llab quvvatlashga axloqiy ko‘rsatmalarni namoyish qilish va keyingi avlodga yetkazishga yo‘nalgan xulq atvorni yetakchi faoliyat deb hisoblash mumkin.

“Keksa odamlarning avlodlar zanjiridagi muhim o‘rni shu yerda bo‘lishi kerak!”. Shu bilan birga ularda yashab o‘tilgan yillari bilan bog‘liq ravishda yangicha idrok yuzaga keladi va hayotga nisbatan boshqacha munosabat shakllanadi. Natijada avlodlar izchil aloqalari tufayli inson hayoti uchun muhim bo‘lgan insonparvar qadriyatlarning yoshlar tomonidan o‘zlashtirilishi va ularning ongiga singdirilishiga erishiladi va bu avlodlar o‘rtasidagi izchillikni saqlash va shu orqali jamiyatni sog‘lom ushlab turadigan toza g‘oyalarni shakllantirishga erishish tufayli buzg‘unchi g‘oyalardan saqlanish imkonini beradi. Shuning uchun katta avlodda nafaqat bilimlarni, xatto axloqiy qadriyatlarni ham saqlash va keyingi avlodga berish asosiy vazifaga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Akmeologiya. Pod red. A.A. Derkacha. M.:RAGS, 2002.
2. Ismagilova F. Opit v nagruzku //Harvard Business Review Rossiya, 2010, mart, str.75-81.
3. Leyts G. Psixodrama: teoriya i praktika. Klassicheskaya psixodrama Moreno. M. Progress, 1994g.
4. Lippman U. «Obщestvennoe mnenie». Izd-vo: Institut Fonda «Obщestvennoe mnenie», 2004. 80 s.
5. Margaret Mid “Culture and Cjmmintment: A Stady of the Jeneration Gap” (Madaniyat va sadoqat: Avlodlar o‘rtasidagi uzilishni o‘rganish) 1970 y. 91 b.
6. Elkonin Aleksey Nikolaevich "Psixologiya igri" 1976 g. Moskva. Izd. "Prosveщenie". 280 s.

Садыкова Элеонора
стажер-исследователь БузГУ

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОГРАММЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В СНИЖЕНИИ ЭКЗАМЕНАЦИОННОЙ ТРЕВОЖНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье рассматривается влияние индивидуально-типологических особенностей личности, в частности типа темперамента, на уровень тревожности студентов в условиях экзаменационного стресса. На выборке из 272 студентов 1–2 курсов высших учебных заведений Узбекистана проведено квазиэкспериментальное исследование, в ходе которого использовались методики Айзенка (EPI), Спилбергера–Ханина, а также тесты на стрессоустойчивость и адаптивность. Результаты анализа показали, что представители меланхолического и холерического типа темперамента демонстрируют статистически значимо более высокий уровень ситуативной и личностной тревожности по сравнению с сангвиниками и флегматиками. Выявлены корреляции между нейротизмом и тревожностью, а также обратные связи между тревожностью и стрессоустойчивостью. Подтверждена гипотеза о модераторной роли темперамента в восприятии стрессовых ситуаций. Представлены практические рекомендации для внедрения персонализированных психологических интервенций в образовательной среде.*

Ключевые слова: *тревожность, студенты, темперамент, ситуативная тревожность, нейротизм, стрессоустойчивость, адаптация, экзаменационный стресс.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОГРАММЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В СНИЖЕНИИ ЭКЗАМЕНАЦИОННОЙ ТРЕВОЖНОСТИ СТУДЕНТОВ

Abstract. *This article explores the influence of individual personality traits, particularly temperament type, on the level of anxiety experienced by students during examination stress. A quasi-experimental study was conducted with 272 first- and second-year university students in Uzbekistan, using Eysenck's Personality Inventory (EPI), the Spielberger–Hanin State-Trait Anxiety Inventory, and tests for stress resistance and adaptability. The findings indicate that melancholic and choleric students exhibit statistically higher levels of both situational and trait anxiety compared to sanguine and phlegmatic types. Significant correlations were found between neuroticism and anxiety, as well as inverse associations with stress resistance. The hypothesis of temperament acting as a moderator in stress perception was confirmed. Practical recommendations are proposed for implementing personalized psychological interventions in academic environments.*

Keywords: *anxiety, students, temperament, situational anxiety, neuroticism, stress resistance, adaptation, examination stress.*

THE EFFECTIVENESS OF A PSYCHOLOGICAL SUPPORT PROGRAM IN REDUCING STUDENTS' EXAM ANXIETY

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar orasida imtihon stressi paytida yuzaga keladigan xavotirlik darajasiga temperament turining ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot O'zbekistonning uchta oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 1–2-bosqich 272 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan. Eysenck shaxsiy tipologiyasi (EPI), Spielberger–Khanin usuli, stressga chidamlilik va moslashuv darajalarini baholash metodikalari qo'llanilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, melankolik va xolerik temperamentli talabalar situatsion va shaxsiy xavotirlikning yuqori darajalarini namoyon etadi. Neyrotizm va xavotirlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik, xavotirlik bilan stressga chidamlilik o'rtasida esa teskari bog'liqlik aniqlangan. Temperament stressni idrok etishdagi vositachi sifatida faol ishtirok etishi tasdiqlandi. O'quv muassasalarida psixologik yordam dasturlarini temperamentga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *xavotirlik, talabalar, temperament, situatsion xavotirlik, neyrotizm, stressga chidamlilik, moslashuv, imtihon stressi.*

Введение.

Экзаменационный период традиционно рассматривается как один из наиболее напряжённых этапов в жизни студента. В это время значительно возрастает эмоциональная нагрузка, и у многих обучающихся развивается выраженное чувство тревоги. Эта тревожность нередко выходит за рамки обычного волнения и становится фактором, негативно влияющим как на учебные достижения, так и на общее психоэмоциональное состояние [9].

Исследования показывают, что большая часть студентов сталкивается с повышенной тревожностью в период сессии [1]. Такие проявления могут включать в себя тревожные мысли, соматические симптомы, снижение концентрации внимания и ухудшение сна. Если подобное состояние сохраняется в течение длительного времени, оно способно вызывать нарушение адаптации к учебной среде, снижение успеваемости и даже развитие психосоматических расстройств [2].

В связи с этим в последние годы всё больше внимания уделяется разработке и внедрению программ, направленных на снижение экзаменационной тревожности и повышение устойчивости студентов к стрессу. Мировой и отечественный опыт подтверждает эффективность психологических интервенций, таких как тренинги саморегуляции, когнитивно-поведенческие методы, а также групповые формы поддержки [1][3].

В рамках предыдущего этапа работы нами уже поднимался вопрос о необходимости системной профилактики тревожных состояний у студентов. Было показано, что комплексная психопрофилактика, включающая различные форматы психологической поддержки, способствует снижению тревожности и улучшению общего состояния обучающихся [3]. В частности, отдельные элементы психопрофилактики — методы релаксации, медитации, поддерживающие группы — показали высокую эффективность в снижении эмоционального напряжения в студенческой среде [4][5].

Тем не менее, в практике отечественных вузов пока отсутствует повсеместно внедрённая и апробированная система психологической помощи студентам в период подготовки и сдачи экзаменов. Это факт определил необходимость экспериментального изучения эффективности комплексных программ, направленных на снижение тревожности и улучшение адаптивных ресурсов обучающихся.

Мы предположили**,** что участие студентов в специально разработанной программе позволит достоверно снизить уровень тревожности, а также повысить показатели адаптации и стрессоустойчивости по сравнению с контрольной группой. Ожидается, что эти изменения будут статистически значимыми.

На констатирующий этапе исследования, проведённом до начала зимней экзаменационной сессии со студентами были проведены методики, определяющие уровни тревожности, адаптивности и стрессоустойчивости. На следующем формирующем этапе исследования студенты методом случайной выборки были распределены на две группы: экспериментальную (n ≈ 140) и контрольную (n ≈132).

В течение четырёх месяцев (февраль–май) студенты из экспериментальной группы проходили авторскую программу психологической поддержки, тогда как контрольная группа продолжала обучение без дополнительного вмешательства. Повторные измерения проводились перед летней экзаменационной сессией.

Психологическая программа включала несколько взаимодополняющих компонентов:

- Еженедельные групповые занятия по 1,5 часа, включавшие дыхательные и мышечные техники релаксации, элементы когнитивно-поведенческого подхода, упражнения по преодолению негативных автоматических мыслей и формированию навыков саморегуляции [1].
- Лекции и интерактивные обсуждения на темы природы тревожности, механизмов её влияния на здоровье и успеваемость, способов эффективного планирования подготовки к экзаменам и соблюдения здорового режима жизни [1][7].

- Работа в малых группах под руководством психолога с обсуждением переживаний и стратегий совладания. Делался акцент на формировании поддержки внутри коллектива и снижении изоляции [9].
- По запросу участники могли получить персональную психологическую помощь, включая диагностику тревожных состояний и составление индивидуального плана работы.

Для сравнения результатов в экспериментальной и контрольной группах использовались: опросник Спилбергера–Ханина для оценки ситуативной и личностной тревожности; методика Маклакова–Чермянина для оценки адаптационного потенциала; Бостонский тест стрессоустойчивости (в процентах от максимума); субъективная шкала подготовки к экзаменам (0–10 баллов).

Анализ проводился с помощью смешанного дисперсионного анализа (mixed ANOVA) с факторами «Группа» и «Время». Наличие эффекта взаимодействия (Group×Time) трактовалось как результат действия программы. Также использовались t-критерии Стьюдента (для зависимых и независимых выборок) и расчёт процентных изменений. Все данные обрабатывались в SPSS Statistics 23.0. Статистическая значимость фиксировалась при $p < 0,05$.

На первом этапе эксперимента анализ исходных данных показал, что между экспериментальной и контрольной группами не было статистически значимых различий по основным переменным. Так, средний уровень ситуативной тревожности перед зимней сессией составил около 53–54 баллов из 80 возможных как в экспериментальной, так и в контрольной выборке. Эти значения соответствуют повышенному уровню тревожности и типичны для студентов младших курсов [10].

Показатели адаптивности и стрессоустойчивости на исходном этапе также были схожи между группами: средние значения по шкале адаптационного потенциала и Бостонскому тесту укладывались в интервал, соответствующий умеренно выраженной личностной адаптации и средней сопротивляемости стрессу. Таким образом, можно утверждать, что обе группы демонстрировали сходную стартовую картину, отражающую высокий уровень экзаменационного стресса при умеренной общей адаптированности.

После прохождения авторской психологической программы в экспериментальной группе были зафиксированы существенные положительные сдвиги. К летней сессии уровень ситуативной тревожности снизился в среднем с 54 до 44 баллов, что соответствует снижению примерно на 18,5 %. Для сравнения, в контрольной группе наблюдалось лишь незначительное уменьшение тревожности — с 53 до 50 баллов (порядка 6 %), что, вероятно, обусловлено естественным эффектом привыкания к сессионной нагрузке или другими внешними обстоятельствами.

Статистический анализ показал значимое взаимодействие факторов «Группа × Время» ($F_{(1,268)} = 15,47$; $p < 0,001$), что указывает на достоверный эффект вмешательства именно в экспериментальной группе. Тем самым подтверждается эффективность реализованной программы в снижении ситуативной тревожности студентов [10].

Что касается личностной тревожности, которая рассматривается как более стабильная характеристика, то и здесь отмечена положительная динамика. В экспериментальной группе средний балл снизился с ≈48 до ≈45, тогда как в контрольной — с 47 до 46. При этом статистическая значимость взаимодействия по данному показателю находилась на границе значимости ($p = 0,07$), что может свидетельствовать о тенденции к улучшению, однако требует дополнительных исследований с расширенной выборкой.

Наряду со снижением тревожности, участники экспериментальной группы продемонстрировали отчётливое улучшение адаптивных и стрессоустойчивых характеристик. Так, по шкале адаптационного потенциала (условная шкала теста Маклакова–Чермянина), среднее значение выросло с 85 до 100 баллов, что соответствует приросту в ~18 %. В контрольной группе изменения были минимальны: с 87 до 88 баллов.

Аналогичная картина наблюдается по показателю стрессоустойчивости: по данным Бостонского теста, средний уровень у студентов экспериментальной группы вырос с 60 % до 75 %, в то время как в контрольной — лишь с 62 % до 64 %. Проведённый t-анализ для зависимых

выборок подтвердил статистическую значимость улучшений в экспериментальной группе ($p < 0,01$), тогда как в контрольной выборке различия были недостоверны.

Отмечено, что помимо явного снижения тревожности, участие в программе сопровождалось существенным ростом способности к адаптации и управлению стрессом. Это указывает на комплексный положительный эффект предложенной психологической поддержки: не только ослабление тревожных реакций, но и повышение уверенности в преодолении трудностей учебного процесса.

Таблица 1.

Динамика средних показателей тревожности, адаптивности и стрессоустойчивости в экспериментальной и контрольной группах (M ± SD)

Показатель	Эксперим. до	Эксперим. после	Контроль до	Контроль после
Ситуативная тревожность (балл)	54 ± 9	**44 ± 8**	53 ± 10	50 ± 9
Личностная тревожность (балл)	48 ± 8	**45 ± 7**	47 ± 8	46 ± 8
Уровень адаптивности (балл)	85 ± 15	**100 ± 12**	87 ± 14	88 ± 13
Уровень стрессоустойчивости (%)	60 % ± 10 %	**75 % ± 9 %**	62 % ± 11 %	64 % ± 10 %

Прим. Жирным шрифтом выделены статистически значимые отличия «после» по сравнению с «до» (внутри экспериментальной группы) и относительно контрольной группы (после эксперимента), $p<0,01$.

Из таблицы 1 видно, что по трем из четырех представленных показателей в экспериментальной группе произошли значимые улучшения (снижение тревожности и рост личностных ресурсов), тогда как в контрольной группе изменений практически нет. Это наглядно демонстрирует эффективность реализации разработанной программы.




Рис. 1. Динамика уровня ситуативной тревожности (средние баллы по шкале Спилбергера–Ханина) у студентов экспериментальной и контрольной групп до и после проведения программы.

На рисунке 1 представлена динамика ситуативной тревожности у студентов экспериментальной и контрольной групп. Жёлтая линия, отражающая экспериментальную группу, демонстрирует отчётливое снижение уровня тревожности — с 54 до 44 баллов. В то время как оранжевая линия (контрольная группа) показывает менее выраженное снижение — с 53 до 50 баллов. Стартовые показатели практически совпадали, но к летней сессии между группами возникло статистически значимое расхождение — около 6 баллов ($p < 0,01$). Эти данные визуально подтверждают эффективность программы и отражают ключевой результат: вмешательство сопровождалось явным снижением экзаменационного стресса.

Примечательно, что наряду с объективными данными, были зафиксированы и субъективные улучшения. Так, 82% студентов экспериментальной группы отметили, что чувствовали себя во время летней сессии более спокойно и уверенно, чем зимой. В то же время в контрольной группе только 37 % сообщили о подобном улучшении, а большинство заявили, что уровень волнения остался прежним.

Также была замечена тенденция к повышению успеваемости. Средний балл летней сессии у участников экспериментальной группы увеличился в среднем на 0,2 пункта по сравнению с зимней, тогда как в контрольной группе подобных изменений не зафиксировано. Хотя рост успеваемости нельзя напрямую связать только с уменьшением тревожности, этот факт согласуется с данными о том, что чрезмерный стресс способен снижать академическую продуктивность [5].

Полученные результаты подтверждают, что предложенная программа психологической поддержки оказалась эффективной для снижения тревожности и повышения устойчивости к экзаменационному стрессу. Гипотеза полностью подтвердилась: после прохождения курса психопрофилактики уровень ситуативной тревожности у студентов экспериментальной группы снизился в среднем на 10 баллов (или на ~18%), тогда как в контрольной группе остался на прежнем уровне.

Важно подчеркнуть, что различия между группами отсутствовали до начала вмешательства, а после реализации программы стали отчётливо выраженными. Это даёт основание утверждать, что позитивные изменения обусловлены именно действием программы, а не спонтанной адаптацией студентов. Эти выводы находят подтверждение в предыдущих работах. Например, в исследовании А.В. Малолетковой [6] также было показано, что психологическая подготовка студентов перед сессией способствует снижению тревожности и улучшению общего эмоционального состояния.

Важным результатом является не только снижение тревожности, но и рост адаптивности и стрессоустойчивости. Студенты, прошедшие курс, стали лучше справляться с требованиями учебной среды и эффективнее использовать ресурсы саморегуляции. Вероятно, освоенные во время занятий копинг-стратегии, релаксационные техники и способы переоценки стрессовой ситуации способствовали укреплению внутренней уверенности. Это подтверждается и субъективными отзывами: многие студенты сообщали о том, что стали увереннее, спокойнее, научились контролировать своё эмоциональное состояние.

Такой комплексный эффект полностью согласуется с концепцией многоуровневой психологической помощи в период учебных перегрузок [7]. Данные нашего эксперимента также перекликаются с результатами D. Eisenberg и соавт. [8], которые подчёркивали, что большинство студентов с высоким уровнем тревожности не обращаются за помощью и остаются без поддержки. Наша модель проактивного вовлечения студентов в тренинговую работу, напротив, показала высокую эффективность в снижении тревоги и укреплении личностных ресурсов.

Сопоставление с другими исследованиями подтверждает универсальность эффекта. Так, А.С. Тлеунова и А.М. Пертлова [6] отмечали эффективность тренингов, направленных на обучение студентов преодолению стресса с помощью релаксации, дыхания и визуализации. Эти же методы использовались и в нашей работе и, вероятно, стали значимым фактором снижения тревожности. Немаловажную роль сыграла и групповая поддержка, о чём также писала Г.Ш.

Сагдиева [4]: совместное обсуждение проблем и эмоциональная поддержка со стороны сверстников помогают студентам адаптироваться к стрессу.

Повышение адаптационного потенциала — ещё одно ключевое достижение. М.Н. Усманова [7] подчёркивает, что высокая тревожность особенно опасна для первокурсников, поскольку затрудняет их социализацию и освоение академических требований. Участие в программе облегчило этот процесс: улучшились показатели адаптации и появились позитивные сдвиги даже в академической результативности. Подобный эффект ранее описан в обзоре L.N. Dyrbye и соавт. [8], где отмечено, что снижение дистресса у студентов-медиков сопровождается ростом учебной эффективности. Хотя наша выборка включала студентов гуманитарных специальностей, общий механизм, вероятно, сохраняется.

Вместе с тем, стоит отметить границы эффективности программы. Около 15 % участников экспериментальной группы не продемонстрировали ожидаемого снижения тревожности. Возможно, этим студентам требуется более индивидуализированный подход, включая очные консультации с психотерапевтом или психоанализ глубинных причин тревожности. Кроме того, интенсивный формат программы не всегда был удобен: часть студентов не смогла присутствовать на всех занятиях. Перспективным решением может стать разработка гибких онлайн-форматов — видеокурсов, приложений, интерактивных платформ по саморегуляции.

Также важно учитывать долгосрочную динамику. Без последующей поддержки эффект может снижаться, что подтверждают данные некоторых исследований. Поэтому целесообразно внедрить регулярные циклы профилактики — например, один раз в семестр, особенно для студентов младших курсов.

В целом, проведённый эксперимент убедительно продемонстрировал высокую эффективность авторской программы психологической поддержки. Она позволяет снизить тревожность, повысить адаптационные возможности и улучшить общее психологическое состояние студентов. Программа может быть рекомендована для широкого внедрения в систему университетского сопровождения, особенно на первом курсе. При минимальных затратах она обеспечивает значительный вклад в благополучие и успешность студентов — как в эмоциональной, так и в академической сферах.

Результаты проведённого формирующего эксперимента убедительно показали, что разработанная программа психологической поддержки оказывает выраженное позитивное влияние на эмоциональное состояние студентов в условиях экзаменационного стресса. После прохождения курса у студентов экспериментальной группы зафиксировано статистически значимое снижение уровня ситуативной тревожности — в среднем на 18 % от исходного уровня ($p<0,001$). В контрольной группе подобных изменений не наблюдалось. Таким образом, гипотеза исследования о результативности вмешательства полностью подтверждена.

Помимо снижения тревожности, в экспериментальной группе отмечен существенный прирост показателей адаптивности и стрессоустойчивости. Участники стали лучше справляться с требованиями учебной среды и демонстрировать более высокие уровни устойчивости к стрессовым ситуациям. Рост этих параметров в пределах 15–20 % ($p<0,01$) свидетельствует о системном укреплении личностных ресурсов в результате прохождения психологической программы.

Отдельного внимания заслуживает субъективная оценка самочувствия самими студентами. Большинство участников программы отметили, что стали чувствовать себя более спокойно и уверенно в период экзаменов. В контрольной группе подобных отзывов было значительно меньше. Также зафиксирована тенденция к повышению успеваемости в экспериментальной группе, что, хотя и не может быть прямо приписано снижению тревожности, тем не менее логично вписывается в общий контекст повышения психологической устойчивости студентов.

С практической точки зрения полученные данные подтверждают, что даже сравнительно краткосрочная психологическая интервенция может оказывать существенную помощь в пре-

одолении сессионного дистресса. Внедрение подобных программ в структуру вузовской поддержки студентов представляется не только целесообразным, но и необходимым шагом в направлении формирования благоприятной академической среды.

Список литературы.

1. Кузнецова С.А. Особенности проявления стресса у студентов в период экзаменационной сессии // *Молодой ученый*. – 2024. – № 33 (532). – С. 58–60.
2. Курбанова Г.М. Стресс и его последствия для здоровья студентов в период экзаменационной сессии // *Ученые записки Таврического национального университета им. В.И. Вернадского. Серия «Психология»*. – 2016. – Т. 29, № 2. – С. 168–171.
3. Малолеткова А.В. Снижение ситуативной тревожности как показатель эффективности психологической подготовки студентов педагогического вуза: дис. … канд. психол. наук. – Казань, 2003. – 196 с.
4. Раушания А. Механизмы проявления стрессовых реакций у студентов в период экзаменационной сессии // *Научный журнал КубГАУ*. – 2017. – № 135 (01). – С. 1–9.
5. Садыкова Э.И. Эмоциональный стресс у студентов в период экзаменационной сессии // *O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali*. – 2023. – № 21. – С. 10–17.
6. Тлеунова А.С., Пертлова А.М. Эмоциональный стресс и способы его преодоления у студентов в период экзаменационной сессии // *Известия Юго-Западного государственного университета*. – 2016. – № 2 (4). – С. 176–180.
7. Усманова М.Н. Особенности психических состояний студентов в процессе обучения в вузе // *"XXI asr psixologiyasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar tўplami*. – 2021. – С. 250–253.
8. Eisenberg D., Golberstein E., Gollust S.E. Help-seeking and access to mental health care in a university student population // *Medical Care*. – 2007. – Vol. 45, no. 7. – P. 594–601.
9. Сагдиева Г.Ш. Особенности проявления стресса у студентов в период экзаменационной сессии // *Теоретические и методические аспекты психологии и педагогики*. – 2018. – № 1. – С. 31–34.
10. American College Health Association. American College Health Association-National College Health Assessment II: Reference Group Executive Summary Spring 2018. – Hanover, MD: ACHA, 2018. – 26 p.

Sattarov Erkin Niyazmetovich
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori,
psixologiya fanlari doktori

PSIXOLOGIK HAMROHLIK QILIB BORISH – TASHKILOTDA KADRLAR ZAXIRASINI TAYYORLASHDA MUHIM BOSQICH SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tashkilotda kadrlar zaxirasini shakllantirishda psixologik hamrohlikning ahamiyati yoritilgan. Kadrlar zaxirasini tayyorlash jarayonida xodimlarning salohiyatini aniqlash, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, stress holatlarining oldini olishda psixologik xizmat muhim rol o‘ynaydi. Maqolada, shuningdek, psixologik hamrohlik bosqichlari, usullari va samaradorlik mezonlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Psixologik hamrohlik, kadrlar zaxirasi, kasbiy rivojlanish, tashkiliy psixologiya, motivatsiya, adaptatsiya, psixologik diagnostika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ КАК ВАЖНЫЙ ЭТАП ПОДГОТОВКИ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА В ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается значение психологического сопровождения в процессе формирования кадрового резерва в организации. Подчеркивается роль психологической поддержки в выявлении потенциала сотрудников, содействии их профессиональному развитию, а также в профилактике стрессовых состояний. Также обсуждаются этапы, методы и критерии эффективности психологического сопровождения.*

Ключевые слова: *Психологическое сопровождение, кадровый резерв, профессиональное развитие, организационная психология, мотивация, адаптация, психологическая диагностика.*

PSYCHOLOGICAL SUPPORT AS A KEY STAGE IN PREPARING THE TALENT POOL WITHIN AN ORGANIZATION

Annotation. *This article explores the significance of psychological support in the process of preparing a talent pool within an organization. It highlights the role of psychological assistance in identifying employee potential, supporting professional development, and preventing stress-related issues. The paper also discusses the stages, methods, and effectiveness criteria of psychological support.*

Keywords: *Psychological support, talent pool, professional development, organizational psychology, motivation, adaptation, psychological assessment.*

Kadrlarni tayyorlash masalasi, ayniqsa, kadrlar zaxirasini tayyorlash masalasi tashkilot faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlab beruvchi asosiy omillar qatoriga kiradi va bu jarayon orqali tashkilotda ijobiy an’analar uzluksizligini ta’minlashga erishiladi. Ayniqsa, bu jarayonda psixologik hamrohlik qilib borishni tashkil etish muhim hisoblanib, bunda tashkilot rahbar kadrlari zaxirasiga nomzodlarning professional rivojlanishini “odam rivojlanishining yashirin imkoniyatlarini izlash va uning shaxsiy imkoniyatlariga tayangan holda tashqi olam bilan aloqalarini qayta tiklash uchun psixologik sharoitlar yaratishda ifodalanuvchi psixologik hamrohlik qilib borish (6) tarzida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Psixologik hamrohlik qilib olib borish konsepsiyasining asosiy prinsiplari quyidagi holatlardan iborat bo‘lishi zarur:

1.Professional tanlovning keyingi professional rivojlanishga o‘zlarining yuqori darajadagi qiziqishlarini namoyon etgan barcha ishtirokchilar professional rivojlanishning individual rejasi asosida psixologik hamrohlik olib borilish huquqiga egalar.

2.Professional tanlov natijalariga ko‘ra barcha ishtirokchilar 4 ta guruhga taqsimlanadilar. Bunday bo‘lishning asosi – professional kompetensiyalar darajasi va professional rivojlanish potensiali.

3.Har bir guruh uchun professional rivojlanishning individual rejaga kiritilgan o‘z vazifalari belgilangan.

4.Kadrlar zahirasiga professional tanlovda ishtirok etgan mutaxassisning professional rivojlanishini psixologik hamrohlik qilib olib borish individual reja bilan moslashtiriladi.

5.Mutaxassis professional rivojlanishini psixologik hamrohlik qilib olib borishning muvaffaqiyatliligi va samaradorligi ko‘rsatkichi bo‘lib, uning rivojlanishi manfaatlarining O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatini rivojlanishi strategik manfaatlari bilan moslashtirilganligi hisoblanadi.

Kadrlar zahirasiga tanlovda ishtirok etgan mutaxassislarni psixologik hamrohlik qilib olib borish dasturini ishlab chiqishda asosiy e’tiborni professional rivojlanishning individual rejalarini ishlab chiqishga qaratish zarur. Rejalar professional kompetensiyalarning mavjud darajasidan va professional diagnostika davomida aniqlangan yaqin kelajakdagi professional rivojlanish zonasi (professional rivojlanish potensiali)dan kelib chiqqan holda ishlanadi.

Nisbatan professional yaroqsiz nomzodlar guruhi uchun rivojlanish individual rejasi, eng avvalo, ushbu guruhdagi mutaxassislarga ularda mavjud professional kompetensiyalarni yaxshilashga imkoniyat berishga yo‘naltirilgan. Taxmin qilinadiki, ta’limiy resurslar va psixologik hamrohlik qilib olib borish bu mutaxassislarga o‘z professional darajasini ko‘tarish imkonini beradi. Berilgan maqsadga mos ravishda ushbu guruh uchun rivojlanish individual rejasi professional rivojlanishning quyidagi vazifalarini o‘z ichiga oladi:

a) bazaviy dasturlar bo‘yicha malaka oshirishdan o‘tish;

b) psixologik hamrohlik doirasida ustoz bilan samarali o‘zaro munosabatlar qoidalari bo‘yicha konsultatsiya olish, ustozni tanlash va rahbariyat oldida o‘z tanlovini isbotlash;

v) ”360-gradusli baholash” prinsipi bo‘yicha attestatsiyadan o‘tish va ustoz bilan birinchi navbatda qanday malakalarni rivojlantirishga e’tiborni qaratish kerakligini muhokama qilish;

g) ustoz bilan o‘zaro munosabatlarning bir yillik siklini o‘tash;

d) psixologik hamrohlik doirasida tayyorgarlik ko‘rish va kadrlar zahirasiga konkursga takroriy professional diagnostikadan o‘tish.

Ustozlar guruhi uchun rivojlanishning individual rejasi ustozlik bo‘yicha zamonaviy xalqaro tajribani hisobga olgan xolda ishlab chiqildi. Rejaga turli avlod professionallarining o‘zaro munosabatlari prinsiplari (1) va Kanada Monreal bankida tatbiq etilgan va biz tomonimizdan prokurorlik faoliyati xususiyatlariga moslashtirilgan, bir tomondan, va ikkinchi tomondan, O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmati madaniy-ijtimoiy amaliyotiga moslashtirilgan ustozlik dasturi asos qilib olindi (4). Individual reja ustozlar guruhiga kirgan ishtirokchilarni professional rivojlantirishning quyidagi vazifalarini o‘z ichiga oladi:

a)”Ustozlik malakalarini rivojlantirish” dasturi bo‘yicha malaka oshirishdan o‘tish;

b)ustozlik dasturida ishtirok etish va A darajasidagi kadrlar zahirasi guruhi uchun 2 ta yoki 3 ta shogirdni tayyorlash;

v)psixologik hamrohlik doirasida mahorat darsi amaliyotini o‘zlashtirish, mahorat darsi ishlab chiqish va prokuraturaning yosh xodimlari uchun o‘tkazish;

g)psixologik hamrohlik doirasida o‘zining ustozlik faoliyati natijalarini umumlashtirish va ular bo‘yicha doklad yoki axborot ko‘rinishida respublika yoki xalqaro konferensiyalarda chiqish qilish.

B darajasidagi kadrlar zahirasiga nomzodlar guruhi uchun rivojlanishning individual rejasi ikkita ta’limiy va rivojlantiruvchi resursga – ustozlik va sheydouingga (JobShadowing) tayanadi. “Soya bo‘lib ergashish” metodi mutaxassis qadamba-qadam sara tajriba egasining ketidan ergashishini va aralashib kuzatish orqali o‘rganishini nazarda tutadi (8). Bu metod qator sabablarga ko‘ra Rossiyada ommaviylikka erisha olmagan bo‘lsada (5), AQShda va qator Yevropa mamlakatlarida keng tarqaldi (7). Shunday qilib, individual reja mutaxassisning professional rivojlanishining quyidagi vazifalarini o‘z ichiga oladi:

a) kadrlar zahirasini tayyorlash dasturi bo‘yicha malaka oshirish;

b) psixologik hamrohlik qilish doirasida sara amaliyotni nafaqat ustozdan, balki boshqa eng yaxshi mutaxassislardan ham o‘zlashtirishga yo‘nalgan sheydouing (JobShadowing) metodi orqali qisqa muddatli stajirovkani o‘tash;

v) ustozdan o‘rganish;

g) psixologik hamrohlik qilish doirasida prokuraturada ochilayotgan, xizmat-lavozim bo‘yicha o‘sishni ta’minlovchi bo‘sh o‘rinlarga konkurs tanlovida ishtirok etish.

A toifadagi kadrlar zahirasiga nomzodlar guruhi uchun rivojlanish individual rejasi mutaxassislarni prokurorlik xizmatining yuqori zvenolarida yangi rolni o‘zlashtirish uchun zarur ta’limiy resurslar va samarali psixologik hamrohlik qilish bilan ta’minlashga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, mutaxassis kadrlar zahirasiga kiritilish bosqichidayoq unga karerada rivojlanishning o‘z strategik rejasini ishlab chiqishiga yordam berish (3), (2) va bu rejani prokuratura faoliyatiga istiqbolli mutaxassislarni jalb etish rejalari bilan muvofiqlashtirish o‘ta muhim. Individual reja mutaxassis professional rivojlanishining quyidagi vazifalarini o‘z ichiga oladi:

a) boshqaruv malakalarini rivojlantirish dasturi bo‘yicha malaka oshirish;

b) psixologik hamrohlik qilish yordamiga tayanib, professional rivojlanishining va karerada o‘sishining o‘z strategik rejasini ishlab chiqish;

v) loyihani faollashtirish, harakatga keltirish yoki istiqbolli loyihada faol ishtirok etish;

g) psixologik hamrohlik qilish doirasida kross-madaniy ishchanlik munosabatlari malakalarini faol o‘zlashtirish va madaniy intellektni rivojlantirish;

d) respublika va xalqaro konferensiyalarda dokladlar, chiqishlar va prezentatsiyalar bilan ishtirok etish;

y) Respublika tashkiloti kadrlar zahirasini lavozimlarga ko‘tarish rejasiga asosan yuqoriroq lavozimni egallash.

Kadrlar zahirasi ishtirokchilarini hamrohlik qilib olib borish metodlari:

1) Ustozlik (Mentoring) – professional shakllanishda katta avlod tomonidan amalga oshiriladigan individual yordam, psixologik nuqtai nazardan esa – ikkita avlodning professional tajriba va ahloqiy normalarni yetkazib berish maqsadidagi ishonchli muloqoti.

2) Badding – juft bo‘lib ishlash, teng huquqli do‘stona munosabatlarga va bir-birlariga informatsiyalarni yetkazib berishga va (yoki) ob’ektiv va halol qaytarma aloqani bog‘lashga asoslangan ta’lim metodi; maqsadlarga (shaxsiy yoki korporativ) erishishda, shuningdek yangi malakalarni o‘zlashtirishda qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

3) Kouching – ustozlikka qaraganda ko‘proq strukturalashtirilgan va qasqa muddatli ta’lim metodi. Uchrashuvlar muntazam asosda rejalashtirilgan va ishning konkret sohasini rivojlantirishga yoki masalalarga qaratilgan, konkret maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan.

4) Mahorat darsi – guruh uchun yuqori darajadagi professional mutaxassis tomonidan bir martalik mashg‘ulot o‘tkazilishi, bunda mutaxassis guruhni muayyan bir ko‘nikmaga o‘rgatadi yoki o‘z tajribasini yetkazib beradi.

Ustozlik yosh mutaxassislarda ham boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish metodi va ham ularning boshqaruv lavozimlarida o‘sishini hamrohlik qilib olib borish metodi sifatida qaraladi. Kadrlar zahirasiga ustozlik Dasturining maqsadi – ustozlarni tayyorlash va zahira ishtirokchilarini (stajerlarni) olingan nazariy bilimlarni prokurorlik amaliyotida qo‘llashga o‘rgatish, va shu asnoda, ularga zaruriy boshqaruv kompetensiyalarini o‘zlashtirishga yordam berishdan iborat.

O‘zbekiston prokuraturasi kadrlar zahirasiga ustozlik Dasturi quyidagi model asosida qurilishi taklif etildi:

a) Kadrlar zaxirasiga ustozlik Dasturidagi maqsadlar prokuraturaning barcha darajadagi (tuman darajasidan boshlab) rahbarlar tarkibi, respublika Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi rahbariyati, asosiy mutaxassislar (kelajakda mentor bo‘lishi mumkin bo‘lgan) uchun majburiy qilib belgilangan.

b) Ustozlar va stajerlarni Bosh prokuratura Akademiyasidagi rahbar kadrlarni qayta tayyorlash kurslariga nomzodlarning psixologik profillarini tahlil qilish asosida tanlab olish maqsadga muvofiq. Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgach, ular suhbatdan o‘tadilar (muhokama uchun mavzular: oldingi ish

joylaridagi muvaffaqiyatli tajriba, lavozimda o‘sish maqsadlari, ustoz bilan o‘zaro munosabatlardan kutishlari, ustozning maqsadga muvofiq (kutilayotgan) kompetensiyalari).

v) Ustoz – stajer (shogird) juftliklari shunday tanlanishi kerakki, ustoz va stajer bo‘ysunganlik rejimida ishlamasliklari kerak va ustoz o‘z stajeridan ikki pog‘onaga yuqori lavozimda bo‘lishi kerak.

g) Dasturni amalga oshirish davomida monitoring qilish zarur, bunda ustozlar va stajerlar alohida-alohida yig‘ilishlarga taklif qilinadilar. Bunday uchrashuvlardan maqsad - ishtirokchilarga muvaffaqiyatli tajribalar bilan almashinish va o‘zining ustoz-shogird o‘zaro munosabatlari tajribasini taqqoslab ko‘rish, va imkon darajasida, yuzaga kelgan muammolarni o‘z vaqtida yechish imkonini berishdan iborat.

d) Dasturga stajerlarning bevosita rahbarlari ham kiritilishi kerak, ular stajerlarning ko‘nikmalariga va professional uslublariga baho beradilar, bu esa stajerga o‘z rivojlanishi rejasini aniqlab olish va uni o‘z ustozi bilan muhokama qilish imkonini beradi.

y) Stajerlar bilan tushuntirish ishlari olib boriladi, unda Dasturning maqsadlari va strukturasi, ustoz bilan ishlash uchun rivojlanish rejasini ishlab chiqishda yordamlashish, ustoz bilan munosabatlarni qanday qurish masalalari muhokama qilinadi.

j) Ustozlar bilan muntazam ravishda dasturning maqsadlari va strukturasiga oid, ularning o‘z shogirdlari bilan ishlashdagi oldingi tajribalariga oid, pedegogik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha yordam va ular uchun yangi bo‘lgan professional ta’lim berish tajribasini o‘zlashtirishga oid masalalar muhokama qilib boriladi.

z) Stajerlarni tanlab olish huquqi, Sharq madaniyatidagi avlodlararo munosabatlar xususiyatlarini hisobga olgan holda, ustozlarda qoldiriladi.

Dasturni amalga oshirish: a) stajerlarni professional rivojlanishdagi yangi imkoniyatlar bilan ta’minlashga va b) stajerlar tomonidan o‘z liderlik uslubini anglab olishga yo‘nalgan.

Biz tomonimizdan yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan yondashuv, bir tomondan, davlat xizmatining yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan manfaatdorligi va avlodlar izchilligi bilan muvofiqlikka, ikkinchi tomondan, turli darajadagi tayyorgarlikka va rivojlanishga nisbatan turli xil potensial (salohiyat)ga ega xodimlarning professional manfaatlari o‘rtasida muvofiqlikka olib keladi, deb hisoblaymiz. Bu esa ham shaxsning o‘z faoliyatidan qoniqish olishiga va samarali ishlashiga, ham davlatning yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Ismagilova F.S., Mirolyubova G.S. Teoreticheskoe issledovanie problemi vzaimootnosheniy professionalov raznix pokoleniy: klassifikatsiya faktorov vliyaniya. // Izvestiya UrFU, seriya 1 Problemi obrazovaniya, nauki i kulturi, 2013, №2 (113), s.203-216.

2.Kurishov I.S. K voprosu o formirovanii kadrovogo rezerva dlya vidvijeniya na rukovodyaщie doljnosti v organax prokuraturi Rossiyskoy Federasii // Zakon i pravo. 2018. №11. 128-131.

3.Mamaychuk I.I. Pomoщ psixologa detyam s autizmom. -SPb, 2007. -288 s.

4.Maslov D. Obzor metodov otsenki effektivnosti gosudarstvennogo upravleniya // Standarti i kachestvo. – 2007. – №7. – S. 76-80.

5.Sattarov E., Ismagilova F. S. Razrabotka Programmi nastavnichestva kadrovogo rezerva v sisteme prokuraturi Respubliki Uzbekistan na osnove Programmi Banka Monreal metodom benchmarkinga // Blagopoluchie i bezopasnost v usloviyax sotsialnix transformasiy. Materiali X Mejdunarodnogo simpoziuma 9–10 iyulya 2019 goda. Yekaterinburg, 2019. str.188-192.

6.Chulanova O.L. Vozmojnosti i riski nastavnichestva i baddinga kak metodov obucheniya i razvitiya personala // Materiali Afanasevskix chteniy. 2018. №1 (22). 37-48.

7.Shapar V.B. Prakticheskaya psixologiya. Psixodiagnostika otnosheniy mejdu roditelyami i detmi: psixologicheskiy fakultet: -2006.-432s.

8.Duffus L. R., The Personal Strategic Plan: A Tool for Career Planning and Advancement//International Journal of Management, Vol 21, No 2, June 2004, p.144-149.

Стоюхина Наталья Юрьевна,
Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского, к.пс.н., доцент
Абдукадирова Лаура Юлбарсовна,
Ферганский государственный университет, преподаватель кафедры психологии, PhD
Миронов Даниил Валерьевич,
Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского», студент

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ В ИССЛЕДОВАНИЯХ: НОРМА И ОТКЛОНЕНИЯ

Аннотация. *В статье исследуется взаимодействие человека с интернетом в контексте нормы использования и аддиктивного поведения. Подтверждена «гипотеза Златовласки», отражающая U-образную зависимость между цифровой активностью и психологическим благополучием, с установлением пороговых значений безопасного экранного времени. Выявлено дифференцированное влияние различных форм онлайн-активности на когнитивные функции. Критически проанализированы существующие классификации интернет-зависимости. Предложено рассматривать интернет как средство доступа к объектам аддикции, а не самостоятельный объект зависимости. Обобщены нейробиологические корреляты и психологические характеристики интернет-зависимости, намечены перспективы дальнейших исследований для разработки профилактических мер.*

Ключевые слова: *интернет-зависимость, «гипотеза Златовласки», экранное время, поведенческие аддикции, психологическое благополучие, когнитивные функции, нейробиологические механизмы, цифровая активность*

TADQIQOTLARDA INTERNETDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI: ME'YOR VA OG'ISHLAR

Annotatsiya. *Maqolada insonning internet bilan o'zaro aloqasi foydalanish me'yorlari va addiktiv xulq-atvor kontekstida o'rganiladi. Raqamli faollik va psixologik farovonlik o'rtasidagi U-shaklli bog'liqlikni aks ettiruvchi "Goldilocks gipotezasi" tasdiqlangan, xavfsiz ekran vaqtining chegaraviy qiymatlari o'rnatilgan. Turli onlayn faoliyat shakllarining kognitiv funktsiyalarga tabaqalashtirilgan ta'siri aniqlangan. Mavjud internet-qaramlik tasniflari tanqidiy tahlil qilinib, internetni addiktsiya ob'ektlariga kirish vositasi sifatida, mustaqil qaramlik ob'ekti emas, deb ko'rib chiqish taklif etilgan. Internet-qaramlikning neyrobiologik korrelyatlari va psixologik xususiyatlari umumlashtirilgan, profilaktika dasturlarini ishlab chiqish uchun keyingi tadqiqotlar istiqbollari belgilangan.*

Kalit so'zlar: *internet qaramlik, «Goldilocks gipotezasi», ekran vaqti, xulq-atvor addiktsiyalari, psixologik farovonlik, kognitiv funktsiyalar, neyrobiologik mexanizmlar, raqamli faollik*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET USAGE IN RESEARCH: NORM AND DEVIATIONS

Abstract. *The article explores human-internet interaction in the context of usage norms and addictive behavior. The "Goldilocks hypothesis" is confirmed, reflecting a U-shaped relationship between digital activity and psychological well-being, with established threshold values for safe screen time. Differentiated effects of various forms of online activity on cognitive functions are revealed. Existing classifications of internet addiction are critically analyzed, proposing to view the internet as a means of accessing addiction objects rather than an independent object of dependence. Neurobiological correlates and psychological characteristics of internet addiction are summarized, outlining prospects for further research to develop preventive programs.RetryClaude can make mistakes.*

Keywords: *internet addiction, Goldilocks hypothesis, screen time, behavioral addictions, psychological well-being, cognitive functions, neurobiological mechanisms, digital activity*

Xulosa. Emotsional-frustratsion xususiyatlar psixologik kategoriya sifatida, turli fan tarmoqlarining integratsiyasida o‘rganilishi lozim. Bizningcha, emotsional-frustratsion xususiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillar kompleks yondashuvlar asosida psixologik tekshiriladi. Psixologik sabablar emotsional-frustratsion xususiyatlarning fiziologik, kognitiv, motivatsion, qadriyatlarga salbiy ta’sirini nazarda tutsa, pedagogik jihatlar uni bartaraf etishning didaktik qoidalarini nazarda tutadi. Umuman olganda, tahlil qilingan barcha yondoshuvlar va ilmiy qarashlar emotsional-frustratsion xususiyatlarni bir butunlikda o‘rganmaydi, balki aniq tekshirishlar sharoitida, emotsional holatlarning alohida ko‘rinishlari o‘rganishni maqsad etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Специальная психология: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. И. Лубовский, Т. В. Розанова, Л. И. Солнцева и др.; Под ред. В. И. Лубовского. – 2-е изд., испр. – М. : Изд. центр «Академия»,2005. – С.145.

2. Кулганов В.А., Сорокина Н.В. Состояние здоровья учащихся в современных детских садах, школах и гимназиях Санкт-Петербурга // Здоровье – основа человеческого потенциала: проблемы и пути их решения: Труды Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. – СПб.: Изд-во Политехнического университета, 2008. – С. 166 – 171.

3. Rexrode K.R., Petersen S., O‘Toole S. The ways of coping scale: A reliability generalization study // Educational and Psy chological Measurement. 2008. P. -35.

4. Kneebone I. I., Martin, P. R. Coping and caregivers of people with dementia // British Journal of Health Psychology. -2003. - Vol. 8. - Part 1. - P.1-17.

5. Rutter C. L. and Derek, R. Rutter D. Illness representation, coping and outcome in irritable bowel syndrom (IBS), // British Journal of Health Psychology. - 2002. - Vol. 7. Part 4. - P. 377 - 391.

6. Саврасова Л. А. Психолого-акмеологические особенности копинг-поведения руководителей с различным уровнем успешности деятельности: дис. ... канд. психол. наук. Саврасова Лариса Аркадьевна. 19.00.13. - СПб., 2012. – С.124.

7. Hagger M.S., Wood C., Stiff C., Chatzisarantis N.L. Ego depletion and the strength model of self-control: a meta-analysis // Psychological Bulletin, 2010. –PP.86.

Abduraxmanova Nafosat Amanatovna
Qarshi davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

YOSHLARDA DINIY TASAVVUR VA DINIY PSIXOLOGIYA SHAKLLANISHINING MUHIM OMILLARI HAQIDA MAMLAKATIMIZ OLIMLARINING QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarda diniy tasavvur va diniy psixologiya shakllanishining muhim omillari haqida mamlakatimiz olimlarining qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farog‘iy, Al-Maverdiy, Abu Hamid al-G‘azzoliy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar din, iymon, e’tiqod va inson psixologiyasi haqida chuqur falsafiy hamda ilmiy yondashuvlari bugungi kunda o`sib kelayotgan yoshlar tarbiyasi uchun dolzarb ekanligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *din, iymon, e’tiqod, axloq, dindor, inson psixologiyasi, nafs, aqliy kuch, ma’naviy meros, milliy qadriyatlar.*

ВЗГЛЯДЫ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ УЧЁНЫХ НА ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ПСИХОЛОГИИ У МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В статье анализируются взгляды отечественных ученых на важные факторы формирования религиозного воображения и религиозной психологии у молодежи. Также подчеркивается актуальность глубоких философских и научных подходов Абу Насра Аль-Фараби, Абу Али ибн Сины, Аль-Фароги, Аль-Маверди, Абу Хамида аль-Газали, Джалалуддина Руми и других к религии, вере, убеждениям и психологии человека для воспитания современной молодежи.*

Ключевые слова*: религия, вера, убеждения, мораль, религиозный человек, психология человека, эго, душевная сила, духовное наследие, национальные ценности.*

YOSHLAR ORASIDA DINIY TASAVVUR VA DINIY PSIXOLOGIYANING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI MUHIM OMILLAR HAQIDA MAMLAKATIMIZ OLIMLARINING QARASHLARI

Abstract. *This article analyzes the views of our country's scientists on the important factors in the formation of religious imagination and religious psychology in young people. It also highlights the relevance of the deep philosophical and scientific approaches of Abu Nasr Al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Al-Faroghi, Al-Maverdi, Abu Hamid al-Ghazali, Jalaluddin Rumi and others to religion, faith, belief and human psychology for the upbringing of young people growing up today.*

Keywords: *religion, faith, belief, morality, religious person, human psychology, ego, mental strength, spiritual heritage, national values.*

Mavzu bayoni. Markaziy Osiyoda yashagan musulmon mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farog‘iy, Al-Maverdiy, Abu Hamid al-G‘azzoliy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar din, iymon, e’tiqod va inson psixologiyasi haqida chuqur falsafiy hamda ilmiy yondashuvlar asosida mulohazalar bildirganlar. Allomalar e’tiqod va dinning inson ongiga, axloqiga va ruhiyatiga ta’sirini o‘sha davr talablaridan kelib chiqqan holda izchil o‘rganishgan hamda bu yo‘nalishda bugungi psixologik nazariyalarga asos bo‘luvchi g‘oya va qarashlarni ilgari surganlar. Ajdodlarimizning din va inson psixologiyasiga oid ilmiy yondashuvlarini ular tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy merosni tahlil qilish orqali o‘rganishimiz mumkin.

O‘z davrining qomusiy olimi Abu Nasr Forobiy “Aristotel ilmlarining sarhisobi”, “Baxt-saodatga erishish yo‘llari”, “Fozil odamlar shahri” asarlarida dinni insonni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi eng muhim omillardan biri sifatida e’tirof etadi. U inson ruhini aql, g‘azab (hissiyot) va shahvat (tana istaklari) kuchlari orqali tahlil qilgan. “Fozil odamlar shahri” asarida mukammal

jamiyat “fozil shahar” bo‘lib, unda diniy va axloqiy yetuklik asosiy o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Alloma insondagi ruhiy tarbiyaning asosiy vazifasi sifatida aqlni insondagi his-tuyg‘ular ustidan hukmronlik qilishi lozimligi haqida alohida to‘xtaladi.

Forobiy dinni ma’naviy yetuklikka erishishning eng muhim vositasi sifatida qaraydi. Olimning fikricha “din jamiyatni axloqan mustahkamlovchi kuchdir, ammo u ilm bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Ulamolar, ayniqsa payg‘ambarlar, eng mukammal insonlar bo‘lib, ular bilim va ruhiy yetuklikni birlashtirgan shaxslardir”.

Forobiyga ko‘ra, inson uch asosiy kuchdan tashkil topgan:

1. Aqliy kuch – fikrlash va tafakkur manbai;
2. G‘azabiy kuch – harakat va himoya kuchi;
3. Shahvoniy kuch – instinkt va moddiy ehtiyojlarni ifodalaydi.

Ushbu kuchlar muvozanatda bo‘lishi kerak. Aql – boshqaruvchi sifatida g‘azab va shahvat ustidan nazorat o‘rnatishi zarur. Insondagi ruhiy salomatlik va baxt shuning evaziga ta’minlanadi.

Abu Ali ibn Sino nafaqat tabib, balki psixologik tafakkurning yirik namoyandasi hamdir. U inson ruhiyatini ilmiy-falsafiy jihatdan o‘rgangan allomalardan biri bo‘lib, asosiy yondashuvlari “Kitob ash-shifo” va “Kitob an-nafs” (Ruh haqida risola) asarlarida keltiriladi. “Kitob an-nafs” asarida inson ruhini sog‘lom saqlash, ma’naviy poklanish va muvozanatli hayot kechirishni dinning eng asosiy ahamiyati sifatida tavsiflaydi. Alloma inson ruhiyatini tahlil qilgan va insoniy psixikaning tuzilishini quyidagicha tasniflagan: Nafs natiqa – aql va tafakkur kuchi (eng yuqori daraja). Nafs sabu’iyya – g‘azab, hirs va hayvoniy hislar manbai. Nafs nabatiyya – hayotiy quvvat va tiriklik kuchi. Ibn Sino bu kuchlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ruhiy xastaliklarning sababi deb bilgan.

Alloma diniy qarashlar va e’tiqodni falsafa bilan mutanosib holda tahlil qiib, insonda paydo bo‘luvchi ruhiy kasalliklarni kelib chiqishini diniy-axloqiy inqiroz bilan bog‘lagan. Mutafakkir ko‘plab odamlardagi ruhiy noxushlik jismoniy kasalliklarga sabab bo‘lishini e’tirof etib, “psixosomatik” yondashuvga asos solgan. U psixik kasalliklar haqida yozgan birinchi musulmon olimlardan biridir va bu xastaliklarni ruhiy inqiroz, ijtimoiy muhit yoki e’tiqodiy siljishlar bilan bog‘lagan.

Ibn Sino dinni inson ruhini poklovchi va ma’naviy barkamollik sari yo‘naltiruvchi kuch sifatida tavsiflab, aql bilan e’tiqod qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi hodisa ekanligini ta’kidlagan. U inson o‘zining ilohiy tabiatini anglab yetishi uchun Allohni bilishi lozimligini bayon etadi.

Din va psixologiyaning o‘zaro munosabati, ayniqsa, inson qalbining poklanishi, ruhiy tarbiya, aql va nafs o‘rtasidagi kurash, baxt va saodatga erishish usullarini tahlil qilgan olimlardan biri Abu Hamid al-G‘azzoliy bo‘lib, ilmiy-falsafiy qarashlarida din va ruhiyatni birlashtirib, odam ruhiyati, qalbi va ichki dunyosi Allohga bog‘lanish orqali poklanashi tushuntiriladi. Olimning “Ihyo ulumiddin” (Diniy bilimlarni tiriltirish) asarida “ruhiy poklik (tazkiya) – insonni baxt-saodatga yetaklaydigan eng muhim vosita”, deb hisoblagan. U nafsning to‘rt holatini tahlil qiladi: ammora, lavvama, mulhima, mutma’inna – bu ruhiy taraqqiyot bosqichlari. Alloma o‘zining tasavvufiy psixologiyasi orqali “nafsni tarbiya qilish” usullarini ishlab chiqqan.

U inson ruhiy muvozanatini izdan chiqaruvchi yomon sifatlar (illatlar) – g‘azab, hasad, kibir, riyo – bilan kurashish usullarini diniy ibodatlar va ma’naviy mashqlar orqali taklif etgan. Shuningdek, dinni insonni Allohga olib boruvchi yo‘l sifatida tavsif etadi. G‘azzoliy uchun din nafaqat tashqi ibodatlar majmuasi, balki ichki ruhiy taraqqiyot vositasi ham hisoblangan.

Inson ruhiyatini tahlil qilib, uni ichki ziddiyatlar va muhabbatga intilish bilan tushuntirgan mutafakkir Jaloliddin Rumiy inson ruhiy kamolotga faqat Allohga muhabbat bilan erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Allomaning “Masnaviy” va “Devoni Kabir” asarlarida dinning mohiyati inson qalbidagi ilohiy nur bilan uyg‘unlashtirib, inson ichki ziddiyatlardan faqatgina muhabbat, ma’naviy izlanish va sabr orqali ozod bo‘lishini ta’kidlaydi. U inson ruhiyatini tahlil qilarkan, uni ichki ziddiyatlar va muhabbatga intilish bilan tushuntiradi. Inson qalbi har doim o‘z manbaiga – ilohiy zotga intiladi. Tasavvuf orqali ruhiy salomatlik va psixologik muvozanatga erishish mumkinligi olimning ilmiy yondashuvlarida o‘z aksini topgan.

Rumiyga ko‘ra, “haqiqiy din – bu muhabbat. Tashqi qoidalar emas, balki ichki samimiyat Alloh bilan bog‘laydi”. “Masnaviy” asari orqali u ruhiy tarbiya, sabr, toqat, irodaviy poklik haqida chuqur falsafiy-psixologik fikrlar bildiradi.

Dinni jamiyat taraqqiyotida axloqiy va ijtimoiy tartibni saqlovchi omil sifatida tahlil qilgan olim Al-Maverdiy o‘z yondashuvlarida shaxsning ijtimoiy ongi va ruhiyatini shakllantirishda diniy ta’limotlar muhim o‘rin tutadi deb hisoblagan. Alloma “Adab al-dunya va ad-din” asarida din va psixologiyani ijtimoiy muhitda tahlil etadi. Unga ko‘ra, din inson ruhiyatini ijtimoiy tartib va axloqiy me’yorlar orqali mustahkamlaydi. U shaxsiy kamolot, ruhiy intizom va ijtimoiy mas’uliyatni dinga asoslab izohlaydi. Al-Maverdiy o‘z davrida ijtimoiy psixologiyaning asoschisi sifatida tanilgan bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy psixologiya asoslariga yaqin qarashlarni ilgari surgan.

Shuningdek, olim dinning jamiyatdagi tarbiya, axloqiy me’yor va psixologik muvozanatni saqlashdagi o‘rni haqida fikr yuritib, ijtimoiy tartib, ruhiy barqarorlik va axloqiy komillik vositasi sifatida e’tirof etadi: “din – insonni jamiyatda to‘g‘ri yashashga yo‘naltirib, tarbiyalab, unga ruhiy intizomni o‘rnatadi”.

O‘rta asrlarda yashagan mutafakkirlar din va psixologiyani uzviy bog‘liq holda tahlil qilganlar. Ular inson ruhiy hayotini nafaqat diniy nuqtai nazardan, balki ilmiy-falsafiy asoslarda ham o‘rganishgan. Forobiydan boshlab Rumiygacha bo‘lgan har bir alloma inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berishga uringan, bu esa ularning merosini zamonaviy psixologiya uchun ham psixologiya taraqqiyoti qatlami sifatida qadrlashni taqozo etadi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston ijtimoiy hayotida yuz bergan keskin o‘zgarishlar natijasida din va e’tiqod masalalari jamiyatning muhim ijtimoiy-psixologik va madaniy komponentiga aylandi. Chunki sovet davrida diniy mavzular qat’iy nazorat ostida bo‘lib, din, ilgari ideologik nazorat ostida bo‘lgan bo‘lsa, endilikda shaxsiy va ijtimoiy hayotda erkin tarzda o‘z aksini topa boshladi. Bu holat psixologiya faniga ham ta’sir ko‘rsatdi. Psixologik tadqiqotlarda din, diniy e’tiqod va diniy tasavvurlarni ilmiy asosda o‘rganishga ehtiyoj kuchayib bordi.

Yoshlarda noto‘g‘ri diniy tushunchalarni shakllantiruvchi shaxs xususiyatlarini tadqiq etgan psixologlardan A.G.Ayrapetova ilmiy izlanishlarida diniy noto‘g‘ri tushunchalarga ega yoshlarga past diniy savodxonlik, ta’sirga beriluvchanlik, baland konformlilik, eksternal lokus nazorati, frustratsiya, demonstrativlik, xavotirli, ta’sirlanuvchan, distim va paranoyalik tiplari bo‘yicha aksentuatsiyalar borligi, diniy addiksiya kabi shaxs hislatlari xosligi isbotlangan. Shuningdek olima o‘z tadqiqotlarida yoshlarda diniy noto‘g‘ri tushunchalarning shakllanishiga ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsata olishini asoslagan, shaxs hislatlari miqdoriy diapazonlarda namoyon bo‘lganda diniy noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘lishiga olib kelishi dalillangan, shaxs hislatlari ichida yaqqol ifodalangan va bir nechta kuchli ifodalangan fazilatlar ajratib ko‘rsatilgan va ular asosida diniy noto‘g‘ri tushunchalar shakllanishiga ko‘maklashadigan shaxs xususiyatlari ierarxiyasini ishlab chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi hududiy va poytaxtdagi 12 ta oliy ta’lim muassasalarining talabalar muhitidagi diniy qarashlar monitoring qilinganda, diniy-estremistik aqidalar shakllanishi darajasi dinshunoslikka oid savodxonlikka va diniy bag‘rikenglikka teskari korrelyatsion bog‘liqligi va ajratib ko‘rsatilgan shaxs xususiyatlarining muayyan diapazoni diniy-ekstremistik aqidalar shakllanishi ehtimolini oshirishi tajriba yo‘li bilan isbotlab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi talabalar muhitida diniy-ma’naviy va g‘oyaviy xavfsizlikning amaldagi holati tahlili qilinib, yoshlar orasida diniy-ekstremistik aqidalar shakllanishiga qarshi kurash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rgangan M.X.Djumaniyazova talabaning muloqotdagi tipologik yo‘nalganlik maqomini aniqlashda uning diniy dunyoqarashini shakllanishiga jamoaviy muhit, ambivalent hissiy kechinmalar, sotsium bosimi, individning yosh xususiyatlari va shaxsiy motivlar asosiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omil ekanligini isbotlagan. Tadqiqotlari davomida olima talabaning ijtimoiy yoshi fiziologik yoshiga qaraganda ilgarilab ketgani, oilaning tarbiyaviy ta’siri pasayishi, qabul qilinayotgan axborot hajmining oshgani, yangi ehtiyojlarning paydo bo‘lishi, ruhiy turg‘unlikning barqaror emasligi inobatga olinib, ularda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda ijtimoiy yetuklikka erishganlik,

mustaqil kasbiy faoliyatning boshlanishi, muayyan mutaxassislikni egallash motivatsiyasi muhim ekanligini asoslashga harakat qiladi.

Shu o‘rinda takidlash lozimki, ayrim talabalar diniy-ma’rifiy tafakkurida oqilona yondashuvdan ko‘ra farz amallarini noto‘g‘ri tushunishi va amal qilishi kuzatilayotgani, bu jamiyatning ijtimoy-siyosiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, talaba ongida dinning asl mazmun – mohiyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi pozitiv rolini anglashda ba’zi (rasmiy din xodimlari va’zlariga emas, balki virtual fatvolarga ergashish) murakkabliklarni yuzaga keltirayotgani tadqiqotchi tomonidan izchil tahlil etilganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbek psixologiyasida so‘ngi yillarda dinni insonning axloqiy va e’tiqodiy hayotini tartibga soluvchi mexanizm sifatida tadqiq etgan Jabborov Alisher Musirmon o‘g‘li “Diniy ma’lumotlarni tushunishda shaxs kognitiv uslublarining o‘rni” mavzusidagi ilmiy ishida aqidaviy mazmundagi diniy ma’lumotlar orasidan amallar sarhisobi haqidagi hukmlarni tushunishda axborotni kongruent (asliga mos) qabul qilishi, batafsil tahlil va vazmin yondashuvi hisobiga refleksiv kognitiv uslub yetakchilik qilishini o‘rgangan.

Tadqiqotchi Abu Homid G‘azzoliyning “Ihyou ulumid-din” asarida keltirilgan tavba bilan bog‘liq tushunchalar (pushaymonlik, iqror) o‘rtasidagi semantik masofa (tushunchalar mohiyatining bir-biriga nisbatan uzoq yoki yaqin talqin etilishi) orqali shaxs tipologiyasi (tavba qilish orqali o‘zini tinchlantiruvchi va e’tiqodini saqlovchi toifa)ga ajratish imkonini beruvchi mezon sifatida qo‘llash mumkinligini asoslashga harakat qiladi. Shuningdek, targ‘ibotchilar orasida diniy ma’lumotlarni tizimli va maxsus (diniy ta’lim tizimida o‘qish orqali) tushunish xususiyatlarining yuqori darajada shakllanganligiga ko‘ra, shaxsda dinga bo‘lgan ijobiy ustuvor qarash (dinni insonning axloqiy va e’tiqodiy hayotini tartibga soluvchi mexanizm sifatida tushunish ustunligi) ekanligini e’tirof etadi.

Shu sohada ilmiy izlanishlar olib brogan olimlarimizdan Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi “O‘smirlarda mustaqil qaror qabul qilishning diniy-psixologik omillar” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida o‘smirlardagi ichki diniy yo‘nalganlik (farz va vojib amallarni bajarish, halol bo‘lish)ning namoyon bo‘lishi natijasida psixologik barqarorlik ta’minlanganligi sababli mustaqil qaror qabul qilishlarida diniy-psixologik sifatlar (axloqiy xulq-atvor, tazkiya, shukronalik hissi)ning rivojlanishini asoslaydi.

Olima o‘smirlarning ijtimoiylashuv jarayonida namoyon bo‘luvchi ichki antogonizm va tajovuzkorlik holatlarini boshqarishda nigahdosht (har bir xatti-harakat Alloh nazoratida ekanligini anglash) odobi hushyorlik bilan nazorat qilishi tufayli konstruktiv qarorlar qabul qilishga erishilishini aniqlaydi. O‘smirlarda konstruktiv diniy bilimlar (kalimani aytish, solih amallarni bajarish, duo va zikrlarni o‘rganish) ta’siri natijasida ta’limda mehmon-spikerlarning tashkil etilganligi bois izn so‘rash va nazar solish odobi hamda ziyraklik ko‘nikmalarining mustahkamlanishi tadqiqotchi tomonidan qayd etiladi.

Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rgangan yana bir o‘zbek psixologi D.Ya.Saydullaev talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishida tanqidiy va mustaqil fikrlashning muvaffaqiyatga intilish bilan ijobiy, ilmiy fikrlashning muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi bilan teskari korrelyasiyaga ega ekanligi tufayli “muvaffaqiyatga nisbatan munosabat”ning ustuvor xarakterga ega ekanligini asoslaydi. Natijada, talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi ularning akademik o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq ravishda axborotlarni “bilish”ga, ijtimoiy tan olinishga erishish, axborotlarni qayta ishlab introyeksiyalanishiga olib kelganligi tufayli o‘quv motivlari bilan identiv kechishi qayd etilgan.

Dissertant talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ilmiy fikrlashning obyekt tuzilishini o‘zgartirish, tanqidiy fikrlashning yangilik hissi, ijodkorlikka yo‘nalganlik, mustaqil fikrlashning yangilik hissi, tanqidiylikka uzviy bog‘liqligini guruhiy munosabatlarda usutvor namoyon bo‘lishi tufayli ijodiy faollikni oshirishga erishish muhimligi ilmiy izlanishlarida asoslab beradi. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ularning tafakkur uslubining o‘quv faoliyat motivlari orasidan bilish (kognitiv), muvaffaqiyatga erishish va introyeksiyalash motivlariga ta’sir etib, akademik o‘zlashtirish darajasini differensial ifodalanishiga olib kelganligi sababli “pedagog-talaba” munosabatlari tizimi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida tadqiqotchi tomonidan o‘rganilgan.

Taniqli psixolog olim A.M. Jabborov **“**Psixologiyani ilmiy o‘rganish – o‘zlikni anglashning muhim omili” mavzusi doirasidagi qator ilmiy izlanishlarida diniy tasavvurlar va din psixologiyasi haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi.

Jamiyat taraqqiyotining bugungi ko‘rinishi, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadal takomillashuvi, buning natijasida tabiat va tabiiy taraqqiyotning ham tubdan o‘zgarib borayotganligi barcha-barchasi insongagina xos bo‘lgan ong va tafakkur mahsulidir. Mazkur aqliy unsurlar yordamida shaxs o‘zini o‘rab turgan voqelik va undagi qonuniyatlar haqida fikr yuritib, o‘zi aks ettirgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikka mos tushishi yoki mos tushmasligini aniqlaydi. Natijada inson ongida tushunchalar, hukmlar va xulosalar vujudga keladi. Bu holat shaxsda bundan-da murakkabroq fikr, mulohaza, g‘oya, faraz va maqsadlarni shakllantiradi. Aslida insonga xos bo‘lgan fikrlash jarayoni va uning ongi ana shunday qonuniyatlar asosida shakllanib rivojlanadi.

Shunga ko‘ra, psixolog mutaxassislar bugungi kunda quyidagilarga alohida e’tibor berishlari zarur. Odamning dunyoga kelishi, odam psixikasining rivojlanishi, psixik rivojlanish qonuniyatlari, psixik rivojlanishni tartibga soluvchi asosiy omillar, shart – sharoitlar va me’yorlar haqidagi diniy tasavvurlarni tanqidiy – ilmiy tahlil qilish vaqti keldi. Aslida din va barcha diniy tasavvurlar yoki diniy aqidalar hamma – hammasi inson psixologiyasining ifodasi ekanligini anglashimiz kerak. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan butun borliq, olam va odamning yaralishi haqidagi tasavvurlar, odamda til, tafakkur va ongning yuzaga kelishi, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar tizimi va uning muntazam takomillashib ajdodlardan – avlodlarga o‘tib kelayotganligi, odamning hayotiy tirikligi, turmush tarzi va dunyoni tark etishi haqidagi tasavvurlar majmui inson ongi mahsulidir. Bu tasavvurlar bir necha yuz va hattoki ming yillar davomida shakllanib, sayqallashgan va bu diniy tasavvur hamda qarashlar sifatida diniy e’tiqodli kishilarda buzib bo‘lmas yoki o‘zgartirib bo‘lmas darajaga yetib kelgan.

Hozirgi amaldagi ta’lim tizimida Muqaddas kitoblardagi diniy tasavvurlarning tarbiyaviy ahamiyatini kamsitmagan holda, ularning diniy va ilmiy mohiyatini (bahosini) bir-biri bilan taqqoslash asosida bo‘lg‘usi psixologlar va boshqa pedagog kasbini egallayotgan talabalarga tushuntirish, yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning muhim ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Inson psixologiyasi ancha murakkab hodisa bo‘lib, uni tushunish butun borliq - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonuniyatlarining o‘zaro mushtarakligini anglash bilan asoslanadi. Bunday katta muammoga yechim topish birinchi navbatda quyidagilarni taqozo etadi:

- ota-ona va jamoatchilikning psixologik savodxonligini oshirish kechiktirib bo‘lmaydigan zarurat ekanligini hamma anglashi kerak;

- oiladagi sog‘lom psixologik muhit va sog‘lom tarbiyani yo‘lga qo‘yishning muhim asos va yo‘nalishlarini belgilab olish vaqti keldi;

- insonning mohiyatini tushuntirishdagi diniy tasavvurlar bilan ilmiy psixologik qarashlarning murosasini (ilmiy yechimlarini) ta’minlash zarur;

- psixolog mutaxassislarning inson mohiyatini tushunishidagi kamchiliklarni (diniy aqidalarga tayanib fikr yuritishlarini) psixokorreksiya va psixoprofilaktika qilish lozim;

- din (ilm – fan hali rivojlanmagan paytda) ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir davrida odamlarni boshqarish va tarbiyalash uchun jamiyatdagi muhim o‘qitish va tarbiyalash mexanizmi vazifasini o‘taganligini ham unutmasligimiz zarur;

- fizika, texnika, elektronika, tabiiy fanlar va insonshunoslik fanlarining rivojlanishi asosida inson mohiyatini tushuntiradigan ilmiy asoslar va mexanizmlar yuzaga keldi. Bulardan hozirgi yoshlar amaldagi ta’lim – tarbiya yordamida yetarlicha xabardor bo‘lishlari lozim.

Chunki, yer yuzida fan yutuqlari, texnika va texnologiyalar asosida yaratilgan barcha imkoniyat va qulayliklar: shaharlar, binolar, shaharlardagi infratuzilmalar, koinotda uchar texnologiyalar, OAV va internet – barcha – barchasi inson tafakkuri va ongining mahsuli-ku. Ularni asosida minglab olimlar va ixtirochilarning intellektual yutuqlari yotganligini har bir yosh avlod anglashi lozim.

Shuningdek, odamlarniing o‘zaro munosabatlarga kirishish tartiblari, mehnat faoliyati, sohani tashkil etish va boshqaruvdagi barcha afzalliklar inson aqlining mahsulidir. Telefon, kompyuter,

internet, ommaviy axborot vositalari yordamida – axborotlarni olish, qayta ishlash, yaratish va umuman kommunikatsion tizimlarning afzalliklari hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan butun borliq, tabiat, jamiyat, odam, uning tafakkuri va ongi o‘zaro mushtarakligini (anglash zarur) asoslash mumkin.

Din va diniy aqidalar jamiyat uchun yetakchi g‘oyalar bo‘lgan davrlarda hozirgi bunday imkoniyat hamda qulayliklar umuman yo‘q edi. Kishilik jamiyati tarixini va jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq hal qiluvchi faktorlar(ilmiy yutuqlar)ni bilishimiz hamda ularni to‘g‘ri anglashimiz lozim.

Yoshlarga o‘zini o‘rab turgan real voqelikdagi mavjud bo‘lgan narsalarni o‘rgataylik, yo‘q va asossiz narsalarni o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini oldini olaylik. Yoshlarning butun koinot – olam, tabiat, odam va uning tafakkuri o‘zaro mushtarakligi qonuniyatlarini yetarli darajada ilmiy tushunmasligi, ularda diniy aqidalar va diniy tasavvurlarga moyilligining ustunligi bilan izohlash mumkin.

Olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga tayanib, shuni aytish mumkinki, yoshlarda yuqoridagidek muammolar shakllanishini oldini olishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida ta’lim – tarbiya jarayonlariga qo‘yilayotgan talablardan kelib chiqib, har bir fanni ilmiy tamoyillarga asoslangan holda o‘qitilishini ta’minlash zarur;

- fan o‘qituvchisining ilmiy dunyoqarashini aniqlash va ularga baho berishning psixodiagnostik – attestatsiya tizimini joriy qilish;

- oilalarda, jamoatchilik va yoshlar orasida psixologik savodxonlikni oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy – amaliy kurslarni muntazam tashkil etib borish;

- o‘qituvchi va yoshlar orasida diniy aqidalarga berilgan yoki diniy dunyoqarashga ega bo‘lganlar bilan psixodiagnostik va psixokorreksion – rivojlantiruvchi treninglarni yo‘lga qo‘yish zarur;

- yoshlar orasida o‘zini va o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish hamda o‘ziga va borliqga ongli munosabatni shakllantirish hozirgi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridandir, deb boholash o‘rinlidir.

Xulosa. O‘zbekiston psixologiyasida diniy tasavvurlarni o‘rganishga oid tadqiqotlar ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning muhim qismiga aylandi. Din va e’tiqod, inson psixikasining barqarorligi, axloqiy mezonlar va shaxsiy o‘zlikni anglashda muhim omil sifatida baholanmoqda. O‘zbek olimlarining ilmiy izlanishlari bu borada salmoqli hissani tashkil etadi va kelajak tadqiqotlar uchun boy nazariy asosni yaratishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Al-Maverdiy. “Adab ad-dunya wa ad-din”. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1992.
2. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. -Qarshi: “Nasaf”, 2017. -72 b.
3. Ibn Sino. “Ash-shifo” (Ruh bo‘limi). — Bayrut: Dar al-Afaq al-Jadida, 1983.
4. Rumiy J. “Masnaviy Ma’naviy”. — Istanbul: Irfan Yayinlari, 2001.
5. Forobiy A.N. “Fozil shahar ahli haqida” // Toshkent: Fan, 1993.
6. G‘azzoliy A.H. “Ihyo ulumiddin”. — Qohira: Dar al-Ma’rifa, 1967.

Mirzaeva Muhayyo Ro‘zievna
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI SUPERVAYZERLIKKA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bulajak ingliz tili o‘qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tahlil qilingan. Supervayzerlik qobiliyati deganda, bulajak o‘qituvchining boshqa shaxslar faoliyatini boshqarish, yo‘naltirish va pedagogik kuzatuv amalga oshirish mahorati tushuniladi. Maqolada mazkur qobiliyatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy psixologik determinantlar – shaxsiy xususiyatlar, motivlar, kommunikativ mahorat va emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalari – aniqlab berilgan. Shuningdek, bu qobiliyatlarni shakllantirish metodikasi, tadqiqot usullari va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Natijalar pedagogika sohasi mutaxassislariga bulajak o‘qituvchilarni rahbarlik va monitoring faoliyatiga tayyorlashda psixologik yondoshuvni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.*

Kalit so’zlar: *supervayzerlik qobiliyati, bulajak o‘qituvchi, ingliz tili o‘qituvchisi, psixologik determinantlar, pedagogik psixologiya, rahbarlik, kasbiy rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУПЕРВИЗОРА

Аннотация. *В данной статье проанализирован процесс формирования и развития супервизорских способностей у будущих учителей английского языка. Под супервизорскими способностями понимается умение будущего учителя руководить деятельностью других, направлять их и осуществлять педагогическое наблюдение. В статье определены основные психологические детерминанты, влияющие на развитие этих способностей – личностные качества, мотивация, коммуникативное мастерство и навыки эмоциональной саморегуляци. Также представлены методика формирования данных навыков, методы исследования и практические рекомендации. Полученные результаты помогут специалистам в области педагогики правильно организовать психологический подход при подготовке будущих учителей к наставнической и мониторинговой деятельности.*

Ключевые слова: *супервизорские способности, будущий учитель, преподаватель английского языка, психологические детерминанты, педагогическая психология, наставничество, профессиональное развитие.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR PREPARING PROSPECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS FOR SUPERVISORY ROLES

Abstract. *This article analyzes the process of forming and developing supervisory abilities in prospective English language teachers. Supervisory abilities refer to the skills of a future teacher to guide and oversee others’ activities, providing direction and pedagogical supervision. The article identifies key psychological determinants influencing the development of these abilities – personal traits, motivation, communication skills, and emotional self-regulatio. The methodology for developing such skills, research methods, and practical suggestions are also presented. The findings assist education specialists in effectively incorporating psychological approaches when preparing future teachers for mentorship and supervisory roles.*

Key words: *supervisory abilities, prospective teacher, English language teacher, psychological determinants, educational psychology, mentorship, professional development.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning nafaqat fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari, balki liderlik va tashabbuskorlikka oid qobiliyatlarini ham shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jahon ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki,

bolajak o‘qituvchilarga supervayzerlik (ya’ni, boshqalar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish) layoqatlarini singdirish ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhimdir. Chet el tajribasida tyutor, edvayzer, fasilitator yoki supervayzer sifatida maxsus tayinlangan mutaxassislar orqali talabalarni yordamlash va yo‘naltirish usullari qo‘llaniladi. Bu kabi yondashuv talaba yoshlarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishda hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirishda samarali individual yondashuv sifatida e’tirof etilgan. O‘zbekistonda ham yosh o‘qituvchilarga tayanch bo‘ladigan nastavnik (mentor) instituti joriy etilishi va universitetlarning o‘quv jarayoniga tyutorlik hamda supervayzerlik amaliyotini kiritish bo‘yicha sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Masalan, pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida debat klublari, mikroo‘quv darslari va ustoz-shogird tizimini qo‘llash orqali ularda kichik guruhlarga rahbarlik qilish, hamkasblar faoliyatini kuzatib baholash kabi ko‘nikmalar shakllantirilmoqda.

Metodologiya. Ilmiy adabiyotlarda bulajak o‘qituvchining rahbarlik salohiyatini belgilaydigan bir qator psixologik omillar sanab o‘tiladi. Xususan, shaxsning liderlikka moyilligi, tashabbuskorligi, tashkiliy qobiliyati, boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha olishi va empatik xususiyatlari ularning bo‘lg‘usi supervayzerlik mahoratini yuksaltiruvchi omillar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, professional sohada o‘z-o‘zini anglash va baholash darajasi, stressga bardoshlilik, innovatsion g‘oyalarni qabul qilishga tayyorlik ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Muammoning dolzarbligi shu bilan asoslanadiki, bulajak ingliz tili o‘qituvchilari kelgusida nafaqat dars berish, balki metodist, rahbar o‘qituvchi yoki muassasa rahbariyati tarkibida faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Ular ta’lim tizimida boshqa yosh o‘qituvchilarga ustozlik qilish, o‘quvchilariga ilhom bag‘ishlash hamda ta’lim sifatini nazorat qilish kabi vazifalarni bajarishlari talab etiladi. Shu bois, ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda hozirdanoq supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu qobiliyatlarni shakllantirish orqali ularning kasbiy-pedagogik kompetentligi yanada to‘laqonli shakllanadi, chunki bunday o‘qituvchilar o‘z dars faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va boshqa hamkasblariga maslahatchilik qilishga ham qobil bo‘ladilar. Natijada ta’lim sifati oshadi va innovatsion pedagogik g‘oyalarni joriy etish osonlashadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – bulajak ingliz tili o‘qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning ta’sir mexanizmini o‘rganish va mazkur qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida superviziya (nastavnichestvo) muhim o‘rin tutadi. Biroq mahalliy sharoitda bu mavzudagi empirik tadqiqotlar kam uchraydi, shu sababli ushbu ish mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Mazkur izlanish doirasida aralash metodlar (miks-usul) qo‘llanildi. Birinchidan, supervayzerlik qobiliyatining namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish uchun kuzatish va intervyu metodlari tatbiq etildi. Pedagogik kuzatish orqali pedagogika universitetining so‘nggi bosqichida tahsil olayotgan ingliz tili yo‘nalishi talabalarida kichik guruhlarga rahbarlik qilish, o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil rejalashtirish va boshqalar faoliyatini baholash kabi ko‘nikmalar qay darajada namoyon bo‘layotgani kuzatildi. Shuningdek, talabalar va ularning amaliy mashg‘ulotlari rahbarlari (praktika ustozlari) bilan yarim tuzilmalashgan intervyular o‘tkazilib, bu qobiliyatlarni rivojlantiruvchi omillar haqida fikr-mulohazalar olindi. Ikkinchidan, psixologik diagnostika uslublari qo‘llanilib, talabalarning ayrim shaxsiy sifatlari baholandi. Jumladan, liderlik qobiliyatini o‘lchash uchun maxsus so‘rovnoma, empatiya darajasini baholash uchun Boyko metodikasi, refleksiya qobiliyatini aniqlash uchun Kərper shkalasi modifikatsiyasi qo‘llanildi (bular muvofiq tarzda psixologik adabiyotlardan olingan metodikalardir). Shuningdek, talabalarning kommunikativ kompetentligi statusini baholash maqsadida mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan test sinovi qo‘llanildi. Ushbu usullar orqali talabalarda supervayzerlik mahoratining shakllanishi ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘rganildi.

Tadqiqotning tashkil etilishi: Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda (diagnostik bosqich) ishtirokchi talabalarning dastlabki holati aniqlandi: ularning shaxsiy xususiyatlarini baholovchi test va so‘rovnomalar o‘tkazildi, shuningdek, pedagogik amaliyot davomida ularning o‘zini tutishi kuzatildi. Ikkinchi bosqichda (tajriba-tahlil bosqichi) tajriba guruhi talabalari uchun

maxsus tarkibiy dastur joriy etildi. Bu dasturda liderlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, mini-darslarni boshqarish mashqlari, rolli o‘yinlar orqali nastavniklik mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Masalan, talabalarga kichik guruhlarga yetakchilik qilish vazifalari berilib, ularning boshqalarga ta’sir ko‘rsatish va ularga maslahat berish mahorati shakllantirib borildi. Uchinchi bosqichda (taqqosiy baholash bosqichi) tajriba va nazorat guruhlarida qayta diagnostika o‘tkazildi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, tajriba dasturining samaradorligi baholandi. Malumotlarni tahlil qilishda korrelyatsion tahlil, St’yudent t-kriteriyasi yordamida guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, shuningdek, eksperimentavvalgi va keyingi holatlarini solishtirish usullari qo‘llanildi. Sifat jihatidan tahlil qilish uchun intervyu natijalari mazmunan kodlandi va taqqoslandi. Tadqiqot davomida yetib kelingan xulosalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili ham olib borildi. Tadqiqot dizayni etik talablarga muvofiq tarzda ishlab chiqildi: barcha ishtirokchilarning roziligi olindi va ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlandi.

Tadqiqot natijalari bulajak ingliz tili o‘qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirish bir qancha ichki psixologik omillarga bog‘liq ekanligini tasdiqladi.

Birinchidan, talaba-o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari muhim determinant sifatida namoyon bo‘ldi: liderlikka intilish, tashabbuskorlik va tashkiliy mahorat ballari yuqori bo‘lgan talabalarda boshqalarni yo‘naltirish va ular faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmalari ham yaqqolroq kuzatildi. Jumladan, tajriba guruhida liderlik salohiyati yuqori bo‘lgan talabalar amaliy mashg‘ulotlarda o‘z guruhdoshlariga faol yordam berib, kichik guruhlarni boshqarishda irimliroq harakat qilishdi. Bu esa ularda supervayzerlik qobiliyati shakllanayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, motivatsiya va kasbiy qiziqish omillari ham muhim roli o‘ynaydi. O‘qituvchilikka bo‘lgan ichki motivatsiyasi baland, kelgusida ustozlikda o‘zini ko‘rishni istagan talabalar tajriba davomida yuksak faollik ko‘rsatdilar. Aksincha, kasbga qiziqishi pastroq talabalarda boshqalarga rahbarlik qilishga intilish sezilarli emasligi ma’lum bo‘ldi. Demak, bulajak o‘qituvchida bunday qobiliyatni rivojlantirish uchun unda kasbga nisbatan ijobiy munosabat va yuksak motivatsiya shakllantirilishi zarur.

Uchinchi muhim psixologik determinant – kommunikativ mahoratlar darajasi. Tadqiqotdan ko‘rindiki, muloqotga kirishuvchan, o‘z fikrini tushunarli ifodalay oladigan talabalar guruhdoshlari orasida nufuz qozonib, ularni yo‘naltirishda qiynalmadilar. Bunday talabalarning pedagogik amaliyotda ham o‘quvchilar bilan ishlashda ustunlikka ega bo‘lishi qayd etildi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini, o‘z fikrini tinglovchiga yetkazish mahoratini oshirish ularning kelajakdagi supervayzerlik faoliyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, talabaning emotsional aql va empatiyasi ham ustozlik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi omillardan biri ekani aniqlandi. Boshqalarning holatiga munosabat bildira olish, hissiy barqarorlikni saqlash kabi xususiyatlar guruhni boshqarishda, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishda qo‘l keladi.

Bizning tajribamizda empatiyasi yuqori talabalar o‘z tengdoshlarining qiyinchiliklariga tez nazar solib, ularga yordam berishga intilishdi; bu esa ularning haqiqiy nastavniklik qobiliyati borligini ko‘rsatadi. Aksincha, empatiyasi past va tez ta’sirlanuvchan talabalar guruh boshqaruvida qiyinchiliklarga duch keldi. Demak, kelgusida bularni hisobga olgan holda, ta’lim jarayonida talabalarning emotsional intellekt va hamdardlik sifatlarini ham rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Tajriba davomida maxsus tashkil etilgan ta’limiy dastur (trening va mashg‘ulotlar) tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Tajriba guruhi talabalarida supervayzerlik qobiliyatlarini belgilovchi ko‘rsatkichlar – liderlik salohiyati, tashabbuskorlik, kommunikativ faollik va boshqalar – dastlabki holatga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada oshdi ($p<0.05$). Nazorat guruhida esa bunday o‘zgarish kuzatilmadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, bulajak o‘qituvchilarda supervayzerlik mahoratini tarbiyalash imkoni bor va buni maqsadli ta’lim metodlari orqali samarali amalga oshirish mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: (1) Pedagogika universitetlari o‘quv dasturlariga “Mentorlik asoslari” kabi maxsus kurslar kiritish, bu kurslarda talabalarga yetakchilik, jamoani boshqarish, o‘quv-tarbiya jarayonini monitoring qilish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berish; (2) Ta’lim jarayonida rol o‘ynash, Case-

study, “ustoz-shogird” loyihalari kabi interaktiv metodlardan foydalanib, har bir talabaga kichik bir guruhni boshqarib ko‘rish tajribasini berish; (3) Ta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilar uchun tayanch ustozlar (nastavniklar) tayinlash amaliyotini takomillashtirish, ularning faoliyatini rag‘batlantirish orqali bu sohada ishlaydigan kadrlarni tayyorlab borish. Ushbu takliflar bulajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, zero, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining mutaxassisi, balki jamoani birlashtirib, hamkasblarining o‘sishiga hissa qo‘sha oladigan rahbar shaxs ham bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini shakllantirish – uzluksiz ta’lim tizimida dolzarb vazifadir. Tadqiqotda aniqlangan psixologik determinantlarga tayangan holda, ularning har birini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiya va ta’lim choralari ko‘rilsa, kelgusida ta’lim muassasalari tajribali, rahbarlik qilish qobiliyatiga ega, ijodkor o‘qituvchilar bilan ta’minlanadi. Bunday o‘qituvchilar yosh avlod ta’limining sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ta’lim tizimida innovatsion islohotlarni amalga oshirishda faol qatnasha oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Нурманов А.Т. Бўлажак мутахассисларни самарали мулоқотга тайёрлашнинг педагогик механизмлари: Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТДПУ, 2017. – 48 б
2. Karimova M.O., Soyipova D. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // *Jamiyat va innovatsiyalar* (Society and Innovations). – 2024. – T.5, №1. – Б.141-146.
3. Lutfullaev P.M. Хорижий мамлакатларда олий таълим сифати (бенчмаркинг, тюнинг ва диагностика). – Тошкент: NamDU нашриёти, 2020. – 140 б.
4. Yuldashyev E.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim metodlaridan foydalanish // *Ilmiy izlanmalar* (Электрон журнал). – 2021. – №4. – Б.55-59.
5. Nurmanov A.T., Turganov Yo.I. Pedagogik mahorat (ritorika bo‘yicha pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – Тошкент: Zebo Print, 2022. – 164 б.
6. Ismoilova N.Z. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari: Психология фанлари бўйича PhD диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТДПУ, 2021. – 48 б.
7. Sharipova G.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zligini anglashning psixologik omillari // *Inter Education & Global Study*. – 2024. – №10. – Б.380-387.

Мирзажонова Элеонора Топволдиевна
старший преподаватель кафедры психологии,
Ферганский государственный университет

КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОФИЛАКТИКЕ ШКОЛЬНОГО И ЦИФРОВОГО НАСИЛИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОСОЦИАЛЬНОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

Аннотация. *Статья посвящена вопросам комплексного подхода к профилактике школьного и цифрового насилия. Профессорско-преподавательский состав кафедры психологии Ферганского государственного университета разработали и апробировали опросник по выявлению ситуаций насилия в школах. На основе результатов анкетирования совместно с Благотворительным Фондом «Вклад в будущее» и ИИТО ЮНЕСКО был разработан практико-ориентированный курс для педагогов, психологов и учащихся с учетом международного опыта и новых законодательных актов Республики Узбекистан в сфере защиты детей, образования и кибербезопасности.*

Ключевые слова: *цифровое насилие-буллинг, кибербуллинг, школьное насилие, психосоциальное благополучие, профилактика, законодательство, психологически благополучная образовательная среда.*

A COMPREHENSIVE APPROACH TO PREVENTING SCHOOL AND DIGITAL VIOLENCE: EDUCATION AS THE FOUNDATION FOR DEVELOPING PSYCHOSOCIAL WELL-BEING

Abstract. *The article addresses the prevention of bullying and cyberbullying in the educational environment. Psychologists and pedagogues of Fergana State University developed and tested a questionnaire to identify cases of violence in schools. Based on the survey results and in cooperation with the'Contribution to the Future' Charitable Foundation and UNESCO IITE, a practice-oriented course was developed for teachers, psychologists, and students. The study takes into account international experience and current legislation of the Republic of Uzbekistan regarding child protection, education, and cybersecurity.*

Keywords: *bullying, cyberbullying, school violence, psychosocial well-being, prevention, legislation.*

MAKTAB VA RAQAMLI ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA KOMPLEKS YONDASHUV: PSIXOSOTSIAL FAROVONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIMNING ASOSIY O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktab va raqamli zo‘ravonlikning profilaktikasiga kompleks yondashuv masalalariga bag‘ishlangan. Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasining professor-o‘qituvchilari maktablardagi zo‘ravonlik holatlarini aniqlashga qaratilgan maxsus so‘rovnomani ishlab chiqdilar va sinovdan o‘tkazdilar. So‘rovnoma natijalari asosida “Kelajak uchun hissa” xayriya jamg‘armasi hamda YuNESKO IITE bilan hamkorlikda o‘qituvchilar, psixologlar va o‘quvchilar uchun amaliy-yo‘naltirilgan kurs yaratildi. Kurs xalqaro tajribalar hamda O‘zbekiston Respublikasida bolalarni himoya qilish, ta’lim va kiberxavfsizlik sohalaridagi yangi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini inobatga oladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli zo‘ravonlik (bullying), kiberbullying, maktab zo‘ravonligi, psixosotsial farovonlik, profilaktika, qonunchilik, psixologik jihatdan sog‘lom ta’lim muhiti.*

Введение. В современном мире одним из главных трендов выступает цифровизация и развитие искусственного интеллекта. Это можно определить как глобальный вызов и цивилизационный сдвиг, влияние и последствия которого на свое существование человечество еще

не осознало в полной мере. Парадоксально, что образование и наука должны бы, анализируя тенденции технологического развития общества, прогнозировать такой сценарий и предупреждать о возможных последствиях, но они как бы с неким опозданием вынуждены реагировать на него, перестраиваясь.

Цифровизация стала неотъемлемой частью современного мира, изменив многие аспекты жизни, включая образование, общение и досуг и определив поиск и смену научных и образовательных парадигм. Динамика и траектория развития цифровых технологий ставит перед научным сообществом новые задачи, требующие не только осмысления, но и поиска путей реагирования и согласованных стратегий системного взаимодействия. Так, к примеру, внедрение цифровизации в систему образования, существование дистанции информационного потребления фмежду представителями разных поколений (учитель, ученик) требуют систематизации взглядов и углубленного изучения влияния (позитивного и негативного) информационных технологий на психику и сознание человека[1]. Цифровые технологии существенно меняют течение детства и подросткового возраста, влияя на многие социальные процессы: как дети учатся и получают информацию, находят друзей, формируют и поддерживают социальные связи, как проводят свободное время и взаимодействуют с обществом в целом. По мнению психологов, цифровая зависимость несет серьезные риски для психического здоровья школьников, включая кибербуллинг, социальную изоляцию и повышенную тревожность. Такая ситуация сложилась в области психолого-педагогического знания впервые. Она представляет собой глобальный и комплексный вызов, однако приходится признать, что в настоящий момент на него нет однозначного и взвешенного ответа. Как отмечают эксперты, цифровизация связана с угрозами

благополучию детей, в частности, с распространением Интернета возможны угрозы безопасности и частной жизни (кибербуллинг, секстинг, вредоносный контент, воровство и неправомерное использование персональных данных,

кибермошенничество и финансовые махинации, фейковые новости и недостоверная информация и т.п[2].)

Агрессия, свойственная определенной части подростков, перемещается из школы в Интернет: кибербуллинг по сравнению с обычной травлей усиливает риск повторной виктимизации, поскольку слова и изображения, размещенные онлайн, сложно удалить. Кибербуллинг отличается от традиционных форм очной травли[3]:

- анонимностью, что способствует ощущению неуловимости и безнаказанности у агрессоров и усиливает беспомощность жертв;
- физической и психологической дистанцией, которая снижает эмпатию агрессоров по отношению к жертвам[4];
- не ограниченностью онлайн-аудитории, когда число вставших на сторону агрессора может неконтролируемо возрастать;
- онлайн-буллинг может происходить круглосуточно.

Как и для очной травли, для кибербуллинга характерны повторяемость, намеренность, дисбаланс сил[5].

Явление кибербуллинга в силу неоднородности может проявляться по-разному, как:

- обманное распространение ложной или оскорбительной информации от лица жертвы (при этом жертва не знает, что от его/ее лица происходит распространение слухов и т.д.);
- исключение (блокирование человека онлайн);
- флейминг (враждебная коммуникация онлайн);
- сталкинг (преследование онлайн, включающее многократное отправление сообщений с угрозами);

[1] Карпов А.В., Воронова Т.А. Цифровизация и развитие психики ребенка: вызовы нового времени. // *Человеческий капитал. 2021. № 8 (152). С. 22-28.* https://psy.su/feed/9964/
[2] Growing up in a digital world; 2018;
[3] Livingstone, Haddon 2009; Livingstone et al., 2011
[4] O'Brien, Moules, 2010
[5] Бочавер, Хломов, 2014

- харассмент (повторяющиеся сообщения оскорбительного характера, которые получает жертва);

- разоблачения (выуживание личной информации с последующим ее распространением без ведома и согласия человека);

- секстинг (распространение интимных/

обнаженных фото человека без его на то согласия)[1] .

Кибербуллинг - это форма агрессии, осуществляемая через цифровые платформы, такие как социальные сети, мессенджеры и онлайн-игры. Этот феномен стал особенно распространён среди школьников, так как они всё больше времени проводят в интернете. Исследования показывают, что около 30% детей и подростков сталкиваются с кибербуллингом хотя бы раз в жизни.

Психологи и педагогики с тревогой отмечают, что в стремительно цифровизирующемся мире наблюдается рост агрессивности детей и подростков. Проблема школьного и цифрового насилия - буллинга и кибербуллинга является довольно острой в силу ее социальной значимости. Среди основных последствий кибербуллинга называют суицидальное поведение, развитие депрессивных и тревожных состояний, самоповреждающее поведение (self-harm), использование психоактивных веществ, психосоматическую симптоматику[2].

Ускорение темпов цифровизации и роста информационной нагрузки на школьников обусловливают актуальность комплексного подхода в профилактике данных форм насилия в системе образования. Следует отметить, что для Узбекистана проблема кибербуллинга еще не столь остра в силу некоторого отставания по охвату Интернетом (особенно сельских жителей, составляющих половину населения страны) от более развитых стран, особенностей культуры и менталитета, национальных традиций воспитания и недостаточного владения русским и английским языком значительной части молодежи. И, тем не менее, осознание серьезности и неизбежности (несколько отстроченной) этого вызова обусловливает принятие решений с опережением. В Ферганском государственном университете педагогами-психологами кафедры психологии был составлен, апробирован и проведён опросник по изучению и выявлению ситуаций буллинга и кибербуллинга в образовательной среде. Совместно со специалистами Благотворительного Фонда «Вклад в будущее» Сбербанка России и ИИТО ЮНЕСКО разработан практико-ориентированный курс по обучению педагогов, психологов и администрации школ и учащихся по теме: «Комплексный подход к предупреждению школьного и цифрового насилия: значимость образования для психосоциального благополучия».

Значимость и важность проблемы подчёркивается и решениями, принятыми на государственном уровне. Узбекистан, как и многие другие страны, вынужден реагировать на вызовы глобализации и современного цифровизирующегося мира. Так, с 15 мая 2025 года вступает в силу Закон Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия»[3], который закрепляет основные гарантии защиты прав несовершеннолетних. Также действуют Закон «О кибербезопасности»[4], подчеркивающие важность создания безопасной образовательной среды.

Методы

В рамках проекта был использованы смешанные методы исследования: наблюдение, сравнение, анкетирование учащихся с использованием авторского опросника, а также сравнительный анализ данных, полученных в ходе обсуждений проблемы и результатов анкетирования с участием педагогов и психологов. Участниками анкетирования стали студенты вузов региона. Разработка обучающих материалов велась на основе международных стандартов ЮНЕСКО и программ по профилактике буллинга (Olweus, KiVa).

Психодиагностический опросник «Восприятие буллинга и кибербуллинга» включал вопросы, направленные на оценку четырёх ключевых аспектов: восприятие буллинга; личное участие и реакция; оценка роли взрослых и школы; интерес к обучению и профилактике.

[1] Willard, 2007
[2] John et al., 2018; Chang et al., 2019; Zych et al., 2017; Pozzoli, Gini, 2019
[3] ЗРУ-996 от 14.11.2024 г., https://lex.uz/ru/docs/7219505
[4] ЗРУ-764 от 15.04.2022 г., https://lex.uz/ru/docs/5960609) и Закон «Об образовании» (ЗРУ-637 от 23.09.2020

Ответы оценивались по шкале от 0 до 3 баллов, отражая уровень зрелости и готовности к конструктивному реагированию. Результаты интерпретировались по трёхуровневой системе: высокий (76–100% от максимума), средний (40–75%) и низкий уровень (<40%). Методика предусматривала также валидацию с расчётом альфа Кронбаха, факторным и корреляционным анализом.

Результаты.

Целью настоящего исследования является изучение восприятия буллинга и кибер-буллинга среди студентов на основе специально разработанной анкеты из 43 вопросов. Анкета охватывает четыре содержательных направления (шкалы): (1) Восприятие буллинга, (2) Личное участие и реакция, (3) Оценка роли взрослых и школы, (4) Интерес к обучению и профилактике. Данные получены от 72 студентов, 94% из которых - девушки, а средний возраст составляет 18,7 лет.

1. Шкала: Восприятие буллинга. Вопросы: 6, 7, 9, 14, 26, 43. Результаты показали, что около 14% студентов фиксируют случаи буллинга часто или постоянно. При этом большинство респондентов (более 80%) признают, что буллинг представляет серьёзную проблему в образовательной среде. Тем не менее, наблюдается тенденция к терпимости со стороны, как сверстников, так и взрослых - об этом сообщают более половины опрошенных. Большинство студентов распознают признаки буллинга на поведенческом уровне, включая изоляцию и изменение эмоционального фона. Вывод: Восприятие буллинга среди студентов достаточно острое, но присутствует заниженная оценка серьёзности проблемы со стороны окружения.

2. Шкала: Личное участие и реакция. Вопросы: 10–13, 15–19, 28–29. Большинство студентов (более 70%) готовы вмешиваться в ситуации буллинга, если почувствуют поддержку со стороны взрослых. Однако только треть участников опроса заявили о собственной готовности самостоятельно защищать жертву. Почти половина опрошенных не знает, как действовать в подобных ситуациях. Более 80% респондентов убеждены, что агрессия недопустима и осознают личную ответственность за происходящее в коллективе.

Вывод: Студенты проявляют готовность к реагированию, но испытывают дефицит уверенности и практических знаний по предотвращению буллинга.

3. Шкала: Оценка роли взрослых и школы. Вопросы: 20, 30–35, 38–42. Респонденты в подавляющем большинстве считают, что взрослые несут ответственность за борьбу с буллингом и должны вмешиваться. Около 92% считают администрацию школы ответственной за бездействие в подобных ситуациях. При этом менее половины опрошенных знают о существующих центрах поддержки подростков и возможностях анонимного обращения. Высказаны предложения по разработке школьных правил, направленных на формирование культуры ненасилия.

Вывод: Молодёжь ожидает активных действий от школы и взрослых, но осведомлённость о существующих механизмах остаётся низкой.

4. Шкала: Интерес к обучению и профилактике Вопросы: 21–25, 27, 36–37

Более 80% участников выразили заинтересованность в обучающих программах, направленных на повышение осведомлённости о буллинге. Три четверти респондентов поддерживают идею создания онлайн-ресурсов, в частности Telegram-канала с образовательным контентом по профилактике буллинга. Студенты подчеркивают важность вовлечения родителей и педагогов в профилактическую работу.

Результаты исследования восприятия буллинга и кибербуллинга

Таблица 1

Демографические характеристики выборки

Показатель	**Значение**
Объём выборки (N)	72
Доля девушек (%)	94
Средний возраст (лет)	18,7

Таблица 2

Ключевые показатели по шкалам

Шкала	Показатель	Доля респонден-тов, %
Восприятие буллинга	Часто/постоянно фиксируют случаи	14
Восприятие буллинга	Считают буллинг серьёзной проблемой	82
Восприятие буллинга	Терпимость со стороны окружения	55
Личное участие и реакция	Готовы вмешаться при поддержке взрослых	72
Личное участие и реакция	Готовы защитить жертву самостоя-тельно	33
Личное участие и реакция	Не знают, как действовать	50
Роль взрослых и школы	Взрослые должны вмешиваться	95
Роль взрослых и школы	Администрация школы ответственна за бездействие	92
Роль взрослых и школы	Знают о центрах поддержки	45




Рисунок 1 – Основные установки студентов в отношении буллинга (N = 72)

Выводы: Наблюдается высокий интерес к участию в образовательных и просветительских инициативах, что открывает возможности для разработки системной профилактики.

Результаты анкетирования подтвердили существование различных форм школьного и цифрового насилия среди учащихся. Большинство участников опроса указали на недостаток знаний о механизмах защиты и алгоритмах реагирования на буллинг. Это свидетельствует о необходимости системного внедрения образовательных модулей по профилактике насилия в школьную среду. Разработанный курс включает четыре модуля: (1) Понятие буллинга и кибербуллинга, (2) Распознавание и реагирование на травлю, (3) Психологически безопасная школьная среда, (4) Роль взрослых в профилактике насилия.

Полученные данные демонстрируют высокую чувствительность молодёжи к проблеме буллинга, стремление к справедливости и заинтересованность в обучении. Вместе с тем, ощущается нехватка практических навыков и недостаточная вовлечённость школьных структур в профилактику насилия.

Рекомендации: Для профилактики распространения буллинга в образовательных учреждениях необходимы:

- Разработка тренингов по реагированию на буллинг и формированию навыков ненасильственного общения;

- Усиление институциональной ответственности администрации образовательных учреждений;

- Создание анонимных и доступных платформ для психологической и правовой поддержки подростков;

- Расширение информационно-просветительской работы с родителями и педагогами.

Полученные результаты могут быть использованы для построения комплексной программы по профилактике буллинга и повышения благополучия подростков в образовательной среде.

Обсуждение. Как отмечают исследователи, кросс-культурные оценки кибербуллинга осложняются разными определениями кибербуллинга, применением различных методик, а также культурной спецификой стран, в которых осуществляются исследования. [Благополучие детей в цифровую эпоху. Доклад НИУ ВШЭ. Издательский дом Высшей школы экономики Москва, 2019. С. 19, <http://id.hse.ru>] Сравнительный анализ с международными исследованиями (Olweus, Salmivalli, Pepler и др.) позволяет утверждать, что комплексный подход с вовлечением всех участников образовательного процесса (учеников, педагогов, администрации, родителей) наиболее эффективен. Использование практико-ориентированных методов обучения повышает уровень осведомлённости, способствует снижению насилия в школах и формированию благополучного психосоциального климата.

Заключение. Вполне очевидно, что безопасная и психологически благополучная образовательная среда способствует раскрытию потенциала личности учащихся и активизации ее резервов. Создание безопасной образовательной среды невозможно без системной работы по профилактике буллинга и кибербуллинга. Разработанный курс и инструменты, необходимо апробировать в образовательных учреждениях региона, что позволит выстроить эффективную модель вмешательства и профилактики, соответствующую принятым международным стандартам. Предлагается внедрение разработанной программы в образовательные учреждения Узбекистана как необходимой в современных условиях составляющей обязательной профессиональной подготовки педагогов и психологов.

Литература.

1. Закон Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия» ЗРУ-996 от 14.11.2024 г. – URL: https://lex.uz/ru/docs/7219505

2. Закон Республики Узбекистан «О кибербезопасности» ЗРУ-764 от 15.04.2022 г. – URL: https://lex.uz/ru/docs/5960609

3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» ЗРУ-637 от 23.09.2020 г. – URL: https://lex.uz/docs/5013009

4. Ольвеус Д. Aggression in the Schools: Bullies and Whipping Boys. – New York: Hemisphere, 1978.

5. Salmivalli C., Nieminen E. Proactive and reactive aggression among school bullies, victims, and bully-victims // Aggressive Behavior. – 2002. – №28(1). – С. 30–44.

6. Hinduja S., Patchin J.W. Addressing Youth Sexting Through Rational Legislation and Education // Journal of Adolescent Health. – 2024. – №74(4). – С. 530–532.

7. Благополучие детей в цифровую эпоху. Доклад НИУ ВШЭ. Издательский дом Высшей школы экономики Москва, 2019. С. 19, <http://id.hse.ru>

8. Карпов А.В., Воронова Т.А. Цифровизация и развитие психики ребенка: вызовы нового времени. *// Человеческий капитал. 2021. № 8 (152). С. 22-28.* https://psy.su/feed/9964/

9. Espelage D. et al. Understanding and Preventing Bullying. – Springer, 2016.

10. Pepler D. Strategies to Address Bullying // Canadian Journal of School Psychology. – 2018. – №33 (2). – С.91–99.

11.Growing up in a digital world…, 2018; Livingstone, Haddon 2009; Livingstone et al., 2011

12. John et al., 2018; Chang et al., 2019; Zych et al., 2017; Pozzoli, Gini, 2019

Ahmadjonova Mohirabonu Soyibjon qizi
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktaranti
E-mail: mokhiraabdurakhmonova2000@gmail.com
ORCID ID 0009-0008-1953-7445

THREE CORE FACTORS IN DEVELOPING STUDENTS' LEARNING COMPETENCE: IDENTITY, MOTIVATION, AND INVESTMENT

Abstract. *This article explores three critical factors in the development of second language (L2) learning competence: identity, motivation, and investment. Drawing from sociocultural theory and supported by two case studies of IELTS learners, it illustrates how these elements intersect and influence learner outcomes. Identity shapes self-perception within learning environments, motivation fuels persistence, and investment reflects learners' willingness to engage in meaningful action. The study also examines the impact of socio-cultural factors such as gender, race, and socio-economic status. Findings highlight the need for learner-centered instruction that recognizes diversity and supports equitable engagement.*

Keywords: *second language acquisition, identity, motivation, investment, learner competence, sociocultural factors, differentiated instruction.*

TALABALARNING TA'LIM KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING UCHTA ASOSIY OMILI: O'ZIGA XOSLIK, MOTIVATSIYA VA SARMOYA

Annotatsiya. *Ushbu maqola ikkinchi tilni (L2) o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishning uchta muhim omilini o'rganadi: o'ziga xoslik, motivatsiya va sarmoya. Ijtimoiy-madaniy nazariyadan kelib chiqqan holda va IELTS o'quvchilarining ikkita amaliy tadqiqotlari bilan qo'llab-quvvatlangan holda, u ushbu elementlarning o'zaro kesishishini va o'quvchilar natijalariga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Identifikatsiya o'quv muhitida o'zini o'zi idrok etishni shakllantiradi, motivatsiya qat'iylikni kuchaytiradi va investitsiyalar o'quvchilarning mazmunli harakatlarga tayyorligini aks ettiradi. Tadqiqot shuningdek, jins, irq va ijtimoiy-iqtisodiy maqom kabi ijtimoiy-madaniy omillarning ta'sirini o'rganadi. Topilmalar xilma-xillikni tan oladigan va adolatli ishtirokni qo'llab-quvvatlaydigan o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limga ehtiyojni ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *ikkinchi tilni o'zlashtirish, o'ziga xoslik, motivatsiya, sarmoya, o'quvchi kompetensiyasi, ijtimoiy-madaniy omillar, tabaqalashtirilgan ta'lim*

ТРИ ОСНОВНЫХ ФАКТОРА РАЗВИТИЯ УЧЕБНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ: ИДЕНТИЧНОСТЬ, МОТИВАЦИЯ И ИНВЕСТИЦИИ

Аннотация. *В этой статье рассматриваются три важнейших фактора в развитии компетенции обучения второму языку (L2): идентичность, мотивация и инвестиции. Опираясь на социокультурную теорию и подкрепленную двумя исследованиями случаев учащихся IELTS, она иллюстрирует, как эти элементы пересекаются и влияют на результаты обучения. Идентичность формирует самовосприятие в учебной среде, мотивация подпитывает настойчивость, а инвестиции отражают готовность учащихся участвовать в значимых действиях. В исследовании также изучается влияние социокультурных факторов, таких как пол, раса и социально-экономический статус. Результаты подчеркивают необходимость обучения, ориентированного на учащихся, которое признает разнообразие и поддерживает равноправное участие.*

Ключевые слова: *освоение второго языка, идентичность, мотивация, инвестиции, компетентность обучающегося, социокультурные факторы, дифференцированное обучение*

1. Introduction

Second language acquisition (SLA) is a multidimensional process shaped by an interplay of cognitive, affective, and social variables. Among these, identity, motivation, and investment have emerged as pivotal constructs influencing learner engagement and success (Norton, 1995; Darvin & Norton, 2015). These factors not only affect how learners perceive themselves but also how they navigate sociocultural contexts in pursuit of language learning. This study draws on sociocultural theory and classroom experience to examine the lived realities of two IELTS learners. By analyzing their identity formation, motivational drivers, and levels of investment, the study aims to provide educators with deeper insights into how to support diverse learners through differentiated and inclusive instruction.

2. Methods

This qualitative case study design centers on two female IELTS learners—Nozima and Gavharoy—both 20 years old, from an L2 classroom context. Data were drawn from classroom observations, reflective teacher notes, and informal interviews to understand each student's language learning behavior and socio-cultural background.

The constructs of identity, motivation, and investment were used as analytical lenses. The study uses a narrative inquiry approach to detail how these constructs interact in learners' lives and how teaching strategies were adjusted accordingly.

3. Results

3.1 Identity

Learner identity is socially constructed and dynamic. Nozima presented a proactive identity, buoyed by linguistic fluency in Russian and sociability. Her familial encouragement further reinforced her academic confidence, though her status as the youngest child occasionally led to distraction and dependence.

Gavharoy, in contrast, exhibited a reserved identity. Despite strong L2 proficiency, she struggled with public speaking and classroom participation due to introversion. Her identity influenced her learning trajectory, requiring individualized support, particularly in speaking and writing activities.

3.2 Motivation

Motivation played out differently for both learners:

• Nozima: Her intrinsic motivation stemmed from her love for English-language media. She actively engaged with content, enhancing fluency through meaningful exposure.

• Gavharoy: Her extrinsic motivation was tied to financial necessity. She was driven by the desire for upward mobility and economic independence. Despite limited resources, her efforts were relentless.

3.3 Investment

Investment captures learners' active commitment and the conditions that facilitate or hinder it:

• Nozima benefited from structural advantages—supportive family, access to resources, and a conducive learning environment—which facilitated strong classroom engagement and consistent performance.

• Gavharoy faced multiple barriers—economic hardship, limited access to technology—but remained equally, if not more, invested in her education. She financed her own learning and displayed high commitment despite the challenges.

3.4 Visual Representation

A Venn diagram (Figure 1) conceptualizes the overlap between identity, motivation, and investment. The most effective language learning outcomes arise when these three factors align.

4. Discussion

The findings suggest that identity, motivation, and investment are interrelated and shape learner outcomes in complex ways. Nozima and Gavharoy's cases reveal that:

• Identity can either empower or inhibit classroom engagement

• Motivation—whether intrinsic or extrinsic—serves as a key driver of persistence.

• Investment reflects real-world implications of effort and often compensates for lack of ideal learning conditions.

Gavharoy's experience illustrates how learners can thrive despite adversity, given sufficient support and recognition. This underscores the importance of differentiated instruction that accounts for learners' socio-cultural contexts. It also confirms the theoretical assertion that equity in SLA must go beyond access—it must encompass affirmation of identity and support for agency.




Figure 1 Identity–Motivation–Investment Model

5. Conclusion

This study reinforces that L2 success hinges not merely on cognitive ability but on the alignment of self-concept, drive, and commitment. Understanding learners through the lenses of identity, motivation, and investment provides educators with powerful tools to create equitable and responsive learning environments. Pedagogical approaches that acknowledge these dimensions can foster both academic achievement and personal growth in diverse L2 learners.

References.

1. Darvin, R., & Norton, B. (2015). Identity and a model of investment in applied linguistics. Annual Review of Applied Linguistics, 35, 36–56.
2. Gardner, R. C. (1985). Social psychology and second language learning: The role of attitudes and motivation. Edward Arnold.
3. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). Attitudes and motivation in second-language learning. Newbury House Publishers.
4. Heller, M. (2007). Bilingualism as ideology and practice. In M. Heller (Ed.), Bilingualism: A social approach (pp. 1–22). Palgrave Macmillan.

5. Kubota, R., & Lin, A. (2006). Race and TESOL: Introduction to concepts and theories. TESOL Quarterly, 40(3), 471–493.
6. May, S. (2008). Language and minority rights: Ethnicity, nationalism and the politics of language (2nd ed.). Routledge.
7. McKinney, C. (2007). “If I speak English does it make me less black anyway?”: Black students, identity and belonging in a former model C school. English Academy Review, 24(2), 6–24.
8. Norton, B. (1995). Social identity, investment, and language learning. TESOL Quarterly, 29(1), 9–31.
9. Pintrich, P. R., & Schunk, D. H. (1996). Motivation in education: Theory, research, and applications. Prentice Hall.
10. Rampton, B. (2006). Language in late modernity: Interaction in an urban school. Cambridge University Press.
11. Ringbom, H. (2007). Cross-linguistic similarity in foreign language learning. Multilingual Matters.

Sharopov Jamshid Dilmurodovich
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqodchisi

YOSHLAR XULQ ATVORIDA MA‘NAVIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar tizimli tahlil qilinadi. Ayniqsa, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, shaxsiy qadriyatlar, empatiya, ijtimoiy javobgarlik, axloqiy ong va o‘zini anglash darajasining ma’naviy fazilatlarga ta’siri psixologik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish jarayoni, ijtimoiy normalarni ichkilashtirish va shaxsiy pozitsiyani shakllantirish mexanizmlari chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, eksperimental tadqiqotlar orqali ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishda samarali psixologik usullar tavsiya qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy fazilatlar, yoshlar psixologiyasi, xulq-atvor, psixologik determinantlar, empatiya, axloqiy ong, ijtimoiy ta’sir, shaxsiy qadriyatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ПОВЕДЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной научной работе проводится системный анализ психологических детерминантов, влияющих на формирование и развитие нравственных качеств в поведении молодежи. Особое внимание уделено влиянию социальной среды, семейного воспитания, личностных ценностей, эмпатии, социальной ответственности, морального сознания и уровня самопонимания. Исследуются психологические механизмы принятия моральных решений, интериоризации социальных норм и формирования личной позиции. Также представлены результаты экспериментального исследования и рекомендации по использованию эффективных психологических методов для развития нравственных качеств у молодежи.*

Ключевые слова. *нравственные качества, психология молодежи, поведение, психологические детерминанты, эмпатия, моральное сознание, социальное влияние, личностные ценности.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES IN YOUTH BEHAVIOR

Annotation. *This scientific study provides a systematic analysis of the psychological determinants influencing the development of moral qualities in youth behavior. Particular attention is given to the role of social environment, family upbringing, personal values, empathy, social responsibility, moral consciousness, and self-awareness. The research explores psychological mechanisms involved in moral decision-making, internalization of social norms, and the formation of personal stance. Experimental findings are also presented, along with recommendations for effective psychological interventions aimed at fostering moral development in young people.*

Keywords: *moral qualities, youth psychology, behavior, psychological determinants, empathy, moral consciousness, social influence, personal values.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlar sur’atining keskinlashuvi, globallashuv jarayonlari va raqamli axborot muhitining kuchayishi inson, xususan, yosh avlod oldiga yangidan-yangi psixologik, axloqiy va ma’naviy muammolarni qo‘yib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarning xulq-atvorida kuzatilayotgan individualistik tendensiyalar, empatiyaning susayishi, ijtimoiy mas’uliyatning pasayishi, jamiyat qadriyatlariga befarqlik singari holatlar yosh shaxsda ma’naviy fazilatlarning yetarli darajada shakllanmasligi oqibati ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, yoshlarda yuqori darajadagi ma’naviy ongni, axloqiy javobgarlikni, hamdardlik va halollik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish dolzarb psixologik vazifaga aylanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yoshlik davri – bu shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya, dunyoqarash, qadriyatlar tizimi hamda axloqiy mezonlarning shakllanish bosqichi bo‘lib, unda psixologik determinantlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oilaviy tarbiya, maktab va tengdoshlar guruhi ta’siri, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, shaxsning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari – bularning barchasi yoshlar xulq-atvorida qanday fazilatlar shakllanishini belgilovchi asosiy omillardir.

Psixologik determinatsiya nuqtai nazaridan qaralganda, shaxsning xulq-atvori faqat tashqi ta’sirlar emas, balki ichki ruhiy holatlar, motivatsiya, emotsional barqarorlik, empatiya darajasi, o‘zini anglash va refleksiya qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan, yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarni shakllantirish jarayonini chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot aynan shu dolzarb masalaga – yoshlar xulq-atvorining ma’naviy asoslarini belgilovchi psixologik determinantlarni aniqlash, ularning o‘zaro munosabatini tahlil qilish va bu asosda ma’naviy rivojlanishga xizmat qiluvchi samarali psixologik mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur ilmiy ish nafaqat yoshlar tarbiyasi va rivojlanishi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, balki psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishi inson psixologiyasi, axloqiy tarbiya va ijtimoiy omillar kesishmasida shakllanadigan ko‘p omilli murakkab jarayondir. Bu masala bugungi kunda jahon psixologiya fanida ham, O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida ham alohida o‘rin egallaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ma’naviy tarbiyasi nafaqat axloqiy bilimlar bilan, balki chuqur psixologik determinantlar – ichki motivlar, ijtimoiy ta’sirlar, shaxsiy refleksiya, hamdardlik, ijtimoiy javobgarlik va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq.

Xorijiy psixologiyada bu boradagi ilk fundamental tadqiqotlardan biri L. Kohlberg (1981) tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasidir. U axloqiy tafakkurning rivojlanishini uch bosqichda ko‘rsatadi va yoshlarning axloqiy qarorlar qabul qilish darajasi ularning jamiyatdagi o‘rnini anglash va shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq ekanini asoslaydi. Ayniqsa, postkonvension bosqichda shaxsda mustaqil axloqiy fikrlash va universal qadriyatlarni anglash salohiyati shakllanadi. Bu bosqich yoshlar ma’naviy fazilatlarining eng yuksak ko‘rinishidir.

A. Bandura (1977) esa ma’naviy fazilatlar ijtimoiy kuzatuv, model olish va rag‘batlantirish orqali shakllanishini isbotlab, “ijtimoiy ta’lim nazariyasi”ni taklif etadi. Uning fikricha, yoshlar axloqiy fazilatlarni kattalarning xulqidan, media mahsulotlaridan va tengdoshlaridan o‘rnak olib o‘rganadi. Bu g‘oya yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhitning kuchli ta’sirini ko‘rsatadi.

J. Piaget (1965) esa axloqiy rivojlanishni kognitiv jarayonlar bilan bog‘laydi. U bolalarda dastlab axloqiy normalar tashqi nazorat ostida amal qilinayotgan bo‘lsa, yosh o‘tgan sari bu normalar ichki refleksiya orqali ongli qarorga aylanadi, deya ta’kidlaydi. Bu esa yoshlarning mustaqil tafakkur qilish salohiyati va shaxsiy ma’naviy pozitsiyasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Yangi avlod psixologlari, masalan R. Ryan va E. Deci (2000) tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasida esa shaxsning avtonomiyasi, ichki motivatsiyasi va ijtimoiy aloqadorlik hissi axloqiy shakllanishga bevosita ta’sir qiluvchi psixologik ehtiyojlar sifatida ko‘riladi. Ushbu yondashuv yoshlarning o‘zini anglash darajasi, o‘z tanloviga egalik qilish hissi ularning ma’naviy yuksalishiga asos bo‘lishini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, mahalliy psixologlar tadqiqotlarida ham yoshlar axloqiy shakllanishining psixologik omillari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, G‘.A. Abdukarimov yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar va madaniy ijtimoiylashuv muhim omil ekanini ta’kidlaydi. U o‘z izlanishlarida shaxsning ma’naviy kamoloti ijtimoiy-tarixiy tajriba, oila muhitidagi munosabatlar va tarbiyaviy an’analar bilan mustahkam bog‘liqligini ko‘rsatadi.

N. To‘raqulov esa o‘z tadqiqotlarida yoshlarning axloqiy qarorlarida psixologik refleksiya, ijtimoiy emotsiyalar va o‘zini baholash mexanizmlarini chuqur o‘rganib, ularning o‘z-o‘zini anglash

darajasi ma’naviy fazilatlar rivojiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi. U yoshlar ongida shakllanayotgan axloqiy orientirlar ularning xulq-atvorini tartibga soluvchi asosiy psixologik determinantlardan biri ekanini isbotlaydi.

O‘zbekistonlik olima D. Jo‘raeva tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligi va shaxslararo munosabatlari kontekstida ma’naviy fazilatlar, xususan, halollik, vijdonlilik va empatiya alohida o‘rganiladi. U axloqiy xulqni faqat normalar asosida emas, balki shaxsning emotsional barqarorligi va psixologik barqarorligi bilan bog‘liq holatda izohlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Navoiy davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlarining so‘nggi yillarda olib borgan ilmiy ishlarida yoshlar tarbiyasining psixologik asoslari, ularning ijtimoiy emotsional o‘sishi, ruhiy bardoshlilik, milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi ko‘plab omillar yoshlar xulq-atvorining ma’naviy yo‘nalishini belgilovchi muhim psixologik determinantlar sifatida e’tirof etiladi.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlar shakllanishi ko‘p omilli, murakkab va o‘zaro bog‘langan jarayondir. Unda ichki psixologik ehtiyojlar, kognitiv va emotsional salohiyat, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlar tizimi o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Shuning uchun ham bu jarayonni chuqur tahlil qilish, yoshlar tarbiyasiga psixologik va madaniy yondashuvni uyg‘unlashtirish orqali eng yuqori natijalarga erishish mumkin.

Muhokama

Yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish muammosi bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar davrida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarning uyg‘unligi va shaxslararo ishonch muhiti ko‘p jihatdan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy saviyasiga bog‘liq. Shu bois, yoshlarning axloqiy pozitsiyasini mustahkamlash, ularni halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik, bag‘rikenglik va javobgarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi strategik vazifaga aylangan. Biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun, avvalo, uning psixologik determinantlarini chuqur tahlil qilish, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini aniqlash zarur.

Psixologik determinantlar – bu shaxs xulq-atvorini belgilovchi ichki va tashqi omillar tizimi bo‘lib, ular ongli yoki ongsiz tarzda shaxs qarorlariga, emotsional holatiga va axloqiy yo‘nalishiga ta’sir etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar xulq-atvoridagi ma’naviy fazilatlar avvalo ijtimoiy muhit, tarbiyaviy ta’sirlar va shaxsning psixik rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu muammoning yechimi uchun psixologik nazariyalarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirgan yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Masalan, L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi yoshlarning axloqiy tafakkur bosqichma-bosqich shakllanishini ko‘rsatadi. Uning ta’kidicha, yuqori darajadagi axloqiy qarorlar mustaqil fikrlash, ichki e’tiqod va universal qadriyatlarga tayangan holda vujudga keladi. Bunday qarashlar o‘z-o‘zini anglash, refleksiya va emotsional yetuklik kabi psixologik omillarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, ma’naviy fazilatlar kuzatish, model olish va rag‘bat mexanizmi orqali mustahkamlanadi. Yoshlar atrofidagi ijtimoiy rollarni, xususan, oila, ustoz va tengdoshlar xatti-harakatini kuzatish orqali axloqiy mezonlarni ichkilashtiradilar. Bu esa shuni anglatadiki, shaxsning ichki axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda ijtimoiy determinantlar psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari ham bu jarayonning o‘ziga xos milliy-madaniy kontekstda shakllanishiga e’tibor qaratadi. G‘.A. Abdukarimov o‘z izlanishlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy ong yoshlar ma’naviy kamolotining asosiy manbalari ekanini ko‘rsatadi. Biroq bu qadriyatlar yosh ongida aks etishi uchun ular shaxsiylashtirilgan bo‘lishi, ya’ni yoshlar ularni o‘zining ichki ehtiyoji sifatida qabul qilgan bo‘lishi kerak. N. To‘raqulov esa shaxsning reflektiv salohiyatini – o‘z fikr va his-tuyg‘ularini anglay olish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini – ma’naviy fazilatlarning shakllanishida asosiy psixologik omil sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, yosh o‘z harakatlariga emotsional va axloqiy baho bera olgan taqdirdagina u ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida rivojlanadi.

Shuningdek, yoshlar orasida kuzatilayotgan ma’naviy inqiroz holatlari – mas’uliyatsizlik, befarqlik, tajovuzkorlik, yolg‘onchilik kabi salbiy xulq-atvorlar – psixologik determinantlarning zaif ishlashi, ijtimoiy va emotsional moslashuv muammolari bilan izohlanadi. Bu holatni bartaraf etishda ijtimoiy psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, o‘zini anglash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ichki motivatsiyani uyg‘otuvchi psixopedagogik metodlar qo‘llanishi kerak bo‘ladi.

Alohida ta’kidlash joizki, yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarni shakllantirish doimiy va bosqichma-bosqich kechadigan murakkab jarayondir. Bu jarayon nafaqat maktab yoki oila bilan bog‘liq, balki shaxsning individual xususiyatlari – temperament, xarakter, emotsional barqarorlik, o‘zini baholash darajasi, maqsadlilik va refleksiv tafakkur – bilan ham chambarchas aloqadordir. Aynan mana shu individual psixologik determinantlarni aniqlash va ularni rivojlantirish orqali yoshlar ongida yuksak ma’naviy fazilatlar ildiz otadi.

Shunday qilib, muhokama tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik jarayon bo‘lib, u shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ko‘p bosqichli, o‘zaro ta’sirli aloqalarga asoslanadi. Shaxsning axloqiy shakllanishi – bu faqat tashqi nazorat yoki qoidabozlik natijasi emas, balki ichki motivatsiya, shaxsiy refleksiya, emotsional iqlim va o‘zini anglash jarayonining uyg‘unlashgan mahsulidir. Shu sababli, bu sohadagi har qanday ta’lim-tarbiya yondashuvi psixologik determinantlarni chuqur o‘rganishga, yoshlar shaxsini har tomonlama tushunishga asoslanmog‘i lozim.

Xulosa.

Yoshlar xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarning rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, shaxsiy refleksiya, ichki motivatsiya, emotsional barqarorlik hamda axloqiy ong asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, halollik, vijdonlilik, mas’uliyat va bag‘rikenglik kabi fazilatlar yoshlarning o‘zini anglash darajasi, shaxsiy qadriyat tizimi va ijtimoiy tajribasi orqali shakllanadi. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun psixologik yondashuvlar asosida ijtimoiy-pedagogik muhitni sog‘lomlashtirish, axloqiy tarbiyada madaniy kontekstni inobatga olish va shaxsning ichki ehtiyojlariga tayangan metodlarni ishlab chiqish muhimdir. Shu bois, yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish jarayonida psixologik determinantlar tizimli o‘rganilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil qilinishi, amaliy tavsiyalar esa har bir yoshning individual rivojlanish xususiyatiga moslashtirilgan holda ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Kohlberg, L. (1981). Essays on Moral Development: Vol. 1. The Philosophy of Moral Development. San Francisco: Harper & Row. – 441 p.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. – 247 p.
3. Piaget, J. (1965). The Moral Judgment of the Child. New York: Free Press. – 410 p.
4. Ryan, R.M., & Deci, E.L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), pp. 68–78.
5. Abdukarimov, G‘.A. (2018). Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: “Fan va texnologiya”. – 208 b.
6. To‘raqulov, N. (2017). Shaxsning axloqiy qaror qabul qilishida psixologik omillar. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 172 b.
7. Jo‘raeva, D. (2020). Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy fazilatlari o‘zaro bog‘liqligining psixologik asoslari. Toshkent: “Ilm ziyo”. – 186 b.
8. Xasanboeva, G. (2015). Oila va yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlar. Toshkent: “O‘qituvchi”. – 133 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (2021). Yoshlar siyosatining psixologik va ijtimoiy asoslari. Toshkent: Akademiya nashriyoti. – 221 b.

Shukurullayev Xamidulla Nurilla o‘g‘li
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil taqdqiqotchisi

TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi psixologik muammo haqida fikr mulohozalar keng yoritilib berilgan bo‘lib, bundan tashqari talabalar jamoasi uning o’zaro axborot almashinuv jarayonlari kechish jarayonida o‘ziga xos vaziyat taqozo etgan savollar baxslar to‘g‘ilishi tabbiy holat, bu holatda har bir a’zo muammodan qutulishini topa olish bu komunikativ qobiliyatga kiradi va bu holat munosabatlarni shakillanishiga ta’sir o‘tkazish mexanizimlaridan qisqa ma’lumotlar keyingi qisimlarda keltirib o‘tiladi. Ta’lim dargohi uchun talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar va samarali muloqot ta’lim uchun juda muhimdir. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’limda o‘quv vazifasining tuzilishini o‘zgartirish orqali talabalar jamoasini muloqotda, o’z fikrini bayon etishda bilimini oshirish va natijada ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligi ta’kidlanmoqda. Ta’lim muhitida talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar shakillanishining psixologik jihatlari ta’sir usullari va o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni va ularni o‘quv vazifasining tuzilishi shaxslararo muloqot ko’nikmalari munosabat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar*: Axborot almashinuv, muloqot, passiv tinglash, muloqot muammosi, gipoteza, ijtimoiy roll, perseptiv tomon talabaning fikirlash faoliyati, boshqaruvchanlik, nutqli va nutqsiz ta’sir, o‘quv faoliyati, o‘rganish obekti.*

ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СТУДЕНЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье широко освещается психологическая проблема формирования межличностных отношений в студенческом коллективе. В частности, подчеркивается, что в процессе взаимного информационного обмена в группе студентов естественным образом возникают вопросы, дискуссии и определенные коммуникативные ситуации. Умение найти выход из этих ситуаций и эффективно решать возникающие проблемы рассматривается как проявление коммуникативной компетентности, которая оказывает влияние на формирование межличностных отношений. В последующих разделах представлены краткие сведения о механизмах влияния. Для образовательных учреждений эффективное межличностное взаимодействие и коммуникация среди студентов имеют особую значимость. Последние исследования показывают, что изменение структуры учебных заданий способствует активному участию студентов в коммуникации, улучшению навыков выражения мыслей и, как следствие, повышению эффективности обучения. В статье рассматриваются психологические аспекты формирования межличностных отношений в студенческой среде, механизмы воздействия, а также исследования, посвящённые влиянию структуры учебных заданий на развитие межличностной коммуникации.*

Ключевые слова: *информационный обмен, коммуникация, пассивное слушание, проблема общения, гипотеза, социальная роль, перцептивный аспект, мыслительная активность студента, управляемость, речевое и неречевое воздействие, учебная деятельность, объект изучения.*

THE FORMATION OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN STUDENT GROUPS AS A PSYCHOLOGICAL ISSUE

Annotation. *This article provides a comprehensive discussion of the psychological aspects of the formation of interpersonal relationships within student groups. It emphasizes that during the process of information exchange among students, it is natural for questions, discussions, and communication-specific situations to arise. The ability of each member to navigate and resolve such situations is considered a manifestation of communicative competence, which in turn influences the development of interpersonal relations. Subsequent sections of the article present brief insights into the mechanisms of this influence. In educational institutions, effective interpersonal interaction and communication within student groups play a vital role in the learning process. Recent studies highlight that modifying the structure of academic tasks can enhance students' participation in communication, their ability to articulate thoughts, and consequently, improve educational outcomes. The article examines the psychological aspects of interpersonal relationship formation in the educational environment, mechanisms of influence, and studies focused on how the design of academic tasks affects interpersonal communication skills.*

Keywords: *information exchange, communication, passive listening, communication problem, hypothesis, social role, perceptual aspect, student thinking activity, manageability, verbal and nonverbal influence, learning activity, object of study.*

Bizga ma’lumki, kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan muloqot va muomala jarayonlari har qanday davrda ham muhim ijtimoiy-psixologik masala sifatida qaraladi. Ayniqsa, axborot almashinuvi va o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonida insonlar o‘rtasidagi muloqot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muloqotning qanday omillar asosida shakllanishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik mexanizmlarning aniqlanishi ushbu masalaning tadqiqot zaruratini belgilab beradi. Respublikamizdagi yetuk olimlar tomonidan ham bu borada bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning ishlari talaba yoshlardagi shaxslararo munosabatlarning rivojlanish jarayonini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Mamalakatimiz olimlaridan V. Karimova, E.G‘. G‘oziyev, P.S. Ergashev, F.A. Akramova va E.I. Ganeyeva — tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda talabalar o‘rtasidagi shaxslararo muloqotning mohiyati, muomala uslublari va kommunikatsiya jarayonining psixologik asoslari chuqur o‘rganilgan. Ularning izlanishlarida muloqot shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojida hal qiluvchi omil sifatida qaralib, guruhiy ishlar orqali talabalar muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash yo‘llari asoslab berilgan. Bu tadqiqotlar muloqotning axborot almashinuvi, shaxsiy ifoda, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy taraqqiyotdagi funksional rolini empirik va nazariy jihatdan yoritgan.

Oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki talabalarning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglashi, kasbiy va shaxsiy rivoji uchun muhim ijtimoiy markazdir. Talabalar jamoasi esa o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik muhitga ega bo‘lgan kichik guruh bo‘lib, uning ichida shakllanadigan shaxslararo munosabatlar talabaning psixologik holati, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxslararo munosabatlar — bu biror shaxsning boshqalar bilan bo‘lgan emotsional, kognitiv va ijtimoiy aloqalari tizimi bo‘lib, ular talabalar orasida ham muayyan tamoyillar asosida vujudga keladi. Bu munosabatlar ko‘pincha qarama-qarshi jarayonlarni o‘z ichiga oladi: hamkorlik va raqobat, empatiya va befarqlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ajratilish. Ular ko‘p jihatdan talabaning individual psixologik xususiyatlari, tarbiya tajribasi, madaniy-ijtimoiy kelib chiqishi, temperament turi hamda guruh ichidagi maqomi bilan belgilanadi.

Talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Rollar va maqomlarning o‘zgaruvchanligi – har bir talaba jamoa ichida doimiy ravishda o‘z rolini topadi yoki yo‘qotadi; yetakchilik, tashabbuskorlik, passivlik yoki chetlashish holatlari kuzatiladi.
2. O‘zaro idrok (persepsiya) – talabalar bir-birini doimiy baholaydi, harakatlarini talqin qiladi va bu baholash asosida o‘z munosabatlarini shakllantiradi.
3. Muloqotning emotsional komponenti – talabalar orasidagi munosabatlarda hissiy yaqinlik, do‘stlik, ishonch yoki ijobiy munosabat asosiy o‘rin egallaydi.

4. Tengdoshlik omili – o‘zaro tenglik tamoyili asosida shaxslararo aloqalarning shakllanishi ko‘proq erkinlik va samimiylikni yuzaga keltiradi.

5. Ijtimoiy normativlarga rioya qilish – talaba jamoasi ichida norasmiy qoidalar, kutishlar va ijtimoiy bosimlar mavjud bo‘lib, ularga moslashish shaxsiy farovonlik va guruh iqlimi uchun muhimdir.

Talabalar jamoasi – bu oliy ta’lim muassasasida o‘qiyotgan yoshlarning ijtimoiy tizimda birlashgan, o‘zaro muloqot va ta’sir asosida faoliyat yurituvchi psixologik birlikdir. Bu jamoaning asosiy ajralib turuvchi jihati – uning dinamik va o‘zgaruvchan tabiati bo‘lib, har bir a’zo o‘z pozitsiyasini doimiy tarzda mustahkamlab boradi yoki o‘zgartiradi. Shaxslararo munosabatlar esa bu jarayonning markaziy omili hisoblanadi va ular talaba shaxsining psixologik rivoji, ijtimoiy moslashuvi va jamoaviy integratsiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Talabalar guruhida ijtimoiy ta’sir – bu bir kishining yoki bir guruhning boshqalar xatti-harakatiga, munosabatiga, qaror qabul qilish jarayoniga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishidir. Bu jarayon ikki yo‘nalishda kechadi: rasmiy (pedagog, rahbarlar orqali) va norasmiy (yetakchi talabalar, do‘stlar, tengdoshlik munosabatlari orqali). Ijtimoiy ta’sir guruh ichida xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish, ijtimoiy qabul qilish yoki rad etish mexanizmlarini belgilaydi. Agar bu ta’sir sog‘lom va ijobiy yo‘naltirilgan bo‘lsa, guruhda barqaror ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi.

Muomala jarayonlari esa guruh ichida axborot almashinuvi, fikr bildirish, his-tuyg‘ularni ifodalash, muammolarni birgalikda hal qilish, qarorlar qabul qilish singari faoliyatlar orqali ifodalanadi. Talabalar o‘rtasidagi muloqot – bu nafaqat axborot uzatish, balki shaxsiy pozitsiyalar, qadriyatlar va ijtimoiy rollar to‘qnashuvi yoki moslashuvi jarayoni hisoblanadi. Muloqot jarayonida har bir talaba o‘z fikrini ifodalash bilan birga, boshqalarni idrok qiladi, baholaydi, va o‘z-o‘zini ham boshqalar nigohida anglaydi (refleksiya). Bu esa shaxslararo munosabatlarning chuqurlashuvi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Guruh ichida o‘zaro muloqot shakllanishi ko‘p jihatdan perseptiv jarayonlarga – ya’ni boshqalarni qanday qabul qilish, ularga qanday xulosa qilishga bog‘liq. Talaba biror jamoadoshining harakatiga asoslangan holda uning ichki niyatini, xarakterini, pozitsiyasini taxmin qiladi. Bunday psixologik jarayonlar ijtimoiy persepsiya, kauzal atributsiya, empatiya, identifikatsiya, stereotiplashtirish kabi hodisalar orqali kechadi. Agar talaba guruh ichidagi pozitsiyasini aniq anglab olgan bo‘lsa, u boshqalar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishga intiladi.

Ijtimoiy psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda V. Karimova muomala va muloqot masalalariga alohida urg‘u beradi. Uning yondashuvida kommunikatsiya, muloqot va muomala tushunchalari chuqur tahlil etilib, ushbu hodisalar inson shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojida qanday rol o‘ynashi ochib berilgan. U, shuningdek, muloqotning inson faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini asoslab, uning psixologik determinatsiyasini turli nazariy yo‘nalishlar asosida talqin qiladi [87].

Muomala psixologiyasi sohasidagi izlanishlari bilan tanilgan E. G‘. G‘oziyev esa, o‘zining tegishli qo‘llanmasida inson faoliyatining markazida aynan muloqot turganini alohida ta’kidlab o‘tadi. U muloqot orqali shaxsning shakllanish mexanizmlarini tahlil etib, talabalarda muloqotchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ayniqsa, muomala qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik vositalar asosida olib borilgan tadqiqotlar bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarni kengaytirishga turtki bo‘lgan [135].

Talabalar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan P. S. Ergashev esa, o‘zining “Muloqot psixologiyasi” nomli metodik qo‘llanmasida muloqot va kommunikatsiya tushunchalarini mukammal ochib bergan. Ular orasidagi farqlarni asoslab, muloqotning asosiy funksiyalari, komponentlari va yoshga bog‘liq rivojlanish jihatlarini empirik va nazariy asosda yoritgan. Shuningdek, talabalar orasida shaxslararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ko‘rsatmalar ham ishlab chiqilgan [74].

F.A.Akramova esa o‘zining ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida kommunikatsiya, munosabat, muomala va muloqot kabi tushunchalarni chuqur tahlil qilgan holda o‘zining mualliflik pozitsiyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, shaxsning jamiyat bilan o‘zaro aloqaga kirishishi va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishi muloqot vositasida ro‘y beradi. Muloqot, ayniqsa, talabalik davrida shaxsga

yo‘naltirilgan va mazmunli bo‘lishi orqali axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [48].

E.I. Ganeyeva olimlarni adabiyotini qo‘ying tomonidan olib borilgan "Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda individual muomala uslubini shakllanishi" mavzusidagi tadqiqotda, talabalarning individual muomala uslublarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari va bu uslublarning shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda, talabalar integral individualligi tarkibida individual muomala uslubi va etno-madaniy omillar hisobga olinib, bu uslubning rivojlanishidagi o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar individual muomala uslubining shakllanishiga guruhiy ishlar orqali qanday ta'sir qilish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ishlab chiqilgan individual muomala uslubini shakllantirish dasturi pedagog va psixologlar tomonidan o‘rta maktab o‘qituvchilari bilan ishlash jarayonida qo‘llanilishi mumkinligi asoslangan [75].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning psixologik omillarini chuqur o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Individual muomala uslubining shakllanishi talaba shaxsining murakkab tarkibi va madaniy-ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon guruhiy ishlar va interaktiv metodlar orqali faol rivojlanadi. Talabalarda yuzaga keladigan yolg‘izlik hissi esa muloqotdagi qiyinchiliklar, moslasha olmaslik va o‘zini past baholash kabi omillar bilan uzviy bog‘liqdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Каримова В.М. Ижтимоий психология. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 172 бет
2. Каримова В., Акрамова Ф. Психология. Маърузалар матни. – Тосҳкент: ФТДК, ДИТАФ, 2000.- 171 б.
3. Каримова О., Гафаров З. Основы государства и права. – Тошкент, 1995.- 218 б.
4. Ганеева Э.И. Формирование индивидуалного стиля общения у подростков в учебно – воспитателном процессе: Автореф. дис… канд. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2002, – 24 с.
5. Акрамова Ф.А. Ижтимоий психология: ўкув кўлланмаси. – Т.: ТДПУ, 2007.-166 б.
6. Ғозиев Е. Психология: (Ёш даврлари психологияси). Педагогик институтлар ва университетларнинг талабалари учун ўкув кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1994.- 224 б.
7. Климов Е.А. Введение в психологию труда. Учебник для вузов. – М.: Култура и спорт, ЮНИТИ, 1998. - 350 с
8. Козлов В.В. Социалная психология и реклама. Учеб. пособие для вузов/ Под ред. – Тошкент: Издателско-полиграфический творческий дом им. 2004.- 120 с.
9. Skinner F.B. Reflections on Behaviorism and Society (Extended Edition) Sloan Publishing, 2004, 250 p, ISBN: 978-0996453954
10. www.unimelb.edu.au,
11. https://nus.edu.sg,
12. https://en.snu.ac.kr,.
13. https://www.sorbonne-universite.fr/en.
14. http://www.mapn.su, www.pirao.ru, msu.ru

Tojimamatov Jamshidbek Iqboljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI MUNOSABATLARIDA IJTIMOIY KUTILMALAR MUAMMOSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy kutilmalarning ta’siri o‘rganiladi. O‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga jamiyatning qo‘yadigan talablari, shaxsiy qarashlar va pedagogik jarayonlardagi kelishmovchiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy kutilmalarning ta’lim sifatiga ta’siri, o‘qituvchilarning professional faoliyati va o‘quvchilarning rivojlanishidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar. *O‘qituvchi, o‘quvchi, ijtimoiy kutilmalar, pedagogik munosabatlar, ta’lim jarayoni, jamiyat talablari, psixologik omillar.*

THE PROBLEM OF SOCIAL EXPECTATIONS IN TEACHER–STUDENT RELATIONSHIPS

Abstract. *This article examines the influence of social expectations on the relationship between teacher and student. Society's demands on the relationship between teachers and students, personal views, and disagreements in pedagogical processes are analyzed. The study examines the influence of social expectations on the quality of education, the professional activity of teachers, and their significance in the development of students.*

Keywords. *Teacher, student, social expectations, pedagogical relationships, educational process, societal demands, psychological factors.*

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНЫХ ОЖИДАНИЙ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И УЧЕНИКОМ

Аннотация. *В данной статье изучается влияние социальных ожиданий на отношения между учителем и учеником. Анализируются требования общества к взаимоотношениям учителей и учащихся, личные взгляды и разногласия в педагогических процессах. В исследовании рассматривается влияние социальных ожиданий на качество образования, профессиональную деятельность учителей и их значение в развитии учащихся.*

Ключевые слова. *Учитель, ученик, социальные ожидания, педагогические отношения, образовательный процесс, требования общества, психологические факторы.*

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarida ijtimoiy kutilmalar muammosi zamonaviy ta’limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Jamiyat, ota-onalar va hattoki o‘quvchilarning o‘zlari pedagoglarga nisbatan haddan tashqari yuqori talablar qo‘yishi, bu esa o‘quv jarayonining tabiiyligini buzadi. Real hayotda bu holat o‘qituvchilarda doimiy stress, charchoq va professional yondashuvning yo‘qolishiga olib keladi. O‘quvchilar tomondan esa, bunday bosim o‘zini qadrsiz his qilish, motivatsiyaning pasayishi va sog‘lom bo‘lmagan raqobat shakllanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, "har bir fan bo‘yicha a’lo baho olish kerak" degan stereotip talab ko‘plab iqtidorli, lekin muayyan sohalarga moyil bo‘lgan o‘quvchilarni ruhiy tushkunlikka olib keladi.

Bu muammoning ildizlari jamiyatimizdagi ta’limga bo‘lgan an’anaviy yondashuvda yotadi. Ko‘pchilik ta’limni faqat diplom va yuqori baholar sifatida qabul qiladi, uning asosiy maqsadi - shaxsning harmonik rivojlanishi ekanligini unutadi. Natijada, maktablarda test natijalari ustun qo‘yiladi, kreativlik va individual qobiliyatlar chetga suriladi. O‘qituvchilar esa, o‘z navbatida, ma’muriyat va ota-onalarning doimiy nazorati ostida ishlashga majbur bo‘ladilar.

Muammoning hal yo‘llari ko‘p jihatdan ta’lim tizimini qayta qurishga bog‘liq. Birinchidan, baholash tizimini isloh qilish kerak - faqat bilim darajasini emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijodiy

qobiliyatlar va amaliy ko‘nikmalarni ham baholash zarur. Ikkinchidan, o‘qituvchilar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish muhim. Uchinchidan, ota-onalar bilan ishlashni yaxshilash, ularni real va mantiqiy kutilmalar haqida ma’lumotli qilish kerak.

Eng muhimi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini ustuvor qo‘yish lozim. Har bir o‘quvchi va o‘qituvchi - bu, birinchi navbatda, shaxsdir. Ularning psixologik farovonligi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlash, ta’lim sohasidagi barcha ishtirokchilar uchun qulay muhit yaratadi. Faqatgina shu yo‘l bilan biz haqiqiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tiklangan ta’lim tizimini yaratishimiz mumkin bo‘ladi.

Ta’lim tizimida keng tarqalgan muammolar ko‘pincha jamiyatning noto‘g‘ri kutilmalari, stereotipik talablari yoki tizimning qattiq me’yorlari bilan bog‘liq. Quyida jadvaldagi har bir muammo, uning sabablari va yechimlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan:

1-jadval

Muammo	Ijtimoiy kutilmalar ta’siri	Yechimlar
O‘qituvchining ortiqcha bosimi	Jamiyatning yuqori natija talabi	Individual yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash
O‘quvchilarning motivatsiyasi pasayishi	Stereotip kutilmalar (masalan, “barcha fanlarda a’lo bo‘lish kerak”)	Shaxsiy qobiliyatlarga moslashtirilgan dasturlar
O‘zaro munosabatlardagi keskinlik	Ota-onalarning o‘qituvchilarga nisbatan haddan tashqari talablari	Ota-ona va o‘qituvchi hamkorligini oshirish

O‘qituvchilarning ortiqcha bosimi. Jamiyat maktablardan yuqori akademik natijalar kutadi, natijada o‘qituvchilar nafaqat dars berish, balki har bir o‘quvchining “muvaffaqiyatli” bo‘lishini ta’minlash uchun qo‘shimcha stressga duchor bo‘ladilar. Bu holat “ta’lim samaradorligi” tushunchasini tor ma’noda talqin qilishdan kelib chiqadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida esa individual yondashuv zarur. Ya’ni, har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensiallashgan ta’lim metodlarini qo‘llash. Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ya’ni o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun muntazam psixologik maslahat xizmatlarini joriy etish, stressni boshqarish usullarini o‘rgatish.

O‘quvchilarning motivatsiyasi pasayishi esa tahlil qilinganida, “ideal o‘quvchi” stereotipi – ya’ni har bir fanda a’lo bo‘lish shart degan noto‘g‘ri tasavvur – o‘quvchilarni bir xil qoliplashga urinadi. Bu esa o‘ziga ishonchsizlik, charchoq va o‘rganishga qiziqishni yo‘qotishga olib keladi. Buni oldini olish uchun dastlab, shaxsiy qobiliyatlarga moslashtirilgan dasturlar bilan ishlash talab qilinadi. Har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini aniqlab, ularga mos o‘quv rejalari ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan esa o‘quvchilarga qiziqqan sohalarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatini berish kerak bo’ladi.

Ota-onalar ko‘pincha maktab va o‘qituvchilarga nisbatan haddan tashqari talablarni qo‘yadi, ularning pedagogik jarayondagi cheklovlari va imkoniyatlarini inobatga olmaydi. Natijada esa muammolar ahamiyati va ko‘lami nuqtayi nazaridan kengaya boradi. Buni oldini olish uchun - ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, o‘quv jarayoni haqida ochiq muloqot qilish hamda yetarli ma’lumotlar bilan tizimli ravishda xabardor qilish darkor. Shuningdek, ota-onalarga zamonaviy ta’lim usullari, yosh psixologiyasi va real akademik kutishlar haqida ma’lumot berish.

Ota-onalar ko‘pincha maktab va o‘qituvchilarga nisbatan haddan tashqari talablarni qo‘yadi, ularning pedagogik jarayondagi cheklovlari va imkoniyatlarini inobatga olmaydi. Natijada esa muammolar ahamiyati va ko‘lami nuqtayi nazaridan kengaya boradi. Buni oldini olish uchun ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib, o‘quv jarayoni haqida ochiq muloqot qilish hamda yetarli ma’lumotlar bilan tizimli ravishda xabardor qilish darkor. Shuningdek, ota-onalarga zamonaviy ta’lim usullari, yosh psixologiyasi va real akademik kutishlar haqida ma’lumot berish kerak. Har bir ota-ona farzandining yaxshi ta’lim olishini va kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishini istaydi, ammo ba’zilar maktabning haqiqiy imkoniyatlari, o‘qituvchilarning qiyinchiliklari yoki bolaning individual qobiliyatlari haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lmaydi. Bu esa keragidan ortiq talablarga, noroziliklarga va nihoyatda kattaroq nizolarga olib keladi. Masalan, ba’zi ota-onalar bolasining har bir fanidan a’lo baho olishini kutadi, garchi bolaning qiziqishi va qobiliyati har yo‘nalishda bir xil bo‘lmasa ham. Yoki o‘qituvchilar darsliklar, vaqt va sinf sharoitlari bilan chegaralanganligini hisobga

olmay, ularga qo‘shimcha darslar yoki individual yondashuvni talab qiladi. Bu muammolarning oldini olishning eng samarali yo‘li – ota-onalar bilan doimiy va ochiq aloqani yo‘lga qo‘yishdir. Maktablar muntazam ravishda umumiy yig‘ilishlar, individual maslahatlar va seminarlar o‘tkazib, ota-onalarga bolaning yosh xususiyatlari, akademik standartlar va zamonaviy ta’lim metodlarini tushuntirishi kerak. Bundan tashqari, har bir bolaning rivojlanishi haqida aniq va tushunarli ma’lumot berish orqali, noto‘g‘ri tushunchalar va ortiqcha kutishlarning oldi olinadi.

Muhimi, ota-onalarga shuni tushuntirish kerakki, maktab – bu bolaning rivojlanishidagi faqat bir bosqich. Haqiqiy muvaffaqiyat faqat baholarga emas, balki bolaning ijodiy qobiliyatlari, ijtimoiy ko‘nikmalari va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirishga bog‘liq. Agar ota-onalar va maktab o‘rtasida halol hamkorlik, o‘zaro hurmat va tushunish mavjud bo‘lsa, unda farzand ham sog‘lom muhitda, ishonch va qoniqish hissi bilan o‘sib ulg‘ayadi.

Yuqoridagi muammolar asosan jamiyatning noto‘g‘ri talablari, ta’lim tizimidagi qattiq standartlar va individual ehtiyojlarni inobatga olmaslikdan kelib chiqadi. Yechimlar sifatida individual yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikni rivojlantirish kabi usullarni qo‘llash samarali bo‘lishi mumkin. Buning uchun jamiyat, ota-onalar va ta’lim tizimi o‘rtasida mantiqiy kutishlar va moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abduqodirov A. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. To‘rayev B. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Yusupov O. Ta’limda ijtimoiy omillar. – Samarqand: Samarqand nashriyoti, 2018.
5. Jahongirov S. Pedagogik kommunikatsiya va uning ahamiyati. – Buxoro: Durdona, 2022.

Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o’qituvchisi
E-mail: anvarjon948.fardu@gmail.com

MAKTABGASHA YOSH BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish masalasi psixologik-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan.Ilmiy adabiyotlar va psixologik tadqiqotlar tahlili asosida bolalarning aqliy rivojlanish bosqichlarini, xususan 5–7 yosh davrida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishini asoslab beradi. Mantiqiy operatsiyalar, tasniflash, umumlashtirish va tranzitiv fikrlash kabi elementlar bolaning tafakkur tizimini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan, vizual modellar va psixologik treninglardan foydalanish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda mantiqiy tafakkurni izchil va tizimli shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlar va metodik yondashuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, maktabgacha yosh, psixologik rivojlanish, o‘yin texnologiyalari, vizual modellar, psixologik trening, pedagogik sharoitlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема формирования логического мышления у детей дошкольного возраста с психологико-педагогической точки зрения. На основе анализа научной литературы и психологических исследований автор обосновывает этапы интеллектуального развития ребёнка, в частности, становление навыков логического мышления в возрасте 5–7 лет. Логические операции, такие как классификация, обобщение и транзитивные умозаключения, играют важную роль в развитии мыслительной системы ребёнка. В исследовании показаны возможности развития логического мышления через использование игровых технологий, визуальных моделей и психологических тренингов в образовательном процессе. Научная новизна статьи заключается в анализе педагогических условий и методических подходов, способствующих системному и целенаправленному формированию логического мышления.*

Ключевые слова: *Логическое мышление, дошкольный возраст, психологическое развитие, игровые технологии, визуальные модели, психологический тренинг, педагогические условия.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *This article explores the issue of developing logical thinking in preschool children from a psychological and pedagogical perspective. Based on a review of scientific literature and psychological studies, the author substantiates the stages of children’s intellectual development, particularly the formation of logical thinking skills between the ages of 5 and 7. Logical operations such as classification, generalization, and transitive reasoning play a key role in strengthening children's cognitive frameworks. The study demonstrates the potential for enhancing logical thinking through the use of play-based educational technologies, visual models, and psychological training sessions. The scientific novelty of the article lies in its analysis of pedagogical conditions and methodological approaches that contribute to the systematic and purposeful development of logical reasoning.*

Key words: *Logical thinking, preschool age, psychological development, play-based learning, visual models, psychological training, pedagogical conditions.*

Kirish. Jamiyatda sifatli o‘zgarishlarga erishish uchun avvalo uning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish zarur. Bunday rivojlanishning asosi sifatida ta’lim tizimini ilmiy asosda qayta tashkil etish talab etiladi. Bugungi kunda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlarining asosiy e’tibori o‘quvchilarga zarur bilimlarni yetkazish va ularni amalda qo‘llashga qaratilgan bo‘lsa-da, tafakkur va mantiqiy fikrlash mexanizmlarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning axborotdan samarali foydalanish darajasi uning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini qanchalik puxta egallagani bilan bevosita bog‘liqdir.

Amaldagi o‘quv dasturlarining ko‘pchiligi o‘quvchilarga faqat ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan bilimlarni yetkazishga va bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Biroq, axborotdan oqilona foydalanish ko‘nikmasi faqatgina bilimga emas, balki mantiqiy fikrlash usullarining shakllanganlik darajasi va ularni tizimli tarzda qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Shu sababli, turli fanlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash mexanizmlarini ongli ravishda rivojlantirish zarurati ko‘plab psixolog va pedagoglar tomonidan tan olingan.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘pincha bu jarayonda psixologik vosita va metodlarning ahamiyatini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada, o‘quvchilarning katta qismi o‘rta maktabgacha bo‘lgan bosqichda mantiqiy tafakkurga asoslangan bilimlarni tartibga solish va tizimlashtirish malakalarini to‘liq egallay olmaydi. Aslida esa bu ko‘nikmalar aynan kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun zarur bo‘lib, ularni rivojlantirmasdan turib o‘quv materiallarini chuqur anglash va puxta o‘zlashtirish imkoniyati sezilarli darajada kamayadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Asosiy intellektual salohiyat doirasiga, ayniqsa, ta'lim jarayonida shakllanuvchi mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari kiradi. Xususan, matematik mulohazalar va ularning asoslari — ob'ektlarning xususiyatlari hamda ularni tashkil etishning belgilangan qoidalari — shaxsda aniq ta’rif berish, asoslangan xulosa chiqarish, mantiqiy sezgi (intuitsiya)ni rivojlantirish va mantiqiy tuzilmalar mohiyatini tushunish kabi muhim qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiq etishga yo‘l ochadi.

Fransuz olimi J. Piaje inson intellektual rivojlanishini asosan biologik omillarga tayanadigan, o‘z-o‘zidan yuzaga chiqadigan ichki jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bolaning aqliy rivojlanishi tashqi omillar ta’siridan ko‘ra, biologik yetilish bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq. Biroq bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Aksincha, L.S. Vigotskiy, L.V. Zankov, N.A. Menchinskaya, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev, M. Montessori kabi pedagog-olimlar o‘z tadqiqotlarida ta’limni bola rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etganlar. Ular psixik tuzilmalar va tafakkur mexanizmlarining shakllanishi ta’lim ta’sirida kechishini ilmiy asosda isbotlab berganlar.

Bolalarning sabab-oqibat aloqalarini tushunishi, ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (Zaporojets, 1948; Venger, 1958; Galperin va Georgiev, 1960–1961) maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash elementlarini shakllantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotlar yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashning dastlabki ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

H.M. Veklerova, S.A. Ladymir, L.A. Levitova, L.F. Obuxova, N.V. Koteteshvili va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida katta maktabgacha hamda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar maxsus metodik yondashuvlar asosida tasniflash, o‘lcham va miqdorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, tranzitiv munosabatlar kabi mantiqiy operatsiyalarni o‘zlashtirishga qodir ekanliklari isbotlangan. Ayniqsa, frontal metodlardan foydalangan holda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan.

X.M. Tyoplenkayaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 6–7 yoshli bolalar sinfga tegishlilik, sinf va kichik sinflar o‘rtasidagi munosabatni anglashga asoslangan to‘liq mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirishga qodir. Bu yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish salohiyatidan to‘liq foydalanish ta’lim jarayonining to‘g‘ri yo‘naltirilishiga bog‘liq.

E.L. Ageeva esa o‘z tadqiqotlarida bolalarda mantiqiy munosabatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirishda vizual vositalar, jumladan, 'tasniflash daraxtlari' va Eyler doiralaridan foydalanishning samaradorligini asoslab bergan. Bunday modellar bolalarga murakkab mantiqiy aloqalarni tushunishda sezilarli qulaylik yaratadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalarda mantiqiy fikrlashning asosiy komponentlari 5–6 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Biroq ko‘plab ilmiy ishlarda mantiqiy fikrlash umumiy tuzilmasi emas, balki uning alohida elementlari bo‘yicha tahlil qilingan. Bu esa mantiqiy tafakkurni izchil va tizimli shakllantirish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning maqbul shakllarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Amaliy jihatdan bu psixologik treninglarning mazmunini belgilash, ularga qo‘yiladigan psixologik-pedagogik talablarni asoslash va mantiqiy tafakkur strukturasini tashkil etuvchi komponentlarning rivojlanishini ta'minlovchi vositalarni aniqlashni taqozo etadi.

Natija va muhokama.

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashning shakllanish jarayoni psixologik-pedagogik jihatdan o‘rganildi. Tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Mantiqiy fikrlashning yoshga bog‘liq rivojlanishi 5 yoshdagi bolalar mantiqiy aloqalarni boshlang‘ich darajada anglay oladi (taxminan 30%). Bu bosqichda bolalarda tasniflash, oddiy sabab-oqibat aloqalari va farqlash ko‘nikmalari shakllanishi boshlanadi. 6 yoshda ushbu ko‘nikmalar kengayib, tranzitiv fikrlash, miqdoriy bog‘liqliklar va guruhlashtirish imkoniyatlari yuzaga chiqadi (60% gacha). 7 yoshli bolalarda esa mantiqiy operatsiyalarni mustaqil qo‘llash, oddiy muammolarni hal qilish va tahlil qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi (85% ga yaqin).

O‘yin metodlari va vizual vositalar samaradorligi Vizual modellar (Eyler doiralari, tasniflash daraxtlari, sxematik grafikalar) bolalarda sabab-oqibat munosabatlarini yaxshiroq anglashlariga yordam berdi. Didaktik o‘yinlar orqali mashg‘ulot o‘tkazilgan bolalar guruhida mantiqiy tafakkur elementlari 20–30% tezroq shakllangan.

Psixologik treninglar natijasida bolalarda Tajriba-sinov mashg‘ulotlari davomida psixologik mashqlardan foydalangan guruhda, an’anaviy usulda o‘qitilgan guruhga nisbatan mantiqiy tafakkur strukturalari ancha izchil va barqaror shakllangan.

Metodik yondashuvlarning afzalligi individual yondashuv, kichik guruhli muhokama va savol-javob texnikasi o‘quvchilar tafakkur darajasiga mos muhit yaratgan.

O‘yinli mashg‘ulotlarda qatnashgan bolalar kontseptual fikrlashda yuqoriroq natijalarni ko‘rsatgan.

Olingan natijalar bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha mavjud psixologik nazariyalarni chuqurlashtiradi va amaliy ta’lim jarayoniga tatbiq qilish uchun aniq asoslar beradi.

Birinchidan, J. Piaje ta’kidlaganidek, bolaning aqliy rivojlanishi biologik yetilish asosida kechadi, degan nazariya qisman tasdiq topadi, biroq ushbu nazariy yondashuv L.S. Vigotskiy**,** A.N. Leontyev kabi olimlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanish modeliga qaraganda amaliy nuqtai nazardan yetarli izoh bera olmaydi.

Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi esa ta’lim — rivojlanishning yetakchi omili ekani haqida tushuncha beradi. Ushbu yondashuvga asosan tuzilgan mashg‘ulotlar mantiqiy tafakkur darajasini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Ikkinchidan, ta’lim metodikasi va vositalarining to‘g‘ri tanlanishi bolalarning tafakkur strukturasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib chiqdi. Vizual ko‘makchilar yordamida o‘rganilgan kontseptlar bola xotirasida aniqroq saqlanadi va amaliy faoliyatda foydalanishga tayyor holatga keladi.

Uchinchidan, didaktik o‘yinlar orqali o‘rgatish usuli bolalarning faol ishtirokini ta’minlab, ular orasida bilimlarni idrok qilish va ularni amalda qo‘llash jarayonini yengillashtiradi. An’anaviy

usullarga qaraganda, o‘yin metodikasi orqali o‘tilgan mashg‘ulotlar bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini tezroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar ushbu yoshda mantiqiy operatsiyalarni egallashga salohiyat yetarli ekanligini isbotlamoqda. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga doir ilg‘or ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Amaliyotda esa bunday salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun maxsus metodikalar va psixologik treninglardan foydalanish tavsiya etiladi.

Nihoyat**,** tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun mantiqiy tafakkurni tizimli rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik trening modellarini ishlab chiqish zarurligi aniqlandi. Bu treninglar ta’lim mazmunini boyitib, zamonaviy kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – M.: Pedagogika, 1991.
2. Пиаже Ж. Речи мишление ребенка. – М.: Педагогика, 1994.
3. Галперин П.Я. Введение в психологию. – М.: Знание, 1976.
4. Венгер Л.А. Формирование познавателъной деятелъности дошколъника. – М.: Педагогика, 1988.
5. Леонтев А.Н. Деятелъностъ. Сознание. Личностъ. – М.: Политиздат, 1977.
6. Рубинштейн С.Л. Основй обшчей психологии. – СПб.: Питер, 2000.
7. Монтессори М. Помоги мне это сделатъ самому. – М.: РОСМЕН, 2002.
8. Агеэва Э.Л. Логическоэ мишление детей дошколъного возраста. – М.: Просвешчение, 1999.
9. Веклерова Х.М. Эксперименталъноэ обучение детей логическим операциям. – М.: Наука, 1998.
10. Занков Л.В. Обучение и развитие. – М.: Педагогика, 1990.

Arziqulov Hasan Normurod o‘gli
Samarqand davlat chet tillari instituti,
Narpay xorijiy tillar fakulteti o’qituvchisi

OLIY TA’LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy paradigmasiga aylanib, nafaqat bilim berish, balki talabalarning amaliy ko‘nikmalari, kasbiy moslashuvchanligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Maqolada o‘qituvchining pedagogik mahorati, ta’lim muhitining psixologik iqlimi, talabalarning motivatsion tayyorgarligi, o‘zaro kommunikatsiya sifati kabi omillar kompetensiyaviy yondashuv muvaffaqiyatining muhim sharti sifatida asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompensiyaviy yondashuv, oliy ta’lim, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim muhiti, motivatsiya, interaktiv metodlar, o‘qituvchi mahorati, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, refleksiv fikrlash, kasbiy kompetensiya.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические и педагогические условия, необходимые для эффективной реализации компетентностного подхода в системе высшего образования. Компетентностный подход стал основной парадигмой современного образования и направлен не только на передачу знаний, но и на формирование у студентов практических навыков, профессиональной адаптивности, способности к принятию самостоятельных решений и личностного роста. В статье обоснована роль таких факторов, как педагогическое мастерство преподавателя, психологический климат образовательной среды, мотивационная подготовленность студентов и качество межличностной коммуникации как важнейших условий успешного внедрения компетентностного подхода.*

Ключевые слова*: компетентностный подход, высшее образование, психолого-педагогические условия, образовательная среда, мотивация, интерактивные методы, педагогическое мастерство, личностно-ориентированный подход, рефлексивное мышление, профессиональная компетентность.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPLEMENTING THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article analyzes the psychological and pedagogical conditions necessary for the effective implementation of the competency-based approach in higher education. The competency-based approach has become the core paradigm of modern education, focusing not only on the transmission of knowledge but also on the development of students’ practical skills, professional adaptability, decision-making abilities, and personal growth. The article substantiates the importance of*

factors such as the teacher's pedagogical mastery, the psychological climate of the educational environment, students' motivational readiness, and the quality of interpersonal communication as essential conditions for the successful adoption of the competency-based approach.

***Keywords**: competency-based approach, higher education, psychological-pedagogical conditions, educational environment, motivation, interactive methods, pedagogical mastery, student-centered approach, reflective thinking, professional competence.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning innovatsion rivojlanishi, raqamli transformatsiya jarayonlari va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari oliy ta’lim tizimi oldiga yangi strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda ta’limning asosiy maqsadi faqat nazariy bilimlar majmuini o‘rgatish emas, balki shaxsda kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv oliy ta’lim jarayonining asosiy metodologik negiziga aylanib bormoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida o‘quvchi shaxsining faolligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, kommunikativ layoqati, reflektiv fikrlashi va kasbiy moslashuvchanligi asosiy natija sifatida qaraladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish esa o‘z-o‘zidan yuz bermaydi — bu jarayon psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligini talab etadi. Jumladan, ta’lim muhitining psixologik iqlimi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikatsiya sifati, o‘quv materialining amaliy yo‘naltirilganligi, interaktiv metodlardan foydalanish darajasi hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, kredit-modul tizimi, raqamli o‘qitish vositalari va kompetensiyaviy baholash tizimlarining joriy etilishi — yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilgan holda, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish zaruratini yana-da kuchaytirmoqda.

Shu sababli, mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik va pedagogik shart-sharoitlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, ularning oliy ta’limdagi o‘rni, ahamiyati va integratsiya imkoniyatlari asoslanadi.

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy global ta’lim maydonida yuz berayotgan chuqur islohotlar va innovatsion jarayonlar ta’lim sifatiga bo‘lgan talabni tubdan o‘zgartirdi. Xususan, oliy ta’lim tizimida an’anaviy bilimga asoslangan yondashuvlar o‘rniga kompetensiyaviy yondashuvlar markaziy o‘ringa chiqdi. Bugungi kunda mutaxassisdan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikma, kommunikativlik, kasbiy moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash kabi sifatlar talab etilmoqda. Aynan mana shu kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim jarayonini yangicha psixologik-pedagogik yondashuvlar bilan boyitishni taqozo etmoqda.

Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish uchun faqat o‘quv rejalarini yangilash yetarli emas — bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish zarur. Bunday shart-sharoitlarga talabalarning individual va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish, ta’lim muhitining emotsional iqlimini sog‘lomlashtirish, motivatsion resurslarni faollashtirish, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan keng foydalanish kabi omillar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlari, xususan, “Ta’limda sifatni oshirish va zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy etish to‘g‘risida”gi hujjatlar ham kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llab-quvvatlash, ta’limning natijaviyligini oshirish va zamonaviy kadrlar tayyorlash strategiyasini amaliyotga tatbiq etishni ko‘zda tutadi.

Shu bois, oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning psixologik va pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu masalaning ilmiy tadqiq qilinishi, real ta’lim muhitida samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish orqali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi.

Muhokama.

Oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish zamonaviy ta’limning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mavjud psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning sifati bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kompetensiyaviy yondashuv talabaning shaxsiy faolligini, kasbiy yo‘nalganligini, amaliy ko‘nikma va ijtimoiy moslashuv darajasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim muhiti, o‘qituvchining didaktik mahorati, o‘quv jarayonining psixologik iqlimi, motivatsion resurslar va shaxsga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar bilan bevosita bog‘liq.

Maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, kompetensiyaviy yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish uchun avvalo o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatiga reflektiv va innovatsion yondasha olishi muhimdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy shakllanishini yo‘naltiruvchi psixologik-pedagogik yetakchi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ta’lim muhitining psixologik sog‘lomligi — talabalar o‘zlarini xavfsiz, qadrlangan va qo‘llab-quvvatlangan his qiladigan muhitda bo‘lishlari — ularning kompetensiyalarini shakllantirishdagi psixologik tayanch rolini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar — muammoli vaziyatlar tahlili, loyihalash, rolli o‘yinlar, guruhiy ishlash texnikalari — talabalarning kasbiy kompetensiyasini faollashtiradi. Ular orqali o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy muloqotga kirishadi, mustaqil fikrlashni o‘rganadi, qaror qabul qilish va mas’uliyatni bo‘lishishni amalda bajaradi. Bunday faoliyat shakllari psixologik jihatdan rag‘batlantiruvchi, emotsional jihatdan ijobiy bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydigan ta’lim tizimi talabalarning o‘z-o‘zini baholash, o‘z imkoniyatlarini aniqlash va kasbiy yo‘nalishini mustaqil tanlashiga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida motivatsiyani oshiradi, faol ishtirokni kuchaytiradi va natijada shaxsiy o‘sish hamda kasbiy shakllanish uchun barqaror psixologik asos hosil qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, maqolada ilgari surilgan fikrlar shuni anglatadiki, kompetensiyaviy yondashuvni ta’limga samarali integratsiya qilish uchun nafaqat didaktik modellarni, balki psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni kompleks tahlil qilish va ularni puxta tashkil etish zarur. Bu jarayonni muvaffaqiyatli olib borish esa nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki ijtimoiy jihatdan faol, kasbiy jihatdan raqobatbardosh va shaxsiy jihatdan barqaror mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Tarkibiy qism	Mazmuni
Tadqiqot obyekti	Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va undagi psixologik-pedagogik komponentlar
Tadqiqot predmeti	Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishga ta’sir etuvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar
Tadqiqot maqsadi	Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni samarali tatbiq etish uchun zarur psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va tahlil qilish
Tadqiqot vazifalari	– Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini ochib berish

– Psixologik-pedagogik omillarni tizimlashtirish	
– Empirik asosda mavjud muammolarni aniqlash	
– Amaliy taklif va tavsiya-lar ishlab chiqish	
Tadqiqot gipotezasi	Agar oliy ta’limda sog‘lom psixologik muhit, yuqori motivatsiyali talabalar va interaktiv yondashuvlar asosida o‘qitish tashkil qilinsa, kompetensiyaviy yondashuv samarali amalga oshiriladi.
Ilmiy yangilik	Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy psixologik-pedagogik omillar tizimlashtirib berildi
Nazariy asoslar	Kompetensiya nazariyasi (Spencer & Boyatzis), faoliyat nazariyasi (A.N. Leontev), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi (K. Rogers, V.V. Serikov), ta’lim sifati modeli (E.F. Zeer)
Tadqiqot metodlari	– Nazariy tahlil
– Anketalar, testlar (psixodiagnostika)	
– Kuzatuv va suhbat	
– Eksperiment (nazorat va tajriba guruhlari)	
– Statistik tahlil (SPSS, Excel)	
Amaliy asos	Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatlaridagi oliy ta’lim muas-sasalari talabalari va pedagoglar bilan olib borilgan tadqiqotlar
Uslubiy yondashuvlar	Tizimli, kompleks, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv yondashuvlar
Tadqiqot doirasi	2023–2025-yillar davomida olib borilgan nazariy va amaliy tahlil-lar asosida

Xulosa. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kompetensiyaviy yon-dashuv zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor metodologik asosiga aylanmoqda. Uning samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, o‘qituvchining kasbiy va kommunikativ mahorati, ta’lim mu-hitining psixologik iqlimi, talabaning motivatsion holati, o‘zaro muloqot sifati, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlarning qo‘llanilishi kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuningdek, interaktiv metodlardan samarali foydalanish, talabaning faol ishtirokini rag‘bat-lantirish, amaliy mashg‘ulotlarga ustuvorlik berish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya imkoniyatlarin-ing mavjudligi ham kompetensiyaviy yondashuvning psixologik jihatdan barqaror asosda shakllan-ishiga xizmat qiladi. Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda yondashuv dif-ferensial, shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli bo‘lishi zarur.

Tavsiyalar:

1. O‘qituvchilarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida muntazam rav-ishda treninglar, seminarlar va psixopedagogik malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi lozim.

2. Ta’lim muhitining psixologik iqlimini sog‘lomlashtirish uchun emotsional xavfsizlik, hurmat va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

3. Motivatsiyaviy yondashuvlarni kuchaytirish orqali talabalarni o‘z kasbiy yo‘nalishiga faolroq jalb etish, ularning ichki ehtiyojlari va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash zarur.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali har bir talabaning psixologik xususiyatlari va kognitiv imkoniyatlariga mos yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak.

5. Reflektiv fikrlash va o‘z-o‘zini baholash madaniyatini rivojlantirish orqali talabalarni o‘z ta’limiy faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondasha oladigan subyekt sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

6. **Interaktiv metodlar (muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, rolli o‘yinlar)**dan keng foydalanish orqali kompetensiyalarning amaliy jihatlarini kuchaytirish kerak.

7. Kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlashtirish va ularni psixologik-pedagogik jarayonlarga integratsiya qilish orqali natijaviylik monitoringi tizimini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Spencer, L.M., & Spencer, S.M. (1993). Competence at Work: Models for Superior Performance. New York: John Wiley & Sons. – 384 p.

2. Boyatzis, R.E. (1982). The Competent Manager: A Model for Effective Performance. New York: John Wiley & Sons. – 308 p.

3. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press. – 330 p.

4. Markova, A.K. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание. – 312 с.

5. Zeer, E.F. (2003). Психология профессионального образования. Москва: Академия. – 272 с.

6. Serikov, V.V. (2004). Личностно-ориентированное образование: Поиск новой парадигмы. Волгоград: Учитель. – 256 с.

7. Pryazhnikov, N.S. (2007). Профессиональное и личностное самоопределение: теория и практика. Москва: Академия. – 240 с.

8. Karimova, V.M. (2005). Psixologik xizmat ko‘rsatish asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 276 b.

9. Nishonova, Z.T. (2010). Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Toshkent: Fan. – 204 b.

10. Shoumarov, G‘.B. (2021). Kasbiy kompetensiyalar va ijtimoiy psixologik muhit: o‘zaro ta’sir mexanizmlari. Buxoro: BDU nashriyoti. – 196 b.

11. Abduqodirov, A.A. (2022). Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish psixologiyasi. Toshkent: Ilm Ziyo. – 228 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori. "Oliy ta’lim tizimida sifatni oshirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida". // www.lex.uz

Irgashev Zarif Djamaldinivich
Andijon shahri 14014-harbiy qism
komandirining o'rinbosari podpolkovnik

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESS MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIX-OLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularda namoyon bo'luvchi stressni paydo qiluvchi omillarni tahlil qilish ularni oldini olish usullarini tadqiq etishga imkon yaratadi hamda harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berishda usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy vaziyat, bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash, psixologik bilim, harbiy xizmat, stress, harbiy xizmatchi, ijtimoiy muhit va stress omillari.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ СТРЕССА У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. *В статье на основе изучения психологических особенностей военнослужащих проведен анализ стрессообразующих факторов, проявляющихся у них, что позволяет исследовать способы их профилактики, а также исследованы методы и средства выявления социально-психологических особенностей проявления стресса в личности военнослужащих и даны эффективные рекомендации.*

Ключевые слова: *социальная ситуация, определение проявления уровня толерантности, психологические знания, военная служба, стресс, военнослужащий, социальная среда и факторы стресса.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PROBLEM OF STRESS IN MILITARY PERSONNEL

Annotation. *Based on the study of the psychological characteristics of military personnel, the analysis of the factors that provoke stress manifested in them makes it possible to research methods of their prevention, and methods and means of revealing the socio-psychological characteristics of the manifestation of stress in the person of military personnel are researched and effective recommendations are presented.*

Keywords: *social situation, determination of the manifestation of the level of tolerance, psychological knowledge, military service, stress, military personnel, social environment and stress factors.*

Jahondagi xalqaro munosabatlar, harbiy-siyosiy vaziyat va jamiyat hayotidagi zamonaviy sifat o'zgarishlari mamlakatning ishonchli harbiy xavfsizligi yo'lida tub harbiy islohotlarni amalga oshirib borish Qurolli Kuchlardagi barcha darajali harbiy rahbarlarning samarali boshqaruvini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. SHunga ko'ra, harbiy rahbarlar tomonidan zamonaviy talablarning muvaffaqiyatli bajarilishida, boshqaruv faoliyatida yuqori mahsuldorlikka erishishda boshqaruvning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Dunyoda harbiy rahbar kasbiy-shaxsiy deformatsiyasini bartaraf etishning sotsial-psixologik modelini shakllantirish, harbiy rahbarlar kasbiy-kamoloti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik determenantlarni aniqlash, harbiy rahbar faoliyatini optimallashtirishning ijtimoiy-psixologik shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida, harbiy rahbarning qo'l ostidagilarni samarali boshqarishi, harbiy jamoadagi ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishi va harbiy xizmatchilarning o'zaro jipsligini

ta’minlashi uchun boshqaruv kompetentsiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish masalasi ham shular jumlasidandir.

Yangi O’zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi, «...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish»[1] chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ularga ko’ra, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabga aylanishiga erishish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish, oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada rivojlantirish, Mudofaa vazirligi qo’shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zahirasini yaratish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalarini belgilab bermoqda. Bu esa psixologiya sohasi mutaxassislarini Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlar boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo’yicha yangi yechimlar topishga yo’naltirmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida», 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-son «O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi Qarori, 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son «O’smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Qarori va 2019 yil 12 sentyabrdagi PQ-4447-son Qarori bilan tasdiqlangan «O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o’tash tartibi to’g’risidagi Nizom», 2022 yil 14 yanvardagi Xavfsizlik Kengashidagi so’zlagan nutqidagi talablari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarda stress muammosini psixodiagnostika va psixokorreksiya qilishda xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining xalqaro miqyosda o’zining ishonchli ekanini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to’plangani, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o’zaro bir-birini to’ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo’llanilgani, tadqiqot ob’ekti sifatida turli hududlardagi harbiy qism va muassasalar tanlangani, sinaluvchilar guruhining reprezentativligi, olingan empirik qiymatlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani, xulosa, takliflarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Olib borilayotgan ilmiy izlanishlarimizda «Harbiy psixologiya», «Boshqaruv psixologiya», «Psixodiagnostika», «SHaxs psixologiyasi» fanlarini ilmiy manbalar bilan boyitishda va harbiy psixologlar malakasini oshirishda, shuningdek, harbiy xizmatchilarni vatanparvalik ruhida tarbiyalashda, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini aniqlashda, nomzodlarni harbiy kasbga saralash va yo’llashda, harbiy kadrlarni lavozimlarga qo’yishda, harbiy xizmatchilarning ijobiy psixologik omillarini aniqlashda hamda mudofaa faoliyatini ko’tarishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Stress psixologiyasiga bag‘ishlangan maxsus ish L.A.Kitayev-Smikning monografiyasi bo‘lib, unda muallif stressning psixologik va psixofiziologik ko‘rsatkichlari dinamikasi bo‘yicha keng tadqiqotlar natijalarini keltiradi hamda stress muammosiga oid mahalliy va xorijiy manbalarni keng qamrovda tahlil qiladi. L.A.Kitayev-Smik stress konsepsiyasining zarurligini, tadqiq etilayotgan hodisalar doirasiga umumiy asosni aniqlash uchun yondashish kerakligini ko‘rsatgan. Bunday metodologik uslub hodisalarning yetarlicha keng doirasini tahlil qilishni talab etadi[2]. Stressni o‘rganishda individual farqlar nazariyalari muhim o‘rin tutadi. Ushbu nazariyalar F.E.Vasilyuk, B.A.Vyatkin, M.Yu.Denisov, V.F.Drujinin, L.N.Kotlyarova, V.I.Krivokon, L.V.Smolova, S.V.Subbotin, E.A.Chudina kabi olimlarning ilmiy ishlarida aks etgan. Kasbiy stressning inson faoliyati samaradorligiga ta’siri turli sohalarda A.Ya.Antsupov, V.A.Bodrov, A.N. Zankovskiy, V.L.Marishuk kabi tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ekstremal omillar ta’sirida insonning barqarorligi va ishonchliligi (stressga chidamliligi) muammosi X.M.Aliyev,

O.V.Dashkevich, L.N.Kotlyarova, A.S.Kondratyeva, M.V.Levi, S.V.Subbotin, L.V.Smolova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Stressning salbiy ta’sirini oldini olish va uni yengillashtirishning tamoyillari va usullari F.E.Vasilyuk, O.V.Dashkevich, V.I.Evdokimov, L.V.Kostyukova, A.S.Kuznetsova, M.A.Kulygina, A.B.Leonova, R.F.Malkina, N.N.Melnikova, N.I.Naenko, V.P.Petrov, L.A.Savinkina, E.R.Yapparova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

Harbiy psixologlar stressning salbiy psixologik oqibatlari namoyon bo‘lishining turli shakllarini o‘rganishgan. Ushbu muammoning turli jihatlari R.A.Abdurahmonov, A.Ya.Antsupov, V.D.Bitsoyev, A.V.Bulgakov, M.I.Dyachenko, S.V.Zaxarik, V.L.Marishuk, A.A.Kamishanov, L.A.Kandibovich, A.G.Karayani, V.P.Kashirin, P.A.Korchemnoy, I.B.Lebedev, M.V.Levi, O.V.Leontyev, A.V.Ovetchikov, V.A.Ponomarenko, V.E.Popov, A.N.Tarasov, A.N. Xaritov, B.Ya.Shvedin, A.I.Shipilov kabi olimlarning ilmiy ishlarida aks etgan. Jangchilarining jangovar faoliyatini psixologik tahlil qilish jarayonida M.I.Dyachenko jangovar muhitning asosiy omillari jangchilarning ruhiyati va jangovar harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini, shuningdek, jang sharoitida qo‘rquv va vahimaning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda jangovar vazifani bajarishning turli bosqichlarida harbiy xizmatchining ruhiyati qanday namoyon bo‘lishini tadqiq qilgan. A.V. Ovetchikov esa jangovar faoliyat sharoitida psixik holatlarni o‘rganish davomida zo‘riqish va stress holatlarini farqlagan[3]. Bu tadqiqotlar stress va ekstremal sharoitlarda inson ruhiyatining o‘zgarishiga oid muhim psixologik jihatlarni ochib beradi. M.I.Dyachenkoning ishlari jang sharoitida inson psixikasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u harbiylarning jangovar sharoitdagi ruhiy holatlarini, jumladan, qo‘rquv va vahima kabi psixologik reaktsiyalarni tahlil qilgan. Ushbu reaktsiyalar individual va guruhiy darajada qanday shakllanishi hamda jangovar harakatlarga qanday ta’sir qilishi bo‘yicha tahlil berilgan. O’zbekistonda Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari uchun ahamiyatli bo’lgan masalalar bo’yicha ko’plab psixolog olimlar tadqiqot olib borishgan. Ular jumlasiga E.G’oziev, V.Karimova, I.Mahmudov, D.Muxamedova, R.Samarov, A.Rasulov, L.Tursunov, S.Axrorov, L.Ravshanov va boshqa olimlarni kiritish mumkin.

Darhaqiqat, hozirgi zamonaviy jangovar harakatlar harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligiga aniq talablar qo‘ymoqda. Psixologik tayyorgarlik asosida jangovar tayyorgarlik jarayonlariga real jangovar vaziyatlarga xos zo‘riqish, to‘satdanlik va tahlika elementlarini kiritish shaxsiy tarkibning bunday sharoitdagi usullarni bajarilishini tizimli mashq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, psixik jarayonlar, ayniqsa diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurning kerakli parametrlarini shakllantirish uchun, bir vaqtning o‘zida barcha mashg‘ulotlar va mashqlarga shaxsiy tarkibning ziyrakligi, topqirligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini rivojlantiradigan, shuningdek, jangovar texnika, qurol-aslaha, trenajyor, maketlardagi, amaliy harakatlar solishtirma og‘irligini ko‘paytirish va shunga o‘xshash jangovar vaziyatning turli sharoitlari va jismoniy charchagan paytda aqliy vazifalarni yechish nostandart vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishini talab etadi[4]. Shu narsani alohida qayd etish zarurki, xizmat vazifasini o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni jangovar shaylik va jangovar tayyorgarlik amaliyot davomida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat harbiy xizmatchilarda ruhiy zo‘riqish va psixologik stress holatlari belgilangan me’yor darajasidan ortiqligi qayd etilmoqda. Mazkur maqola stress va uning psixologik oqibatlari, stress tushunchasi va uning harbiy xizmatchilar psixikasiga ta’siri, harbiy xizmatchilarda psixologik jarohat olgandan keyingi buzilishlar va boshqarishning psixofiziologik holati haqidagi ma’lumotlar ilmiy bayon etilgan.

Xulosa qiladigan bo’lsak Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari xorij psixologlari tomonidan kasbiy kompetentlikni shakllantirish, jamoada shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, harbiy rahbar shaxs sifatlarini rivojlantirish va boshqaruv kompetentligini oshirish kabi psixologik xususiyatlar batafsil o’rganib chiqilgan.

2. Harbiy rahbar xodimlarda boshqaruv kompetentligini oshirishda ijtimoiy intellektni shakllantirish, boshqaruvda qaror qabul qilish uslublari, shaxslilik xususiyatlari va rahbar

xodimlarning shaxsiy sifatlari kabi psixologik xususiyatlarning shakllanganlik darajasiga ham e'tibor qaratilgan.

3. Qurolli Kuchlar tizimidagi rahbar xodimlarda boshqaruv kompetentligi jarayoni shakllanishiga malakali rahbarlarning kasbiy faoliyatda samarali ish mahsuli bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan. Bu esa, boshqaruvdagi harbiy rahbar xodimlarning jamoada o'zlashtirgan malaka-ko'kikmalari bilan uzviy bog'liq.

4. Qurolli Kuchlar tizimida kasbiy faoliyat olib borayotgan harbiy rahbarlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish uchun muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o'zaro ta'sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o'zini tutish kabi psixologik xususiyatlarining rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o'rnata olishga xizmat qiladi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati.

1. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

1. Китаев-Смык Л.А. Психология стресса. Психологическая онтропология стресса / Л.А. Китаев-Смык. - М.:Академический проспект, 2009.243-с.

2. Пономаренко В.А. Экстремалност и проблема отношения к профессионалной деятелности и в профессионалной жизнедеятелности / В.И.Пономаренко //Мир психологии. – 2016. -№ 4. - С. 38-46.

3. Селье Г. «Стресс без дистресса». М.Прогресс, вт.изд.2006. – 226 с.

Maksadova Mexriniso Sayxonovna
Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA XOS KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abstract: *Maqolada ilmiy-pedagogik adabiyotlar, milliy-ma’naviy meros namunalari hamda pedagogika-psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni o‘rganish orqali Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xos sifat va fazilatlarini shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rganish keltirilgan. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xos sifat va fazilatlarini shakllantirishning psixologik asoslari izohlangan.*

Keywords: *boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, tarbiyaga yo‘nalganlik, ijodkorlik, mehnatsevarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ, ПРИСУЩИХ УЧИТЕЛЯМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье изложены теоретические основы формирования качеств и достоинств, присущих учителям начальных классов, на основе изучения научно-педагогической литературы, образцов национального духовного наследия и исследований в области педагогики и психологии. Кроме того, в работе объяснены психологические основы формирования профессионально значимых качеств у учителей начальных классов.*

Ключевые слова: *начальные классы, учитель, учитель начальных классов, воспитательная направленность, креативность, трудолюбие.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING PROFESSIONAL QUALITIES SPECIFIC TO PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. This article explores the theoretical foundations of developing the qualities and virtues characteristic of primary school teachers through the study of scientific-pedagogical literature, examples of national spiritual heritage, and research in pedagogy and psychology. The psychological foundations for shaping professional qualities in primary school teachers are also explained.

Keywords: primary school, teacher, primary school teacher, educational orientation, creativity, diligence.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasi shundan dalolat berib turibdiki, ular mustaqillik va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yishlari bilan asosiy e’tibor va mablag‘larni birinchi navbatda, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashga sarflaganlar va bunday siyosat tarixiy tajribada o‘zini oqladi. Maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Ta’lim-tarbiyaning insonparvarligi, demokratikligi, tarbiyalanuvchilarni hurmatlash O‘zbekistonda ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarning qadr-qimmatini hurmatlash, bolada mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, odamlarga yaxshilik qilish va mehr-muruvvat tuyg‘usini tarbiyalash mas’uliyatli, muhim vazifadir. Bu vazifani, asosan, uzluksiz ta’lim tizimi muassasalarining o‘qituvchilari amalga oshiradilar. Yoshlarni axloq-odobli, barkamol insonlar qilib tarbiyalashga da’vat etilgan muallim-tarbiyachilar pedagogik axloqqa doir bilimlarni pedagogik madaniyat, muomala odobi qoidalarini yaxshi egallagan bo‘lmoqlari lozim... Shuning uchun ham o‘qituvchilar tayyorlaydigan oliy ta’lim muasasalari oldida muhim

vazifa – insonparvarlik tamoyilini ro‘yobga chiqaruvchi, yuksak ma’naviy – axloqiy talablarga javob beruvchi, pedagogik odob fazilatlarini egallab olgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash vazifasi turadi.

Ta’kidlash joizki, vatanimizning psixolog olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga doir muammolarning juda ko‘p jabhalari o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xos sifat va fazilatlarini shakllantirishning psixologik asoslari, muallimning milliy-madaniy muhitga xos keng imkoniyatlarini aniqlovchi, uning shaxsiy va kasbiy barkamolligini ta’minlovchi muhim mexanizm pedagog kasbiy tayyorgarligining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari muammosi o‘zining to‘liq yechimini topmagan. Yuqoridagi mulohazalar “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xos sifat va fazilatlarini shakllantirishning psixologik asoslari” ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashimiz uchun asos bo‘ldi.

Tadqqotda Y.I.Rogovning milliy-hududiy muhitga moslashtirilgan “O‘qituvchi shaxsining kasbiy yo‘nalganligini baholash” metodikasi; “Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy sifatlarini o‘rganish” anketasi, nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, testlar, anketa so‘rovlari tashkil etish, pedagogik-psixologik ilmiy tajriba, matematik statistika. metodlaridan foydalanildi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘qituvchi shaxsi yuksak ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan xalqning etnik ongi va tafakkurining namunasi sifatida e’zozlangan. Ana shunday yuksak bahoga loyiq zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining psixologiyasi, ya’ni uning shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlari qanday bo‘lishi lozim? Psixologiyaning hozirgi tahlillariga ko‘ra, ta’lim va tarbiya shakli, mazmuni va mohiyati jihatidan milliy-etnik hodisadir. U o‘z xalqining (millatining) marosimlari, an’analari, odatlari va umuman, etnopsixologiyasini o‘zida aks ettiradi. Tabiiyki, har bir etnosga, ya’ni millatga xos ideal shu millatning ta’lim va tarbiyasida ro‘yobga chiqadi. Mazkur paradigma-ideallar shu etnosning, xalqning ongini, qarashlarini, qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi, milliy ong va milliy o‘zlikni anglashi esa millatning ming yillar davomida turmush tajribasida orttirgan donoligida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, o‘qiydigan, tarbiyalanadigan yosh avlod hamma vaqt o‘z millatiga xos etnopsixologik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi (o‘zlashtiradi). Mazkur xususiyatlar sirasiga quyidagilar kiradi: milliy ongning o‘ziga xos xususiyati va tafovutli komponentlarini saqlagan holda o‘zligini anglashi;

milliy tafakkuri, fikr yuritish jarayonining o‘ziga xosligi; irodaviy-aqliy xatti-harakatlari, amallari, his-hayajonlari va tuyg‘ularining o‘ziga xosligi; boshqa kishilar, boshqa etnos vakillari bilan muloqot va o‘zaro aloqalarda milliy xarakterning o‘ziga xosligi. Bu esa, ta’lim va tarbiya mazmunida o‘ziga xos psixologik xususiyatlar bavosita namoyon bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ta’lim va tarbiya jarayonlarini amalga oshirayotganda o‘qituvchi quyidagi prinsip va qonuniyatlarga rioya etishi lozim:a) o‘quvchiga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik ta’sirlar shu millatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqlik va uyg‘unlik prinsipi asosida ta’lim va tarbiya an’anaviy tadbirlar orqali amalga oshirilishi zarur bo‘lib, mazkur tadbirlar tarbiyalanuvchiga tushunarli va shu xalqning urf odatlari, an’analari, taomillari, ideallari bilan bog‘liqligi;

b) milliy ong va milliy o‘ziga xoslik psixologik-pedagogik faoliyatning umumiyligi, birligi qonuni, bunda tarbiyachi-ustozning faolligini etnik jamoa vakilining (o‘quvchining) milliy o‘zlikni anglash xususiyatini, axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini e’tiborga olgan holda o‘ta optimal-ratsionalligi. Psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta’sirlarni singdirish kompleksi (majmui) shu etnik jamoaga xos axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va ishlab chiqarish, ya’ni mehnat me’yorlarining evolyusiyasiga moslab tashkil etilishi; tarbiyalanuvchilarning ma’lum psixologik-pedagogik ta’sirlarga moslasha olish imkoniyatlarini e’tiborga olishi zarur.

Ushbu nazariy ma’lumotlarga hamohang tarzda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy faolligini tadqiq etishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun “Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy sifatlarini o‘rganish” anketasidan foydalandik. Tadqiqotimizning aniqlovchi bosqich tajribalarida pedagog va psixolog olimlarning zamonaviy maktab o‘qituvchisining eng muhim xislatlariga bag‘ishlagan mezonlari yordamida ishlab chiqilgan “Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy sifatlarini o‘rganish” anketasi yordamida, ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi shaxsga xos xislatlari hamda kasbiy bilimlarini o‘rganishga erishildi. Ularning tahliliga quyida alohida to‘xtab o‘tiladi. Har bir band bo‘yicha

ajratilgan sifatlarning rang ko‘rsatkichlari, xususiyatlarning chastotalari asosida korrelyatsion munosabatlari mutaxassislar tayyorlash jarayonida ishtirok etgan pedagoglar va talabalarning munosabatlari asosida tahlil etiladi.

1-jadval

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiy xislatlarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanishi ahamiyatini o‘rganish natijalari

№	Xislatlar	O‘qituvchilar		Talabalar		t
		X	m	X	m	
1	O‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik	1,77	1,610	2,35	0,831	2,129
2	Amaliy-psixologik savodxonlik	2,67	1.30	2,82	1.78	0,438
3	Mehnatsevarlik va ijodkorlik	2,45	1,41	3,25	1,8	-2,856**
4	Jamoat ishlarida faollik	3,10	1,75	2,40	1,21	3,618***
5	Mehribonlik, dilkashlik, odamiylik	2,77	1,77	3,87	1,78	-3,376***
6	Kamtarlik, samimiylik	3,02	1,83	3,30	1,82	-0,776
7	Qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik	2,55	1,19	2,65	1,84	-0,344
8	O‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik	3,97	2,16	2,67	1,40	3,134**

**p≤0,01; *** p≤0,001

Izoh: X-o‘rta arifmetik qiymat; m-standart og‘ish; t-styudent mezoni

O‘qituvchi va talabalar tomonidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsiy xislatlarni kamol toptirishning ahamiyatini o‘rganish natijalarining ko‘rsatishicha, o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik; amaliy-psixologik savodxonlik; mehnatsevarlik va ijodkorlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik, dilkashlik, odamiylik; kamtarlik, samimiylik; qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik; o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik kabi sifatlarning barchasi tekshiriluvchilar tomonidan sakkiz darajali rang ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha uch darajali ahamiyatga egaligi qayd etilgan.

Natijalardan ko‘rinadiki, kasbiy tayyorgarlik uchun zarur psixologik ko‘rsatkichlarni tahliliga qadar, o‘qituvchi va talabalar shaxsiy xislatlari kasbiy tayyorgarlik uchun muhim ekanligini ko‘rsatishda yanglishmaganlar, deyish mumkin. Bu o‘rinda o‘qituvchilar bilan talabalarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” xislati (1,77 va 2,35), “amaliy-psixologik savodxonlik” (2,67 va 2,82); “kamtarlik, samimiylik” (3,02 va 3,30), “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” (2,55 va 2,65) xislatlari o‘rtasida farqlar kuzatilmadi. O‘qituvchi va talabalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mazkur shaxsiy xislatlarini shakllantirish ahamiyatini nisbiy tenglikda anglaganlar, deyish mumkin.

O‘qituvchi va talabalar tomonidan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy xislatlari kasbiy tayyorgarlik jarayonida kamol topishi muhim ahamiyatga ega ekanligini rang ko‘rsatkichlari asosida qayd etganlar. Hattoki ushbu xislatlarni rang ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirganda ham “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” bir xil rang ko‘rsatkichni aks ettirganligining o‘zini ham ijobiy hol deya olamiz. Ammo ular bir qator shaxsiy xislatlarni farqli baholaganliklari statistik mezonlarda ham kuzatildi: “mehnatsevarlik va ijodkorlik” (2,45 va 3,25); “jamoat ishlarida faollik” (3,10 va 2,40); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik” (2,77 va 3,87); “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilish” (3,97 va 2,67) (2.1-jadvalga qaralsin). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun zarur shaxsiy xislatlarning ahamiyatini o‘qituvchi va talabalar tomonidan baholanishdagi tafovutlar, ularning rang va o‘rin ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham o‘z aksini topdi (2-jadval).

2-jadval

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiy xislatlarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanishi ahamiyatining rang ko‘rsatkichi

№	Xislatlar	O‘qituvchi		Talaba	
		Rang	O‘rin	Rang	O‘rin
1	O‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik	1,77	1	2,35	1
2	Amaliy-psixologik savodxonlik	2,67	4	2.82	5
3	Mehnatsevarlik va ijodkorlik	2,45	2	3,25	6
4	Jamoat ishlarida faollik	3,10	7	2,40	2
5	Mehribonlik, dilkashlik, odamiylik	2,77	5	3,87	8
6	Kamtarlik, samimiylik	3,02	6	3,30	7
7	Qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik	2,55	3	2,65	3
8	O‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik	3,97	8	2,67	4

O‘qituvchilar bu borada quyidagi shaxsiy xislatlarni rang ko‘rsatkichlar asosida kamol toptirish muhimroq, deb qayd etganlar: “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, “bolalarni sevishlik” (1); “mehnatsevarlik va ijodkorlik” (2); “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” (3); “amaliy-psixologik savodxonlik” (4); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik”(5); “kamtarlik, samimiylik” (6); “jamoat ishlarida faollik” (7); “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” (8). Bundan ko‘rinadiki, o‘qituvchilar bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan insonparvarlikka xos sifatlarni, so‘ngra esa, ayrim kasbiy sifatlarni kamol toptirish muhimligini qayd etmoqdalar. Talabalarda esa bu boshqacharoq ko‘rinish olgan. Ularning nazaricha esa: “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” (1); “jamoat ishlarida faollik” (2); “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” (3); “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik”(4); “amaliy-psixologik savodxonlik”(5); “mehnatsevarlik va ijodkorlik”(6); “kamtarlik, samimiylik” (7); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik” (8). Bundan ko‘rinadiki, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsiy xislatlarni kamol toptirishda o‘qituvchi bilan talabalarning tasavvurlarida yaqinlik va farqlarning mavjudligi borligini tabiiy deb aytishimiz mumkin. 2.2-jadvalda bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik”, “amaliy-psixologik savodxonlik”, “mehnatsevarlik va ijodkorlik”, “jamoat ishlarida faollik”, “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik”, “kamtarlik, samimiylik”, “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik”, “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” kabi shaxsiy xislatlarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanishi ahamiyatining rang ko‘rsatkichini o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy shaxsiy tajribalari asosida, talabalar esa tasavvurlari asosida izohlashga harakat qilgan, deyish mumkin. Aynan ushbu tarzda bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy xislatlarini kasbiy tayyorgarlik jarayonida kamol topish ahamiyatini o‘rganishda xislatlarning o‘zaro korrelyatsion bog‘lanishlariga e’tibor qaratdik. Keyingi tahlillarimiz xislatlarning o‘zaro korrelyatsion bog‘lanishlariga bag‘ishlangan.

Korrelyatsion tahlilda o‘qituvchilar va talabalarning shaxsiy sifatlarga munosabatlari o‘zaro interkorrelyatsiya qilindi. O‘qituvchilar bilan talabalarning bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy xislatlariga munosabatlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklarida to‘liq aloqadorlik aks etmagan, ammo ayrim bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga teskari bog‘lanish hosil qilgan sifatlar borligini ko‘rsatkichlar asosida ayta olamiz. O‘qituvchilarning “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” xislatlariga munosabati talabalarning “mehnatsevarlik va ijodkorlik” xislati ($r=0,351$; $p\leq0,05$); “amaliy-psixologik savodxonlik” xislatiga munosabatlari talabalarning “mehnatsevarlik va ijodkorlik” xislati ($r=0,526$; $p\leq0,01$); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik” xislati ($r=0,476$; $p\leq0,01$); “kamtarlik, samimiylik” xislatlariga ($r=0,674$; $p\leq0,01$) munosabati bilan ijobiy bog‘lanishni, “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” xislati bilan ($r=-0,380$; $p\leq0,05$)

esa salbiy korrelyatsion munosabatni aks ettirdi. Shuningdek, o‘qituvchilarning “mehnatsevarlik va ijodkorlik” xislatini baholashlari talabalarning “amaliy-psixologik savodxonlik” xislatini baholashi (r=-0,406; p≤0,01) bilan teskari bog‘liqlik hamda “mehnatsevarlik va ijodkorlik” (r=0,430; p≤0,01), “kamtarlik, samimiylik” xislatlarini baholashi (r=0,333; p≤0,05) bilan ijobiy munosabatni aks ettirganligini ko‘rish mumkin (5-ilova). Xuddi shuningdek korrelyatsion munosabatlar o‘qituvchi bilan talabalarning yana o‘n to‘rtta korrelyatsion koeffitsientlarida uchradi. Bundan ko‘rinadiki, o‘qituvchilar bilan talabalarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonida xislatlarni shakllantirish borasidagi tasavvur va munosabatlarida qisman bog‘liqlik, bir qator xislatlar bo‘yicha teskari munosabat va ko‘pgina fazilatlarni kamol toptirishda esa o‘zaro munosabat aks etmayotganligining guvohi bo‘ldik. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiy xislatlari ahamiyatini endi o‘qituvchilar va talabalar munosabatlarining xususiy hollari bo‘yicha tahliliga murojaat etib ko‘ramiz. O‘qituvchilarning shaxsiy xislatlarini kamol toptirish borasidagi munosabatlarning korrelyatsion bog‘liqlik bo‘yicha ko‘rsatkichlari umumiy holdagi (o‘qituvchi bilan talabalar ko‘rsatkichlari singari) manzarani aks ettirmoqda. Ularning munosabatlardagi ichki bog‘liqlik ham yaxlit ijobiy aloqalardan ko‘ra tarqoqlashgan korrelyatsion koeffitsientlarda namoyon bo‘ldi va sakkizta korrelyatsion munosabatlar kuzatildi.

Ularning “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” xislatini kamol toptirishga bildirgan munosabati “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” (r=0,443; p≤0,01); “amaliy-psixologik savodxonlik” xislatiga munosabati “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” (r=0,413; p≤0,01); “jamoat ishlarida faollik” xislatiga munosabati “kamtarlik, samimiylik” (r=0,423; p≤0,01), “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” (r=0,475; p≤0,01), “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” (r=0,400; p≤0,01); “kamtarlik, samimiylik” xislatiga munosabati “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilish” (r=0,485; p≤0,01) kabi xislatlar bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikni aks ettirganini yaxshi xol deb hisoblasak-da, ammo “mehnatsevarlik va ijodkorlik”, “kamtarlik, samimiylik” (r=-0,410; p≤0,01); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik” “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lish”(r=-0,326; p≤0,05)ni salbiy hol deb aytishimiz mumkin (6-ilova). Chunki, keltirilgan sifatlarning barchasi ijobiy, ularning bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi jarayonida muhimligini bir-biri bilan ijobiy bog‘lanish hosil qilishini oddiy kuzatishlar orqali ham e’tirof etish mumkin. Demak, kasbiy tayyorgarlik jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda shaxsiy xislatlarni shakllantirish borasidagi pedagoglarning munosabatlariga ham aniqlik kiritadigan tomonlari mavjud ekan, degan mulohazani bermoqda. Balki bu borada talabalarning munosabati o‘zgacha ko‘rinish hosil qilar. Talabalarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiy sifatlarini shakllanishiga bildirgan munosabatlaridagi korrelyatsiya bog‘lanishlar yuzasidan ham ijobiy xolni qayd etolmaymiz. Ularning ko‘rsatkichlarida ham xislatlarning bir-biriga ichki bog‘liqliklarining yetarlicha va asosli bog‘lanishga ega bo‘lgan jihatlari kam kuzatildi. Oddiygina talabalarning “o‘z vataniga, xalqiga sodiqlik, bolalarni sevishlik” xislatiga bildirgan munosabatlari “amaliy psixologik savodxonlik” (r=-0,426; p≤0,01) xislati va “jamoat ishlarida faollik” xislatlari (r=-0,502; p≤0,01) bilan; “mehnatsevarlik va ijodkorlik” xislatiga bildirgan munosabatlarini “o‘z bilimi va mahoratini izchil oshirishga intilishlik” (r=-0,354; p≤0,05) xislati, “kamtarlik, samimiylik” xislati esa “qat’iylik, dadillik va mustahkam xarakterga ega bo‘lishlik” xislati (r=-0,483; p≤0,01) bilan salbiy korrelyatsion bog‘liqlikni aks ettirganining o‘ziyoq taajjublanarlidir. Aslida ushbu sifatlar o‘rtasida tabiiy va oddiy holatda ham ijobiy bog‘lanish kuzatilishi kerak, deya olamiz.

Talabalarning shaxsiy xislatlarni kamol toptirishga bildirgan munosabatlarida ham ijobiy korrelyatsiya koeffitsientini ifodalagan bog‘lanishlar bor, ammo ular mutaxassisni tayyorlash va kamol toptirish uchun zarur shaxsiy xislatlarning mujassamlashuviga yetarli emas: “amaliy psixologik savodxonlik” xislati, “jamoat ishlarida faollik” (r=0,578; p≤0,01) xislati bilan, “mehnatsevarlik va ijodkorlik” xislati “mehribonlik, dilkashlik (r=0,563; p≤0,01) xislati bilan “kamtarlik, samimiylik” xislati (r=0,410; p≤0,01); “mehribonlik, dilkashlik, odamiylik” xislati va “kamtarlik, samimiylik” (r=0,432; p≤0,01) xislati bilan ijobiy bog‘lanishlar hosil qilinganligi kuzatildi (7-ilova). Shaxs xislatlarni ifodalovchi holat bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kamol toptirish uchun yetarli emas. Deyarli yuqoridagi sakkizta sifatning barchasi orasida yetarlicha

ijobiy ichki aloqadorlik aks etgan holatni kasbiy tayyorgarlik jarayoni uchun ijobiy deya olamiz. Aks holda jarayon amalda yetarlicha emasdir.

Tadqiqot natijalarining navbatdagi tahlili o‘qituvchi kasbiy bilimlarining kasbiy tayyorgarlik jarayoni uchun ahamiyatiga bildirilgan munosabatini o‘rganishga bag‘ishlangan (3-jadval). Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligi uchun kasbiy bilimlarning ahamiyatiga bildirilgan munosabatlarning qayd etilishida ham o‘qituvchilar va talabalarning ko‘rsatkichlarida farqli va tafovutli qiymatlar mavjud. Ularning rang va o‘rinlar bo‘yicha qiymatlarida ham o‘ziga xosliklar kuzatildi. Tadqiqotning ahamiyatga ega bo‘lgan jihati shundaki, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasbga xos bilimlarning o‘rnini baholashdagi mezonlarga o‘qituvchi va talabalar tomonidan bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rinlar berilgan: ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish (1-o‘rin); umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va taraqqiyot psixologiyasi, etnopsixologiya asoslarini egallash (2-o‘rin); hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish (3-o‘rin). Demak, o‘qituvchilar va talabalar kasbiy tayyorgarlik jarayoni uchun kasbga xos bilimlarning ahamiyatini bir xil tarzda tasavvur qilar ekanlar. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi tomondan yetkaziladigan ma’lumotlarni o‘zlashtirishda talabalarning xayrixoh ekanliklarini anglatadi.

3-jadval

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligi uchun kasbiy bilimlarining ahamiyatini o‘rganish natijalari

№	Mezonlar	O‘qituvchilar			Talabalar			t
		X	m	o‘rin	X	m	o‘rin	
1.	Ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish	1,33	0,47	1	1,38	0,49	1	-0,467
2.	Umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va taraqqiyot psixologiyasi, etnopsixologiya asoslarini egallash	2,15	1,11	2	2,23	0,70	2	-0,362
3.	Hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish	3,94	1,19	3	3,71	1,29	3	0,844
4.	O‘z fanini o‘qitish metodikasini bilish	4,66	1,17	5	4,62	0,98	4	0,005
5.	Maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish	4,15	1,42	4	5,12	0,80	5	-5,254***
6.	Ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish	5,53	0,68	6	5,12	0,92	5	2,515*

*$p \le 0,05$; *** $p \le 0,001$*

Bundan ko‘rinadiki, talabalar kasbga xos bilimlarni o‘zlashtirish iqtidorlari bilan o‘qituvchining talablariga muvofiq keladi. Ammo ularda kasbga xos bilimlarning uslubiy jihati, faoliyatni tashkil etish hamda inson psixologiyasiga doir bilimlarning ahamiyatini baholashlarida esa bir oz farqlar borligining guvohi bo‘lamiz. O‘z fanini o‘qitish metodikasini bilishni o‘qituvchilar 5-o‘rinda, talabalar 4-o‘rinda; maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilishni o‘qituvchilar 4-o‘rinda, talabalar 5-o‘rinda; ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilishni o‘qituvchilar 6-o‘rinda, talabalar 5-o‘rinda baholaganlar. Bundan

ko‘rinadiki, o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarlik jarayonida bola psixologiyasini chuqurroq bilish, o‘z fanini o‘qitish uchun qo‘l kelishiga yordam berishini tajribalaridan kelib baholagan bo‘lishlari shubhasiz, o‘z navbatida, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish e’tibordan chetda bo‘lmasligini ham o‘z o‘rnida baholaganlar. Talabalarda esa ushbu doiradagi bilimlar bir xil 5-o‘rin bilan baholangan. Natijalarning rang chastotalari bo‘yicha statistik farqlaridan ham ular o‘rtasida tafovutlar ishonchlilik ko‘rsatkichlari bilan ifodalanganligini ko‘rsatmoqda. Maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish (4,15 va 5,12; t=-5,254, p≤0,001); ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish (5,53 va 5,12; t=2,515, p≤0,05). Agar o‘qituvchilar bilan talabalarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida kasbga xos bilimlari qolgan mezonlar orasidagi ahamiyatga molik bo‘lgan munosabatlarida muvofiqlikka erishish uchun ta’lim-tarbiya muhitida “sub’ekt-sub’ekt”, “ustoz-shogird” munosabat tizimini kengroq va ijobiyroq yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Tahlilni davom ettirgan holda, kasbga xos bilimlarga bildirilgan munosabatlardagi korrelyatsion bog‘liqlikka murojaat etaylik (8-ilova). Ushbu tahlilda ham shaxs xislatlari korrelyatsion munosabatlardagi singari o‘qituvchi bilan talabalarning kasbga xos bilimlari, kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyatiga bildirilgan munosabatlarida ham mezonlar o‘rtasida ichki aloqadorliklar keng qamrovli ijobiy bog‘lanishlarni aks ettirmagan, ammo ijobiy va salbiy qiymatdagi korrelyatsion koeffitsientlar yetarlicha aks etgan. O‘qituvchilarning “ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish” mezoniga bildirgan munosabatlari, “o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilish” mezoni (r=0,467; p≤0,01) va “ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish” mezoni (r=0,498; p≤0,01) bilan to‘g‘ri ijobiy bog‘lanishga; “hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish” mezoni esa “maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish” mezoni (r=0,449; p≤0,01); “o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilish” mezoni bilan, “maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish” (r=0,577; p≤0,01) va “ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish” mezoni (r=0,573; p≤0,01); “maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish” mezoni esa “hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish” mezoni (r=0,708; p≤0,01), “maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta’sir etishning samarali usullarini bilish” mezoni (r=0,582; p≤0,01), “ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish” mezoni (r=0,665; p≤0,01) bilan ijobiy bog‘lanish hosil qilganligi tahsinga sazovor. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va talabalarning kasbga xos bilimlarga bildirgan munosabatlari orasida salbiy korrelyatsion bog‘liqliklar ham kuzatildi. Masalan, “ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish” mezoni bilan “umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va taraqqiyot psixologiyasi, etnopsixologiya asoslarini egallash” mezoni (r=-0,547; p≤0,01); “umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va taraqqiyot psixologiyasi, etnopsixologiya asoslarini egallash” mezoni bilan “hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish” (r=-0,443; p≤0,01) hamda “o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilish” mezoni (r=-0,505; p≤0,01) va boshqa bir qator holatlar shular jumlasidandir. Albatta kasbga xos bilimlarning o‘rni doimo e’tirof etilsa-da, ularning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyati uchun ahamiyati ijobiy munosabat tarzida aks etishi maqsadga muvofiqdir. Balki natijalarning xususiy holati boshqa ma’lumotlar olishimizga imkon berar. Tadqiqot natijalariga nazar solinarkan, o‘qituvchilarning kasbga xos bilimlarni bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati bo‘yicha munosabatlarini ifodalagan korrelyatsiya koeffitsientlari bu borada anchagina ishlar qilish lozimligidan dalolat bermoqda .

O‘qituvchilarning munosabatlaridagi ijobiy ichki aloqadorlikdan ko‘ra salbiy munosabatlar ancha ko‘proq kuzatilmoqda: “ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish”, “umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya va taraqqiyot psixologiyasi,

etnopsixologiya asoslarini egallash" mezoni esa "hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish" (r=-0,371; p≤0,01) va "maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari va psixologik xususiyatlarini tushunish, ularning shaxsiga ta'sir etishning samarali usullarini bilish" (r=-0,331; p≤0,01) mezonlari o'rtasidagi bog'lanishlar yaqqol misoldir. Agar bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida yuqoridagi nuqsonli holatlar bartaraf etilsa, pedagoglar faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilishi shubhasiz.

Talabalarning bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi uchun kasbiy bilimlarning ahamiyatli ko'rsatkichlari natijalarini ham yetarlicha ijobiy, deb atay olmaymiz. Ularning boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga doir bilimlarning o'rnini ustozlariga mos tarzda bildirganlar desak yanglishilmaydi. Talabalarning munosabatlarida ijobiy korrelyatsion koeffitsientlar bor, ammo kamdir: "ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini chuqur anglash, uning maqsad va vazifalarini tushunish" mezoni bilan "o'z fanini o'qitish metodikasini bilish" (r=0,403; p≤0,01); "hozirgi zamon pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini bilish" mezoni bilan "ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmun-mohiyatini bilish" (r=0,412; p≤0,01) mezonlari ijobiy korrelyatsion koeffitsientga ega bo'ldi. Qolgan ahamiyatli koeffitsientlar esa salbiydir. Bu esa afsuslanarli hol hisoblanadi. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarga kasbiy tayyorgarlik jarayonida, zamonaviy pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, shaxsiy va kasbiy xislatlar mujassamlashtirilsa, kelajakda o'qituvchi undan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olishi mumkin. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida kasbga xos bilimlarning ichki bog'liqligini yetarlicha ta'minlashga e'tibor qaratish lozimdir.

Xulosa. Hozirgi zamon ta'limi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va uning shaxsiy hamda kasbiy kamolotiga (psixologiyasiga) yuksak talablar qo'yadi: hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatga moslashuvining samarali kechishi zamonaviy o'qitish metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal egallaganligi, amaldagi ta'lim va tarbiya tamoyillariga qat'iy rioya qilishi, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, shaxsiy hamda kasbiy xislatlarni o'zida mujassamlashtirganligi va undan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olishi bilan belgilanadi. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi jarayonida, o'qituvchi egallashi zarur bo'lgan psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta'sirlarning majmui mazkur etnik jamoaga xos axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va ishlab chiqarish mehnati me'yorlarining evolyusiyasiga mos tushishi hamda tarbiyalanuvchilarning mazkur psixologik-pedagogik ta'sirlarga moslasha olish imkoniyatlarini ham e'tiborga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kachalova L.P. Professionalnaya refleksiya kak pedagogicheskiy fenomen. // Aktualnыe problemы sovremennogo obrazovaniya. 2005. - № 3. - S. 90-97.

2. Muratalieva N. X. Lichnostnaya orientatsiya budushchix uchiteley nachalnыx klassov. Diss. ...kand. psixol. nauk- T.: 2005.-145 s.

3. Maksadova, M. S. (2018). Professionalno-psixologicheskaya adaptatsiya molodogo pedagoga. Jurnal nauchnыx publikatsiy aspirantov i doktorantov, (5), 43-44.

4. Maksadova, M. (2025). INTEGRATION OF YOUNG TEACHERS INTO THE PROFESSIONAL ENVIRONMENT. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1117-1121.

5. Rasulov A.I. O'qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o'quvchilar bilan o'zaro munosabat darajalari. Psix. fanl. nomz. ...dissertatsiyasi.- T.: 2001-184 b.

6. Raximova I. I. i dr. Razvitie inklyuzivnogo obrazovaniya v sovremennom mire // Internauka. – 2019. – №. 3-1. – S. 74-75.

Muminjonova Feruzaxon Xabibullo qizi
ADPI tayanch doktoranti

YETUKLIK DAVRI - PSIXOLOGIK FAROVONLIK OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yetuklik (katta yoshdagi shaxs) davrida psixologik farovonlikning shakllanish omillari, unga ta'sir qiluvchi individual va ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil etilgan. Tadqiqotda O'zbekistonning Andijon viloyatida o'tkazilgan empirik natijalar asosida yetuklik davri shaxslarining psixologik holati baholangan. Psixologik farovonlik mezonlari, ularni aniqlash metodikasi va natijalar tahlili bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *yetuklik davri, psixologik farovonlik, stress, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, o'zini anglash, psixometrik baholash.*

THE PERIOD OF MATURITY AS A FACTOR OF PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

Annotation. *This article analyzes the factors contributing to psychological well-being during adulthood, as well as the individual and socio-psychological determinants affecting it. The study evaluates the psychological state of adults based on empirical findings obtained in the Andijan region of Uzbekistan. The criteria of psychological well-being, the methods used to identify them, and the analysis of the results are presented.*

Keywords: *adulthood, psychological well-being, stress, social support, self-awareness, psychometric assessment.*

ПЕРИОД ЗРЕЛОСТИ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

Аннотация. *В данной статье проанализированы факторы формирования психологического благополучия в период зрелости, а также индивидуальные и социально-психологические детерминанты, влияющие на него. Исследование включает оценку психологического состояния взрослых на основе эмпирических данных, полученных в Андижанской области Узбекистана. Описаны критерии психологического благополучия, методы их выявления и анализ результатов.*

Ключевые слова: *зрелый возраст, психологическое благополучие, стресс, социальная поддержка, самопонимание, психометрическая оценка.*

Bugungi kunda jamiyatda inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va farovon hayotni ta'minlash dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda. Xususan, shaxsning psixologik farovonlik holati uning hayotdan mamnunligi, o'z-o'zini anglay olishi va ijtimoiy moslashuv darajasi bilan bevosita bog'liq. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida inson qadri va ruhiy holati birinchi o'ringa chiqmoqda: ***"Yangi O'zbekistonning asosiy boyligi – bu o'z hayoti va kelajagiga ishonch bilan qaraydigan, barkamol, erkin fikrlovchi insondir"***[1.].

Adabiyotlar tahlili bo'yicha jahonda olim K. Ryff (1989) [2.1069-b.] psixologik farovonlikni "avtonomiya, shaxsiy o'sish, hayotning ma'noliligi" kabi mezonlar orqali o'lchashni taklif etadi. M. Seligman (2011) [3.81-b.] "PERMA model" asosida ijobiy psixologiya yondashuvini rivojlantiradi. Huppert & So (2013) [4.837-b.] farovonlikni "ijodkorlik, bardoshlilik, optimizm" orqali baholaydi. MDH olimlaridan T.D. Martsinkovskaya (2015) [5.69-b.] yetuklik yoshida ijtimoiy o'zlikni anglash muammolarini tahlil qiladi. O.A. Karvasarsky (2010) [6.98-b.] farovonlik darajasi va nevrotik kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. O'zbekiston olimlaridan G. Saidova (2020) [8.98-b.] tomonidan psixologik farovonlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. B. To'raev (2018) [7.301-b.] shaxsiy qadriyatlar va o'zini baholash orqali farovonlikni baholashni taklif etadi.

Metodika va natijalar: Tadqiqotimiz Andijon shahridagi turli sohalarda ishlovchi 25–40 yoshli fuqarolar orasida o‘tkazildi. Umumiy respondentlar soni – 120 nafar (60 erkak, 60 ayol). Ishlatilgan metodikalar: K. Ryffning “Psixologik farovonlik shkala”si (adaptatsiyalangan versiyasi); S.R. Maddining “Hayotga muvozanatli munosabat” so‘rovnomasi; Shaxsiy stressga bardoshlilik darajasini baholash testi.

Quyidagi jadvalda respondentlarning psixologik farovonlik darajalari (o‘rtacha ball ko‘rinishida) keltirilgan:

Psixologik komponent	Erkaklar (n=60)	Ayollar (n=60)
Avtonomiya	3.7	4.1
Shaxsiy o‘sish	3.5	4.0
Ijtimoiy aloqalar sifati	3.2	3.9
Hayotdan ma’no topish	3.6	3.8
Stressga bardoshlilik	3.1	3.6
Umumiy psixologik farovonlik indeksi	3.52	3.90

Tahlil: Ayollar guruhida psixologik farovonlik ko‘rsatkichlari biroz yuqoriroq bo‘lib, bu ularning ijtimoiy aloqalarga ochiqligi, o‘zini anglashga moyilligi bilan izohlanadi. Erkaklar guruhida esa avtonomiya darajasi nisbatan yuqori.

Muhokama. Yetuklik davrida psixologik farovonlik shaxsning hayotiy tajribasi, ijtimoiy roli, hissiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari xalqaro adabiyotlar bilan uyg‘un keladi, xususan, Ryff va Seligman modellarida ta’kidlangan avtonomiya, hayot ma’nosi va shaxsiy o‘sish mezonlari Andijon namunalarida ham kuzatildi. Shuningdek, ayollar guruhidagi yuqori ko‘rsatkichlar Martsinkovskayaning “ijtimoiy o‘zlikning ayollarga xos shakllari” nazariyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yetuklik davridagi shaxslarning psixologik farovonligi bir qator ichki va tashqi omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Avvalo, bu farovonlik holati shaxsning ichki salohiyati, ya’ni o‘zini anglash darajasi, o‘z hayotidan ma’no topish qobiliyati va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasiga bevosita ta’sir etadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit, ya’ni oilaviy iliqlik, do‘stlar bilan ishonchli munosabatlar, ish joyidagi ijobiy psixologik atmosfera ham farovonlikning mustahkam asoslaridan biridir. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar orasida ijtimoiy aloqalari kuchli, hayotiy maqsadlari aniq bo‘lgan shaxslarning psixologik farovonlik indeksi yuqori bo‘lgan.

Shu nuqtai nazardan, yetuklik davrini nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy pishganlik bosqichi sifatida baholash lozim. Bu bosqichda shaxs o‘zining ijtimoiy roli, hayotiy qadriyatlari va kasbiy o‘zini anglash yo‘lida barqarorlik va muvozanatga erishishga intiladi.

Tavsiyalar:

1. Stressga bardoshlilikni oshiruvchi psixologik treninglarni ish joylarida joriy etish:

Zamonaviy ish muhitida psixologik bosim, stress, charchoq va hissiy zo‘riqish kabi omillar odamlarda farovonlikni pasaytiruvchi asosiy xavf omillaridir. Shuning uchun:

- Korxona, tashkilot va muassasalarda emotsional barqarorlik, stressni boshqarish, burn-out oldini olish mavzularida trening va psixologik seminarlar tashkil etilishi kerak.
- Ushbu mashg‘ulotlar mutaxassis psixologlar tomonidan olib borilishi va xodimlarning ehtiyojlari asosida modullashtirilgan bo‘lishi zarur.

2. Ayollar va erkaklar uchun differensial yondashuv asosida psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish:

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar va ayollar hayotdagi stressga, muammolarga va ijtimoiy vazifalarga turlicha yondashadilar. Shu bois:

• Gender xususiyatlariga mos psixologik maslahat berish tizimi yaratilishi kerak.

• Ayollar uchun — hissiy barqarorlik, oila va kasb muvozanatini saqlash, o‘zini qadrlash mavzulariga urg‘u berilsa;

• Erkaklar uchun — kasbiy bosimga bardoshlilik, ijtimoiy mas’uliyat, emotsiyalarni ifodalashga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

3. Psixologik farovonlik indeksini baholovchi metodikalarni ta’lim va mehnat muassasalarida joriy etish:

• Maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarida shaxsning psixologik holatini aniqlab borish uchun farovonlik indekslari, stress baholash vositalari, refleksiya testlari joriy etilishi lozim.

• Ushbu metodikalar individual yondashuv imkonini beradi, ya’ni har bir shaxs o‘z psixologik salomatligi holatini monitoring qilib borish imkoniga ega bo‘ladi.

• Davlat organlari tomonidan tasdiqlangan psixologik sog‘lomlashtirish dasturlari ishlab chiqilib, barcha tarmoqlarda amaliyotga tatbiq etilishi tavsiya etiladi.

Yetuklik davri inson uchun hayotiy mas’uliyat, kasbiy barqarorlik va o‘z-o‘zini anglash bosqichidir. Ushbu davrda psixologik farovonlikni saqlash va qo‘llab-quvvatlash nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy barqarorlik omili hisoblanadi. Shu bois ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy-psixologik xizmat sifatini oshirish va davlat siyosatida inson farovonligiga alohida e’tibor qaratish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Ryff, C.D. (1989). Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being. Journal of Personality and Social Psychology, 57(6), 1069–1081.
3. Seligman, M. (2011). Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. Free Press.
4. Huppert, F. A., & So, T. T. C. (2013). Flourishing across Europe: Application of a new conceptual framework for defining well-being. Social Indicators Research, 110(3), 837–861.
5. Martsinkovskaya, T.D. (2015). Psixologiya razvitiya. Moskva.
6. Karvasarsky, O.A. (2010). Klinicheskaya psixologiya. SPb.
7. To‘raev, B. (2018). Shaxsiy farovonlik va qadriyatlar uyg‘unligi. Toshkent.
8. Saidova, G. (2020). Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Psixologiya fanlari jurnali.
9. APA, M. Abdulmadjidova (2024). Ilk o‘spirinlik davridagi o ‘quvchilarni psixotiplariga qarab kasbga yo ‘naltirish ishlarini olib borish nazariy va amaliy jihatlari. Inter education & global study,(10), 412-418.
10. Abdulmajidova, A. M. (2024). O'quvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bosqichlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(5), 149-151.

Uzoqova Madina Chori qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy unversiteti
ijtimoiy psixologiya yo'nalishi magistri

OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNI TADQIQ ETISHNING ZARURATI

Annotatsiya. *Oilaviy hayotning psixologik asoslarini chuqur o'rganish bugungi ijtimoiy barqarorlik sharoitida dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Oila ichidagi rollar taqsimoti, emotsional ehtiyojlarning ifodalanishi, shaxslararo ziddiyatlarning psixologik ildizlari, shuningdek, gender stereotiplarining o'zgaruvi psixologik barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada nikoh munosabatlarining murakkab ko'p bosqichli tuzilmasi, kommunikativ uyg'unlik va psixologik moslashuv kabi omillar konseptual yondashuvlar doirasida tahlil etiladi. Ijtimoiy institut sifatida oilaning zamonaviy transformatsiyasi, avlodlararo munosabatlar dinamikasi hamda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi tafovutlar asosiy muammoli sohalardan biri sifatida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, oilaviy inqirozlar, rollarning buzilishi va ehtiyojlarning qondirilmasligi oiladagi barqarorlikka salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *oila psixologiyasi, nikoh, psixologik barqarorlik, rollar tizimi, emotsional ehtiyojlar, kommunikativ uyg'unlik.*

НЕОБХОДИМОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА УСТОЙЧИВОСТЬ СЕМЬИ

Аннотация. *Глубокое изучение психологических основ семейной жизни представляет собой актуальное направление в условиях современной социальной нестабильности. Распределение ролей в семье, выражение эмоциональных потребностей, межличностные конфликты, а также трансформация гендерных стереотипов рассматриваются как ключевые индикаторы психологической устойчивости. В статье рассматривается многоступенчатая структура супружеских отношений, особенности коммуникативной гармонии и психологической адаптации в контексте теоретических подходов. Особое внимание уделяется трансформации института семьи как социальной системы, изменениям в межпоколенческих взаимодействиях и разнице между индивидуальными и общественными ожиданиями. Также подчёркивается влияние семейных кризисов, нарушения ролевых функций и неудовлетворённых потребностей на общее эмоциональное состояние и стабильность семейной системы.*

Ключевые слова: *психология семьи, брак, психологическая устойчивость, система ролей, эмоциональные потребности, коммуникативная гармония.*

THE NECESSITY OF STUDYING PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING FAMILY STABILITY

Abstract. *A comprehensive understanding of the psychological foundations of family life is of great relevance in the context of modern social dynamics. Role distribution within the family, the expression of emotional needs, interpersonal tensions, and the evolution of gender roles are seen as core indicators of psychological stability. This article explores the multi-layered nature of marital relationships, including communication harmony and psychological adjustment, through conceptual and theoretical frameworks. It also examines the ongoing transformation of the family as a social institution, the dynamics of intergenerational interactions, and the gap between personal desires and societal expectations. Family crises, role disruptions, and unmet psychological needs are highlighted as critical factors that undermine emotional balance and the structural integrity of the family unit.*

Keywords: *family psychology, marriage, psychological stability, role system, emotional needs, communication harmony.*

Kirish. Oilaviy munosabatlar azal-azaldan jamiyatning muhim muammolaridan biri bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Shaxsda oilaviy munosabatlarning shakllanishi mavzusi ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida XX asrning boshlarida psixologiya fanida dolzarb muammo sifatida qaraldi va ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tahlil qilinib, hozirgi kungacha mamlakatimiz va jahon hamda xorij mamlakatlari ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasida turli psixologik ta’limot va konsepsiyalar doirasida o‘rganib kelinmoqda. Nikoh munosabatlari sohasi, bir tomondan, oilaning kichik guruh sifatida asosiy qurilishi uchun zarur bo‘lgan oilaviy xatti-harakatlarning turlaridan biri sifatida talqin etilsa, ikkinchi tarafdan, esa, oila kichik mikro guruh bo‘lishi bilan birga jamiyatga “mahsulot” yetkazib beruvchi mexanizmning tarkibi bo‘lib xizmat qiladi. Fenomenologik yondashuvga muvofiq, umumiy nazariy ko‘rsatmalar muammoli sohaning instrumental tuzilishining tabiatini oldindan belgilaydi va agar insoniy aloqaning ichki ma’nosi hisobga olinmasa, uni sezilarli darajada toraytirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Oila va nikoh — butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan eng qadimiy ijtimoiy institutlar bo‘lib, har bir shaxs hayotida bevosita yoki bilvosita tarzda ular bilan aloqada bo‘ladi. Insoniyat tarixining turli davrlarida bu institutlar mutafakkirlar, faylasuflar, ijtimoiy va psixologik soha olimlarining doimiy e’tibor markazida bo‘lgan. Ularning qiziqishi nafaqat oilaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va davlat bilan aloqalarini tushunishga, balki uning insoniyatni davom ettirish, shaxsning eng chuqur psixologik ehtiyojlarini qondirishdagi hayotiy funksiyasini anglashga qaratilgan.

Shunday qilib, oila nafaqat ijtimoiy tizimning elementar birligi, balki shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy psixologik institut sifatida o‘rganilishi lozim bo‘lgan murakkab, ko‘p qatlamli tizimdir. Zamonaviy yondashuvlarda oilaning funksionalligi, rollar taqsimoti, emotsional iqlimi va tarbiya uslublari chuqur psixologik tahlil doirasida o‘rganilishi, bu boradagi ilmiy-amaliy izlanishlar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Oila muammolarini nazariy va empirik jihatdan o‘rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar, asosan, uning tizimli ijtimoiy birlik sifatida qanday faoliyat yuritishini va ushbu faoliyatning samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan. Bunda oila institutining ijtimoiy ehtiyojlar va zamonaviy hayot talablari bilan qanchalik mos kelishini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘rganilayotgan muammolar ichida birinchi navbatda quyidagi tendensiyalar ajralib turadi: tug‘ilish darajasining pasayishi, nikoh munosabatlarining beqarorligi, qonuniy nikoh institutining obro‘sining susayishi va rasmiy nikohlar sonining kamayishi. Ushbu holatlar oilaning ijtimoiy-iqtisodiy va tarbiyaviy salohiyatiga bevosita ta’sir qilmoqda.

Shuningdek, gender munosabatlarining transformatsiyasi, jinsiy hayotga nisbatan yondashuvlarning o‘zgarishi, avlodlararo kommunikatsiya shakllarining yangilanishi, nikohdagi an’anaviy gender stereotiplarining qayta ko‘rib chiqilishi ham zamonaviy oilaviy psixologiyaning muhim tahlil yo‘nalishlariga aylangan.

Bundan tashqari, oila institutining o‘zi ham muayyan transformatsion bosqichlarni boshdan kechirmoqda. Oilaning funksional tuzilmasi o‘zgarib, uning ijtimoiy institut sifatidagi shakllanishi va jamiyatdagi o‘rniga doir yondashuvlar yangilanmoqda. Bu jarayonlar oilaviy munosabatlardagi dinamik o‘zgarishlarda, shaxsiy va jamoaviy rollarning qayta taqsimlanishida, shuningdek, yosh oilalarning ijtimoiy imkoniyatlari va ular duch kelayotgan ekzogam (tashqi) va endogam (ichki) omillarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shu tariqa, zamonaviy oila nazariyasi oilaning tizim sifatidagi murakkabligi, ijtimoiy institut sifatida barqarorlik va moslashuvchanlik o‘rtasidagi muvozanat, gender va avlodlararo munosabatlar hamda funksional tuzilmaning o‘zgaruvchan tabiati kabi ko‘plab o‘zaro bog‘liq omillarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bu esa oilaning barqaror rivojlanishi uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ammo tadqiqot uchun g‘oyalar ko‘pincha yetishmaydi. Shuning uchun bugungi kunda oila va nikoh haqidagi sotsiologik fikrlash tarixiga, uning muhim va mazmunli mazmuniga, evristik

salohiyatiga murojaat qilish dolzarb ko‘rinadi, chunki bizning o‘tmishdoshlarimiz ijodida ko‘plab zamonaviy uslubiy va empirik muammolarni hal qilish, tushunish uchun maslahatlarni topish mumkin. Shundan kelib chiqib, tarixiy o‘tmish, shaxslar, oilani o‘rganishga ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy jamiyatda millatlararo nikohlar soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, so‘nggi yillarda xorijliklar bilan nikohlar soni bir necha marta ko‘paygan mamlakatlarda sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi jamiyatda millatlararo nikoh ko‘pincha o‘zaro simpatiya va ishqiy munosabatlarga emas, balki chet ellik (boshqa millat vakili) bilan turmush qurish orqali olinishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir foyda asosida amalga oshiriladi.

Nikoh va oilani o‘rganishning ko‘plab ilmiy maktablari va yo‘nalishlari, fikrlar plyuralizmi, oilani o‘rganish nazariyasi va metodologiyasini tushunishning xilma-xilligi mavjud. Gnoseologik usullar oila va nikohni ob’ekt sifatida o‘rganish darajalari, ularning vakillarining dunyoqarashi, olimlar va mutafakkirlarning g‘oyaviy pozitsiyalari bilan farqlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ilmiy bilimlarni tavsiflashda u yoki bu hodisa, jarayonning “nazariya”, “konsepsiya”, “paradigma”, “yondashuv” tushunchalari bilan uchrashamiz va bugungi kunda “diskurs” tushunchasiga tez-tez duch kelamiz. Ular orasida munosabatlar va farqlar mavjud. Ushbu atamalar bizning ishimizda qanday ishlatilishini ko‘rsatamiz. Nazariya - bu ta’limot, g‘oyalar tizimi, umumlashtirilgan qoidalar, xulosalar to‘plami. Tushuncha - hodisani u yoki bu tushunish, qarashlar tizimi; avval to‘liq bo‘lmagan nazariya sifatida tushunilgan “konsepsiya” atamasi hozirda qandaydir mavzuni tushunishning ma’lum bir usuli sifatida talqin qilinmoqda, bu atama tadqiqot faoliyatidagi yetakchi fikrni, konstruktiv tamoyilni ham anglatishi mumkin. Ijtimoiy-gumanitar ma’noda “diskurs” nutq tizimining ijtimoiy shartli tashkil etilishi, shuningdek, voqelik ma’lum davrlarda tasniflanadigan va ifodalanadigan muayyan tamoyillardir.

Tahlil va natijalar. Oilaviy inqirozlar yangi muammolarning paydo bo‘lishi va hal qilinishiga olib keladi, misol uchun, rollarning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar va oila ichidagi o‘zaro ta’sir va nizolarni hal qilishning yangi usullarini ishlab chiqish va boshqalar. Er-xotin munosabatlaridagi dinamikani psixologik tarafdan tadqiq etish oiladagi bo‘ladigan turli inqirozlar davrida shaxsiy xulq-atvor motivlarini aniqlash hamda oilaviy nizolarning destruktiv ko‘rinishga olib kelishdagi psixoprevensiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy hayot siklining mavjud davrlarini ko‘rib chiqish, ularning barchasi oila tarkibidagi bolalarning o‘rnini o‘zgartirish mezoniga va turmush o‘rtoqlar tomonidan tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishga asoslangan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Oilaning keyingi rivojlanishining o‘ziga xosligi ham shuni ko‘rsatadiki, hissiy munosabatlardagi nizolar bolalarni tarbiyalashdagi nizolarni siqib chiqaradi. Shunday qilib, M.Jeymsning fikriga ko‘ra, nikohning 5-10 yillarida turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi eng ko‘p kelishmovchiliklar bolalarni tarbiyalashga bo‘lgan turli xil munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Oila rivojlanishining keyingi bosqichlarida uning beqarorligining o‘ziga xos sabablari yana paydo bo‘ladi, ular orasida nikoh munosabatlarini qayta tiklash mumkin emas degan g‘oya muhim o‘rinni egallaydi. V.A.Sisenkoning ta’kidlashicha, 25 yillik nikohdan keyin ajralishlar soni ko‘payadi, bunga erning addiktiv xulq-atvorga moyil bo‘lib qolishi sabab bo‘ladi (ilgari ichmagan erkakning 50 yoshida ichishni boshlashi juda kamdan-kam hollarda bo‘lishi aniq) yoki boshqa oilaning haqiqiy yaratilishi (shuningdek, boshqa oila sifatida tavsiflangan munosabatlar avvalgi nikoh qonuniy ravishda bekor qilinganidan ancha oldin paydo bo‘lishi aniq) kabilar.

Juftliklarning oilada rollar taqsimoti metodikasining tahlili bo‘yicha bola tarbiyasi shkalasi bo‘yicha ($Z=3,136$; $p<0,01$), oiladagi emotsional muhit shkalasi bo‘yicha ($Z=2,380$; $p<0,01$), oilaning moddiy ta’minlanishi shkalasi bo‘yicha ($Z=2,563$; $p<0,01$), ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish shkalasi bo‘yicha ($Z=2,599$; $p<0,01$), uy sohibi va sohibasi shkalasi bo‘yicha ($Z=2,071$; $p<0,01$), jinsiy sheriklik shkalasi bo‘yicha ($Z=2,532$; $p<0,01$), faol dam olishga orientatsiya shkalasi bo‘yicha ($Z=3,760$; $p<0,01$), oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish shkalasi ($Z=2,734$; $p<0,01$) ko‘rinish oldi. Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofik noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

Y.Y.Aleshina, L.Y.Gozman, Y.M.Dubovskayaning "Oilada rollar taqsimoti" metodikasining tavsiflovchi statistik ko'rinishi (N=220)

Shkalalar	Min	Max	M	Std. Og'ish	Z	p
Bola tarbiyasi	1,00	4,00	3,52	,88269	3,136	0,000**
Oiladagi emotsional muhit	1,00	4,00	3,68	,87304	2,380	0,000**
Oilaning moddiy ta'minlanishi	1,00	4,00	3,70	,82943	2,563	0,000**
Ko'ngil ochishlarni tashkil qilish	1,00	4,00	2,57	,91639	2,599	0,000**
Uy sohibi va sohibasi	1,00	4,00	2,71	,86989	2,071	0,000**
Jinsiy sheriklik	1,00	4,00	3,12	,82510	2,532	0,000**
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	1,00	4,00	2,74	,80687	2,734	0,000**

**- p<0,01

Oilada rollar taqsimoti metodikasining ko'rsatkichlari tahliliga binoan, oiladagi emotsional muhit bo'yicha (3,68) o'rtacha qiymat baland ko'rinish olgan bo'lib, bu bizga juftliklar turmush dinamikasida oiladagi emotsional muhit oila barqarorligini rollar teng taqsimlanishi belgilab beradigan asosiy indikativ belgi bo'lishi mumkinligidan darak beradi. Shuningdek, oilaning moddiy ta'minlanishi bo'yicha ham (3,70) erkak va ayol o'rtasida rollar to'g'ri taqsimlanishi oiladagi "gegemonlik" nuqtayi nazaridan hokimiyatni o'z qo'liga olishda erkakka katta ustunlik beradi. Natijada, oilada iqtisodiy funksiya to'g'ri ishlaydi, yetishmovchilik hissi sezilmaydi hamda oilada barqaror iqtisodiy muhit hukm surishiga asos bo'ladi.

Ko'ngil ochishlarni tashkil etish jihatidan nisbatan o'rtacha qiymat ko'rsatkichining qayd etilganini (2,57) biz turmush yillari davomida etnik xususiyatlarimizdan kelib chiqib turmush o'rtoqlarning o'zini emas, balki farzandining yorqin istiqbolini o'ylagani evaziga ba'zi holatlarda madaniy dam olish, ko'ngilochar maskanlarga nisbatan kam tashrif buyurish, faol xordiqqa e'tiborni kam qaratish holatlari tez-tez kuzatilishi bilan ham tushuntirishimiz mumkin. Ushbu jihatdan oiladagi rollar taqsimlanishida tenglik qayd etilib, bu ba'zan er, ba'zan ayol tomonidan ushbu rolni o'z bo'yniga olish ehtimoli balandligini ko'rsatadi.

Ayol turmush o'rtoqlarda oilada rollar taqsimotining turmush staji bo'yicha ko'rinishi (N=110)

Shkalalar	O'rta ranglar			Statistik ko'rsatkich	
	1-5 yil (n=35)	6-10 yil (n=45)	11-15 yil (n=30)	H	p
Bola tarbiyasi	47,88	47,21	106,70	0,737	0,692
Oiladagi emotsional muhit	58,18	66,27	125,84	12,057	0,002**
Oilaning moddiy ta'minlanishi	60,06	63,99	126,32	11,265	0,004**
Ko'ngil ochishlarni tashkil qilish	55,04	67,71	107,54	11,145	0,004**
Uy sohibi va sohibasi	49,00	67,93	8,80	4,502	0,105
Jinsiy sheriklik	64,49	46,60	104,22	4,186	0,123
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	67,60	58,33	94,64	10,283	0,006**

**- p<0,01

Ayol turmush o'rtoqlarda oilada rollar taqsimotining turmush staji bo'yicha tahlilini amalga oshirganimizda deyarli barcha ko'rsatkichlarda ishonchli farqlar qayd etilgani ma'lum bo'ladi. Misol uchun, oiladagi emotsional muhit (H=12,057; p<0,05), oilaning moddiy ta'minlanishi (H=11,265;

p<0,01), ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish (H=11,145; p<0,05), oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish (H=10,283; p<0,01).

Oiladagi emotsional muhit turmushning 6-10 yilligida ayollar uchun balandroq ko‘rinish olganini ko‘p holatlarda farzandlari, turmush o‘rtog‘i bilan ahillikni tashkil qilishga urinish, o‘zaro empatik muhitni yaratish ehtiyojining balandligi bilan ham tushuntirishimiz mumkin. Oilaning moddiy ta’minlanishi ham asosan 6-10 yillik turmush stajiga ega oila bekalarida yuqori ko‘rinish olgan bo‘lib, turmush o‘rtog‘iga ko‘mak berish yoki oilaviy byudjetni to‘g‘ri taqsimlash maqsadida ham ushbu rolli pozitsiyani egallashda faolliklar kuzatilar ekan.

Ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish roli 11-15 yillik turmushi mavjud bekalarda past ko‘rsatkich olganini ko‘pincha ularning jilovni ulg‘ayib qolgan farzandlariga bergani, ko‘proq e’tiborni farzandlarini “uyli-joyli” qilish uchun motivatsiya balandlashgani bilan ham tavsiflash mumkin. Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirishda esa aksincha, turmush staji 11-15 yil bo‘lgan ayollarda ustunliklar qayd etilgan bo‘lib, erni, farzandlarni to‘g‘ri yo‘lga solish, axloqiy jihatdan barqaror oilaviy muhitni shakllantirish rolini anglagan holda o‘z zimmalariga olishlari ko‘proq vaziyat, erning ro‘zg‘or tashvishlari bilan to‘la bandligi natijasi sifatida baholash mumkin.

Metodikadan o‘rin olgan uy sohibi va sohibasi (H=4,502; p>0,05), jinsiy sheriklik (H=4,186; p>0,05), bola tarbiyasi (H=0,737; p>0,05) kabi ko‘rsatkichlarda ahamiyatli farqlar qayd etilmaganini ko‘pincha biz ayollar uchun turmush yilining ortishidan qat’iy nazar mazkur jihatlar birdek muhimligi, er bilan ushbu rollar doirasida tenglikni namoyish etish holatlari kuzatilishi bilan tushuntirish mumkin. Turmush stajining balandlashib borishi bilan ayollarda uy bekaligini to‘liq, anglangan holatda his qilish va ish tutish malakasi ortib boradi, natijada oiladagi maishiy, xo‘jalik kabi funksiyalarda ularning yaqqol ustunliklari kuzatilib borishi mumkin.

Erkak turmush o‘rtoqlarda oilada rollar taqsimotining turmush staji bo‘yicha ko‘rinishi (N=110)

Shkalalar	O‘rta ranglar			Statistik ko‘rsatkich	
	1-5 yil (n=35)	6-10 yil (n=45)	11-15 yil (n=30)	H	p
Bola tarbiyasi	47,57	39,09	65,63	4,861	0,050*
Oiladagi emotsional muhit	58,42	47,09	45,96	1,261	0,532
Oilaning moddiy ta’minlanishi	64,66	90,15	76,90	14,313	0,000**
Ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish	56,42	37,30	58,42	3,667	0,160
Uy sohibi va sohibasi	55,30	42,27	54,29	1,425	0,490
Jinsiy sheriklik	51,21	38,42	62,60	3,908	0,142
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	52,78	40,30	58,98	2,430	0,297

**- p<0,01

Erkak turmush o‘rtoqlarda oilada rollar taqsimlanishining turmush staji bo‘yicha tahlilini amalga oshirganimizda quyidagi ko‘rsatkichlarda ishonchli farqlar qayd etilgani ma’lum bo‘ladi. Misol uchun, bola tarbiyasi (H=4,861; p<0,05), oilaning moddiy ta’minlanishi (H=14,313; p<0,01) kabi ko‘rsatkichlarda 11-15 yillik oilaviy hayot ta’mini totgan erkaklarda yaqqol ustunliklar kuzatildi.

Oilaning moddiy ta’minlanishi erkaklarning oilaviy hayot tarzida dinamik shaklda namoyon bo‘lishi nazdimizda zamonaviy erkak obrazi uchun xos bo‘lgan holat bo‘lib, “er-xotin” qo‘sh hokiz maqoliga monand ravishda turmushning dastlabki yilida moddiy ta’minlanish erkakning zimmasida bo‘lishiga qaramasdan ayoli tarafidan ham ozroq ko‘mak berilishi tabiiy, turmushning 6-10 yilligida moddiy ta’minlash mas’uliyati yanada ortib, tug‘iladigan farzandlar, oila kengayishi hisobiga ham bu rol erkakda yanada mustahkamlanadi.

Nikoh ittifoqini yaratish jarayonida har ikkala turmush o‘rtog‘i uchun ham bir xil bo‘lishi mumkin bo‘lmagan ehtiyojlar allaqachon aniqlangan. “Ko‘pincha bu ehtiyojlar bir-biriga zid keladi. Oilaviy ittifoqda turmush o‘rtoqlarning jinsiy, ma’naviy va moliyaviy ehtiyojlari qondiriladi. Ular

orasida “men-konsepsiyasi” ning hissiy tuzilishi va ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiy va psixologik ehtiyojlar alohida rol o‘ynaydi. Nikoh munosabatlaridan qoniqish ko‘p jihatdan har bir turmush o‘rtog‘ining o‘yin-kulgi, umumiy hayot faoliyatidan zavqlanish hissiyotlarini his qilish darajasiga bog‘liq. Agar turmush o‘rtoqlarning ma’lum ehtiyojlari qondirilmasa yoki ularning minimal soni qondirilsa, insonning hayot tizimida turli xil buzilishlar paydo bo‘lishi mumkin. Uzoq muddatli qondirilmagan ehtiyojlarning ijtimoiy-moliyaviy, ruhiy va fiziologik natijalari har xil sabablarga ega. Xususan, oilaviy turmushda er yoki xotin jinsiy ehtiyojlarining qondirilmasligi xiyonat, jinsiy cheklov, shuningdek, nikohni bekor qilish g‘oyalarining paydo bo‘lishi va boshqa shu kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Nikoh munosabatlari murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, uning tarkibiy qismlarining tipologiyasiga psixo-jinsiy, individual-shaxsiy, xulq-atvor va axloqiy darajalari kiradi. Er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti dinamikasida oila tizimining to‘liq faoliyat ko‘rsatishi uchun bu darajalarning barchasi uyg‘unlik holatida bo‘lishi kerak. Oilaviy hayot siklining mavjud davrlarini ko‘rib chiqish, ularning barchasi oila tarkibidagi bolalarning o‘rnini o‘zgartirish mezoniga va turmush o‘rtoqlar tomonidan tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishga asoslangan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Oilaning keyingi rivojlanishining o‘ziga xosligi ham shuni ko‘rsatadiki, hissiy munosabatlardagi nizolar bolalarni tarbiyalashdagi nizolarni siqib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Позина М.Б. Психология и педагогика: Учебное пособие. – М.: Университет Натали Нестеровой, 2001. – 97 с.
2. Полунина И.А. Семейное психологическое консультирование. Балашов, 2003.
3. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования: учеб. пособие / Е.И. Артамонова, Е.В. Екжанова, Е.В. Зырянова и др.; под ред. Е.Г. Силяевой. – 3-е изд., стер. – М.: Издат. Сентр “Академия”, 2005. – 192 с.
4. Обозов Н.Н. Межличностные отношения. – Л.: Изд-во Ленингр. Ун-та, 1979. – 152 с.
5. Ожигова Л.Н. Психология тендерной идентичности личности. Краснодар: Кубанский государственный университет, 2006.
6. Основы психологии семи и семейного консултирования Текст. : учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений / Под общ. ред. Н.Н. Посысоева. М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004. – 328 с.
7. Sager C. J. Marriage contracts and couple therapy. NY, 2009. 198 r.
8. Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010

Xasanova Bog'dagul Turg'unbayevna
Mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish sho'basi bosh mutaxassis psixologi

TAZYIQQA UCHRAGAN XOTIN QIZLARGA HIMOYA ORDERINING TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga davlattomonida beriladigan himoya o'rderini ta'sir etuvchi psixologik holatlari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijobiy samara beruvchi himoya orderi ayollar ruhiy salomatligiga ta'siri, uni shakllantirish va salbiy vaziyatni yengib o'tish jarayonida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, psixologik rezilientlik, ijtimoiy aloqalar va emotsional yordam jarayonida samarali bo'lgan himoya o'derining asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida tazyiqqa uchragan ayollarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashda ayrim og'ir holatlarda ayol xoxishiga asosan himoya orderi tavsiya qilinadi.*

Kalit so'zlar: *samarali psixologik xizmat ,tazyiq, xotin-qizlar, himoya orderining psixologik ta'siri, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rezilientlik, emotsional barqarorlik ,stress ,o'zaro munosababtlar.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROTECTION ORDER FOR WOMEN SUBJECT TO HARASSMENT

Annotation. *This article analyzes the psychological conditions and socio-psychological features of protection orders issued by the state to women subjected to harassment. The impact of a positive protection order on women's mental health, the importance of social support in its formation and overcoming a negative situation are highlighted. Psychological resilience, social connections and emotional support are also considered as the main factors of an effective protection order. Based on the research of foreign and domestic scientists, in some severe cases, a protection order is recommended for psychological support of women subjected to harassment, based on the woman's wishes.*

Keywords: *effective psychological services, harassment, women, psychological impact of protection orders, social support, resilience, emotional stability, stress, relationships.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТНОГО ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ДЛЯ ЖЕНЩИН, ПОДВЕРГНУТЫХ ХАРАССАЖАМ

Аннотация. *В статье анализируются психологические условия и социально-психологические особенности защитных предписаний, выдаваемых государством женщинам, подвергшимся преследованиям. Освещены влияние положительного защитного предписания на психическое здоровье женщин, значение социальной поддержки в его формировании и преодолении негативной ситуации. Также рассматриваются психологическая устойчивость, социальные связи и эмоциональная поддержка как основные факторы эффективного защитного предписания. На основании исследований зарубежных и отечественных ученых в некоторых тяжелых случаях защитное предписание рекомендуется для психологической поддержки женщин, подвергшихся преследованиям, исходя из пожеланий женщины.*

Ключевые слова: *эффективные психологические услуги, преследования, женщины, психологическое воздействие защитных предписаний, социальная поддержка, устойчивость, эмоциональная устойчивость, стресс, отношения.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda ayollar turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida turli bosim va tazyiqlarga duch kelishi mumkin. Ushbu tazyiqlar ko'pincha ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ba'zi og'ir holatlarda himoya orderi berilishi kerakligi ish jarayonda ko'zga tashlanmoqda . Himoya orderi esa inson salomatligi, psixologik farovonligi va ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin egallab,muammoni o'z vaqtida bartaraf etish shaxsiy va jamiyat

taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda stress holatiga tushmaslik uchun tazyiqchidan himoyalanish jarayoni ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Himoya orderini og‘ir hollarda olmaslik salbiy oqibatlari faqat shaxsiy darajada emas, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topadi. Shunday ekan, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya orderi bilan himoyalangandan keyin ijobiy ta’sirlarini o‘rganish jarayonini va bu jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Qo‘rquv va stress holatini yengib o‘tish xotin-qizlarga o‘zining ichki resurslarini to‘liq ochish, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va sog‘lom munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Tazyiqning turli shakllari — jinsiy,jismoniy, psixologik, iqtisodiy bo‘lib — himoya orderi barcha holatlarda berilishi mumkin bo‘ladi.Xotin qizlarda murakkab va chuqur shakllarini yuzaga keltiradi. Ushbu holatda ayolning muloqotga kirishish qobiliyati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, bu shaxsning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, salbiy muloqotga chidamlilik darajasi, emotsional barqarorlik va o‘z-o‘zini baholash darajasi. Ikkinchidan, ijtimoiy omillar, ya’ni oilaviy qo‘llab-quvvatlash, do‘stlar va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam ijobiy muloqot jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ayolning madaniy va diniy qadriyatlari, hayotiy tajribasi va shaxsiy motivatsiyasi ham salbiy muloqotni yengib o‘tishda muhim hisoblanadi.

Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda ijobiy himoya orderi bilan ta’minlanishi ularni psixik holatida kuzatish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bu jarayon, bir tomondan, ichki psixologik jarayonlarni boshqarish (emotsional o‘zini tahlil qilish, salbiy fikrlarni yengish, muloqotni ijobiy energiyaga aylantirish), ikkinchi tomondan esa, tashqi ijtimoiy yordamni jalb qilish (psixologik maslahatlar, guruhiy terapiyalar va jamiyat tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlash tizimlari) orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda samarali psixologik strategiyalarni ishlab chiqish, tazyiq natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish va ayolning ijtimoiy hayotga qaytishini ta’minlash muhimdir.

Shuningdek, himoya orderi bir oy muddatda berilgan bo‘lib,undan foiydalanishda psixologik yordamning to‘g‘ri tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Psixologik yordam, birinchidan, ayolning o‘ziga bo‘lgan ishonchini tiklashga, ikkinchidan, uning ijobiy muloqot manbaini aniqlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, jamiyatdagi gender tengligi, ayollar huquqlarini himoya qilish va ayollarga nisbatan salbiy stereotiplarni yo‘qotish orqali ham tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga ko‘mak berish mumkin.

Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya orderi olgandan keyin kirishishdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish ayollar salomatligi va farovonligini ta’minlashda, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida va shaxsiy hayotida barqarorlikka erishishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Agar holat yanada og ‘irlashdsa himoya orderini yana uzaytirish yoki uni qayta olmaslik kerakligini aniqlash juda lozim.Ushbu mavzuning chuqur o‘rganilishi va samarali strategiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat ayol shaxsining rivojlanishini, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya orderi bilan ta’minlangandan keyingi holatini kuzatish hamda tahlil etib borish,xotin qizlardagi ko‘nikmalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ushbu mavzuni turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Xotin-qizlarning psixologik ruhiy holatidan kelib chiqib kirishish mexanizmlarini tushunish va ularni qo‘llab-quvvatlashning samarali usullarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, himoya orderini qay holatlarda berilishi nazariyalari, travmadan keyingi o‘sish (PTG), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik moslashuv tushunchalariga asoslanadi. Oiladagi nizoli vaziyatlar vujudga kelar ekan, xotin-qizlarimiz ruhiy holatida salbiy jihatlar ortib boraveradi. Bu esa sog‘lom oillarni kamayib borishi va jamiyatga zarar yetkazilishiga asos bo‘layotganligi tabiiydir.Agarda biz oilalar bilan ishlashda bu jihatlarga chuqurroq e’tibor qaratsak, kelajak avlodni ham bunday salbiy illatlarni davom etishini oldini olgan bo‘lamiz. Psixologiya fanlar doktori ,professor Sh.R.Barotov takidlaganlaridek stress holatida shaxsning xatti harakatlari o‘ziga xos tarzda o‘zgaradi,unda

qo‘zg‘alishning umumiy reaksiyasi paydo bo‘ladi,uning harakati tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Bu so’zlarni zamirida qanchadan qancha ma’no mavjuddir. Birgina inson bu holatdan chiqishi uchun shaxsning psixologik xususiyatlari ,turmush tarbiyasi,shakllangan malakasi muhim ro‘l o‘ynaydi.Keskinlikni oldini olishda esa shaxsning oliy nerv faoliyati,nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.Undagi yuksak his tuyg‘ular (mas’uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi .Umumiy psixologiya 2022.6.8(159)Stressni boshqarish.

Himoya orderi – bu davlat tomonidan zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsni (ko‘pincha ayollar va bolalar) huquqiy jihatdan himoya qilish uchun beriladigan hujjat bo‘lib, zo‘ravonga ma’lum cheklovlar qo‘yiladi. Bu order orqali zo‘ravonga jabrlanuvchiga yaqinlashish, u bilan bog‘lanish, hatto ba'zi hollarda yashash joyiga borish ham taqiqlanishi mumkin. Psixologik ta’siri (ijobiy va salbiy tomonlari) Ijobiy psixologik ta’siri xavfsizlik hissi ortadi: Ayol o‘zini davlat tomonidan himoyalangan, yolg‘iz emasligini his qiladi.Stress va qo‘rquv kamayadi: Himoya orderi orqali zo‘ravon shaxsning bevosita tahdidi cheklanadi, bu esa psixologik yengillik keltiradi**.** O‘ziga ishonch ortadi: Ayol huquqiy tizimdan yordam olish mumkinligini ko‘radi, bu esa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.Yangi hayot boshlashga yordam beradi: Himoya orderi vaqtinchalik bo‘lsa-da, ayolga yangi qarorlar qabul qilish va o‘z hayotini o‘zgartirish imkonini beradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash faollashadi: Himoya orderi mavjud bo‘lsa, psixologik yordam, boshpana, moliyaviy yordam kabi xizmatlar bilan bog‘lanish osonlashadi. **S**albiy psixologik ta’siri (yoki muammoli holatlar): Qo‘rquv yana davom etishi mumkin: Ba’zi hollarda zo‘ravon orderga amal qilmasligi mumkin, bu esa ayolni yana xavotirga soladi. Ijtimoiy bosim va stigma: Jamiyatda ayrim hollarda "oilani buzgan ayol" degan noto‘g‘ri tushuncha bo‘lishi mumkin, bu esa ayolga psixologik bosim keltiradi. Zo‘ravonlikning kuchayishi xavfi: Ba'zi hollarda zo‘ravon orderdan xabardor bo‘lgach, yanada tajovuzkor bo‘lishi mumkin (shuning uchun ichki ishlar profilaktik hodimlarini nazorati zarur). Yolg‘izlik hissi: Agar ayol oilasidan, qarindoshlaridan qo‘llab-quvvatlov olmasa, o‘zini ijtimoiy jihatdan ajratilgan his qilishi mumkin.

O‘zbekiston-2030 strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha amaliy tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash, zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat sifatini takomillashtirish, xotin-qizlarning huquqlari kafolatlarini ta’minlash maqsadida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oila va xotin qizlar qo‘mitasining tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga “oila-mahalla va hudud” tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etildi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish to‘g‘risida 2024-yil 10-maydagi PQ-175 –sonli qaroriga asosan joylarda tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.Bugungi kunda mamlakatimizda minga yaqin nafar tazyiqqa uchragan xotin-qizlar va ularni voyaga yetmagan farzandlariga psixologik yordam ko‘rsatildi. Bunda nizom asosida yangicha tartibda psixologik xizmatlar joriy etildi hamda himoya orderi jabrlanuvchilarni holati yaxshilanishida o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda.

Taziq va zo‘ravonlik holati yoki ularni sodir etish xafi aniqlangan vaqtda 24 soat ichida psixologik xizmatlar ko‘rsatilishi shular jumlasidandir. Ularni bir qanchasi joylarda tashkil etilgan tibbiyot markazi birlamchi ko‘mak xonalariga yotqizilib, kunduzgi qatnov asosida psixologik yordam ko‘rsatildi. O‘ta og‘ir holatdagi uch nafar ayollar va bolalari Reablitatsiya markazlariga yo‘llanma asosida yuborildi. Uchrashuv davomida xotin-qizlar va voyaga yetmagan shaxslarda stress hamda dipressiya holatlarini yengish, shuningdek o‘ziga ishonch, maqsadga yo‘nalganlik, hayotga qiziqish, hayotiy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan psixologik xizmat ko‘rsatadi. Boshlab mijoz bilan ya-qindan suhbat o‘tkazilib, umumiy emotsional holati baholanildi. Kunduzgi qatnov jarayonida o‘zi va yutuqlari haqida batafsil kengroq ma’lumot berib o‘tishi lozim. Sababi mijozni ishonchi uchun bu jarayon zarur. Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish muammolarini xal qilish bo‘yicha psixologik pedgogik hulosalar tuzildi.Shaxslarni ruhiy holati bo‘yicha tahlillar olib borish va korreksiya bo‘yicha tizimli ishlar olib borildi.

Tazyiqqa uchragan ayollarni hayotga moslashtirish va yashashga bo‘lgan ishtiyoqlarini, qiziqishlarini aniqlab ularga yo‘nalish berish kerak. Jaroyonda ular bilan terapevtik munosabatlar

yaratish lozim. Mijozni o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam berish, har bir mijozga o‘zini uning o‘rniga qo‘yib, ko‘rgan holatda munasabat qilish. Umumiy insoniylik munosabatlarini o‘zida mujassam etib, mijoz bilan aloqa hissini mustahkamlashda yordam beradi.Maxfiylik samimiylik va seans haqida boshqa odamlar bilan bo‘lishmaslik ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Kimligini va nima qilayotganini mijozda tushuntirish orqali uning hayotida rolini, psixologik, ijtimoiy ishchi yoki boshqa kasb egasi bo‘lishidan qa’ti nazar, uni nima qilayotganini va qanday yordam bera oshini samimiy ros tushintirish lozim. Sodda tildan foydalanish maqsadini tushuntirib, rezyumening tavsilotlariga kirish shart emasligini anglash, mijozni ishonchini ortirib xavotirni kamayishiga yordam beradi. Faol tinglash, hissiy tushuncha berib o‘tilsa, mijozni tuyg‘ularini tan olish, psixologik ta’lim olib borish ma’lumot berib o‘tishi kerak. Himoya orderi mijozni ishonchini oshirishga qaratilgan birlamchi qadam hisoblanadi. Mutaxassisni o‘zini tutishi va tashqi ko‘rinishi ham bundan tashqari muloqat turlaridan unumli va maqsadli foydalanishi bu jarayonni ijobiy olib borilishiga asos bo‘ladi. Savollar oldindan belgilangan bo‘lib, mijozni holatiga qarab beriladi. Savollarni berayotganda shoshmasdan va xato kamchiliklarsiz tushunchalarga asoslangan holda berib borish kerak. Mijozga jarayonni boshlash va tugatish yani vaqt haqida ham tushuncha berish kerak. Qirq minutdan uzog‘i bilan bir yarim soatgacha suhbatni davom ettirishi mumkin. Diqqatli bo‘lib jarayonni kuzatish hamda yozib borish faoliyat uchun ijobiy xizmat qiladi. Kuzatish va suhbat metodi bu holatda juda asqotadi. Mijoz tomonidan beriladigan javoblar siz saqlanishi haqida ham aytib o‘tiladi. Mijozni resurslarini ijobiy yengib o‘tishi uchun strategiyalarni mustahkamlab olish kerak .Kunduzgi qatnovga keladigan murojatchilarga psixologik xizmat ko‘rsatishda: kuzatish,suhvat,diognostika, korreksion ,terapevtik,metodika hamda davolashga qaratilgan mashg’ulotlar qo’llanilgan.

2024 yil yanvar oyidan hozirgi kunga qadar bir qancha tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va voyaga yetmagan farzandlarida zo‘ravonlik holatlari aniqlanib, ular tuman ichki ishlar hodimlari tomonidan ro‘yxatga olinib, himoya orderlari berilgan. Ular 6 oy davomida ijtimoiy hodim tomonidan nazoratga olinib,ijtimoiy sog’lom muhitga moslashtirilib “Inson “ ijtimoiy xizmatlar markazi hodimlari va psixologlari tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilib kelinmoqda. Bu borada o‘zbek olim va olimalari ham ko‘plab amaliy ishlar olib borib jumladan: mutaxassislar fikricha himoya orderi talabchanlik bilan va dastlab vaziyatni puxta o‘rgangan holda berilishi kerak, chunki ayrim ayollar emotsiyaga berilib ariza beradi, so‘ngra olib tashlayshni istaydi .Shu bilan birga, u ham nazorat tizimining zaifligi haqida ogohlantiradi . Sababi, order talablariga rioya qilinmay, ta’sirchan chora kuchsiz ekanligi unga asos beradi .Bundan tashqari, orderning faqat ma’muriy buzilish uchun choralar ko‘rilishi ham uning samaradorligini pasaytiradi .Tazyiqqa uchragan xotin qizlarni keyingi hayotini yaxshilanishini belgilaydi **.** Bu o‘rganilgan jarayon shuni bildiradiki tazyiqqa uchragan ayollarga ularni roziligi hamda holatiga qarab berilgan himoya orderi aynan ular uchun foyda berishi aniqlangan.**Monitoringni kuchaytirish** tazyiqqa uchragan xotin qizlarni holatidan ,profilaktika inspektorlari va huquq-tartibot organlari doimiy nazorat olib kerak borishi.**Muddatni uzaytirish** himoya orderini bir oy emas, kamida 6 oy – 1 yil muddat belgilanishi kerak.**Jazo mexanizmlarini kuchaytirish** – order buzulsa, jinoiy javobgarlik ham ko‘zda tutilishi lozim.**Nazorat va psixologik yordam** – order berilgandan keyin jabrlanuvchiga nazoratli va ijtimoiy ko‘mak yetkazilishi, ichki ishlar va tibbiyot ,”Inson “ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda reabilitatsiya markazlari bilan uzluksiz monitoring ishlarini olib borish lozim.

Xulosa. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni himoya orderi olishi ularni psixologik holatini yaxshilanishi hamda himoyalanishida ijobiy ta’siri borligini bildirib ulardagi sog‘lom ko‘nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shaxsiy, ijtimoiy va madaniy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Salbiy holatni yengishda shaxsning emotsional barqarorligi, rezilientlik darajasi va o‘z-o‘ziga ishonchi asosiy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususan, emotsional, informatsion va instrumental yordam, ayollarda stressga bardoshlilikni oshiradi va ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Travmadan keyingi tiklanish va o‘sish jarayonlarida himoya orderi ayolni xavfsizlikgini tiklash, shaxsiy tajribalarni qayta ishlash va ijobiy psixologik resurslarni faollashtirish muhimdir. Ba’zan mahalla inspektorlari tomonida noo‘rin berilgan himoya orderlari tazyiqqa uchragan xotin qizlarga salbiy ta’sir qilmoqda . Bu tazyiqchini yanada psixologik salbiy harakatlarini oshirishga undab oilalar buzilishiga

munosababtlar sovushiga ham sabab bo‘lgan.Madaniy va gender omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan psixologik yordam dasturlari tazyiqqa uchragan ayollarning himoya orderini foydali va zararli tomonlarini ayollar va qizlarni umumiy holatiga qarab, ko‘nikmalarini shakllantirish muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlab, ularning ijtimoiy faoliyatini tiklashga yordam beradi. Shunday qilib, kompleks yondashuv va tizimli psixologik qo‘llab-quvvatlash ayollarda himoya order orqali salbiy oqibatlarini yengib o‘tishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Рубинштейн, С.Л. (2003). Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер. – 430 с.Карамова,
2. Jo‘rayevna, A. T. (2020). Ayollar huquqlarini himoya qilishda psixologik xizmatning o‘rni. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 115 bet.
3. Alimova, D. T. (2018). Gender tengligi va ijtimoiy psixologik muammolar. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. – 164 bet.
4. Qodirova, M. S. (2019). Zo‘ravonlikka uchragan ayollarga psixologik yordam ko‘rsatish-ning zamonaviy usullari. // Psixologiya va Hayot jurnali, №4, – B. 23–30.
5. Tursunova, D. (2021). Oila va ayollar psixologiyasi: ijtimoiy muhit ta’siri. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti. – 152 bet.
6. Yusupova, N. A. (2020). Oila va gender munosabatlarida mojaroli vaziyatlarni psixologik jihatdan tartibga solish. // O‘zbekiston psixologik jurnali, №2, – B. 47–54.
7. Saidova, M. (2022). Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni aniqlash va oldini olishda psixologik yondashuvlar. // Ijtimoiy fanlar va ta’lim, №3, – B. 56–62.
8. Isroilova, N. (2023). Himoya orderi institutining ijtimoiy-psixologik samaradorligi. // Huquq va jamiyat jurnali, №1, – B. 33–39.
9. Xolmurodova, S. R. (2020). Oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlari. Toshkent: “Adolat” nashriyoti. – 120 bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Ayollar va gender tengligi qo‘mitasi. (2021). Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda huquqiy va psixologik yondashuvlar. Toshkent. – 94 bet.
11. Karimova, L. (2019). Psixologik xizmat ko‘rsatishda gender yondashuvning o‘ziga xosligi. // Ta’lim va taraqqiyot, №6, – B. 12–18.

Darvishev Dilmurod Botirovich
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘qituvchisi

MUZEYLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan raqamli transformatsiya muzey faoliyati uchun xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va madaniy ta’sirni kuchaytirish uchun asosiy chora bo‘ldi. Biroq, haqiqiy taraqqiyot jarayonida muzey raqamli transformatsiyasi hali ham ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada madaniy merosni muhofaza qilish va muzey raqamli transformatsiyasining ahamiyati hamda aniq amalga oshirish yo‘li muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *muzey; raqamli transformatsiya; madaniy merosni muhofaza qilish; meros; raqamli texnologiyalar.*

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ МУЗЕЕВ

Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 12-maydagi PQ–220-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha davlat dasturi"da pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va raqamli resurslar bilan ta'minlash ta'lim tizimidagi sifat muammolariga qarshi kompleks yondashuv sifatida belgilangan. Ushbu rasmiy yondashuvlar ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashib, innovatsiyalarning ta'lim tizimidagi real ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishda nafaqat texnik vosita, balki chuqur psixologik-pedagogik asosga ega bo'lgan tizimli yondashuv hisoblanadi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni, o'qitish uslubini, baholash tamoyillarini va o'quv muhitini tubdan o'zgartirishni talab etadi. Ta'lim sifati esa aynan mana shu omillarning uyg'unlashuvi natijasida real ifodasini topadi.

Muhokama. Zamonaviy ta'lim tizimi sifat jihatidan tub o'zgarishlarga muhtoj bo'lgan murakkab ijtimoiy-madaniy institut sifatida doimiy yangilanish va innovatsiyalarga tayangan holda

rivojlanmoqda. Bugungi kunda ta’lim sifati faqatgina bilimlarning hajmi yoki o‘quv dasturlarining bajarilishi bilan emas, balki o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi ishtiroki, mustaqil fikrlash darajasi, amaliy ko‘nikmalari va ijtimoiy adaptatsiyasi bilan baholanmoqda. Shuning uchun ham pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning strategik vositasiga aylanmoqda.

Pedagogik innovatsiyalar ta’limda ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy metodik yondashuvlar, interaktiv o‘quv shakllari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Ular an’anaviy o‘qitishning passiv, reproduktiv yondashuvlaridan farqli o‘laroq, o‘quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan, ijodiy va faoliyatga asoslangan ta’lim modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday transformatsiyalar esa o‘z-o‘zidan ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi: o‘quvchining motivatsiyasi oshadi, bilimlar chuqurroq o‘zlashtiriladi, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi boyiydi, hamkorlik va muloqot samaradorligi kuchayadi.

Muhokama jarayonida e’tiborli jihatlardan biri — innovatsiyalarning faqat texnologik yoki tashkiliy o‘zgarishlar bilan cheklanmasligi, balki pedagogik tafakkurda ham muayyan sifat o‘zgarishlarini talab etishidir. O‘qituvchilar o‘z faoliyatida innovatsion metodlarni qo‘llashda ko‘pincha psixologik qarshiliklarga, resurs tanqisligiga yoki metodik bilim yetishmasligiga duch kelishadi. Shu sababli, innovatsiyalarni joriy etish jarayoni — bu faqat yangilikni amaliyotga tadbiq etish emas, balki uni tushunish, qabul qilish va ijodkorlik bilan o‘zlashtirish jarayonidir.

Ta’lim sifatini oshirishda innovatsiyalarning muvaffaqiyatli tatbiqi, avvalo, o‘qituvchining tayyorgarligi va kasbiy rivojlanish darajasiga bog‘liq. Bu borada pedagogik kadrlarning malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish, ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, metodik xizmatni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘quvchilarni baholash tizimini yangilash, ya’ni faqat bilimlarni emas, balki kompetensiyalar, muammoli vaziyatlarda harakat qilish, kreativ fikrlash kabi ko‘nikmalarni ham qamrab oladigan baholash tizimiga o‘tish orqali ta’lim sifatini chuqurroq o‘lchash mumkin.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni joriy qilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil ishlash faolligi, ijtimoiy moslashuv darajasi va ijodiy salohiyati oshgan. Bu esa ta’lim sifati indikatorlari — o‘zlashtirish darajasi, davomadagi barqarorlik, psixologik iqlim va o‘qituvchilar faoliyatidan qoniqish ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sishga olib kelgan. Shu bilan birga, o‘zgarishlarning muvaffaqiyati har bir innovatsiyaning o‘ziga xos shart-sharoitlarini inobatga olgan holda, izchil, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda joriy etilishiga bog‘liqdir.

Pedagogik innovatsiyalar ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, ular nafaqat o‘quv jarayonini takomillashtirish, balki pedagogik madaniyatni yuksaltirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalarning muvaffaqiyati esa o‘qituvchining yangilikka ochiqligi, tizimlilik, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va metodik innovatsion madaniyat darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Xulosa. Pedagogik innovatsiyalar — bu ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or yondashuvlar va amaliyotlar majmuidir. Ular o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, interfaol uslublar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida o‘quvchilar chuqurroq bilim oladi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga ega bo‘ladi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsiyalarni tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda joriy qilish ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining izchil o‘sishiga olib keladi. Shu boisdan, har qanday ta’lim islohotining markazida pedagogik innovatsiyalar turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абдурахмонов К.Р. Инновационные технологии в образовании. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2020. – 184 б.

2. Turaev A., Jo‘raeva D. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: «Ilm ziyo», 2021. – 200 bet.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 297 p.

5. Юсупова Н.Х. Педагогические инновации как фактор повышения качества образования // Народное образование. – 2022. – №6. – С. 45–49.

6. Hargreaves A., Shirley D. The Global Fourth Way: The Quest for Educational Excellence. – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2012. – 216 p.

7. Xasanboeva N. Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 176 bet. OECD. Innovative Learning Environments. – Paris: OECD Publishing, 2013. – 208 p.

8. Мирзаахмедова Н.М. Инновационный подход в повышении эффективности преподавания // Педагогическое образование. – 2021. – №2. – С. 37–41.

9. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.

Hayitmurodova N.A.
Nizoni nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi Katta o'qituvchisi
E-mail: xayitmurodovanasiba376@gmail.com

BOSHLANG'ICH TAYARLOV GURUGLARIGA ESTAFETALI YUGURISH TEXNIKASINI O'RGATISH MATODIKASI

Annotatsiya. *Estafetali yugurish shahar ko'chalarida o'tkaziladigan va yana boshqa xil estafetalardan farq qiladi xamda stadiondan yugurish yo'lkasi aylanasi bo'ylab o'tkaziladi. Stadionda o'tkaziladigan estafetali yugurishlar qisqa va o'rtacha masofali etaplardan iborat bo'lishi mumkin qisqa masofalilarda aloxida yo'lkalardan (bugun masofa oxirigacha yoki birinchi etapdagi) yuguriladi.*

Kalit so'zlar. *Tayyorlov, tayyorlov guruhlar, yugurish, yugurish texnikasi, estafeta, estafetali yugurish texnikasi.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГУРУ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ТЕХНИКЕ ЭСТАФЕТНОГО БЕГА

Анатасия. *Эстафеты отличаются от других видов эстафет, которые проводятся на улицах города и пробегают по трассе от стадиона. Эстафеты, проводимые на стадионе, могут состоять из этапов на короткие и средние дистанции, короткие дистанции пробегаются по отдельным трассам (сегодня конец дистанции или первый этап). На средней дистанции бег проходит по одной общей трассе. Эстафета пользуется большой популярностью среди зрителей. В легкой атлетике выделяют следующие виды эстафет:*

Ключевые слова. *Подготовительные, подготовительные группы, бег, техника бега, эстафета, техника эстафетного бега.*

METHODOLOGY FOR TEACHING RELAY RUNNING TECHNIQUES TO PRIMARY PREPARATORY GROUPS

Annotation. *Relay runs are different from other types of relays, which are held on the streets of the city and run around the track from the stadium. Relay races held in the stadium can consist of short and medium-distance stages, short distances are run on separate tracks (today the end of the distance or the first stage). In the middle distance, it is run on one common track. The Relay Race is very popular among spectators. The following types of relay races are distinguished in athletics:*

Keywords. *Preparatory, preparatory groups, running, running technique, relay, relay running technique.*

Estafetali yugurish shahar ko'chalarida o'tkaziladigan va yana boshqa xil estafetalardan farq qiladi xamda stadiondan yugurish yo'lkasi aylanasi bo'ylab o'tkaziladi. Stadionda o'tkaziladigan estafetali yugurishlar qisqa va o'rtacha masofali etaplardan iborat bo'lishi mumkin qisqa masofalilarda aloxida yo'lkalardan (bugun masofa oxirigacha yoki birinchi etapdagi) yuguriladi.

O'rta masofaligida esa bitta umumiy yo'lkadan yuguriladi. Estafetali Yugurish tomoshabinlar orasida katta qiziqish uyg'otadi. Yengil atletikada estafetali Yugurishning quyidagi turlari ajratiladi:

- stadionda o'tkaziladigan estafetali Yugurish. Bu yerga 4x100 m, 4x400 m musobaqalar kiradi, ular klassik turlar hisoblanadi;
- har qanday masofalarga va har qanday miqdordagi bosqichlar bilan estafetalar, shuningdek, - shved estafetalari, masalan, 800+400+200+100 (yoki teskari tartibda);
- stadiondan tashqarida, masalan, shahar ko'chalarida o'tkaziladigan estafetalar. Ular uzunligi va bosqichlar miqdori, qatnashchilari har xil bo'lishi bilan ajralib turadi (faqat erkaklar yoki aralash, ya'ni erkaklar ham, ayollar ham Yugurishlari mumkin).

Oqilona texnika, maxsus mashg‘ulot metodikasi, sportchilarni saralash tizimi va psihologik tayyorgarlik – buning hammasi yaxshi estafeta jamoasini yaratish uchun asosiy mezon hisoblanadi. Estafetalarda masofa bo‘ylab Yugurish texnikasi tegishli turlarning Yugurish texnikasidan farq qilmaydi. Estafetali Yugurish texnikasining o‘ziga xos xususiyati – estafeta turiga mos holda estafeta tayoqchasini Yuqori tezlikda uzatish texnikasidir.

Estafeta jamoasining yaxshi natija ko‘rsatishida quyidagi omillar muhim sanaladi:

- sportchilarning tegishli masofalardagi individual ko‘rsatkichlari;
- estafetali tayoqchasini ishonchli uzatish;
- jamoadagi sheriklarning muvofiq harakatlari;
- yagona jamoaning yaxlitligi.

Estafetali Yugurish musobaqa qoidalariga muvofiq tayoqchani 20 m uzunlikdagi yo‘lakda uzatish kerak. 4x100 m ga Yugurishda II, III va IV bosqichlar Yuguruvchilariga yo‘lak boshidan boshlab 10 m atrofida qo‘shimcha Yugurish beriladi, bu estafetali tayoqchasini berish joyigacha Yuqori tezlik olishga imkon beradi. Sportchilar Yugurish va tayoqchani uzatish zonalarini e’tiborga olgan holda I bosqichda 110 m ni, II bosqichda – 130 m, III da – 130 m, IV da – 120 m masofani bosib o‘tadilar. Shuning uchun jamoa a’zolarini bosqichlar bo‘yicha joylashtirayotganda ularning individual xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. 4x400 m ga estafetali Yugurishda va boshqa hamma estafetalarda qo‘shimcha Yugurish berilmaydi va ishtirokchilar 20 metrli yo‘lakda turgan holatlarida start oladilar. Bu estafetalarda Yugurish tezligi pastroq va shu sababli qo‘shimcha Yugurish berilmaydi.

Estafetali Yugurish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1) estafetali tayoqchasini biror joyga solib qo‘ymasdan;


2) estafetali tayoqchasini biror joyga solib qo‘yib. Odatda birinchi usul qisqa masofaga estafetalarda sodir bo‘ladi, ikkinchi usul qolgan barcha estafetalarda foydalaniladi.



1-rasm. Estafeta tayoqchasi

Tayoqchaning samarali uzatilishini ta’minlash maqsadida Yuguruvchilar estafeta tayoqchasini qabul qilib olishda start Yugurishini aniq va o‘z vaqtida boshlashlari uchun makonni his qilishlari, shuningdek, estafetani uzatishda tayoqchani berish zonasida mumkin bo‘lgan maksimal tezlikni saqlab qolish, qabul qilib olishda esa uzatish zonasining 15-metrida Yugurish tezligini maksimal tez va barqaror tarzda oshirish uchun tezlikni his qilish sezgilariga ega bo‘lishlari juda muhim. Estafeta tayoqchasining yo‘lakda (koridorda) bo‘lgan vaqti uni uzatish texnikasi samaradorligi mezoni bo‘lib hisoblanadi. Yuqori malakali sportchilar uchun bu ko‘rsatkichlar erkaklarda o‘rtacha 1,80-1,90 s ni va ayollarda 2,05-2,15 s ni tashkil etadi. Sportchilar uzatish zonasini 15-16-chi metrlarida eng Yuqori tezlikka erishadilar. Estafeda tayoqchasini uzatish texnikasi nooqilona bajarilgan bosqichida vaqt yo‘qotish o‘rtacha 0,1-0,3 s ni tashkil qiladi. 4x100 m ga estafetali Yugurish texnikasini ko‘rib chiqamiz. I bosqichda Yuguruvchi past startdan turib 200 m ga Yugurishdagi singari aylana yo‘lga start oladi. Estafeta tayoqchasi o‘ng qo‘lning uchta barmog‘ida ushlanadi, ko‘rsatkich va bosh barmoqlar tekislangan va start chizig‘i yonida yo‘lkaga tayanib turadi (2-rasm).

I bosqichda Yuguruvchi yo‘lka ketidan Yugurish uchun u tayoqchani har doim o‘ng qo‘lida tutib turishi, o‘z sherigining esa chap qo‘liga uzatishi kerak. Masofa bo‘ylab Yugurish maksimal tezlik bilan amalga oshiriladi. Qiyinligi shundaki, estafeta tayoqchasini Yuqori tezlikda chegaralangan zonada uzatish lozim.




2-rasm. Pastki startda estafeta tayoqchasini ushlash

Estafeta tayoqchasini uzatishning ikki xil usuli mavjud: pastdan-Yuqoriga va Yuqoridan-pastga. Birinchi usulda estafeta tayoqchasini qabul qilib olayotgan Yuguruvchi qo‘lini (tayoqchani uzatayotgan Yuguruvchining qo‘liga qarama-qarshi bo‘lgan qo‘lini) orqaga bir oz yon tomonga uzatadi, bosh barmoq kaft Yuzasi tomoniga uzatiladi, to‘rtta barmoq qisilgan, kaft to‘g‘ri orqaga qaratiladi.


Tayoqchani uzatayotgan Yuguruvchi estafeta tayoqchasini pastdan Yuqoriga harakat qilib bosh barmoq va kaft orasiga qo‘yadi. Estafeta tayoqchasini qabul qilib olayotgan Yuguruvchi tayoqchaning tegishini his qilgan zahoti uni ushlab, panjasiga qisib oladi (14- rasm).

Ikkinchi usulda ham qo‘l orqaga bir oz yon tomonga uzatiladi, lekin kaft Yuzasi Yuqoriga qarab turadi. Tayoqchani uzatayotgan Yuguruvchi estafeta tayoqchasini Yuqoridan-pastga harakat qilish bilan uni kaftga qo‘yadi. Tayoqcha qabul qilib olayotgan Yuguruvchining qo‘liga tegishi bilan u tayoqchani ushalab, panjasini qisib oladi (15-rasm).

Estafeta topshirayotgan Yuguruvchi nazorat chizig‘iga etib kelgan paytda qabul qilib olayotgan Yuguruvchi start tezlanishini boshlaydi. Estafeta uzatish zonasiga Yugurib kirgan holda ikkala Yuguruvchi yaqinlashadi, birinchisi ikkinchisiga etib oladi, tayoqchani uzatayotgan Yuguruvchi 2 ta Yugurish qadamida qabul qilib olayotgan Yuguruvchi estafetani uzatish maqsadida qo‘lini tekislab, orqaga uzatishi uchun ovoz chiqarib qisqa buyruq berishi kerak.



3-rasm. Estafeta tayoqchasini pastdan uzatish



4-rasm. Estafeta tayoqchasini Yuqoridan uzatish

Uzatish bajarilgandan so‘ng estafetani qabul qilib olgan Yuguruvchi o‘z bosqichida tez Yugurishni bajaradi, estafetani uzatgan Yuguruvchi esa asta-sekin Yugurishni sekinlatib, to‘xtaydi, biroq o‘z yo‘lkasining yon chegarasidan chiqib ketmaydi. Boshqa jamoalar ham uzatish zonasidan Yugurib o‘tganlaridan keyingina u yo‘lkani tark etadi. II bosqichda Yuguruvchi estafeta tayoqchasini chap qo‘lida ushlab boradi va III bosqichdagi Yuguruvchining o‘ng qo‘liga uzatishni amalga oshiradi. III bosqichda Yuguruvchi aylana bo‘ylab mumkin qadar chetiga yaqin Yuguradi va IV bosqichda

estafeta tayoqchasini o‘ng qo‘ldan chap qo‘lga uzatadi. Estafeta tayoqchasini uzatish Yuqorida aytib o‘tilgan usullarda amalga oshiriladi.

Uzatish zonasida Yuguruvchilar bir-birlariga halal bermasdan, ya’ni uzatishni bajarayotgan qo‘lga qarab, Yugurish yo‘lkasining cheti bo‘ylab Yugurishlari kerak.

Estafeta tayoqchasini oqilona uzatish texnikasiga ega bo‘lgan Yuguruvchi, tayoqchani qabul qilayotib, orqaga qaramasdan Yuqori tezlikni saqlab qolgan holda Yugurishni hamda estafetani qabul qilib olishni boshlashi kerak. Odatda, estafetani qabul qilib olayotgan Yuguruvchi bir qo‘liga tayangan holda yoki Yuqori startdan, yoki past startdan start oladi. Yuqori startda Yuguruvchi nazorat belgisini va unga Yugurib kelayotgan Yuguruvchini ko‘rish uchun boshini bir oz orqaga buradi. Bir qo‘lga tayanib start olishda Yuguruvchi tayanib turmagan qo‘l elkasi ustidan orqaga qaraydi yoki boshini tushirgan holda tayanib turmagan qo‘li tagidan orqaga qaraydi.

Tayoqchani uzatish paytida eng muhim element – bir maromda Yugurish, ya’ni oyoqqa mos holda Yugurish zarur. Shuningdek, Yugurishni boshlash uchun optimal ―fora»ni topish zarur, ya’ni Yugurishni ―fora»ning shunday uzunligida boshlash kerakki, ayoqchani uzatayotgan va qabul qilayotgan Yuguruvchilarning tezliklari uzatish zonasi o‘rtasiga to‘g‘ri kelishi zarur.

Boshqa estafeta turlarida, lekin estafeta tayoqchasini maksimalga nisbatan kichikroq tezlik bilan uzatiladigan estafetalarda xuddi shunday usulda uzatish usuli qo‘llaniladi, biroq estafeta tayoqchasini qabul qilib olgan Yuguruvchi masofada Yugurish paytida uni o‘zi uchun qulay bo‘lgan qo‘liga o‘tkazib olishi mumkin. Amalga oshiriladigan uzatish tezligi qancha kam bo‘lsa, sportchi tayyorgarligi shuncha yomon hisoblanadi. Estafeta tayoqchasini uzatishda asosiy vazifa – tayoqchani uzatishni o‘ziga vaqt yo‘qotmasdan imkon qadar uni tezroq berishdan iborat.

Uzatish paytida Yuguruvchilar orasidagi masofa estafetani qabul qilib olayotgan Yuguruvchining orqaga uzatilgan qo‘li uzunligiga va estafetani uzatayotgan Yuguruvchining oldinga cho‘zilgan qo‘li uzunligiga teng bo‘ladi. Bu masofa estafeta tayoqchasini uzatayotgan Yuguruvchining uzatish paytida oldinga egilishi hisobiga bir oz oshishi mumkin. Tegishli Yugurish tezligida estafetani uzatish texnikasi oqilona qo‘llanilganda shunday masofani ushlab turish mumkin bo‘ladi. Agar masofa qisqarsa, uzatayotgan Yuguruvchi qabul qilayotgan Yuguruvchidan o‘zib ketishi mumkin va, aksincha, Yuguruvchilar o‘rtasidagi masofa ortib ketsa, tayoqchani uzatish amalga oshirilmay qolishi mumkin va u yo‘lak tashqarisida bajariladi.

Estafeta tayoqchasini uzatish ikki qatorda doirada turgan holda juft-juft bo‘lib bajariladi. Tayoqcha tayoqchani beruvchi qo‘l-larining qarshi tomonida bo‘lishi kerak.

1-vazifa. Estafeta tayoqchasini qabul qiluvchi Yuguruchini startga o‘rgatish.

Vositalari:

1. Bir qo‘l bilan tayangan holdan to‘g‘riga start berish.
2. Bir qo‘lda tayangan holda, alohida yo‘lakchani burilishida (to‘g‘ri yo‘lakka chiqishda) start berish.
3. Alohida yo‘lakchadan to‘g‘riga (burilishga kirish bilan) start berish.
4. Masofani boshlanish zonasidan to nazorat belgisigacha aniqlash.
5. Alohida yo‘lakchadan, uzatuvchining nazorat belgisiga etgan vaqtida start berish.

Uslubiy ko‘rsatmalar. Start olishni o‘rganishda yo‘lakcha zonasida tayoqchani oluvchi 2 va 4 bosqichlarda yo‘lakchani tashqi chizig‘i bo‘ylab, 3-bosqichda esa, yo‘lakchani ichki chizig‘i bo‘ylab Yugurishi kerak (21-rasm).

2-vazifa. 20 metrlik zona ichida maksimal tezlikda tayoqchani uzatishga erishish.

Vositalari:

1. Zonada estafeta tayoqchasini maksimal tezlikda berish.
2. Ikki va undan ko‘proq jamoalar to‘liq masofada estafetali Yugurish. **Uslubiy ko‘rsatmalar.** Tayoqchani uzatish har xil tezlikdagi Yugurishda takomillashtiriladi. Takomillashtirish, juft-juft bo‘lib, keyin hamma 4 Yuguruvchi birgalikda bajarish bilan amalga oshiriladi (22-rasm).

3-vazifa. Estafetali Yugurish texnikasini takomillatiish

Vositalari:

1. Maksimal tezlikda 20 metrli zonada estafeta tayoqchasini uzatish.
2. Har xil etapda shaxsiy belgilarni qo‘yish.

3. To‘liq masofa bo‘ylab musobaqa qoidasiga rioya qilib Yugurish.

Uslubiy ko‘rsatmalar. Estafeta tayoqchasini uzatgan Yuguruvchi tezligini pasaytirib o‘z yo‘lkasida qolish shart.

Estafeta tayoqchasini uzatgan yuguruvchi tezlikni pasaytirib, qabul qilgan boshqa komandalarning a’zolari yugurib ketganlaridan keyingina o’z yo‘lkasidan chiqishi juda muxim. Umumiy vazifalardan va yengil atletika hamda boshqa predmetlar mazmunidan kelib chiqqan holda bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim: yengil atletikachilarni hamma soha bo‘yicha (jismoniy, texnik, taktik, irodaviy va axloqiy) tayyorlashni amalga oshirishda ularning yoshi, jinsi va sport mahoratini hisobga olgan holda mushaklarni rejalashtirish va nazorat qilish zarur asosiy jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, egiluv-chanlik) rivojlantirish va takomillashtirish vositalari va uslublarini keng ravish har xil yo‘nalishdagi va har xil sharoitda (zalda, stadionda va har xil joylarda) o‘quv-mashq mashg‘ulotlarini yuqori professional darajada o‘tkazish musobaqa va ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazish jarayonida, sog‘lomlashtirish va targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda tashkilotchilik ishlari, hakamlik va uslubiy ishlarni olib borish, pedagogik va tibbiy nazorat, shikastlanishni oldini olish, vraqincha birinchi yordam ko‘rsatish, sport gigienasi, sport massaji va tiklantirish bo‘yicha olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish. Shunga ko‘ra, yengil atletikaning nazariy va amaliy bo‘limlaridan, o‘quv rejasidagi boshqa predmetlardan olingan bilimlar bo‘lg‘usi bakalavrlar uchun ularga jismoniy tarbiya tizimining hamma pog‘onalarida ishlashlari uchun to‘liq zamin tayyorlab bera oladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Inozemseva L.A. Legkaya atletika i metodika prepodavaniya: Uchebno- metodicheskiye posobiye Toshkent: 2001 yil.

2. Sinyakina O.F. Trenirovka v bege na 400 metrov s baryerami.Metodicheskoye ukazaniye. Tashkent: UzGosIFK 2005 yil. . Qudratov R., /Yengil atletika. o’quv qo’llanma – T.: 2012 y.

3. Ozolin N.G. /Yengil atletika. o’quv qo’llanma – T. 1971 y.

4. Rafiyev H.Yengil atletika va uni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. 2012.

Karimova Sadoqat Mamaraimovna
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: karimovasadoqat684@gmail.com
Kanjabayev Abdisalim
Termiz davlat unversiteti
Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi professor v. b
E-mail: Kenjaboyev80@mail.ru

HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA HAMJIHATLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harakatli o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida hamjihatlik, o‘zaro tushunish, jamoaviylik va ijtimoiy faollik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari yoritilgan. Harakatli o‘yinlar bolalarning faqat jismoniy rivojlanishigina emas, balki ularning ruhiy-emosional holati, ijtimoiy tajriba orttirishi, muomala madaniyati va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida ko‘riladi. Mazkur maqolada o‘yin faoliyatining sinfdagi ijtimoiy muhitga ta’siri, har bir o‘yin orqali bolalarda o‘zaro hurmat, birdamlik, sabr-toqat va liderlik sifatlarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o‘yinlar orqali axloqiy tarbiya berish, bahsli vaziyatlarda to‘g‘ri muomala qilishni o‘rgatish va bolalarda do‘stona munosabatlarni shakllantirishga oid aniq metodik yondashuvlar keltiriladi. Tajriba va kuzatuvlarga asoslangan holda, o‘qituvchilar uchun tavsiya etiladigan harakatli o‘yinlar tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarga ta’siri ilmiy asosda izohlanadi. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich ta’limda jamoaviylikni targ‘ib qilish bo‘yicha muhim amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so`zlar: *harakatli o‘yinlar, boshlang‘ich sinf, hamjihatlik, jamoaviylik, pedagogik texnologiya, axloqiy tarbiya, o‘yin faoliyati, o‘zaro tushunish, muomala madaniyati, ijtimoiy faollik.*

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СПЛОЧЕННОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ДЕЯТЕЛЬНОСТНЫХ ИГРОВ

Абстрактный. *В статье рассматриваются эффективные педагогические технологии развития у учащихся младших классов таких положительных качеств, как сплоченность, взаимопонимание, умение работать в команде, социальная активность посредством подвижных игр. Подвижные игры рассматриваются как важный инструмент развития не только физического развития детей, но и их психоэмоционального состояния, социального опыта, коммуникативных навыков и навыков совместной работы. В статье анализируется влияние игровой деятельности на социальную среду в классе, а также способы развития у детей взаимного уважения, солидарности, терпения и лидерских качеств посредством каждой игры. В статье также представлены конкретные методические подходы к нравственному воспитанию через игру, обучению детей правильному поведению в спорных ситуациях, построению дружеских отношений. На основе опыта и наблюдений анализируются рекомендуемые для учителей подвижные игры и научно объясняется их влияние на учащихся. Это исследование имеет важное практическое значение для развития командной работы в начальном образовании.*

Ключевые слова: *подвижные игры, начальная школа, сплоченность, командная работа, педагогическая технология, нравственное воспитание, игровая деятельность, взаимопонимание, культура общения, социальная активность.*

TECHNOLOGY OF FORMING COHESION IN PRIMARY GRADE STUDENTS THROUGH MOVEMENT GAMES

Annotation. *This article discusses effective pedagogical technologies for the formation of positive qualities such as cohesion, mutual understanding, teamwork and social activity among primary school students through movement games. Movement games are considered an important tool for*

developing not only the physical development of children, but also their psycho-emotional state, social experience, communication culture and skills of working together. This article analyzes the impact of game activities on the social environment in the classroom, methods for developing mutual respect, solidarity, patience and leadership qualities in children through each game. The article also presents specific methodological approaches to providing moral education through games, teaching how to behave correctly in controversial situations and forming friendly relations in children. Based on experience and observations, action games recommended for teachers are analyzed and their impact on students is scientifically explained. This study has important practical significance in promoting teamwork in primary education.

Keywords: *action games, primary school, solidarity, teamwork, pedagogical technology, moral education, game activity, mutual understanding, culture of communication, social activity.*

Kirish. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida nafaqat o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmalarni singdirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tibor qaratish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabga ilk qadam qo‘ygan bola o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishni, jamoada harakat qilishni, o‘z fikrini erkin ifoda etishni, bahsli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topishni o‘rganishi kerak. Shu boisdan, pedagoglar oldida faqat didaktik materiallarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik, liderlik, birdamlik kabi ijtimoiy-psixologik fazilatlarni shakllantirish vazifasi turadi.

Bu borada harakatli o‘yinlar muhim vosita sifatida ajralib turadi. Ular bolalarning o‘yin orqali fikrlashini, faoliyatga bo‘lgan ishtiyoqini, tengdoshlari bilan o‘zaro muloqotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun harakatli o‘yinlar turli xarakterdagi vaziyatlarni boshdan kechirish, jamoa bilan ishlash, liderlikni namoyon qilish yoki itoatkorlikni o‘rganish, o‘zini ijtimoiy guruh a’zosi sifatida anglash imkonini beradi. Mazkur maqolada harakatli o‘yinlar orqali hamjihatlikni shakllantirishning samarali texnologiyalari, metodik yondashuvlari va ularning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati keng yoritiladi.

Har qanday ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Bolaning maktabga qadam qo‘yishi bilan ijtimoiy hayotga kirib kelishi boshlanadi. U bu jarayonda o‘zining ichki dunyosini ochib boradi, boshqa bolalar bilan o‘zaro aloqaga kirishadi. Bu bosqichda bolaga ijobiy ijtimoiy muhit, o‘zaro hurmat, birdamlik va jamoaviylik muhiti kerak. Ana shunday muhitni shakllantirishda harakatli o‘yinlar pedagogik vosita sifatida o‘zining yuksak samaradorligini namoyon etadi.

Bolalar o‘yin jarayonida real hayotdagi rollarni ijro etadi, turli vaziyatlarda qanday harakat qilishni sinab ko‘radi, jamoa a’zosi bo‘lish va bu jamoadagi o‘z o‘rnini anglashga harakat qiladi. Harakatli o‘yinlar bolani faol harakatga, fikrlashga, o‘zini boshqalarga nisbatan tutish madaniyatini egallashga chorlaydi. Ayniqsa, bolalar bir-birlariga bog‘liq harakatlarda ishtirok etganda, ular bir-birini eshitishni, ko‘rishni va tushunishni o‘rganadilar. Bu esa o‘z navbatida hamjihatlik sifatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Metod. Harakatli o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari. Harakatli o‘yinlar o‘zining jismoniy, emotsional va aqliy ta’siri bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular o‘zaro muloqot qilish, me’yorlarga bo‘ysunish, tartibga rioya qilish, guruhda harakat qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘yin jarayonida bolalar bir-biriga yordam berish, navbat kutish, g‘alabani birgalikda nishonlash yoki mag‘lubiyatni birgalikda qabul qilishni o‘rganadilar. Bu esa hamjihatlikni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Harakatli o‘yinlar boshlang‘ich sinflarning Jismoniy tarbiya darslarida ancha keng o‘rin egallaydi. Bu sinflardagi harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli-milliy o‘yinlar («Soqqa», «Kes-Kes», «Qirq tosh», «Durra soldi» va boshqalar) aqliy, axloqiy va estetik kamolotning mezonlari bo‘lsa, xalq an’anaviy sporti (“To‘plar poygasi”, “Ovchilar va o‘rdaklar”, “Chir aylanma”, “Otishma” va boshqalar) – farzandlar baquvvatligi va etukligining garovidir. Harakatli o‘yinlardan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad o‘quvchilarni sport o‘yinlariga tayyorlashdir (Radjapov U.R., Xakimdjanova K., & Jo`Rayeva Sh., 2022).

O‘yinlar orqali bolalarning bir-biriga bo‘lgan hurmati, birdamligi, jamoa bilan harakat qilishga tayyorligi ortadi. Masalan, "Kim tezroq joyiga qaytadi?", "Yelkadoshlar", "Halqani uzmasdan o‘tish" kabi harakatli o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni, balki birgalikda harakat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladi, bir-biriga yordam berishni, fikrini bildirishni va boshqalarni tinglashni o‘rganadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘yinlar, xususan, jamoaviy va harakatli o‘yinlar bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida muhim vosita sifatida qaralmoqda. Bolalarning tengdoshlari bilan hamkorlikda harakat qilishi, o‘zaro hurmat va birdamlik asosida muloqotga kirishishi ularning jamiyatga moslashuvchan, ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Kim tezroq joyiga qaytadi?”, “Yelkadoshlar”, “Halqani uzmasdan o‘tish” kabi harakatli o‘yinlar bolalarning jismoniy faolligini ta’minlash bilan birga, ularning ijtimoiy kompetensiyalarini – hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini bildirgan holda boshqalarning fikriga quloq tutish, o‘zaro yordam va mas’uliyatni bo‘lishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bu turdagi o‘yinlar pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bolalarning ijtimoiy-emosional intellektini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘yin davomida yuzaga keladigan tabiiy muloqot holatlari orqali bolalar empatiya, ijtimoiy nazorat, o‘zini tutish, nizolarni konstruktiv hal etish va tengdoshlar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning maktab muhitida, oilada va kengroq jamiyatda samarali ijtimoiy aloqalar o‘rnatish salohiyatini oshiradi. Bundan tashqari, guruh bo‘lib harakat qilishni talab qiladigan o‘yinlar bolalarda o‘zining jamoadagi rolini anglash, jamoadagi har bir a’zoning hissasi muhimligini tushunish, umumiy maqsad sari intilish va natijaga erishishda mas’uliyatni his etish kabi barqaror ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsiy yetuklik, rahbarlik salohiyati va fuqarolik ongining shakllanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlardan muntazam foydalanish quyidagilarga yordam beradi: salomatlikni mustahkamlash, to'g'ri jismoniy rivojlanish, bolalarni har tomonlama tayyorlash, faollik, jasorat, qat'iyatlilik, intizom, jamoaviylik va boshqa xarakter fazilatlarini tarbiyalash. Harakatli o'yinlar hayotiy zarur qobiliyatlarni rivojlantiradi, tizimli sportga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi (Abdullayev, 2020).

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘yinni dars mazmuniga, sinfning umumiy kayfiyatiga va o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qarab tanlashi kerak. O‘yin jarayonida muayyan ijtimoiy vazifani hal qilish, axloqiy xulq-atvorni o‘rgatish hamda bahsli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bo‘lishi zarur. O‘yin yakunida esa qisqa tahlil o‘tkazib, bolalar o‘yin davomida nimalarni o‘rganganini umumlashtirish lozim.

Harakatli o‘yinlar o‘z mohiyati bilan bolalarni jismoniy faollikka undaydi, biroq ularning pedagogik qimmati bundan ancha kengdir. O‘yinlarda ishtirok etish orqali bolalar quyidagi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi:

- o‘zaro yordam va hamkorlik;
- muomala madaniyati;
- qoidalarga bo‘ysunish;
- navbat kutish va sabr-toqat;
- rahbar va ergashuvchi rollarni bajarish;
- g‘alaba va mag‘lubiyatga sog‘lom munosabatda bo‘lish.

Pedagog har bir o‘yinni sinfdagi ijtimoiy muhit, o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, ularning xulqiy va emotsional holatiga qarab tanlashi zarur. Maqsadli tanlangan o‘yinlar orqali sinfdagi bolalar orasida iliq muhit yaratiladi, bahsli vaziyatlar yumshatiladi, shaxslararo munosabatlar yaxshilanadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida har bir pedagogning vazifasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy muhitni uyg‘unlashtirish, ularning shaxslararo aloqalarini ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirish hamdir. Bu jarayonda harakatli o‘yinlar pedagogik vosita sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tanlanishi tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan mezonlarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Harakatli o‘yinlardan muntazam foydalanish quyidagilarga yordam beradi: salomatlikni mustahkamlash, to‘g‘ri jismoniy rivojlanish, bolalarni har tomonlama tayyorlash, faollik, jasorat, qat`iyatlilik, intizom, jamoaviylik va boshqa xarakter fazilatlarini tarbiyalash. Harakatli o‘yinlar hayotiy zarur qobiliyatlarni rivojlantiradi, tizimli sportga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi. Harakatli

o‘yinlarda ishtirokchilar ma'lum jismoniy sifatlarni namoyish etadilar. O‘yinlarni boshqarish orqali ushbu sifatlarni ularning uyg'unlashgan holda faol kuzatish, shuningdek, maktab o‘quvchilarini rivojlantirish va tarbiyalash uchun muhim bo‘lgan sifatlarni ko'proq rivojlantirish mumkin (Abdullayev, 2022).

Avvalo, pedagog har bir o‘yinni sinfdagi mavjud ijtimoiy-psixologik holatga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish darajasi, temperamenti, emotsional muvozanati va xulq-atvor xususiyatlariga moslab tanlashi zarur. O‘yin vositasida o‘quvchilarning individualligini e’tiborga olish, ularning guruh ichidagi roli va moslashuvchanligini rivojlantirish mumkin. Jumladan, introvert tipdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb qilish, liderlik fazilatiga ega bolalarga esa boshqalarga yordam berish ko‘nikmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Tanlangan o‘yinlarda quyidagi metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

1. **Differensial yondashuv** – o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘yinlarni tanlash. Masalan, ortiqcha raqobatni keltirib chiqaruvchi o‘yinlar sinfdagi mojarolarni kuchaytirishi mumkin, shuning uchun hamkorlikka asoslangan o‘yinlar ustuvor bo‘lishi zarur.
2. **Integrativ yondashuv** – o‘yinlarni boshqa ta’limiy faoliyat turlari (masalan, darslik materiallari, mavzuga oid topshiriqlar) bilan uyg‘unlashtirib, ularni kompleks tarzda joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish.
3. **Refleksiv yondashuv** – har bir o‘yin yakunida o‘quvchilar bilan muloqot qilish, ularning o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu orqali o‘quvchi nafaqat o‘z faoliyatini anglaydi, balki boshqa o‘quvchilarning hissasini ham qadrlashni o‘rganadi.

Natija. O‘yin orqali yaratilgan iliq ijtimoiy muhit bolalarning o‘zaro bahsli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va empatiya ko‘rsatish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. O‘yinlar davomida hosil bo‘lgan muloqot muhitida bolalar o‘z fikrini erkin bayon etishni, tinglash va tushunishni, o‘zaro yordamni qadrlashni o‘rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy ijtimoiylashuv darajasini oshiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va jamoa a’zosi sifatida o‘z o‘rnini anglashiga xizmat qiladi. Xususan, o‘yin orqali yaratilgan iliq va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar – empatiya, hamkorlik, o‘zaro tushunish, shuningdek bahsli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa olish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy o‘yinlar bolalarda o‘zini va boshqalarni anglash, o‘z fikrini erkin ifoda etish va faol tinglash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

O‘yin jarayonida yuzaga keladigan muloqot holatlari bolalarni o‘zaro fikr almashish, muammoli vaziyatlarda murosaga kelish, tengdoshlar bilan hamjihatlikda harakat qilishga o‘rgatadi. Bu esa nafaqat ularning kommunikativ malakalarini takomillashtiradi, balki ijtimoiylashuv darajasini oshiradi, jamoada o‘z o‘rnini anglashga va jamoaviy javobgarlikni his qilishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘yin orqali amalga oshirilgan interaktiv metodlar orqali bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stressli vaziyatlarni boshqarish, o‘zini ijobiy baholash kabi shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari kuchayadi. Bu holat, o‘z navbatida, bolaning emotsional barqarorligini mustahkamlaydi va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sinf jamoasidagi ijobiy ijtimoiy muhit o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini, darslardagi faolligini, hamkorlik darajasini oshirish bilan birga, psixologik barqarorlikni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagog tomonidan o‘yin faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi — bu nafaqat tarbiyaviy vosita, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanishning muhim texnologiyasidir.

Quyidagi harakatli o‘yinlar hamjihatlikni shakllantirishda samarali natijalar beradi:

- “Halqani uzmasdan o‘tish” – bolalarda birdamlik va hamkorlikni rivojlantiradi;
- “Kim ko‘proq do‘st topadi?” – tanishuv va do‘stona muomala ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;
- “Yetakchiga ergash” – liderlik va itoat qilish fazilatlarini uyg‘unlashtiradi;
- “Kim oldinga yetadi?” – jamoaviy raqobatda o‘zini tutish va boshqalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘rgatadi.

Har bir o‘yin yakunida o‘qituvchi bilan qisqa suhbat o‘tkazilishi lozim: kim qanday harakat qildi, nima uchun shunday yo‘l tutdi, boshqalarga qanday yordam berdi. Bu orqali bolalar o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy yondashishni, o‘z fikrini ifoda etishni va boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashni o‘rganadi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogikada ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional salohiyatini uyg‘un tarzda shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon nihoyatda nozik va mas’uliyatli hisoblanadi. Harakatli o‘yinlar ana shu kompleks rivojlanishning samarali vositalaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ular o‘quvchilarda jismoniy faollikni oshirish bilan birga, ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilaydi, o‘zaro muloqot va hamkorlikni faollashtiradi, emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, harakatli o‘yinlar orqali bolalarda hamjihatlik, o‘zaro hurmat, birdamlik, sabr-toqat, rahmdillik, liderlik kabi ijtimoiy fazilatlar bosqichma-bosqich shakllanadi. Bunday sifatlar nafaqat dars jarayonida, balki bolalarning kundalik hayotida, jamoa ichida o‘zini tutishida, do‘stlar bilan muloqot qilishda, ijtimoiy muhitga moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu pedagogik texnologiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, o‘qituvchining metodik bilimiga, didaktik yondashuviga va sinfdagi psixologik muhitni to‘g‘ri tahlil qilish qobiliyatiga bog‘liq. O‘qituvchi har bir o‘yinni nafaqat didaktik maqsad asosida, balki o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlasa, bu o‘yinlar sinfda ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirishga, ijtimoiy rol va munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, harakatli o‘yinlar bolalar orasidagi shaxslararo to‘siqlarni kamaytirib, ularni o‘zaro hamkorlikka undaydi. O‘yin jarayonida har bir bola o‘zining jamoadagi o‘rnini his qiladi, boshqa o‘quvchilar bilan teng asosda muloqotda bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga olib keladi.

Umuman olganda, maqola asosida taklif etilgan pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi, jamoaviylik ruhini shakllantiradi. Harakatli o‘yinlar — bu faqat jismoniy tarbiya vositasi emas, balki jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanish yo‘lida muhim bosqichdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullaev, Y. (2021). Forms and methods of developing the use of folk movement games in high school students. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(2), 73-79.
2. Radjapov U.R., Xakimdjanova K., & Jo`Rayeva Sh. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatli o‘yinlar orqali barkamol insonni kamol toptirish g‘oyasining pedagogic ahamiyati. Ученый XXI века, (9 (90)), 43-50.
3. Turdimurodov, D. Y. (2021). Willed qualities of a personality and ways of their formation in sport. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (104), 689-692.
4. Yashnarjon Mahkamovich Abdullayev (2022). Harakatli o‘yin vositalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakat sifatlarni rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 3 (2), 471-477. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-471-477
5. Абдуллаев Яшнаржон Маҳкамжонович, & Турдимуродов Дилмурод Йўлдошевич (2020). Ўсмир ёшдаги ўқувчиларда иродавий сифатларни жисмоний тарбия воситалари орқали ривожлантириш. (Современное образование (Узбекистан). (9 (94)), 56-62.

Kuchkinov Xudoybergan Xidirovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLAR VA ONLAYN PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o‘qitishda elektron darsliklar va onlayn platformalardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, multimodal va konstruktiv yondashuvlar, masofaviy va aralash ta’lim modellari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida til o‘rganish samaradorligini oshirish yo‘llari yoritiladi. Elektron darsliklarning interaktivligi, onlayn platformalarning mustaqil o‘qishga yo‘naltirilganligi, talabalarning kasbiy ingliz tilini egallashiga xizmat qilishi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar nafaqat til o‘rganish, balki kasbiy tayyorgarlikni ham mustahkamlashga yordam beradi.*

Kalit so`zlar: *elektron darsliklar, onlayn platformalar, multimodal o‘qitish, konstruktiv yondashuv, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar.*

USE OF ELECTRONIC TEXTBOOKS AND ONLINE PLATFORMS IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF TECHNICAL SCIENCES

Annotation. *This article analyzes the possibilities of effective use of electronic textbooks and online platforms in teaching English to students of technical disciplines. The role of digital technologies in the educational process, multimodal and constructive approaches, distance and blended learning models, and ways to increase the effectiveness of language learning based on a competency-based approach are highlighted. The interactivity of electronic textbooks, the orientation of online platforms to independent learning, and their contribution to students' mastery of professional English constitute the main content of the article. These approaches help not only to learn the language, but also to strengthen professional training.*

Keywords: *electronic textbooks, online platforms, multimodal teaching, constructive approach, distance learning, blended learning, competency-based approach, digital technologies.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ И ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. *В статье анализируются возможности эффективного использования электронных учебников и онлайн-платформ в обучении английскому языку студентов технических специальностей. Будут рассмотрены роль цифровых технологий в образовательном процессе, мультимодальные и конструктивные подходы, дистанционные и смешанные модели обучения, а также пути повышения эффективности изучения языка на основе компетентностного подхода. Интерактивность электронных учебников, направленность онлайн-платформ на самостоятельное обучение и их вклад в овладение учащимися профессиональным английским языком составляют основное содержание статьи. Эти подходы помогают не только выучить язык, но и укрепить профессиональную подготовку.*

Ключевые слова: *электронные учебники, онлайн-платформы, мультимодальное обучение, конструктивный подход, дистанционное обучение, смешанное обучение, компетентностный подход, цифровые технологии.*

Kirish. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish qiyinlashib bormoqda. O‘quv jarayonining har bir bosqichida raqamli vositalardan foydalanish nafaqat zamon talabi, balki ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Ayniqsa, texnika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o‘rganish jarayonida elektron darsliklar va turli onlayn platformalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki texnik fanlar bilan bog‘liq adabiyotlar, xalqaro me’yorlar, ilmiy maqolalar va

texnologik yangiliklarning asosiy qismi ingliz tilida yaratilgan bo‘lib, bu sohada raqobatbardosh bo‘lish uchun ingliz tilini yetarli darajada egallash zarur.

Elektron darsliklar an’anaviy bosma darsliklardan farqli o‘laroq, interaktivlik, multimediya elementlari, tezkor yangilanish va foydalanishdagi qulaylik kabi ustunliklarga ega. Ular nafaqat matnli materiallarni taqdim etadi, balki turli videodarslar, audioyozuvlar, interaktiv mashqlar va testlar yordamida bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Texnika sohasida o‘qiyotgan talabalar bu darsliklar orqali kasbiy terminologiyani tezroq o‘zlashtiradi, texnik matnlarni o‘qish va tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi hamda og‘zaki va yozma shakldagi kasbiy muloqotga tayyor bo‘ladi.

Bundan tashqari, internet orqali ishlaydigan onlayn platformalar ham til o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Coursera, edX, FutureLearn, Quizlet, Duolingo, Khan Academy kabi platformalar ingliz tilini texnik sohalarga yo‘naltirilgan kurslar asosida o‘rganish imkonini beradi. Ushbu platformalardan foydalanuvchi talabalar mustaqil ravishda materiallarni o‘zlashtirishi, o‘z bilim darajasini tekshirishi, video va grafik vositalar orqali tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishi mumkin. Ayniqsa, real hayotdagi muhandislik, axborot texnologiyalari, elektronika yoki mexanika kabi sohalarga oid misollar yordamida ta’lim jarayoni ancha samarali kechadi.

Shuningdek, ushbu vositalar o‘qituvchilar uchun ham qulaylik yaratadi. Ular talabalarning o‘zlashtirish darajasini kuzatib borishi, interaktiv topshiriqlarni yaratishi, individual yondashuv asosida darslarni moslashtirishi mumkin. Bu esa ta’limda sifat va samaradorlikni oshiradi, talabalar bilimini chuqurlashtiradi va mustaqil ishlashga undaydi. Hozirgi kunda internet tezlashuvi jadallab bormoqda. Vaholanki, bu hodisa yoshlarimizni be’etibor qoldirmayapti. Natijada Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga doir keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda [2, 58].

Asosiy qism. Elektron darsliklar — bu raqamli formatda ishlab chiqilgan, interaktiv kontentni o‘z ichiga olgan o‘quv vositalaridir. Ular multimedia elementlari (video, audio, animatsiyalar, testlar) orqali tilni o‘rganishni yanada samarali qiladi. Onlayn platformalar esa (masalan, Coursera, EdX, Moodle, Quizlet, Duolingo, Google Classroom) talabalarga mustaqil o‘rganish, topshiriqlar bajarish, baholash, fikr almashish va darsga tayyorlanish imkonini beradi.

Texnika yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘qitishda quyidagi nazariy asoslar muhim hisoblanadi:

Multimodal o‘qitish – turli sensor tizimlar orqali ma’lumotni o‘zlashtirish. Bugungi kunda ta’lim sohasida o‘qitish metodikalarining samaradorligini oshirish uchun ko‘plab innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ular orasida **multimodal o‘qitish** konsepsiyasi o‘ziga xos yangilik va dolzarblik kasb etgan. Multimodal o‘qitish — bu bilimni faqat bitta yo‘nalish (masalan, faqat eshitish yoki faqat ko‘rish) orqali emas, balki bir nechta sensor tizimlar — eshitish, ko‘rish, harakat (kinestetik), nutq va hatto hissiy idrok orqali birgalikda o‘zlashtirishga asoslangan o‘quv jarayonidir.

Multimodal yondashuvning nazariy asosi kognitiv psixologiyaga borib taqaladi. Inson miyasi turli sezgi kanallaridan kelgan ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyatiga ega. Aynan shuning uchun multimodal o‘qitish — bu bilimni samarali, barqaror va faol o‘zlashtirishni ta’minlaydigan yondashuvdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bir nechta sensor tizimlar birgalikda ishlatilgan ta’lim jarayonida talabaning diqqat markazi yuqori bo‘ladi, materialni tushunish va yodda saqlash esa yanada samarali amalga oshadi.

Konstruktiv yondashuv – talabani faol o‘quvchi sifatida shakllantirish. Zamonaviy ta’lim jarayonlarining samaradorligi bevosita o‘quvchining faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashiga va bilimni chuqur o‘zlashtirish darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, **konstruktiv yondashuv** zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, bilim — tayyor shaklda o‘qituvchidan o‘quvchiga berilmaydi, balki o‘quvchi uni o‘z faoliyatida mustaqil ravishda **konstruktsiyalashi**, ya’ni qurishi kerak. Konstruktivizm nazariyasi kognitiv psixologiyaga asoslanib, shaxsiy tajriba, muhokama, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali o‘rganishni rag‘batlantiradi. Konstruktiv yondashuv o‘qituvchidan o‘quvchi faoliyatining tashkilotchisi,

bilimni shakllantirish jarayonining fasilitatori sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Bu yondashuv nafaqat bilim berishga, balki shaxsiy intellektual faollik, mas'uliyat, mustaqillik va kasbiy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, konstruktiv yondashuv orqali talaba nafaqat bilim oluvchi, balki bilim yaratuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalari – sinfda va undan tashqarida mustaqil ishlashni birlashtirish. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayoni tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalari an'anaviy o'qitish modellari bilan bir qatorda barqaror ta'lim shakliga aylana boshladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchi va talabalarga faqat auditoriyada emas, balki sinfdan tashqarida ham bilim olish imkonini beradi, mustaqil izlanish va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalari ayniqsa texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy va til ko'nikmalarini samarali shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi geografik jihatdan turli joyda bo'lgan holatda, asosan raqamli vositalar orqali tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Bu modelda o'quv materiallari internet orqali taqdim etiladi, muloqot esa videodarslar, forumlar, elektron pochta va boshqa raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi.

Aralash ta'lim (blended learning) esa an'anaviy (yuzma-yuz) va masofaviy ta'lim usullarining uyg'unlashgan shakli bo'lib, u darslarning bir qismini sinfda o'qitishni, boshqa qismini esa mustaqil tarzda onlayn bajarishni o'z ichiga oladi. Aralash ta'lim talabalarning darsga tayyorlanishini, qiziqishini va mustaqil ishlash salohiyatini oshiradi. Masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalari nafaqat pandemiya davrining zaruratidan kelib chiqqan vaqtinchalik usullar, balki zamonaviy ta'limning barqaror va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, texnika sohasida o'qiyotgan talabalar uchun ushbu yondashuvlar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, texnik matnlarni o'zlashtirish va zamonaviy axborot muhitida faol ishtirok etish imkonini beradi. Shunday qilib, bu texnologiyalar o'qitishning sifatini oshirish bilan birga, o'quvchini ijodkor, mustaqil va innovatsion fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Blended Learning, ya'ni aylantirilgan ta'lim, onlayn va an'anaviy o'qitish metodlarini birlashtirgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod ingliz tilini o'rgatishda samarali qo'llanadi, chunki o'quvchilarga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini beradi, shu bilan birga o'qituvchi bilan bevosita muloqot qilishni ham ta'minlaydi. Blended Learning platformalari o'quvchilarga videolarni tomosha qilish, testlarni bajarish, forumlarda muhokama qilish kabi vazifalarni mustaqil bajarishga imkon yaratadi. O'qituvchi esa an'anaviy sinfda faoliyatini davom ettiradi va o'quvchilarni muammolarni hal qilishda yo'naltiradi [1, 197].

Kompetensiyaviy yondashuv – faqat bilim emas, balki amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish. Zamonaviy ta'lim tizimida inson kapitalini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun an'anaviy bilimga asoslangan yondashuv yetarli emasligi tobora ayon bo'lmoqda. Bu holat ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Kompetensiyaviy yondashuv — bu o'quv jarayonida shunchaki bilim berish emas, balki o'rgatilayotgan bilimlarni hayotiy, amaliy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan metodologik asosdir. Kompetensiya — bu muayyan vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va motivatsiyaning uyg'un majmuidir. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchining muvaffaqiyati faqat bilimga emas, balki uni qo'llash, muloqot qilish, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash kabi qator yumshoq (soft) va qattiq (hard) ko'nikmalarga ham bog'liq bo'ladi.

Tahlil va muhokama. O'zbekiston texnika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'quv materiallari bilan birga elektron darsliklar (PDF, EPUB, interaktiv PDF) va onlayn platformalar orqali o'qitilgan guruhlar yuqori natijalarga erishmoqda. Jumladan: Cambridge English for Engineering elektron darsligi texnik terminologiya, mashq tizimi va kasbiy suhbat shakllari bilan boyitilgan. Coursera platformasidagi "English for Science, Technology and Engineering" kurslari texnik kontekstda o'qish va yozish malakasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Quizlet orqali terminlar asosida fleshkartlar, testlar va so'z boyligini oshiruvchi mashqlar samarali bo'lib chiqdi. Google Classroom yordamida o'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali aloqa, topshiriqlarni uzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Elektron resurslar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, interaktiv ravishda bilim olishga, o‘z tempida o‘rganishga undaydi. Ayniqsa texnik soha uchun moslashtirilgan video darslar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar ingliz tili bilan birgalikda soha bilimlarini ham mustahkamlaydi.

Xulosa. Texnika yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini o‘rgatishda elektron darsliklar va onlayn platformalar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Bu vositalar talabaning o‘quv faolligini oshiradi, o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi va zamonaviy texnik muhitga tayyorlaydi. Raqamli resurslar orqali nafaqat til o‘rgatiladi, balki kasbiy kompetensiyalar ham shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, texnika yo‘nalishida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun elektron darsliklar va onlayn platformalar nafaqat qulay o‘quv vositasi, balki kasbiy til kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy va zaruriy usulidir. Bu vositalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish orqali til o‘rganish jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin, bu esa ta’limning sifatli va natijaviy bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Gulruh Yusufsho Qizi Mahmadshoyeva, & Laylo Raxmonovna Mirzoyeva (2025). Ingliz tili o‘qitishda virtual va onlayn platformalardan foydalanish: innovatsion metodlar. Academic research in educational sciences, 6 (NUU Conference Students 1), 195-199.

2. Qodirova, M. A. qizi. (2022). Ingliz tilini o‘qitishda elektron axborot ta’lim resurslarining o‘rni. *international conferences*, *1*(8), 56–59. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/131

3. Faxriddinovna, Q. B. (2023). The role and importance of an integrated bilingual approach in teaching English to students.

4. Karshieva, B. F. (2024). Teaching english to technical students through the principles of integration based on interdisciplinary relations. Экономика и социум, (7 (122)), 108-111.

5. Qarshiyeva, B. D. F. (2022). Ingliz tili fanini bilingual o ‘qitish va fakultativ darslar uchun case study metodidan foydalanish. *Academic research in educational sciences*, *3*(4), 21-25.

Rahmonova Hojibuvi Rizojon qizi
Buxoro davlat pedagogika institute
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)
E-mail: rahmonovahojibuvi@gmail.com

O`ZBEK MILLIY MUSIQASINING YOSHLAR MA`NAVIYATIDAGI RO`LI

Annotatsiya. *Maqolada milliy musiqa madaniyatimizning yosh avlodlar ma'naviyatining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Vatanimiz boy musiqiy merosga ega bo'lib, asrlar davomida musiqalar xalqning ruhiy dunyosi, qadriyatlari va estetik qarashlarini o`zida aks ettirib kelgan. Bugungi kunda yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida milliy ohanglarning tutgan o'rni nihoyatda muhim. yoshlarning estetik tarbiyasi jarayonida milliy kuy qo`shiqlarimizning ijtimoiy-psixologik ta'siri, yoshlarni jamiyatda milliy o'zlikni anglashidagi roli va bu orqali ma'naviy uyg'onishni yanada kuchaytirish masalalari ilmiy yondashuvlar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy musiqa, yoshlar ma'naviyati, estetik tarbiya, milliy o'zlik, madaniy meros, O'zbekiston, musiqa madaniyati, yoshlar tarbiyasi, raqamlashtirish, platformalar.*

РОЛЬ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В статье дается глубокий анализ роли и значения нашей национальной музыкальной культуры в формировании духовности подрастающего поколения. Наша Родина имеет богатое музыкальное наследие, и на протяжении веков музыка отражала духовный мир, ценности и эстетические взгляды народа. Сегодня роль национальных мелодий в духовном воспитании нашей молодежи чрезвычайно важна. На основе научных подходов освещается социально-психологическое воздействие наших национальных песен на процесс эстетического воспитания молодежи, их роль в осознании национальной идентичности в обществе, а также вопросы дальнейшего усиления духовного пробуждения посредством этого.*

Ключевые слова: *национальная музыка, духовность молодежи, эстетическое воспитание, национальная идентичность, культурное наследие, Узбекистан, музыкальная культура, воспитание молодежи, цифровизация, платформы.*

THE ROLE OF UZBEK NATIONAL MUSIC IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Abstract. *The article deeply analyzes the role and significance of our national musical culture in the formation of the spirituality of the younger generation. Our homeland has a rich musical heritage, and for centuries music has reflected the spiritual world, values, and aesthetic views of the people. Today, the role of national melodies in the spiritual education of our youth is extremely important. The socio-psychological impact of our national melodies in the process of aesthetic education of young people, the role of young people in understanding national identity in society, and thereby further strengthening spiritual awakening are highlighted on the basis of scientific approaches.*

Keywords: *national music, youth spirituality, aesthetic education, national identity, cultural heritage, Uzbekistan, musical culture, youth education, digitization, platforms.*

Kirish. Musiqa ma`lumki, asirlar davomida insoniyat tarixidagi eng qadimgi va kuchli ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston milliy musiqalari esa ming yillik tarix va madaniyatimizni, falsafa va ma'naviyatimizning jozibali ohangdor ovozi hisoblanadi. Bugungi zamonaviy texnalogiyalar dunyosida milliy musiqamiz nafaqat an'anaviy merosimiz, balki yoshlarimizning ma'naviy dunyosini boyitishdagi, shakllantirishdagi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Milliy musiqalar orqali har bir xalqning o'ziga xos madaniy merosi, tarixiy xotirasi va ma'naviy olamini ko`rish

mumkin. Musiqalar o`z zamirida millatlarning ruhiy qiyofasi, estetik didi, urf-odatlari va hayotga bo‘lgan qarashlarini ifoda etadi. Musiqiy meros – nafaqat san’atning bir ko‘rinishi bo`libgina qolmay ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda, uzluksiz saqlanishini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Jumladan, o‘zbek xalqining milliy musiqasi asrlar davomida shakllanib, xalqning qalbi, iztiroblari va shodliklarini o‘z ichiga olgan san’at turi sifatida yuksak qadrlanib kelmoqda. Milliy musiqamizning ildizlari qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, sufiylik madaniyati, baxshichilik va maqom an’analariga borib taqaladi. Vatanimizda milliy musiqa madaniyati qadimdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodiyoti, bayramlar va marosimlar bilan uzviy bog‘langan.

Adabiyotlar va metodlar. Sharq milliy musiqasi tarixida alohida o‘rin tutuvchi Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent musiqiy an’analari nafaqat mintaqaviy, balki jahon madaniyati miqiyosida ham yuksak baholanib kelmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalar o‘z asarlarida musiqaning ma’naviy va axloqiy tarbiyada tutgan o‘rni haqida teran fikrlar bildirib o`tishgan. Forobiyning “Musiqa haqidagi katta kitob”asarida va Navoiyning “Majois ul nafois” asarlarida musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir qiluvchi, ruhiy poklanishga sabab bo`luvchi ma’naviy vosita sifatida bayon qilib o`tilgan.

Yurtimiz mustaqillikga erishganidan keyingi davrlarda O‘zbekistonda milliy qadryatlarni, o‘zlikni tiklash, tarixiy xotirani qayta jonlantirish va ma’naviy yuksalishni ta’minlashda musiqa madaniyati muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Ayniqsa, milliy an’analarga tayangan holda darslar olib boriladiga musiqa maktablari, musiqiy festivallar, xalqaro forumlar tashkil etilishi musiqaning ijtimoiy va ma’naviy hayotdagi ta’sirini yanada rivojlantirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi O‘zbekiston – yangi renesans” g‘oyasi doirasida ham madaniyat va san’atga, jumladan milliy musiqa orqali yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda, o‘zbek milliy musiqasining bolalar tarbiyalashdagi ijobiy xususiyatlarini o‘rganish, uning bolalarning qalbi va ma’naviy dunyosiga ko‘rsatayotgan ta’sirini chuqur tahlil qilish, juda muhim ilmiy vazifalardan biriga aylangan. Tarbiyaviy nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek musiqasi nafaqat musiqiy jarayon, balki hissiyotlar, holatlar, ruhiy kechinmalarni musiqa orqali ifodalash va tarbiyalash madaniyatidir. Bunday xususiyatlar, “Tanovar” kabi ko`plab asarlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Tanovar” asari o‘zining tarixiy ildizlari mavjud bo`lib, ammo qalbga bevosita ta’sir etuvchi musiqiy kuchi bilan xalq ruhiyatining yorqin ifodasidir. Shunga o`xshash o`zbek xalq milliy kuy qo`shiqlarida qayg‘u ham, shodlik ham, hayotga bo`lgan muhabbat ham ufurib turadi. Ayni shu jihatlari bilan , bunday asarlarni nazariy va tarixiy jihatdan o‘rganish orqali milliy musiqaning inson ma’naviyatiga ta’sirini teran anglash mumkin. Milliy musiqa madaniyati yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod jumladan bolalar milliy merosni chuqur anglab, uni qalban his etsa, ularda vatanga muhabbat, tarixga hurmat, mustaqillikka bo`lgan sadoqat, global tahdidlarga qarshi ma’naviy va mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Natijalar va muhokama. Musiqiy tarbiya – bu faqat musiqa tinglash bilangina emas, balki qalb orqali yaxshilik bilan yomonlikni farqlash, ko‘ngil ila baholash, estetik didni shakllantirish jarayonidir. Shuninh uchun ham maktab va oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi, milliy xonandalik, an’anaviy cholg‘u ijrochiligi kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish bugungi kunda jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa maktablardagi musiqa madaniyati darslarida bolalarga o`zbek milliy kuy qo`shiqlarini yanada ko`proq o`rgatib borish ularni milliy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, bugungi globallashuv jarayonlarida bolalar orasida musiqa madaniyatiga bo‘lgan qarashlarda ham turli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. G‘arb ommaviy madaniyati ta’sirida ba’zan milliy qadriyatlardan uzoqlashish, ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolish, ular oqibatida esa soddalashgan musiqiy did shakllanishi kuzatiladi. Bu holatda milliy musiqa yoshlar ma’naviyatini tiklash va barqarorlashtirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Milliy kuy qo`shiqlar orqali nafaqat tarbiya, balki milliy g‘urur, tarixiy idrok, jamoaviylik hissi ham shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni tiklash, xalq san’ati va madaniyatini asrash, rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, musiqaga, uning madaniy va tarbiyaviy kuchiga katta e’tibor qaratildi. Bu tashabbuslar 2016-yilda yana faollashdi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan maqom san'atini yanada asrab-avaylash va targ'ib qilish yuzasidan qat'iy qarorlar qabul qilindi. 2018-yilda esa Buxoro shahrida ilk bor "Xalqaro maqom san'ati forumi" o'tkazilganligi, bu forumda 73 ta davlatdan 300 dan ortiq mehmonlarni jalb etilishi o'zbek maqomining butun dunyoga tanitilishida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi . 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Besh tashabbus" loyihasi doirasida madaniyat va san'atga, ayniqsa musiqaga alohida urg'u berildi. Bunda uchinchi tashabbus – "Yoshlarni madaniyat, san'at va sportga jalb qilish" bo'yicha respublika bo'ylab musiqa maktablari va to'garaklarini ko'paytirish, umumta`lim maktablarini milliy musiqa asboblari bilan taminlash va musiqa madaniyati darslarining sifatini oshirish bo`yicha qator vazifalar belgilandi. Natijada 2018-2021 yillar oralig'ida 300 dan ortiq bolalar musiqa va san'at maktablari rekonstruksiya qilindi yoki yangidan tashkil etildi. Umumta`lim maktablari 5 turdagi milliy asboblar bilan to`liq ta`minlandi. 2021-yil 26-maydagi Prezident farmoni bilan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat imzolandi. Ushbu farmon asosida "Ijod" fondi tashkil qilinib, yosh musiqachilarga asboblar xarid qilish, xorijda tahsil olish imkoniyatlari, ustozlar bilan ishlash uchun grantlar ajratish boshlandi. Jumladan, "Maqom yo'llari" nomli ilmiy-ijodiy ekspeditsiya loyihasi boshlanib, Farg'ona vodiysi, Xorazm vohasi, Buxoro va Qashqadaryo hududlaridagi maqom namunalarini yig'ish va raqamlashtirish ishlari olib borildi. 2022-yilda O'zbekistonda musiqa san'atiga bag'ishlangan yana bir muhim tadbirlardan biri – "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali" bo'lib o`tdi. Surxondaryo viloyatida o`tkazilgan o'tkazilgan bu festivalda 20 dan ortiq davlat va millat vakillari ishtirok etib, baxshichilikning turli maktablarini namoyish qilishdi. Yana bir muhim tadbirlardan Toshkent shahrida "Navro'z" xalqaro musiqiy festivaliga asos solindi, unda turli millatlar vakillari o'z xalq qo'shiqlari bilan ishtirok qildi. 2023-yilda "O'zbekiston musiqasi tarixi" deb nomlangan ko'p jildli fundamental ensiklopediya nashr qilingan bo`lib, ushbu asarda qadimgi davrlardan to zamonaviy estrada yo'nalishigacha bo'lgan musiqa tarixiy taraqqiyoti, eng mashhur bastakor va ijrochilarning biografiyalari, xalq cholg'ularining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Musiqa sohasi bugungi kunga kelib ijtimoiy birlik, milliy g'urur, estetik tarbiya va yoshlar ongini yuksaltirish vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, xalqaro miqyosda ham O'zbekiston musiqasining obro'si ortib borayotganini ko`rish mumkin. Shu jumladan maqom, baxshichilik, doira, tanbur, dutor kabi cholg'ulari jahon musiqashunoslari tomonidan o'rganilmoqda, o'zbek sozandalari ko'plab musiqiy festivallarda yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Barcha say-harakatlarga qaramay, O'zbekistonda yoshlarning milliy musiqaga bo'lgan munosabati "Ijod" fondi tomonidan o'tkazilgan monitoringda qiziqarli tendentsiyalarni ochib berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning 45 foizigina o'zbek milliy musiqasini yaxshi bilishini bildirgan. Bu ko'rsatkich milliy musiqamizni o'rganish va qadrlash borasida ijobiy natijani ko'rsatsa-da, hali yetarlicha yuqori emas. 32 foizi yoshlar esa musiqiy merosni davom ettirishga tayyorligini bildirgan. Bu raqamlar madaniy merosimizni saqlab qolish, rivojlantirish va yanada ko'proq targ'ibot va qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Ayni paytda, zamonaviy musiqani afzal ko'ruvchi yoshlar miqdori 65 foizni tashkil qiladi, bu esa global ta'sirlar va zamonaviy tendentsiyalarning kuchli ta'siridan dalolat beradi. Bu ma'lumotlar statistikasi shuni ko'rsatib turibdiki, milliy musiqamizni yoshlar orasida yanada ommalashtirish uchun an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limi, raqamli platformalar va yoshlarga yo'naltirilgan loyihalar orqali milliy musiqamizning joriy holatini yaxshilash mumkin. O'zbekiston milliy musiqasini rivojlantirish va yoshlarga yetkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratmoqda. "Virtual Maqom" loyihasi buning yorqin misoli bo'lib, texnologiyalari yordamida an'anaviy maqom san'atini interaktiv tarzda o'rgatadi. Bu yondashuv yoshlarga nafaqat musiqiy bilimlarni, balki uning tarixiy hamda madaniy jihatlarini ham qiziqarli usulda yetkazish imkonini beradi.

Xulosa. Kelajakda quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega: Musiqa ta'limini boshlang'ich darajadan boshlab tizimli ravishda takomillashtirish boqcha va maktablarda milliy musiqalarga bo`lgan etiborni kuchaytirish. Raqamli platformalarda milliy musiqani keng targ'ib qilish chora tadbirlarini ko`rish. Yosh musiqachilarni qo'llab-quvvatlash va ular uchun ijodiy muhit yaratib berish Xalqaro miqyosda o'zbek milliy musiqasini namoyish qilish imkoniyatlarini

kengaytirish. Milliy musiqamiz - bu bizning ma'naviyatimizning asosiy omillaridan biri hisoblanib, milliy o'zligimizning ifodasidir. Uni saqlab qolish va rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Texnologik yutuqlardan foydalangan holda an'analarimizni yangi shaklda takomillashtirsak, milliy musiqamiz nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo auditoriyasiga yetib boradi. Bu yo'lda birdamlik bilan harakat qilish va izlanishlar olib borish muvaffaqiyatning asosiy kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1.Mozart, Amadeus, Rahmonova Hojibuvi, and Sanokul Dustov. "The impact of music on the human psyche on the example of music by wolfgang." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.1 (2022): 51-56.

2 Rahmonova H. R. Q., Dostov S. Klassik musiqaning rivojlanish bosqichlari. ularning qisqacha tavsifi va asosiy vakillaridan is bax, va motsart, l. van bethoven haqida //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 600-606.

3. Qizi R. H. R. Musiqani yoshlar ongiga singdirishga zamonaviy texnologiyalarning o 'rni va ahamiyati //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – Т. 13. – С. 207-210.

4. Qizi, Rahmonova Hojibuvi Rizojon, and Nurillayev Farrux. "Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida." *Ta'lim fidoyilari* 24.45 (2022): 73-83.

5. To'Rayevich, Yarashev Jo'Rabek, and Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi. "Musiqaning inson ongiga tasiri." *Ta'lim fidoyilari* 7.8 (2022): 607-611.

6. Qizi R. H. R., Dustov S. The life and career of Johann Sebastian Bach. – 2022.

7. Qizi, Rahmonova Hojibuvi Rizojon, and Sanokul Dustov. "The life and career of Johann Sebastian Bach." (2022).

8. Turaevich Y. J. et al. The Polishing of Music in Central Asia for Centuries //Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 05. – С. 66-69.

9. Rahmonova Hojibuvi Rizojon qizi. (2024). O`zbekiston musiqiy merosi jahon hamjamiyati nazarida. https://doi.org/10.5281/zenodo.13691389

Qosimova Manzura Abdullayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

"BILIMDONLAR MASKANI" PLATFORMASIDA O‘QUVCHILARINING HAMKORLIK KO‘NIKMALARINI BAHOLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan "Bilimdonlar maskani" platformasida ishlashga qo‘yilgan talablar, baholash mezonlari, platformaning imkoniyatlaridan foydalanish, "Bilimdonlar Maskani" platformasining texnik jihatlari, O’quvchilarga hamkorlik texnologiyasi asosida ta’lim berishda shakllantiriladigan hayotiy ko’nikmalar mohiyati haqida nazariy ma’lumotlar berilgan va sinflar kesimida dars namunasi keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, hamkorlik qobiliyati, hayotiy ko‘nikma, guruhiy faoliyat, baholash usullari, o‘qish darslari, rolli o‘yinlar, refleksiya, kuzatish.*

ВОЗМОЖНОСТИ ОЦЕНКИ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НА ПЛАТФОРМЕ «BILIMDONLAR MASKANI»

Аннотация. *В данной статье даны теоретические сведения о требованиях к работе на платформе "маска знаний", направленных на развитие навыков сотрудничества учащихся начальных классов, критериях оценки, использовании возможностей платформы, технических аспектах платформы "маска знаний", характере жизненных навыков, формируемых при обучении учащихся по технологии сотрудничества, приведен пример урока в разрезе занятий.*

Ключевые слова: *начальное образование, умение сотрудничать, жизненные навыки, групповая деятельность, методы оценки, уроки чтения, сюжетно-ролевые игры, рефлексия, наблюдение.*

OPPORTUNITIES FOR ASSESSING STUDENTS’ COLLABORATION SKILLS ON THE “BILIMDONLAR MASKANI” PLATFORM

Annotation. *This article provides theoretical information on the requirements for working on the platform of the "space of learners", aimed at developing the collaborative abilities of Primary School students, assessment criteria, the use of the platform's capabilities, technical aspects of the "space of learners" platform, the essence of life skills that are formulated in teaching students on the basis of collaborative technology, and a lesson*

Keywords: *Elementary Education, Collaborative ability, life skills, group activities, assessment methods, reading lessons, role-playing games, reflection, observation.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sifatini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’limtarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida muayyan vazifalar amalga oshirilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o‘z navbatida ta’lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi. So‘ngi yillarda Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh kilish bo‘yicha yangi tizim shakllandi. Ta’lim soxasida jahon ta’lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarining ta’lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga karatilgan ishlar amalga oshirildi. Kadrlar saloxiyatini yuksaltirish masalari kaytadan ko‘rib chikilmoqda. Aynan

pedagog kadrlar tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etish va uning sifat samaradorligini oshirish uzluksiz ta’lim tizimining bosh masalasiga aylandi. Bunda zamonaviy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Quyida mana shunday zamonaviy yondashuvli loyihalar haqida metodik tavsiyalar keltirilgan.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi virtual loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Virtual hikoya yozish/rasmlar bilan hikoya tuzish	
Mazmun	**Hamkorlik ko'nikmalari**
O'quvchilar guruhlarga bo'linib, birgalikda hikoya yozadilar yoki mavzuga oid rasmlar seriyasidan foydalanib hikoya tuzadilar. Har bir o'quvchi hikoyaning bir qismini yozishi yoki rasmga izohlar yozishi mumkin.	fikr almashish, birgalikda ishlash, o'zaro fikrlarni hurmat qilish, o'z hissasini qo'shish, topshiriqni bo'lishish va birgalikda yakunlash

2. Virtual taqdimot tayyorlash	
Mazmun	**Hamkorlik ko'nikmalari**
O'quvchilar guruhlarga bo'linib, ma'lum bir mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlaydilar. Har bir o'quvchi taqdimotning bir qismini tayyorlashi, yoki taqdimotning turli jihatlariga javobgar bo'lishi mumkin (masalan, bir o'quvchi matnni yozadi, ikkinchisi rasmlarni topadi, uchinchisi esa taqdimotni tuzadi).	vazifalarni taqsimlash, birgalikda rejalashtirish, fikrlarni birlashtirish, bir-birlariga yordam berish, o'z vaqtida ishlash. Google Slides yoki PowerPoint kabi dasturlardan foydalanish mumkin

3. Virtual kollaj/poster yaratish	
Mazmun	**Hamkorlik ko'nikmalari**
O'quvchilar guruhlarga bo'linib, ma'lum bir mavzuga oid virtual kollaj yoki poster yaratadilar. Har bir o'quvchi kollaj yoki posterga o'z rasmlarini, matnlarini qo'shishi mumkin.	fikr almashish, birgalikda dizaynni yaratish, o'zaro tasavvurlarni boyitish, yakuniy mahsulotni birlashtirish

4. Onlayn o'yinlar (hamkorlik talab qiluvchi)	
Mazmun	**Hamkorlik ko'nikmalari**
O'quvchilar birgalikda o'ynashni talab qiluvchi onlayn o'yinlarni o'ynashlari mumkin. Bu o'yinlar muammo hal qilish, strategiyalarni ishlab chiqish va birgalikda ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.	strategiya tuzish, o'zaro yordam berish, birgalikda qaror qabul qilish, jamoa sifatida o'yinni yakunlash o'qituvchi hamkorlikni kuzatish va qo'llab-quvvatlash uchun monitoring qilishi kerak

Muhim eslatmalar:

- o'quvchilarning yoshi va ko'nikmalarini inobatga oling. loyihalar yoshga va o'quvchilarning texnologiya bilan ishlash ko'nikmalariga mos bo'lishi kerak.

- aniq ko'rsatmalar bering. o'quvchilarga loyihaning maqsadi, vazifalari va jarayonlari haqida aniq ko'rsatmalar bering.

- hamkorlikni qo'llab-quvvatlash. o'quvchilarga bir-birlariga yordam berish va birgalikda ishlashni o'rgatish uchun qo'llab-quvvatlash bering.

- o'quvchilarning ishlarini baholang. loyiha yakunlangandan so'ng, o'quvchilarning hamkorlik ko'nikmalarini va loyiha sifatini baholang.


- xavfsizlikni ta'minlang. onlayn xavfsizlik qoidalarini tushuntiring va o'quvchilarni internetda xavfsiz harakat qilishga o'rgating.

Ushbu virtual loyihalar o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, texnologiyadan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Eng muhimi, loyihalar qiziqarli va o'quvchilar uchun motivatsion bo'lishi kerak.

4-sinf o'quvchilari uchun "Jigsaw" (Jigso) usulida ishlash uchun quyidagi misolni keltirishim mumkin: Mavzu: O'zbekistonning tabiiy boyliklari.

Guruhga bo'lish: Sinf 4 guruhga bo'linadi (masalan, A, B, C, D). Har bir guruh 4 kishidan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Mutaxassislik guruhlari: Har bir guruhga O'zbekistonning tabiiy boyliklarining turli jihatlaridan biri beriladi (2-rasmga qarang).



3. Mutaxassislik guruhlarida ishlash: Har bir guruh o'ziga berilgan mavzu bo'yicha kitoblar, internet manbalaridan foydalanib ma'lumot to'playdi va qisqa taqdimot tayyorlaydi (rasm, xarita, sxemalardan foydalanishi mumkin). Taxminan 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi.

4. Asosiy guruhlarga qaytish: Har bir guruhdan bittadan o'quvchi boshqa guruhlarga o'tadi. Masalan: A guruhidan bir o'quvchi B guruhga, B guruhidan bir o'quvchi C guruhga va hokazo. Har bir o'quvchi o'zining mutaxassislik guruhida tayyorlagan taqdimotini yangi guruhga tushuntiradi.

5. Asosiy guruhlarda ishlash: O'quvchilar yangi guruhlarida o'zlarining mutaxassislik sohalari bo'yicha ma'lumotlarni birlashtirib, O'zbekistonning umumiy tabiiy boyliklari haqida to'liqroq tasavvur hosil qiladilar. Ular birgalikda xulosa chiqaradilar va yakuniy taqdimot tayyorlashlari mumkin.

6. Yakuniy taqdimotlar: Har bir asosiy guruh o'zining yakuniy taqdimotini sinfga taqdim etadi.

Bu usul o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganish, hamkorlikda ishlash va ma'lumotlarni birlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, har bir o'quvchi turli mavzularda ma'lumot oladi va umumlashtirishlarda qatnashadi. Mavzuni yanada qiziqarli qilish uchun video, audio materiallardan ham foydalanish mumkin.

"Bilimdonlar Maskani" platformasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qilish ko‘nikmalarini quyidagi talab mezonlarini e’tiborga olgan holda baholadik:

Baholash ko’nikmalari	Mezonlar	Mazmun mohiyati
I. Muloqot ko'nikmalari	Fikr almashish	O'z fikrlarini aniq va tushunarli ravishda ifodalaydimi? Boshqalarning fikrlarini tinglaydi va hurmat qiladimi? Guruh muhokamasiga faol ishtirok etadimi? (Masalan, platformadagi forumlarda faollik, boshqa o'quvchilarning javoblariga sharhlar yozish, o'z fikrini asoslash)
	Tinglash	Boshqalarning fikrlarini diqqat bilan tinglaydimi? Suhbatdoshning gapini to'ldirmasdan, o'z navbatini kutadimi?

		Boshqalarning fikrlarini tushunganligini ko'rsatadimi? (Masalan, platformadagi topshiriqlarni bajarishda guruh a'zolari bilan muloqotda faol tinglashni namoyish etish)
	Savol berish	Tushunmay qolgan narsalarini so'raydimi? Muammoni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni olish uchun savollardan foydalanadimi? Konstruktiv va o'rinli savollar beradimi? (Masalan, platformadagi topshiriqlar bo'yicha savollar berish, guruh a'zolari bilan muhokama jarayonida savollar orqali aniqlik kiritish)
II. Hamkorlik ko'nikmalari	Jamoada ishlash	Guruh vazifalarini bajarishda faol ishtirok etadimi? O'z zimmasiga olgan vazifalarni o'z vaqtida bajaradimi? Guruh a'zolari bilan birgalikda ishlaydimi? (Masalan, platformadagi guruh loyihalarida ishtirok etish, o'z vazifasini bajarishda guruh bilan hamkorlik qilish)
	Mas'uliyat	O'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajaradimi? Guruhning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadimi? Jamoaning umumiy maqsadiga erishish uchun harakat qiladimi? (Masalan, platformadagi topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, guruh loyihalarida o'z mas'uliyatini ado etish)
	Qaror qabul qilish	Guruh qarorlarini qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadimi? Boshqalarning fikrlarini inobatga oladimi? Kompromiss topishga tayyor bo'ladimi? (Masalan, platformadagi guruh loyihalarida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish, o'z fikrini boshqalarga tushuntirish va muhokama qilish)
	Yordam berish	Guruh a'zolariga yordam beradimi? Boshqalarga qiyin bo'lgan vazifalarni bajarishda ko'maklashadimi? O'z bilimlarini boshqalar bilan baham ko'radimi? (Masalan, platformadagi forumlarda boshqa o'quvchilarga yordam berish, guruh loyihalarida guruh a'zolariga maslahat berish)
III. Konfliktlarni hal qilish	Muammoni hal qilish	Paydo bo'lgan nizolarni tinchlik yo'li bilan hal qiladimi? O'z fikrini boshqalarga hurmat bilan bildiradimi? Konfliktni samarali hal qilish uchun harakat qiladimi? (Masalan, platformadagi guruh loyihalarida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish)
	Baholash	Har bir mezon bo'yicha o'quvchilar 1 dan 5 gacha bo'lgan ball bilan baholanishdi (1 – juda past, 5 – juda yuqori). Ballarni yig'indisi o'quvchining umumiy hamkorlik ko'nikmalarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, sifatli va sifatsiz misollardan foydalanib, baholashni yanada aniqroq qilish mumkin. Platformadagi o'quvchining faoliyati va boshqa o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari kuzatib boriladi.

Tadqiqot asosida "Bilimdonlar Maskani" platformasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qilish ko‘nikmalarini baholash darajalarini aniqlash uchun quyidagi mezonlar va darajalarni taklif qilindi.

"Bilimdonlar Maskani" platformasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik qilish ko‘nikmalarini baholash darajalari (3-jadvalga qarang).

Baholash Darajalari (4 darajali)

Baholash dara-jalari	Baholash mezonlari
2-Daraja (Bosh-lang'ich):	- muloqot:fikrlarini ifodalashda qiynaladi, boshqalarning fikrlarini kam tinglaydi. - hamkorlik: jamoa bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch keladi, o'zaro yordam berishda faol emas. - mas'uliyat: vazifalarni bajarishda beparvolikka yo'l qo'yadi, o'z mas'uliyatini anglamaydi. - hurmat: boshqalarga nisbatan hurmatsizlik namoyon qiladi, kon-fliktlardan salbiy yo'l bilan chiqishga harakat qiladi. - muammo hal qilish: muammolarni hal qilishda jamoaga yordam ber-maydi, o'z fikrini qo'llab-quvvatlamaydi
3-Daraja (O'rta):	- muloqot: fikrlarini nisbatan tushunarli ifodalaydi, boshqalarning fikr-larini tinglaydi, lekin kamdan-kam faol suhbatda qatnashadi. - hamkorlik: jamoa bilan ishlay oladi, lekin ba'zan yordam berishda ikki-lanishi mumkin. - mas'uliyat:vazifalarni ba'zan bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi, mas'uliyatini qisman anglaydi. - hurmat:asosiy jihatdan boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, konfliktlarni yumshatishga harakat qiladi. - muammo hal qilish: muammolarni hal qilishda qisman ishtirok etadi, ba'zi fikrlarni taklif qila oladi.
4-Daraja (Yuqori):	- muloqot: fikrlarini aniq va tushunarli ifodalaydi, boshqalarning fikr-larini faol tinglaydi va hurmat qiladi, faol suhbatda qatnashadi. - hamkorlik: jamoa bilan samarali ishlashni biladi, o'zaro yordam beradi, vazifalarni teng taqsimlaydi. - mas'uliyat: vazifalarni mas'uliyat bilan bajaradi, jamoa oldidagi majburiyatlarini to'liq anglaydi. - hurmat: boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, konfliktlardan konstruktiv yo'l bilan chiqadi. - muammo hal qilish: muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi, sa-marali strategiya ishlab chiqish va qo'llashga hissa qo'shadi.
5-Daraja (A'lo):	- muloqot: fikrlarini aniq, tushunarli va ijodiy ifodalaydi, boshqalarning fikrlarini diqqat bilan tinglaydi, suhbatni muvaffaqiyatli boshqarishni bi-ladi. - hamkorlik: jamoa ishini samarali tashkil qiladi, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. - mas'uliyat:vazifalarni mustaqil va yuqori sifatli bajaradi, jamoaning muvaffaqiyati uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. - hurmat: boshqalarga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladi, kon-fliktlarni oldini oladi yoki konstruktiv yo'l bilan hal qiladi. - muammo hal qilish: murakkab muammolarni samarali hal qilishda lid-erlik qiladi, ijodiy yondashuvlarni qo'llaydi.

"Bilimdonlar Maskani" platformasida ushbu mezonlar asosida yaratilgan baholash vositalari (masalan, testlar, kuzatuv ro'yxatlari, loyihalar) yordamida o'quvchilarning hamkorlik ko'nikmalarini aniq baholash mumkin. Har bir o'quvchi uchun individual baholash natijalari tayyorlanishi kerak.

"Bilimdonlar Maskani" platformasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qilish ko'nikmalarini baholashga yo'naltirilgan ta'lim modeli

Ushbu ta'lim modeli "Bilimdonlar Maskani" platformasining imkoniyatlaridan foydalangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va baholashga qaratilgan. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

I. Diagnostika bosqichi: Boshlang'ich baholash: "Bilimdonlar Maskani" platformasida mavjud bo'lgan testlar, o'yinlar va topshiriqlar yordamida o'quvchilarning mavjud hamkorlik ko'nikmalarini aniqlash. Bu erda, o'quvchilarning birgalikda ishlay olish qobiliyati, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va o'zaro hurmat kabi ko'nikmalar baholanadi.

Kuzotish: O'qituvchi o'quvchilarning sinfdagi faoliyatlarida, guruhlarda ishlash jarayonida kuzatuvlar o'tkazadi va ularning hamkorlik qilish ko'nikmalarini yozib boradi. Kuzatuvlar uchun maxsus kuzatish jadvali yoki shakl ishlatilishi mumkin.

II. Ta'lim bosqichi:

Hamkorlikka yo'naltirilgan o'quv faoliyatlari: "Bilimdonlar Maskani" platformasining o'yinlar, loyihalar va topshiriqlaridan foydalanib, o'quvchilarni hamkorlik qilishga undaydigan o'quv faoliyatlari tashkil etiladi. Masalan, platformaning interaktiv o'yinlari orqali birgalikda muammolarni hal qilish, birgalikda hikoya tuzish, loyihalarni guruhlarda amalga oshirish va hk.

Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar: O'quvchilarga fikr almashish, tinglash, o'zaro hurmat qilish, murosa qilish va birgalikda qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlar o'yinlar, rollarni o'ynash, muhokamalar va boshqa interaktiv usullar orqali amalga oshiriladi.

O'zaro baholash va o'z-o'zini baholash: O'quvchilar bir-birlarining hamkorlik qilish ko'nikmalarini baholashlari va o'z ko'nikmalarini o'zlari baholashlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. Buning uchun "Bilimdonlar Maskani" platformasida maxsus shakllar yoki forumlar tashkil etilishi mumkin.

III. Baholash bosqichi:

Yakuniy baholash: "Bilimdonlar Maskani" platformasida mavjud bo'lgan testlar va topshiriqlar yordamida o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini yakuniy baholash o'tkaziladi. Baholash natijalari o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Kuzatuv natijalarini tahlil qilish: O'qituvchi o'quv jarayonida o'tkazgan kuzatuvlari natijalarini tahlil qilib, o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarining rivojlanishida mavjud muammolarni aniqlaydi va keyingi o'quv faoliyatlarini rejalashtiradi.

Portfolio usuli: O'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini namoyish etuvchi ishlarini (loyihalar, rasmlar, yozma ishlar) saqlaydigan elektron yoki qog'ozli portfellar yaratish mumkin.

IV. Takomillashtirish bosqichi:

O'quv jarayonining takomillashtirilishi: Baholash natijalari asosida o'quv jarayoni takomillashtiriladi va o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantirish uchun yangi usullar qo'llaniladi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilarning hamkorlikka yo'naltirilgan o'quv faoliyatlarini tashkil etish va o'quvchilarning hamkorlik qilish ko'nikmalarini baholash bo'yicha malakalarini oshirish uchun maxsus treninglar va seminarlar o'tkaziladi.

Xulosa. Ushbu model "Bilimdonlar Maskani" platformasining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlik qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish va baholashga yordam beradi. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun platformaning barcha imkoniyatlarini to'liq o'rganish va o'quvchilarning yoshi va bilim darajasini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xo'janazarova, M. T. (2019). Bola psixologiyasi (pp. 45–67).
2. Bektursunov, A. (2018). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Islomova, M., & Karimov, R. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlikda o'qitishga tayyorligi. Ta'lim va pedagogika jurnali, 12(3), 45-52. https://doi.org/10.1234/edu.ped.2020.12.3.45
4. Karimova, S. (2019). Hamkorlikda o'qitish metodlarining samaradorligi. Pedagogik ilmiy maqolalar to'plami, 5, 112-119.
5. Makhmudova, D. (2021). Maktab yoshidagi bolalarning fiziologik rivojlanishi va ta'lim jarayoniga ta'siri. Fan va ta'lim, 8(1), 67-73.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
7. Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. International Universities Press.

Usmonova Maftuna Davlatjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti
E-mail: usmonova1991m@gmail.com
ORCID ID 0 0000-0002-6001-4768

KIMYO FANINI RAQAMLI MUHITDA SAMARALI O‘QITISH: PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kimyo fanini raqamli muhitda samarali o‘qitishga doir dolzarb pedagogik muammolar va innovatsion yechimlar tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda, ayniqsa kimyo fanining nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligiga asoslangan o‘qitish jarayonida o‘ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Kimyo fanini raqamli muhitda o‘qitishda yuzaga kelayotgan pedagogik muammolarni aniqlash va ularga innovatsion yechimlar ishlab chiqish asosiy maqsad bo‘lgan. Tadqiqotda ta’limiy jarayonni tahlil qilish, pedagogik tajriba, kuzatuv va taqqoslash metodlari qo‘llanildi. Muallif raqamli laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari, interaktiv modullar va xalqaro platformalarning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sirini yoritgan. Shuningdek, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi, o‘quv materiallarining cheklanganligi, o‘rganuvchilarning faolligi sustligi va baholash tizimidagi murakkabliklar asosiy muammolar sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun texnik baza mustahkamlash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, sifatli raqamli resurslar yaratish va interaktiv o‘quv metodlarini joriy etish zarurligi ta’kidlangan. Xulosada, raqamli texnologiyalarni kimyo faniga integratsiya qilishda kompleks yondashuv, uzluksiz o‘qituvchi tayyorlov kurslari va ta’limdagi innovatsion vositalardan keng foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, kimyo ta’limi, pedagogik muammo, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar.*

ЭФФЕКТИВНОЕ ПРЕПОДАВАНИЕ ХИМИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются актуальные педагогические проблемы и инновационные решения для эффективного преподавания химии в цифровой среде. Быстрый рост цифровых технологий существенно меняет образовательный процесс, особенно в химии, где возникает ряд сложностей, связанных с гармонией теоретических и практических занятий. Основной целью работы является выявление педагогических проблем, возникающих в процессе преподавания химии в цифровой среде, и разработка инновационных решений для их преодоления. В исследовании использованы методы анализа образовательного процесса, педагогического опыта, наблюдения и сравнения. Автор освещает положительное влияние цифровых лабораторий, симуляционных программ, интерактивных модулей и международных платформ на учебный процесс. Также выделены основные проблемы, такие как недостаточная техническая инфраструктура, низкая цифровая компетенция преподавателей, ограниченность учебных материалов, низкая активность учащихся и сложности в системе оценки. В качестве решений предложены укрепление технической базы, повышение квалификации преподавателей, создание качественных цифровых ресурсов и внедрение интерактивных образовательных методов. В заключение подчеркивается, что комплексный подход, непрерывное обучение преподавателей и широкое использование инновационных средств в образовании повышают эффективность учебного процесса.*

Ключевые слова: *цифровое образование, преподавание химии, педагогическая проблема, инновационные технологии, интерактивные методики.*

EFFECTIVE TEACHING OF CHEMISTRY IN A DIGITAL ENVIRONMENT: PEDAGOGICAL CHALLENGES AND THEIR INNOVATIVE SOLUTIONS

Abstract. *This article analyzes the current pedagogical problems and innovative solutions for the effective teaching of chemistry in a digital environment. The rapid development of digital technologies is radically changing the educational process, especially in chemistry, where specific complexities arise in terms of integrating theoretical and practical classes. The main aim of the article is to identify the pedagogical problems arising in the process of teaching chemistry in a digital environment and to develop innovative solutions for overcoming them. The study uses methods such as analysis of the educational process, pedagogical experience, observation, and comparison. The author highlights the positive impact of digital laboratories, simulation programs, interactive modules, and international platforms on the educational process. Furthermore, the main issues identified include the lack of technical infrastructure, low digital competency of teachers, limited educational materials, low student engagement, and difficulties in the assessment system. Proposed solutions include strengthening the technical infrastructure, improving teacher qualifications, creating high-quality digital resources, and introducing interactive teaching methods. In conclusion, it is emphasized that a comprehensive approach, continuous teacher training, and the extensive use of innovative tools in education will enhance the effectiveness of the teaching process.*

Keywords: *digital education, chemistry education, pedagogical problem, innovative technologies, interactive methods.*

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi hayotimizning barcha jabhalariga, ayniqsa ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyoda kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayoni ta’limning mazmuni, shakli va metodikasini tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, “Kimyo fanini raqamli muhitda samarali o‘qitish: pedagogik muammolar va ularning innovatsion yechimlari” mavzusi hozirgi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Avvalo, raqamli transformatsiyaning global sur’ati ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirishga olib kelmoqda. Dars jarayonlarining masofaviy shakllarga o‘tishi, elektron platformalar va raqamli resurslardan foydalanish — bularning barchasi o‘qituvchidan yangicha yondashuv va texnologik kompetensiyani talab qiladi. Ayniqsa, tabiiy fanlardan biri bo‘lgan kimyo — o‘zining nazariy bilimlar bilan birga laboratoriya tajribalari va amaliy mashg‘ulotlarga asoslanganligi sababli raqamli muhitga o‘tkazishda ko‘proq murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, kimyo fanining o‘ziga xosligi — uni raqamli texnologiyalar orqali samarali o‘qitishni innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda. Raqamli laboratoriyalar, 3D animatsiyalar, interaktiv modullar, simulyatsiya dasturlarining tatbiqi orqali kimyo fanini tushunishni soddalashtirish, tajribalarni vizual ko‘rsatish, xavfsiz va tejamkor ta’lim muhitini yaratish mumkin. Bu imkoniyatlar ta’lim sifatini oshiradi, biroq ularni amaliyotda qo‘llash uchun zarur metodik asoslar, texnik infratuzilma va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi muhim omillar hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta’limning qamrovini kengaytirish va sifatini oshirish nuqtayi nazaridan ham mavzu dolzarb hisoblanadi. Raqamli vositalar yordamida nafaqat yirik shaharlardagi, balki chekka hududlardagi o‘rganuvchilarga ham sifatli kimyo ta’limini yetkazish mumkin bo‘lmoqda. Bu esa ta’limdagi tengsizlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat — bilim oluvchilarning o‘rganish uslublari o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy yosh avlod raqamli vositalarga asoslangan interaktiv metodlarga tez moslashadi. An’anaviy darslarga nisbatan vizual, multimediali va interfaol resurslar ularning e’tiborini jalb etadi, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, xalqaro tajribalardan ko‘rinib turibdiki, PhET, ChemCollective, Labster kabi raqamli kimyo platformalari o‘rganuvchilarni fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini sezilarli

darajada shakllantiradi. Shu sababli, milliy ta’lim tizimiga xalqaro ilg‘or tajribalarni integratsiya qilish, ularni mahalliy shart-sharoit va bilim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish ayni dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

AQShning yetakchi olimlari John Seely Brown va Paul Duguid[5] o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimida qo‘llash orqali bilim oluvchilarning ijtimoiy va kognitiv jarayonlariga ta’sirini chuqur tahlil qilganlar. Ularning fikricha, axborot muhitining shakllanishi nafaqat ta’lim mazmunini, balki bilimga bo‘lgan yondashuvni ham o‘zgartiradi. Shuningdek, Harvard universiteti professori Eric Mazur[6] tomonidan ishlab chiqilgan “Peer Instruction” (ya’ni “o‘zaro hamkorlikda o‘rganish”) metodikasi fizika va kimyo kabi fanlarni o‘qitishda interaktiv yondashuvlarni tatbiq etish uchun muhim vositadir. Ushbu usul o‘rganuvchilarni kichik guruhlarda faol muhokama olib borishi, savol-javoblar orqali bilimni chuqurlashtirishini ta’minlaydi. David W. Brooks[7] esa kompyuter simulyatsiyalari va virtual laboratoriyalar orqali o‘rganuvchilarni mustaqil laboratoriya tajribalarini o‘tkazish imkoniyatlarini o‘rganib chiqqan. U kimyo laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamlashtirish orqali o‘rganuvchilarni tahliliy fikrlash va laboratoriya tajribalariga tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratgan. Buyuk Britaniyaning Glasgow universiteti professori Norman Reid[8] esa STEM fanlarini, xususan, kimyo fanini o‘rganishda uchraydigan psixologik to‘siqlar va kognitiv murakkabliklarni aniqlashga, shuningdek, ularni yengib o‘tishda raqamli yondashuvlar samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari ta’lim psixologiyasi va fan didaktikasi kesishmasida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik olimlardan kimyo fanini o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, A.A. G‘ulomov[1] kimyo fanini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik va metodik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida fan mazmunini raqamli muhitga moslashtirish hamda zamonaviy vositalar orqali o‘rganuvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga alohida e’tibor qaratadi. D.X. Mirzayeva[2] kimyo darslarida virtual laboratoriya tajribalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqot olib borib, ushbu yondashuvning o‘rganuvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. M.Q. Qo‘ldoshev[3] esa kimyo fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullarini o‘rganib, o‘z tadqiqotlarida raqamli qurilmalar, multimediya vositalari va onlayn platformalarning o‘quv samaradorligiga ta’sirini tahlil qilgan. Shuningdek, M.I. Shamsiyeva[4] ta’lim jarayonida raqamli o‘qitish, elektron darsliklar va interaktiv o‘quv platformalarning samaradorligi bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Uning ishlari raqamli resurslarning o‘quv motivatsiyasini oshirishdagi o‘rni va o‘qitish jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq muammolarni qamrab oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Kimyo fanini raqamli muhitda samarali o‘qitish: pedagogik muammolar va ularning innovatsion yechimlari” to‘laligicha tadqiq etilmagani ko‘rishimiz mumkin.

Natija va muhokama.

Bugungi kunda raqamli ta’lim muhitida kimyo fanining o‘qitilishi nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin:

- Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi

Raqamli ta’lim muhitining samaradorligi, avvalo, texnik ta’minot darajasiga bog‘liq. Afsuski, ko‘plab ta’lim muassasalarida kompyuter sinflari yetarli emas yoki eskirgan, yuqori tezlikdagi internet aloqasi mavjud emasligi, raqamli laboratoriyalar yoki virtual simulyatsiyalar uchun zarur qurilmalar (interaktiv doska, planshet, VR qurilmalar) yetarli emasligi.

Bu holat dars jarayonida raqamli vositalardan foydalanish imkonini cheklaydi, natijada o‘rganuvchilarda raqamli kompetensiyalar shakllanishi sustlashadi. Ayniqsa, kimyo fanining amaliyotga yo‘naltirilganligi sababli tajribalarni vizual simulyatsiya qilish imkoniyatining yo‘qligi darsning mazmuniy boyligini va samaradorligini kamaytirishi mumkin.

- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi

O‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo amaliyotda bir qator muammolarga duch kelinadi. Jumladan raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarning yo‘qligi, interaktiv platformalarda ishlashda qiyinchiliklar (masalan: Google Classroom, Moodle, Zoom), raqamli darslarni loyihalash, vizuallashtirish, gamifikatsiya elementlarini joriy etish bo‘yicha tajribaning yetishmasligi. Natijada o‘quv jarayoni formal darajada tashkil etiladi, interaktivlik va o‘rganuvchilarni faolligi kamayadi. Bu holat bilim oluvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga to‘sqinlik qiladi.

- Raqamli o‘quv materiallarining cheklanganligi

Kimyo fanining murakkab va tushunarli bo‘lishi ko‘p jihatdan undagi ma’lumotlarni qanday taqdim etilishiga bog‘liq. Raqamli ta’limda sifatli o‘quv resurslari ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, o‘zbek tilida tayyorlangan raqamli darsliklar, interaktiv videodarslar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar sonining juda kamligi, mavjud resurslar asosan chet tillarda ekanligi, ba’zi mavjud materiallar metodik jihatdan zamonaviy yondashuvlarga yetarlicha javob bermaydi. Bu esa bilim oluvchilarni mustaqil ravishda kimyo fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kamaytiradi. Buning natijasida pedagoglar esa zamonaviy va qiziqarli darslar tashkil qilishda muammolarga duch keladilar.

- O‘rganuvchilarni faolligi va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining sustligi

Raqamli ta’lim muhiti bilim oluvchilarning mustaqilligiga tayanadi. Bu holat, ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida yaqqol seziladi. Bu bir qator muammolarni olib keladi. O‘rganuvchilarni darslarga bevosita jalb qilinmasligi, ularni passiv ishtiroki, uy sharoitida darsga yetarli e’tibor qaratilmasligi, chalg‘ituvchi omillar ko‘pligi, o‘zini o‘zi rag‘batlantirish va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi. Agar o‘rganuvchilar mustaqil o‘rganish va o‘z faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, raqamli ta’limning ijobiy jihatlari to‘laqonli namoyon bo‘la olmaydi.

- Nazorat va baholash tizimining murakkabligi

An’anaviy ta’limda o‘qituvchi o‘rganuvchini bilimini bevosita kuzatish, baholash va tahlil qilish imkoniga ega. Raqamli muhitda topshiriqlarning mustaqil bajarilganini aniqlash qiyinligi, testlar va avtomatik baholash tizimlari yetarli darajada ishonchli emasligi, o‘rganuvchini bilim darajasini individual baholash mexanizmlari to‘liq shakllanmaganligi kabi sabablar, ta’lim sifati nazoratini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan raqamli ta’lim muhitida kimyo fanini o‘qitishdagi muammolarning innovatsion yechimlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin.

1. Ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar, planshetlar, va VR qurilmalar bilan bosqichma-bosqich jihozlash(bugungi kunda ushbu muammo ko‘pgina ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich o‘z yechimini topmoqda.). Maxsus raqamli kimyo laboratoriyalarini (virtual yoki aralash reallik) tashkil etish orqali darslarda reallikka yaqin tajribalarni simulyatsiya qilish. Hududiy farqlarni kamaytirish uchun mobil laboratoriyalar va ko‘chma texnologik vositalardan foydalanish.

2. Raqamli texnologiyalar bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslari, vebinarlar va seminarlar tashkil etish (masalan: gamifikatsiya, AR/VR vositalar, elektron darslar ishlab chiqish).Pedagoglar uchun doimiy faoliyat yurituvchi “Raqamli metodika laboratoriyalari”ni tashkillash hamda o‘qituvchilarga darslarda foydalanish uchun tayyor modellar, interaktiv prezentatsiyalar va platformalar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlab borish.

3. Kimyo faniga oid o‘zbek tilidagi interaktiv darsliklar, video darslar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va test bazalarini ishlab chiqish. O‘zbekistondagi raqamli ta’lim platformalari (masalan: Kundalik, EduMarket, ZiyoNet) bilan hamkorlikda elektron kontentlar bilan boyitib borish, ilmiy laboratoriyalar va universitetlar bilan hamkorlikda ochiq kodli yoki bepul foydalaniladigan virtual tajriba vositalarini (masalan, PhET, ChemCollective kabi) tarjima qilish va lokalizatsiya qilish.

4. Raqamli ta’lim sharoitida o‘rganuvchilarni faolligi va mas’uliyatini oshirishda motivatsion omillar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, o‘rganuvchilarda raqamli o‘qitishga nisbatan shaxsiy mas’uliyat hissini shakllantirish maqsadida gamifikatsiya elementlari – belgilar, ballar, reytinglar, bosqichli yutuqlar kabi raqamli stimulyatorlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv raqamli ta’lim muhitida o‘rganuvchilarni darsdagi ishtirokini rag‘batlantirib, ularni faol va mustaqil bo‘lishga undaydi.

Shuningdek, raqamli o‘quv jarayonini kooperativ (hamkorlikda) ta’lim usullari, ya’ni kichik guruhlarda ishlash, loyiha asosida o‘rganish, muammoli vaziyatlar asosida bilimlarni qo‘llash kabi metodlar bilan boyitish, bilim oluvchilar o‘rtasida interaktivlik va chuqur fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, o‘rganuvchilarga raqamli muhitda samarali o‘rganishni o‘rgatish maqsadida “raqamli ta’lim gigiyenasi” bo‘yicha treninglar tashkil etish zarur. Bunday treninglarda vaqtni boshqarish, chalg‘ituvchi omillarni kamaytirish, e’tiborni jamlash, o‘zini rag‘batlantirish va mustaqil o‘rganish texnikalarini egallash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi kerak. Bu esa o‘rganuvchilarni raqamli muhitdagi mustaqil o‘rganishga tayyorgarligini oshiradi va ta’lim samaradorligini kuchaytiradi.

5. Raqamli ta’limda baholash tizimini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy baholash usullari ko‘pincha o‘rganuvchini real bilim darajasini aks ettirmasligi mumkin. Shu bois, formativ (jarayon davomida) va summativ (natijaviy) baholashning raqamli variantlarini joriy etish, o‘quv jarayonini yanada aniqlik va shaffoflik bilan boshqarish imkonini beradi.

Xulosa.

Xususan, formativ baholashda o‘rganuvchilarni bilim olish jarayonidagi o‘zgarishlar real vaqt rejimida kuzatilib, interaktiv testlar, mini-viktorinalar, feedback platformalari orqali ularga darhol teskari aloqa (feedback) berish mumkin. Summativ baholashda esa sun’iy intellekt (AI) asosida ishlab chiqilgan avtomatik testlar, yozma topshiriqlarni avtomatik tahlil qiluvchi algoritmlar, natijalarni statistik tahlil qilish modullari joriy etilishi orqali o‘rganuvchilarning yakuniy natijalari xolis va tezkor baholanishi mumkin.

Bundan tashqari, o‘rganuvchilarni o‘z bilimlariga nisbatan fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun reflektiv baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o‘zini baholash (self-assessment) va tengdoshlar baholashi (peer-assessment) vositalari orqali bilim oluvchilarning o‘rganishga nisbatan mas’uliyat hissi oshadi, o‘z bilimlarini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa raqamli ta’limda nafaqat baholash sifatini, balki o‘rganuvchilarni umumiy o‘zlashtirish jarayonini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kimyo fanini raqamli muhitda samarali o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. O‘quv jarayonida kuzatilayotgan texnik, metodik va psixologik muammolarni chuqur tahlil qilish, ularning zamirida yotgan sabablarni aniqlab, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kompleks yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta’lim vositalarining to‘g‘ri tanlanishi va ularni didaktik jihatdan asoslangan holda darsga integratsiya etilishi nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki o‘rganuvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga, tajriba asosida o‘rganishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, o‘rganuvchilarda zamonaviy raqamli savodxonlik, o‘zini o‘zi boshqarish, muammoli fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Shunday qilib, kimyo fanini raqamli muhitda o‘qitishda samaradorlikka erishish uchun o‘qituvchi va bilim oluvchilarning faoliyatining yangi shakl va metodlariga asoslangan o‘quv modeli ishlab chiqilishi va amaliyotda qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. G‘ulomov A.A. Kimyo o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018. — 240 b.

2. Mirzayeva D.X. Raqamli texnologiyalar asosida kimyo fanini o‘qitish: innovatsion yondashuvlar // Ilm-fan va ta’lim. — 2021. — №4. — B. 45–49.

3. Qo‘ldoshev M.Q. Kimyo darslarida AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi // Pedagogik ta’lim. — 2022. — №2. — B. 33–38.

4. Shamsiyeva M.I. Interaktiv metodlar asosida kimyo fanini o‘qitish // Innovatsion ta’lim texnologiyalari. — 2020. — №3. — B. 55–59.

5. Brown J.S., Duguid P. The Social Life of Information. — Boston: Harvard Business School Press, 2000. — 320 p.

6. Mazur E. Peer Instruction: A User’s Manual. — Prentice Hall, 1997. — 253 p.

7. Brooks D.W. Teaching Science with Simulations and Multimedia. — NY: Springer, 2006. — 196 p.

8. Reid N. Teaching and Learning Chemistry: A Research Perspective // Chemistry Education Research and Practice. — 2008. — Vol. 9, No. 2. — P. 51–59.

Shaymuradov Taxir Zamonovich
Guliston Davlat universiteti
Amaliy san'at va dizayn kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: shoymuradovtoxir@gmail

BOSHLANG'ICH VA O'RTA SINF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI

Annotatsiya. *Bugungi jadal rivojlanayotgan ta'lim sharoitida tasviriy san'at ta'limi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, hissiy aqli va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Badiiy ta'limning an'anaviy usullari tobora ko'proq to'ldirilmoqda yoki XXI asr ta'lim maqsadlariga mos keladigan talabaga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar bilan almashtirilmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilariga tasviriy san'atni o'rgatishda innovatsion metodologiyalarni o'rganadi, tajribaviy o'rganish, fanlararo aloqalar, raqamli texnologiyalar va madaniyatga javob beradigan pedagogikaga urg'u beradi. Sinfdagi kuzatuvlar, o'qituvchi va talabalar suhbatlari hamda bir qancha ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini tahlil qilishdan iborat sifatli tadqiqotlar orqali tadqiqot ushbu yangi pedagogik strategiyalarni amalga oshirishda ilg'or tajriba va muammolarni aniqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion usullar samarali qo'llanilganda o'quvchilar faolligini oshiradi, badiiy tushunchalarni chuqurlashtiradi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqola maktablarda badiiy ta'limni jonlantirishni maqsad qilgan o'qituvchilar, o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va siyosatchilar uchun qimmatli fikrlarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at ta'limi, o'qitishning innovatsion usullari, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, fanlararo ta'lim, raqamli vositalar, madaniyatga mos pedagogika*

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING VISUAL ARTS TO PRIMARY AND MIDDLE SCHOOL STUDENTS

Abstract. *In today's fast-evolving educational landscape, fine arts education plays a pivotal role in fostering students' creative abilities, emotional intelligence, and critical thinking skills. Traditional methods of art education are increasingly being augmented or replaced by innovative, student-centered approaches that align with 21st-century educational goals. This article investigates innovative methodologies in teaching fine arts to primary and secondary school students, emphasizing experiential learning, interdisciplinary connections, digital technologies, and culturally responsive pedagogy. Through qualitative research involving classroom observations, teacher and student interviews, and curriculum analysis across several educational institutions, the study identifies best practices and challenges in implementing these new pedagogical strategies. The findings highlight that when effectively implemented, innovative methods enhance student engagement, deepen artistic understanding, and contribute to the overall development of learners. This article provides valuable insights for educators, curriculum designers, and policymakers aiming to revitalize art education in schools.*

Keywords: *Fine arts education, innovative teaching methods, creativity, primary education, secondary education, interdisciplinary learning, digital tools, culturally responsive pedagogy*

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ И СРЕДНИХ КЛАССОВ

Аннотация. *В сегодняшнем быстро меняющемся образовательном ландшафте изобразительное искусство играет ключевую роль в развитии творческих способностей учащихся, эмоционального интеллекта и навыков критического мышления. Традиционные методы художественного образования все чаще дополняются или заменяются инновационными, ориентированными на учащихся подходами, которые соответствуют образовательным целям 21-го*

века. В этой статье рассматриваются инновационные методики преподавания изобразительного искусства учащимся начальной и средней школы, подчеркивая экспериментальное обучение, междисциплинарные связи, цифровые технологии и культурно-чувствительную педагогику. С помощью качественного исследования, включающего наблюдения за классами, интервью с учителями и учениками и анализ учебных программ в нескольких учебных заведениях, исследование выявляет передовой опыт и проблемы в реализации этих новых педагогических стратегий. Результаты подчеркивают, что при эффективном внедрении инновационные методы повышают вовлеченность учащихся, углубляют художественное понимание и способствуют общему развитию учащихся. В этой статье содержатся ценные идеи для педагогов, разработчиков учебных программ и политиков, стремящихся возродить художественное образование в школах.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, инновационные методы обучения, творчество, начальное образование, среднее образование, междисциплинарное обучение, цифровые инструменты, культурно-чувствительная педагогика.*

Kirish. Tasviriy san'at ta'limi bolalarning yaxlit rivojlanishida asosiy element bo‘lib xizmat qiladi, ijodkorlikni, hissiy ifodani, kognitiv o‘sishni va madaniy savodxonlikni rivojlantiradi. Biroq, ko‘pincha eslab qolish va texnikani takrorlash bilan bog‘liq bo‘lgan an'anaviy usullar zamonaviy o‘quvchilarning dinamik ehtiyojlarini qondirish uchun etarli emas. XXI asrda ijodkorlik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan muloqot ko‘nikmalarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan innovatsion o‘qitish usullariga talab kuchaymoqda.

Tasviriy san'atning boshlang‘ich va o‘rta ta'limdagi ahamiyati badiiy mahoratdan tashqarida; empatiya, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va madaniy va ijtimoiy kontekstlarni chuqurroq tushunishni o‘z ichiga oladi. Talabalar vizual va hissiy ob'ektiv orqali dunyoni talqin qilish va unga munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar, bu esa tobora ko‘proq tasvirga asoslangan va globallashgan jamiyatda juda muhimdir.

Tasviriy san’at ta’limida o‘qitishning innovatsion usullari nafaqat an’anaviy o‘qitishni yangilaydi, balki o‘rganishni yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Bu usullar raqamli integratsiya, fanlararo ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim, talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvlar va madaniyatga javob beradigan strategiyalarni o‘z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi ushbu usullarni chuqur o‘rganish, ularni amalga oshirishni o‘rganish va boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilarining ta'lim tajribasini oshirishda samaradorligini baholashdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot tasviriy san'at ta'limining innovatsion usullarini har tomonlama tahlil qilish uchun ko‘plab manbalardan ma'lumotlarni tortib, sifatli yondashuvni qo‘lladi.

Adabiyot sharhi: Ilmiy maqolalar, ta’limga oid siyosat hujjatlari va pedagogik matnlarni har tomonlama o‘rganish innovatsion o‘qitish amaliyotini aniqlash uchun nazariy asos bo‘ldi.

Misollar: Chuqur o‘rganish uchun turli mintaqalardan beshta maktab (uchta boshlang‘ich va ikkita o‘rta) tanlab olindi. Bu maktablar san'at ta'limiga va innovatsion o‘quv dasturlariga e'tibor qaratishlari bilan mashhur edi. Bu sharoitlarda sinfda kuzatishlar, o‘qituvchilar bilan suhbatlar, o‘quvchilar ishini tahlil qilish o‘tkazildi.

Suhbatlar: Tanlangan maktablarda 20 nafar san’at o‘qituvchisi va 40 nafar talaba bilan yarim tuzilgan suhbatlar o‘tkazildi. Suhbatlar sinf dinamikasi, o‘quvchilarning faolligi va innovatsion amaliyotlarning idrok etilgan samaradorligi to‘g‘risida tushunchalarni olishga qaratilgan.

O‘quv rejasini tahlil qilish: O‘quv dasturlari darajasida innovatsiyalar qanday integratsiyalanganligini tushunish uchun badiiy o‘quv dasturlari, dars rejalari va baholash rubrikalari tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Yig‘ilgan ma'lumotlar kodlangan va dasturi yordamida tematik tahlil qilingan. Mavzularga texnologiya integratsiyasi, talabalar agentligi, fanlararo aloqalar va madaniy inklyuzivlik kiradi.

Natijalar. Tadqiqotda tasviriy san’atni boshlang‘ich va o‘rta bosqichda o‘qitishda bir qancha muhim yangiliklar aniqlandi:

Raqamli integratsiya: O‘qituvchilar o‘quvchilarning badiiy ufqlarini kengaytirish uchun planshetlar, dizayn dasturlari (masalan, Adobe Photoshop, Canva), animatsiya ilovalari va virtual / kengaytirilgan reallik kabi raqamli vositalardan foydalanganlar. Raqamli media nafaqat talabalarning qiziqishini uyg‘otdi, balki ularni grafik dizayn, raqamli fotografiya va video san'at kabi zamonaviy badiiy amaliyotlar bilan ham tanishtirdi.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL): PBL san'atni haqiqiy dunyo muammolari bilan bog‘lash uchun ishlatilgan. Loyihalar orasida ekologik barqarorlikka oid plakatlar ishlab chiqish, mahalliy tarixdan ilhomlangan san’at yaratish va talabalar boshchiligidagi badiiy ko‘rgazmalar tashkil etish kiradi. Ushbu loyihalar talabalarning tadqiqot, rejalashtirish va taqdimot ko‘nikmalarini oshirdi.

Fanlararo yondashuvlar: San'at fan (masalan, biologiyadan ilhomlangan rasmlar), matematika (geometrik naqsh yaratish) va tarix (tarixiy voqealarning vizual hikoyasi) kabi fanlar bilan birlashtirilgan. Ushbu kurslararo strategiya talabalarga bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga yordam berdi.

Talabalarga yo‘naltirilgan ta'lim: Talabalar o‘zlarining mavzulari, materiallari va ommaviy axborot vositalarini tanlashga rag‘batlantirildi, bu esa egalik hissi va ichki motivatsiyani rivojlantirdi. O‘qituvchilar natijalarni belgilashdan ko‘ra tadqiqotni qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida harakat qilishdi.

Hamkorlikdagi san'at loyihalari: devoriy rasmlar, jamoaviy o‘rnatishlar va hamkorlikdagi chiqishlar kabi guruhga asoslangan san'at tashabbuslari jamoaviy ish, muloqot va umumiy mas'uliyatni rivojlantirdi.

Madaniy jihatdan sezgir o‘qitish: O‘qituvchilar o‘quvchilarning madaniy kelib chiqishini o‘quv dasturiga kiritdilar. Darslarda mahalliy san'at turlari, ko‘p madaniyatli bayramlar va o‘zini namoyon qilish va madaniy g‘ururni rag‘batlantiradigan shaxsiy meros loyihalari namoyish etildi.

Muqobil baholash usullari: Talabalar taraqqiyotini baholash uchun portfoliolar, jarayon jurnallari, o‘zaro sharhlar va ommaviy ko‘rgazmalardan foydalanildi. Bu usullar texnik mukammallikdan ko‘ra o‘sish va ijodkorlikni ta'kidladi.

Tahlil. Ushbu tadqiqot natijasida aniqlangan innovatsiyalar an'anaviy pedagogik paradigmalardan zamonaviy pedagogik paradigmalarga sezilarli siljishni anglatadi. Har bir uslub tasviriy san’at ta’limini yuksaltirishga o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

Raqamli integratsiya: Raqamli vositalar an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan kurashayotgan talabalar uchun ochiq qilib, san'at yaratishni demokratlashtiradi. Ular, shuningdek, zamonaviy badiiy amaliyotning voqeliklarini aks ettiradi, talabalarni kelajakdagi ijodiy sohalarda ishlashga tayyorlaydi.

Loyihaga asoslangan ta'lim: PBL tajribaviy o‘rganish, tanqidiy so‘rov va dolzarblikni targ‘ib qiladi. Talabalar o‘z ta'lim jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylanadilar, sinfdagi faoliyatni shaxsiy va ijtimoiy muammolar bilan bog‘laydilar.

Fanlararo ta'lim: Ushbu yondashuv kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi va o‘quvchilarga turli xil kontekstlarda badiiy fikrlashni qo‘llash imkonini berish orqali o‘rganishni yaxshilaydi. Bu o‘quvchilarni aloqalarni o‘rnatishga va bilimlarni ijodiy qo‘llashga undaydi.

Talabalarga yo‘naltirilgan ta'lim: Talabalarga o‘rganishda vakolat berilsa, ularning faolligi va ijodkorligi rivojlanadi. Ushbu usul o‘quvchilarni bilimning faol konstruktorlari sifatida ko‘radigan konstruktivistik nazariyalar bilan mos keladi.

Hamkorlikdagi loyihalar: Bu tashabbuslar muhim ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni, jumladan empatiya, muloqot va muzokaralarni o‘rgatadi. Ular, shuningdek, sinf ierarxiyasini buzadi, jamiyat va umumiy maqsad tuyg‘usini rivojlantiradi.

Madaniy jihatdan sezgir pedagogika: Bu strategiya nafaqat talabalarning shaxsiyatini tasdiqlaydi, balki ularni turli xil badiiy an'analar bilan tanishtiradi. Bu xilma-xillikka hurmat va global xabardorlikni rivojlantiradi.

Muqobil baholashlar: Ushbu baholashlar san'atning sub'ektiv xususiyatini tan oladi va o‘quvchilarning o‘rganishini yanada yaxlit baholashni ta'minlaydi. Ular jarayon, harakat va mulohazalarni yakuniy mahsulot kabi qadrlashadi.

Bu usullar birgalikda 21-asr ta'lim maqsadlariga mos keladi, ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni, hamkorlikni va madaniy kompetentsiyani rivojlantiradi. Ular, shuningdek, o'qituvchining rolini qayta belgilashni talab qiladi - o'qituvchidan ustoz, rahbar va hammuallif.

Muhokama. Tasviriy san'at ta'limida innovatsion usullarning afzalliklari ko'p bo'lsa-da, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish bir necha omillarga bog'liq:

Kasbiy rivojlanish: O'qituvchilar texnologiyani integratsiyalash, fanlararo o'quv dasturlarini ishlab chiqish va talabalarga yo'naltirilgan va madaniy jihatdan javob beradigan amaliyotlarni amalga oshirish uchun etarli darajada tayyorlanishi kerak. Doimiy kasbiy rivojlanish va hamkorlikdagi ta'lim hamjamiyatlari bu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

O'quv rejasining moslashuvchanligi: Milliy va institutsional o'quv dasturlari moslashish va innovatsiyalarga imkon berishi kerak. Qattiq o'quv dasturlari va standartlashtirilgan testlar ko'pincha ijodkorlik va tajribaga to'sqinlik qiladi.

Resurs mavjudligi: Raqamli vositalar, badiiy materiallar va moslashuvchan o'quv joylarini o'z ichiga olgan etarli resurslar juda muhimdir. Maktablar innovatsion o'qitishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaga sarmoya kiritishi kerak.

Ma'muriy yordam: Maktab rahbariyati badiiy ta'limni qo'llab-quvvatlashi va ijodkorlikni qadrlaydigan madaniyatni yaratishi kerak. Bu hamkorlikda rejalashtirish uchun vaqt ajratish va pedagogikani innovatsiya qilishda o'qituvchilarning sa'y-harakatlarini e'tirof etishni o'z ichiga oladi.

Ota-onalar va jamoatchilik ishtiroki: Ota-onalar va keng jamoatchilikni badiiy ta'lim tashabbuslariga jalb qilish dolzarblik va yordamni oshirishi mumkin. Jamiyat san'ati loyihalari va ko'rgazmalari talabalar va ularning madaniy muhiti o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

Aktsiyadorlik masalalari: Innovatsiyalar inklyuziv bo'lishi kerak. Kam ta'minlangan hududlardagi maktablar ko'pincha resurslar va ta'lim olish imkoniyatiga ega emas. Siyosat barcha talabalarning boyitilgan san'at ta'limidan foydalanishini ta'minlash uchun ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etishi kerak.

Baholash va fikr-mulohazalar: Innovatsion usullarning samaradorligini baholash uchun uzluksiz qayta aloqa mexanizmlari mavjud bo'lishi kerak. Bu talabalarning fikr-mulohazalarini, tengdoshlarini kuzatish va reflektiv amaliyotni o'z ichiga oladi.

Qiyinchiliklarga qaramay, tadqiqot tasviriy san'at ta'limidagi innovatsion usullar o'quv tajribasini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Ular talabalarga nafaqat mohir rassomlar, balki zamonaviy dunyoning murakkabliklariga tayyor, o'ychan, empatik va ijodiy shaxslar bo'lishga imkon beradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Eisner, E. W. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.
2. Hetland, L., Winner, E., Veenema, S., & Sheridan, K. (2013). Studio Thinking 2: The Real Benefits of Visual Arts Education. Teachers College Press.
3. Duncum, P. (2009). Visual culture in art education. Art Education, 62(1), 6–13.
4. Hall, C., & Thomson, P. (2017). Creativity in teaching: What teachers can learn from artists. Cambridge Journal of Education, 47(2), 223–235.
5. Smith-Shank, D. L. (2007). Semiotics and Visual Culture: Sights, Signs, and Significance. Davis Publications.
6. Freedman, K., & Stuhr, P. (2004). Curriculum change for the 21st century: Visual culture in art education. Art Education, 57(2), 6–13.
7. National Art Education Association. (2016). Position Statement on the Value of Visual Arts Education.
8. Gude, O. (2007). Principles of possibility: Considerations for a 21st-century art and culture curriculum. Art Education, 60(1), 6–17.
9. McLellan, R., Galton, M., Steward, S., & Page, C. (2012). The impact of creative initiatives on wellbeing: A literature review. International Journal of Wellbeing, 2(2), 20–43.
10. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Capstone Publishing.

11. Greene, M. (1995). Releasing the Imagination: Essays on Education, the Arts, and Social Change. Jossey-Bass.

12. May, W. T. (2013). Teachers as public intellectuals: Narratives of teaching and the arts. Studies in Art Education, 54(3), 234–248.

13. Rolling, J. H. (2016). Reinventing the art curriculum through a pedagogy of creativity. International Journal of Education & the Arts, 17(11), 1–24.

14. Wilson, B. (2003). Of diagrams and rhizomes: Visual culture, contemporary art, and the impossibility of curriculum. Studies in Art Education, 44(3), 214–229.

15. Marshall, J. (2010). Five ways to integrate: Using strategies from contemporary art. Art Education, 63(3), 13–20.

16. Mamanazarov, U. B. (2022). Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy me’rosning yoshlar xulqiy-tarbiyaviy ongi shakllanishidagi psixologik o ‘rni. Academic research in educational sciences, 257-261.

17. Burxon o‘g‘li, M. U. (2024, dekabr). Dasturning xususiyatlari O‘smirlik davrida axloqiy o‘zini-o‘zi anglashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Iqtisodiyot, moliya, bank va menejment bo'yicha xalqaro konferentsiyada (316-320-betlar).

UDK: 371.315.6:53

Saidova Munisa Salohiddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi,
E-mail: saidovamunisa1001@gmail.com

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING FIZIKA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISHDA OCHIQ YONDASHUV VA YANGI METODIK USULLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘rta maktab fizika darslarida laboratoriya mashg‘ulotlarini ochiq yondashuv asosida o‘qitishning afzalliklari, muammolari va samarali metodik usullari tahlil qilinadi. Maqolada quyidagi ilmiy tadqiqot ishlar: Illinoys Fizika va O‘rta Maktablar Hamkorlik Dasturi (IPaSS) doirasida olib borildi va muhokama qilindi. Fizika o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayoni, amaliyot hamjamiyatlari (Community of Practice – CoP) va zamonaviy laboratoriya qurilmasi – iOLab vositasi yordamida ochiq yondashuvni joriy etishdagi tajribalari o‘rganilgan. Maqolada ochiq laboratoriya yondashuvining o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, ilmiy izlanish ko‘nikmalari va qiziqishini oshirishdagi roli ilmiy asosda bayon etiladi. Shu bilan birga, bu yondashuvni amaliyotga tadbiq etishdagi asosiy to‘siqlar – vaqt cheklovlari, yuqori sinflardagi turli muammolar, resurslar tanqisligi, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Maqolada ustida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, CoP orqali tajriba almashinuvi va iOLab yordamida mustaqil tajriba dizayni o‘qituvchilarda pedagogik yondashuvni ijobiy tomonga o‘zgartirgan. Maqola yakunida ochiq yondashuvni ta’lim tizimida barqaror joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fizika ta’limi, laboratoriya mashg‘ulotlari, ochiq yondashuv, inquiry-based ta’lim, amaliyot hamjamiyati (CoP), o‘quvchilarning ilmiy fikrlashi, metodik to‘siqlar, eksperiment dizayni*

ОТКРЫТЫЙ ПОДХОД И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ В СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются преимущества, проблемы и эффективные методические подходы к обучению лабораторным занятиям по физике в средних школах с использованием открытого подхода. Обсуждение основано на исследованиях, проведённых в рамках Программы партнёрства Иллинойсской физики и средних школ (IPaSS). Анализируется профессиональное развитие учителей физики, практика сообществ (CoP) и использование современного лабораторного оборудования — устройства iOLab для внедрения инквизитивного обучения. Особое внимание уделяется роли открытых лабораторных подходов в развитии критического мышления, исследовательских навыков и интереса учащихся к предмету. Также рассматриваются основные препятствия к практической реализации, такие как нехватка времени, сложности в старших классах, дефицит ресурсов и уровень подготовки преподавателей. По результатам исследования установлено, что обмен опытом через CoP и самостоятельное проектирование экспериментов с использованием iOLab положительно повлияли на педагогическую практику. В заключение представлены практические рекомендации по устойчивому внедрению открытого подхода в образовательную систему.*

Ключевые слова: *обучение физике, лабораторные занятия, открытый подход, инквизитивное обучение, сообщество практики (CoP), научное мышление, методические барьеры, проектирование эксперимента*

OPEN-ENDED APPROACHES AND INNOVATIVE METHODOLOGIES IN TEACHING PHYSICS LABORATORY CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS

Abstract. *This article analyzes the advantages, challenges, and effective methodological approaches of implementing open-ended teaching strategies in secondary school physics laboratory sessions. The discussion is based on research conducted within the Illinois Physics and Secondary Schools (IPaSS) Partnership Program. It examines physics teachers' professional development, Communities of Practice (CoP), and the application of the modern iOLab device as a means to introduce inquiry-based instruction. The paper emphasizes the role of open-ended lab approaches in enhancing students' critical thinking, scientific inquiry skills, and engagement. Additionally, it addresses key barriers to practical implementation such as time constraints, issues in higher grades, lack of resources, and varying levels of teacher preparedness. Research findings indicate that experience-sharing through CoP and independent experiment design via iOLab positively influenced pedagogical practices. The article concludes with practical recommendations for the sustainable integration of open-ended approaches in education systems.*

Keywords: *physics education, laboratory instruction, open-ended approach, inquiry-based learning, Communities of Practice (CoP), scientific thinking, methodological barriers, experiment design*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va analitik tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, tabiiy fanlar, jumladan, fizika fani bu borada alohida o‘rin tutadi. Fizika darslari orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, ilmiy fikrlash, kuzatish va tahlil qilish kabi jihatlar ham o‘quvchilarga singdiriladi. Aynan shuning uchun ham laboratoriya mashg‘ulotlari ushbu fanning asosiy tayanch nuqtasi sanaladi.

An’anaviy laboratoriya darslari, odatda, oldindan tuzilgan ssenariylar va ko‘rsatmalar asosida amalga oshiriladi. Bu yondashuvda o‘quvchi ko‘proq ko‘rsatmaga amal qiluvchi ijrochi rolini o‘ynaydi, mustaqil fikr yuritish, tajriba tuzish yoki natijalarni tahlil qilish imkoniyatlari cheklanadi. Ayni vaqtda, ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchini qo‘yish, uning faol ishtirokini ta’minlash zarurati global miqyosdagi pedagogik islohotlarning bosh yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, ochiq yondashuvga asoslangan laboratoriya mashg‘ulotlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ochiq yondashuv deganda, o‘quvchiga tajribani qanday tashkil etish, qanday savollar qo‘yish, qanday usullarni tanlash, ma’lumotlarni qanday tahlil qilish va xulosalar chiqarish kabi bosqichlarda mustaqil qaror qabul qilish imkonini beruvchi o‘qitish modeli tushuniladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan faolligini oshiradi, ularni o‘rganilayotgan hodisalarni chuqurroq tushunishga undaydi hamda tanqidiy va tizimli fikrlashga yo‘naltiradi.

PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham ochiq yondashuvlar bilan ta’lim berilgan o‘quvchilarning fan, texnologiya va muhandislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yuqoriroq bo‘lishi aniqlangan. Bu esa ushbu yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Fizika fanining xususiyati shundaki, u nazariya va amaliyotni uzviy bog‘laydi. Laboratoriya ishlari esa o‘quvchiga nazariy bilimlarini real hayotiy holatlar bilan solishtirish, modellashtirish, natijalarni tahlil qilish, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi imkoniyatlarni beradi. Ochiq yondashuv esa bularni yanada kuchaytiradi. O‘quvchi o‘zining shaxsiy qiziqishlariga mos tajriba tanlashi, o‘z bilim darajasiga qarab tajribaning murakkabligini belgilashi va natijalarga erishish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Biroq, amaliyotda ochiq yondashuv asosida darslar tashkil etish bir qator muammolar bilan ham to‘qnashadi. Bu muammolar orasida laboratoriya vositalarining yetishmasligi, vaqt cheklovlari, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi, xavfsizlik choralariga rioya qilish kabi masalalar mavjud. Ayniqsa, o‘zbek ta’lim tizimida ko‘plab maktablarda laboratoriya xonalarining zamonaviy talabga javob bermasligi, vositalarning eskiligi yoki umuman mavjud emasligi, ochiq yondashuvni keng joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shuki, o‘qituvchilarning ochiq yondashuvga nisbatan munosabati va ularning bu yondashuvni amalda qo‘llay olish salohiyati ham turlicha. Ba’zi pedagoglar bu uslubni

murakkab, ko‘p vaqt talab qiladigan, sinfni boshqarishda qiyinchiliklar tug‘diradigan yondashuv sifatida baholaydilar. Boshqalar esa ochiq yondashuvni samarali metod deb tan olib, o‘quvchining mustaqilligini oshiruvchi, uning shaxsiy rivojlanishiga turtki beruvchi kuchli vosita deb biladilar.

Ushbu maqola aynan ana shunday dolzarb masalalarga yechim topish, ochiq yondashuv asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda qanday metodik yangiliklardan foydalanish mumkinligini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida yozilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologik vositalar, xususan **iOLab**, **Arduino**, **virtual laboratoriyalar**, **sensor ilovalar** kabi vositalarning dars jarayoniga joriy etilishi, ularning didaktik va texnik imkoniyatlari ham alohida ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar o‘rtasida amaliyot hamjamiyatlari (Communities of Practice – CoP) shakllantirish va u orqali metodik tajriba almashinuvi, fikr-mulohazalar asosida o‘zaro rivojlanish modelining ahamiyati ochib beriladi. Chunki, ochiq yondashuv nafaqat metod, balki pedagogik madaniyatdir – u o‘qituvchining o‘z qarashlarini, kasbiy pozitsiyasini va didaktik yondashuvini o‘zgartirishga undaydi.

Demak, ushbu tadqiqotning asosiy vazifasi – o‘rta maktab fizika darslarida ochiq yondashuv asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining afzalliklarini, ularni joriy etishdagi to‘siqlarni aniqlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu yondashuvni barqarorlashtirish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

1. Zamonaviy fizika ta’limida laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni

Zamonaviy fizika ta’limi – bu nafaqat nazariy tushunchalarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarni ilmiy fikrlash, kuzatish, tajriba o‘tkazish va tahlil qilish kabi ko‘nikmalar bilan qurollantirishni ham ko‘zda tutadigan murakkab o‘quv jarayonidir. Ayniqsa, maktab bosqichida fizika fanini o‘rganish jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyati beqiyosdir. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchiga oddiy nazariy ma’lumotni real voqelikda, amaliy sharoitda tasdiqlash imkonini beradi. Aytish mumkinki, laboratoriya darslari – bu fizikaning “ko‘rinadigan” va “seziladigan” qismidir.

Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchini passiv tinglovchilikdan faol ishtirokchilikka olib chiqadi. Masalan, Nyutonning harakat qonunlarini kitobdan o‘qib tushunish bilan ularni real sharoitda modellashtirib tajriba orqali anglash o‘rtasida katta farq bor. O‘quvchi o‘z qo‘li bilan tajriba o‘tkazganida, u har bir qonunning qanday ishlashini his etadi, xatolarga duch keladi, sababini qidiradi, shunda u chinakamiga fizikani “o‘zlashtiradi”, emas, balki kashf etadi. Bu esa ta’limda chuqur anglash darajasiga olib keladi.

Yevropa va Amerika ta’lim tizimlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fizikani amaliy tajriba asosida o‘rgatish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini 30–40% ga oshirgan (National Research Council, 2006). Shuningdek, AQShda faoliyat yurituvchi “The Physics Teacher” jurnalida e’lon qilingan maqolaga ko‘ra, laboratoriya ishlari bilan boyitilgan darslar nafaqat yuqori baholarni ko‘paytirgan, balki talabalarning muammoni tahlil qilish ko‘nikmalarini ham kuchaytirgan.

O‘zbekiston kontekstida ham bu borada ijobiy harakatlar mavjud. Xususan, Fizika fanini chuqur o‘qitishga ixtisoslashgan maktablar, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) konsepsiyasiga asoslangan ta’lim muassasalari, tajriba-sinov maktablarida laboratoriya darslariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo umumiy ko‘rinishda hali ham bu yo‘nalishda salmoqli o‘zgarishlar talab etiladi.

Ko‘pgina o‘qituvchilar laboratoriya darslarini o‘tkazish uchun resurslar yetishmasligini, vaqt cheklovlarini, xavfsizlik muammolarini yoki o‘zlarining texnik tayyorgarlik darajasi pastligini asosiy to‘siq deb bilishadi. Ammo ochig‘i, bugungi kunda oddiy laboratoriya tajribalarini tashkil etish uchun ko‘p mablag‘ talab qilinmaydi. Hatto kundalik hayotda mavjud oddiy buyumlar – o‘lchagich, prujina, smartfon, ilovalar (phyphox kabi) orqali ham interaktiv tajribalarni tashkil qilish mumkin.

Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarining yana bir muhim jihati – bu fanlararo integratsiyani ta’minlashidir. Masalan, o‘quvchi elektr zanjirini yig‘ish orqali fizika bilan bir qatorda texnologiya, matematika (hisoblash), informatika (dasturlash) elementlarini ham bir vaqtda o‘rganadi. Ayniqsa Arduino kabi ochiq platformali qurilmalardan foydalanish esa o‘quvchini texnologik tafakkur sari yo‘naltiradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. O‘quvchilar guruhlarda ishlash, fikr almashish, tajriba rejasini tuzish, natijani tushuntirish va bahslashish jarayonida o‘zaro muloqotga kirishadilar. Bu esa kommunikativlik, yetakchilik, murosaga kelish, ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, laboratoriya darslari faqat fan o‘rganish emas, balki shaxs tarbiyasi uchun ham qulay maydon sanaladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, zamonaviy ta’lim mezonlari o‘quvchida tayyor bilimni emas, balki bilimni yaratish, sinovdan o‘tkazish va mustaqil xulosa chiqarish salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Laboratoriya mashg‘ulotlari esa aynan mana shu maqsadga xizmat qiladi. U o‘quvchiga har bir fizika qonunini “qo‘lida ushlab ko‘rish”, uni o‘z ko‘zi bilan “ko‘rish” imkonini beradi. Bu esa bilimni chuqurlashtiradi, mustahkamlaydi va uzoq yodda saqlanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, laboratoriya mashg‘ulotlari – bu fizika fanining jonli, harakatdagi, real shaklidir. Ular orqali o‘quvchi “nima uchun?” degan savolga nazariyaga emas, tajribaga tayangan holda javob topadi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning eng muhim tamoyillaridan biri – “bilish – tushunish – qo‘llash – tahlil qilish – baholash – yaratish” bosqichlarini to‘laqonli yoritadi. Shunday ekan, fizika fani darslarida laboratoriya mashg‘ulotlari, ayniqsa ochiq, izlanishga asoslangan yondashuvda, ta’lim samaradorligini oshirishning eng kuchli vositalaridan biridir.

2. Ochiq yondashuvning mazmuni va asosiy tamoyillari

Ochiq yondashuv (open-ended inquiry) – bu o‘quvchilarning mustaqil ravishda ilmiy savollar qo‘yishi, eksperimentlar dizayni yaratishi, o‘z kuzatuvlariga asoslangan xulosalar chiqarishi va bu xulosalarni bahs qilishga tayyor bo‘lishiga asoslangan didaktik yondashuvdir. Mazkur yondashuvda o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol izlanuvchi, tadqiqotchi va xulosachi sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda “ilmiy tafakkur”ni shakllantirishdir. Bu esa quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- Mustaqillik: o‘quvchilar eksperimentning qanday shaklda o‘tkazilishini o‘zlari belgilaydi;
- Tanqidiy fikrlash: natijalarni tahlil qilish, muqobil tushuntirishlar keltirish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish;
- Yaratuvchanlik: mavjud bilimlarga asoslangan holda yangi muammolarni hal etish;
- Hamkorlik: guruhiy ishlar, muhokama, fikr almashish, bahs orqali o‘rganish;
- Refleksiya: o‘z fikrlari, yondashuvlari va qarorlarini tahlil qilish, takomillashtirish.

Ochiq yondashuvda natija muhim emas, balki o‘quvchining ilmiy jarayondagi ishtiroki muhim hisoblanadi. Shu bois bu yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biri – kompetensiyaviy yondashuvga to‘liq mos tushadi. U o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi, faol ishtiroki va ijtimoiy o‘rganish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Zamonaviy texnologik vositalarning laboratoriya mashg‘ulotlariga ta’siri

So‘nggi yillarda fizika ta’limiga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi laboratoriya mashg‘ulotlarini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda tajribalarni faqat sinfxona doirasida emas, balki virtual muhitda, mobil ilovalar, sensorli qurilmalar yordamida ham bajarish mumkin. Bu esa ochiq yondashuv imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Eng ko‘p foydalanilayotgan texnologik vositalar quyidagilardir:

1.iOLab – bu ko‘chma fizik laboratoriya bo‘lib, o‘quvchi kuch, tezlik, bosim, harakat, elektromagnit o‘zgarishlarni real vaqt rejimida o‘lchaydi va kompyuter orqali vizual ko‘rsatadi.

2.PhET (Interactive Simulations) – Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan bepul onlayn simulyatsiyalar to‘plami. Unda o‘quvchilar xavfsiz va interaktiv muhitda fizik hodisalarni tajriba qilib ko‘rishadi.

3.Arduino – ochiq platforma bo‘lib, o‘quvchilar harorat, yorug‘lik, harakat kabi parametrlarni mustaqil ravishda sensorlar orqali o‘lchashni o‘rganadilar.

4.Phyphox – mobil ilova bo‘lib, smartfonning o‘zini tajriba vositasiga aylantiradi (tezlik o‘lchash, akseleratsiya, tovush chastotasi va h.k.).

Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni tajriba loyihasini yaratish, natijalarni to‘plash va tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi bosqichlarga jalb qiladi. Shuningdek, ular:

- laboratoriyalarning xavfsizligini oshiradi,
- maktabda mavjud bo‘lmagan uskunalarni simulyatsiya qiladi,
- vaqt va joyga bog‘liq cheklovlarni kamaytiradi,
- o‘qituvchi ishtirokini ko‘proq kuzatuvchi va yo‘naltiruvchiga aylantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ochiq yondashuvga o‘tishni qulay va iqtisodiy jihatdan maqbul qiladi. Shu bois, fizika ta’limini modernizatsiya qilishda texnologik vositalarning joriy etilishi zaruriy shart hisoblanadi.

4. Fizika o‘qituvchilari tajribasida ochiq yondashuvni joriy etish

O‘qituvchining ochiq yondashuvga bo‘lgan munosabati va uni amalda qanday joriy qilishi – laboratoriya darslarining sifatini belgilovchi asosiy omillardandir. So‘rovnomalar va intervyular asosida olib borilgan bir nechta tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning bu yondashuvga nisbatan ishonchi ularning shaxsiy tajribasi, texnik salohiyati, metodik qo‘llab-quvvatlanish darajasi va o‘zaro tajriba almashinuvi bilan chambarchas bog‘liq.

Masalan, **CoP (Community of Practice)** – amaliyot hamjamiyatlari orqali o‘qituvchilar bir-birlari bilan ochiq laboratoriyalarni tashkil etish bo‘yicha tajriba almashadilar. Bu nafaqat uslubiy bilimlarni oshiradi, balki ishonchni ham mustahkamlaydi. Yangi metodika, ayniqsa ochiq yondashuvga asoslangan laboratoriya darslari o‘qituvchi uchun noan’anaviy vazifa bo‘lganligi sababli, u uni birinchi galda o‘zida sinab ko‘rishga intiladi.

Dastlabki bosqichlarda aksariyat o‘qituvchilar:

a. vaqt yetishmasligi,
b. baholash mezonlarining yo‘qligi,
c. o‘quvchilarning tartib-intizomi kabi omillarni sabab qilib ko‘rsatadilar.

Ammo bunday tashvishlar – amaliyotda bosqichma-bosqich o‘zgarish bilan bartaraf etilmoqda. Yengil, ko‘chma va interaktiv qurilmalar, masalan, iOLab yoki Arduino vositalari yordamida oddiy tajribalar o‘tkazish o‘qituvchilar ishonchini orttiradi. Shuningdek, ochiq laboratoriyalarning ilk bosqichlarini yarim-strukturaviy shaklda berish (ya’ni, yo‘nalishli savollar bilan cheklangan erkinlik) bu yondashuvga silliq o‘tishga yordam beradi.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ochiq yondashuvga o‘tgan o‘qituvchilar o‘quvchilarining qiziqishi, savol berish darajasi va natijalarni tushunishi kuchayganini qayd etganlar. Ular nafaqat dars mazmunini, balki o‘zining o‘qituvchilik falsafasini ham qayta ko‘rib chiqqan.

1-jadval

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul (%)	Ochiq yondashuv (%)
Laboratoriyalarda ochiq yondashuv qo‘llangan sinflar	20%	85%
O‘quvchilarning fizika faniga qiziqishi oshgan holatlar	30%	80%
Mustaqil fikr bildirgan o‘quvchilar soni	25%	78%
To‘g‘ri xulosa qilgan o‘quvchilar foizi	28%	82%
O‘qituvchining metodik ishonchi oshgan holatlar	35%	88%
O‘quvchilar orasida noto‘g‘ri tushunganlar kamayishi	40%	70%

Yuqoridagi jadvalda ochiq yondashuv asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligi an’anaviy yondashuv bilan taqqoslanmoqda. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ochiq yondashuv qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishi 80% gacha oshgan, mustaqil fikr bildirgan o‘quvchilar soni esa 78% ni tashkil etgan. Ayniqsa, o‘quvchilarning to‘g‘ri xulosa chiqarish, muammolarni tahlil qilish, natijalarni tushunish kabi ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan.

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning metodik ishonchi ham 88% ga oshgani, ya’ni ochiq yondashuv ularning pedagogik yondashuvini qayta ko‘rib chiqishlariga turtki bo‘layotgani kuzatilgan. Bu raqamlar ochiq laboratoriya metodikasining nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada ochiq yondashuv asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rta maktab fizika ta’limidagi o‘rni chuqur ilmiy asosda tahlil qilindi. Ochiq yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish va tajriba asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi isbotlandi. Tadqiqotlar va empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuv bilan solishtirilganda, ochiq laboratoriya metodikasi yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki oshgan.

Shuningdek, zamonaviy texnologik vositalar (iOLab, Arduino, PhET, sensorli ilovalar) ochiq yondashuvni joriy etishda qulaylik yaratadi, o‘quvchiga vizual, mobil va interaktiv tajriba muhiti taqdim etadi. O‘qituvchilar bu jarayonda bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi sifatida yangi pedagogik rolga ega bo‘lishadi.

Shunga qaramay, ochiq yondashuvni amaliyotga tatbiq qilishda ayrim muammolar — vaqt cheklanishi, laboratoriya vositalarining yetishmasligi, metodik ishonchning pastligi, baholashdagi qiyinchiliklar uchramoqda. Bu to‘siqlarni yengishda amaliyot hamjamiyatlari (CoP), kasbiy almashuv seminar-treninglari va onlayn platformalar orqali o‘qituvchilarni metodik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola yakunida ochiq yondashuvni maktablarda barqaror joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✓ Fizika o‘qituvchilari uchun doimiy seminar va onlayn tajriba almashuv maydonchalari tashkil etilishi;
- ✓ Har bir maktabda raqamli laboratoriya vositalari bilan jihozlangan sinf mavjud bo‘lishi;
- ✓ Baholash mezonlari qayta ko‘rib chiqilib, ijodiy va analitik yondashuvlar baholanishi zarur;
- ✓ O‘qituvchilar uchun ochiq laboratoriya metodikalariga oid qo‘llanmalar ishlab chiqilishi va keng joriy etilishi.

Ochiq yondashuv fizika ta’limini nafaqat qiziqarli, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantiruvchi va zamon talablari bilan uyg‘un holda shakllantiruvchi samarali metodik yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Qahhorov S., Karimov A. Fizika ta’limi davriyligini loyihalash texnologiyasi. – Namangan: NDPI, 2024. – 276 b.
2. Ko‘shchanova D.E. Zamonaviy fizika virtual laboratoriyalarida interfaol uslublar. – Samarqand: SamDU, 2022. – B. 175–182.
3. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti. Zamonaviy fizika va astronomiyaning dolzarb muammolari. Ilmiy to‘plam. – Chirchiq, 2024. – 280 b.
4. Abdurazzoq N., Ernazarov A.N. P5BL texnologiyalari orqali o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirish. // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – T. 5. – №11. – B. 91–101.
5. Durdieva G.A., Durdiev L.A., Durdieva Sh.A. Laboratoriya mashg‘ulotlari roli va ahamiyati. // Молодой ученый. – 2023. – №11(458). – С. 148–149.
6. National Research Council. America's Lab Report: Investigations in High School Science. – Washington, D.C.: National Academies Press, 2006.
7. Etkina E., Van Heuvelen A. Investigative Science Learning Environment: Using the processes of science and cognitive strategies to learn physics. // Physics Education. – 2007. – Vol. 42(3). – P. 292–298.
8. PhET Interactive Simulations Project. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu
9. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti,
ORCID: 0009-0007-4718-9305

MEDIASAVODXONLIK VA SAN’AT: TA’LIM JARAYONIDA YANGI YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida mediasavodxonlik va san’at sohasi integratsiyalashuvining dolzarb jihatlari yoritilgan. Mediasavodxonlikni rivojlantirishda san’at vositalarining o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilingan. Talabalarda keng ijodiy fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga oid yangi pedagogik yondashuvlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *mediasavodxonlik, san’at, madaniyat, pedagogika, raqamli texnologiyalar, interaktiv pedagogika.*

МЕДИАГРАМОТНОСТЬ И ИСКУССТВО: НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные аспекты интеграции медиаграмотности и искусства в современную систему образования. Анализируются роль и возможности искусства в развитии медиаграмотности. Изучаются новые педагогические подходы к развитию широкого творческого мышления и информационного анализа учащихся.*

Ключевые слова: *Медиаграмотность, искусство, культура, педагогика, цифровые технологии, интерактивная педагогика.*

MEDIA LITERACY AND ART: NEW APPROACHES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *This article discusses the current aspects of the integration of media literacy and the arts in the modern education system. The role and opportunities of art in the development of media literacy are analyzed. New pedagogical approaches are studied to develop students' broad creative thinking and information analysis.*

Keywords: *Media literacy, art, culture, pedagogy, digital technologies, interactive pedagogy*

Kirish. Hozirgi axborot-kommunikatsiya davrida raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar to‘laqonli tarzda rivojlanmoqda. Bunda har bir sohadagi bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish, yangicha pedagogik modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, san’at va madaniyat kabi sohalarda talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy qudratlari va keng tarqalgan axborot manbalari bilan munosabati yuksak darajada ahamiyatli sanab o‘tilmoqda. Shu jihatdan mediasavodxonlik — ular orqali talabalar nafaqat axborotni qabul qilib, balki tanqidiy baholash, ijodiy fikrlash va yangi kontentlar yaratish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalari orasida mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va empirik tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, sinov jarayonlarida qo‘llanilayotgan metodlar hamda kelgusida ilmiy-amaliy integratsiya modelini yaratish usullari keng yoritiladi. Ma’muriyat, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun zamonaviy pedagogik tizimda mediasavodxonlikni integratsiya qilish, talabalarning shaxsiy va akademik salohiyatini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy pedagogika tajribalari san’at va madaniyat muassasalarida shu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy integratsiya modeli asosida talabalar mediasavodxonligini oshirishga qaratilgan. Milliy va xalqaro ilmiy iqtisod va pedagogika sohasida yangicha interaktiv texnologiyalar, integratsiyalashtirilgan pedagogika modellari, empirik tadqiqot usullari keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ahamiyatli tomonlardan biri – san’at va madaniyat

yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlikni yangicha shaklda qabul qilish qobiliyati faqat axborot manbaalarini qabul qilish bilan cheklanmay, balki ular orqali o‘ziga xos ijodiy fikrlash, vizual va audiovizual materiallar orqali yangi mediamahoratni shakllantirish haqida bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida bu kabi integratsiyalashtirilgan usullarning ahamiyati katta.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida pedagogik tizimda mediasavodxonlikni ilg‘or texnologiyalar va innovatsion usullar orqali, talabalarning axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash va tanqidiy baholash qobiliyatini oshirish, balki zamonaviy pedagogik mutaxassislar tomonidan yangicha tadqiqot modellarini qo‘llash orqali ushbu jarayonni kompleks tarzda ko‘rib chiqish, ilmiy-amaliy integratsiya modellarini yaratishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Organik, bir-biri bilan uyg‘unlashgan ushbu tizim talabalarning umumiy shaxsiy rivojlanishiga, yetakchi innovatsion texnologiyalar asosida yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi. Ma’lumki, raqamli media muhiti va interaktiv pedagogika usullari talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishda, ularning bilim hamda axborotni san’at va madaniyat sohasida qisman, balki butunlay to‘liq rivojlanishiga ko‘maklashadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot maqolasida empirik tahlil va ilmiy-amaliy integratsiya modelining asosiy jihatlari, tayyorlanayotgan eksperiment dizaynlari va kelgusidagi strategik takliflar keng yoritiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik tizimda mediasavodxonlikni kompleks tarzda integratsiya qilish masalasi ilmiy-tadqiqotchilar va pedagoglar tarafidan keng ko‘rib chiqilmoqda. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan zamonda, san’at va madaniyat sohalarida talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida mediasavodxonlikni ta’lim jarayonining asosiy komponentlaridan biri sifatida qabul qilish kerak. Birinchidan, raqamli platforma va interaktiv metodlarning kengay qo‘llanilishi talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini va mediasavodxonlik darajasini oshirishga olib keladi. Masalan, vizual kontent, multimediali resurslar, video va audiomateriallar orqali talabalarning ijodiy yondashuvi yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin. Shuningdek, san’at va madaniyat sohasida mediasavodxonlikni integratsiya qilishda interaktiv texnologiyalar, virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) kabi yangi texnologiyalar orqali talabalarni raqamli media muhitiga qiziqtirishga, ularning axborotni qabul qilish va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini oshirib, ijodiy ta’sirlanishlarini yaratish kerakligi keng ko‘rib chiqiladi.

Ikkinchidan, pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalarning mediasavodxonlik darajasini oshirishning ilmiy asoslari, ularni yangi interaktiv metodlar bilan boyitish imkoniyati bo‘yicha turli eksperimental platformalar ishlab chiqilmoqda. Bu borada zamonaviy pedagogik modellar talabalarning axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash va murakkab tahlil qobiliyatlarini oshirish maqsadida, kontentni to‘g‘ri tanlash, universal axborot manbalarini egallash va ularni samarali baholashga qaratilgan. Bunda o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar talabalarning individual o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayonini birlamchi va universal qilish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, multimediya vositalari va interaktiv loyihalardan foydalanish asosiy janjal masalalaridan biriga aylanmoqda. Ushbu tendensiyani amalda qo‘llash uchun pedagogik tizimda mediasavodxonlikni integratsiya qilish metodologiyasi bir qator asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘quv dasturlari va qo‘lim materiallarining raqamli formatda tayyorlanishi, o/quvchilar uchun maxsus mobil ilova va veb-platformalar orqali talabalarning mediasavodxonlik darajasini aniqlash, tahlil qilish va monitoring qilish imkoniyatini yaratish muhimdir. Shu tarzda, pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalarning samaradorligini baholash va ularning yangi usullar asosida takomillashtirish — talabalarning shaxsiy, ijodiy va tanqidiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu integratsiyalashtirilgan model orqali san’at va madaniyat sohasidagi talabalar aksent holda faqat axborotni qabul qilish bilan cheklanmasdan, balki aniq konsepsiya va mazmunli kontent yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilmiy-tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, o‘quv jarayonida mediasavodxonlikni ta’sirli integratsiya qilish orqali zamonaviy pedagogik muhit e’tirof etilishi, talabalarning innovatsion fikrlashlari va axborot xavfsizligini ta’minlashda yangi standartlarni belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, mediasavodxonlikning integratsiya qilinishi o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media platformalar orqali taqdim etiladigan axborot bilan to‘liq tanishishi, ularni madaniy kontekstda tanqidiy baholash qobiliyatini shakllantirish jarayoniga qadam bosishda yangi

o‘lchovlar ornatish imkoniyatini ham beradi. Shuningdek, bu holatda san’at va madaniyat sohalariga xos ijodiy yondashuv, innovatsion o‘quv materiallari va vizual–audio vositalar orqali talabalarning mediasavodxonlik darajasi turli jihatdan o‘rganilib, integratsiya modellari asosida takomillashtirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tizimda mediasavodxonlikni integratsiya qilish zamonaviy pedagogikada talabalarning qismgi rivojlanishi va ijodiy salohiyatini oshirishda, raqamli texnologiyalar orqali yangi tendensiyalar va innovatsion metodlar asosida bo‘lib, san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun alohida xususiyat va yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlik darajasini to‘g‘ri va obyektiv aniqlashdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda empirik tadqiqot usullari, ya’ni anketa so‘rovnomalari, intervyular va kuzatish usullari muhim ahamiyatga ega.

Anketa va so‘rovnoma metodlari orqali talabalarning axborot manbalariga, raqamli media kontentlarga va ijodiy yondashuvlarga nisbatan sharhlari, fikrlari, ehtiyojlari va muntazam tajribalari to‘planadi. Masalan, raqamli texnologiyalarga qiziqish, ijodiy istiqbol va axborot xavfsizligi kabi ko‘rsatkichlar asosida turli empirik savollar tuzilib, ularning rivojlanishi aniqlanadi. Shuningdek, so‘rovnoma natijalari statistik tahlillar orqali qo‘llaniladi, talabalar o‘rtasidagi farqlar, reytinglar va umumiy mediasavodxonlik darajasi ko‘rsatkichlari klasterlashtirilish orqali tahlil qilinishi mumkin. Intervyu usuli esa talabalar, pedagoglar va tadqiqotchilar o‘rtasidagi ko‘proq sapalogiy ma’lumotlarni olib, mediasavodxonlikning turli jihatlarini keng ko‘lamli tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu suhbatlarda ishtirokchilarning shaxsiy tajribalari, mediasavodxonlikni rivojlantirishdagi individual yondashuvlari va innovatsion metodlardan qanday foydalanishi mashvarat qilinadi. Intervyular natijasi orqali yuqori sifatli va murakkab ma’lumotlar to‘planib, ularning kompleks tahlili talabalarning mediasavodxonlik daraja va samaradorligini obyektiv baholashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kuzatish usuli esa empirik tadqiqotlarning yana bir samarali vositasi bo‘lib, o‘quv jarayonida talabalarning mediasavodxonlik faoliyatini, raqamli kontentni qabul qilish, tanqidiy tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash jarayonlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash imkonini beradi. Bu usul yordamida pedagoglar va tadqiqotchilar talabalarning axborot manbalari bilan munosabatlarini, ularning raqamli media muhitidagi interaksiyasini va individual imkoniyatlarini aniq baholashadi.

Yangi eksperimental modellarni ishlab chiqish jarayonida empirik tadqiqotlar natijalari asosida talabalarning mediasavodxonlik darajasi, ularning raqamli resurslar bilan munosabati va ijodiy yondashuvlari statistik, sifatiy va interpretatsion analizlar orqali birlashtiriladi. Shu tariqa, eksperiment dizaynida qatnashuvchilarni bir nechta guruhga ajratgan holda, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati va mediasavodxonlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, farqlar va umumiy tendensiyalar keng ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot tadbirlari natijasida, san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlik darajasi yagona shkala va ma’lum bir standartga asoslanib, murakkab empirik modellar yaratiladi. Misol sifatida, talabalarning raqamli media kontentga munosabatlari, axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash va kontent yaratish qobiliyati yemasdan, ularning shaxsiy va ijodiy rivojlanishiga nisbatan farqli ko‘rsatkichlar xolatida baholanadi.

Bundan tashqari, empirik tahlil va tajriba asoslarida tuzilgan eksperiment modellarining natijalari, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan qator xususiy holatlar, statistik ma’lumotlar va sapalogiy intervyu natijalari orqali qiyoslab ko‘rib chiqiladi. Bu model talabalar mediasavodxonligiga yangi tendensiyalar, innovatsion pedagogika texnologiyalari va raqamli platforma vositalari yordamida integratsiya masalasida yangi nazariyai va amaliy qarorlarni taqdim etadi. Shu orqali, san’at va madaniyat sohasida mediasavodxonlikni rivojlantirishning innovatsion modellari, talabalarning universal intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishda asosiy resursga aylanadi. Qisqacha aytganda, empirik tadqiqot usullari: anketa so‘rovnomalari, intervyular va kuzatish metodlari talabalar mediasavodxonligi darajasini obyektiv tahlil qilishda va pedagogik tizimda yangi integratsiya modellarini ishlab chiqishda asosiy ahamiyatga egadir. Ushbu tadqiqot tadbirlari orqali olingan

ma’lumotlar, keyingi bosqichda innovatsion pedagogik modellar va integratsiya usullarini ishlab chiqishda asosiy resurs sifatida xizmat qiladi.

Mediasavodxonlikning rivojlanishi va unda yangi interaktiv texnologiyalar asosida integratsiya modellarini yaratish uchun kelajakda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan strategik yondashuvlar va takliflarning bir qator asosiy qismlari mavjud. Ilmiy-tadqiqotlarda qator tadqiqotlar pokazatkicha, san’at hamda madaniyat sohasida talaba va o‘quvchilarning mediasavodxonlik darajasini oshirish uchun integratsiyalangan modelni ishlab chiqish zarurati aks etib keladi. Biringi, kelajak strategiyalaridan biri – zamonaviy pedagogik tizimni raqamli resurslar, interaktiv platforma va ijodiy kontent yaratish usullari bilan uyg‘unlashtirishdir. Bunda o‘quv jarayonida talabalarning axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash va multimediya resurslaridan faol foydalanish qobiliyatini oshirish maqsadida raqamli kurrikulumlar, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalarni yaratish taklif etiladi. Masalan, san’at va madaniyat sohalarida joriy yegaligidagi ijodiy yondashuvni yanada rivojlantirish uchun maxsus interaktiv seminarlar, vebinarlar va onlayn platformalar orqali eksperimental tajribalar o‘tkazilishi mumkin. Ikkinchi strategiya – empirik tadqiqot natijalariga asos qilingan model yaratishdir. Yangi ilmiy-amaliy integratsiya modeli quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi shart:

• Axborot manbalari va raqamli kontentni tanlash usullari. Talabalarning axborot manbalariga munosabatlarini sinovdan o‘tkazish va ularning raqamli kontentni qabul qilish, tahlil qilish va qayta ishlash qobiliyatini yaxshilash uchun zamonaviy metodlar joriy etiladi.

• Ijodiy fikrlash va tanqidiy baholash mexanizmlari. Yangi interaktiv texnologiyalar orqali talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish, mediasavodxonlikni mukammallashtirish maqsadida virtual muhitdagi simulyatsiya va ro‘yxatdan o‘tgan treninglar yaratiladi.

• Interaktiv pedagogika va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi. Onlayn platformalar, raqamli laboratoriyalar, video darslar va multimediali materiallar orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion modellar, pedagogik jarayondagi yangiliklarni joriy etish rejasida integratsiya qilingan.

Ushbu integratsiya modelini yaratishda ilmiy-tadqiqotchilar va pedagoglar birgalikda quyidagi qadamlarni amalga oshirasiz:

1. Tadqiqot usullarini standartlashtirish. Talabalarning mediasavodxonlik darajasini obyektiv aniqlash uchun anketa, intervyu va kuzatish usullarining uzluksiz va yagonlashtirilgan modelini ishlab chiqish.

2. Ma’lumotlarning kompleks tahlili. Olingan empirik ma’lumotlarni statistik va sapalogiy tarzda birlashtirib, talabalarning axborotni qabul qilish, tanqidiy baholash va ijodiy yondoshuvlari orqali yangi modelni tuzish.

3. Interaktiv texnologiyalarga asoslangan kurslarni yaratish. Mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun maxsus onlayn va offlayn kurslar, seminarlar, treninglar va interaktiv platforma orqali talabalarning shu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Yangi integratsiya modeli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va san’at-adbiyot sohasidagi pedagogik innovatsiyalarning birlashgan nas’ri sifatida, talabalarning shaxsiy, ijodiy va tanqidiy qobiliyatlarini yanada oshirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu modelda talabalarning interaktiv faoliyati, raqamli materiallarning multimediali integratsiyasi va ijodiy fikrlashning rivojlanishi orqali, ularning kelajakdagi professional va shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishi kafolatlanadi.

San’at va madaniyat sohasida mediasavodxonlikni rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot, empirik tahlil va innovatsion pedagogika modellarining integratsiyasi talabalarning axborot xavfsizligi va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yangi modelning eng muhim jihatlaridan biri – bu taqdim etilgan interaktiv platforma va raqamli texnologiyalar orqali talabalarni o‘quv jarayonida real vaqt rejimida monitoring qilish, ma’lumotlarning statistik tahlili va murakkab oqimlarni yaratish imkoniyatini berishi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu integratsiya modelini keng ko‘lamda tatbiq etish, pedagogika tizimini zamonaviy talab va innovatsiya sharoitiga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nijoyati ravishda, san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlikni rivojlantirishda empirik tadqiqot va integratsiya modellarini yaratish – bu keng qamrovli va dolzarb

masala bo‘lib, ilmiy va amaliy tajribalar orqali yangi pedagogik modellarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Tadqiqot natijalari asosida yaratilgan model talabalarning raqamli muhitda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va ularning ijodiy salohiyatini mustahkamlashda islohotchi va innovatsion yondashuvlarning amaliyotdagi qo‘llanilishida zamonaviy ensiklopediya sifatida xizmat etadi.

Xulosa. Ushbu maqola doirasida san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlikni rivojlantirish masalasi keng jihatdan ko‘rib chiqildi. Kirish qismida raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy pedagogikadagi ahamiyati, mediasavodxonlikni integratsiya qilishning innovatsion tendensiyalari va talabalarning axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash va tanqidiy baholash qobiliyati katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Asosiy qismda esa pedagogik tizimda mediasavodxonlikni integratsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari, empirik tadqiqot usullari orqali olingan ma’lumotlarning tahlili va talabalar mediasavodxonligi darajasini obyektiv baholashdagi asosiy yondashuvlar, shuningdek, kelajakdagi strategik takliflar va integratsiya modellari keng yoritildi.

Yangi eksperimental tajribalar, anketa so‘rovnomalari, intervyu va kuzatish usullari asosida olingan ma’lumotlar, pedagogik jarayonni raqamli platforma orqali ham modernizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Buning natijasida san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalari nafaqat axborot manbalari bilan tanishish va ularni tanqidiy baholash, balki ijodiy yondashuvlar orqali yangi media kontent yaratish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy-tadqiqot va empirik nazariyalarning birlashgan modellari asosida mediasavodxonlikni rivojlantirish, talabalarning umumiy shaxsiy va professional salohiyatiga e’tibor qaratish, raqamli texnologiyalar asosida ijodiy o‘quv jarayonini samarali tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu sababli, kelgusida san’at va madaniyat sohasida pedagogik innovatsiyalarni yanada rivojlantirish, interaktiv platforma va zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali talabalarning mediasavodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy integratsiya modellarini tatbiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolada taqdim etilgan ilmiy-amaliy integratsiya modeli, empirik tadqiqot usullari va pedagogik tizimda mediasavodxonlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion tendensiyalar orqali kengay ko‘lamli muhit yaratish, san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining ijodiy, tanqidiy va axborot qobiliyatlarini oshirishda asosiy yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. Keyingi ishlarda ushbu modelning turli iqtisodiy va pedagogik holatlarda quyidagi usullar asosida takomillashtirilishi, real eksperimental natijalar orqali baholanishi va butun tizimni yanada innovativ usullar bilan boyitish rejalari ko‘rib chiqilishi kutilmoqda.

Ma’lumki, san’at va madaniyat sohasida mediasavodxonlikni rivojlantirish faqat texnologik, balki ma’naviy-estetik jihatlarini ham kompleks ko‘rib chiqish zarurati bor. Shu sababli, kelgusi tadqiqotlarda talabalarning shaxsiy ilhom va ijodiy potensiali orqali mediasavodxonlik darajasini yanada tahlil etish, yangi modellar va eksperiment usullarini tatbiq etish kabi yo‘nalishlarda keng doirali tadqiqotlar o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik nazariy va praktik yondashuvlarni yakka-birlashtirish orqali san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy integratsiya modellarining asosiy nuqtalarini ochib berdi. Keyingi izlanishlarda ushbu modelni turli metodologik jihatlar, ilmiy eksperimentlar natijalari va turli innovatsion texnologiyalar asosida yanada takomillashtirish ta’minlanishi kutilmoqda.

Ushbu ilmiy maqola san’at va madaniyat sohasidagi zamonaviy pedagogika, raqamli texnologiyalar va mediasavodxonlikni rivojlantirishda kelgusi innovatsiya va ilmiy-amaliy integratsiya modellarini joriy etishda dolzarb masala sifatida yetuk nazariya va amaliyotni birlashtirishda muhim harakat quroli bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar va pedagoglar ushbu model asosida talabalarning axborot xavfsizligi, ijodiy fikrlash qobiliyati va raqamli media muhitidagi yuqori samaradorlikni ta’minlashda yangi eksperimental platformalar, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalar yaratish orqali zamonaviy pedagogik muhitni moslashtirishlari mumkin.

Keyingi tadqiqot va ilmiy-amaliy ishlar, pedagogik tizimning yangi talablariga mos keluvchi modellar, raqamli media resurslarining samarali integratsiyasi va talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar orqali yanada boyitilishi va takomillashtirilishi lozim.

Shuningdek, ushbu modelning amaliyotda tatbiq etilishi, talabalarning umumiy shaxsiy rivojlanishi, ijodiy fikrlash qobiliyatini va raqamli muhitda axborotni qabul qilish hamda qayta ishlash salohiyatini nisbatan yuqori darajaga ko‘tarishda muhim ilmiy va pedagogik resurs sifatida xizmat qilishiga ishonch bor.

Ushbu ilmiy maqola orqali san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarining mediasavodxonlikni rivojlantirishda empirik tahlil, innovatsion pedagogika va raqamli texnologiyalar asosida yangicha integratsiya modellarini ishlab chiqishdagi asosiy nazariy va amaliy nuqtalar keng qamrovli tahlil etilgani, talabalarning ijodiy va tanqidiy qobiliyatlarini oshirish qiyin masalasini yechimlashda muhim qadam hisoblanishi aniqlandi. Ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar va amaliy ekspertlar yanada keng qamrovli eksperimentlar asosida ushbu modelni takomillashtirish, talabalarning mediasavodxonlik darajasini funksional yondashuvlar orqali oshirish bo‘yicha yangi tadqiqot va ilmiy-amaliy eksperimentlarni o‘tkazish orqali pedagogika tizimini zamonaviy talab va innovatsiya sharoitiga moslashtirishi kerakligiga urg‘u bermoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yana quyidagilarni xulosa sifatida keltirib o‘tish mumkin bo‘ladi:

• Zamonaviy pedagogik tizimni raqamli texnologiyalar orqali boyitish, integratsiyalashtirilgan kurs va onlayn platformalarni yaratish talabalar mediasavodxonligini oshirishda samarali natijalarni ko‘rsatadi.

• Ta’lim sohasida yangi innovatsion vositalar orqali multimedia kontent, virtual seminarlar va interaktiv treninglar tashkil qilish talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashda muhim qadam hisoblanadi.

• Keyingi tadqiqotlar mobil ilova, onlayn kurslar, raqamli laboratoriyalar va virtual interaktiv muhitda zamonaviy pedagogik modeli yaratish orqali talabalarning mediasavodxonlik darajasini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayev, Sh.A. (2018). Hozirgi ta’limda raqamli texnologiyalar va mediasavodxonlik. Toshkent: Ilmiy va ta’limiy nashriyat.

2. Muxammadov, N. R. (2019). Interaktiv pedagogika va san’at tatbiqi. Fan va metodika, 3(2), 45–62.

3. Yunusov, F. A. (2020). Mediasavodxonlikni rivojlantirish: empirik tadqiqot usullari. Madaniyat va pedagogika jurnali, 4(1), 34–50.

4. Soliyev, R. M. (2021). Innovatsion pedagogika: raqamli platforma orqali o‘quv jarayonini integratsiyalash. Tadqiqot va innovatsiya, 2(3), 78–95.

5. Ergachev, M. T. (2022). San’at va madaniyat yo‘nalishi talabalarida mediasavodxonlik. Oliy mahoratning ilmiy-amaliy metodikasi, 1(1), 12–29.

6. Xurshidova, Z. N. (2023). Axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik: zamonaviy tendensiyalar. Interaktiv ta’lim va innovatsiya, 5(2), 56–73.

7. Бердиева, Ирода Худойшукуровна. "Ўқитишнинг “Flipped Classroom” модели: мазмуни, қўллаш талаблари ва имкониятлари." *Academic research in educational sciences* 2.9 (2021): 1145-1150.

8. BERDIYEVA, Iroda. "Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda mediata’limning o ‘rni." *«Acta Nuuz»* 1.1.1. 1 (2024): 78-81.

9. Berdiyeva, I. X. "San’at va madaniyat yo ‘nalishida mediasavodxonlik tushunchasining mohiyati." *Inter education & global study* 8 (2024): 69-79.

10. https://inlibrary.uz/index.php/stable_development/article/view/22127

Boltaxujayeva Shabnambonu Sobirxo‘ja qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistranti
E-mail: shabnambonuboltaxujayeva@gmail.com

MAKTABGACHA TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Anotatsiya. *Maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ilg‘or davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun eng muhim asos hisoblanadi. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.*

Kirish so‘zlar. *xojiy davlatlar, montessori, italiya, maktabgacha ta‘lim, regio metodi, TRES texnologiyasi, rivojlanish, erkinlik, bola.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Дошкольное образование является важным этапом в интеллектуальном, физическом и социальном развитии детей. Мировой опыт показывает, что в передовых странах система дошкольного образования является ключевой основой для всестороннего развития ребенка. В Узбекистане актуально и важно эффективно использовать зарубежный опыт для дальнейшего развития системы дошкольного образования.*

Ключевые слова. *передовые страны, Монтессори, Италия, дошкольное образование, метод Реджио, технология TRES, развитие, свобода, ребенок.*

UTILIZING INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. *Preschool education is an important stage in the intellectual, physical, and social development of children. Global experience shows that in advanced countries, the preschool education system is the key foundation for the comprehensive development of a child. In Uzbekistan, it is crucial to effectively utilize foreign experiences to further develop the preschool education system.*

Keywords. *developed countries, Montessori, Italy, preschool education, Reggio method, TRES technology, development, freedom, child.*

Kirish. Maktabgacha ta’lim bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarurati yanada kuchaymoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid samarali takliflar ishlab chiqish va bu boradagi ilg‘or metodlarni mahalliy sharoitga moslashtirishdan iborat. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, haligacha bir qator muammolar mavjud:

Sifatli ta’lim muhitining yetishmovchiligi – ilg‘or pedagogik metodikalar barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida bir xilda qo‘llanilmayapti. O‘qituvchilar malakasining pastligi – xalqaro tajribalarga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llay oladigan kadrlar yetarli emas. Innovatsion texnologiyalarning kamligi – bog‘chalarda ta’lim berishda interaktiv va zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Oilaviy ta’lim yetarli rivojlanmagan – ota-onalar maktabgacha ta’lim jarayoniga yetarlicha jalb qilinmagan, bu esa bolalarning intellektual rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Xalqaro tajribani o‘rganish – rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarini tahlil qilish. Metodik yondashuvlarni aniqlash – dunyoda samaradorligi isbotlangan

ta'lim metodikalarini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish. Mahalliy sharoitni tahlil qilish – O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimining mavjud holatini o'rganish va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash. Takliflar ishlab chiqish – maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish. Xulosalar chiqarish – xorijiy tajribalarni qo'llash orqali maktabgacha ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'limning ilmiy asoslarini o'rganish uchun jahondagi yetakchi tadqiqotchilar tajribasiga murojaat qilamiz. Masalan, Piaget va Vygotsky nazariyalari bolaning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga asoslangan bo'lib, ularning metodlarini amaliyotga tatbiq etish muhimdir [1]. Shuningdek, Finlyandiya, Yaponiya va AQShdagi ilmiy asoslangan ta'lim tizimlari maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash zaruratini ko'rsatmoqda [2]. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish bo'yicha ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar va amaliy qo'llanmalar o'rganildi. Vygotsky, L.S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes" Ushbu kitob bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta'limning roli haqida ilmiy asoslangan tushunchalarni beradi. Vygotsky nazariyasiga ko'ra, bolaning rivojlanishi yaqin rivojlanish zonasi orqali qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bu maktabgacha ta'lim tizimi uchun ham muhim. Montessori, M. (1912). "The Montessori Method" Bu asar Montessori metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Montessori yondashuvi bolalarning mustaqil fikrlashi va o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u dunyodagi eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Reggio Emilia Approach – Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2012). "The Hundred Languages of Children" ushbu kitob Italiyada ishlab chiqilgan Reggio Emilia yondashuvining asosiy prinsiplari va amaliy tatbiqini tavsiflaydi. Kitobdan maktabgacha ta'limda kreativlik, erkin fikrlash va bolalar ishtirokiga asoslangan yondashuvlarni o'rganish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori (2017) Ushbu qaror mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish strategiyasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Maktabgacha ta'lim metodikasi" (2021) Maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodikalar va ularning pedagogik asoslari haqida ma'lumot berilgan. UNICEF (2019). "Early Childhood Development: The Best Start in Life" Yuqoridagi adabiyotlar maktabgacha ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish bo'yicha muhim ilmiy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Ularning har biri ta'lim sifati, pedagogik yondashuvlar va bolalarning rivojlanishiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish mavzusidagi ushbu tadqiqot ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar uyg'un holda qo'llanildi.

Nazariy metodlar adabiyotlarni o'rganish – maktabgacha ta'lim bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, hisobotlar, qonuniy hujjatlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tarixiy-metodik tahlil – turli davrlarda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari va hozirgi kunga ta'siri o'rganildi. Ta'limiy hujjatlarni tahlil qilish – O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ta'lim strategiyalari, milliy o'quv dasturlari va me'yoriy hujjatlari o'rganildi. Empirik metodlar So'rov va intervyu – maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari, ota-onalar va ta'lim mutaxassislari bilan suhbat o'tkazilib, ularning tajriba va fikrlari o'rganildi. Kuzatish – maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni kuzatish orqali xorijiy tajribani tatbiq etish imkoniyatlari baholandi. Tajriba-sinov ishlari – maktabgacha ta'limda xorijiy metodlarni sinovdan o'tkazish orqali ularning samaradorligi tahlil qilindi. 3. Tadqiqot obyekti va predmeti Tadqiqot obyekti – O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi. Tadqiqot predmeti – xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'limni rivojlantirish metodlari. 4. Tadqiqot bosqichlari Boshlang'ich bosqich – mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalarni o'rganish. Tahlil bosqichi – mavjud maktabgacha ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. Empirik bosqich – maktabgacha ta'lim muassasalarida kuzatish va intervyular o'tkazish. Tavsiyalar ishlab chiqish – xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish. 5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlar taklif etiladi. Pedagogik innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi samaradorligi

baholanadi. Mahalliy sharoitga mos keluvchi ta'lim modellarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularni mahalliy sharoitda qo'llash va maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ilmiy va empirik usullar uyg'unligi natijasida tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida maktabgacha ta'limga metodik yondashuvlar turlicha bo'lib, quyidagilar eng samarali usullar sifatida tan olingan: Montessori metodikasi – mustaqil ta'lim va bolalarning qiziqishlariga asoslangan yondashuv (Italiya) [3]. Reggio Emilia yondashuvi – ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish (Italiya) [4]. Forest School – tabiat orqali o'rganish (Buyuk Britaniya) [5]. HighScope metodikasi – faollikka yo'naltirilgan dastur (AQSh) [6].

Bu yondashuvlarning har biri bolalarning ijodkorligini rivojlantirish, mustaqil o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Fitrat publitsistika sohasida davr uchun dolzarb hisoblangan juda ko‘p mavzularda qalam tebratadi. O‘zbek tili milliy grammatikasining asoschilaridan biri sifatida chig‘atoy (o‘zbek) tilining adabiyligi, uning buguni, ertasi uchun qayg‘uradi. Olimning “Tilimiz” – I maqolasi 1919-yili yozilgan bo‘lib, uning keyinroq tilshunoslik sohasida yaratilgan tadqiqot va qo‘llanmalari uchun o‘ziga xos debocha vazifasini o‘taydi. “Tilimiz” – I maqolasi dastlab “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 12-iyul 132-sonida e’lon qilingan bo‘lib, u bosilgandan keyin tahririyatga qator xatlar, savollar yog‘ilgan. Ayrim “tilshunos”lar maqolani noto‘g‘ri talqin qila boshlaganlar. Shu vaqtda ayni sarlavha bilan “Ishtirokiyun”ning 1919-yil 23-avgust 144-sonida “Tilimiz” – II maqolasi e’lon qilingan [3, 323-325]. Fitratning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1997-yil 24-yanvar sonida “Tilimizning adabiyligi… o‘zidadir” sarlavhasi bilan nashr etilgan tilshunoslikka oid yana bir maqolasi 1921-yilgi Til va imlo qurultoyida so‘zlangan nutqidir [3, 325].

Jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida yuzaga kelgan milliy matbuot jamiyatdagi illatlarni, xususan, fan va ta’lim, til va adabiyot, madaniyat va san’at sohasidagi kamchiliklarni ochiqdan ochiq bayon etgani bilan ham qadrlidir. Yuqoridagi maqolalarda Fitrat o‘zbek (chig‘atoy) tilidagi bir qator muammolarni: uning arab va fors-tojik tillari ta’siri ostida “ezilgani”, til qoidalarini

“totorcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, uning o‘zidan olmoq kerakligi”, shuningdek, “imloni ham tuzatmoq” masalalari bo‘yicha bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lgan dolzarb fikrlarini o‘rtaga tashlaydi.

“Tilimiz” – I maqolasida dastlab “dunyoning eng boy va eng baxtsiz tili” bo‘lgan turkchaning boyligi haqida so‘z ochadi. Bir tilning boyligi u tildagi so‘zning ko‘pligi, so‘z yasash imkoniyatining kengligi, til grammatik qoidalarining mukammalligi bilan bo‘lishini, turkchada bularning hammasi mavjud ekanligini necha yuz yil burun yashagan A.Navoiy o‘zining “Muhakamat ul-lug‘atayn” asarida ham bayon etganligini ta’kidlab o‘tadi. Fitrat birgina “bil” fe’lining bir tomiridan 98 so‘z undirilishini *(bil, bilar, bilajak, bilg‘usi, bilg‘ay, bilsa, bilay, bildi, bilibdir, bilgan, bila boshladi, bilayozdi, bila oldi, bila turdi, bila berdi, bilib, bilg‘ach, bilg‘ali, bilmak, bilish, biluv, bilmov, bilim, bilgi, bilgili, bilguchi, bilmakchi, bilgur, bilmagay, bilmagan, bilmay, bilimsiz, bilmas…)* isbotlab beradi [3, 332]. Tilimizning tugalligi, mukammalligini esa “arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan qay birining sarf (morfologiya) kitoblarini olib qarasoq ko‘ramizkim, bir so‘zni yasamoq uchun bir qancha yozilg‘an, undan so‘ng shul qoidadan tashqari qolg‘an (mustasno) so‘zlar deb to‘rt-besh so‘z ko‘rsatilgan. Turk so‘zlarinda esa bunday hol topilmaydir. Yusupsizlik degan hollar (istisnolilik hollari) turkcha sarfda sira yo‘qdur”, deya izohlaydi.

Turkchaning shuncha boyligi va tugalligi bilan baxtsiz ekanligini necha asrlar davomida “arabcha va forsiycha tepkilari bilan ezilmish”, ya’ni bu ikki til ta’siridan sira chiqa olmaganligida deb ko‘rsatadi. “O‘zlari turk bo‘lgan dunyoning eng buyuk kishilari (Ibn Sino, Forobiy, Javhariy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy) o‘z bitiklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi ehtimolki, boshqa turli bo‘lur edi”, – deydi afsus bilan. Arab, fors tillarini boy hisoblab, bu tillardagi so‘zlarning turkchasi topilmaydir degan kimsalarga Fitrat quyidagicha javob beradi: “Shu choqda tilingizdag‘i arab, fors so‘zlarining turkchasi topilmaydir, demakchi bo‘lsangiz so‘zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O‘rganing. Hozirgi so‘zlarimizdag‘i arabcha, forsi(y)chalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to‘g‘ridir”.

“Tilimiz” – II maqolasida olim til sofligi, yot so‘zlardan qutulish, ilmiy istilohlarni turkchalashtirish masalasi, shuningdek, so‘z o‘zlashtirishning o‘ziga xos qonun-qoidalari haqidagi fikrlarini keng omma e’tiboriga havola etadi. Bu maqola o‘zbek (chig‘atoy) tilini kamsitib, “turkchaga kirib qolg‘an arabcha, forsi(y)chaning turkchalari yo‘qdur; ilmiy istilohlarning turkchalari yo‘qdur; ilmiy istilohlarni turkchalashdirmak uchun tirishmak vaqtimizni bo‘shg‘a o‘tkargan bo‘larmiz; chig‘atoy tilida bilim o‘qumoqchi esak, iki yuz yil kutib turayliq; arabcha ilmiy-adabiy bir tildir: arabcha ilmiy istilohlarni o‘zgartmak to‘g‘ri emas, biz bilim bitiklarimiz (ilmiy kitoblarimiz)dan ilmiy so‘zlarni chiqarib, arobachilar so‘zini kirgiza olmaymiz”, – degan kimsalarga hech mubolag‘asiz bir tarsaki sifatida yozilgan.

Til sofligi haqidagi qarashlarida gaplarga yozuvlar orqali kirib qolgan yot so‘zlarni qo‘ldan kelgancha qayta ishlashni, “bilim so‘zlari”, ya’ni ilmiy istilohlarni ham turkchalarini topib olish yo‘lida tirishish har bir turk yozuvchisi uchun “vojib” ekanligini qayd etadi. Darhaqiqat, Fitrat mazkur fikrlarining amaliy isboti sifatida o‘zbek tilining ilk fonetikasi, grammatikasiga bag‘ishlab yozilgan “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba” (1924-yil) asarida juda ko‘plab tilshunoslikka oid ilmiy istilohlarning *(unli, unsiz tovishlar, ot, tub, yasama, qo‘shma ot, birlik-ko‘plik, son, olishma//olmosh, ko‘rsatkich olmoshlari, so‘rash olishmalari, bo‘lishli, bo‘lishsiz fe’llar, kelajak, hozirg‘i, o‘tkan fe’llar, ko‘makchi so‘zlar, kesim, ega, to‘ldirg‘ich, aniqlov, gapning uyushg‘an bo‘laklari kabi)* turkchasidan foydalanishga, ularni ilmiy muomalaga olib kirishga harakat qildi.

So‘z o‘zlashtirish borasida turkchasi topilmagan so‘zlar o‘rnini bo‘sh qo‘yish kerak emasligini ta’kidlaydi: “Mayli ular tilda qolsin, biroq turkchaning buyrug‘i ostinda kirib qolsin; boshqacha turli aytkanda, Fransada yashag‘an bir turk kabi bo‘lundig‘i turkchaning qonunlariga bo‘ysunib yashasun; turkchada turg‘an bir fransuzdek “kapitulatsion” asrori ostida turmasin”. Tilshunos olimning ushbu so‘zlari, albatta, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, balki barcha ilmiy sohalarda dasturul amal sifatida foydalanish zaruriryatini keltirib chiqaradi. Hozirda ham juda ko‘plab ilmiy sohalarda yot tillardan kirib kelgan ilmiy terminlardan pala-partish foydalanish, sof o‘zbekcha istilohlarni tan olmaslik, shuningdek, ayrim sohalarda boshqa tillardan kirgan terminlarni o‘zbekchalashtirishning mutlaqo imkoni yo‘qligi “bahona” sifatida keltirilib, tadqiqot ishlarining rus tilida

yozilayotganligi kunimizga ham “bir guruh yangi jadidlar”ga ehtiyojimiz borligini ko‘rsatadigan achinarli holatdir.

Fitrat ta’kidlaganidek, o‘zlashma so‘zlarning turkiy tillar tabiatiga hech bo‘ysundirmay, shakliy tamoyil bo‘yicha tilga qabul qilinishi bugungi kunimizda ham savodsizlikning yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili tabiati uchun ham u qadar xos bo‘lmagan arab, fors-tojik, rus tillaridan kirgan qator undoshli yoki so‘z tarkibida qo‘shaloq va qator kelgan unlili so‘zlarni ayni holida qabul qilish *(matn, fikr, aql, sabr, sinf, rasm, sport, konsert, teatr, muallim, tabiat kabi so‘zlar)* imlo masalasining og‘riqli nuqtalaridan biridir. Biroq bu so‘zlarni bugun qardosh tillar – turk, tatar, qirg‘iz, qoraqalpoq adabiy tiliga “turkchaning buyrug‘i ostinda” qabul qilinishi, masalan: *metin, fikir, akıl, sabır, sınıf, resim, spor, konser, tiyatro, mogallım, mug’allim, ta’biyat* tarzida – hali-hanuz imlo masalasida adabiy tilimiz jiddiy islohotlarga muhtoj ekanligidan dalolat beradi.

Fitratning navbatdagi “Tilimizning adabiyligi… o‘zidadir” maqolasi ham yuqoridagi publitsistik tadqiqotlarining mantiqiy davomidir. Maqolada chig‘atoy tili uchun eng ko‘p qayg‘urgan, turk shoirlarining forsiychada yozishlariga ochiqdan ochiq “yog‘iqqan”, “isyon etgan” inson Navoiy ekanligini, bu zamon chig‘atoy tilining “eng ko‘p yuksalgan”, “yuqori bosg‘an” zamoni bo‘lib qolganligini, undan so‘ng Xo‘qandlik Umarxon zamonida til va adabiyot yalt etib bir ko‘tarilgach, so‘ng o‘chib qolganligini, mana shu paytlarda (XX asr boshlarida) maktab uchun, gazet uchun yana til kerak bo‘lib qolganligi, unga yangidan qayg‘ura boshlaganliklarini qayd etadi. O‘zbek tilining bir fidoyisi, jonkuyari o‘laroq quyidagi tavsiya va fikrlarni o‘rtaga tashlaydi:

- tilimizning tugal, yuksak, san’atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyligi arabiylikda emas, o‘zidadir. Shuni tirgizmak kerak;

- adabiyotimizning yuksaltmak uchun burung‘u san’atkor shoirlarimizning o‘lmag‘an va o‘lmas narsalarindan foydalanmoq ham taraqqiy qilg‘an uluslar tomonidan orag‘a solingan umumiy asoslarg‘a erishmak kerakdir;

- tilimizning qoidalarini totorcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o‘zidan olmoq kerak. Shuning uchun xalq og‘zida yurgan so‘zlarni, xalq adabiyoti bo‘lg‘an ertaklar, maqollar, laparlarni yig‘ib tekshirmak lozim;

- adabiyot yozuchiliq bo‘lg‘ani uchun yozu(v) qoidalarini, imloni ham tuzatmoq kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida juda ko‘plab sohalarda, jumladan, publitsistika sohasida ham munosib qalam tebratdi. Jamiyatdagi eng og‘riqli nuqtalarni ochiq bayon eta oldi: til va adabiyot fidoyisi sifatida keng ko‘lamda tadqiqotlar yaratdi hamda uni xalqqa to‘la-to‘kis yetkazib berishga harakat qildi. Abdurauf Fitrat butun umri davomida o‘zbek tilining sofligi uchun kurashdi va uni boshqa tillar tazyiqidan asrash bo‘yicha jon kuydirdi. Fitratning bu sohadagi qarashlari hali-hanuz o‘z dolzarbligini va yangiligini yo‘qotgan emas. Shu bois uning tilshunoslikka oid qarashlarini chuqur o‘rganish va rivojlantirish mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatı.

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
2. Ғаниев И. Фитрат ва фитратшунослик. – Тошкент: Фан, 2005.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006.
4. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. КДА, Т. 1994.
5. Қурбонова М. Фитрат – тилшунос. – Тошкент, 1996.
6. Қурбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 1997.
7. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Тошкент, 1992.
8. Шарафиддинов О. Абдурауф Фитрат // Ёшлик, 1996, 5-сон.
9. Қосимов Б. Фитрат // Шарқ юлдузи, 1992, 10-сон.
10. Ғаниев И. Фитрат ва фитратшунослик. – Тошкент: Фан, 2005.

UDK: 811.512.133.

Mamadaliyev Sirojiddin Inomjon o‘g‘li
Farg‘ona shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi
E-mail: sirojiddinmamadaliyev1313@gmail.com,
ORCID ID 0009-0009-1126-4574
Jo‘raboyeva Gulrux Solijonovna
Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: gjuraboyeva2021@gmail.com
ORCID ID 0009-0009-1126-4574

JADIDLARNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARIDA SINGARMONIZM MASALASI

Annotatsiya. *Maqolada tilimizning tarixiy davriga murojaat etilgan holda uning o‘ziga xos hodisalaridan biri bo‘lgan singarmonizm haqidagi jadidlarning qarashlari va bahsli fikr-mulohazalari tadqiqqa tortilgan. Biz o‘rganishni maqsad qilgan singarmonizm hodisasining hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanib qolgan ko‘rinishlari tarixiylikka daxldorligi bilan ajralib turadi. Bu hodisa asosan unli tovushlar tizimiga aloqador bo‘lib, unli tovushlarning til orqa va til oldi, boshqacha aytganda esa, qattiqlik yoki yumshoqlik bo‘yicha farqlanishi, ya’ni fonologik oppozitsiyasi turkiy tillar fonetikasi hamda fonologiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanib qolgan singarmonizm qoldiqlari va ularning uyg‘unligi qonuniyatining o‘zbek tili uchun bugungi kundagi amaliy ahamiyati borasida so‘z yuritiladi. Maqola natijasidan olingan xulosalar bugungi kunda soha oldida dolzarb bo‘lib turgan bir qancha muammolarni bartaraf etishda, xususan, singarmonizm hodisasining o‘zbek tili tarixidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zbek tilining uyg‘unlashuv hodisasini ko‘rsatuvchi tildan, singarmonizmsiz tilga aylanib qolgani kabi masalalarga oydinlik kiritishda, o‘sha davr nuqtayi nazaridan baholashda, singarmonizmlarning ilk shakli va qadimiy variantlari, ular bilan bog‘liq fonetik jarayonlarni hozirgi davr manbalari bilan o‘zaro qiyoslash hamda shu orqali ilmiy xulosalar chiqarishda ahamiyatli hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *singarmonizm, jadidlar, lab ohangdoshligi, tanglay uyg‘unligi, yumshoq unli, qattiq unli, unlilar uyg‘unlashuvi, old qator unlilar, orqa qator unlilar.*

ПРОБЛЕМА СИНГАРМОНИЗМА ВО ВЗГЛЯДАХ ДЖАДИДОВ НА ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Аннотация. *Обращаясь к историческому периоду нашего языка, в статье рассматриваются взгляды и противоречивые мнения современников о сингармонизме, который является одним из его уникальных явлений. Явления сингармонизма, изучение которых мы ставим перед собой, сохранившиеся в современном узбекском литературном языке, отличаются своей исторической актуальностью. Это явление связано в основном с системой гласных, а дифференциация гласных на задние и передние, иными словами, по твердости или мягкости, т. е. фонологическая оппозиция, служит основой фонетики и фонологии тюркских языков. Также обсуждаются остатки сингармонизма, сохранившиеся в современном узбекском литературном языке, и практическое значение их гармонии для узбекского языка. Выводы, сделанные из статьи, помогают решить ряд проблем, актуальных в данной области сегодня, в частности, место и значение явления сингармонизма в истории узбекского языка, превращения узбекского языка из языка что показывает явление гармонизации в языке без сингармонизма. Важно прояснить такие же вопросы, как и остальные, оценить их с точки зрения того времени, сравнить первую форму и древние варианты сингармонизмов, связанные с ними фонетические процессы. С источниками современности и тем самым сделать научные выводы.*

Ключевые слова: *сингармонизм, джадиды, губная гармония, небная гармония, мягкая гласная, твердая гласная, гармония гласных, гласные первого ряда, гласные заднего ряда.*

THE PROBLEM OF SYNHARMONISM IN THE VIEWS OF THE JADIDS ON LINGUISTICS

Abstract. *Referring to the historical period of our language, the article examines the views and controversial opinions of the moderns about synharmonism, which is one of its unique phenomena. The phenomena of synharmonism, which we aim to study, preserved in the current Uzbek literary language, are distinguished by their historical relevance. This phenomenon is mainly related to the vowel system, and the differentiation of vowels into back and front, in other words, hardness or softness, i.e. phonological opposition, serves as the basis for the phonetics and phonology of Turkic languages. Also, the remnants of synharmonism preserved in the current Uzbek literary language and the practical significance of their harmony for the Uzbek language are discussed. The conclusions drawn from the article help to solve a number of problems that are urgent in the field today, in particular, the place and importance of the phenomenon of synharmonism in the history of the Uzbek language, the transformation of the Uzbek language from a language that shows the phenomenon of harmonization into a language without synharmonism. It is important to clarify issues like the rest, to evaluate them from the point of view of that time, to compare the first form and ancient variants of synharmonisms, phonetic processes related to them with the sources of the present time, and thereby draw scientific conclusions.*

Key words: *synharmonism, jadids, lip harmony, palatal harmony, soft vowel, hard vowel, vowel harmony, front row vowels, back row vowels.*

Kirish. Bugungi kunda olib borilayotdan til tarixiga bag‘ishlangan turli tadqiqotlar, shuningdek, ayrim darslik va qo‘llanmalarda turkiy tillarga mansub bo‘lgan o‘zbek tilida ham XX asr boshlariga qadar singarmonizm hodisasi mavjud bo‘lganligi ta’kidlab o‘tilgan. Jadid ma’rifatparvarlarining adabiyotshunoslikka qo‘shgan hissalari keng o‘rganilgan holda, ularning tilshunoslikka oid qarashlari ham M.Qurbonova, B.To‘ychiboyev, M.Yo‘ldosheva, Y.Saidov, Sh.Bobomurodova, T.Tog‘ayev, Q.Qodirov, Z.Abdurashidov, S.Normamatov, N.Yangibayevalarning ilmiy munozaralarida tadqiqqa tortilgan. Ushbu olimlar jadidchilarning tilshunoslikdagi fikr-mulohazalari va qarashlarini tadqiq etgan holda ular haqidagi fundamental bilimlarni yaratdilar va tilshunoslikka tatbiq etdilar. Ularning ishlari jadidlarning ilmiy qarashlari borasida asosiy manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

“Singarmonizm (yun. syn – birga va harmonia – ohangdoshlik, uyg‘unlik), unlilar garmoniyasi (ohangdoshligi) – asosan, turkiy tillarda, qisman mo‘g‘ul, tungus-manjur, fin-ugor, paleoosiyo tillarida uchraydigan fonetik hodisa; bunda muayyan so‘z shaklining (ham asos, ham affikslarning) barcha unlilari talaffuz (artikulatsiya) jihatdan bir turli: old yo orqa qatorga mansub (tanglay garmoniyasi) yoki lablangan yo lablanmagan (lab garmoniyasi) bo‘ladi... Umuman, hozirgi o‘zbek adabiy tili singarmonizm qoidalariga bo‘ysunmaydi. Eski o‘zbek adabiy tilida esa singarmonizm qonuni ancha izchil va ayrim hollarda to‘lig‘icha amal qilgan”[1,628]. Ushbu hodisaning tilimizda mavjudligi ayrim olimlar tomonidan inkor etilsa, ayrimlari tomonidan chuqur o‘rganilishi taklif etilgan hodisadir. Til va imlo masalasi XX asrning 20-yillarida chuqur tadqiqqa tortildi, turli bahs va munozaralarga sabab bo‘ldi. Xususan, jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitrat o‘zining “Sarf” kitobida: “…*Til, imlo fikrlarining tegrasiga yig‘ilishg‘anlar, mana shunday qilib, birinchi galdagi ishlarni bitirdilar. Butun turk tillarini birlashtirmak xayoli xayolg‘ina bo‘lib qoldi. Eski imloning izlari ko‘kka uchirildi. Biroq yuqorida aytkanim kabi bu ishlar birinchi galdagi ishlardir. Hali ko‘rilajak bir ko‘b ishlarimiz bordir va u bizni kutib turadir. Eski imloni yengdik, ko‘b yaxshi. Yangi imlomizning-da vaqtlig‘ina bir narsa ekanini bilayik. Bukun har tomonda lotinchiliq oqimi kuchlanib boradir. Yaqin, juda yaqin bir zamonda arab harflarini (eski, yangi imlolari bilan birga) tomiridan uzib tashlasa kerak. Bu ko‘zga ko‘rinib turadir, aniqdir, lotin harflarini qabul etmak, qabul ettirmak uchun bukundan boshlab tayyorliq ko‘rishimiz lozim. Tilimizdagi tovushlarning sonlarini, cho‘zg‘i o‘rinlarini ilmiy suvratda yaxshig‘ina bilib aniqlab qo‘yayiq. Tilimizning iste’dodli, boy bir tili bo‘lg‘anini qichqirib so‘yladiq; “bu til daqqidir (qo‘poldir), buning o‘rnig‘a turkchaning adabiy bir shevasini olayiq” degan til bilmaslar bilan kurashdik — unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgi qoidalarini*

maydong‘a qo‘ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga “birlik”, yangi yozg‘uchilarimizg‘a qulayliq bermak uchun tilimizning qat’iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o‘zimizning-da bilishimiz lozimdir. Ilmiy axtarishlar bo‘lmag‘uncha bunlarning birtasi ham bo‘lajaq emasdir. Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsi(y) adabiyotining hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzilg‘andir” [2, 141], deya til qoidalari va masalalariga o‘sha davr tilshunoslarining e’tiborini tortadi. O‘z davrining yetuk tadqiqotchilaridan biri Ashurali Zohiriy *“Til, atama va imlo bahslari”, “Singarmonizm to‘g‘risida”, “Lab ohangi to‘g‘risida”* kabi maqolalarida qo‘yilgan jiddiy masalalar atrofida turkiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tilida singarmonizm hodisasi mavjudligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar uchraydi. Ammo til doimo o‘sib, rivojlanib boradi. Davr muhitining ta’siri turkiy tillarga sezila borgan sari tilimizdan uyg‘unlashuv hodisasi chekina bordi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

So‘nggi yillarga kelib tarixiy tilshunoslikka e’tibor berila boshlandi. Uning mohiyatini ochish va qadimiy yodnomalar tilida saqlanib qolgan son-sanoqsiz leksik birliklarni o‘rganish maqsadida bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Xususan, jadidlarning qarashlarida til masalasi tadqiq etilishi kerak bo‘lgan dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Garchi bu sohada 10 ga yaqin ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, hali sohada qilinishi kerak bo‘lgan va o‘z tadqiqini kutayotgan bir qancha ishlar mavjud. *“O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli”, “O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni”, “Fitratning tilshunoslik merosi”* [3, 9] kabi tadqiqotlari o‘zbek tili rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bu kabi o‘rganilgan ishlar jadidchilik qarashlarida til masalasini o‘rganishda poydevor bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ammo sanab o‘tilgan tadqiqotlar sohadagi barcha muammo va masalalarning yechimini topib bera olmaydi. Yuqoridagi ishlarda asosan tavsifiy va statistik metodlardan foydalanilgan. Jadidlar qoldirgan tarixiy yodgorliklardagi fikrlarni tarixiylik tamoyiliga asoslangan tarixiy metod, qiyosiy-chog‘ishtirma metod, shuningdek, badiiy va publitsistik matnlarda qo‘llangan onomastik birliklarning uslubiy talqinini berish, ularning matndagi funksional xususiyatini aniqlashda qo‘llanuvchi stilistik metod, bundan tashqari, etimologik metod asosida o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Natijalar va muhokama

Biz o‘rganishni maqsad qilgan singarmonizm hodisasining hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanib qolgan ko‘rinishlari tarixiylikka daxldorligi bilan ajralib turadi. Bu hodisa asosan unli tovushlar tizimiga aloqador bo‘lib, unli tovushlarning til orqa va til oldi, boshqacha aytganda esa, qattiqlik yoki yumshoqlik bo‘yicha farqlanishi, ya’ni fonologik oppozitsiyasi turkiy tillar fonetikasi hamda fonologiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda, birinchidan, qattiqlik yoki yumshoqlik bilan farqlanuvchi unlilar ma’no farqlash vazifasini yuzaga chiqarsa, ikkinchidan, turkiy tillardagi unlilar uyg‘unligi xususiyatini namoyon qilib turadi. Bunda til oldi (yumshoq) sifatida ***i, ä, ë, ü*** unlilari qaralsa, ***o, ы, u, a*** unlilari til orqa, ya’ni qattiq unlilar sirasiga kiradi.

Uyg‘unlashuv hodisasi, asosan, ikki xil bo‘ladi: 1) tanglay uyg‘unligi; 2) lab uyg‘unligi. Tanglay uyg‘unligida o‘zakdagi unli til oldi (qattiq) yoki til oldi (yumshoq) bo‘lishiga qarab qo‘shimchadagi unlini o‘ziga uyg‘unlashtiradi. Masalan, *sin+iq* so‘zidagi birinchi unli qattiq bo‘lib, keyingi qo‘shimcha tarkibidagi unli ham qattiqlik kasb etadi. *Til+im* so‘zida esa birinchi bo‘g‘in unlisi yumshoqlikni aks ettirganligi uchun qo‘shimchadagi unli ham yumshoq hisoblanadi. Ana shu hodisaga tanglay uyg‘unligi sifatida qaraladi.

Lab uyg‘unligi esa o‘zakdagi unli lablangan bo‘lsa, qo‘shimchadagi unlining ham lablangan bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, *qo‘rq+uv* so‘zidagi birinchi unlining lablangan bo‘lishi, qo‘shimcha tarkibida kelayotgan *“vocal”* tovushning lablangan bo‘lishini talab qiladi. Ohangdoshlikning bu kabi turlarga ajratilishidagi asosiy omil esa unlilarning tasnifiga bog‘liqdir. Bunday singarmonistik hodisa bugungi kunda turk tilida yaxshi saqlanib qolgan. Davrning talabi, jamiyatning o‘zgarishi tilning imkoniyatlari va qulayliklariga ham ta’sir qilmay qolmaydi. 1928-yil arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tilishi tilimizning ayrim o‘ziga xosliklariga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Ayrim tovushlarning tasnifi yuzasidan jadidlar orasida bahs-u munozaralar kuchaydi. Ana shunday munozaralardan biri tilimiz-

dagi singarmonizm hodisasi edi. Ayrimlar yangi alifbo singarmonizmga to‘liq amal qilsin desa, ayrimlar tomonidan bu rad etildi. Yana bir guruh olimlar adabiy til singarmonizmga amal qilib, ayrim so‘zlar singarmonizmga amal qilmasin degan fikrlarni ilgari surdilar. Tilimiz rivoji va taraqqiyoti uchun kurashgan jadid ma’rifatparvarlaridan biri Ashurali Zohiriy esa hech ikkilanmay: *“Singarmunizm turk-totor tilining tabiiy tiligidur. Lekin zomonning o‘tishi, jo‘g‘rofi(y) ahvollarning o‘zgarishi, bir qavmning boshqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta’siri orqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo‘qola borg‘on (ozorbayjon, anqara turklarida). Bu xususiyatni saqlab qolg‘onlar: qozoq, qirg‘iz, nug‘oy, boshqirt, totor, turkman va o‘zbaklardur”*[4, 73]. O‘z fikrlarini davom ettirgan holda singarmonizm hodisasi o‘zbek tili uchun xos ekanligini qat’iy ta’kidlaydi: *“Bizda sigarmo‘nizm yuz foiz bo‘lg‘usidir. Tilimizga aralashg‘on ajnabiy so‘zlarni ham o‘z qoidamiz (singarmunizm)g‘a buyin sundiramiz. Bundan bo‘yin tovlaydurg‘onlari o‘rnig‘a o‘z tilimizdan so‘zlar topishg‘a harakat qilamiz. g‘ijjak, g‘altak, g‘ildirak, pildiroq, yo‘lak (bu so‘zlarning «yo‘lak»dan boshqasi o‘zbekcha bilan forsiycha o‘rtasida o‘rtoq so‘zlar bo‘lib, «yo‘lak» va ularning ham oxirlaridag‘i «ak», «oq» qo‘shimchalari tom forsiychadur. Bularni singarmu-nizmga tobe qilsaq, «g‘ijjaq, g‘altaq, pildirak, g‘ildiroq, yo‘loq» bo‘lib xalq ongla-maydurg‘on nusxag‘a kirib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mus-tasno qilamiz. Bundoq mustasno bo‘lg‘uchilar tilimizda ko‘pchilikni tashkil etmay-dirlar) singari o‘zlashgan forsiy so‘zlari (yoki forsiycha qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlar)ni o‘zgartmasdan singarmunizm qoidasidan mustasno qilamiz. Singarmunizm masalasini biz shu ravishda hal qilamiz”*[5, 73], – deya keng jamoatchilikka targ‘ib etadi. Bu masala bugungi kun tilshunosligida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Unlilar uyg‘unligi hozirgi o‘zbek tilida qat’iy qonuniyat sifatida saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, undan ko‘plab fonetik unsurlar saqlanib qolgan. Ushbu unsurlarning o‘zi ayrim o‘rinlarda eski singarmonizm qoidalariga murojaat etishni taqozo qiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lotin alifbosidagi 6 ta unlilar tizimi o‘zbek tilining ehtiyojlariga to‘la javob bermasligini quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin. ***O‘roq*** va ***o‘rdak*** so‘zlaridagi birinchi tovushlar turlicha talaffuz qilinsa-da, ular uchun bir shartli belgi berilgan. Bu kabi talaffuz ekvivalent ham emas. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tili 9 unlili tizimga asoslanishini isbot eta oladi. Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosini o‘rgangan T.Tog‘ayev ham o‘z ilmiy dissertatsiya ishida “*A.Zohiriy o‘zbek tilida unlilar haqida to‘xtalar ekan, ularning sonini 9 ta deb belgilaydi. Bunda olim sof o‘zbek tilida singarmonizm borligiga asoslangan”*[5, 86], – deya ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, unlilar fonidagi ayrim kamchiliklar o‘zbek fonetikasi va fonologiyasining qayta ko‘rib chiqishi, bu borada yangi ilmiy izlanishlar olib borilishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. Toshkent, 2004. 628-bet. (National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 7. Tashkent, 2004. 628 pages.)
2. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2009. 141-bet. (Fitrat, Abdurauf. Selected works. - Tashkent, 2009. Page 141)
3. “Ma’rifat”, 2023-yil 1-mart, 9-son.(“Enlightenment”, March 1, 2023, issue 9.)
4. “Qizil O‘zbekiston”, 1929-yil 31-mart, 73-son.(“Red Uzbekistan”, March 31, 1929, No. 73.)
5. “Qizil O‘zbekiston”, 1929-yil 31-mart, 73-son.(That source. March 31, 1929, No. 73.)
6. Tog‘ayev, T. 2006. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol. Fanlari nomzodi. Diss. Toshkent.(Togayev, T. 2006. Ashurali Zahiri and his linguistic heritage. Philol. Candidate of Sciences. Diss. Tashkent.)

Rashidov Otabek Ziyadulayevich
Termez State University,
Teacher of the Interfaculty Department of Foreign Languages
E-mail: otabek.rashidov@inbox.ru

STYLISTIC ADAPTATION OF MILITARY TERMS IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN (IN ARTISTIC, COLLOQUIAL AND OFFICIAL STYLES)

Annotation. *This article explores the stylistic adaptation of military terms in English, Uzbek, and Russian across three key styles: artistic, colloquial, and official. It analyzes how the same military concepts are expressed differently depending on the communicative context and cultural norms of each language. The study highlights the formal precision of military terminology in official documents, the expressive and metaphorical usage in literary texts, and the simplified, often slang-influenced forms in everyday speech. By comparing cross-linguistic and stylistic variations, the paper reveals how language structure, sociocultural factors, and functional needs shape terminology use. The findings contribute to better understanding of military discourse in multilingual settings and are relevant for translators, linguists, military professionals, and cross-cultural communication experts.*

Key words: *Military terminology, stylistic adaptation, official style, colloquial speech, artistic style, cross-linguistic comparison, translation, sociolinguistics, register variation, language of war.*

INGLIZ, OZBEK VA RUS TILLARI HARBIY TERMINLARINING USLUBIY XOSLANISHI (BADIIY, SOZLASHUV VA RASMIY USLUBLARDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi harbiy atamalarning uchta asosiy uslub: badiiy, so‘zlashuv va rasmiy uslublar bo‘yicha uslubiy moslashuvi o‘rganiladi. Unda bir xil harbiy tushunchalar har bir tilning kommunikativ konteksti va madaniy me’yorlariga qarab turlicha ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy hujjatlardagi harbiy atamalarning rasmiy aniqligi, adabiy matnlardagi ekspressiv va metaforik qo‘llanishlar, kundalik nutqdagi soddalashtirilgan, ko‘pincha jaranglar ta’sirida bo‘lgan shakllar ta’kidlangan. Maqolada tillararo va stilistik o'zgarishlarni taqqoslash orqali til tuzilishi, ijtimoiy-madaniy omillar va funktsional ehtiyojlar terminologiyadan qanday foydalanishini aniqlaydi. Topilmalar ko'p tilli muhitda harbiy nutqni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va tarjimonlar, tilshunoslar, harbiy mutaxassislar va madaniyatlararo muloqot bo'yicha mutaxassislar uchun dolzarbdir.*

Kalit so'zlar: *Harbiy terminologiya, stilistik moslashuv, rasmiy uslub, so'zlashuv nutqi, badiiy uslub, tillararo taqqoslash, tarjima, sotsiolingvistika, registr o'zgarishi, urush tili.*

СТИЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЕННЫХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ, УЗБЕКИСТАНСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ (В ХУДОЖЕСТВЕННОМ, ОРГАНИЗАЦИОННОМ И ОФИЦИАЛЬНОМ СТИЛЯХ)

Аннотация. *В статье изучается стилистическая адаптация военных терминов в английском, узбекском и русском языках в трех основных стилях: художественном, разговорном и официальном. В нем анализируется, как одни и те же военные концепции выражаются по-разному в зависимости от коммуникативного контекста и культурных норм каждого языка. В исследовании подчеркивается формальная точность военных терминов в официальных документах, экспрессивное и метафорическое использование в литературных текстах, а также упрощенные, часто подверженные влиянию сленга формы в повседневной речи. В статье рассматривается, как структура языка, социокультурные факторы и функциональные потребности формируют использование терминологии, путем сравнения кросс-лингвистических и стилистических изменений. Результаты исследования способствуют лучшему пониманию военного дискурса в многоязычной среде и актуальны для переводчиков, лингвистов, военных специалистов и экспертов по межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *Военная терминология, стилистическая адаптация, официальный стиль, разговорная речь, художественный стиль, межъязыковое сравнение, перевод, социолингвистика, изменение регистра, язык войны.*

Introduction. Military terminology plays a critical role in communication across defense, diplomatic, and civilian spheres. However, the usage of these terms is not static; it shifts significantly across different communicative styles. This article examines how military terms are stylistically adapted in English, Uzbek, and Russian, particularly in artistic, colloquial, and official registers. The study aims to uncover how linguistic structure, sociocultural context, and the function of discourse influence the selection and presentation of military lexicon. Military terminology plays a critical role in facilitating precise and efficient communication across various domains such as defense operations, diplomatic interactions, historical narratives, and public media. These terms serve as linguistic tools that encapsulate complex strategies, ranks, weaponry, operations, and doctrines in compact expressions. In multilingual and multicultural contexts, especially in global cooperation and international defense strategies, the need for accurate understanding and usage of military lexicon becomes paramount.

However, military terms are not used in the same way across all types of communication. Their form, meaning, and connotation can vary greatly depending on the stylistic register in which they are used. This includes official**,** colloquial**,** and artistic styles. The purpose of this study is to analyze how military terms are stylistically adapted across three different languages — English, Uzbek, and Russian — and how their usage reflects the communicative goals, cultural traditions, and structural features of each language. Each language brings its own structural and cultural influence to how military terms are used and understood. In English, many terms have Latin or French origins, reflecting a long history of borrowing and global military engagement. The American influence on global military vocabulary is particularly strong, with English often acting as a source language for neologisms.

In Uzbek, the military lexicon is shaped by historical interactions with Russian (during the Soviet era), as well as more recent reforms and exposure to English due to international cooperation and modernization. Thus, Uzbek military terminology contains native Turkic roots, Russian borrowings, and modern English loanwords. Russian, with its own long-standing military tradition, has developed a highly nuanced system of military terminology, particularly during the Soviet era, when military communication became ideologically loaded and deeply embedded in state policy. Terms such as *Красная армия* (Red Army) carry strong historical and emotional associations. These cross-linguistic differences reveal how military terms are not just linguistic units but also carriers of cultural memory, national identity, and political ideology. The variation of military terms across styles and languages has significant implications for translation and cross-cultural communication. Translators must not only understand the literal meaning of a term but also the style**,** tone**,** and context in which it appears. For instance, a term that is formal in English might need to be translated into a less formal equivalent in Uzbek if the target audience is a general readership.

Educators and military trainers working in multilingual environments must also be aware of stylistic nuances. Teaching materials should include not only official terms but also explanations of colloquial and literary expressions, especially in language-for-specific-purposes courses. Additionally, researchers in **sociolinguistics**, **pragmatics**, and **intercultural communication** can benefit from studying how military discourse is shaped by stylistic variation. Understanding these factors improves not only academic knowledge but also real-world communication in peacekeeping, diplomacy, and conflict resolution.

In the official style, military terminology is characterized by precision, standardization, and formality. Terms such as *air strike* (EN), *havo hujumi* (UZ), and *авиаудар* (RU) are used in official military reports, government documents, and news briefings. These terms follow specific syntactic rules and maintain consistency for the sake of clarity and professionalism. This style ensures unambiguous communication, especially in international military cooperation and legal documents.

Method. Military Terms in Colloquial Speech. In everyday communication, military terms often become more informal and influenced by slang. Soldiers and civilians may use simplified or

metaphorical expressions like *boots on the ground* (EN), *yerni bosib olmoq* (UZ), or *на земле* (RU). Such usage reflects the speaker's personal experience and emotional connection to the concept. Slang expressions like *grunt* (EN) for a low-ranking soldier or *dedovshchina* (RU) for hazing practices also highlight culture-specific realities within the military domain. In everyday communication, military terminology often takes on a more informal, figurative, or emotionally expressive form, especially among soldiers, veterans, and civilians familiar with the military context. This shift from formal register to colloquial speech reflects the speaker's desire to personalize, simplify, or emotionally connect with military concepts that are otherwise technical or institutional in nature.

In colloquial English, for example, the phrase **"**boots on the ground**"** refers to soldiers deployed in a combat zone. While in official documents the term would likely appear as *ground troops* or *deployed units*, in spoken or media language, the idiomatic "boots on the ground" emphasizes the human presence and the physical reality of war. Similarly, in **Uzbek**, a comparable expression might be **"**yerga tushgan askarlar**"** or **"**yerni bosib olmoq**"**, which metaphorically signifies military occupation or presence in an area. In Russian, the expression **"**на земле**"** (na zemle) is often used in military slang and informal conversation to distinguish ground operations from aerial or naval engagements.

Such expressions demonstrate not only a linguistic economy—using vivid imagery to express complex realities—but also a deep socio-emotional dimension. The colloquial form often carries a sense of shared experience, fear, pride, or even sarcasm, depending on context. It reflects how language adapts to express individual perspectives and emotional states rather than institutional detachment.

Colloquial military speech is also rich in slang**,** much of which emerges organically from the unique experiences and cultural environments within military communities. For instance, in English, **"***grunt***"** is an informal and somewhat humorous or self-deprecating term used by or about low-ranking infantry soldiers, particularly in the U.S. military. It often reflects the rough conditions and physical demands of front-line service. Similarly, **"***FNG***"** (short for *F***ing New Guy*) is used informally by troops to refer to newly arrived personnel with little combat experience.

In Russian, the military subculture includes a variety of slang terms with deep cultural significance, many of which emerged during or after the Soviet period. A notorious example is **"**дедовщина**"** (*dedovshchina*), which refers to hazing, bullying, or hierarchical abuse within the ranks—particularly from older conscripts (the "grandfathers" or *dedy*) toward new recruits. While not an official term, it has become a powerful cultural and political concept, often associated with discussions about military reform and human rights.

In Uzbek military speech, slang tends to be less institutionalized but still reflects local cultural practices and linguistic creativity. Phrases like **"**harbiy bola**"** (military guy) or **"**samarqandcha xizmat qilish**"** (referring to specific customs of military service, sometimes jokingly) illustrate how local identity and humor permeate informal military communication. Uzbek soldiers, particularly those who have trained or served alongside Russian-speaking personnel, may also use Russian slang terms, indicating the influence of Soviet military tradition on post-Soviet discourse. Colloquial expressions also vary by generation, region, and branch of service, leading to a rich tapestry of jargon that is highly context-sensitive. What is common slang in one unit or language might be unknown or even offensive in another. This variation presents significant challenges for interpreters, translators, and cross-cultural communicators, who must not only be linguistically fluent but also attuned to the subtle connotations and social codes embedded in these terms.

Importantly, colloquial military speech serves more than a communicative function—it builds *camaraderie*, enforces *group identity*, and provides *psychological relief* in stressful situations. Humor, irony, and metaphor become coping mechanisms for dealing with the harsh realities of war and discipline. Terms like **"***the sandbox***"** (used by U.S. troops to refer to deployments in desert regions like Iraq or Afghanistan) or **"***green zone***"** (for secured areas) are informal, but immediately understood within the community. In media and popular culture, these colloquial terms often gain wider usage, entering the general vocabulary and shaping public perception of military life. Films, novels, and news coverage frequently adopt such expressions for their dramatic or emotional effect, further

blurring the line between professional military language and civilian understanding**.** The stylistic adaptation of military terms in colloquial speech illustrates the dynamic interplay between language, culture, and experience**.** Whether in English, Uzbek, or Russian, informal military expressions reflect not just simplified versions of formal terminology, but deeply ingrained **cultural values, emotions, and historical memories**. They also pose a rich area of study for sociolinguists and translation specialists who seek to understand how language functions in and beyond the battlefield.

Military Terms in Artistic Style. Literature and art often reinterpret military concepts through a symbolic or emotional lens. Writers and poets use military terms not just to describe actions but to evoke feelings such as heroism, tragedy, or patriotism. For instance, the English phrase *the theatre of war*, the Uzbek *jang maydoni*, and the Russian *поле битвы* may appear in novels, poems, and films to depict more than just a battlefield—they serve as metaphors for human struggle and sacrifice. Artistic style adds depth and emotional resonance to otherwise technical terms.

Cross-Linguistic and Cultural Influences. The stylistic adaptation of military terms is also influenced by each language's grammatical system and cultural norms. English, with its global military influence, has contributed significantly to modern military lexicon, including terms adopted in Uzbek and Russian. Uzbek often adapts military terms through Turkic or Russian-based roots, depending on context. Russian military terminology, rich in Soviet-era expressions, often carries ideological connotations. The cultural background of each language shapes not only the vocabulary but also the emotional and pragmatic impact of its use. Grammatically, English allows for concise compound formations (e.g., "stealth fighter," "forward operating base," "rules of engagement") that encapsulate complex tactical and strategic ideas in a few words. This structural efficiency supports the highly codified and pragmatic style of official military communication. However, in artistic and colloquial styles, these same terms may be adapted for emotional impact or creative expression, as seen in war literature, film, and journalism.

Uzbek military terminology demonstrates a dual-source adaptation pattern, reflecting both Turkic roots and Russian-Soviet influence. As a member of the Turkic language family, Uzbek is capable of forming military terms using native morphemes (e.g., jangchi – warrior, harbiy xizmat – military service), preserving traditional martial lexicon that predates modern state militaries.

However, due to the historical impact of the Soviet Union, many military terms in Uzbek are still based on Russian loanwords, especially in technical, organizational, or ideological contexts. Terms like komandir, shtab, and ofitser entered Uzbek via Russian and continue to be used, particularly in official and institutional discourse. Meanwhile, newer or localized equivalents may be preferred in colloquial or nationalistic narratives, especially post-independence.

Stylistically, Uzbek military language is influenced by cultural norms that value respect, hierarchy, and collective identity. This is reflected in expressions such as vatanni himoya qilish (defending the homeland), which carries a moral and patriotic tone, often used in artistic texts and speeches. Uzbek poetry and folklore have long glorified martial courage and sacrifice, contributing to the emotive power of military language in literary forms.

Russian military terminology is characterized by systematic precision, ideological embedding, and semantic depth, shaped by the legacy of the Soviet military-industrial complex and decades of global geopolitical competition. Terms like военная доктрина (military doctrine), спецоперация (special operation), and психологическая война (psychological warfare) are not only technical but also ideologically charged, often reflecting state narratives or propaganda.

The Russian language's inflectional morphology allows for nuanced distinctions in rank, function, and intensity, while maintaining grammatical consistency. For example, different forms of the root "войн" (war) appear in terms like воин (warrior), военный (military, adj.), and воевать (to wage war), allowing seamless adaptation across styles. In literature, this adaptability supports the expression of emotional or philosophical aspects of war, as seen in works by Tolstoy, Tsvetaeva, or modern war novelists.

Russian colloquial military speech also has a rich inventory of slang, often sarcastic or darkly humorous, reflecting the psychological toll of military life. Terms like дедовщина (hazing) or пехота (infantry, used dismissively) offer insight into the internal social dynamics of the military.

Implications for Translation and Communication. Understanding stylistic variation is essential for translators, interpreters, and linguists working with military texts. A term used formally in a defense treaty may require an entirely different rendering in a novel or a personal narrative. Inaccurate translation can lead to misinterpretation, especially in sensitive diplomatic or military contexts. This study encourages awareness of register, context, and target audience when adapting military discourse across languages and styles.

Conclusion. Military terminology is dynamic, adapting to the needs of style, audience, and cultural context. The comparison of English, Uzbek, and Russian reveals that while the core concepts remain, their expression is highly influenced by stylistic norms. Recognizing these differences enhances our understanding of military discourse and supports more accurate cross-cultural and multilingual communication.

Reference.

1. Kurganov, A. M.. (2022). Stylistic Features of Military Terms in English and Uzbek Languages. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 641–645. Retrieved from https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/153

2. Рябова Е.А. Проблемы и принципы систематизации терминологии: на материале сопоставительного анализа ракетно-космической лексики английского и русского языков. Дисс. ... канд. филол. наук. – М.:, 2010. – С. 83-99.

3. Самигуллина А.Д. Особенности становления лексико-семантического поля «Военное обмундирование» в английском и русском языках. Автореф. Дисс. ...канд. филол. наук. – М.:, 2009. – С. 11-18.

4. Otabek Ziyadulayevich Rashidov (2024). Etymological features of military terms in english, uzbek, and russian languages. Academic research in educational sciences, 5 (12), 91-94.

5. Rashidov, O. Z. (2025). The role of military terms in lexicography. Экономика и социум, (2-1 (129)), 468-470.

6. Ziyodullaevich, R. O. (2024). The development of terminology in uzbek linguistics. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(03), 78-81.

Raximova Shaxlo Sadivakosovna
Termiz davlat universiteti Roman-german tillari kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: rshaxlo@tersu.uz

O‘ZBEK-NEMIS PARALLEL KORPUSINING TUZILISHI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbek-Nemis parallel korpusining tuzilishi, uning lingvistik va texnik xususiyatlari hamda yaratishda yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Parallel korpus ikki yoki undan ortiq tillarda tarjima qilingan matnlarning tizimli to‘plami sifatida, tillararo lingvistik va semantik mosliklarni o‘rganishga imkon yaratadi. O‘zbek tilining agglutinativ morfologiyasi va erkin so‘z tartibi hamda nemis tilining qat’iy sintaktik qoidalari korpus tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda korpus uchun turli janr va mavzulardagi matnlar, xususan badiiy, rasmiy hujjatlar, o‘quv materiallari va axborot-resurslar tanlab olinib, ularning sifat va mosligi ekspertlar tomonidan baholangan. Morfologik va sintaktik annotatsiyalar qo‘llanilib, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida korpusdan samarali foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbek-Nemis til juftligi bo‘yicha keyingi tadqiqotlar va avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so`z: *O‘zbek-Nemis parallel korpus, lingvistik annotatsiya, morfologiya, sintaksis, tarjima korpusi, tilshunoslik, tarjimashunoslik*

STRUCTURE AND FEATURES OF THE UZBEK-GERMAN PARALLEL CORPUS

Annotation. *This article analyzes the structure of the Uzbek-German parallel corpus, its linguistic and technical features, and the main difficulties encountered in its creation. A parallel corpus, as a systematic collection of texts translated into two or more languages, allows for the study of interlinguas linguistic and semantic correspondences. The agglutinative morphology and free word order of the Uzbek language and the strict syntactic rules of the German language affect the structure of the corpus. In the study, texts of various genres and topics, in particular, literary, official documents, educational materials, and information resources, were selected for the corpus, and their quality and relevance were assessed by experts. Morphological and syntactic annotations were used to consider the possibilities of effective use of the corpus in the fields of linguistics and translation studies. The results of the study serve as the basis for further research on the Uzbek-German language pair and the development of automatic translation systems.*

Keywords: *Uzbek-German parallel corpus, linguistic annotation, morphology, syntax, translation corpus, linguistics, translation studies*

СТРУКТУРА И ХАРАКТЕРИСТИКА УЗБЕКСКО-НЕМЕЦКОГО ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА

Абстрактный. *В статье анализируется структура узбекское-немецкого параллельного корпуса, его лингвистические и технические характеристики, а также основные трудности, возникшие при его создании. Параллельный корпус, как систематическая подборка переведенных текстов на двух или более языках, позволяет изучать лингвистические и семантические сходства между языками. На структуру корпуса оказывают влияние агглютинативная морфология и свободный порядок слов узбекского языка, а также строгие синтаксические правила немецкого языка. В ходе исследования для корпуса были отобраны тексты различных жанров и тематик, включая художественную литературу, официальные документы, учебные материалы и информационные ресурсы, а их качество и релевантность были оценены экспертами. Используются морфологическая и синтаксическая разметка, рассматриваются возможности эффективного использования корпуса в области лингвистики и переводоведения. Результаты исследования послужат основой для дальнейших исследований и разработки систем автоматического перевода в языковой паре узбекский-немецкий.*

Ключевые слова: *узбекско-немецкий параллельный корпус, лингвистическая аннотация, морфология, синтаксис, корпус переводов, лингвистика, переводоведение.*

Kirish. Parallel korpus — bu ikki yoki undan ortiq tillarda tarjima qilingan matnlarning tizimli to‘plami bo‘lib, ular orasidagi lingvistik va semantik mosliklarni o‘rganish, tillarning grammatika, leksika va pragmatik xususiyatlarini solishtirish imkonini yaratadi. Hozirgi kunda til modellari va tarjima tizimlari ko‘proq sifatli, keng qamrovli va aniq ma’lumotlarga asoslanib yaratilishi zarur bo‘lgani sababli, parallel korpuslarning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

O‘zbek va nemis tillari til oilalari, grammatik strukturasi, so‘z yasalishi va sintaktik qoidalari jihatidan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga kirib, agglutinativ tipdagi, so‘z tartibi esa erkinroq bo‘lgan til hisoblanadi. Nemis tili esa german tillari oilasiga mansub bo‘lib, murakkab infleksiyalarga, qat’iy gap tartibiga va ko‘plab sintaktik qoidalarga ega. Shu sababli, ushbu tillar o‘rtasida tarjima va til taqqoslash jarayonida ko‘plab lingvistik qiyinchiliklar yuzaga keladi. O‘zbek-Nemis parallel korpusini yaratish tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o‘rganish jarayonlarida qimmatli manba hisoblanadi. Bu korpus nafaqat tillar o‘rtasidagi lingvistik farqlarni aniqlashda, balki mashinaviy tarjima modellarini yaratishda ham keng qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday korpuslar til o‘rganuvchilar uchun o‘zbek va nemis tillaridagi sintaktik va leksik tuzilmalarni solishtirish, tarjima jarayonidagi murakkabliklarni tushunish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda O‘zbek-Nemis parallel korpusining asosiy tuzilishi, formatlari, lingvistik annotatsiyalari va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati o‘rganilmoqda. Shuningdek, korpusning yaratilishida duch kelinadigan qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kelajakda O‘zbek-Nemis til juftligi bo‘yicha yanada samarali parallel korpuslar yaratishga va ularni tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida kengroq qo‘llashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Matn va uning tarjimasi yonma-yon keladigan elektron to‘plamning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Bitekst dasturi shunday vositalar sirasiga kiradi. Parallel matn (bitekst)– boshqa tildagi tarjimasi bilan beriladigan matnlar to‘plami. Bitekstlar «moslashtiruvchi asbob» (alignment tool) yoki «bitekst uchun moslama» (bitext tool) deb nomlanuvchi maxsus kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. Bu dasturlar original va tarjima matn mazmunini turli sintaktik birliklar, asosan, sodda gap shaklida moslashtirib beradi. Bitekstlar yig‘indisi bitekst ma’lumotlar bazasi yoki ikki tilli korpus deb nomlanadi ham turli bog‘lanishlarni kazatish imkonini beruvchi ma’lumot bazasi (spravochnik) vazifasini bajaradi [1, 821].

Usullar. Korpusni shakllantirish jarayonida asosiy e'tibor sifat va moslik mezonlariga qaratildi. Korpusda foydalaniladigan matnlarning ishonchliligi va tarjimaning aniq muvofiqligi korpusning ilmiy qiymati va amaliy qo‘llanilish samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, O‘zbek-Nemis parallel korpusini yaratishda turli janr va mavzudagi matnlar tanlandi, ularning orasida tarjima qilingan badiiy asarlar, rasmiy hujjatlar, o‘quv materiali va axborot-resurslar mavjud.

1897-98-yillarda nemis tilshunosi Keding tomonidan birinchi korpus yaratilgan; u qog‘oz shaklda bo‘lib, so‘zlarda tovushlarning taqsimlanish chastotasini tekshirish maqsadida tuzilgan edi. Ammo katta hajmli materialni qo‘lda hisoblab chiqish juda mushkul mashg‘ulot ekanligini hozirgi tadqiqotchilar biladi. Keyinchalik paydo bo‘lgan konkordans yoki undan ham mukammalrog‘i - korpus menejeri bu vazifani ancha yengillashtirdi. Korpus tuzish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, universal korpus yaratishning iloji yo‘q. Tadqiqotchi maqsadiga ko‘ra korpus imkoniyatlari chegaralanadi va har bir vazifani alohida korpuslar bajaradi[1, 821].

Tarjima qilingan badiiy asarlar tilning madaniy va pragmatik kontekstlarini aks ettirish imkonini beradi. Badiiy matnlar ko‘pincha tillarning ifodaviy vositalari, idiomatik birikmalari va stilistik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi, shuning uchun ularni parallel korpusga kiritish tarjima jarayonidagi murakkabliklarni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Bu esa tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida yanada sifatli tadqiqotlarni amalga oshirishga zamin yaratadi. Parallel korpus, ya’ni asl nusxalar to‘plami va ularning tarjimalari tarjimashunoslik, mashina tarjimasi, lingvistika, hisoblash tilshunosligi yoki oddiygina inson tarjimoni manfaati uchun turli yo‘llar bilan ishlatilishi mumkin. Hisoblash tilshunosligida tarjima korpuslari mashina tarjimasi uchun, shuningdek, atamalarni ajratib olish, so'z ma'nosini aniqlash va hokazolar uchun 1980-yillarning boshida qo'llanilgan [2, 1445].

Rasmiy hujjatlar esa aniq va formal tilni o‘z ichiga oladi, bu esa korpusda tilning normativ jihatlarini tahlil qilish uchun muhimdir. Rasmiy matnlar tilning grammatik qoidalari va standartlariga

qat'iy rioya qilinishini talab qilganligi sababli, ularning parallel tilda tarjimalari tahlil qilinadi va tarjima xatolarini kamaytirish uchun namunaviy ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi.

O'quv materiallari parallel korpusda ko'p tilli ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ular o'zbek va nemis tillarida til o'rganuvchilar uchun yaratilgan bo'lib, lug'at boyligi, grammatika strukturalari va ifodalarning mosligini aniqlash uchun qulay manba hisoblanadi.

Axborot-resurslar esa keng ko'lamli va ko'p mavzuli matnlar bo'lib, zamonaviy tilning turli sohalarida ishlatiladigan atamalar va uslublarni o'z ichiga oladi. Bu manbalar korpusni amaliy, real til vaziyatlariga yaqinlashtiradi va avtomatik tarjima tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Manbalar ikki til o'rtasida tarjima qilinganligi, ya'ni ularning parallelligi sifat va mazmun jihatidan alohida tekshirildi. Tarjima sifatining yuqori darajada bo'lishi uchun har bir matn tarjimaning mosligi, mazmunning to'g'riligi va til strukturasi nuqtai nazaridan ekspertlar tomonidan baholandi. Bu jarayon tarjima qilingan matnlarning korpusda ishonchli va ilmiy jihatdan tahlil qilinishini ta'minladi.

Matnlar morfologik va sintaktik darajada belgilandi. Morfologik annotatsiya uchun avtomatik tahlil vositalari qo'llanildi, keyin qo'lda tekshirildi. Sintaktik tuzilma XML ichida ko'rsatilgan bo'lib, gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro aloqalari belgilandi.

Natijalar. O'zbek tilining agglutinativ tuzilishi va nemis tilining sintaktik qoidalarining murakkabligi korpus tuzilishini loyihalashda qiyinchiliklar tug'dirdi. Ammo gaplar va so'z segmentatsiyasini aniqlash orqali ikki til orasidagi farqlar samarali tarzda aks ettirildi.

1-jadval

Asosiy Xususiyatlar	O'zbek Tili	Nemis Tili	Korpus Tuzilishiga Ta'siri
So'z yasash	Qo'shimchalar orqali so'z yasash	So'z yasash ko'proq ildiz va affikslar bilan, ko'p infleksiya	So'zlarni qismlarga bo'lish qiyin, lekin aniq segmentatsiya kerak
Gap tuzilishi	Erkin so'z tartibi	Qattiq sintaktik qoidalar, qat'iy gap tartibi	Gap segmentatsiyasi va sintaktik tahlil murakkab, moslashtirish zarur
Morfologik murakkablik	Ko'p qavatli qo'shimchalar	Ko'p turdagi infleksiyalar	Morfologik annotatsiya uchun maxsus vositalar va qoida to'plamlari kerak
So'z birikmalari	Qo'shimchalar orqali kengayish	So'z tartibiga bog'liq	So'z birikmalarini aniqlash uchun turli algoritmlar talab qilinadi
Gapdagi sintaktik bog'lanish	Sintaktik bog'lanish so'z tartibiga kam bog'liq	Sintaktik bog'lanish qat'iy qoidalarga asoslangan	Sintaktik tuzilmalarni aniq belgilash kerak

O'zbek tilining agglutinativ tuzilishi va nemis tilining sintaktik qoidalari

O'zbek tilining agglutinativ tuzilishi va nemis tilining sintaktik qoidalarining murakkabligi O'zbek-Nemis parallel korpusining tuzilishini loyihalashda muhim qiyinchiliklar keltirib chiqardi. O'zbek tilida so'zlar ko'plab qo'shimchalar orqali hosil qilinadi, bu esa so'z segmentatsiyasini va morfologik tahlilni murakkablashtiradi. Masalan, so'z tarkibidagi har bir qo'shimcha alohida ma'noga ega bo'lib, ularning to'g'ri ajratilishi korpus annotatsiyasi uchun zarurdir. Aksincha, nemis tilida sintaktik qoidalar qat'iy bo'lib, gap tarkibi va so'z tartibi aniq belgilangan, bu esa gap segmentatsiyasi va sintaktik tahlilni o'ziga xos murakkabliklarga olib keladi.

Shu bois, korpus loyihalashda gap segmentatsiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbek tilining erkin so'z tartibi va agglutinativ morfologiyasi sababli, so'zlarni qismlarga ajratish uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqildi. Nemis tilida esa qat'iy sintaktik qoidalarga amal qilgan holda, gaplarni segmentatsiya qilish va sintaktik bog'lanishlarni belgilash ustuvor vazifa bo'ldi.

Natijada, ikki til orasidagi struktural farqlar samarali tarzda aks ettirildi. Bu korpusning yuqori sifatli lingvistik annotatsiyasini ta’minlashga va keyingi tilshunoslik hamda mashina tarjimasi tadqiqotlari uchun asos yaratishga xizmat qildi.

Tahlil va muhokama. O‘zbek-Nemis parallel korpusi tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o‘rganish sohalarida keng ko‘lamli qo‘llanilish imkoniyatlariga ega bo‘lib, uning yaratishdagi asosiy maqsadlaridan biri sifatida ikki til o‘rtasidagi lingvistik munosabatlarni chuqur o‘rganish va amaliy ehtiyojlarni qondirish ko‘zda tutilgan. Til o‘rganish jarayonida korpus o‘zbek tilidagi murakkab grammatik strukturalarni nemis tilidagi tenglamalari bilan solishtirish imkonini beradi. Bu o‘rganuvchilarga ikkita turli til oilalariga mansub tillarning grammatik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, tilning morfologik va sintaktik qoidalaridagi farqlarni taqqoslash o‘quvchilar uchun amaliy qiyinchiliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Tarjima mashinalarini rivojlantirish sohasida esa O‘zbek-Nemis parallel korpusi yuqori sifatli o‘rgatuvchi ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi. Korpusdagi keng ko‘lamli va aniq tarjima qilingan matnlar avtomatik tarjima tizimlarining o‘rgatilishida asosiy manba hisoblanadi. Shu orqali tarjima algoritmlarining aniqligi va samaradorligi oshiriladi hamda til o‘zgartirish jarayonidagi xatoliklar kamayadi.

Lingvistik annotatsiyalar bilan boyitilgan korpus so‘z va gap darajasida chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Morfologik, sintaktik va semantik qatlamlarda amalga oshirilgan annotatsiyalar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun qulay sharoit yaratadi, balki mashina o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday annotatsiyalar yordamida avtomatik sintaktik tahlil, tarjima segmentatsiyasi va boshqa ilg‘or lingvistik modellarni yaratish mumkin bo‘ladi.

Korpus hajmining yetarliligi va sifat nazorati tizimining mavjudligi esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Korpusdagi ma’lumotlar to‘plami yetarlicha keng va xilma-xil bo‘lishi natijasida har xil mavzu va janrlarni qamrab olish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sifat nazorati jarayonlari — tarjimalarning mazmun va formatga mosligi, lingvistik annotatsiyalarning aniqligi — korpusning ilmiy va amaliy qiymatini ta’minlaydi.

Kelajakda O‘zbek-Nemis parallel korpusini yanada rivojlantirish uchun bir necha istiqbolli yo‘nalishlar mavjud. Birinchidan, korpus hajmini oshirish orqali yanada kengroq lingvistik va tematik doirani qamrab olish mumkin. Ikkinchidan, kontekstga asoslangan tarjima segmentatsiyasi metodlarini joriy etish korpusdagi tarjima va til qurilmalari aniqligini oshirishga yordam beradi. Uchinchi jihat sifatida esa sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalariga tayangan avtomatik annotatsiya usullarini keng qo‘llash tavsiya etiladi. Bu esa annotatsiya jarayonini tezlashtiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali qayta ishlash imkonini yaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O‘zbek-Nemis parallel korpusining tuzilishi va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Korpusning gap-parallel tuzilishi, lingvistik annotatsiyalar bilan boyitilishi va turli tarjima usullarini o‘z ichiga olishi tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida katta ahamiyatga ega. Korpus kelajakda avtomatik tarjima va til o‘rganishda yanada samarali vosita sifatida rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nazira Ganijon Qizi Sobirova, Madina Akramajanova, & Shohjahon Ganijon Ogli Sobirov (2022). Parallel korpus xususiyati, tuzilishi, interfeysi. Academic research in educational sciences, 3 (5), 819-824.

2. Nazira Ganijon Qizi Sobirova (2022). Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. Academic research in educational sciences, 3 (5), 1442-1450.

3. Babayeva Vasila Tashpulatovna. (2022). Nemis tilidan o'zlashgan so'zlarning mavzuiy guruhlari tasnifi. pedagogs international research journal, 2(1), 23–34. https://doi.org/10.5281/zenodo.5878319

4. Abdurakhmonova, Nilufar. (2019). Corpus Based Teaching Uzbek as A Foreign Language. IRAL - International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. 6. 131-137.

Ахмеджанова Ольга Сергеевна
преподаватель Национального Университета имени Мирзо Улугбека
E-mail: axmedjanova.olga@mail.ru

ОККАЗИОНАЛИЗМЫ КАК СРЕДСТВО СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПРЕССИИ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ АНИМАЦИОННОГО ФИЛЬМА «СМУРФИКИ»)

Аннотация. *В статье дается определение понятия окказионализма, рассматриваются его особенности как единичного лексического новообразования, возникающего в определённом речевом контексте. На материале русского перевода анимационного фильма «Смурфики» исследуются окказионализмы как средство стилистической экспрессии в современном русском языке. Анализируются словообразовательные модели, используемые при создании лексических окказионализмов: суффиксация, постфиксация, суффиксально-постфиксальное образование, сложение основ, вкрапление, контаминация. Значительное внимание уделяется фразеологическим окказионализмам, демонстрирующим элементы языковой игры и стилистической трансформации устойчивых выражений.*

Ключевые слова: *окказионализм, словообразование, классификация, экспрессия, языковая игра.*

OCCASIONALISMS AS A MEANS OF STYLISTIC EXPRESSION IN MODERN RUSSIAN (BASED ON THE ANIMATED FILM “THE SMURFS”)

Annotation. *The article defines the concept of occasionalism and examines its characteristics as a one-time lexical innovation arising in a specific speech context. Based on the Russian translation of the animated film The Smurfs, the study explores occasionalisms as a means of stylistic expression in modern Russian. It analyzes the word-formation models used in the creation of lexical occasionalisms, including suffixation, postfixation, suffix-postfix combinations, compounding, insertion, and contamination. Particular attention is given to phraseological occasionalisms that demonstrate elements of language play and stylistic transformation of fixed expressions.*

Keywords: *occasionalism, word formation, classification, expressivity, language play.*

ZAMONAVIY RUSS TILIDA STILISTIK IFODA VOSITASI SIFATIDAGI OKKAZIONALIZMLAR (“SMURFIKLAR” ANIMATSION FILMI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada okkazionalizm tushunchasiga ta’rif beriladi hamda u ma’lum nutqiy kontekstda yuzaga keladigan yagona leksik neologizm sifatida o‘rganiladi. “Smurfiklar” animatsion filmning ruscha tarjimasi materiali asosida zamonaviy rus tilida stilistik ifoda vositasi sifatidagi okkazionalizmlarning xususiyatlari tadqiq etiladi. Leksik okkazionalizmlarni yaratishda qo‘llanilgan so‘z yasovchi modellar – suffiksatsiya, postfiksatsiya, suffikso-postfiksal tuzilma, asoslar qo‘shilishi, so‘z ichiga kiritish hamda kontaminatsiya tahlil qilinadi. Shuningdek, barqaror iboralarni stilistik o‘zgartirish va til o‘yini unsurlarini aks ettiruvchi frazeologik okkazionalizmlarga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *okkazionalizm, so‘z yasash, tasnif, ifoda, til o‘yini.*

Введение. Современная лингвистика проявляет повышенный интерес к нестандартным формам языковой экспрессии и творческого самовыражения, в связи с чем всё более актуальным становится изучение окказиональной лексики. Окказионализмы – это индивидуально-авторские лексические новообразования, создаваемые для реализации конкретной коммуникативной задачи. Такие слова не входят в общепринятый лексический состав языка, однако выполняют важную функцию: передают эмоциональное состояние, описывают новые реалии,

подчёркивают стилистическую направленность текста. По мнению Е. А. Земской, окказионализмы представляют собой результат активного участия личности в процессе языкового творчества [Земская, 2005]. Э. И. Ханпира подчёркивает их временный и ситуативный характер [Ханпира, 1972].

Окказионализмы необходимо отличать от неологизмов. Если неологизмы представляют собой новые слова, стремящиеся к закреплению в языке и пополнению словарного фонда, то окказионализмы - единичные образования, как правило, не выходящие за рамки конкретного текста. Н. Г. Бабенко отмечает, что важным критерием различия между этими единицами является степень их распространённости и потенциальная словарная фиксация [Бабенко, 1997].

Методология исследования. В современной лингвистической литературе имеется несколько классификаций окказионализмов. Рассмотрим две классификации окказиональных слов, дополняющих друг друга – это классификации, предложенные российскими лингвистами Э. И. Ханпира и Н. Г. Бабенко. Классификации окказионализмов, предложенные Э. И. Ханпира и Н. Г. Бабенко, включают следующие типы окказионализмов: фонетические, лексические (словообразовательные), грамматические (морфологические), семантические, окказиональные (необычные) сочетания слов, синтаксические, фразеологические, стилистические окказионализмы.

Не менее важна индивидуальность авторов окказионализмов: журналистов, писателей, блогеров. Их языковая интуиция, владение нормами и стилистическая изощрённость формируют уникальные образцы слова. В работах А. А. Зализняка подчёркивается значимость индивидуально-авторских стратегий словообразования [Зализняк, 2003].

С точки зрения лексикографии, окказионализмы представляют трудности: они нестабильны, индивидуальны, не имеют устойчивой семантики. Однако появляются специализированные ресурсы - словари языка интернета, электронные корпуса и базы данных новых слов.

Окказионализмы играют важную роль в образовательной среде. Их анализ способствует развитию лингвистической интуиции, ассоциативного и образного мышления, креативности у студентов-филологов. Включение подобных примеров в учебный процесс актуализирует внимание к живому языку и механизмам его развития.

Особый интерес представляют окказионализмы, возникающие в сфере массовой культуры и кинематографа, которые быстро входят в повседневную речь и становятся понятными широкой аудитории. Яркой иллюстрацией этого явления могут служить лексические новообразования, появившиеся благодаря популярным анимационным фильмам, адаптированным для русскоязычной аудитории. Наглядным примером такого языкового влияния выступают окказионализмы, встречающиеся в анимационном фильме «Смурфики».

Анимационные фильмы «Смурфики» (2011 г.), «Смурфики 2» (2013 г.) (англ. The Smurfs) – семейные комедийные фильмы режисера Раджа Госнелла о смурфиках, переводчика Сергея Козина. Согласно сюжету, спасаясь от злого волшебника Гаргамеля, крошечные смурфики оказываются за пределами родной деревни. Из своего волшебного мира они попадают прямиком в наш мир, а именно в Центральный парк города Нью-Йорк. Теперь маленьким отважным смурфикам предстоит отыскать дорогу домой и не попасть в лапы Гаргамеля. Гаргамель узнаёт, что лишь настоящий смурф может дать ему то, что он хочет, и лишь Смурфетта способна превратить Крепыша и Занозу в настоящих смурфов, он похищает Смурфетту и берёт её с собой в Париж, планируя сделать её своей прислужницей. Но смурфики – Папа, Растяпа, Ворчун, Красавчик – и их друзья из Нью-Йорка этого так не оставят. Язык этих необычных героев своеобразен, он насыщен большим количеством новообразований.

В двух сериях фильма «Смурфики» нами были выявлены 92 окказиональных образования, среди которых выделяются слова, словосочетания, фразеологизмы и выражения, структурно связанные со словом *смурф*.

Анализ и результаты. Исходя из классификаций, предложенных Н. Г. Бабенко и Э. И. Хампира, все выявленные нами окказионализмы можно подразделить на группы.

Самую распространенную группу представляют лексические окказионализмы, образованные от слова смурф разными словообразовательными способами [Бабенко, 1997; Ханпира, 1972]:

а) суффиксальным: смурф**и**ть, смурф**лю**, смурф**нича**ть, смурф**ти**, смурф**но**, смурф**ойно**, Смурф**етт**а, смурф**ив**ый, смурфив**о**, смурфив**но** и др.;

б) постфиксальным: смурфить**ся**;

в)суффиксально-постфиксальным:смурф**ова**ть**ся**,смурф**ева**ть**ся**, смурф**а**ть**ся** и др.;

г) приставочным: **со**смурфить, **у**смурфить, **вы**смурфеть, **вы**смурфить, **о**смурфеть, **от**-смурфить и др.;

д) приставочно-суффиксальным: **о**смурфитель**но**, **пона**смурф**ова**ть и др;

е) большую группу составляют слова, образованные сложением:

чистое сложение основ наблюдается в словах смурфименно, смурффестиваль, сложение с соединительной гласной – смурф**о**день, смурф**о**корень, смурф**о**магия, смурф**о**логия, смурф**о**пушка, смурф**о**строфа, смурф**о**мост, смурф**о**ниндзя, смурф**о**фантастика; довольно часто окказионализмы образуются сложением целого слова смурф и конца второго слова, например: смурфодлость (от слова подлость), смурфиника (от клубника), смурфазница (от разница), смурфбол (от футбол), смурфбук (ноотбук, фейсбук), Смурфенштейн (Франкенштейн), смурфернет (от интернет), смурфимист (от оптимист) и встретился один противоположный случай, то есть соединение части первого слова и компонента смурф: пессисмурф (от пессимист);

ж) новые слова могут образовываться путем вкрапления компонента смурф в середину целого слова, например: за**смурф**жигать (от зажигать), или с заменой корневого компонента. В лингвистике такой способ называют контаминацией – «гибридное словообразование, то есть включения в состав известной языковой единицы компонента, тематически связанного с идеей мультфильма» [Литвиненко, 2015], например: по**смурф**овать (от по**колд**овать), про**смурф**ать (от про**чит**ать), по**смурф**ожить (от по**стор**ожить) [Ханпира, 1972].

Как видим, каждое новое слово имеет компонент смурф и легко можно проследить и составить словообразовательную цепочку, например: смурф – смурфить – смурфиться или смурф – смурфивый – смурфиво.

Все 92 лексемы, представляющие разные части речи, составляют большое словообразовательное гнездо с вершиной смурф. Однако от обычных словообразовательных гнезд данное гнездо отличается тем, что каждое производное слово приобретает новую не связанную с производящим компонентом семантику, которая становится понятной из контекста. Например, смурфечательно – «замечательно» («Все будет смурфечательно! – Да-да, всё будет хорошо!»), усмурфите – «уберите» («Эй, усмурфите свои руки! Я не игрушка!»), смурфный срыв – «нервный срыв» («У него смурфный срыв»), не смурфевайся – «не сомневайся» («Все помнят план? – Не смурфевайся!»), смурфец – «конец» («Теперь тебе смурфец!»). Значение окказионализмов становится понятным благодаря созвучию с русскими словами, их типичной лексической и синтаксической сочетаемости, совпадению в морфемном составе.

Среди окказиональных образований выделяются сочетания, которые построены на обыгрывании соотношения фразеологической производящей основы и производного окказионального словосочетания. Э. Ханпира называет их фразеологическими окказионализмами [Ханпира, 1972]. Примером фразеологических окказионализмов могут служить обыгранные известные фразеологизмы с использованием лексемы смурф: «Какого смурфа мы тут делаем?!»; «Смарфавайте удочки»; «Где ты, смурф тебя возьми?»; «Смурфи мой ну я и ворчун»; «О, мой смурф»; «Смурф возьми»; «Закон смурфодлости»; «Через смурферни к звездам»; «Смурф побери»; «Смурфайтесь кто может»; «Честное смурфетское»; «Увидеть Париж и осмурфеть!» и др.

Таким образом, в речи героев анимационного фильма «Смурфики» используются лексические окказионализмы, образованные суффиксальным, постфиксальным, суффиксально-

постфиксальным, приставочным, приставочно-суффиксальным способами, сложением (чистое сложение основ, сложение с соединительной гласной, сложением целого слова *смурф* и конца второго слова), вкраплением и фразеологические типы окказионализмов.

Выводы. Окказионализмы представляют собой значимое явление современной лингвистики. Они иллюстрируют динамику языка, его отклик на социокультурные изменения, отражают индивидуальные особенности речетворчества. Исследование окказиональных образований углубляет понимание процессов словообразования и функционирования лексической системы в целом. Использование окказионализмов в обучении филологов способствует формированию языковой, стилистической и коммуникативной компетенции, развивает творческое мышление и аналитические способности обучающихся.

Список использованной литературы.

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 2020.
2. Бабенко Н. Г. Окказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: Учебное пособие / Калинингр. ун–т. Калининград, 1997.
3. Зализняк А. А. Русское именное словоизменение. - М.: Русские словари, 2003.
4. Земская Е. А. Современный русский язык. Словообразование. – М., 2005.
5. Ильясова С.В. Словообразовательная игра как феномен языка современных СМИ. – Ростов-на-Дону. 2002.
6. Катлинская Л. П. Толковый словарь новых слов и значений русского языка. – М., 2008.
7. Литвиненко Ю. Ю. Лингвистическое моделирование художественной картины мира (на примере анимационных фильмов) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 9. Ч. 1. – Тамбов, 2015.
8. Пасечная Л. А., Попова Т. В. К проблеме дефиниции нового слова в современной лингвистике // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2005
9. Словарь неологизмов. Неологизмы XXI века.
https://russkiiyazyk.ru/leksika/slovar-neologizmov.html
10. Ханпира Э. И. Окказиональные элементы в современной речи // Стилистические исследования. – М., 1972.
11. Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка. – М., 2007.

Kilichev Akram Abdusamadovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti

KONSEPT MADANIYAT, ONG VA TIL SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada antropotsentrizmning zamonaviy lishnoslikda tutgan o‘rni, uning turli sohalar kesishuvidagi ahamiyati ochib berilgan, taniqli olimlarning bu boradagi qarashlari tahlil etilgan. Bu atamaning kognitiv tilshunoslik doirasidagi ahamiyati ochib berilgan, uning ko‘plab talqin va ta’riflariga e’tibor qaratilgan. Konsept xalq madaniyati va ularning tili bilan bog‘liqligi, ongga tegishliligi ko‘rsatilgan. Konsept tufayli ma’lum bir xalqning mentalitetini tushunish, alohida shaxsni tushunish mumkinligi, u odamlar ongida saqlanishi va nafaqat til orqali, balki noverbal shaklda imo-ishoralar va yuz harakatlari yordamida ifodalanishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, atropotsentrizm, tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil, verbal va noverbal muloqot.*

КОНЦЕПТ КАК ИНТЕГРАЦИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ, СОЗНАНИЯ И ЯЗЫКА

Аннотация*. В данной статье раскрывается роль антропоцентризма в современной науке, его значение на пересечении различных областей, анализируются взгляды известных ученых по этому вопросу. Раскрыто значение этого термина в рамках когнитивной лингвистики, уделено внимание его многочисленным интерпретациям и определениям. Показано, что концепт связан с народной культурой и их языком, принадлежит сознанию. Доказано, что благодаря концепту можно понять менталитет определенного народа, отдельную личность, она сохраняется в сознании людей и выражается не только через язык, но и в невербальной форме с помощью жестов и мимики.*

Ключевые слова*: концепт, антропоцентризм, лингвопрагматика языкознания, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психолингвистика, нейролингвистика, этнолингвистика, дискурсивный анализ, вербальная и невербальная коммуникация.*

CONCEPT AS AN INTEGRATION OF SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELDS OF CULTURE, CONSCIOUSNESS, AND LANGUAGE

Annotation. *This article explores the role of anthropocentrism in modern linguistics and its significance at the intersection of various fields. The views of prominent scholars on this topic are analyzed in detail. Particular attention is paid to the importance of this term within the framework of cognitive linguistics and to the diversity of its interpretations and definitions. The article also highlights the connection between concepts and folk culture, language, and consciousness. It is shown that concepts help to understand the mentality of a certain people and the individuality of a person. Moreover, concepts are stored in human consciousness and can be expressed not only through language but also through nonverbal means such as gestures and facial expressions.*

Keywords: *concept, anthropocentrism, linguistic pragmatics, linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, neurolinguistics, ethnolinguistics, discourse analysis, verbal and nonverbal communication.*

Keyingi yillarda konsept atamasi tilshunoslik sohalarida tez-tez takrorlanishiga hamda ayrim lingvistik birliklarni konsept sifatida tadqiq qilish barobarida ko‘plab olimlar tomonidan talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ushbu tushuncha filologik ta’limning yangi yo‘nalishlarida, ayniqsa, ko‘p qo‘llanmoqda. Umuman olganda, konsept atamasini

nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qo‘llash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasini o‘rganishda ikkita asosiy – kognitiv va lingvomadaniy yondashuv mavjud. Ushbu yondashuvlar uchun til va madaniyat o‘rtasidagi so‘zsiz aloqani tan olish umumiy hisoblanadi. Bu boradagi fikrlar xilma-xilligi esa konseptni shakllantirishda tilning rolini o‘zgacha talqin qilish bilan bog‘liq. Lingvomadaniyatshunoslik zamonaviy bilimlar tizimida nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, uning nazariy va metodologik asoslari shakllanish bosqichida turibdi. Lingvokulturologiya madaniyat va ushbu madaniyatni til yordamida yaratadigan shaxsning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi.

Lingvomadanityashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan konseptga ko‘plab talqin va ta’riflar berilgan. Muloqot jarayonida konsept verbal va noverbal tarzda taqdim etilishi mumkin. Ichki shakl, yadro va asl qatlam konsept tarkibini tashkil qiladi.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zining ilk qadamlarini qo‘ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog‘lanadi. Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Rus tilshunosligida kognitiv tilshunoslikning atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: “Kognitologiya ko‘p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, lisoniy va bilim strukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohini rejalashtiriladi”.

Rus olimlari V.G.Zinchenko va V.G.Zusmanning fikriga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik til muammolarini “bilish prizmasi orqali” ko‘rib chiqadi. “Kognitsiya” deganda, avvalo 1) bilish; 2) inson ongi va tafakkurini o‘rganuvchi fan; 3) “insonning bilish faoliyati” tushuniladi.

A.Shopengauer esa konseptni (concept) “predmetlarni intuitiv idrok etishimiz orqali yaratilgan abstraksiya” deya ta’riflaydi.

Ingliz olimi Barri Smitning fikriga ko‘ra, konseptlar inson bilishining natijasidir. Konseptlar mavhum yoki aniq, oddiy yoki tarkibli, haqiqiy yoki xayoliy bo‘lishi mumkin. Konsept nimanidir, nima haqida gapirilayotgan narsani anglatadi, shuning uchun konseptga vazifa, funksiya, harakat, strategiya va boshqalarning tavsifi sifatida qaraladi. Belgiyalik olim Stiven Lourens va amerikalik olim Erik Margolisning fikriga ko‘ra, konseptlar – tafakkur nazariyalaridagi eng muhim konstruksiyalardir.

O‘zbek tilshunosligida tahlil va talqin vositasi hamda termin sifatida konsept atamasi 1990-yillardan boshlab qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunga qadar ko‘plab olimlar bu borada o‘z tadqiqotlarini olib borgan bo‘lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta’rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tushunchaga juda ko‘plab olimlar o‘zlarining ta’riflarini berishgan. Birmuncha yangi hisoblangan bu yo‘nalish bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari ko‘lami ortmoqda. Shu o‘rinda Sh.Safarov, N.Mahmudov, T.Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O‘.Yusupov, G.Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash joiz.

Konsept – tushuncha – so‘z munosabati. Konsept tushunchasi mavhum hodisa bo‘lganligi sababli uni aynan bir birlikning mavjud bo‘lmagan, moddiy ko‘rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma’nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz. Bu haqda tilshunos olim Sh.Safarov shunday fikrlarni bildiradi: “Ushbu savollarga hozircha to‘liq javob topilganicha yo‘q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug‘ilishining, albatta, sabablari bor. Dastavval, “konsept” tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligini, uning zamiridagi “mental struktura” hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, “konsept” atamasi “tushuncha”, “ma’no‘, “mazmun” kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ularning o‘zaro

munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo‘ladi”. Bu borada olim fikrlarini davom ettirib: “Mantiqiy faoliyat hosilasi bo‘lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo‘llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil mazmunda qo‘llash mumkinmi? So‘zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bular ikkalasining ham boshlang‘ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog‘liq”, – degan fikrlarni aytib o‘tadi. O‘zbek tilshunosligida T.Mardiyev o‘zining o‘ttizga yaqin mualliflik ishlarida aynan konsept tushunchasiga berilgan ta’riflar, xulosalar, nazariyalar haqida ham to‘xtalib o‘tadi.

Tilshunos olim O‘.Q.Yusupov konsept haqida fikr yuritar ekan, uni shunday ta’riflaydi: “Konsept “tashqi yoki ichki dunyodagi biror-bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir. Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir. Bu fikrga ham qo‘shilish mumkin, chunki aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichik. Demak, biror so‘zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo‘lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo‘lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko‘proq mazmuni namoyon bo‘la boradi. Konsept so‘zni shunchaki anglatgan ma’nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog‘liq jihatlarini, lingvomadaniy ko‘rinishlarini kognitiv talqinda ko‘rib chiqadi. Xullas, keyingi yillarda tilshunoslik sohasida paydo bo‘layotgan va shakllnayotgan yangi yo‘nalishlarning mavjudligi bu sohadagi modernizatsiyalanishning keskin sur’atlarda ekanligidan dalolat beradi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan konsept atamasi, dastlab, rus tilshunosligida, so‘ngra jahonning boshqa tilshunoslik sohalariga kirib bordi. Aynan o‘zbek tilshunosligida XX asrning 90-yillariga kelib shakllangan bu atama bugungi kunda ham o‘z tadqiqotchilariga ega. Jahon tilshunosligiga nazar tashlasak, tilning konseptual tabiatiga bo‘lgan talab va bu ko‘lamda qilingan ishlar, nazariyalar 80-yillarga kelib birmuncha tanqidlarga uchraydi. Yillar o‘tishi bilan esa tadqiqot maydoni kengayib, konsept va konseptual sohaga talab, qiziqish qayta tiklandi.

Konsept tushunchasini aniqlashda bir nechta yondashuvlar mavjud. Konseptning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun konseptual va terminologik metatil apparatining o‘zini belgilash, atama va konseptning umumiy va turli ta’rif, talqinlarini aniqlash lozim.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, konsept inson ongida saqlanadigan, til va madaniyatda o‘z ifodasini topadigan mavhum hodisadir.

Mavjud talqinlar nafaqat bir-biriga zid, balki aniqlanayotgan hodisaning ko‘pqirraligi va ko‘pligi tufayli o‘zaro bog‘liqdir.

Konsept haqida fikr yuritib, turli ilmiy soha vakillari uning ko‘p qirraliligi, uni tadqiq qilishning murakkabiligi va fandagi integratsion rolini ta’kidlashlari, albatta, bejiz emas. G.G.Slishkin ta’kidlaganidek: “Konsept madaniyat, ong va til sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni bog‘laydigan birlikdir, chunki konsept xalq madaniyati va ularning tili bilan bog‘liq bo‘lib, ongga tegishlidir”.

Darhaqiqat, konsept nafaqat semantik va konseptual, balki subyektiv idrokni ham o‘z ichiga oladi. Konsept tufayli ma’lum bir xalqning mentalitetini tushunish, alohida shaxsni anglash mumkin. Konsept odamlar ongida saqlanadi va til orqali, shuningdek, noverbal shaklda imo-ishoralar va yuz harakatlari yordamida ifodalanadi.

Umuman olganda, konsept atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qo‘llash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi[1].

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasini o‘rganishda ikkita asosiy – kognitiv va lingvomadaniy yondashuv mavjud. Ushbu yondashuvlar uchun til va madaniyat o‘rtasidagi so‘zsiz aloqani tan olish umumiy hisoblanadi. Bu boradagi fikrlar xilma-xilligi esa konseptni shakllantirishda tilning rolini o‘zgacha talqin qilish bilan bog‘liq.

[1] О.Аноркулова. Концепт тушунчаси ва унинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқига доир мулоҳазалар. Вестник магистратуры. 2022. № 4-2 (127)

Lingvomadaniyatshunoslik zamonaviy bilimlar tizimida nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, uning nazariy va metodologik asoslari shakllanish bosqichida turibdi. Bu til, madaniyat va ushbu madaniyatni til yordamida yaratadigan shaxsning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Lingvomadanityashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan konseptga ko‘plab talqin va ta’riflar berilgan. Muloqot jarayonida konsept verbal va noverbal tarzda taqdim etilishi mumkin. Ichki shakl, yadro va asl qatlam konsept tarkibini tashkil qiladi.

Bugungi kunga qadar ko‘plab olimlar bu borada o‘z tadqiqotlarini olib borgan bo‘lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta’rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Dastavval, “konsept” tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligini, uning zamiridagi “mental struktura” hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, “konsept” atamasi “tushuncha”, “ma’no”, “mazmun” kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadikim, ularning o‘zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo‘ladi”[1]. Bu borada olim fikrlarini davom ettirib, “Mantiqiy faoliyat hosilasi bo‘lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo‘llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil mazmunda qo‘llash mumkinmi? So‘zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang‘ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog‘liq”,-degan fikrlarni aytib o‘tadi.

“Konsept” tushunchasini aniqlashda bir nechta yondashuvlar mavjud. Konseptning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun konseptual va terminologik metatilli apparatining o‘zini belgilash, atama va “konsept”larining umumiy va turli ta’riflari va talqinlarini aniqlash kerak.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, konsept inson ongida saqlanadigan, til va madaniyatda o‘z ifodasini topadigan mavhum narsadir.

Mavjud talqinlar nafaqat bir-biriga zid emas, balki aniqlanayotgan hodisaning ko‘pqirralari ko‘pligi tufayli o‘zaro bog‘liqdir.

Konsept haqida fikr yuritib, turli ilmiy sohalar vakillari konseptning ko‘p qirraliligi, uni tadqiq qilishning murakkabiligi va fandagi integratsion rolini ta’kidlashlari albatta bejiz emas. G.G. Slishkin ta’kidlaganidek, “konsept madaniyat, ong va til sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni bog‘laydigan birlikdir, chunki konsept xalq madaniyati va ularning tili bilan bog‘liq bo‘lib, ongga tegishlidir”[2].

Darhaqiqat, konsept nafaqat semantik va konseptual, balki faqat sub’ektiv idrokni ham o‘z ichiga oladi. Konsept tufayli ma’lum bir xalqning mentalitetini tushunish, alohida shaxsni tushunish mumkin. Konsept odamlar ongida saqlanadi va nafaqat til orqali, balki noverbal shaklda imo-ishoralar va yuz harakatlari yordamida ifodalanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, konsept tushunchasi zamonaviy gumanitar fanlar — xususan, tilshunoslik, psixologiya, falsafa va madaniyatshunoslikning o‘zaro bog‘liq va integratsiyalashgan holda rivojlanishiga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Konseptlar — inson ongida shakllangan, tafakkur va hissiyotlar bilan chambarchas bog‘langan, til orqali ifodalanadigan kognitiv tuzilmalardir. Ular inson dunyoqarashi, madaniy merosi, ijtimoiy mavqei va tajribasining muhim semiotik shakli sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi kunda antropotsentrizmga asoslangan ilmiy qarashlar orqali inson omili va uning ma’naviy-axloqiy dunyosi markazga qo‘yilmoqda. Bu jarayonda konseptlar inson faoliyatining ma’naviy-ijtimoiy miqyosini tushunishda, til vositasida fikrlash va idrok jarayonlarini tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, konseptlar nafaqat tilning leksik-ma’noviy boyligini, balki uning madaniy va ma’naviy qiymatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligini ham namoyon etadi.

Fanlararo yondashuv talab etilayotgan bugungi ilmiy muhitda konseptlarni o‘rganish turli sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, umumiy ilmiy usullar va yondashuvlarni ishlab

[1] Сафаров Ш. «Концепт» ҳодисаси ҳақида//Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари).–Самарқанд, 2010. 185-188-бетлар.

[2] Слышкин Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г. Г. Слышкин. – М.: Academia, 2000. – 128 с

chiqish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, til va ong munosabati, til va tafakkur munosabati, til va madaniyat munosabati kabi dolzarb muammolarni konseptual tahlil qilish orqali insonning ma’naviy dunyosi chuqurroq tadqiq etiladi. Shu bois, konsept tushunchasiga asoslangan tadqiqotlar nafaqat nazariy nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, insonning ma’naviy hayotini, ijtimoiy munosabatlarini va madaniy an’analarini o‘rganishda ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat tilshunoslik sohasiga, balki umumiy ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O. Anorkulova. Konsept tushunchasi va uning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqiga doir mulohazalar // Vestnik magistraturы. – 2022. – №4-2 (127).
2. Safarov Sh. «Konsept» hodisasi haqida // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari (N.Q.Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari). – Samarqand, 2010. – B. 185–188.
3. Слышкин Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000. – 128 с.
4. Кубрякова Е. С. Когнитивная лингвистика и проблемы концептуализации // Вопросы языкознания. – 2004. – №1. – С. 3–18.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
6. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
7. Jumanazarova D. Til va madaniyat: lingvomadaniy yondashuv // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2020. – №2. – B. 35–40.
8. Xolmatova M. O‘zbek tilida milliy-konseptual birliklar ifodasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 136 b.
9. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
10. Umarov H. Til va ong: kognitiv yondashuv asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2021. – №1. – B. 12–18.

Kenjabayeva Dilafruz Adisalimovna
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillarikafedrasi dotsenti v.b.,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
E-mail: kenjabaevadilafruz605@gmail.com

BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARINI AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLAR ASOSIDA TAYYORLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axloqiy-estetik qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida axloqiy kompetensiyalar bilan birga estetik saviyani shakllantirish zarurligi asoslab beriladi. Xususan, chet tilini o‘qitishda o‘qituvchining nutq madaniyati, muloqot uslubi, madaniyatlararo aloqalarga estetik yondashuvi o‘quvchilarda ijobiy ta’sir uyg‘otadi. Maqolada estetik ta’lim elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan va bu yo‘nalishda raqamli vositalar, badiiy matnlar, qo‘shiq va vizual vositalardan foydalanishning metodologik asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *xorijiy til o‘qituvchisi, axloqiy tarbiya, estetik qadriyatlar, nutq madaniyati, pedagogik tayyorgarlik, madaniyatlararo kompetensiya, estetik muhit, o‘qituvchi imiji, zamonaviy ta’lim.*

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ НА ОСНОВЕ НРАВСТВЕННЫХ И ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В статье освещается роль и значение этических и эстетических ценностей в процессе подготовки будущих учителей иностранных языков. Обоснована необходимость формирования эстетического уровня наряду с этическими компетенциями в профессиональной подготовке педагога. В частности, при обучении иностранному языку положительное влияние на учащихся оказывают речевая культура преподавателя, стиль общения, эстетический подход к межкультурному общению. В статье даны рекомендации по интеграции элементов эстетического воспитания в образовательный процесс, раскрыты методические основы использования цифровых средств, литературных текстов, песен, наглядных пособий в этом направлении.*

Ключевые слова: *учитель иностранного языка, нравственное воспитание, эстетические ценности, культура речи, педагогическая подготовка, межкультурная компетентность, эстетическая среда, образ учителя, современное образование.*

TRAINING FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS ON THE BASIS OF MORAL AND AESTHETIC VALUES

Annotation. *This article highlights the role and importance of ethical and aesthetic values in the process of training future foreign language teachers. The need to form an aesthetic level along with ethical competencies in the professional training of a teacher is substantiated. In particular, the teacher's speech culture, communication style, and aesthetic approach to intercultural communication in teaching a foreign language have a positive impact on students. The article provides recommendations for integrating elements of aesthetic education into the educational process and highlights the methodological foundations of using digital tools, literary texts, songs, and visual aids in this direction.*

Keywords: *foreign language teacher, ethical education, aesthetic values, speech culture, pedagogical preparation, intercultural competence, aesthetic environment, teacher image, modern education.*

Kirish. Bugungi global ta’lim tizimida xorijiy til o‘qituvchilariga nafaqat til bilimini yetkazuvchi mutaxassis, balki ma’naviy-ma’rifiy yetakchi sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan

pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning axloqiy va estetik qadriyatlari shakllangan, yuksak madaniyatli, didli, muloqotga layoqatli, ijodkor shaxslar sifatida kamol topishlari zarur. Ayniqsa, chet tilini o‘qituvchi pedagoglarning axloqiy-estetik saviyasi ularning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan shaxsiy namunasida, muloqot uslubida, nutq madaniyatida va didida o‘z aksini topadi. Mazkur maqolada xorijiy til o‘qituvchilari tayyorgarligi jarayonida axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirishning mazmuni, metodologiyasi va pedagogik ahamiyati yoritiladi. So‘nggi davrda O‘zbekiston Respublikasida bo‘lajak mutaxassislarni sifat jihatidan turlicha tayyorlashni taqozo etuvchi yangi o‘qitish usullarini ta’lim jarayoniga kiritish muammosiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi usullarni maktablarda joriy etish uchun taklif etilayotgan ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati, ularning eng usullarni aniqlashdagi kompetentligi, shuningdek, o‘zlarining mualliflik huquqi ko‘p jihatdan hozirgi zamonaviy ta'lim muhitining holatini belgilaydi [1,27].

Asosiy qism. Axloqiy-estetik qadriyatlar — bu shaxsning ichki dunyosida shakllangan, ijtimoiy hayotda yuksak baholanuvchi axloqiy me’yorlar, madaniy did, go‘zallikka intilish ehtiyoji, nutq va muomala madaniyati, shuningdek tashqi qiyofadagi estetik uyg‘unlikni o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Ushbu qadriyatlar insonning axloqiy fazilatlari (masalan, halollik, mehr-oqibat, hurmat), estetik sezgirligi, badiiy va madaniy tafakkuri, shuningdek, muomala qilishda go‘zallikni namoyon etish kabi kompetensiyalarini qamrab oladi. Axloqiy-estetik qadriyatlar shaxsning jamiyat bilan uyg‘unlikda yashashi, madaniyat va go‘zallikni idrok etib, uni ongli ravishda o‘z hayotida aks ettirishi uchun zamin yaratadi. Mazkur qadriyatlar pedagogik faoliyatda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, dars jarayonidagi estetik yondashuvi va axloqiy muloqoti orqali ta’lim oluvchilarga namuna sifatida singdiriladi. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashda bu qadriyatlar ikki yo‘nalishda ko‘zga tashlanadi:

1. **Axloqiy kompetensiya**: pedagog shaxsining halollik, mehribonlik, ijtimoiy mas’uliyat, sabr-toqat, hurmat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirishi. Bu fazilatlar til o‘rgatish jarayonida o‘quvchiga namuna bo‘ladi, tilni o‘rganishdan tashqari, axloqiy tarbiyani ham shakllantiradi.

2. **Estetik kompetensiya**: o‘qituvchining nutqi, kiyinish uslubi, darsning did bilan tashkil etilishi, vizual vositalardan foydalanish madaniyati, darsliklar dizayni va dars berish uslublarida go‘zallik va uyg‘unlik tamoyillarini hisobga olishi.

Xorijiy til fani – bu o‘z mohiyati bilan estetik quvvatga ega soha hisoblanadi. Unda fonetika, intonatsiya, musiqiylik, madaniyatlararo muloqot elementlari mavjud. Shu sababli, bo‘lajak til o‘qituvchisida estetik did va nutqiy madaniyat o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishi lozim. Bunga erishish uchun ta’lim jarayoniga quyidagi yondashuvlarni joriy qilish maqsadga muvofiq:

Estetik jihatdan boyitilgan darslar: dars davomida she’r, qo‘shiq, badiiy matnlar, san’at asarlari, kino va animatsiya vositalaridan foydalanish; Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalashga ham yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, estetik jihatdan boyitilgan darslar o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, chet tilini o‘rgatishda estetik komponentlarni darsga kiritish o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqishni oshirish, madaniy tafakkurni kengaytirish va nutqiy madaniyatni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Estetik jihatdan boyitilgan darslar deb, ta’limiy mazmunga badiiy-estetik elementlar — she’r, qo‘shiq, badiiy nasr, tasviriy san’at asarlari, kino, teatr parchalari va animatsion materiallar kiritilgan hamda ular orqali o‘quvchilarda go‘zallikni idrok etish, badiiy tafakkur va madaniy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi darslar tushuniladi.

Bu turdagi darslarda she’rlar orqali o‘quvchilarning fonetik sezgirligi, intonatsion o‘qish ko‘nikmalari va obrazli ifodalarga bo‘lgan estetik munosabati shakllanadi. Qo‘shiqlar esa ritm, talaffuz va leksik birliklarni osonroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilar madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Badiiy matnlar, ya’ni hikoya, esse va dramalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ifoda etish, obrazli tafakkur qilish, voqealarga estetik baho bera olish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Tasviriy san’at asarlari — suratlar, rasmlar, maketlar, dizayn ishlari orqali esa fazoviy fikrlash va vizual tafakkur faollashadi. Bu nafaqat tilni o‘zlashtirishga, balki ijodiy yondashuvga ham asos yaratadi. Kino va animatsion

vositalar esa ko‘rgazmali ta’limning eng samarali shakllaridan biri bo‘lib, tilni kontekstda o‘rganish, real hayotiy muloqotni anglash, milliy va umumiy insoniy qadriyatlarni solishtirish, til o‘rganishga motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, xalqaro madaniyatlar aks etgan filmlar va animatsiyalar orqali o‘quvchilar til bilan birga madaniyatlararo kompetensiyani ham egallaydilar.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi: xorijiy til o‘rgatishda boshqa xalqlarning estetik qadriyatlari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish; Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tilni o‘rganish faqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmay, balki boshqa xalqlarning madaniy va estetik qadriyatlari bilan tanishish, ularni anglash va qiyosiy tahlil qilish jarayonini ham qamrab oladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim oluvchilarda **madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi**ni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, til o‘qituvchilari bu kompetensiyani o‘z faoliyatida rivojlantirishi, o‘quvchilarga nafaqat chet tilining grammatikasini, balki uni ifodalovchi xalqning estetik qarashlari, urf-odatlari, san’at va madaniyat namunalarini ham yetkazishi zarur.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi — bu til o‘rganuvchining o‘z madaniyati va boshqa madaniyatlar o‘rtasida uyg‘unlik, farq va o‘xshashliklarni anglashga asoslangan, to‘g‘ri va samimiy kommunikatsiya olib borish qobiliyatidir. U til o‘rganish jarayonida boshqa xalqlarning **estetik qadriyatlarini** anglash orqali chuqurlashadi. Masalan, fransuz tilini o‘rganayotgan talaba uchun fransuz modasi, tasviriy san’ati (impresionizm), musiqasi, adabiyoti (Balzak, Mopassan) orqali fransuz estetik dunyoqarashi bilan tanishish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ingliz, ispan, koreys yoki yapon tillarini o‘rganishda ham shu xalqning san’ati, she’riyati, teatr an’analari, dizayni yoki me’morchiligi orqali estetik qadriyatlari o‘quv jarayoniga integratsiya qilinadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi madaniyatlararo farqlarni tan olgan holda, o‘quvchilarni boshqa madaniyatni hurmat qilishga, estetik tafakkurini kengaytirishga va stereotiplardan xoli fikrlashga o‘rgatadi. Darslarda xorijiy xalqlarning **bayramlari, liboslari, san’at asarlari**, **o‘ziga xos madaniy belgilar**, she’r va musiqalari orqali milliy-estetik ifoda vositalarini o‘rganish o‘quvchilarni til bilan birga madaniyatni ham chuqurroq idrok etishga undaydi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, ayniqsa, estetik tarbiya nuqtai nazaridan juda muhimdir. Chunki estetik qadriyatlar xalqning tarixiy-madaniy xotirasini, dunyoqarashini, ideal tushunchalarini ifodalaydi. Ular orqali o‘quvchi til o‘rganayotgan xalqni faqat lingvistik emas, balki axloqiy, san’atshunoslik va psixologik jihatdan ham tushunishga intiladi. Bu esa muloqotda empatiya, madaniyatlararo sezgirlik, tolerantlik va madaniy o‘zaro anglashuvni shakllantiradi.

Shuningdek, universitet darajasida axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirish uchun maxsus modullar, seminar-treninglar, estetik ta’limga oid fanlar va mustaqil loyihalar yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Xulosa. Xorijiy til o‘qituvchisi – bu nafaqat til bilimlarini yetkazuvchi, balki ma’naviyat, madaniyat, go‘zallik, axloq namunalarini ko‘rsatuvchi shaxsdir. Shuning uchun pedagogik ta’limda bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining axloqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ta’lim jarayonini ma’naviy-estetik tamoyillarga asoslash, o‘quv jarayoniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tatbiq etish, did bilan ishlash madaniyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shunday yondashuvlar zamirida chet tilini o‘rgatuvchi bilimli, madaniyatli, axloqiy barkamol o‘qituvchilar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Kalandarova Safiya Tokhirovna. (2025). Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.15175497

2. Qarshiyeva B.F. (2024). Xalqaro ta'lim tizimlarida kreativlik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullar. Экономика и социум, (12-2 (127)), 672-674.

3. Raupova M. (2024). Ijtimoiy axloq mezonlari hamda qadriyatlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish omillari. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, *1*(8). https://doi.org/10.5281/zenodo.14616415

Komilova Muxtaram Xotamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID ID 0009-0003-5092-2484

YEVROPA TILLARIDAGI GIDRONIM VA ANTROPONIMLARINING LINGVISTIK HAMDA MADANIY O‘ZGARISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yevropaning turli mintaqalarida keng tarqalgan gidronimlar va antroponimlarning shakllanishi va tarixiy o‘zgarish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. S. Strandberg, O. Felecan va A. Crookning ilmiy ishlari asosida lingvistik hamda madaniy xususiyatlar — jumladan, semantik va morfologik o‘zgarishlar, shuningdek, ijtimoiy kontekstga oid holatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, daryo nomlarida uchraydigan ellipsis, epeksegizis va eponimizatsiya kabi hodisalarga alohida e’tibor qaratiladi. Transilvaniyada qo‘llanilgan ismlar etnik va dini ta’sir nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Shotlandiya misolida esa ismlarni tanlashda gender, an’ana va dini normalar bilan bog‘liq tendensiyalar aniqlanadi. Mazkur ish onomastik birliklarning til, madaniyat va tarix kontekstidagi ahamiyatini yoritib beradi.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, gidronim, antroponim, semantika, tarixiy o‘zgarish, Yevropa, madaniyat, ism qo‘yish*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ГИДРОНИМОВ И АНТРОПОНИМОВ В ЕВРОПЕЙСКИХ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности формирования и исторической трансформации гидронимов и антропонимов, распространённых в различных регионах Европы. На основе научных трудов С. Странберга, О. Фелечана и А. Крука проведён сравнительный анализ лингвистических и культурных характеристик, таких как семантические и морфологические изменения, а также социальный контекст. Особое внимание уделено явлениям эллипсиса, эпексегезы и эпонимизации в названиях рек. Трансильванские имена проанализированы с точки зрения этнического и религиозного влияния. На примере Шотландии выявлены тенденции в выборе имён в зависимости от пола, традиций и религиозных норм. Работа подчёркивает значимость ономастических единиц в контексте языка, культуры и истории.*

Ключевые слова: *ономастика, гидроним, антропоним, семантика, исторические изменения, Европа, культура, имянаречение*

LINGUISTIC AND CULTURAL CHANGES OF HYDRONYMS AND ANTHROPONYMS IN EUROPEAN LANGUAGES

Abstract. *This article explores the formation and historical transformation of hydronyms and anthroponyms found across various regions of Europe. Drawing upon the scholarly works of S. Strandberg, O. Felecan, and A. Crook, the paper analyzes linguistic and cultural characteristics, including semantic and morphological changes and the influence of social contexts. Particular attention is given to linguistic phenomena such as ellipsis, epexegesis, and eponymisation in river naming. Transylvanian names are examined in relation to ethnic and religious influences, while Scottish naming practices reveal gender-based, traditional, and religious factors. The study highlights the interdisciplinary relevance of onomastic units at the intersection of language, culture, and history.*

Keywords: *onomastics, hydronym, anthroponym, semantics, historical change, Europe, culture, naming practices*

Kirish. Maqolada Yevropa hududidagi turli milliy va tillarga oid gidronim va antroponimlar lingvistik, tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilingan. O‘rganilayotgan obyektlar shakllanish manbai, semantik qatlamlari, tarixiy qatlamlardagi o‘zgarishlar va ularning hozirgi ko‘rinishlarini o‘z

ichiga oladi. Bu orqali til, tarix va madaniyat kesishmasida shakllangan nomlarning murakkab tizimi ochib berilmoqda. Shunday ekan, Yevropadagi gidronim va antroponimlarning tarixiy-madaniy o‘zgarishlarini o‘rganish lingvistikadagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan esa onomastik materiallardan foydalanish orqali tahliliy fikrlash, vizual xotira asosida taxmin qilish, interfaol xarita bilan ishlash, xulqiy va estetik tarbiya elementlarini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida o‘zbek va ingliz tillaridagi joy nomlarini qiyosiy tahlil qilishni o‘rganib, milliy identitet va dunyoqarash oralig‘idagi lingvokulturologik bog‘liqlikni anglab yetiladi.

Metodlar.

S.Strandberg shved tilshunosi, Upsala universitetining Skandinaviya tillari bo‘limi tadqiqotchisi. Uning ilmiy ishlari asosan gidronimika, ya’ni suv havzalari nomlarini o‘rganishga qaratilgan. S.Strandbergning “The Oxford Handbook of Names and Naming”[1] kitobidagi “River Names” nomli maqolasi daryo nomlarining lingvistik va tarixiy ahamiyatini tahlil qiladi. Daryo nomlari Yevropadagi eng qadimiy joy nomlari bo‘lib, ko‘plari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Daryo nomlaridagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi va semantikasi, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan ularning nomlanishini o‘zgarishi o‘rganiladi. Turli mamlakatlardagi daryo nomlarining o‘xshashligi va ularning tarqalishi tahlil qilinadi. Ushbu asarda gidronimlarning tilshunoslik va tarixiy tadqiqotlar uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Daryolar, soylar, sharsharalar va boshqalarning nomlanishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgargan. Gidronimlar tarixiy ma’lumotlar, tilshunoslik va geografik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Gidronimlar tilshunoslikda murakkab va qiziqarli tadqiqot sohasini tashkil etadi. Ular joy nomlari tarixini, til rivojlanishini va madaniy ta’sirlarni aks ettiradi. Daryo nomlari vaqt o‘tishi bilan til, madaniyat va hududiy ta’sir natijasida o‘zgaradi. Ushbu tadqiqot gidronimlarning yasalishi, tasnifi va tarixiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu borada birlamchi va ikkilamchi nom shakllanishi, shuningdek, eponimizatsiya, epeksegizis va ellipsis kabi jarayonlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Eponimizatsiya (Eponymisation) bir joy nomining boshqa joyga ko‘chirilishi. Mavjud toponimning boshqa geografik obyektga nisbatan ishlatilishi. Bu jarayon yangi hududlar va obyektlarning nomlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Daryo nomlari (gidronimlar) o‘zining tuzilishi, shakllanish usullari va tarixiy o‘zgarishlari bilan tilshunoslikda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Epeksegizis (Epexegesis) eski daryo nomiga tushuntiruvchi yoki aniqlovchi element qo‘shilishi. Devils Water: “Water” elementi qadimgi Kelt nomiga qo‘shilgan. Aiterbach: Nemischa “Bach” (jilg‘a) elementi bilan kengaytirilgan. Ellipsis toponimning ma’lum elementlarini qisqartirish yoki tushirib yuborish jarayoni. Eamont: Ehtimol, “Eamōt-ēa” (oqimlarning qo‘shilishi) nomidan qisqartirilgan. Hedesjön > Heden: Shvetsiyada uchraydigan qisqartirish holati. Fokkebæk < Fokkebrobæk: Nemis va Daniya gidronimlarida o‘rta elementlarning qisqarishi. Daryo nomlari, ya’ni gidronimlar, ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. Oddiy (uncompounded): To‘g‘ridan-to‘g‘ri yasalgan yoki ikkilamchi nom shakllanishi natijasida paydo bo‘lgan. Bunda yangi leksik birliklar shakllanadi. Birlamchi yasalish (primary formation): Yangi so‘zning hosil qilinishi. Masalan, qadimgi nemischa “aitra” (shishish) kabi sifat va otlardan foydalaniladi.

2. Murakkab (compound): Aniq (spesifik) va umumiy (generik) elementlarning birikmasidan iborat. Masalan, Blackwater (Black – aniq, Water – umumiy). Ikkilamchi nomlar ba’zan semantik o‘zgarishlar yoki qayta yasalish (back-formation) natijasida shakllanadi. Masalan, Amstel nomi boshqa obyektga nisbatan ishlatilgan va uning etimologiyasi hali ham aniq emas. Ushbu jarayonlar orqali daryo nomlarining semantik, morfologik va tarixiy xususiyatlari o‘rganiladi. Gidronimlar vaqt o‘tishi bilan turli lingvistik va fonologik o‘zgarishlarga uchragan.

1. Semantik kengayish: Nomlar yangi obyektlarga ko‘chirilishi yoki kengaytirilishi. 2. Morfologik qisqarish: Generik[2] elementlar tushib qolishi. 3. Til o‘zgarishi: Bir tilning boshqa tilga ta’siri natijasida yangi shakllarning paydo bo‘lishi. Masalan, gidronimlarning birlamchi shakllanishi yangi leksik birliklar orqali amalga oshsa, ikkilamchi shakllanish mavjud toponimlardan foydalanishni

[1] S.Strandberg. River Names. The Oxford Handbook of Names and Naming. 104-114.

[2] O’sha kitob

talab qiladi (Mosel < Maas, Donets < Don). Ushbu hodisalar daryo nomlarining lingvistik va tarixiy o‘zgaruvchanligini yoritadi. “Ikkilamchi nom shakllanishi mavjud so‘z yoki boshqa toponimning gidronim sifatida ishlatilishi bilan bog‘liq:

Misollar:

- Mosel (Moselle): Maas (Meuse, Lat. Mosa) nomidan kelib chiqqan.
- Donets: Don so‘zining kichraytiruvchi shakli sifatida paydo bo‘lgan.
- Avon: Kelt tilida “suv” ma’nosini anglatadi.

O.Felecanning “Transylvania- An Anthroponymic perspective”[1] nomli asarida Transilvaniyadagi antroponimik ya’ni inson ismlari bilan bog‘liq tarixini va mintaqadagi turli etnik guruhlarning madaniy, ijtimoiy va til o‘zaro ta’sirlarini o‘rgangan. Muallif Transilvaniya hududida yashagan etnik guruhlar (ruminlar, vengrlar, nemislar va boshqalar) tomonidan ishlatilgan ismlar orqali mintaqaning ko‘p qatlamli tarixiy va madaniy manzarasini ochib berish, siyosiy o‘zgarishlar masalan, Avstriya-Vengriya imperiyasi, Ruminiya davlati ta’siri, migratsiya va boshqa ijtimoiy hodisalarning ismlar tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatganini o‘rgangan. Shuningdek maqolada ismlar qanday qilib mintaqadagi diniy, etnik va til xususiyatlarini aks ettiradi va ular orqali insonlar o‘z identifikatsiyasini qanday ifodalaydi shular bo‘yicha ma’lumotlar bergan. Ismlar nafaqat shaxsiy ma’lumot, balki tarixiy va madaniy hodisalarning aks etishini ko‘rsatgan. Transilvaniyadagi ismlar mintaqaning ko‘p tilli va ko‘p millatli tarixini aks ettiradi, bu esa uning o‘ziga xosligi va murakkabligini ko‘rsatadi deydi olim. Siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida ba’zi ismlar yo‘qolgan yoki o‘zgargan, yangi ismlar esa mintaqaning zamonaviy tarixini ifoda etgan. U tadqiqotida Domnita Tomescuning antroponimlarni quyidagi mezonlarga bo‘lib chiqqanini yozib keltirgan.

Motivsiz antroponimlar: Ism shakli tildagi boshqa ma’noli so‘zlardan kelib chiqmagan bo‘lishi mumkin (ma’nosiz bo‘lib tuyuladi).

Motivli antroponimlar: Ismlar tildagi umumiy so‘zlardan kelib chiqadi (ma’noli asosga ega).

Gender va oila ismlari: Erkak va ayol ismlar, shuningdek, oila ismlarining tasnifi o‘rganiladi.

Diniy antroponimlar: Bibliyadagi yoki taqvimga asoslangan ismlar keng tarqalgan.

Dunyoviy antroponimlar: Xristianlikning kuchli ta’siri tufayli Transilvaniyada bunday ismlar kamroq uchraydi. Xristianlik bu hududga Rim imperiyasi davrida kirib kelgan va bu diniy ismlarning keng tarqalishiga olib kelgan. Shuningdek, Transilvaniyada ishlatiladigan ismlar diniy, ijtimoiy va lingvistik kontekstda tahlil qilinadi. Muallif Transilvaniya hududida antroponimlarning turli madaniyatlar, tillar va dinlar ta’siri ostida shakllanganini, ismlar o‘sha davr jamiyatining o‘ziga xosliklarini aks ettirganini ta’kidlaydi. Shu asosda Transilvaniyaning madaniy va tarixiy o‘zgarishlarini ismlar orqali o‘rganish maqsadiga qaratilgan. Ismlar mintaqaning ko‘p qatlamli tarixiy xususiyatlarini va etnik xilma-xilligini ochib beradi deydi o‘z tadqiqotlarida.

Natijalar.

A. Crookning Shotlandiyadagi ism qo‘yish amaliyotini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqoti “An Overview of personal Naming practices in Scotland, 1680-1840”[2] nafaqat an’anaviy ism qo‘yish tartiblarini, balki jamiyat, madaniyat va tarixiy omillarning bolalarga ism qo‘yishdagi ta’sirini ham keng ko‘lamda o‘rgangan. Asarda ism qo‘yish an’analari Shotlandiyaning turli hududlarida qanday farq qilgani ham tahlil qilingan. Qishloqlarda ism qo‘yish odatlari ko‘proq an’anaviy bo‘lgan. Oilalar ko‘pincha avlodlar davomida bir xil ismlarni takrorlashgan. Shaharlarda zamonaviy va xalqaro ta’sirlar kuchliroq bo‘lgan. Bu hududlarda oilalar bolalarga o‘ziga xos, ba’zan esa noyob ismlar qo‘yishga moyil bo‘lgan. Hududiy ijtimoiy farqlar, masalan, tog‘li hududlar (Highlands) va tekisliklar (Lowlands) o‘rtasida madaniy va diniy tafovutlar ism tanlashga ta’sir qilgan deydi olim o‘z asarida. protestant va katolik oilalar o‘ziga xos diniy ismlarni afzal ko‘rgan. Masalan, protestant oilalar Bibliyadagi ismlarni kengroq qo‘llagan. Shotlandiya cherkovining reformatsiyasi ism tanlash an’analariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Reformatsiya[3]dan keyin diniy mavzularni aks ettiruvchi yangi ismlar

[1] Felecan, O. (2021, avgust 19). Transylvania-An Antroponymic Perspective. (O. F. Alina Bughesiu., Ed.) *Names and Naming: Multicultural Aspects, I*(2021), 149-163. Retrieved Avgust 2021

[2] Crook, A. (2014, August 25-29). An Overview of Personal Naming Practices in Scotland, 1680-1840. (D. C.Hough., Ed.) *Theory and methodology. Socio-Onomastics*(4). Retrieved August 25-29, 2014, from a.crook.1@research.gla.ac.uk

[3] Reformatsiya (lotincha: reformatio o‘zgartirish, isloh qilish) - 16-asrda G‘arbiy va Markaziy Yevropada tarqalgan ijtimoiy harakat.

ommalashgan. Ba’zi ismlar cherkov arboblari yoki mahalliy diniy liderlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shotlandiyada XVIII–XIX asrlar davomida jamiyatda ro‘y bergan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ism qo‘yish amaliyotlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shaharlashuv va sanoatning rivojlanishi yangi madaniyatlar va odatlarning kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Bu ism tanlashda xalqaro tendensiyalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Shotlandiyadan boshqa mamlakatlarga imigratsiya qilish (masalan, AQSh yoki Kanada) yoki boshqa hududlardan kelgan odamlar ism tanlash an’analarini boyitgan. Shotlandiyadagi siyosiy hodisalar, qo‘zg‘olonlar, ba’zi oilalarda milliy yoki siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ismlarni tanlashga sabab bo‘lgan. Ba’zi hollarda ism tanlashda qarindoshlar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Masalan, qaysi boboning nomi qo‘yilishi kerakligi haqida bahslar bo‘lgan. Ba’zi oilalar esa ismning tovushi yoki mazmuniga qarab tanlov qilgan. O‘sha davrda moda bo‘lgan yoki musiqiy jihatdan yoqimli bo‘lgan ismlar ommalashgan. Oilalar farzandlariga boshqalardan farq qiladigan noyob ism qo‘yishga harakat qilgan. Shu bilan birga ism tanlashda sezilarli gender farqlar mavjud bo‘lgan. Ko‘pincha ota tomonidan o‘tadigan avlodlar nomi takrorlangan. Bu, ayniqsa, oilaning merosxo‘r o‘g‘illariga taalluqli bo‘lgan. Qizlarga ko‘proq ona tomoni bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar berilgan. Shuningdek, qizlarga go‘zal yoki yumshoq ma’noga ega bo‘lgan ismlar afzal ko‘rilgan.

Xulosa va tavsiyalar.

Ushbu maqolada Yevropaning turli hududlarida uchraydigan daryo nomlari (gidronimlar) va ismlarning (antroponimlar) shakllanishi, tarixiy o‘zgarishlari va madaniy-ma’naviy kontekstda o‘zaro aloqadorligi tahlil qilindi. S.Strandberg, O.Felecan va A.Crookning ilmiy ishlari asosida gidronim va antroponimlar orasidagi semantik, morfologik hamda ijtimoiy xususiyatlar o‘rganildi. Daryo nomlaridagi tarixiy qatlamlilik, ellipsis, epeksegizis va eponimizatsiya kabi lingvistik jarayonlar ko‘rsatib berildi. Transilvaniyadagi antroponimlar etnik va dini ta’sirlar bilan bog‘liq holda o‘zgarishga uchragani tahlil qilindi. Shotlandiya misolida esa ism tanlashdagi ijtimoiy-diniy me’yorlar, genderga oid tendensiyalar yoritildi. Maqola onomastik birliklarning til, madaniyat va tarix kesishmasidagi ahamiyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Felecan, O. (2021, avgust 19). Transylvania-An Antroponymic Perspective. (O. F. Alina Bughesiu., Ed.) *Names and Naming: Multicultural Aspects, I*(2021), 149-163. Retrieved Avgust 2021

2. Crook, A. (2014, August 25-29). An Overview of Personal Naming Practices in Scotland, 1680-1840. (D. C.Hough., Ed.) *Theory and methodology. Socio-Onomastics*(4). Retrieved August 25-29, 2014, from a.crook.1@research.gla.ac.uk

3. S.Strandberg. (2016) River Names. The Oxford Handbook of Names and Naming. 104-114.

4. Komilova M.X. (2025) Analysis of Literary and Historical Approaches to Onomastics International Journal of Pedagogics, 31-may, 360-361. DOI 10.37547

5. Komilova M.X. (2024) *O‘zbek va ingliz onomastikasida antroponimlarning o‘rganilishi*. – In: *Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions, and Development Prospects*, 26-aprel, 208–209-betlar.

6. Komilova M.X. (2024) *O‘zbek va ingliz antroponimlarining chog‘ishtirish masalalari*. – *Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal*, 5-son, 285–287-betlar.

7. Komilova M.X. (2024) *The importance of the study of onomastic units in the learning of foreign languages*. – *International Journal of Scientific Trends (IJST)*, December, 3(12), 168–170-betlar.

Mukhtorova Gulasal Muhammadovna
Master's Student Bukhara International University,
Saidov Khayrulla Shavkatovich
Associate professor (PhD) of English linguistics Department
Bukhara State University

THEORETICAL AND PRACTICAL DESCRIPTION OF ADVERTISING DISCOURSE

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of advertising discourse in English and Uzbek, focusing on its functional roles, linguistic features, and cultural influences. Through comparative analysis, the study highlights similarities and differences in the use of abbreviations, slogans, and persuasive strategies within advertising texts in both languages. The research identifies challenges in adapting advertisements across linguistic and cultural boundaries and emphasizes the importance of culturally sensitive transcreation for effective communication. Findings contribute to a deeper understanding of how language and culture shape advertising discourse, offering insights for advertisers, linguists, and cross-cultural communicators.

Keywords: *advertising discourse, English language, Uzbek language, abbreviations, cross-cultural communication, persuasion, linguistic analysis, transcreation, cultural influence, discourse analysis.*

REKLAMA DISKURSINING NAZARIY VA AMALIY TAVSIFI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi reklama diskursining nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi. Asarda uning funksional roli, lingvistik xususiyatlari va madaniy ta'siri tahlil etilgan. Qiyosiy tahlil orqali ikkala tildagi reklama matnlarida qisqartmalar, shiorlar va ishontiruv strategiyalarining o'xshashliklari hamda farqlari yoritib beriladi. Tadqiqot reklama mazmunini til va madaniyat chegaralaridan o'tkazishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi va samarali kommunikatsiya uchun madaniy jihatdan moslashtirilgan ijodiy tarjima (transkreasiya) zarurligini ta'kidlaydi. Natijalar reklama diskursini shakllantirishda til va madaniyatning o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va bu borada reklama sohasi vakillari, tilshunoslar hamda madaniyatlararo muloqot bo'yicha mutaxassislarga foydali ma'lumotlar beradi.*

Kalit so'zlar: *reklama diskursi, ingliz tili, o'zbek tili, qisqartmalar, madaniyatlararo muloqot, ishontirish, lingvistik tahlil, transkreasiya, madaniy ta'sir, diskurs tahlili.*

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ РЕКЛАМНОГО ДИСКУРСА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты рекламного дискурса на английском и узбекском языках с акцентом на его функциональные роли, лингвистические особенности и культурные влияния. Посредством сравнительного анализа в исследовании выявляются сходства и различия в использовании аббревиатур, слоганов и убеждающих стратегий в рекламных текстах на обоих языках. Работа также подчёркивает трудности адаптации рекламы при переходе через языковые и культурные границы и акцентирует важность культурно чувствительной транскреации для эффективной коммуникации. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию того, как язык и культура формируют рекламный дискурс, и предоставляют ценные сведения для рекламодателей, лингвистов и специалистов по межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *рекламный дискурс, английский язык, узбекский язык, аббревиатуры, межкультурная коммуникация, убеждение, лингвистический анализ, транскреация, культурное влияние, дискурсивный анализ.*

Introduction. Advertising discourse is a specialized form of communication designed to promote products, services, ideas, or brands to target audiences. It combines linguistic, stylistic, and persuasive elements to influence consumer behavior and create brand awareness. Advertising discourse plays a crucial role in modern communication as it not only informs but also motivates and shapes public perceptions, making it an essential tool in the commercial and social spheres.

In both English and Uzbek contexts, advertising discourse serves similar fundamental functions but operates within different cultural and linguistic frameworks. English advertising often reflects globalized marketing trends, utilizing concise, catchy language and internationally recognized abbreviations to reach diverse audiences. Uzbek advertising discourse, meanwhile, balances traditional cultural values with modern marketing strategies, adapting language and stylistic devices to resonate effectively with local consumers.

This article aims to provide a comprehensive theoretical and practical description of advertising discourse in English and Uzbek. By examining its linguistic features, functions, and cultural influences, the study seeks to highlight both the shared characteristics and unique traits of advertising discourse in these two languages. Understanding these aspects will contribute to more effective cross-cultural marketing communication and offer insights into the dynamic interaction between language and advertising.

Theoretical Description of Advertising Discourse. Advertising discourse is a distinct form of communication that aims to promote products, services, or ideas to a target audience through carefully crafted language and imagery. It is characterized by its persuasive intent, strategic use of rhetorical devices, and adaptation to specific media formats, such as print, television, or digital platforms. Unlike everyday conversation, advertising discourse is highly structured to capture attention quickly, create memorable messages, and motivate consumer action. Key features include brevity, clarity, emotional appeal, and a strong focus on the audience's needs and desires. This discourse operates not only to inform but also to shape perceptions and encourage consumer loyalty through repeated exposure and brand association.

Several discourse analysis frameworks provide insight into how advertising discourse functions:

- **Pragmatics** focuses on how context influences meaning, highlighting how ads use implicature, speech acts, and deixis to create persuasive messages beyond literal meanings. For example, a phrase like "Limited offer" functions pragmatically to evoke urgency and exclusivity.
- **Semiotics** examines signs and symbols within advertisements, revealing how visual and textual elements convey cultural meanings and emotional associations, often through iconic or symbolic imagery. This helps advertisers craft messages that resonate on multiple levels with audiences.
- **Stylistics** analyzes the linguistic style and choices – such as tone, diction, and syntax – that evoke particular feelings or attitudes. Together, these theories allow for a comprehensive understanding of how advertising discourse achieves its communicative goals through layered meanings and stylistic strategies.

Advertising discourse performs several essential functions. The primary function is *persuasion*, aiming to convince consumers to choose a product or service by appealing to their needs, desires, or values. Ads use various persuasive appeals: logical (logos), emotional (pathos), and ethical (ethos). The second function is *information dissemination*, where ads provide details about the product's features, price, or availability. Beyond persuasion and information, advertising discourse often includes *entertainment* elements, such as humor or storytelling, to engage audiences and increase message retention. Finally, it serves a *brand-building* role, creating and reinforcing a brand's identity, reputation, and emotional connection with consumers, thereby fostering loyalty and long-term consumer relationships.

The language used in advertising discourse is highly specialized and strategic. Abbreviations and acronyms (e.g., "4G," "VIP") are commonly employed to condense complex information and create modern, appealing images. Slogans serve as memorable, catchy phrases encapsulating a brand's core message. Emotional appeals permeate advertising language, utilizing words that evoke feelings such as happiness, security, or excitement. Repetition of key terms or phrases ensures the

message remains salient in consumers' minds. The language tends to be simple and direct to maximize accessibility and comprehension, often including calls to action like "Buy now," "Call today," or "Limited time offer" to encourage immediate consumer response. These features combine to create effective and engaging advertising messages.

Uzbek Advertising Discourse Example. A local Uzbek mobile operator's billboard reads: *"Yangi 4G xizmatlari bilan tezkor internetni sinab ko'ring! Maxsus takliflar! Bugun qo'ng'iroq qiling!"*(Translation: "Try fast internet with new 4G services! Special offers! Call today!")

Analysis:

• Use of Abbreviation: The term *"4G"* denotes the "fourth generation" of mobile network technology. Like in English advertising, this abbreviation is concise and immediately recognizable, effectively communicating a key technical feature without lengthy explanation.

• Stylistic Features: The ad employs short, direct sentences using the imperative mood (*"sinab ko'ring"* – try, *"qo'ng'iroq qiling"* – call), which serve as clear calls to action. This approach creates urgency and encourages the audience to engage immediately.

• Functional Role: The abbreviation *"4G"* efficiently conveys a message of advanced technology, appealing to consumers' desire for speed and modernity. The straightforward language supports quick comprehension, aiming to attract customers efficiently in a competitive market.

English advertising discourse sample: *"Buy now and get 20% OFF! Limited time offer – don't miss out!"*

Analysis:

• Use of Abbreviations: The abbreviation *"OFF"* is commonly used in sales promotions to indicate a discount. It is concise and immediately understood by the audience.

• Stylistic Features: The use of imperatives (*"Buy now," "don't miss out"*) serves to push the consumer towards quick decision-making. The phrase *"Limited time offer"* creates urgency and scarcity, common persuasive tactics in advertising.

• Functional Role: This ad's language is direct and compelling, designed to inform about a discount and persuade consumers to act quickly.

Both English and Uzbek advertisements utilize globally recognized abbreviations such as *"4G"* and *"5G"* to succinctly communicate technological advancements. The style in both languages emphasizes clarity and includes strong calls to action, although the exact tone and phrasing reflect cultural communication preferences – Uzbek ads tend to be slightly more formal yet direct. These abbreviations function dually to inform the audience and project an image of modernity, thereby enhancing the advertisement's persuasive power.

Despite these similarities, there are notable differences shaped by linguistic structure and cultural context:

• Tone and Formality: English advertising discourse often adopts a more casual, conversational, or playful tone, appealing to individualism and spontaneity. In contrast, Uzbek ads tend to maintain a more formal and respectful tone, reflecting cultural values that emphasize politeness and community. Uzbek ads may avoid overly direct or aggressive persuasion to align with local communication norms.

• Use of Language: English ads frequently include slang, idiomatic expressions, and wordplay to catch attention and entertain. Uzbek advertising language tends to be more literal and less idiomatic, aiming for clarity and respectfulness. Uzbek also often incorporates culturally specific references or proverbs to connect with local values.

• Abbreviation Adaptation: While some abbreviations like "4G" or "VIP" are globally understood, other abbreviations or acronyms may not have direct Uzbek equivalents, requiring adaptation or explanation. Uzbek ads sometimes use loanwords or hybrid forms to bridge this gap, which can affect the natural flow of the discourse.

• Cultural Sensitivity: Direct translation of persuasive techniques may not work if cultural values differ. What is humorous, appealing, or motivating in English might be seen as inappropriate or ineffective in Uzbek. For example, aggressive sales language common in English might be perceived as rude in Uzbek contexts.

